засчитывалась победа. После окончания поединка победитель должен был протянуть руку побеждённому и помочь ему встать. Если противостояние родов или аила было сильным (хотели спровоцировать дальнейшие распри или даже войну), победитель перешагивал через голову побеждённого соперника (баштан аттады), чем наносил тяжёлое оскорбление роду, аилу и борцу, которые немедленно объявляли войну или устраивали барымтуу – на виду у всех угоняли табуны лошадей. Есть сведения, что в этих соревнованиях успешно участвовали борцы 50 лет и старше. [5. оп. 1, д. 12, № 54]. Существовал обряд балбан көтөрүү, когда участники поединка поочерёдно приподнимают друг друга в знак уважения. Затем победитель, воздев руки к небесам, выкрикивая ураан (боевой клич) своего рода, обходил зрителей, болельщики поднимали его на руки и, так же выкрикивая ураан, несли в свой лагерь. Изучение кыргызской поясной борьбы имеет не маловажное научно-практическое значение. [6. С. 60].

В настоящее время күрөш является национальным видом спорта. С 1971 г. включён в реестр Единой спортивной классификации, разработаны единые правила, за основу взят кыргыз күрөш, где разрешены зацепы ног. В республике существуют два вида борьбы ферганская борьба (больше известно как лейлекская борьба и распространена в южных регионах республики) и кыргыз күрөш (распространена в северных регионах республики). [1. С. 4].

Аркан тартыш или ит тартыш (перетягивание каната) – эта игра, выявляющая силу и ловкость, проводилась во время крупных тоев (торжеств, праздников) и аш (тризн, поминок). [6. С. 54]. Принимали участие, как мужчины, так и женщины, иногда в состязаниях участвовали старики и старухи. Судья соревнований выдавал им кыл аркан – волосяной аркан или кендир жип – конопляную верёвку длиной до 10 м. [7. С. 373]. Концы связывались узлом, образуя кольцо. Цель забавы заключалась в том, чтобы перетянуть соперника на свою сторону. На крупных торжествах или поминках участники состязания выходили от имени рода, племени, в кожаных штанах, босиком или лёгкой обуви, обнажённые по пояс. Брали в руки аркан, надевали на шею и пропускали под мышками. Встав спиной друг к другу, старались перетянуть аркан. Ровно на середине от равноудалённых соперников намечалась линия и перевязывалась лентой. По положению этой ленты определялся победитель. Бытовал другой вариант, когда участники игры надевали аркан на шею и пропускали его между ног. Перетягивание шло на четвереньках, что добавляло больше веселья и забавляло зрителей, особенно когда один из игроков падал, и его затаскивали за отмеченную линию. Существовала командная игра, когда перетягивание каната происходило между группой людей одного или нескольких родовых объединений. Эту забаву можно встретить и у камбоджийского народа. Называется она – timpuro. В игре принимают участие 8 мужчин и 10 женщин, перетягивание идёт между ними. В Таиланде аналог этой игры – check kaa yeo, принимают участие от 16 до 20 человек. В Индии – jaggta, в Корее – gezuldanggigi. [8. С. 1-8].

Следующий вид традиционной игры народа, ставший национальным видом спорта, это тогуз коргол. [6. С. 100]. В тогуз коргол принимают участие два человека. Обязательным условием является участие калыс киши (судья), который совместно с игроками оговаривает условия, правила и призы победителю. Доска имеет овальную форму, размером 50 на 25 см. С каждой стороны (по 9 на участника) имеются лунки диаметром 5 см и глубиной 3 см, в середине выдалбливаются две лунки диаметром 10 см и глубиной 3 см, также по одной на каждого игрока. Участники игры раскладывают по 9 камешков в свои 9 лунок. Названия лунок отражают кочевой быт народа: первая лунка называетсся ат өтпөс (конь не пройдёт). Вторая лунка называется текилдек уй (быстрая корова). Третья лунка имеет название далы (лопатка). Четвёртая лунка называется көк моюн (серая шея). Пятая лунка бел уй (коровий хребет). Шестая лунка называется жаман уй (невзрачная корова). Седьмая

лунка эки тиш уй (двузубая корова). Восьмая лунка төл уй (приплодная корова), и девятая лунка куйрук уй (хвостатая корова). Как видно из приведённых названий большинство связано с коровой. В игре, по пересчёту, если в каждой лунке одного игрока имеется девять катышков, а лунок девять. И второй игрок имеет такое же количество катышков на двоих приходится 162 катышка, это отражение в народном фольклоре: «Эки атасы бар, Он сегиз энеси бар, Бир жүз алтымыш эки баласы бар». «Два отца у него, Восемнадцать матерей, а детей - Сто шестьдесят два». В эпосе «Манас» также имеются строки отражающий эту интеллектуальную игру.

«Жалпак жыгач чаптырып	«Из дерева доску срубив
Чараларын оюшуп,	Ровные лунки вырезав,
Бир жагына бир тогуз,	Девять, с одной стороны,
Бир жагына бир тогуз	Девять, с другой стороны.
Ъй чыгырып коюшуп	В центре две лунки вырезав
Ою менен олтуруп	По своему желанию,
Ташын салып толтуруп	Шариками лунку наполнив
Тогуз коргол ойноду».	В тогуз коргол заиграл». [4. С. 234].

Методом жеребьёвки определяется игрок, начинающий ход игры. Ход делается против часовой стрелки. В современных правилах, применяемых на состязаниях в Кыргызстане, начиная ход в лунке оставляют один камешек. В исследованиях венгерского историка Алмаши, игроки берут из любой своей лунки все имеющиеся камешки, и, начиная с соседней, раскладывают по одному камешку в лунку. Когда в лунке окажется чётное число камешков, игрок перекладывает их как выигрышные в свой большой казан. Выигрывает тот, кто положил в свой казан наибольшее количество камешков.

Схожая с тогуз коргол, бытует ещё одна его разновидность. По названию отражающая быт народа уйум туду (корова отелилась), и адаптированная к кочевым условиям жизни. [6. С. 110]. Игра проходила на открытом воздухе, для этого выкапывали небольшие лунки по пять на каждого игрока, и две большие лунки, где собирали выигрыш. Аналоги игры в тогуз коргол и уйум туду можно встретить у многих народов. Из чего можно сделать вывод о заимствованном характере игры. На Филлипинах такая игра называется sungka (сунгка), где используют доску из 16 маленьких лунок, по 8 на каждого игрока, и по 1 большой лунке, куда складывают выигранные камешки. В игре используется 98 камешков, по 49 штук на каждого игрока. Во Вьетнаме игра называется – pebble collection game. На доске имеется 10 маленьких лунок, по пять на каждого игрока и две большие лунки. Всего используется 24 камня по 12 на игрока. В Малайзии доска состоит из 10 лунок по 5 на игрока и 2 больших лунок, используются 108 фруктовых косточек. В Индонезии игра называется – gonlak, созвучная с филлипинской игрой, также используют 98 камней и столько же, больших и малых лунок. В Камбодже это игра называется – ibeng bay khum. Доска состоит из 8 маленьких лунок, по 4 каждого игрока и по 2 больших лунок. Используют 42 камешка, по 21 на каждого игрока. Такой вид игры распространён и в Камеруне, используется доска с 24 маленькими лунками по 12 на каждого игрока, и по 2 большие лунки. В игре используются фруктовые косточки. В Омане игру называют хавалис (hawalees), где используют доску, состоящую из 14 лунок, по 7 на каждого игрока, и также по две лунки. [8. С. 1-9].

Игра ордо относится к взрослым развлечениям, цель разными способами выбить все альчики из круга [6. С. 129]. В источниках встречается ещё одно название игры, которое несёт в себе, скорее диалектическое произношение мөрөй ат. Главная цель игры, выбить альчик расположенный в самом центре круга, которого называли – хан. При выбитие этого альчика игра заканчивалась. Данный альчик отличался от других альчиков размерами или цветом. В более позднее время вместо альчика использовали жамбы (слиток серебра) или монету. Это развлечение упоминается в эпосе «Манас»: «Большой круг в девяносто ступней, как следует начертив, четыреста альчиков в самом центре поместив. Все сорок богатырей –

судья у них Кыргыл, шумно играли они» . В источниках упоминается место для игры в ордо сары короо (старый загон). Место не использованного овечьего загона, хорошо подходило для игры, утрамбованная, ровное и без проросших растений. Возможно, могли играть и на сары журт – место, где раньше стоял аил.

Игра могла носить родовой и межродовой характер, или один журт (поселение) играл с другим журтом. В данном случае обговаривались условия условия и правила игры. Определялись размеры призов. Встреча участников игры их быт, ночлег, пища. Фураж для лошадей, на которых они прибывали. Количество игроков могло доходить до 50 человек – по 25 в каждой команде. В игре участвовали по два судьи с каждой команды и по 3 человека, которые занимались сбором альчиков и других предметов игры.

Игра могла длиться три и более дней. На ровной площадке чертили круг, расстояние от центра круга составляло 35 таманов. Все четверо судей садились рядом и из удобного положения наблюдали за игрой. Центр круга назывался борбор (ставка) где, выкопав небольшую ямку располагали «хана» (монету из серебра, меди или кости). Вокруг него методом маң, эки чүкөнүн маңы (промежуток между двумя поставленными на кон альчиками), по 5 альчиков на каждого участника, стороной – бога выставляли 249 альчиков. После этого судьи вырезали из чия или дерева палочку длиной в два указательных пальца, и толщиной в палец, которую помещали в центр круга.

Упай, старинная народная игра с применением альчиков. Признанная как национальный вид спорта, как в республике, так и за рубежом не получила дальнейшего развития. [10. С. 117]. Играется в домашних условиях. [6. С. 132]. Для игры берут 16–20 басымов (комплектов) альчиков. Выбирается один альчик, отличающийся от других цветом или размерами, который выполняет роль «хана». Можно играть вдвоём или по две команды. Рассаживаются кругом на кошме или лужайке. Начинающий игрок берёт все альчики в ладони, укладывает в центре «хана» и рассыпает их на ковёр. Первый удар производится по «хану». При попадании в цель, игрок продолжает игру, в случае неудачи – в игру вступает следующий. Удары производятся одинаковыми по положению альчиками, т.е. айкуром бьют айкур, тавой – тава и т.д. Игрок, нарушивший эти условия, лишается удара. Альчик, которым бьют, называется ок, а альчик по которому бьют – кийик. Удар наносится только одним, чаще указательным, пальцем. Начав игру и выбив «хана», игрок держит его в свободной руке или кладёт отдельно: смешивать «хана» с другими альчиками в одну кучу нельзя – игрок лишается удара. После этого он обязан выбить три альчика подряд. Альчики нужно выбивать правой рукой. Выбитые альчики игрок собирает в эту же руку, перекладывать их в другую руку он может, только выбив все три альчика. Таким образом, надо набрать половину всех альчиков, тогда «хан» считается выигранным. В противном случае – и «хан» и альчики возвращаются на кон. Бить два раза подряд одним ок не разрешается, но по нему бить не запрещается. Игрок теряет право удара, если: ок задел после удара ещё и другой альчик, после попадания забрал по ошибке не кийик, а ок; задел чем-либо другой альчик; удар нанесён по альчику, который лежит не плотно; после удара ок ляжет на кийик; кто-либо из партнёров дотронется до выигранных им альчиков. Советоваться с партнёрами запрещается. Если проигравшая команда наберёт хотя бы один басым альчиков, игра может быть продолжена. Тогда другая команда выкладывает столько же альчиков и игра продолжается вновь. Начинает игру команда, которая выбила «хана».

Среди многообразия народных игр, издревле бытует незатейливая игра в перетягивании различных предметов домашней утвари, которая не требует огромных затрат, но по азарту и динамике не уступает многим национальным видам спорта. Эта забава имеет разнообразные корни трудового происхождения: у земледельческих народов известно под перетягиванием сохи, сноп, у кочевников заарканивание и затягивание животных, также известно, что посредством перетягивания через доску, кочевники обрабатывали шкуры

животных. Рыбаки тянули невод. В военных ристалищах стягивание было особым приёмом достижения победы.

Если коснуться религиозных корней этого вопроса, то в первобытном мировоззрении человека существовали два мира, которые тянули в разные стороны, в сторону добра или зла, зависимые от его земных деяний. Жители морских побережий говорили, «утянуло море». Лесные жители, связывали с различными лешими и кикиморами, которые живут в лесу и тянут в лес. Степняки боялись бесконечной степной дали, как и жители пустынь, бесконечных песчаных далей.

Одним из древнейших свидетельств этой забавы, являются игровые сюжеты в перетягивании, обнаруженные на стенах гробницы Мерораку в Сахаре. Среди письменных свидетельств, можно отметить легенды о викингах, датируемые 1000 г. н.э., участвующих в так называемых «Играх силы», которые перетягивали шкуры животных. В XIV столетии в Англии и Франции, были популярны перетягивания каната. Японские художники XVIII века, создали немало живописных работ, изображающих «кубихи» перетягивание шеями, «кубипики» борьбу шеями. Это состязание изображалось в представлениях театра Кабуки, как единоборство человека и демона. Вначале XX века, перетягивание было олимпийским видом спорта, где команды из 8 человек состязались в двух весовых категориях, до 640 кг и до 720 кг.

Перетягивание как ритуал известно издревле, и в настоящее время оно ещё бытует у многих народов: в Японии, Китае, Бирме, Конго, Америке, Океании, Новой Гвинее, Новой Зеландии, на Гаваях. Перетягивают обычно канат, аркан, палку, доску или шкуры животных определённой длины. Соперничество рассматривается как символ борьбы добра и зла, проводимых в погребальных церемониях, либо в молениях за хорошую погоду, когда две команды, представляющие засуху и дождь, сталкивались между собой. Например, у эскимосов во время весенних фестивалей, перетягиваются люди рождённые зимой-осенью и люди рождённые весной-летом. По тому какая команда побеждала, предсказывали хорошее или ожидали худшее.

Орочоны во время фестиваля Гулутмута (Гунломта), что означает «Бог огня», перетягиваются шеей, перетягивают канат, перетягивают палку, где принимает участие всё население от мала до велика. Женщины в состязаниях используют мягкие подстилки, красочные шарфы с пышным бантом, яркие красочные одежды.

Перетягивание как забава у разных народов имело разнообразные формы. Зависело от количества участников, предмета, который перетягивают, по положению участников в перетягивании. У каждого народа своё название, например: timpiro – в Камбодже, checkkaayeo – в Таиланде, jaggta – в Индии, gezuldanggigi - в Корее и т.д. [8. С. 1-9]. В Афганистане перетягивают доску, в Корее дети тянут, друг друга образуя живую цепь, эскимосы перетягивают короткий канат в положении сидя, также они перетягивают заострённую с двух сторон, обмазанную в грязи короткую палку, напоминающую рыбу. Эскимосы также перетягиваются головами (head-pull), борцы ложатся животами на пол и надевают бандаж на головы. Побеждает тот, кто сумел сорвать бандаж с головы соперника. Это борьба бытует у якутского народа, (савэлнаталехсели, сапалийэрталтыюнтантупкели, сапалнтталексетеентэх), у русского народа под названием «собачья борьба». Дауры перетягиваются шеей, этот вид игры встречается у японцев и корейцев.

У кыргызского народа, создавшего свою уникальную игровую культуру, также имеются состязания в перетягивании различных предметов. Исследования, проводимые в районах компактного проживания кыргызов дали материалы по этому виду забав. В настоящее время определены развлечения:

Тартыш, это вид состязания не требует предмета для перетягивания. Два соперника садятся лицом к лицу, опираясь ступнями ног, затем взявшись за руки, стараются перетянуть или свалить соперника. Это вид игры встречается повсеместно, во всех регионах

Кыргызстана.

Аркан тартыш, имеет два варианта: ит тартыш или бука тартыш, а также хорошо распространённый повсеместно, командное перетягивание аркан тартыш. Эта игра, выявляющая силу и ловкость, проводилась во время крупных тоев (праздников, торжеств) и аш (поминки, тризны). В состязании принимали участие, мужчины и женщины. Иногда принимали участие старики и старухи. Калыс киши (судья) выдавал кыл аркан или кендир жип (конопляную верёвку), длиной до 10 м. На крупных состязаниях команды выходили от имени рода, племени. В забаве бука тартыш, участники игры два человека, в кожаных брюках, с голым торсом, встав спиной друг другу, одевали аркан на шею, пропускали под мышками и таким образом старались перетянуть или свалить соперника. Игра ит тартыш, различалась только в том, что аркан одев на шею пропускали между ног и становились на четвереньки, что добавляла веселья и юмора. [6. С. 54].

Перетягивание копья, это фаза состязания эр сайыш, когда участник ристалища после столкновения смог схватить пику соперника, и таким образом старается свалить соперника с лошади или вырвать его копьё. [6. С. 46].

Встречается детская забава коон узмой, это возможно одна из фаз многочисленных детских игр. Проигравшая команда, согнувшись встаёт у дерева, столба или забора, первый обхватывает предмет, где стоит, остальные участники, обхватив друг друга за талии встают в цепочку. Каждый игрок победившей команды подходит к цепочке и старается оторвать соперника. [6. С. 90].

Колго тушмой, эта другая забава в перетягивании, чертится круг, одна команда находится в круге, другая снаружи, стараются одни вытащить из круга соперника, другие затащить в круг соперника. Эти забавы хорошо описаны в специальной и художественной литературе. [6. С. 88].

Тошок талашуу, это забава разыгрывалась во время брачных церемоний, и входил в так называемую серию – кыз оюн, в источниках встречается также название – кыз жигит оюн. Соперники делились на два лагеря, женская - это сторона невесты и мужская, со стороны жениха. Цель игры заключалась в том, что мужская сторона должна была разорвать аркан, один конец которого закреплялся, вбивался кол на глубине одного метра, на этот кол крепко привязывался аркан, его засыпали землёй и женская сторона встав поперёк канавки, вооружившись жгутами, плетью, водой с навозом, пеплом старалась защитить аркан. Мужчины должны были разорвать или вытащить аркан. [6. С. 104].

Жолук тартыш, в источниках встречается информация состязания. Два соперника садятся напротив друг друга, упираются ступнями ног, берут пояс, платок или жгут, обматывают один конец вокруг запястья руки, другой рукой придерживают платок и таким образом стараются перетянуть соперника.

Улак тартыш, в этом состязании используют лошадь, которая хорошо чувствует игру, и сама включается в процесс игры. Более древнее название этого состязания – көк бөрү. В перетягивании используются туши - ягнёнка, барана, козла или телёнка. Другой вид состязаний мало описан в литературе, но встречается в фольклорных материалах и у информаторов. [6. С. 13].

Тери тартыш, информацию как вида производственной деятельности, и в тоже время как забаву, дали Пиратова Назира, 1938 г.р., жительница села Мамажан, Карасуйского района, Ошской области. [9. С. 175-183]. Для обработки кожи использовали жады, станок для резки соломы, сена, который состоял из заострённой доски в горизонтальном положении, закреплённый с двух сторон подставками. Через эту доску, посредством перетягивания кожи в сидячем положении, два человека обрабатывали кожу, для дальнейшего использования. Во время досуга перетягивая кожу, люди забавлялись.

В заключение статьи, следует сказать, что традиционные игры и развлечения, также

проходят свои этапы развития. Зародившись в древнюю эпоху, на современной стадии, согласно диалектическому развитию, некоторые народные игры стали национальными видами спорта. Разработаны соответствующие правила, определены количество участников. Признанные на международной арене, такие виды народных забав, как борьба, кок бору, тогуз коргол, в соответствии с международными договорённостями и выработанными правилами приняли новый облик. Наряду с традиционными видами борьбы, чуйская (северный вариант) и лейлекская (южный вариант) разработаны правила нового вида борьбы называемого алыш.

Конное состязание кок бору, также с международными стандартами видоизменилась в сторону гуманизации и бережного отношения к животному. В настоящее время разработаны положения, где животное заменяют его муляжом.

Литература.

1. Единая спортивная классификация Кыргызской Республики на 2021-2024 гг. – Бишкек, 2021. – 256 с.
2. Хёйзинг Й. Homo ludens: (пер. с нидерландского) / Й. Хёйзинг, Общ. Ред. Г.М. Таризян. – М.: Прогресс, 1992. – 464 с.
3. Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: Рус. яз., 1991.– 915 с.
4. Манас: Киргизский героический эпос. Кн. 1.– М.: Наука, 1984. – 544 с.
5. Центр. гос. арх. Кырг. Респ. Фонд 105, оп. 1, д. 12, № 54.
6. Касен А. Кыргызские игры и развлечения. – Бишкек: Илим, 2004. – 144 с.
7. Юдахин К.К. Киргизско-русский: В 2-х кн.– М.: Сов. энцикл., 1965. – 973 с.
8. The Ninth International Conference on Traditional Field Play and Games. – Tokyo, 2005. С. 1-8.
9. «Элдуйно-Этномир». Кн. 3. – Ош, 2025. – 300 с.
10. Тыныбеков А. Кыргыз улуттук оюндары б/п. 1946. Рукоп. фонд Нац. АН Кырг. Респ., инв. № 134 (к+342).

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA DON SANOATI SOHASIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (1994–2000 YILLAR)

Nurullayeva Gulnora,
Turon universiteti tarix fani o`qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida (1994–2000 yillar) don sanoatida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Don sanoati mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutib, oziq-ovqat xavfsizligi va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy rol o‘ynadi. Islohotlarning ijobiy va salbiy tomonlarini qisqacha yoritib, ularning O‘zbekiston don sanoatining rivojlanishidagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so`zlar: Don sanoati, islohotlar, qishloq xo‘jaligi, xususiylashtirish, modernizatsiya, eksport salohiyati, oziq-ovqat xavfsizligi, texnologik yangilanish, sifat nazorati, bojxona siyosati, soliq tizimi, xalqaro bozorlar, qayta ishlash, saqlash tizimi.

РЕФОРМЫ В ЗЕРНОВОЙ ОТРАСЛИ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (1994–2000 ГОДЫ)

Нуруллаева Гульнара,
Преподаватель истории туронского университета

Аннотация: В статье анализируются реформы, проведенные в зерновой отрасли в первые годы независимости Узбекистана (1994–2000 гг.). Зерновая отрасль играет важную роль в экономике страны, способствуя обеспечению продовольственной безопасности и расширению экспортных возможностей. В нем кратко освещаются положительные и отрицательные стороны реформ, подчеркивается их значение в развитии зерновой отрасли Узбекистана.

Ключевые слова: Зерновая отрасль, реформы, сельское хозяйство, приватизация, модернизация, экспортный потенциал, продовольственная безопасность, технологические инновации, контроль качества, таможенная политика, налоговая система, международные рынки, переработка, система хранения.

REFORMS IN THE GRAIN INDUSTRY IN THE FIRST YEARS OF INDEPENDENCE (1994–2000)

Nurullaeva Gulnora,
Lecturer in History, University of Turon.

Abstract: The reforms implemented in the grain industry in the first years of Uzbekistan’s independence (1994–2000) are analyzed. The grain industry played an important role in the country’s economy, playing a key role in expanding food security and export opportunities. The article briefly highlights the positive and negative aspects of the reforms and emphasizes their importance for the development of the Uzbek grain industry.

Keywords: Grain industry, reforms, agriculture, privatization, modernization, export potential, food safety, technological innovation, quality control, customs policy, tax system, international markets, processing, storage system

Kirish: Mustaqillikdan oldingi va keyingi don sanoatining holati. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgani mamlakat hayotida tub burilish yasadi. Mustaqillik bilan birga, iqtisodiyotning barcha sohalarini, xususan, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatini mustaqil boshqarish va rivojlantirish vazifasi yuzaga keldi. Don sanoati mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda, shuningdek,

eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, 1994–2000 yillarda don sanoatini modernizatsiya qilish, samaradorlikni oshirish va bozor iqtisodiyotiga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida don sanoatida olib borilgan islohotlar, qabul qilingan qonun va qarorlar, ularning amaliy natijalari va yuzaga kelgan muammolar keng qamrovda ilmiy tahlil qilinadi.

Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekiston don sanoati asosan markazlashgan boshqaruv tizimiga asoslangan bo‘lib, ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalari davlat mulkida edi. Texnologiyalar ko‘proq standartlashtirilgan, ammo eskirgan va samaradorligi past edi. Eksport markaziy rejalashtirishga bog‘liq bo‘lib, O‘zbekistonning o‘z mustaqil siyosati yo‘q edi. Shu bilan birga, don sanoati mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanar, ammo bozor talablariga moslashmagan edi.

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o‘tishga majbur bo‘ldi. Don sanoati ham bu jarayonda muhim o‘rin tutdi. Biroq, ushbu sohada quyidagi muammolar yuzaga keldi.

Eskirgan texnologiyalar va ishlab chiqarish quvvatlarining pastligi don sanoatini rivojlantirishga to`siq bo`lib turgan edi. Markazdan O`zbekiston don sanoatini rivojlantirishga e`tibor berilmas edi. Sanoatning bu turiga O`zbekistonda ehtiyoj deyarli yo`q deb hisoblanardi. Don mahsulotlari boshqa ittifoqdosh respublikadan keltirilishi belgilab qo`yilgandi. Don mahsulotlari xo`jaliklari va korxonalarida yangi texnika va texnologiyalar kiritilishi oqsoq holatda edi.

Korxonalar boshqaruvida markazlashgan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda qiyinchiliklar mavjud bo`lib, ular yangi tizimga moslashuvda ko`rina boshladi. Shuning uchun xususiylashtirish ishlari bosqichma-bosqich, asta sekinlik bilan amalga oshirila boshlandi.

Mahsulot sifatining pastligi va eksport imkoniyatlarining cheklanganligini tugatish maqsadida qator islohotlar o`tkazildi vaqarorlar qabul qilindi.

Shu sababli, davlat tomonidan don sanoatini rivojlantirish uchun tizimli islohotlar dasturi ishlab chiqildi.

Qabul qilingan qonun va qarorlar tahlili. Don sanoati – bu donni yetishtirish, yig‘ish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarini o‘z ichiga olgan sanoat tarmog‘i bo‘lib, u mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda don sanoati qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi va mamlakatning barqaror oziq-ovqat ta’minotidagi ulushi katta.

O‘zbekistonda don sanoatini isloh qilishda birinchi navbatda tashkiliy-huquqiy asoslarni yaratishga alohida e’tibor qaratildi.

Islohotlar doirasida don mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta’minlashga katta e’tibor berildi. Standartlar tizimini takomillashtirish va mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun hukumat qarorlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 18-dekabrdagi 553-son “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini sertifikatsiyalash va sifatini nazorat qilish davlat markazi to‘g‘risidagi nizomni hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida ekishga tavsiya qilingan qishloq xo‘jaligi ekinlarining davlat reyestri to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorida don sanotini sifat darajasini yaxshilash maqsadida “O‘zdavurug‘nazoratmarkazi”ni funksiyalari belgilab qo`yildi. Qarorda quyidagi vazifalar ko`rsatib berildi.

“O‘zdavurug‘nazoratmarkazi” O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini sertifikatsiyalash va sifatini nazorat qilish davlat markazi apparati bo‘linmalaridan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini sertifikatsiyalash va sifatini nazorat qilish markazi, qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini sertifikatsiyalash va sifatini nazorat qilish viloyat markazlaridan, qishloq xo‘jaligi urug‘lari sifatini nazorat qilish tuman va tumanlararo inspeksiyalar (laboratoriyalar)dan iborat bo‘ladi va ularga rahbarlik qiladi” [3].

1997-yil 30-avgustdagi “Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”

Qonunda ham don sanotini sifat darajasini yaxshilash bo`yicha vazifalar belgilab qo`yildi. “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat tomonidan normalashtirish oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga, uni ishlab chiqarish, tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, transportda tashish hamda realizatsiya qilish shart-sharoitlariga doir talablarni o‘z ichiga olgan texnik reglamentlarni, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini, fitosanitariya normalarini, qoidalarini hamda gigiyena normativlarini, milliy standartlarni, texnik shart-sharoitlarni (bundan buyon matnda normalar va qoidalar deb yuritiladi) belgilash yo‘li bilan amalga oshiriladi” [4].

Don sanoatini yaxshilash bo`yicha olib borilgan islohotlar qishloq xo‘jaligi sohasida mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish, fermerlikni rivojlantirish, yer resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan edi. Islohotlar don sanoati korxonalarining xususiy sektorga ochilishiga, fermerlar va tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga asos yaratdi.

Islom Karimovning “O’zbekiston buyuk kelajak sari” asarida iqtisodiy hayotda xususiylashtirishning ahamiyati haqida shunday baho beriladi. “Iqtisodiy jihatdan erkin bo`lgan fuqaro, haqiqiy mulkdorgina o`z mol-mulkini samarali tasarruf enishdan, o`z boyligini ko`paytirishdan manfaatdor bo`libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo`ladi. Shu sababli iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining g`oyat muhim vazifasi davlat mulki monopolizmini tugatish va mulkni xususiylashtirish hisobiga ko`p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat edi” [6].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining1995-yil 14-fevral 54-sonli “1994 yilda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi va ularni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Qarorida xususiylashtirish haqida so`z yuritilib, shunday deyiladi. “Ko‘p ukladli iqtisodiyot shakllanmoqda, tovarlar, mehnat, sarmoya va qiymatli qog‘ozlar bozori faoliyat ko‘rsata boshladi. Respublika barcha korxonalarining 67 foizi, ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot va xalq xo‘jaligida ish bilan band bo‘lgan xodimlarning salkam yarmi nodavlat sektorning ulushiga to‘g‘ri keladi” [2].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 19-martdagi “1998 — 2000-yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”120-sonli qaroriga muvofiq qabul qilingan “1998 — 2000-yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari”da quyidagiga vazifalar belgilab berildi. Шунингдек, “1998 — 2000-yillarda mamlakat mintaqalari bo‘yicha boshoqli don va dukkakli don ekinlarining serhosil va tezpishar navlarini joylashtirish bo‘yicha takliflar;

-suvli yerlarda boshoqli don, dukkakli don va takroriy ekinlarni, shuningdek lalmi yerlarda don va noan’anaviy ekinlarni yetishtirishning ilg‘or texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha takliflar;

-sholini ko‘chat qilib ekish texnologiyasini joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlash vazifalari belgilab berildi” [5].

Don sanoati mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda, aholiga zarur mahsulotlarni yetkazib berishda va eksport salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, O‘zbekistonda don sanoatini isloh qilish, uning texnik-iqtisodiy bazasini mustahkamlash, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

“Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida” Qonun (1997-yil 30-avgust 483-I-son) oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan don mahsulotlarining milliy va xalqaro standartlarga mos kelishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Qonun sifat nazoratini kuchaytirish, mahsulot xavfsizligini ta’minlash va eksport raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qildi. Bu qonun orqali milliy standartlashtirish tizimi takomillashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi.

G`alla yetishtirish hamma qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining asosidir. G`alla aholining

non, makaron mahsulotlariga, non mahsulotlariga bo`lgan talabini qondiribgina qolmasdan, sut, go`sht, tuxum va boshqa mahsulotlarning ishlab chiqarilishini ham belgilaydi. Chunki, g`alla mahsulotlaridan hayvon va parrandalar uchun ham ozuqa yetishtiriladi [7].

Har bir mamlakat uchun juda muhim bo`lgan don sanoatini rivojlantirib borish davlatning bosh siyosati hisoblanadi. Shularni hisobga olgan holda O`zbekistonda 1994–2000 yillarda don sanoatining texnologik bazasi tubdan yangilandi. Sobiq sovet davridan qolgan eskirgan uskunalar o‘rniga zamonaviy, yuqori samarali texnologiyalar joriy etildi. Bu mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini berdi. Don qayta ishlash korxonalari yangi liniyalar bilan jihozlandi, zamonaviy saqlash va tashish tizimlari yo‘lga qo‘yildi.

Boshqaruv tizimini liberallashtirish maqsadida xususuylashtirish sohasidagi ishlar kengaytirib borildi. Kichik va o`rta biznesni kengaytirishdan boshlangan bozor iqtisodiyotini rivojlanib borishi yirik korxonalarni ham xususiylashtirishga e`tibor qaratish bilan davom ettirildi. Xususiy sektorning faolligi oshdi, fermerlik va kichik biznes rivojlanishi bilan birga hissadorlik jamiyatlari ham shakllanib bordi.

Masalan, Qashqadaryo viloyatidagi davlatga qarashli eng yirik korxona hisoblangan donni qayta ishlovchi un kombinati hissadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Jamiyatning 1994 yil 12 –oktabr kungi 588-raqamli buyrug`iga binoan Qarshi don mahsulotlari kombinati Qarshi “Dunyo” hissadorlik jamiyatiga aylantirilgan. O`zbekiston Respublikasi “O`zdonmahsulot ” davlat konserni Qashqadaryo viloyat don mahsulotlari ishlab chiqarish hududiy birlashmasiga bo`ysundirilgan. (Asos: fond, 1-royxat, 3-yig`ma jild, 200 varaq) [8].

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat sharoitlarini optimallashtirish kabi muhim yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratildi. Ishchilar va ularning oilalariga moddiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, jamoaning farovonligini oshirish maqsadida turli tadbirlar o‘tkazildi [12].

Davlat korxonalarining boshqaruv tizimi liberallashtirildi, ularning mustaqil faoliyat yuritish huquqi kengaydi. Bu esa bozor talablariga tez moslashishga, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga turtki berdi. Korxonalar moliyaviy mustaqillikka ega bo‘lib, o‘z faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini oldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, uning qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati, xususan don sanoati, rivojlanishida yangi davr boshlandi. Ushbu davrda don sanoatining eksport salohiyatini o‘rganish mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar yaratish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Don sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakatning iqlimi va geografik joylashuvi don yetishtirish uchun qulay sharoit yaratgan. 1991-2000 yillar oralig‘ida don yetishtirish hajmi barqaror o‘sish sur’atlarini ko‘rsatdi.

Eksport salohiyatiga kelsak, mustaqillikdan keyingi dastlabki yillarda O‘zbekiston don mahsulotlarini asosan ichki bozorga yo‘naltirdi. Biroq, 1995 yildan boshlab davlat eksport siyosatini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratdi. 1996 yilda don sanoatidan eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmi sezilarli darajada ortdi. Qabul qilingan chora-tadbirlar natijasida don mahsulotlari eksporti sezilarli darajada oshdi. Soliq va bojxona imtiyozlari eksportchilar uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Bundan tashqari, xalqaro bozorlarga chiqish uchun sifat talablariga rioya qilindi, mahsulotlar xalqaro standartlarga moslashtirildi. Eksport hajmi va geografiyasi kengaydi, yangi bozorlarga kirish imkoniyati yaratildi.

Don sanoatini rivojlantirish uchun mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor qaratildi. Oliy o‘quv yurtlari va ilmiy markazlarda qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat texnologiyasi va iqtisodiyot sohalarida malakali kadrlar tayyorlandi. Ilmiy-tadqiqot ishlari kuchaytirilib, yangi texnologiyalar va samarali boshqaruv usullari ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.

1991-2000 yillarda O‘zbekiston don sanoati eksporti sekin-asta o‘sib, mamlakat iqtisodiyotining

diversifikatsiyasi va mustahkamlanishida muhim rol o‘ynadi. Bu davrda erishilgan natijalar keyingi yillarda yanada kengroq eksport imkoniyatlarini yaratish uchun poydevor bo‘ldi.

2000-yillarda O‘zbekiston don sanoatining eksport salohiyati ijobiy o‘sish yo‘lida bo‘lib, davlat siyosati, ishlab chiqarish modernizatsiyasi va xalqaro hamkorlik orqali rivojlandi. Biroq, texnologik yangilanish va infratuzilmani yaxshilash kabi muammolarni hal qilish zarur edi.

Muammolar quyidagilarda ko`rinidi. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi don sanoatini yanada rivojlantirishga to`siq boldi. Investitsiyalarni jalb qilishda qiyinchiliklar yuzaga keldi, bu esa modernizatsiyaning to‘liq amalga oshmasligiga sabab bo‘ldi.Bozor munosabatlari hali to‘liq rivojlanmagani sababli, korrupsiya va boshqaruvdagi samarasizliklar kuzatildi.

Eksport bozorlarida raqobatbardoshlikni oshirish zarurati, xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun sifat va narx masalalarida qo‘shimcha ishlar talab qilindi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishgani bilan don sanoatida amalga oshirilgan islohotlar mamlakat iqtisodiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. G‘alla yetishtirishni barqaror holatga keltirish uchun ilg`or txnologiyalarni joriy etmasdan, zamonaviy o`simliklarni biologik jihatdan hosildor navlarini asoslangan, sifat jihatdanyangi darajaga o`tmay turib erishib bo`lmaydi.

Qonun va qarorlar asosida texnologik yangilanish, boshqaruv tizimini liberallashtirish va eksportni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar samarali bo‘ldi. Ammo investitsiya va moliyaviy resurslar yetishmasligi, bozor mexanizmlarining to‘liq shakllanmasligi kabi omillar islohotlarning to‘liq samaradorligini chekladi.

Xulosa va takliflar.

1994–2000 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda don sanoati sohasida amalga oshirilgan islohotlar mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. Qabul qilingan qonun va qarorlar asosida sohada texnologik yangilanish, boshqaruv tizimini liberallashtirish va eksport salohiyatini oshirish yo‘nalishida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Kelajakda investitsiyalarni jalb qilish, bozor mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiya bilan kurashish orqali don sanoatining barqaror rivojlanishi ta’minlanishi lozim. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat siyosati yanada takomillash muhim o`rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “1994 yilda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi va ularni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida” 1995-yil 14-fevral. 54-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini sertifikatsiyalash va sifatini nazorat qilish davlat markazi to‘g‘risidagi nizomni hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida ekishga tavsiya qilingan qishloq xo‘jaligi ekinlarining davlat reyestri to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 1997-yil 18-dekabr 553-son

4. “Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida” Qonun, 1997-yil 30-avgust.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1998 — 2000-yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 1998-yil 19-mart. 120-son.

6. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O’zbekiston, 1998.

7. Ergashev R.X. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. Toshkent – “Extremum press”- 2011.

8. Qashqadaryo arxivi. Ozb.Respublikasi “O`zdonmahsulot” aksiodorlik kompaniyasi Qashqadaryo Don mahsuloti OAJ. 621. 14.05.2014. M-722-son fon1-sonli ro`yxati 1992, 1994-

1998, 2000, 2003-2013 yillar uchun doimiy saqlanadigan hujjatlar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1998 — 2000-yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 1998-yil 19-mart. 120-son.

10. Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh. Rashidov Sh, Toshboyev A.A. “Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti va menejmenti” – T: “Iqtisod-moliya” 2008.

11. Nurullayeva G. Non mahsulotlari yaratilish tarixi va uning insoniyat sivilizatsiyasidagi o‘rni. O‘zmu xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. 2024 1/5/2-son.

12. Kodirova M. Nurullayev O‘ktam Xayitovich faoliyatiga nazar. Sohibqiron yulduzi Ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal. 2025. №6 (58).

XIX ASRNING IKKINCHI YARIMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MADRASALARIDA TA'LIM TIZIMI TARIXI MANBASHUNOSLIGI

Mamatqulova Farangis Orzukulovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
«Tarixshunoslik va manbashunoslik» kafedrasi doktoranti

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ ПО ИСТОРИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В МЕДРЕСЕ ТУРКЕСТАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Маматкулова Фарангис Орзукуловна
Самаркандского государственного университета им. Шарофа Рашидова
Докторант кафедры «Историография и источниковедение»

SOURCE STUDY OF THE HISTORY OF THE EDUCATION SYSTEM IN TURKESTAN MADRASAS IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY - BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Mamatkulova Farangis Orzukulovna
Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Doctoral student of the department of «Historiography and Source Studies»

Annotatsiya: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligida madrasalar asosiy ilm dargohi vazifasini o'tab, ta'lim maxsus ixtisoslik bo'yicha mutaxassis tayyorlashga qaratilmagan. Chunki jamiyatda aniq fanlarga nisbatan ehtiyoj juda ham past bo'lgan. Ushbu maqolada mazkur davrdagi Turkiston madrasalari va ulardagi ta'lim tizimi tarixi manbashunosligiga oid ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turkiston, Samarqand, madrasa, ta'lim-tarbiya masalalari, dars jarayoni, mudarrislar ta'minoti, manbashunoslik.

Аннотация: В конце XIX – начале XX веков медресе служили основными учебными заведениями Туркестанской губернии, и образование не было ориентировано на подготовку специалистов по специальной специальности. Потому что потребность в конкретных науках в обществе была очень низкой. В данной статье анализируются данные по истории туркестанских медресе и образовательной системе в них.

Ключевые слова: Туркестан, Самарканд, медресе, вопросы образования, учебный процесс, кадровое обеспечение, источниковедение.

Abstract: In the late 19th – early 20th centuries, madrasahs served as the main educational institutions of the Turkestan province, and education was not focused on training specialists in a special specialty. Because the need for specific sciences in society was very low. This article analyzes data on the history of Turkestan madrasahs and the educational system in them.

Keywords: Turkestan, Samarkand, madrasah, educational issues, educational process, staffing, source studies.

KIRISH. Madrasalarda diniy va dunyoviy fanlar birgalikda o'qitilgan. Dastlab o'qitish jarayoni "imlo" usulida olib borilgan bo'lsa, X asrdan boshlab madrasalarda "tadris" (sharh, izoh, tafsir) usulidan foydalanilgan. Amirlik davrida olimlar yasavuli o'quv mavsumi boshlanish vaqti kelganda hukmdorlarga arznoma yozgan va o'qishning boshlanishiga ruxsat so'ragan. Ta'lim muddati 22-24 sentabrdan 23-25 maygacha davom etgan. Ba'zi hollarda oktabrda ham o'qish boshlangan. Bahor boshlanishi bilan rasmiy o'qishlar to'xtatilib, kech kuzgacha mudarrislar va talabalar dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdogarlik bilan mashg'ul bo'lishgan.

Ta’lim olish bilan asosan qish faslida, “bo‘sh vaqtlarda” shug‘ullanishgan. Madrasa mudarrislari ham talabalar ham asosan o‘qishdan tashqari kun-kechirish uchun kasb-kor bilan shug‘ullanishgan. O‘quv yilining davomiyligining qisqaligi ta’limning sifatiga salbiy ta’sir o‘tkazgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Samarqand viloyatida ham butun o‘lka madrasalari singari haftaning to‘rt kunida shanba, yakshanba, dushanba va seshanba kunlari dars mashg‘ulotlari o‘tkazilgan. Haftaning qolgan kunlari mustaqil ta’lim kunlari uchun ajratilgan bo‘lib, berilgan topshiriqlar bajarilgan va takrorlanilgan. Juma kuni musulmonlar uchun odatiy dam olish kuni bo‘lganligi uchun madrasalarda dars bo‘lmagan. To‘rt kun bevosita ta’lim mudarrislardan olingan, ikki kunda mustaqil ravishda shug‘ullanishgan, keyingi darslarga tayyorgarlik ko‘rilgan. Dars ramazon oyida, hayit kunlarida (taxminan ikki hafta) va ta’til davomida o‘tilmagan. May oyining oxiri iyun oyining boshlaridan, sentabr oyi o‘rtalari oktabr boshigacha ta’til vaqti hisoblangan. Yil 365 kun bo‘lsa, madrasada o‘quv jarayoni taxminan 30 hafta, dars jarayonlari taxminan 180 kunga yaqin davom etgan degan xulosani berish mumkin. [6]

Madrasada tahsil oluvchilar mulla (savodli), tolibi-ilm (ilm o‘rganuvchi), tolib, shogird (o‘quvchi) deb nomlangan. Talabalar ham doimiy nazoratda bo‘lib, shariatga xilof ishlar qilsa, axloqsizlik qilsa yoki sababsiz 70 kun dars qoldirsa madrasadan chetlashtirilgan. Madrasalarda ta’lim uch bosqichda, ya’ni adno (quyi), avsat (o‘rta) va a’lo (yoki oliy) tartibda olib borilgan. Rossiya bosqiniga qadar mazkur bosqichlardagi o‘qishning aniq muddati belgilanmagan. Talabalar bo‘limlarda belgilangan kitoblarni o‘qib, mudarrisga imtihon topshirgach, keyingi bosqichga o‘tganlar. [7]

Markaziy shaharlardagi madrasalarda o‘quv bosqichlarini tugatganligi sinovi maxsus imtihon komissiyasi (amirlik davridagi udumga ko‘ra, komissiya tarkibida mudarris va mutavallidan tashqari, a’lamlar, qozikalon, madrasa joylashgan hudud beklari ham ishtirok etishgan) tomonidan o‘tkazilgan. Odatda talabalar har bir bosqichda 3-4 yil tahsil olganlar faqat birinchi bosqichda 8-10 yil o‘qishgan. Arab tili va grammatikasini o‘zlashtirish qiyin bo‘lganligi bois adno bosqichida o‘quv muddati anchayin cho‘zilgan. Arxiv ma’lumotlarida keltirilgan talabalarning har bir bosqichda uzoq o‘qiganligi borasidagi ma’lumot K.Ye.Bendrikov tomonidan rad etiladi, uningcha madrasada tahsil 16-18 yil davom etgan. [2]

Madrasalarda ta’lim olish muddatini tadqiqotchilar turlicha izohlashadi. Bu borada yakdil fikr hozirgacha mavjud emas. Jumladan, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida talabalar bilim va iqtidoriga qarab 7-12 yil ta’lim olganliklari yozilgan bo‘lsa, tadqiqotchilar A.Qodirov va E.Orifjonov 10-12 yildan 18-20 yilgacha bo‘lgan, ba’zida talaba madrasada umrbod ta’lim olgan, degan fikrlarni bildirishgan. Masalan, 1910-yilda Sherdor madrasasida 120 talaba bo‘lib ular 10-15 yil oralig‘ida tahsil olishganligi hujjatlarda keltirilan. [7]

Madrasalarda ta’lim muddati ushbu o‘quv dargohlarining darajalariga ham bog‘liq bo‘lgan. Ba’zi hollarda uzoq qolib ta’lim olgan talabalarning iqtidorli bo‘lganligi va ularning mudarrislarga yordamlashganligi yoki o‘rinbosar sifatida tayyorlangan bo‘lishlari mumkinligini ham nazarda tutish kerak. Rossiya imperiyasi hukmronligi o‘rnatilgach, ushbu sohadagi eng muhim islohotlardan biri ta’lim muddatini qat’iy belgilanishi bo‘ldi va bunga ko‘ra keyinchalik Adno – boshlang‘ich ta’lim ko‘pi bilan 7 yillik, avsat – o‘rta ta’lim 7 yillik va a’lo – oliy ta’lim 7 yillik bo‘lgan. Madrasalardagi ta’lim ko‘pi bilan 21 yil davom etgan. Madrasalardagi bo‘limlarda uzoq muddat tahsil olinganligi madrasalardagi o‘quv jarayonining tashkillashtirilishi va uslublariga (metodlarga) bog‘liq bo‘lgan. [3]

Madrasalarga maktabni bitirgan yoki biror ustoz qo‘lida ta’lim olgan o‘quvchilar qabul qilingan. Ushbu dargohlarda o‘ziga xos bo‘lgan madrasa ichki qoidalari asosidagi qabul imtihonlari ham bo‘lganligi shubhasiz. Chunki talabalarning bilimiga qarab uch bosqichga ajratilishi imtihonlar bo‘lganligidan dalolat beradi. Ammo arxivda madrasalarga qabul imtihonlariga oid biror aniq hujjat topilmadi. Madrasalardagi hujralarda doimiy yashovchi talabalardan tashqari ijarada yoki o‘z uyidan qatnab tahsil oluvchi talabalar ham ko‘p bo‘lgan. Shubhasiz madrasalarga shariatga

ko‘ra balog‘atga yetgan va o‘zini mustaqil boshqara oladigan ilm istovchi har qanday shaxslar qabul qilingan. Chunki shariat ahkomlariga ko‘ra ilm istab kelganlarga rad javobi berilmagan. Madrasa talabaligiga qabul qilishda mutavalliy asosiy rol o‘ynagan. Ba’zi madrasalarda mudarris va yuqori bosqich talabalarining roziligi ham zarur bo‘lgan. Albatta bunday qabul ko‘rinishi vaqf mulki katta madrasalarda bo‘lgan. Chunki ularda maosh yuqori bo‘lgan. [3]

Dars jarayonlari odatga ko‘ra, bomdod namozi va nonushtadan keyin boshlangan. Bu jarayon har bir madrasadagi ichki tartib asosida belgilangan. O‘qish soatlari ma’lum hujjatlarda aniq ko‘rsatilmagan. Mudarris darsxonaning to‘rida gilam yoki namat ustida o‘tirgan, u dars berishga tayyorligini bildirgach, darsxonaga 5-20 nafar talabalar jamoa bo‘lib kirishgan. Samarqand madrasalarida talabalar jamoasi, guruh soni talabalar miqdoriga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 6-10 nafardan, ba’zi guruhlarda 20 nafargacha talaba tahsil olgan. Har bir talabalar guruhining boshlig‘i bo‘lib, ular odatda mullazodalardan tayinlangan. Uning boshchiligida jamoa a’zolari dars olib borishgan, u talabalarning navbat bilan mudarris huzuriga kirishini ham nazorat qilgan. [3]

NATIJALAR. O‘rganilayotgan davrda Samarqand madrasalardagi o‘quv fanlarini o‘qitish o‘rta asrlarning rivojlangan davridan deyarli farq qilmagan. Har bir bo‘limda (adno, avsat, a’lo) fanlarni o‘qitish soddadan murakkabga qarab borgan. Dastlab talabalar arab tilini o‘rganishgan. Birinchi bo‘limda talaba fors va arab tillarida qisqacha islom qonunlari, arab grammatikasini o‘zlashtirgan. Madrasalarda ta’lim jarayoni asosan uch yo‘nalishda (blokda) olib borilgan:

Shariat.
Arab tili filologiyasi
Xikmat. [7]

1843-yilda N.Xanikov Buxoro madrasalarida ilohiyot va shariatga oid 130 dan ko‘proq qo‘llanmalar bo‘lganligini keltiradi. Demak, bu darsliklar Samarqandda ham mavjud bo‘lib bir xil tartibda o‘rganilgan. [1]

Birinchi bo‘lib, umumiy kurs “Avvali ilm” o‘qitilgan. Bu kitob talabalarga bir necha kunlarda yodlattirilgan. Undan keyin arab tili grammatikasi va morfologiyasi bo‘yicha fors tilida yozilgan “Bidon” o‘qitilgan.

Ikkinchi yili arab tili morfologiyasi bo‘yicha arab tilida yozilgan “Zanjoniy”, fors tilidagi “Muizziy” kitoblari o‘qitilgan. Bu boshlang‘ich, maktablardagi darslarini takrorlash edi. Uchinchi yildan boshlab arab tili grammatikasi chuqur o‘zlashtirilgan. Arab tili grammatikasining qiyinligi sabab uni o‘rtacha 2-4 yil oralig‘ida o‘rganishgan. Arab grammatikasi o‘zlashtirilgach, ham adno bosqichida ta’lim davom ettirilgan va“Fiqhi-qadimi”, “Muxtasar ul-viqoya” kabi kitoblarni o‘qishgan. Bular fors tilida yozilgan kitoblar bo‘lib, musulmon huquqining diniy va fuqorolik jihatlari yoritilgan. Bu bir-biridan mustaqil ikki bo‘limdan fiqh va mushkilot bo‘limlaridan iborat bo‘lgan. Har ikkala bo‘limni iqtidorli talabalargina o‘rgangan, ba’zilari ularning birini o‘rgangan xolos.Chunki har ikkala bo‘limni o‘rganish va o‘zlashtirish uzoq vaqt talab qilgan. Bu bo‘limda talabalar bir qancha o‘rta asr olimlarining kitoblarini o‘zlashtirishgan. [6]

Ikkinchi bo‘limda o‘qishni davom ettirgan talaba ilohiyot va islom huqushunosligi, Qur’on tafsiri, kalom, hadisshunoslik va Imom A’zam Hanafiya mazhabidagi asosiy asarlarni o‘zlashtirgan. Masalan, arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, 1912-yilda Samarqanddagi Namozgoh madrasasida 6 nafar talaba 1-bo‘limda (Hidoya, Sharhi Viqoya, Hikoyat kitoblarini o‘qigan), 5 nafar talaba 2-bo‘limda (Sharhi Mullo, Sharhi Viqoya kitoblarini o‘qigan) hamda 13 nafar talaba 3-bo‘limda (Muxtasar, Avomil, Muxtasari Viqoya kitoblari) o‘qishgan. [7]

Umumiy bilimlarni o‘rgatuvchi bo‘lim kitoblarini o‘rganish ko‘pchilik talabalarni qiziqtirmagan. Bunga sabab, olimlar bu asarlarini yozayotganda madrasa talabalarining bilim saviyasi va qiziqishlarini hisobga olmagan holda o‘zlarining darajalaridan kelib chiqib yozganlar. Ba’zida mudarrislar – olimlar bunday asarlarni talabalarga moslab qayta ishlab chiqqanlar. Har bir o‘qitiladigan kitob va darslik uchun sharhlar yozilgan. Bunday sharhlarni o‘qigachgina madrasa

talabalari darslik mazmunini tushunishgan. Natijada har bir talaba nafaqat darslik va kitoblarni balki ularga yozilgan sharhlarni o‘qib o‘zlashtirishga majbur bo‘lgan. Bu esa ta’lim muddatini oshishiga olib kelgan. Umumiy bilimlar bo‘limida mullalar aniq bir yo‘nalish bilimlarini emas, balki islom dini taraqqiy etgan oltin davrda arab olimlari tomonidan yozilgan metofizika, kosmografiya, astrologiyaga oid alohida kitoblarni o‘zlashtirganlar. Bu kitoblarda qadimgi yunon falsafasiga oid hikoyalar ham yozilgan. [1]

Madrasalardagi fanlardan biri matematika bo‘lgan. Lekin matematika to‘liq o‘zlashtirilmagan, faqatgina meros huquqiga oid matematik bilim bilan kifoyalanilgan. Qiziquvchi talabalar tarixiy, geografik va ilohiy hikoyalar to‘plamini ham o‘qiganlar. Ba’zi mullalar arab, fors-tojik va turkiy shoirlar kitoblarini ham o‘qiganlar. Aruz vaznini o‘rganishgan. Ba’zi talabalar o‘rta asrlardagi tibbiyotga oid kitoblarni ham o‘qishgan. Fizika, kimyo va biologiyaga oid ilmlar madrasada kam o‘rganilgan. Turli sabablarga ko‘ra darslar juda ko‘p qoldirilgan yoki o‘tilmagan (mudarrisning ovqatlanishi, birov kelib qolishi, namoz vaqtlari). Buning sababi ko‘plab madrasalarda alohida darsxonalar mavjud bo‘lmagan, faqatgini yirik madrasalarda alohida darsxonalar mavjud bo‘lgan. Darslar ham aniq muddatda boshlanmagan. Misol uchun 1911-yilda o‘qish oktabrning ikkinchi yarmidan boshlanganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan. [2]

Talaba o‘qish vaqtidan tashqari har bir darsning o‘zlashtirilishi uchun ikki-uch soat vaqt sarf qilishga majbur bo‘lgan. Dars mashg‘ulotlari murakkab va kitoblar arab tilida bo‘lganligi bunga asosiy sabab bo‘lgan. Barcha talabalar arab tilini mukammal bilishmagan. Madrasalardagi o‘quv jarayonini samarqandlik mudarrislar ham o‘z chiqishlarida tanqid qilishgan. Madrasalarda katta domlalar bir kunda o‘rtacha soat sakkizdan o‘n ikkigacha (tushlikkacha) dars berishgan xolos. [4]

Madrasa darslarini tamomlagan talabalarga Qur’on tafsiri, payg‘ambar hadislari, fiqxi islomiydan dars berishga ijozat berilgan. Madrasalarni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga maxsus guvohnomalar berilgan. Ushbu guvohnomalar madrasalarning nufuzi va obro‘siga qarab qadrlangan va keyinchalik talabalarning ishga joylashuvida ham hisobga olingan. Yirik, katta madrasalarni bitirganlar uchun yuqori lavozimlarda ishlash imkoniyati yaratilgan. Kichik yoki uezd hududlardagi madrasa bitiruvchilari asosan o‘qituvchilik qilishgan. Demak, o‘rganilayotgan davrda viloyat madrasalarini asosan ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

I. Markaziy shaharlardagi davlat amaldorlari, madrasa mudarrislari tayyorlaydigan madrasalar.

II. Maktab o‘qituvchilari, masjid imomlari tayyorlaydigan madrasalar. [7]

Umuman olganda, madrasa darsliklarini soddalashtirib, ta’lim muddatini ancha qisqartirish mumkin bo‘lsada, bunday qilinmagan. Buning ko‘plab sabablari bo‘lishi mumkin edi. Mustamlaka amaldorlari bu borada qo‘yidagicha xulosa chiqarishgan: “Mudarrislar mazkur kursni atayin isloh qilmagan bo‘lishlari ham mumkin. Chunki musulmonlar uchun eski tizim vaqf daromadlarini uzoq olish uchun qulay bo‘lganligini ham e’tiborga olish lozim”. Bizningcha bu xulosa noo‘rin bo‘lib, ta’lim muddatining qisqartirilishi vaqf daromadlarini olishga hech qanday ta’sir qilmagan. Bitirgan talabalar o‘rniga yangi o‘qishni istovchilar soni juda ko‘p bo‘lgan. Chunki madrasalar soni ko‘p bo‘lsada, viloyat aholisining to‘liq ehtiyojini qondira olmagan. [7]

MUHOKAMA.

O‘rta Osiyo xonliklar davridagi notinch va turg‘un hayot hamda Sharq mamlakatlari bilan aloqani cheklanishi natijasida madrasalardagi o‘quv dasturlari mutlaqo isloh qilinmagan. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, fiqh kursidanturli mualliflarningbir xil mazmundagi kitoblari o‘qitilgan. Mazmun va mohiyatan deyarli bir xil bo‘lgan arab tilidagi ushbu kitoblarni o‘rganish juda ko‘p vaqt va mehnat talab qilgan. Madrasalarda masala kursiga oid Muxtasar ul-viqoya, Hidoyati sharif kitoblarini mahalliy tilga tarjima qilib, qolganlarini dasturdan chiqarish taklifi hatto rus olimlari tomonidan ham aytilgan edi. Vladimir Petrovich Nalivkinning fikricha, bu juda qulay bo‘lib, vaqtni tejashga olib keladi va bu ish musulmonlarning qarshiligiga olib kelmaydi. Shuningdek, Nalivkin madrasalardagi ta’limning bosh muammolaridan biri sifatida o‘quv jarayoniga rus tilini kirgizish masalasini ko‘rsatadi. [5]

Rossiya imperiyasi amaldorlari tomonidan 1899-yil sentabr oyida barcha bosh muddarislarga maxsus ko‘rsatma berilgan. Unga ko‘ra, endilikda madrasa talabalari, mudarris va xizmatchilar imperatorni va uning oila a’zolari nomlarini bilishlari shart qilib qo‘yilgan. Bu ko‘rsatmadan ko‘zlangan asosiy maqsad mahalliy xalq vakillarini rus madaniyati bilan yaqinlashtirish edi. Bu ham mustamlakachilik siyosatining ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Turkiston o‘lkasi o‘quv yurtlari bosh inspektori A.F.Kerenskiyning 1899-yil 27-sentabrda bergan ma’lumotnomasi bo‘yicha, madrasa talabalari orasida rus tilini o‘rganmoqchi bo‘lganlar va rus-tuzem maktablariga bormoqchi bo‘lganlar soni ortib borgan. O‘lka bosh inspektorining Turkiston madrasalariga murojaatnomasida madrasa talabalari orasida rus tilini o‘rgatish uchun maktab ochish haqidagi taklif general-gubernator tomonidan tasdiqlandi, deb yozilgan. [4]

Ushbu maktablar davlat xazinasi hisobidan qurilishi va ta’minlanishi ma’lum qilingan. Mudarrislarga rus tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan talabalarni ushbu maktablar qurilgunga qadar rus-tuzem maktablariga jo‘natishlari kerakligi buyurilgan. Natijada Samarqanddagi madrasalardan ham rus-tuzem maktablariga talabalar jo‘natilgan. Amalda madrasa talabalarining rus tilini o‘rganishi uchun alohida maktab ochilmagan. [4]

Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, madrasalardan rus-tuzem maktablariga borib, rus tilini o‘rganmoqchi bo‘lganlar 52 nafarni tashkil qilgan. Masalan, 1899-yildagi ma’lumotnomada bir mudarris madrasalarda darslarni 1-oktabrdan boshlanib 1-maygacha davom etishini, darslar rasman boshlansa, rus-tuzem maktablariga borib rus tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan talabalar soni yanada oshishini va ularni albatta o‘qishga jo‘natishga kafolat berishini yozgan edi. Bu rus tilini o‘rganish madrasa talabalari uchun majburan joriy qilinganligidan dalolat beradi. [4]

Talabalar o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun ishlashga majbur bo‘lishgan. Birinchidan, maosh miqdorining pastligi yoki umuman yo‘qligi, ikkinchidan, madrasadagi darsliklar yetarli bo‘lmaganligi sababli ularni xarid qilish lozim edi. Kitoblar asosan qo‘lyozma bo‘lganligi uchun qimmat narhda bo‘lgan. Talabalar orasida chiroyli husni xatga egalari kitob ko‘chirib, hattotlik qilib kun kechirganlar ham. Aynan toshbosma shakldagi darslik va kitoblarning kirib kelishi ta’lim tizimidagi moliyaviy xarajatlarni qisqartirishga olib kelgan. Lekin, Turkiston o‘quv yurtlari bosh inspektori 1876-yil fevral – mart oyidagi hisobotida, Turkiston o‘lkasiga Qozonda tosh bosma shaklda nashr qilinayotgan Qur’on va turli diniy kitoblarining tobora ko‘p kirib kelishi Rossiya hukumatining mustamlakachilik siyosatiga zid ekanligini ta’kidlaydi va ularning keltirilishini ta’qiqlaydi. Bu esa madrasa darsliklari va talabalar moliyaviy ta’minotining yaxshilanishiga yo‘l qo‘ymagan. Bu ham ta’lim sifatini yaxshilashi, mumkin bo‘lgan holatga qarshi chiqilganligidan dalolat beruvchi misoldir. [4]

Bu davrda o‘zining o‘rta asrlardagi ta’lim sifati va ana’nalaridan ancha yiroqlashgan madrasalardagi islohot qilish zaruratini ma’rifatparvarlar ham ilgari surishgan. Bu borada birinchi fikrlar mutafakkir Ismoil Gaspirali tomonidan 1881-yilda nashr qilgan “Rusiya musulmonligi” asarida, “Tarjimon” gazetasida e’lon qilingan. Turkistondagi madrasalar ahvoli “Sho‘ro” jurnalida ham muhokama qilingan. Bu maqolalarda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo‘qon madrasalari haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, ularning o‘quv jarayoni va usullari tanqid qilingan. Umuman XX asrga kelib, madrasalar islohoti haqida “Turkiston viloyatining gazeti”da bir qancha maqolalar chiqqan. Samarqand viloyati madrasalari xususida mudarris Saidahmad Vasliy ham bir necha marotoba chiqishlar qilgan. Samarqandlik mashhur jadidlardan biri Hoji Muin Saidahmad Vasliyning islohotchilik faoliyatiga yuqori baho beradi. [6]

Madrasalardagi ta’lim-tarbiya masalalari islohotiga bag‘ishlangan katta munozaralar 1915-yili “Al-isloh” jurnalida bo‘lib o‘tadi. Bunda Saidahmad Vasliy Turkiston madrasalari ahvoliga bag‘ishlangan maqolasida madrasalardagi ahvol masalasida 10 ta savol bilan o‘lka mudarrislariga murojaat qilgan. Samarqandlik mashhur mudarris fikrlari asosida, o‘rganilayotgan davrda madrasalardagi ahvol og‘ir bo‘lganligini va o‘quv jarayoni zamon talablariga javob bermaganligini ko‘rishimiz mumkin. 1913-yildagi ma’lumotga ko‘ra, Samarqand viloyatida 94 ta madrasa faoliyat

ko‘rsatgan. Ularda 2205 nafar talabalar tahsil olgan. Viloyatda 519893 nafar erkak musulmon aholi istiqomat qilganligini hisobga olinsa, taxminan viloyat aholisining 0,7% gina madrasada tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. [7]

Shu o‘rinda Samarqand viloyati Urgut nohiyasida O‘zbekiston hududidagi so‘nggi madrasa qurilgan. Buxorodagi Mir Arab madrasasi yopilgach, uning talaba va mudarrislarini bir qancha vaqt davomida Urgutdagi Madrasai G‘ishtinda tahsil olganlar. Samarqanddagi ana’naviy ta’lim tizimining yuqori bosqichi 1925-1926 yillargacha faoliyat ko‘rsatgan. Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqand madrasalarida dars saboqlari mahalliy tilda olib borilmagan. Chunki asosiy darsliklar arab tilida bo‘lgan. Darslarning mahalliy tilda olib borilmaganligi, shuningdek, talabalar ustidan nazorat to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi, o‘quv yili muddatining qisqaligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. [2]

Madrasalarga to‘liq o‘qishga kirish va hujrada yashash huquqini qo‘lga kiritish uchun mudarrisning va ba’zida yuqori bosqich talabalarning ham roziligi kerak edi. Hujralarda 2 tadan 4-5 tagacha talabalar istiqomat qilishgan. Ko‘p hollarda shaharlardagi mashhur madrasa hujralarida yashash huquqini olish qiyin bo‘lgan va ba’zida bu huquq sotib olingan. Hujralarning narhi madrasa va mudarris obro‘si bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa yuqori vaqf daromadlariga ega bo‘lgan madrasalar (masalan, Mirzo Ulug‘bek, Tillaqori, Sherdor, Shayboniyxon) faoliyati misolida namoyon bo‘ladi. Kambag‘al talabalar o‘qishni davom ettirish uchun Farg‘ona madrasalariga ketib qolishlari holatlari ham uchragan. [5]

Ba’zi mudarrislar hamma talabalarga ham bir xil munosobatda bo‘lishmagan. Ta’minlangan boy talabalar ma’lum kitobni yoki darsliklarni o‘zlashtirgach, mudarrislarga turli sovg‘a-salom berib turishgan. Talabalar guruhi ham mudarrisga har bir darslik va kitob o‘zlashtirilgach, sovg‘a berishgan va ma’lum bir bosqich tugatilgach, talabalar guruhi mudarris sharafiga ziyofat uyushtirgan. Yirik vaqf mulklariga ega madrasalarda kambag‘al talabalarning tahsil olishlari qiyin edi. Ular tahsil olish va kun kechirish uchun yoz oylarida maktablarda, boylar xonadonida dars berishgan, qishda maktab darsliklarini ko‘chirishgan, ba’zi hollarda mardikorlik qilishgan. Darslik va kitoblar faqat qo‘lda ko‘chirilgan. Bunday kitoblar qimmat bo‘lgan va ehtiyojmand talabalar ularni sotib olishlari qiyin bo‘lgan. Buni ham ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatgan omil sifatidabaholash mumkin. [6]

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Madrasa talabalarining asosiy qismini ruhoniy oila vakillari, savdogarlar, boylarning farzandlari tashkil etgan. Qisman kambag‘al hunarmand va dehqonlar farzandlari ham tahsil olgan. Ba’zi madrasalarda hujralarda doimiy yashab tahsil oluvchilardan tashqari erkin tarzda darslarga qatnashuvchi talabalar ham bor edi. Erkin tarzda darsga qatnashish uchun mudarrisga buni ma’lum qilish kifoya bo‘lgan. Chunki shariat ahkomlariga muvofiq ilm o‘rganmoqchi bo‘lgan har bir insonni mudarris rad etmay o‘qitishga majbur bo‘lgan. Madrasa bitiruvchilarining asosiy qismi maktablarda o‘qituvchi bo‘lishgan. Ba’zilari masjid imomi, ba’zilari bilim darajalariga qarab yetuk o‘qituvchi bo‘lishgan.

Ko‘pchilik ehtiyojmand talabalar madrasadagi tahsil davomida o‘qituvchiligini boshlab yuborishgan. Madrasada alohida pedagogika va dars berish uslublari o‘qitilmagan. Talabalar mustaqil ta’lim jarayonida musulmon olimlarining pedagogik qarashlarini umumiy tarzda o‘zlashtirishgan. Madrasa mudarrislari ilmiy salohiyati ham bir xilda bo‘lmagan. Shuning uchun ham talabalar mudarrislarning bilim darajalariga qarab ham madrasalarni tanlashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ташкент: 1875.
2. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924). – Москва: 1960.
3. Граменицкий С.М. Очерк развития народного образования в туркестанском крае. – Ташкент: 1896.
4. Керенский Ф.А. Медресе в Туркестанской области. – СПб: 1900.
5. Наливкин В.П. Туземный пролетариат // Туркестанские Ведомости. № 40, 41, 44, 50, 55, 62, 72. – Ташкент: 1917.
6. Остроумов Н.П. Медресе в Туркестанской области // Журнал министерства народного Превещения. Новая серия // Глава VII. – СПб.: Сенатская типография, 1907.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: 2013.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

SAYYID SHARIF JURJONIYNING “TA’RIFOT” ASARIDA ZIKR ETILGAN KITOBLAR

Abdullayev Dб
Oriental universiteti, Sharq tillari kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Sayyid Sharif Jurjoniy “Ta’rifot” asarida Muhammad Shayboniy, Mahmud Zamaxshariy, Ibn Arabiy, Bag’aviy kabi mashhur olimlarning yirik diniy va fiqhiy asarlari zikr etilgan. Asarlarda islom fiqhining asoslari, hadislar, tafsir va tasavvuf ilmlari yoritilgan. Kitoblar turli asrlarda yozilgan va ko‘plab sharhlar olgan, musulmon ilmiy merosining muhim qismidir.

Kalit so’zlar: fiqh, hadis, tafsir, tasavvuf, hanafiy mazhabi, ilmiy meros, rivoya

КНИГИ, УПОМЯНУТЫЕ В ТРУДЕ САЙИДА ШАРИФА ДЖУРДЖАНИ «ТА’РИФОТ»

Абдуллаев Д.,
преподаватель кафедры восточных языков Восточного университета.

Аннотация. В произведении «Тарифот» Сайид Шариф Джурджани упоминает крупные религиозные и юридические труды таких учёных, как Мухаммад Шайбани, Махмуд Замахшари, Ибн Араби и Багави. Эти книги охватывают основы исламской юриспруденции, хадисы, толкования и суфизм. Произведения написаны в разные века и получили множество комментариев, являясь важной частью мусульманского научного наследия.

Ключевые слова: фикх, хадис, тафсир, тасаввуф, ханафий мазхаб, научное наследие, риваят

BOOKS MENTIONED IN SAYYID SHARIF JURJANI’S WORK “TA’RIFOT”

Abdullayev D.,
Lecturer at the Department of Oriental Languages, Oriental University.

Abstractю In Sayyid Sharif Jurjani’s “Taarifat,” major religious and jurisprudential works by scholars like Muhammad Shaybani, Mahmud Zamakhshari, Ibn Arabi, and Baghawi are mentioned. These texts cover Islamic jurisprudence, hadith, Quranic exegesis, and Sufism. Written across different centuries and widely commented upon, these works form a vital part of the Muslim scholarly heritage.

Key words: jurisprudence, hadith, exegesis, sufism, hanafi school, scientific heritage, narration

Kirish (Introduction). Sayyid Sharif Jurjoniy o‘zining mashhur “Ta’rifot” asarida islom ilmlarining yirik vakillari tomonidan yozilgan sakkizta muhim asarni zikr etgan. Ushbu asarlar islom fikhi, tafsir, hadis, tasavvuf va lug‘at ilmlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur tadqiqot ushbu asarlarning har birining tarixiy, ilmiy va uslubiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida Muhammad Shayboniyning fiqhiy merosi, Zamaxshariyning tafsiriy yondashuvi, Ibn Arabiyning tasavvufiy tafakkuri, Bag‘aviy va Sog‘oniyning hadis ilmidagi hissalari o‘rganiladi. Shuningdek, bu asarlarning keyingi asrlardagi ilmiy ta’siri ham yoritiladi.

Materiallar (Materials). Tadqiqot quyidagi sakkizta asosiy manbaga tayangan holda olib borildi:

“Al-Mabsut” – Muhammad Shayboniy tomonidan Abu Hanifa fikrlariga asoslangan keng fiqhiy to‘plam.

“Al-Jome’ as-sag‘ir” – Muhammad Shayboniyning fiqhiy masalalar to‘plami.

“Al-Jome’ al-kabir” – Shayboniyning o‘ziga xos tahrirdagi fiqhiy asari.
“Az-Ziyodot” – Fiqhiy masalalarning qo‘shimcha bayonlari jamlangan asar.
“Al-Kashshof” – Mahmud Zamaxshariyning balog‘at asosidagi tafsiri.
“Al-Futuhotu-l-Makkiyya” – Ibn Arabiy tomonidan yozilgan tasavvufiy qomus.
“Mashariqu-l-anvor” – Hasan Sog‘oniy tomonidan hadislar asosida tuzilgan asar.
“Masobiyhus-sunna” – Bag‘aviy tomonidan hadislarni jamlagan kitob.

Ushbu asarlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarixiy manbalar, eski va yangi nashrlar, ilmiy maqolalar va islomiy ensiklopediyalarga tayangan holda yig‘ildi.

Metodlar (Methods). Tadqiqot tarixiy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Har bir asarning:

Muallifi va uning ilmiy maktabi
Asarning tarkibi va asosiy mavzulari
Sharhlari va keyingi avlodlar tomonidan davom ettirilganligi
Nashr tarixi va geografik tarqalishi

singari mezonlari o‘rganildi. Qiyosiy yondashuv orqali bir muallifning boshqa asarlarga ta’siri ham ko‘rib chiqildi. Zaruratga qarab fiqh, tafsir, hadis va tasavvuf terminologiyasi kontekstida lug‘aviy va uslubiy tahlillar kiritildi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi:

Muhammad Shayboniy fiqh ilmidagi asoschi shaxs sifatida Zohirur Rivoya deb nomlangan to‘plamni shakllantirgan, bu esa Hanafiylikda huquqiy asos sifatida qabul qilingan.

Zamaxshariy tafsirda lug‘at ilmi va balog‘atga tayangan, bu uni boshqa mufassirlardan ajratib turgan.

Ibn Arabiy tomonidan yozilgan “Al-Futuhotu-l-Makkiyya” asari tasavvuf tarixidagi eng muhim manbalardan biri sifatida qaralgan.

Bag‘aviy va Sog‘oniy hadis ilmini yuksak darajaga olib chiqqan, ular yaratgan hadis to‘plamlari islom olamida keng yoyilgan.

Har bir asar o‘z davrining ilmiy ehtiyojlariga javoban paydo bo‘lgan va o‘z yo‘nalishida maktab asoschisi bo‘lgan.

Munozara (References). Sayyid Sharif Jurjoniy “Ta’rifot” asarida sakkizta asarning nomini zikr etib o’tgan. Ular Muhammad Shayboniyning “Al-Mabsut”, “Al-Jomeas-sag’ir”, “Al-Jome al-kabir”, “Az-Ziyodot” asarlari, Mahmud Zamaxshariyning mashhur “Al-Kashshof” tafsiri, Muhyiddin Ibn Arabiyning “Al-futuhotu-l-makkiya” asari, Sog’oniyning “Mashariqu-l-anvor” asari hamda Bag’aviyning hadisga oid “Masobiyhu-s-sunna” asarlaridir.

1. “Al-Mabsut” (kengaytirilgan) yoki “Al-Asl. Muhammad ibn Hasan Shayboniyning ilk yozgan kitoblaridan biri bo’lgani uchun ham “Al-Asl” ma’nosini olgan bo’lib, und Abu Hanifa (rahimahulloh)ning fatvo bergan masalalari to’plangan. Agar o’sha masalaga Abu Yusuf bilan Muhammad xilof qilishgan bo’lsa, u ham zikr qilib ketilgan. Agar hech qanday xilof qayd etilmagan bo’lsa, bu uch imomning ittifoq qilgan masalalari hisoblanadi. Ba’zi o’rinlarda Ibn Abu Layloning (693-765) fikrlari ham zikr qilingan.

Muhammad Shayboniydan rivoyat qilingan “Al-Mabsut”lar ko’p. Ularning eng zohirrog’i, eng mashhur nusxasi Abu Sulaymon Juzjoniyga (vaf. 200/815) tegishli. Shayxul Islom Abu Bakr Xoharzodaniki (vaf. 483/1090) “Mabsuti Shayxil Islom” yoki “Katta Mabsut” deyiladi. Shamsul aimma Saraxsiy (1009-1090)va ustozi Shamsul aimma Halvoniy (va. 456-106) nusxalari mavjud. Zohiri rivoya masalalarini jamlab, Hokim Shahid (vaf. 334/945) “Kitobul Kofiy” asarini yozgan va u ham “Al-Asl” deb ataladi. Unga Shamsul aimma Saraxsiy va Shayxul islom Isbijobiylar (vaf. 535/1140) sharhlar yozishgan.

“Al-Mabsut” Qohirada 1954-yilda, sal keyinroq Karochida 5 jild qilib nashr etilgan. “Fasod” bo’limi nemis tiliga tarjima qilingan.

2. “Al-Jomi’ as-sag’ir” (kichik to’plam). Bu kitobda muallif Abu Yusuf vositasi bilan Abu Hanifadan rivoyat qilingan masalalarni zikr etgan. Shuning uchun har bir bob “Muhammad

Ya’qubdan, u esa Abu Hnifadan rivoyat qildi…” jumlasi bilan boshlanadi.

“Al-Jomi’ as-sag’ir” garchi Muhammad Shayboniyning asari ekani aniq bo’lsa-da, aslida u tartibga solinmagan bo’lgan. Uni ikki shaxs - Abul Hasan ibn Ahmad Za’faroniy (X asr) hamda Abu Tohir Muhammad ibn Muhammad Dabbos (X asar) tartibga solib, mavzular bo’yicha boblarga ajratib chiqqani manbalarda zikr etiladi.

“Al-Jomi’ as-sag’ir”da 1532ta masala bayon etilgan bo’lib, 170 masalada ixtiloflar ko’rsatilgan. Asarda qiyos va istehson masalalari yo’q, faqat ikki masala – meros masalasida ular ko’rsatilgan.

Abu Ja’far Tahoviy (853-933), Abu Bakr Jassos (918-980), Abu Lays Samarqandiy (vaf. 393/1003), Abulqosim Roziy (vaf.474/1081), Shamsulaimma Saraxsiy (1009-1090), Sadrul Islom Pazdaviy (vaf.493/1099), Abul Muin Nasafiy (vaf. 508/1114), Abu Bakr Balxiy (553/1158), Abu Nasr Attobiy (vaf.586/1190), Imom Qozixon (vaf. 592/1195) kabi mashhur faqihlar unga sharhlar bitishgan.

A’l-Jomi’ as-sag’ir” Misrda “Amiriya” matbaasida 1884-yili “Kitobul xaroj” bilan birga nashr qiligan. Shuningdek, asar Hindistonda besh karra toshbosmalarda nashrdan chiqqan.

3. Al-Jomi’ al-kabir” (katta to’plam). Bu muallifning eng ahamiyatli asarlaridan biri bo’lib, uning ikki tahrir varianti bor. Birinchi variantini Abu Hafs Kabir (767-831) vaAbu Sulaymon Juzjoniy (vaf. 200/85) hamda Muammad ibn Samoa kabi shogirdlari rivoyat qilganlar. Keyinchalik muallif bu asarga yana murojaat qilib, qayta ishlagan: ba’zi bob va mavzular qo’shgan; jumlalarni tahrir qilgan, ixchamlashtirgan. Bu variantni shogirdlar yana qayta rivoyat qilganlar.

“Al-Jomi’ al-kabir”da Muhammadning o’zi Abu Hanifadan rivoyat qilgan masalalari jamlangan, unda Abu Yusufdan qilingan rivoyatlar uchramaydi. Mazkur asar bilan “Al-Jomi’ as-sag’ir” fiqhiy dalillardan holi, ularda oyat yoki hadisdan fiqhiy masalaning dailili keltirilmaydi. “al-Jomi’ al-kabir” Qohira va Haydarobodda 1937-yili nashr qilingan.

4. Az-ziyodot” (ziyoda masalalar). “Zohirur rivoya kitoblariga kiritilgan mazkur oltinchi asarni, garchi ba’zi tadqiqotchilar “navodir”dan hisoblashsa-da, lekin rivoyatining mashhurligi jihatidan “Zohiri rivoya kitoblari” kirishga haqlidir.

“Az-Ziyodot”da avvalgi beshta asarda bayon etilmagan masalalar to’plangani uchun shu nom bilan atalgan. Muallif “Al-Jomi’ al-kabir”ni yozganidan so’ng juda ko’p masalalarning yechimi bayon etilmay qolganini sezib, mazkur kitobni yozishga jazm qiladi. Keyinchalik yana ba’zi masalalar chiqib qoladi. Shuning uchun muallif tomonidanyana yetti bobdan (taloq, savdo, namoz mavzulariga oid) iborat “Ziyodatuz ziyodot” (“Az-Ziyodot”ga ziyoda masalalar) asari tasnif qilingan

Hanafiy olimlari mazkur kitobga katta e’tibor qaratganlar, unga sharhlar bitganlar, ixchamlashtirganlar, “Az-Ziyodot” bilan “Ziyodatuz ziyodot”ni bir asar sifatida ko’rganlar. Qozixon (vaf. 592/1195), Abu Hafs Sirojuddin Hindiy (vaf. 773/1371), Faxrul Islom Pazdaviy (1009-1089), Shamsul aimma Halvoniy (vaf. 456/1063), Abulqosim Attobiy (vaf. 586/1190) sharh yozganlar. Hokim Shahidning (vaf. 334/945) ham sharhi bor. Shamsul aimma Saraxsiy (1009-1090) mahbuslikda yotganida “Ziyodatuz ziyodot”ni shogirdlariga yoddan aytib yozdirgan.

Shamsul aimma Saraxsiyning “an-Nukot sharhuz ziyodot” va Abu Nasr Zayniddin Ahmad Attobiy Buxoriyning (vaf. 586/1190) “Sharhuz ziyodot” nomli sharhlari birgalikda Abul Vafo Afg’oniy tomonidan 1958-yili Haydarobodda nashr etilgan.

5. Al-kashshof. Mahmud Zamaxshariy qalamiga mansub.

Az-Zamaxshariyning to‘liq nomi Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Umar Al-Xorazmiy Al-Imom Al-Hanafiy Al-Mo‘taziliy bo‘lib, laqabi «Jorulloh», to‘rt yuz oltmish yettinchi hijriyda Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgan.

Az-Zamaxshariyning turli ilm sohalarida o‘ta hassoslik bilan ta’lif etgan asarlari bor. Ularning birinchisi «Al-Kashshof» tafsiridir. Al-Kashshof» garchi e’tizoliy aqidaga muvofiq yozilgan bo‘lsa ham, bundan qat’iy nazar juda yuqori qimmatga ega bo‘lgan tafsirdir. Qur’oni Karimning mo‘jizlik siri, nazmining go‘zalligi va balog‘atdagi yuksak darajasi muallif tomonidan ochib berilgan.

Buning sababi Az-Zamaxshariyning juda ko‘p ilm sohalarini, xususan arab lug‘atining jozibakorligi, ash’orlar, balog‘at, bayon, e’rob, adab ilmlarini mukammal bilganligidir. Az-Zamaxshariy oyatlardagi jozibani darhol ilg‘ab olardi. O‘zining bunday fazilat egasi ekanligiga «Al-Kashshof»ning muqaddimasida ishora etadi:

«Ilmlarning eng nozigi, har qanday aqlni hayron qiladigani tafsir ilmi bo‘lib, unga har qanday olim jur’at qilavermaydi.

Al-Johiz «Nazmul Qur’on» kitobida yozganidek, faqih agar hukm va fatvoda barcha tengdoshlaridan g‘olib bo‘lsa ham, mutakallim garchi kalom san’atida ahli dunyolarni lol etsa ham, tarixchi va hofiz Qirriyyaning o‘g‘li (Uning ismi Ayyub, arab suxandonlarida biri. Qirriyya esa uning onasi)dan zehni o‘tkirroq, voiz agar Al-Hasan Al Basriydan gapdonroq, An-nahviy agar Sibavayhdan bilimdonroq bo‘lsa ham, lug‘at olimi lug‘atlarni saqichdek chaynab tashlasa ham, ammo ular Qur’on yo‘li oldida ojiz, haqiqatini idrok etishdan gungdir.

Ammo Qur’onga xos bo‘lgan ikki ilm: maoniy va bayonda o‘tkir ilm sohibi bo‘lgan odam bu ishning uddasidan chiqishi mumkin». (Az-Zamaxshariy. Al-Kashshof, 1-j. 12-15-b.)

6. Masobiyhu-s-sunna. Ushbu asar Abu Muhammad Husayn ibn Mahmud ibn Muhammad Al-Farro Al-Bag’aviyning (433-515-h.) qalamiga mansubdir.

Bizga uning tug’ilish sanasi faqatginaYoqut o’zining “Mujamu-l-buldon” aniqlab bergan. U “tug’ilgan yili 433-yilning jumadal ulasida” deb qayd etgan. “Farro” mo’ynafurush degani, Bag’aviy nisbati esa tug’ilgan joyi - Bag’o (Bag’, Bag’shur” shahriga tegishlidir.

Tug’ilgan shahri Bag’odan Marvaruzga 460-yildan keyin ko’chib o’tgan. Qolgan umrini shu shaharda to umrining oxirigacha o’tkazadi. Shayxlardan ilm olib, bu yerni o’ziga ikkinchi vatan qilib oladi. Ko’p olimlar uni ushbu shahardan boshqa shaharda ilm talabida safar qilmaganligini ta’kidlashsa-da, uni boshqa shaharlarga safar qilganini aytuvchilar ham bor.

U e’tiqodda ahlisunna mazhabida, fiqhda esa shofeiy mazhabida bo’lgan. Uning “Tahzib” kitobi shofeiy mazhabining eng mo’tabar kitoblaridan hisoblanadi. Zahabiy uni shofeiy mazhabining mujtahidlaridan ekanini e’tirof etgan. Undan bizgacha 15ta asari yetib kelgan, ammo ulardan 4tasigina chop etilgan. Uning eng mashhur asarlari sifatida fiqhga oid “Tahzib”, tafsirga oid “Maolimu-t-tanzil” va hadisga oid “Masobiyhus-s-sunna” va “Sharhu-s-sunna” asarlarini ko’rsatishimiz mumkin.

Bag’aviy 516-hijriy sanada Marvruz shahrida vafot etgan. “Toliqon” qabristonig, shayxi Qozi Husayn oldiga dafn etilgan. 510-yil shavvol oyida etgan degan fikr ham mavjud bo’lsada, ko’pgina manbalarda uning vafoti 516-yilda bo’lganini va Bag’aviy sakson yoshdan oshgani ta’kidlanadi.

“Masobiyhu-s-sunna” asari ko’plab asarlarda Bag’aviyga nisbat berilgan. Ushbu manbalarning aksarida asar “Masobiyh” deb nomlangan. Muallifning o’zi asarning nomini ko’rsatmagan. Shuningdek, uni “Masobiyhud duja” va “Misbohus sunna” deb ataganlar ham bor. Keyinchalik, “Masobiyhus sunna” –“sunnat chiroqlari” nomi asarning mashhur nomiga aylanib ketgan. Ushbu nomni ilk bora qo’llanilishini Hoji Xalifaning “Kashfuz zunun” asarida ko’rishimiz mumkin. Jurjoniy ham “Ta’rifot” da asar nomini “Masobiyh” deb ko’rsatib o’tgan.

“Masobiyhus sunna” 1294 va 1318-hijriy sanalarda Misrda “Bulaq” matbaasida va keyinchalik Bayrutda “Dorul qalam” bosmaxonasida chop etilgan. Asarning zamonaviy nashri 1987-yil Bayrutda, “Dorul ma’rifa” nashriyotida, Yusuf Mira’shaliy tahqiqi ostida amalga oshirilgan.

Asarda hadislar mavzularga bo’lingan holda go’zal tarzda tartiblanganini tadqiqotchilar e’tirof etishadi. Asarda jami bo’lib 4931ta hadis keltirilgan. Muallifning asardagi o’ziga xos termin qo’llash tarziga muvofiq Imom Buxoriy vaImom Muslim rivoyat qilgan hadislarni sahih, boshqa muhaddislar rivoyat qilgan hadislarni esa hasan deb ta’riflagan. Ko’pchilik olimlar bu ta’riflarni qabul qilishmagan.

Asarning sharhlari, taxrijlari va muxtasarlari qo’shib hisoblaganda qirqdan oshardi. Ularning eng mashhuri Xatib Tabriziyning “Mishkotul masobiyh” asari bo’lib, ushbu asar keyingi asrlarda juda keng tarqalgan. Ushbu asarga ham ko’plab sharhlar bitilgan, taxrijlar va muxtasarlar bitilgan.

7. Al-futuhotu-l-makkiyya. Ushbu asarning muallifi Ibn Arabiy hisoblanadi. Ibn Arabiy (Ibn

al-Arabiy), Muhyi ad-din Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali al-Hotamiy at-Toiy (1165-1240) - diniy faylasuf, «vahdati vujud» ta'limoti asoschisi, so'fiylikning ko'zga ko'ringan vakili. «Ulug' shayx» (muallim), «Aflotun (Platon)ning o'g'li» nomlari bilan ulug'langan. Andalusiya (Ispaniya) ning Mursiya sh.da tug'ilgan va diniy bilim olgan.

Dunyoqarashi so'fiylar ta'sirida shakllanib, Andalusiya va Shim. Afrika bo'ylab safarga chiqqan, mashhur olim va mutafakkirlar bilan muloqotda bo'lgan. I. A. shuningdek, Sharkdagi yirik musulmon so'fiy va ilohiyotchilari Xarroz, Hakim at-Termiziy, Xalloj, G'azoliy va b.ning asarlarini ham o'rgangan. 1200 y.da haj ziyoratiga borib, umrining oxirigacha Sharqda qolgan. 1201 y.da Makkada yashagan, bu yerda mashhur she'riy to'plami - «Tarjumon al-ashvoq» («Ishqiy shavq tarjimoni»)ni hamda so'fiylikka oid risolalarini yozgan. Shu yerda ko'p jildli «Futuhot al-makkiya» («Makkaning fath etilishi») asari ustida ish boshlagan. Bu asarni «so'fiylik qomusi» deb atashadi.

I. A.ning eng mashhur risolasi «Fusul al-hikam» bo'lib, unga 150 dan ortiq sharxlar yozilgan. Umuman I. A. ijodiy merosi 300 ga yaqin asarni tashkil etadi. Olim Damashq sh. yaqinidagi tog' yonbag'riga dafn qilingan. Sulton Salim I buyrug'i bilan 16-a. boshida uning qabri ustiga mahobatli maqbara qurilgan, bu maqbara hoz. ham mavjud. I. A. zamonasining barcha ilmiy oqimlaridan xabardor edi. U Ibn Rushd, Suhravardiy, ar-Roziy va b. bilan uchrashgan hamda yozishib turgan. Mashhur shaxslarga sajda qilishni inkor qilgan. I. A. o'rta asrlar musulmon olamida eng ziddiyatli shaxslardan biri. Uning qarashlarini Ibn Taymiya, Taftazoniy singari ilohiyotchilar, shuningdek, arab tarixchisi Ibn Xaldun keskin tanqid qilgan. Boshqa ko'pgina musulmon ulamolari esa, uni himoya etgan.

Uning eng mashhur asarlaridan biri "Al-futuhotu-l-makkiyya" bo'lib, ushbu kitob tasavvuf ilmidagi eng mashhur va shu bilan birgalikda atrofida ko'p jadallar boradigan asarlardandir. Asar 1985-yili Misrda "Alhay'atul misriyyatul ommatu lilkitab" tomonidan, 1999-yili Bayrutda "Dorul kutubil ilmiyya" tomonidan nashr etilgan.

Asarni Jurjoniy "Al-fathu-l-makkiy" nomi bilan keltirgan bo'lsada, u barcha manbalarda "Al-futuhotu-l-makkiyya" nomi bilan zikr qilinadi.

8. Mashariqu-l-anvor. Asarning muallifi Hasan Sog'oniydir. Uning to'liq ismi Rodiyyuddin Abulfazoil Al-Hasan ibn Muhammad ibn Al-Hasan ibn Haydar Al-Qurashiy Al-Adaviy Al-Umariydir. Sog'oniy aslida Movarounnahrdagi Sog'on shahrida tug'ilmagan bo'lsada, asl kelib chiqishi Sog'ondan bo'lgani bois ushbu nisbatni olgan.

Sog'oniy 577-hijriy sana safar oyining o'n beshinchisida Hindistonning Lohur shahrida tavallud topgan. Sog'oniy bolaligida otasi bilan o'sha paytdagi ilm markazi G'azna shahriga ko'chib o'tadi. Keyinchalik voyaga yetgach, ilm safari bilan Iroq, Makka va Adangacha boradi. So'ng yana Iroqning Bag'dod shahriga qaytadi. Shu tariqa yana bir necha bor Yaman va Makkaga safar qilganini tarixchilar zikr etishadi.

Nihoyat olim Bag'dod shahrida qo'nim topadi va bu yerda turli vazifalarga tayinlanadi. Bag'dodga keluvchi tolibi ilmlar uning darslariga oshiqishar edi. Umrining so'nggida Sog'onida lug'at ilmidagi yirik kitoblarini ta'lif etish va dars berish bilan o'tkazadi. Buyuk olim 650-hijriy sana sha'bon oyining o'n to'qqizinchisida vafot etgan. Farzandlari uning vasiyatiga ko'ra Makkaga Fazl ibn Abbosning qabrining yoniga dafn etishadi.

Sog'oniy e'tiqodda ahlisunna mazhabida, fiqhda hanafiy mazhabida bo'lgan. U o'zidan ko'plab asarlar qoldirgan. Asarlari turli ilmlarga oid bo'lib, Qur'on, hadis, fiqh, tasavvuf va tarix ilmlari shular jumlasidandir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha uning asarlari soni 46taga yetadi. Ularning eng ichida eng yirik va eng ahamiyatga moliklari sifatida lug'at ilmiga oidlaridir.

"Mashariqu-l-anvori-n-nabaviyyati min sihohi-l-axbori-l-mustafaviyyati" asarida Sog'oniy o'zining "Misbohu-d-duja min sihohi hadisi-l-mustofa" va "Ash-shamsu-l-muniyrotu mina-s-sihohi-l-ma'suroti" asarlarini birlashtirib yozgan. Asar hadis ilmiga bag'ishlangan. Hali chop etilmagan.

“Ta’rifot” asarida zikr etilgan kitoblar ro’yxati:

Asar	Muallif	Istiloh
Al-fathu-l-makkiy	Ibn Arabiy	Murid
Al-kashshof	Zamaxshariy	Islom
Mashariqu-l-anvor	Hasan Sog’oniy	San’atut tasmit
Al-jome as-sag’ir	Muhammad Shayboniy	Usulul fiqh
[1]Al-jome as-kabir	Muhammad Shayboniy	Usulul fiqh
Az-ziyodot	Muhammad Shayboniy	Usulul fiqh
Al-mabsut	Muhammad Shayboniy	Usulul fiqh
Al-masobih (Masobiyhus sunna)	Bag’aviy	Bid’u (bir qancha)

Xulosa (Conclusion). Jurjoniy zikr etgan sakkizta asar islom ilmlarining har bir asosiy yo‘nalishini qamrab olgan. Har bir muallif o‘z sohasi doirasida chuqur bilimga ega bo‘lib, o‘z asari orqali ilmiy maktab yaratgan. Ushbu asarlarning o‘rganilishi nafaqat tarixiy merosni saqlab qolish, balki zamonaviy islom ilmlarini chuqur tushunishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu asarlar orqali islom huquqi, tafsir, hadis va tasavvuf ilmlarining bir-biri bilan aloqasi va uzviyligi ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Аминов Ҳ., Примов С. Ҳанафий фиқҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари. Тошкент: Мовароуннаҳр, 2017.
2. Р. Обидов. Қуръон ва тафсир илмлари.Тошкент: ТИУ, 2003. www.ziyouz.com
3. Ислом энциклопедияси. Зуҳриддин Ҳусниддинов таҳрири остида. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004-йил. www.ziyouz.com.
4. الحسن الصاغني. ام بنته العرب على فعال. دمشق. مطبوعات المجمع العلمي بدمشق. 1964.
5. علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة، مكتبة القرآن. 2003.
6. البغوي. مصابيح السنة. بيروت. دار المعرفة: 1987. .

BERNARD SHAWNING “QUROL VA INSON” ASARIDA QAHRAMONLIK TUSHUNCHASINING KOMEDIK DEVALVATSIYASI

Absamadov Bahodir Urozovich
Turon universiteti o‘qituvchisi
ORCID 0009-0008-8719-953X

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jorj Bernard Shouning “Qurol va inson” asarida qahramonlik tushunchasining komedik devalvatsiyasi (qadrsizlantirilishi) yoritiladi. Muallif Shou tomonidan ishlatilgan satira, irodiya va anti-romantik obrazlar orqali urush va qahramonlikka oid ideal tasavvurlar qanday tanqid ostiga olingani tahlil qilinadi. Ayniqsa, amaliy fikrlovchi “shokoladli askar” Bluntschli va idealistik, lekin kulgili qahramon Sergius kabi obrazlar qarama-qarshiligi orqali an’anaviy stereotiplar parchalab tashlanadi. Mazkur pyesa nafaqat dramatik asar sifatida, balki jamiyatga tanqidiy nigoh bilan qarash vositasi sifatida tahlil qilinadi. Maqolada M. M. Baxtin nazariyasiga tayangan holda, kulgi tomoshabinni ilohiylashtirilgan tushunchalardan ozod qilishga xizmat qilishi va shu orqali jamiyat qadriyatlariga yangicha nigohni shakllantirishi isbotlab beriladi. Tadqiqot yakunida Shouning boshqa komedik pyesalarida ham shunga o‘xshash yondashuvlar mavjudligi va ularni o‘rganish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar. Jorj Bernard Shou, Qurol va inson, qahramonlik, komediya, satira, irodiya, anti-romantizm, obraz tahlili, Bluntschli, Sergius, ijtimoiy tanqid, komedik devalvatsiya, zamonaviy drama.

КОМЕДИЙНАЯ ДЕВАЛЬВАЦИЯ ПОНЯТИЯ ГЕРОИЗМА В ПЬЕСЕ ДЖОРДЖА БЕРНАРДА ШОУ «ОРУЖИЕ И ЧЕЛОВЕК»

Аннотация. В данной статье рассматривается комедийная девальвация понятия героизма в пьесе Джорджа Бернарда Шоу «Человек и оружие». Автор анализирует, как Шоу с помощью сатиры, иронии и антиромантических персонажей подвергает критике идеализированные представления о войне и героизме, характерные для литературного и общественного сознания его времени. Через противопоставление прагматичного “шоколадного солдата” Блунтшли и театрально-героического Сергиуса Шоу разрушает традиционные стереотипы. Пьеса рассматривается не только как драматическое произведение, но и как средство социальной критики, где комедия становится инструментом пробуждения мышления и переоценки ценностей. В статье, опираясь на теорию М. М. Бахтина, доказывается, что смех освобождает от догматического преклонения и способствует переосмыслению идеалов общества. В заключение подчеркивается, что аналогичный подход наблюдается и в других пьесах Шоу, что открывает перспективы для дальнейших исследований.

Ключевые слова. Джордж Бернард Шоу, Человек и оружие, героизм, комедия, сатира, ирония, антиромантизм, анализ персонажа, Блунтшли, Сергиус, социальная критика, Бахтин, комедийная девальвация, современная драма.

THE COMEDIC DEVALUATION OF THE CONCEPT OF HEROISM IN GEORGE BERNARD SHAW’S ARMS AND THE MAN

Abstract. This article explores the comedic devaluation of the concept of heroism in George Bernard Shaw’s play Arms and the Man. The study demonstrates how Shaw employs satire, irony, and anti-romantic characterization to challenge idealized notions of war and heroism that were prevalent in both literary and socio-political discourse of his time. Through the juxtaposition of characters such as Bluntschli – the pragmatic “chocolate-cream soldier” and Sergius – the

parody of a romantic war hero – Shaw dismantles traditional heroic stereotypes. The play is analyzed not only as a dramatic text but as a vehicle of social critique, where comedy becomes a powerful tool to provoke reflection and foster critical thinking. Drawing upon Bakhtinian theory, the article affirms that laughter liberates the audience from dogmatic reverence, opening a space for reevaluation of societal ideals. The study concludes by suggesting that similar methods of comic deconstruction are present in Shaw’s other works and deserve further scholarly exploration.

Key Words. George Bernard Shaw, Arms and the Man, heroism, comedy, satire, irony, anti-romanticism, character analysis, Bluntschli, Sergius, social critique, comedic devaluation, modern drama.

Kirish. Komediya – qadimiy dramatik janr bo‘lib, inson va jamiyatdagi kulgili holatlarni yengil, kinoyali yoki satirik shaklda aks ettiradi. Aristotel “Poetika” asarida komediyani “eng yomon kishilarni” tasvirlaydigan, ammo bu orqali yaxshilikka yo‘naltiradigan janr sifatida talqin qilgan [1; 127]. Komediya o‘zining shakl va mazmun jihatdan xilma-xilligi bilan jamiyatdagi muhim ijtimoiy va axloqiy masalalarni o‘tkir, ammo yumshoq usulda ko‘tarishga xizmat qiladi. Ayniqsa, satirik komediya bu borada chuqur ma’naviy va g‘oyaviy yuklamaga ega bo‘lib, stereotiplar, siyosiy tartibotlar va tarixiy qahramonlik timsollarini tanqid qilish uchun qulay maydon yaratadi [2; 383].

XX asr boshlari ingliz dramaturgiyasida aynan shu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirgan yozuvchilardan biri – Jorj Bernard Shoudir. U o‘zining ko‘plab sahna asarlarida ijtimoiy masalalarni o‘tkir aql, satira va noan’anaviy qarashlar orqali yoritdi. Shawning 1894-yilda yozilgan “Arms and the Man” (Qurol va inson) nomli pyesasi aynan shu tendensiyaning yorqin namunasi bo‘lib, unda u romantik urush qahramonligi haqidagi an’anaviy qarashlarni komedik vositalar bilan dekonstruksiya qiladi [3]. Asarda urushdagi “qahramonlik”, shon-sharaf, erkaklik va idealizm tushunchalari kulgili va tanqidiy ko‘rinishda beriladi.

Shauning mazkur asari orqali ko‘tarilgan muammo hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Zamonaviy jamiyatda ommaviy madaniyat, kino, tarixiy yodgorliklar va siyosiy diskurslar orqali shakllantirilayotgan “qahramonlik” obrazi ko‘pincha real voqelikdan yiroq bo‘lib, tanqidiy qarashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “Qurol va Inson” pyesasida komediya orqali qahramonlik tushunchasining devalvatsiyasi – ya’ni qadrsizlanishi – ilmiy tahlil uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada biz “Qurol va Inson” asarini tahlil qilish orqali qahramonlik g‘oyasining qanday komedik vositalar orqali tanqid qilinganini ko‘rib chiqamiz, asardagi asosiy obrazlar, syujet tuzilmasi va komik uslublarning bu jarayondagi o‘rnini tahlil qilamiz. Maqola o‘z navbatida komediya janrining ijtimoiy tanqid vositasi sifatida qanday ishlashini ham ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada adabiy-tahliliy, qiyosiy va nazariy-interpretativ metodlar asosida Jorj Bernard Shouning “Qurol va Inson” pyesasida qahramonlik tushunchasining komedik devalvatsiyasi o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi sifatida matn tahlili ya’ni asardagi asosiy sahnalar, personajlar (xususan, Bluntschli va Sergius) va ularning dialoglari chuqur tahlil qilinib, qahramonlik tasavvurining qanday komedik vositalar bilan dekonstruksiya qilinganiga e’tibor qaratildi. Shuningdek, komediya nazariyalari asosida baholash yondoshuvi orqali esa Aristotel, Northrop Frye, Dukore Frank kabi adiblarning komediya janriga oid qarashlari, shuningdek M.M. Baxtinning “kulgining ozodlik beruvchi kuchi” haqidagi konsepsiyasi asosida dramatik kulgi vositalari tahlil qilindi. Ijtimoiy-kulgi kontekstida esa, pyesada aks ettirilgan ijtimoiy stereotiplar, jamiyatdagi qahramonlik va erkaklik timsollarining qanday qilib komediya orqali tanqid ostiga olingani ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yoritildi. Ushbu metodlar asosida olib borilgan tahlil, “Qurol va Inson” pyesasida qahramonlik tushunchasining qadrsizlantirilishi qanday badiiy va g‘oyaviy vositalar orqali amalga oshirilganini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Komediya janrining tarixiy rivojiga nazar soladigan bo’lsak,

klassik davrda Aristotel “Poetika” asarida komediyani “insonning ijtimoiy xatolarini kulgili shaklda tasvirlash orqali ularni to‘g‘rilash funktsiyasini bajaruvchi janr” deb belgilaydi [1; 127], va bu janr ijtimoiy tanqid vositasi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Cyrus Henry Hoyga ko‘ra antik komediya qadimiy Yunon ro‘yxatlaridan boshlab jamiyatni “aynan oynasiga soladigan” asar sifatida ko‘riladi [4]. 20-asrda Frye komediyani “ijtimoiy korektiv” sifatida baholab, uning ironik va satirik elementlari orqali jamiyatdagi absurdliklarni ochishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [2]. Umuman, maqolamiz nuqtai nazaridan komediya janrining ijtimoiy tanqidga yo‘naltirilganligi Shou pyesalarining kontekstini aniqlash uchun muhim adabiy poydevor hisoblanadi.

Shou ijodida komediya ijtimoiy stereotiplar, urush, idealizmni tanqid qilish vositasidir. Almaaroof Ansam o‘zining “A Realist Play: The Structure of “Arms and the Man”” (Realistik drama: “Qurol va inson” asarining tuzilmasi) maqolasida Shou asarini realistik komediya sifatida ko‘rib, urushga qarshi satira va komik dialoglar strukturasining ijtimoiy konstruktlarni buzishga xizmat qilgani, urush siyosati masxara uslubida satiraga olinganligini ta’kidlanadi [5]. Churamoni Kandel “Anti-romanticism in Arms and the Man” (“Qurol va inson” pyesasida anti-romantizm) maqolasida realistik, romantik stereotiplar buzilishi, romantik urush - romantizmini rad etilishi tahlil qilingan. [6]

Bir guruh olimlar, jumladan Srimay Sinha “(Anti)romantik komediya janri: “Qurol va inson” asari misolida janr masalasiga yondashuv” maqolasida: Shouning “Qurol va inson” pyesasini romantik komediya emas, balki “anti-romantik komediya” deb belgilaydi — qahramonlik va muhabbat stereotiplarini qayta qurish namoyish etiladi deb hisoblaydi [7]. Stephane Guy [8] o‘zining “The Representation of War in Bernard Shaw’s Victorian Plays” (Bernard Shouning Viktoriya davri dramalarida urushning ifodalanishi) maqolasida Shouning “Qurol va inson” pyesasida urush haqidagi romantik stereotiplar satira qilib, qahramonlik tushunchasining jiddiy emasligi ko‘rsatadi: yulduz askarlar oddiy voqelik ichida kulgili portretlarda ko‘rsatilganligini ochib beradi.

Khaleel va Jameel “George Bernard Shaw’s Arms and the Man: A Stylistic Analysis” (George Bernard Shawning Qurol va inson asari: Stilistik tahlili) maqolasida, Shou tilining struktura va lingvistik uslub orqali qahramonlik idealini yorug‘likda sharmanda qilishi haqida muhim yondashuv berishgan [9]. “Heroism and Anti-Heroism: From Arms and the Man to Saint Joan” (Qahramonlik va Antiqahramonlik: “Qurol va inson”dan “Muqaddas Joanna”gacha) maqolasida, Bernard Dukore [10] Shouning ishlarida Bluntschli obrazidagi anti-qahramonlik elementlari obrazda an’anaviy qahramonlik tushunchasini so‘ndiradi. Adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, komediya janri tarixan ijtimoiy tanqid vositasi sifatida shakllangan. Shouning komedik uslubi — satira, ironya, realizm orqali — an’anaviy romantik va qahramonlik stereotiplarini buzish, real voqelikni ko‘rsatishda markaziy ahamiyatga ega. “Qurol va inson” pyesasiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar esa, aynan shu kontekstda, qahramonlik tushunchasining komedik devalvatsiyasini asoslab beradi.

Natijalar va muhokama. Jorj Bernard Shouning “Qurol va inson” pyesasida komediya vositalari – xususan satira va ironiya – urush va qahramonlik kabi yuksak tushunchalarning romantik talqinini shubha ostiga qo‘yishda markaziy rol o‘ynaydi. Shou bu asarda urush qahramonlari haqida shakllangan an’anaviy stereotiplarni parchalab, ularni kulgili, ealistic va hatto ba’zan istehzoli ko‘rinishda tasvirlaydi. Aynan shu yondashuv orqali qahramonlikning komedik devalvatsiyasi amalga oshiriladi.

Bluntschli – anti-romantik qahramon va sog‘lom fikr timsoli. Asarda asosiy qahramonlardan biri – Shveysariya askari Kapitan Bluntschli. U romanlarda uchraydigan idealistik, jasur, o‘zini qurbon qiladigan qahramon tipidan tubdan farq qiladi. Bluntschli jang maydonida qurol emas, shokolad olib yuradigan, o‘z hayotini saqlab qolishni afzal ko‘radigan amaliy va realist insondir. Aynan shu “shokoladli askar” metaforasi orqali Shou qahramonlikni absurd va kulgili holatga olib keladi [3].

Bluntschli obrazi – qahramonlikni o‘ziga xos “oddiylik va aql bilan almashtirish” modelidir. U hech qachon o‘zini qahramon deb bilmaydi, aksincha, idealistik urush tasavvurlarini masxara

qiladi. Bu esa uni zamonaviy “anti-qahramon” sifatida tasvirlaydi. Sinha [7] asarda Bluntschlining pragmatik xarakteri orqali “qahramonlikka bo‘lgan absurd ishonch” tanqid ostiga olinganini ta’kidlaydi.

Sergius – idealistik qahramonning kulgili portreti. Bluntschlining qarama-qarshi obrazi sifatida Sergius Saranoff – romantik idealga asoslangan “qahramonlik” timsolidir. U jangda “jasorat” ko‘rsatgan, mukofot olgan, ammo o‘z “qahramonona” harbiy harakati aslida harbiy strategiya nuqtayi nazaridan kulgili va noo‘rin bo‘lgan serbiyalik zodagon ofitser. Sergius o‘zining idealistik pozitsiyasida davom etadi — u urushni teatr sahnasi, o‘zini esa dramatik rol ijrochisidek ko‘radi. Aynan shu pozitsiya orqali Shou uni kulgili va istiholarga boy obrazga aylantiradi. Pyesaning bir sahnasida Sergius urush haqidagi romantik fikrlarini izhor etar ekan, Bluntschli unga: “This is a war, not a splendid gentleman’s duel” (“Bu urush, janoblarcha duel emas”) deb javob beradi. Bu dialog orqali idealistik qahramonlik tasavvuri ironik tarzda inkor etiladi.

Sergiusning shaxsiyati ham ikkiyuzlamachilik va ichki qarama-qarshiliklarga boy: u yuqori axloqiy qadriyatlar haqida so‘z yuritsa-da, ayollarga nisbatan ikkiyuzlamachi munosabatda bo‘ladi. Ayniqsa, Louka bilan bo‘lgan yashirin munosabati uning axloqiy cheklanganligini fosh etadi. Shou bu orqali romantik urush qahramonlari haqidagi stereotiplarni rad etadi va realizmga asoslangan ijtimoiy tanqidni ilgari suradi.

Sergius obrazidagi ishonchsizlik, noaniqlik va dramatik harakatlar uni parodiya darajasiga olib chiqadi. Al-Rubaiy va Ahmed [11] tahlilida Sergius “parodiyalangan qahramonlik arxetipi” sifatida talqin qilinadi – ya’ni u qahramon emas, balki qahramonlikni taqlid qilayotgan obraz sifatida ta’riflanadi.

Ironiya va satira orqali stereotiplarni yemirish. Shouning pyesasida har bir sahna ijtimoiy stereotiplarni satira orqali tahlil qiladi. Urush – bu yerda shon-shuhrat emas, balki axmoqlik va insoniy zaifliklar maydonidir. Sevgi – bu yerda balandparvoz romantika emas, balki chalkashlik va o‘zgaruvchanlik manbai. Qahramonlik esa – bu yerda kulgili noto‘g‘ri tushuncha, istiholarga yo‘g‘rilgan fojiaviy illyuziya tarzida ifodalaydi.

Urush va qahramonlik tushunchasining tanqidi. Jorj Bernard Shouning “Qurol va inson” asarida urush va qahramonlik g‘oyalari faqat syujet vositasi emas, balki g‘oyaviy tanqidiy o‘q nuqtasi hisoblanadi. Shou bu pyesada tarixiy va jamiyatshunoslik jihatdan muhim bo‘lgan – ammo ko‘p hollarda idealistik tasvirda beriladigan – qahramonlik va urush romantikasi tushunchalarini chuqur komedik va satirik ko‘rinishda qayta talqin qiladi. Asarda urush, klassik adabiyotlarda yoki milliy eposlarda bo‘lgani kabi, sharafli kurash emas, balki insoniy zaiflik, strategik chalkashlik va shaxsiy manfaatlar maydonidir. Shou urushni ideallashtirishga emas, balki uni reallik prizmasidan ko‘rsatishga intiladi. Bluntschlining “shokoladli askar” sifatidagi obrazi ham urushni shon-shuhrat emas, balki hayot uchun kurash sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

Sergiusning harbiy muvaffaqiyati amalda strategik xato bo‘lib chiqadi. U o‘zining “qahramonlik ishi” bilan dushmanni emas, balki o‘z harbiy qismlarini xavf ostida qoldirganini tan olmaydi. Bu orqali Shou urushdagi “qahramonlik” ko‘pincha tasodifiy, asossiz va ijtimoiy tasdiqlovga asoslangan fenomen ekanligini ochib beradi [11].

Qahramonlikning komedik devalvatsiyasi. Shou qahramonlikni tanqid qilish orqali uni komedik devalvatsiya qiladi — ya’ni bu tushunchaning jiddiyligini kamaytiradi va uni kulgili qilish orqali yangi yondashuv taklif etadi. Bu devalvatsiya Bluntschlining realizmi, Sergiusning teatrga o‘xshash dramatizmi, va Raina singari obrazlarning romantik illuziyalardan voz kechishi orqali amalga oshiriladi.

Frye [2] komediyani “jamiyatdagi noto‘g‘ri qarashlarni fosh qiluvchi, progressiv shakl” sifatida baholagan, va aynan Shawning pyesasi ham bu ta’rifga to‘liq mos keladi: u o‘quvchini qahramonlikning ijtimoiy konstruksiya ekanligini tan olishga undaydi.

Zamonaviy inson xarakterining realizmi. Bluntschli obrazi Shou dramaturgiyasida zamonaviy inson obrazining yangi modelidir – u ideal emas, balki mantiqiy, amaliy, o‘zini aldamaydigan shaxs. U doimiy qarorlar ichida adashmaydi, balki o‘zini va hayotning haqiqiyligini anglay oladi.

Bunday yondashuv 19–20-asr burilishida yangi realizm to‘lqini bilan uyg‘unlashadi [12].

Shuningdek, Raina singari ayol obrazlarining ham o‘zgarishi – ya’ni romantik illyuziyadan voz kechib, realistik qarashlarga o‘tishi – zamonaviy inson psixologiyasining pyesadagi ifodasidir. Shou ayollarni ham passiv romantik qahramonlar emas, balki fikrlovchi, tanlov qiluvchi shaxslar sifatida tasvirlaydi [13].

Komediya funksiyasining o‘quvchiga ta’sir qilishdagi roli. Komediya adabiy janr sifatida faqat kulgi uyg‘otish vositasi emas, balki o‘quvchini o‘ylantiruvchi, tanqidiy tafakkurni faollashtiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa Bernard Shouning mazkur “Qurol va inson” pyesasida komediya – bu estetik qobiqdagi ijtimoiy tanqiddir. U o‘quvchini yoki tomoshabinni o‘zining mavjud qarashlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi, shuningdek, jamiyatda ildiz otgan stereotiplarni ochib beradi.

Shou komediyani ijtimoiy masalalarni muhokama qilish, stereotiplar va yolg‘on ideallarni rad etish vositasi sifatida ishlatadi. Christopher Innes [13] fikriga ko’ra Shouning “komediya orqali inson ongini uyg‘otish” yondashuvi dramatik vositalarni faqat estetika uchun emas, balki ijtimoiy va axloqiy o‘zgarishlar uchun ishlatishga intilganini ko‘rsatadi.

Pyesani o‘qigan yoki tomosha qilgan tomoshabin an’anaviy “qahramon” obrazi – masalan, Sergius kabi – aslida qanchalik bo‘sh, o‘zini teatrda yurgandek tutadigan, haqiqatdan yiroq inson ekanligini ko‘radi. Bluntschli esa kulgili, kamtar va oddiy ko‘rinishiga qaramasdan, eng real, ongli va mas’uliyatli qahramonga aylanadi. Shu orqali Shou o‘quvchini kuldirgan holda, o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi – bu esa komediyaning eng chuqur funksiyalaridan biridir [2].

Jamiyatdagi stereotiplarga munosabat. Shou pyesasida urush, qahramonlik, erkaklik, ayollik, hatto sevgi tushunchalari jamiyatda qanday stereotiplarga asoslanib shakllangani ochiladi. Sergiusning dramatik chiqishlari – “Men faxriy jangchiman, lekin ayollar oldida bosh egaman” kabi – shunchaki teatrli stereotipdan iborat. Bu turdagi bayonotlar Shou tomonidan ijtimoiy maskalarni ochishga xizmat qiladi.

Raina obrazida ham “nozik, idealist ayol” stereotipi buziladi: u sevgi haqidagi tasavvurlarini qayta ko‘rib chiqadi, ongli tanlov qiladi va oxir-oqibat realist Bluntschli bilan munosabatni tanlaydi. Bu esa “romantik ayollik” konstruksiyasiga nisbatan tanqidiy yondashuvning ifodasidir [12, 13].

Shou komediyani ijtimoiy stereotiplarga qarshi qurol sifatida ishlatadi. U urushni ideallashtirgan matbuot, tarixiy miflar, va madaniyatni istihola qiladi, biroq buni kulgi vositasida qilganligi sababli — o‘quvchi rad qilmaydi, aksincha fikr yuritadi. Bakhtin [14; 23] buni “kulgining ozod qiluvchi kuchi” deb ataydi – ya’ni kulgi orqali inson ijtimoiy haqiqatga o‘zini tayyorlaydi.

Xulosa va takliflar. Jorj Bernard Shouning “Qurol va inson” pyesasi komediya janri orqali urush, qahramonlik, sevgi va insoniy fazilatlar haqidagi an’anaviy stereotiplarni chuqur tahlil va tanqid qilishga muvaffaq bo‘lgan asardir. Ushbu maqolada tahlil etilganidek, Shou komediyani shunchaki kulgi yoki o‘yin vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy ongni uyg‘otish, jamiyatdagi yolg‘on qadriyatlarni fosh qilish uchun ishlatadi.

Asarda qahramonlik tushunchasining komedik devalvatsiyasi – ya’ni uning kulgili va absurd tasvirlar orqali qadrsizlantirilishi – o‘quvchini idealistik stereotiplarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Kapitan Bluntschlining realist, anti-romantik qahramon sifatidagi obrazi hamda Sergiusning parodiyalangan idealistik qiyofasi orqali Shou qahramonlikni insoniy realizm bilan almashtiradi. Bu esa zamonaviy dramaturgiyada “oddiy inson qahramonligi” tushunchasini ilgari suradi.

Komediya bu asarda shunchaki dramatik vosita emas, balki jamiyatni isloh qilish qurolidir. Shou kulgi orqali urushga, romantik qahramonlikka, ijtimoiy rollarga nisbatan tanqidiy yondashuvni shakllantiradi. Bu jihatdan u Mikhail Bakhtinning “kulgi ozodlikni yaratadi” g‘oyasiga yaqin turadi: Shou pyesasi o‘quvchini nafaqat kuldiradi, balki unga o‘z dunyoqarashini o‘zgartirish imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun Shouning “Major Barbara”, “Man and Superman”, “Pygmalion” kabi komedik pyesalarini ham xuddi shunday uslubiy yondashuv bilan tahlil qilinishimiz mumkin. Bu asarlarda ham idealizm, ijtimoiy adolat, gender rollar kabi mavzular satira, ironya va parodiya orqali o‘rganiladi.

Qiyosiy tadqiqot sifatida Shouning komedik tanqid uslubini Oscar Wilde, Tom Stoppard yoki Brext kabi yozuvchilar bilan solishtirilsa, zamonaviy komediyaning ijtimoiy-falsafiy imkoniyatlari chuqurroq ochiladi.

Didaktik yondashuv sifatida esa, “Qurol va inson” o‘quv dasturlarida nafaqat adabiy asar sifatida, balki tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodik vosita sifatida keng tatbiq etilishi mumkin.

Shunday qilib, Bernard Shouning komedik dramaturgiyasi – xususan, “Qurol va inson” pyesasi – jamiyatdagi tarixiy, madaniy va axloqiy stereotiplarni qayta ko‘rib chiqishga undovchi kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uning komik vositalar orqali chuqur falsafiy haqiqatlarni yetkazish mahorati, zamonaviy adabiyotshunoslik uchun ham nazariy, ham amaliy tadqiqot maydonini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotle. Poetics / transl. by M. Heath. – London: Penguin Classics, 1996. – 127 p. (Original work published ca. 335 BC).

2. Frye, N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – 383 p.

3. Shaw, G. B. Arms and the Man. – Mineola: Dover Publications, 2006. – 80 P. (Original work published 1894).

4. Hoy, C. H. Comedy // Encyclopedia Britannica. – 2025. – June 7. – URL: https://www.britannica.com/art/comedy .

5. Almaaroof, A. The Structure of «Arms and the Man» by G.B. Shaw: A Realist Play. – 2023. – 1-6 p.

6. Kandel, C. Anti-romance in Arms and the Man // Literary Studies. – 2025. – Vol. 38, No. 1. – P. 29–37. – DOI: https://doi.org/10.3126/litstud.v38i1.75932.

7. Sinha, S. (Anti-) Romantic comedy: Arms and the Man and the question of genre. – 2025. – URL: https://www.academia.edu/.

8. Stephane, G. “A Hollow Sham”: The Representation of War in Bernard Shaw’s Victorian Plays // Cahiers victoriens et édouardiens. – 2007. – No. 66 (Automne). – DOI: https://doi.org/10.4000/cve.10553 .

9. Al-Khalili, R. K.; Jameel, J. George Bernard Shaw’s Arms and the Man: A Stylistic Analysis // Arab World English Journal for Translation & Literary Studies. – 2019. – Vol. 3, No. 1. – P. 246–256. – DOI: http://dx.doi.org/10.24093/awejtls/vol3no1.19

10. Dukore, B.F. Heroism and Anti-Heroism: From Arms and the Man to Saint Joan // SHAW: The Journal of Bernard Shaw Studies. – 2024. – Vol. 44, No. 2. – P. 159–177. – DOI: https://muse.jhu.edu/article/940682.

11. AlRubaiy, A. R. M.; Ahmed, M. A. Patriotism in the themes of love & war in Bernard Shaw’s Arms and the Man // Veda’s Journal of English Language and Literature (JOELL). – 2017. – Vol. 4, No. 3. – P. 44–50.

12. Holroyd, M. Bernard Shaw: The One-Volume Definitive Edition. – Abridged ed. – London: Chatto & Windus, 1998. – 816 p.

13. Innes, C. Modern British Drama: The Twentieth Century. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 424 p.

14. Bakhtin, M. M. The dialogic imagination: Four essays / ed. by M. Holquist; transl. by C. Emerson & M. Holquist. – Austin: University of Texas Press, 1981. – 23 p.

“ROHATI DIL” ASARIDAGI G‘AZAL TAHLILI VA TALQINI

Alieva Sevinch Sayfiddin qizi,
Jizzax Davlat pedgaogika universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asaridagi “Dar bayoni Zulhayo imraatu sulton Ibrohim bin Adham Rahimahu-l-lohi” (Sulton Ibrohim ibn Adhamning Zulhayo ismli xotini bayonida) hikoyatidagi g‘azallarning tahliliga bag‘ishlangan. Jumladan, maqoladagi “Qilg‘on firoq” va “Etgan o‘lum” radifli g‘azallar tahlil va talqin qilinib, ularda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari aniqlangan. Shuningdek, she’riyatda vorislik an’anasi masalasiga oydinlik kiritilib, Huvaydoning mazkur g‘azallarining boshqa g‘azallar bilan o‘xshash va farqli jihatlari qiyoslash asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, badiiy tasvir vositasi, she’riy san’at, vazn, raviy, qofiya, tanosub, tazod, iyhom, istiora, tashbeh, talmeh, mubolag‘a.

АНАЛИЗ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ГАЗЕЛЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «РОҲАТИ ДИЛ»

Алиева Севинч Сайфиддин кызы,
докторант Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация: Данная статья посвящена анализу газелей из рассказа «Дар баяни Зулхайо имраату султон Иброхим бин Адхам Рахимахуллоҳи» («О жене султана Ибрахима ибн Адхама по имени Зулхайо») из произведения Хужаназара Хувайдо «Роҳати дил». В частности, проведён анализ и интерпретация газелей с редифами «Qilg‘on firoq» («Сотворённая разлука») и «Etgan o‘lum» («Наступившая смерть»), определены использованные в них художественные приёмы и образы. Также в статье раскрывается вопрос традиций преемственности в поэзии и на сравнительной основе выявляются сходства и различия указанных газелей с другими произведениями Хувайдо.

Ключевые слова: газель, средство художественного изображения, поэтическое искусство, размер, рави, рифма, таносуб, тазод, ийхом, истиора, ташбех, талмех, муболага.

ANALYSIS AND INTERPRETATION OF GHAZALS IN THE WORK «ROHATI DIL»

Alieva Sevinch Sayfiddin qizi,
Doctoral student at Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: This article analyzes ghazals from the narrative “Dar bayoni Zulhayo imraatu sulton Ibrahim bin Adham Rahimahu-l-lohi” (“About Zulhayo, the wife of Sultan Ibrahim ibn Adham”) in Khojanazar Huvaydo’s work “Rohati dil”. Specifically, the ghazals with radifs “Qilg‘on firoq” (“Created Separation”) and “Etgan o‘lum” (“Occurred Death”) are analyzed and interpreted, identifying their literary devices and imagery. Furthermore, the article elucidates the tradition of poetic heritage, comparing and highlighting similarities and differences between these ghazals and other poems by Huvaydo.

Key words: ghazal, literary device, poetic artistry, meter, ravi, rhyme, tanosub, tazod, iyhom, istiora, tashbeh, talmeh, mubolagha.

KIRISh. Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda yosh avlod ongini ma’naviy merosimiz bilan yanada ko‘proq boyitishimiz dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun, albatta milliy qadriyatlarimiz hisoblangan boy diniy-ma’naviy asarlarimizni chuqur o‘rganish, keng ommaga tatbiq etish lozim. Shu o‘rinda alohida qayd etish lozimki, amaldagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbuslari bilan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi, Fanlar akademiyasi qoshida O‘zbekistonning yangi tarixi markazi tuzilishi, natijada ularda qadimiy adabiyotimizga oid yozma yodgorliklarimiz o‘rganilib, qayta tiklanishi tahsinga joizdir.

ADABIYoTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ma’lumki, “..milliy madaniy merosimizning hali o‘rganilmagan ko‘pgina qatlamlarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilayotgan” o‘zbek milliy adabiyotimizda diniy-ma’rifiy qissalar bisyor ko‘p bo‘lib, ushbu asarlarni o‘rganishga ayniqsa, Istiqloldan keyingi davrda e’tibor kuchaydi. Adabiyotshunoslikda ham mumtoz asarlar badiiyati mavzusidagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, biz tadqiqga tortayotgan Xo‘janazar Huvaydoning hayoti, ijodi, “Rohati dil” asari ham adabiyotshunoslar diqqatini tortganligi sababli katta-kichik tadqiqotlar amalga oshirilgan va olib borilmoqda. Biz quyida shoirning “Rohati dil” asaridagi “Dar bayoni Zulhayo imraatu sulton Ibrohim bin Adham Rahimahu-l-lohi” (Sulton Ibrohim ibn Adhamning Zulhayo ismli xotini bayonida) hikoyatidan o‘rin olgan g‘azallar, xususan “Qilg‘on firoq” va “Etgan o‘lum” radifli g‘azallarning tahliliga to‘xtalamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Diniy-didaktik asar sirasiga kirgan o‘zbek mumtoz adabiyotining durdona asari, “Rohati dil” asari mavzu ko‘lami, tarixiy va hayotiyliligi bilan ijodkorning badiiy yuksak mahoratidan darak beradi. Asarning yana bir diqqatga sazovor tomoni shundaki, asarda g‘azal janriga mansub namunalar ham uchraydi. Biz ushbu g‘azallarni tahlil jarayoniga tortib, sharhlar va badiiy tasvir vositalarini aniqlashga harakat qildik.

“Rohati dil” asaridagi “Ibrohim bin Adham rahmatulloh alayhi”(88-101) hikoyatining mantiqiy davomi “Dar bayoni Zulhayo imraatu sulton Ibrohim bin Adham Rahimahu-l-lohi”(Sulton Ibrohim ibn Adhamning Zulhayo ismli xotini bayonida) bo‘lib, ushbu bobdagi hikoya davomida g‘azal janriga murojaat etib, voqealar rivojida qahramonlar tilidan g‘azallardan na’munalar keltirilgan. G‘azallar soni 6 ta bo‘lib, bulardan bittasi 3 baytli, bittasi 4 baytli, ikkitasi 5 baytli, bittasi 7 baytli va yana bittasi 16 baytdan iborat. Keltirilgan 6 ta g‘azaldan 5 tasi radifli, bittasi esa radifsiz qofiyali g‘azal hisoblanadi. G‘azallarning 4 tasi ramali musammani mahzuf bahrida (rukni: Foilotun, foilotun, foilotun, foilun; taqtisi: // -V - - / -V - - / - V - - / - V -), 1 tasi hazaji musammani solim bahrida (rukni: Mafoilun, mafoilun, mafoilun, mafoilun; taqtisi: // V - - -/ V - - -/ V - - -/V - - -), 1 tasi esa rajazi musammani solim bahrida (rukni: Mutaf’ilun, mutaf’ilun, mutaf’ilun,mutaf’ilun; taqtisi: // - - V- / - - V- / - - V- / - - V-) yaratilgan. Ushbu maqolada biz “Qilg‘on firoq” va “Etgan o‘lum” radifli g‘azallarini tahlil qilish bilan chegaralanamiz.

Ma’lumki, Huvaydo o‘zidan oldingi ijodkorlarning an’anasini davom ettirgan holda “Rohati dil” asarida Ibrohim Adham, uning xotini va o‘g‘li haqidagi hikoyatlarini keltirib o‘tgan. Hikoyatning mazmunida Sulton Ibrohim bin Adham Balx shahrining hokimi bo‘lganligi, keyin esa tarki dunyo qilganligi haqida beriladi. U ketgan keyin xotini Zulhayo o‘g‘il ko‘radi, ismini Muhammad deb quyishadi. Vaqt o‘tib o‘g‘li ulg‘aygandan so‘ng otasini qidirib topmoqchi bo‘ladi va shunda onasi o‘g‘liga qilgan nolasi “Bo‘lmoq” radifli g‘azal tariqasida beriladi. So‘ngra o‘g‘il onasiga endi manga ruxsat ber, otamni yuzini ko‘rib kelayin deb aytadi. Shahzoda yo‘lga otlanadi, onasi o‘g‘lining qarosi ko‘rinmas bo‘lgunicha “Qilg‘on firoq” g‘azalini o‘qiydi. G‘azal yoyiq radifli g‘azal bo‘lib, ramali musammani mahzuf bahrida (rukni: Foilotun, foilotun, foilotun, foilun; taqtisi: // -V - - / -V - - / - V - - / - V -) yozilgan, 7 baytdan iborat. G‘azaldagi “mubtalo”, “gado”, “baho”, “ado”, “poy”, “oshno”, “mubtaloe”, “bo” so‘zlarti qofiyadosh so‘zlar hisoblanib, “o” harfi raviy bo‘lib muqayyad qofiyani yuzaga keltirgan. Matlasi quyidagicha beriladi:

Oh mani dardu balog‘a mubtalo qilg‘on firoq,
Taxti baxtimni buzub oxir gado qilg‘on firoq

Matla mazmuni: Mani dard-u baloga mubtalo qilgan bu firoq, ham taxt bilan baxtimni buzib oxirida gado qilgan ham firoq. Baytdagi “dard” va “balo”, “taxt”, “baxt” so‘zlari o‘zaro tanosub she’riy san’atini yuzaga keltirgan bo‘lib, tanosub san’ati ma’no jihatdan bir-biriga yaqin va o‘zaro mutanosib so‘zlarni qo‘llashga asoslangan badiiy san’at hisoblanadi.

Gavhari qiymatbaho erdim nasab bozorida,
Sindirub qaddimni naylaykim baho qilg‘on firoq.

Ikkinchi bayti esa quyidagicha sharhlanadi: Nasab bozorida gavhardek qimmatbaho edim, firoq qaddimni sindirib netayki bahosiz qildi. Baytdagi “nasab bozori” iborasi orqali istiora she’riy san’ati yuzaga kelgan bo‘lsa,“Gavhari qiymatbaho” so‘zi o‘xshatish san’ati go‘zal namunasidir.

Bulbuli shirin navodek maskanim erdi chaman,
Sag‘irdek vayronalar ichra ado qilg‘on firoq.

Uchinchi bayt: Shirin navo kuylovchi bulbuldek maskani chaman edi, firoq sariqdek vayrona joylarda mani ado qildi (yashatdi). Baytda “navodek”, “sarig‘dek” so‘zlari tashbeh she’riy san’atini, “bulbul”, “chaman” so‘zlari orqali esa tanosub she’riy san’atini yuzaga keltirilgan.

Man zaif bechoranikim doimo fursat bilan,
Kuydurub xokistarimni zeri poy qilg‘on firoq.

To‘rtinchi baytda: Firoq man zaif, bechorani doim fursati bilan kuydirib, kulimni oyoq osti qildi. Baytda “zaif”, “bechora” so‘zlari hamda “kuydurub”, “xokistar”(kul) so‘rlari orqali tanosub she’riy san’ati namoyon bo‘lgan.

Tovusi xurram edim to‘tiyolarg‘a hamnishin,
Voy netaykim, zog‘i zag‘ang‘a oshno qilg‘on firoq.

Beshinchi baytda: To‘tiyolarga hamsuhbat bo‘lib tovusdek xursand edim, nima qilay endi, firoq quzg‘un qarg‘alarga oshno qilib quydi. “To‘ti”, “tovus”, “zog‘”, “zag‘an” so‘zlari orqali tanosub she’riy san’atini yuzaga keltirgan.

Kabki xurramdek yurushim doimo ko‘xsor edi,
Oh bu chubin qafasda mubtaloye qilg‘on firoq.

Oltinchi bayt: Kaklikdek xursand bo‘lib doimo tog‘da yurar edim, ammo firoq mani bu chubin qafasga mubtalo qildi. Yorning yurishini kaklik qushi yurishiga tashbeh berilgan, ya’ni “kabki xurramdek” iborasi orqali tashbeh she’riy san’atini yuzaga keltirilgan.

Ma’lumki, kabki (kaklik) qushi mumtoz she’riyatda, xususan, Alisher Navoiy ijodida asosan ma’shuqaning qaddi va chiroyli qadam tashlashiga, jilvalanishiga muqoyasa qilingan:

Qadining jilvasin yuz noz ila bo‘ston aro ko‘rgan,
Degay, tovusi ra’no yo magar kabki dayirdur bu.
(Alisher Navoiy “Favoyid ul kibar”, 520-g‘azal)

Ko‘rinib turibdiki, ikkala ijodkorda ham o‘ziga xos uslubda lirik qahramon mahbubasining jilva qilib yurishi kaklik qushiga muqoyasa qilingan.

Gulcharor erdim, yuzum gulshandagi gullar aro,
Bevalik o‘tida rangim go‘har boqilg‘on firoq.

Maqta’si quyidagicha beriladi: Yuzim gulshandagi gullar ichida gulchehra edi, firoq bevalik o‘tida rangimni javhar singari sariq qildi. Baytda “gul”, “Gulcharor”, “Gulshan” so‘zlari orqali ishtiqoq she’riy san’ati hamda shu so‘zlar orqali esa tanosub she’riy san’ati yuzaga keltirilgan. Shu o‘rinda shuni aytish joizki, mazkur g‘azal Huvaydo devonidagi 173 raqami bilan berilgan 8 baytli “Firoq” radifli g‘azali bilan mavzu yuzasidan bir xil bo‘lsa ham mazmuni va syujet jihatidan farqlanganligini kuzatish mumkin:

O‘zingni kelsa, Huvaydo, firoq tutma yiroq,
Rizoyi do‘st topar bo‘lsa kim rizoyi firoq.

Endi, “Dar bayoni Zulhayo imraatu sulton Ibrohim bin Adham Rahimahu-l-lohi” (Sulton Ibrohim ibn Adhamning Zulhayo ismli xotini bayonida) hikoyatda bu g‘azaldan keyingi voqeaga e’tibor qaratsak, shahzoda bir necha kunlar yo‘l azobini ko‘rib, Makka shahriga yetib borib, o‘tin bozoriga boradi. O‘sha yerda yo‘lga qarab onasi ta’riflagan insonni kuta boshlabdi. Necha kunlar o‘tsa ham, intizorllik bilan kutgan insondan darak bo‘lmagach, och-nochor holda toqati qolmay o‘kinch bilan “Etgan o‘lum” g‘azalini o‘qiydi. Mazkur g‘azal yoyiq radifli g‘azali ramali musammani mahzuf bahrida (rukni: Foilotun, foilotun, foilotun, foilun; taqtisi: // -V - - / -V - - / - V - - / - V -) yozilgan bo‘lib, 5 baytdan iborat. G‘azaldagi “duchor”, “beixiyor”, “intizor”, “xor”, “xokisor”, “intizor” so‘zlari qofiyadosh so‘zlar, “r” harfi raviy bo‘lib muqayyad qofiyani yuzaga keltirgan. G‘azal matlasi quyidagicha beriladi :

Voh mani yuz ming balolarg‘a duchor etgan o‘lum,
Ixtiyorimni olub beixiyor etgan o‘lum.
(105-bet).

Mazmuni: Voh, mani yuz ming balolarga duchor etgan ham, ixtiyorimni olib beixitiyor etgan ham o‘lim. Baytda “yuz ming balolar” iborasi orqali mubolag‘a she’riy san’ati, “Ixtiyor”, “beixiyor” so‘zlari

orqali esa tazod she’riy san’ati yuzaga kelgan.

Bul g‘aribliq dashtida avvora sargardon bo‘lub,

Ko‘zi oldurg‘on kiyikdek intizor etgan o‘lum.

Ikkinchi bayt tahlili esa quyidagicha: Bu g‘ariblik dashtida ovora va sargardon etib, ko‘zini oldirib quygan kiyikdek mani intizor etgan bu o‘limdir. Baytda “g‘aribliq dashti” iborasi orqali istiora she’riy san’ati, “kiyikdek” so‘zi orqali esa tashbeh she’riy san’ati yuzaga kelgan.

Man qizil guldek chaman shahrida bir Sulton edim,

Xoru xas yanglig‘ ayoq ostida xor etgan o‘lum.

Uchinchi bayt: Men chaman shahrida bir qizil guldek Sulton edim, ammo o‘lim xor-u xasdek oyoq ostida xor etdi. Baytda “qizil guldek” va “xoru xas yanglig‘” so‘zlari tashbeh she’riy san’atini, “xor”, “xas” so‘zlari tanosub she’riy san’ati, “Sulton”, “xor” so‘zlari orqali esa tazod she’riy san’atlarini yuzaga keltirgan.

Kimga yig‘lab borub aytayin dardimni man,

Shoh edim, man emdi gadoy, xokisor etgan o‘lum.

To‘rtinchi baytda: Shoh edim, o‘lim gadoy va xokisor qildi, endi dardimni kimga yig‘lab borib aytay, deyilgan. Baytda “yig‘i”, “dard” so‘zlari orqali tanosub she’riy san’ati, “Sulton”, “gadoy”, “xokisor” so‘zlari orqali esa tazod she’riy san’ati yuzaga keltirgan.

Yiroq erdin kelubman qandasan jonim otam,

Ko‘rgil emdi xaste korim intizor etgan o‘lum (105-bet).

Maqta’si quyidagicha beriladi: Jonim otam qaerdasan, man yiroq yerdan keldim, o‘lim xasta holimni intizor etganini ko‘r endi. G‘azal lirik qahramon to‘g‘ridan to‘g‘ri Otasiga murojaati bilan tugaydi.

Tahlilga tortgan“Etgan o‘lum” g‘azal ham Huvaydo “Devon”idagi 228 raqami bilan berilgan 5 baytli “O‘lum” raqami bilan berilgan g‘azali hajm jihatdan, radifi bilan o‘xshasa-da, biroq hikoyatdagi g‘azalda o‘g‘ilning otasi murojaati yo‘sinida, Devondagi g‘azalda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘limga murojaat etilgan.

Ey Huvaydo, bexabar bo‘lma o‘lumdin zinhor,

Chunki bo‘ynunga tushub turg‘on erur domi o‘lum .

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ijodkor hikoyat davomida muarrixlik va tasavvufiy bilimlaridan mukammal foydalana olgan. E’tiborga loyiq tomini esa asariga g‘azal janrini mohirona olib kirib, voqealar rivojiga mos g‘azallar yarata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. //Халқ сўзи, 2017 йил 25 май.

Воҳидов Р. Навоий ва илоҳиёт.–Бухоро, 1994.

Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф адабиётининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент,1995;

Гаврилов М.Ф. Среднеский поэти и суфий Хувайдо. –Ташкент.: Каргиз, 1927.

Ҳувайдо Х. Роҳати дил.– Тошкент.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ нашриёти, 1994.– Б.104-105 (Бундан кейинги шу нашрдан олинган ҳаволаларнинг бети қавс ичида кўрсатилади)

Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. –Toshkent.: Ta’lim-media, 2019. –B.169.

Навоий А. Қомусий луғат. 1-жилд. –Тошкент.: Шарқ, 2016. –Б.230

Ҳувайдо Х. Девон. –Тошкент.: Янги аср авлоди, 2007. –Б.125-126

Ҳувайдо Х. Девон. –Тошкент.: Янги аср авлоди, 2007. –Б.158

XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA SAMARADORLIKNING AHAMIYATI

Hamdamova Muqaddas Xamidovna
Samarqand tibbiyot Universiteti xorijiy tillar kafedrasining o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada xorijiy tillarni o'rgatishda o'qituvchilar maktab, litsey, institut hamda universtitet tinglovchilariga xorijiy tillarda muloqotni xususan, og'zaki va yozma nutqda oson hamda qulay ishlata olishini o'rgatishlari uchun kasbiy tajriba orqali yuzaga kelgan fikrlardan shakillangan kichik metodik ishlanma hisoblanadi. Bu yerda keltirilgan ma'lumotlar orqali yuqoridagi bu komponentlar xorijiy tillarni o'rgatishda o'z tinglovchilariga auditoriyada ta'lim berish samaradorligini qanday holatda oshirish mumkinligini tushuntirishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Xorijiy til, leksik minimum, fonetika, grammatika, morfologik, fragmentlar, CEFR, 4 ta ko'nikma, samaradorlik, kasbiy tajriba, metodik usullar, savol, dars, pedagogik texnologiya, interfaol usul, tinglovchi, globallashuv, sun'iy intellekt.

ЗНАЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Хамдамова Мукаддас Хамидовна,
преподаватель кафедры иностранных языков Самаркандского государственного медицинского университета

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые методические рекомендации, основанные на профессиональном опыте преподавания иностранных языков. Представленные идеи направлены на то, чтобы облегчить учащимся школ, лицеев, институтов и университетов процесс овладения устной и письменной речью на иностранных языках. Предлагаемая информация призвана повысить эффективность обучения и взаимодействия со студентами в аудитории.

Ключевые слова: иностранный язык, лексический минимум, фонетика, грамматика, морфологические фрагменты, CEFR, четыре навыка, эффективность, профессиональный опыт, методические приёмы, вопрос, урок, педагогическая технология, интерактивный метод, слушатель, глобализация, искусственный интеллект.

THE IMPORTANCE OF EFFECTIVENESS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Hamdamova Muqaddas Khamidovna,
Lecturer at the Department of Foreign Languages Samarkand State Medical University

Abstract: This article presents methodological recommendations based on professional experience for teaching foreign languages. It discusses practical ideas aimed at enabling students at schools, lyceums, institutes, and universities to master communication in foreign languages, specifically oral and written skills, easily and efficiently. The provided information highlights how to enhance the effectiveness of teaching and classroom interaction.

Key words: foreign language, lexical minimum, phonetics, grammar, morphological fragments, CEFR, four skills, effectiveness, professional experience, methodological approaches, question, lesson, pedagogical technology, interactive method, learner, globalization, artificial intelligence.

Bizga tarix zarvaraqlaridan ma'lumki, asrlar davomida davlatchilik jamiyatida insonlar bir necha tilni bilishga qiziqqanlar, unga extiyoj sezganlar. Chunonchi, xorijiy davlatlarda insonlar bilan uning ona tilisida gaplashsangiz, bu ularga, vataniga, tarixiga chuqur hurmat ramzini ifodalaydi. Hozirgi tezkor rivojlanayotgan globallashuv davrida xorijiy tillarni bilish katta siyosiy-madaniy jarayon sanaladi. Darhaqiqat, xorijiy tilni egallash ta'lim, ilm-fan, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotdagi globallashuvning yangi davri uchun insonlar kasbiy faoliyatidagi eng asosiy

muvaffaqiyat kalitlaridan biri hisoblanadi. Globallashayotgan ta’lim endilikda ilm oluvchilar uchun ham, o’qituvchilar uchun ham butun dunyoda ta’limni va ilmiy izlanishlarni davom ettirish imkoniyatini yaratib bormoqda. Bu jarayon o’rta maxsus, kasb-hunar bitiruvchilarining turli dunyoviy bilimlarni chet tillarda bilishlaridan tashqari, o’z kasblari haqidagi bilimlarni ham chet tillarda davom ettirishlariga imkon yaratadi. O’zbekistonda xorijiy tilni o’qitilish xalqaro standartlarni muvofiklashtiruvchi Umumevropa xorijiy tillarni o’rganish, o’qitilish va baholash mezonlariga tavsiyalar CEFR moslashtirilgan holda amalga oshirilayapti. Bu o’quv dasturi barcha tillarni o’rganish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. CEFR dunyo bo’ylab keng tarqalgan xorijiy til ta’limining standartlaridan biridir. CEFR barcha tillarni o’rganish, o’qitilish va baholash tizimini ham qamrab oladi. Tilni o’rgatish til o’rganuvchining ehtiyojidan kelib chiqib, o’rganayotgan tildan jonli tarzda foydalanish va turli muloqot ko’nikmalari eshitish, gapirish, o’qish va yozishga moslashtirilgan holda amalga oshiriladi. Aynan shu tamoyil bugungi kunda xorijiy tillar, avvalo, eshitish, gapirish, o’qish va yozish ko’nikmalari ketma-ketligida o’rgatilib borilishi bugungi ta’lim tizimi bitiruvchilarining kichik mutaxassis sifatida ish boshlaganida, erkin muloqotda, bilimlarini yanada boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tilni o’rganish avvalo tilni eshitib, unga paydo bo’lgan qiziqishdan boshlanadi. Tilni o’rganish bu tilning asosiy strukturasini tashkil qiladigan ana shu 4 ta ko’nikmaga asoslanadi. Shunday ekan, o’zbek yoshlarining hech kimdan kam bo’lmay ulg’ayishlari, zamonaviy bilim berishda munosib sharoitlar yaratib berilgan bir davrda chet tillarni o’rgatishda samaradorlikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Dastaval xorijiy tilni o’rganuvchi o’z ona tilisini yaxshi bilishi va til o’rganish jarayonida o’z tilining grammatik unsurlari bilan qiyoslagan holda til o’rganishdagi 4 ta ko’nikmani o’zida shakllantirib borsa, bu jarayonda samarali sifatga erishadi. Jumladan, o’quvchilar va talabalar til darslarida o’z tilidan boshqa tillarni o’rganar ekanlar, o’rganayotgan til bo’yicha ma’lum bilimlarga ega bo’lish bilan birga, o’zlarida o’sha tilda erkin gaplashish va yozish ko’nikmasini ham shakllantirib boradilar. Bu jihatdan, biz bilamizki, o’qituvchi o’z oldiga har bir darsning samarador bo’lishini ta’minlashni maqsad qilib qo’yadi, ya’ni biror natijani ko’zda tutadi va shu natijaga erishish yo’lida harakat qiladi, faoliyat olib boradi. Ammo ayrim o’rganishlar shuni ko’rsatganki dars jarayoni belgilangan tartib nizom bo’yicha olib borilgan lekin tinglovchilarda o’rganilgan xorijiy tilde erkin muloqat qilish ko’nikmasi shakllanmagan, shunda asosiy e’tibor so’zlarni, so’z birikmalarini, gaplarni to’g’ri talaffuz qilishga va kommunikativ muloqatga yo’naltiriladi. Ikki-uch oy o’tgach tinglovchida sezilarli natija kuzatiladi.

Ta’lim tizimida samaradorlikni oshirish esa o’qituvchidan juda katta mahorat, ko’p bilim, tajriba talab qiladi. Demak, o’qitilish samaradorligini oshirishning birinchi bosh omili bu o’qituvchining o’z ustida ishlashi, mas’uliyatni his etish imkoniyatlarini oshirib borishi, maqsadni, natija nima bulishini to’g’ri belgilab olishi bilan bog’likdir. Xorijiy tilni o’rgatishda yana shunday unsurlarga e’tibor qaratilish kerakki, bunda o’quvchi va talaba o’zga bir tilni o’rganar ekan, unda ana shu tilga mehr uyg’onmog’i, uni hurmat qilish tuyg’ulari shakllangan bo’lishi kerak. Havas, ishtiyoq, qiziqish uyg’onmasa, tinglovchining til o’rganishi ham ko’zlangan samarani bermaydi. O’z-o’zidan ko’rinadiki, havas uyg’otish keyingi omilni talab qiladi. Ya’ni, til birliklarining nutqda qo’llanish imkoniyatlarini dars jarayonida ko’proq yoritib borish, o’quvchi va talabalarni bu imkoniyatlar bilan erinmay tanishtirish lozim. Buning uchun esa dars jarayonini mumkin qadar jonli muloqot tarzida tashkil etish zarurati tug’iladi. Bunday dars jarayoni rasmiyatchilikdan holi bo’lgan holda ikki ko’rinishda tashkil etilishi mumkin:

1) o’quvchi-talabalarning o’zaro muloqotlari (jonli suhbatlashuv);

2) o’quvchi-talabalar o’qituvchining jonli muloqoti (jonli suhbatlashishi) ko’rinish-larida.

Keyingi bosqichda, ya’ni dars jarayonidan boshqa vaqtda o’quvchi va talabalarning ish faoliyatlarini to’la mustaqil tashkil etishga yo’naltirish zarur bo’ladi. Ma’lumki, boshqa tillarni bilish, o’rganish hech qachon o’z ona tilini kamsitish, esdan chiqarish, unutish hisobiga bo’lmaydi. O’z tilini mukammal bilgani va hurmat qilgani holda boshqa tillarni bilish va o’rganish, ko’p til bilish maqsadga muvofiq ekanligini unutmaslik kerak. Ana shu nuqtai nazardan qaraydigan

bo’lsak, boshqa tillarni o’ganishga da’vat, avvalo, o’z ona tilini ham bilishga, shu bilan birga, shu asosda, boshqa tillarga ham hurmatni shakllantirish, o’rganishni yo’lga qo’yishni taqozo etadi.

Keyingi dars shakli o’qituvchi bilan o’quvchi-talabalarning yakka-yakka holdagi suhbati yoki umumiy tarzdagi suhbati tarzida o’tkazilishi mumkin. Suhbat jarayonida o’quvchi-talaba jonli suzlashishga mulokotga urgatib boriladi. Bir tushunchani yoki fikrni turli so’zlar yoki gaplar, birikmalar orqali ham ifodalash mumkinligiga, til birliklarini amaliyotda qo’llashga o’rgatiladi. Ammo bu holat uchun o’quvchi-talabalar, albatta, muhim o’quv lug’atlaridan xabardor bo’lishlari ham talab etiladi. Dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtda ulardan unumli foydalanish til o’rganishda muhim ahamiyat kasb etishi o’qtirilib boriladi. Qoidalarni yodlatish, darsni o’zbek tilining barcha satxlari (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi bo’limlari) qonuniyatlari bilan tanishtirishga ko’p yo’naltirilmasdan, til birliklarining nutqda qo’llanish imkoniyatlaridan tug’ri, maqsadga muvofiq foydalanish ko’nikmasini shakllantirish tomon yo’naltirish til o’rganishda yaxshi samara beradi.

Keyingi bosqichda, ya’ni dars jarayonidan boshka vaqtda o’quvchi va talabalarning ish faoliyatlarini to’la mustaqil tashkil etishga

Yo’naltirish zarur bo’ladi. O’quvchi va talabalapga:

a) keyingi dars jarayoniga qadar tegishli vazifalarni bajarish topshipiladi (o’quvchi-talaba uz faoliyatida o’rganayotgan tilida muloqot qiluvchi shaxslar bilan turli shakllarda zaruriy suhbat-muloqotlar o’tkazadi). Bu muloqotlar kimlar bilan, qaerda, qancha vaqt, nima haqda bo’lganligi borasida keyingi dars jarayonida, uyga berilgan vazifaning bajarilishi tarzida hisobot bilan baxolanishi mumkin. Ya’ni, uy vazifasi sifatida tekshiriladi va baholanadi;

b) chorak va o’quv yili davomida o’quvchi-talabaning boshqalar bilan shunday muloqoti til o’rganishni ko’zda tutgan holdagi harakatlarni bajarishi vazifa qilib topshiriladi va bu chorak oxirida yoki yil oxirida tekshirilishi mumkin. O’quvchi-talaba ko’cha-kuyda, bozorlarda, oilalarda, safar-sayohatlarda, boshqa juda ko’p tadbirlarda, uchrashuvlarda, tanish-bilishlar, katta yoshdagilar, bolalar, mezbonlar kabilar bilan turli xil mavzularda suhbat-muloqotlar o’tkazadi, ularni qayd etib borishi mumkin bo’ladi va hokazo. Chunki atrofdagilar bilan jonli muloqot, o’rganilayotgan tilda gaplashishga o’zga tilni o’rganishda dars jarayonidan ko’ra ham yaxshi samara beradi. Bu tabiiy holdir. Shuning uchun o’quvchi-talabalarni yon atrofdagilar bilan jonli so’zlashuv muloqotida bo’lishga ko’proq jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Xullas, yuqorida qayd etilganlar davlat tili (o’zbek tili)ni umuman bilmaydiganlar uchun bu tilni o’rgatish samaradopligini oshirishi aniq. Vazifa esa o’zbek tilini baynalminal guruhlarda o’rgatish jarayonida bu holatlarga e’tibor berish, mavjud imkoniyatlar va maxoratni ana shu xolatlarda foydalana olishga yo’naltirishdan iborat.

Afsuski, ayrim holatlarda, ba’zilar boshqa tillarni o’ganishni o’zbek tilini, o’z ona tilimizni kamsitish, uning mavqeyini kamaytirish, tilimizga bo’lgan e’tiborni susaytirish, nutqiy jarayon davomida o’z ona tilisiga ayrim xorijiy so’zlarni qo’shib gapirishi bilan tilimizni sofligini buzishi insonni ta’bini xira qiladi. Axir, Sharqning juda ko’p yirik olimlari: Beruniy, ibn Sino, Farobiy va boshqalar ko’plab tillarni bilganlar. Biroq ular o’z tillarini unutmaganlar, o’z tillarida ham asarlar yozganlar. O’z tillarining ravnaqi uchun kurashganlr. O’zbeklar turkiy tilda so’zlashuvchi elatlarga mansub bo’lib, alohida adabiy til maqomini olib, o’zgarib ketgan uyg’ur, turk, ozarbayjon, tatar, turkman, qozoq, qirg’iz, qoraqalpoq, qora choy kabi tillar vakillari bilan ham muloqotda bo’lishgan. Shunga qaramay, o’z tillarini unutishmagan.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash kerakki, xalqimizning, yoshlarimizning ingliz, rus yoki boshqa tillarni o’rganishi hech qachon o’z ona tiliga e’tiborsizlik bilan qarash hisobiga bo’lmasligi kerak. Shu bilan bir qatorda jamiyatda ilm- fan, texnika hamda su’niy intelekt kundan kunga butun insoniyatni xuddiki narkomaniya kabi o’ziga og’dirayotrgan bir paytda kishilik jamiyati bu omillardan ongli ravishda to’g’ri foydalanishi, uning hayot tarzini izidan chiqib ketmasligini kafolatlaydi hamda vatanimizning dunyo hamjamiyatida o’z o’rnini barqaror tutishida va har jabhada taraqqiy etishida o’ziga xos munosib hissasini qo’sha olishini ta’minlaydi. Bu omillar esa

davlatchiligimiz kelajagining ulug’vorligini asoslaydi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Compte, C. (1989). L’image animée dans l’apprentissage du français langue étrangère. Langue Française 83. 22-34

2. Voir Beacco J.-C., Bouquet, S. & Porquier R. (2004) : Niveau B2 pour le français, Editions Didier, Paris, section 3.4.4, p. 96.

3. Alvarez G. (1977) : « Français fonctionnel, français instrumental, français scientifi- que, langue de speciality traduction », dans AUPELF : Le Renouveau des etudes francai-ses a l’universite, Actes de la Deuxieme rencontre mondiale des departements d’etudes françaises (Strasbourg), AUPELF, Montreal, p 71-83.

4. Van Ek J. A. (1975) : The Threshold Level in a European Unit/Credit System for Modern Language Learning by Adults, Conseil de l’Europe, Strasbourg.

5. Hamdamova Muqaddas Xamidovna. (2024). Fransuz tilida murakkab nisbiy olmoshlarning ishlatish metodikasi. Miasto Przyszłości, 53, 451–452. Retrieved from http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4859

6. Hamdamova Muqaddas Xamidovna. (2024). Le Developpement De Tourisme Entre La France Et L’ouzbekistan. https://doi.org/10.5281/zenodo.14001984

7. Yorova, S., & Hasanova, F. (2024). Tibbiy diskursga xos bo ‘lgan kasbiy va kommunikativ kompetensiya. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(8), 68-71.

8. Karimovna, Y. S. (2024). Medical Staff Professional Communication Process. Gospodarka i Innowacje., 44, 227-230.

9. Yaxyayevna, N. S. . (2024). Public Health Communication Enhancing Knowledge and Empowering Communities. International Journal of Formal Education, 3(4), 287–290.

10. Bakhodirovna, E. M. (2024). Structural and functional features of phraseological units in the texts of works of art (english and uzbek authors). eurasian journal of academic research, 4(2-1), 111-117.

11. Aitmuratova, P., Yorova, S., & Esanova, M. (2023). The role of foreign languages in our life. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 161-164.

12. Zikiryaevna, S. A. (2022). Discursive analysis of derived metonymie. Journal of Positive School Psychology, 1588-1592.

13. Xolmurodovna, M. S. (2024). Syntactic analysis and their types in english linguistics. journal of international scientific research, 1(2), 163-166.

14. Mallaevna, N. S. (2024). The social and cultural importance of the latin language and its present and historical landscape. Central Asian Journal of Academic Research, 2(5), 51-55.

15. Alisherovna, A. U., & Uves, S. (2023, November). Clinical terminology: understanding word-formation, greek roots, suffixes, and prefixes. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 206-209).

16. Mardanovich, M. Z., & Mokhigul, O. (2024). Personality in teaching the module of latin and medical terminology in the medical higher education institution. Journal of Universal Science Research, 2(1), 425-435.

17. Fayzullaev, F. U. «The Role of Critical Thinking in Learning a Foreign Language.» JournalNX, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 68-70.

18. Beknazarova, M. K. (2022). The most important criteria for evaluating student knowledgE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 35-37.

19. O‘.Q.Tolipov, M. S. Usmonboyeva. “Pedagogik texnologiyalarni tatbiqiy asoslari” Toshkent 2006 .

20. O‘.N.Muradov, G. N. Tuxliyeva, Z. R. Abdujabborova. “Inliz tili fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi”. Toshkent 2012 yil.

21. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil 10 dekabrdagi «Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PK-1875-sonli qarori.

22. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma’naviyat», 2008.

23. Usmonova N., Azlarov E., Sharipov G. O’zbek tili. / Oliy o’quv yurtlari uchun darslik. - T.: «O’qituvchi», 1991.

GEORGE ORWEL ASARLARIDA JAMIYAT VA SHAXS O'RTASIDAGI ZIDDIYAT

Husaynova Gulsora,
University of Business and Science o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola Jorj Oruellning «1984» va «Mollaxona» asarlarida jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab va fundamental ziddiyatni tahlil qiladi. Oruell o'zining distopik tasvirlari orqali avtoritar tuzumlarning shaxs erkinligi, individualligi va ichki dunyosiga tahdidini chuqur o'rganadi. Maqolada hokimiyatning totalitar nazorati, propaganda mexanizmlari va tarixni qayta yozish orqali inson ongini manipulyatsiya qilishga urinishlari yoritiladi. Shuningdek, asarlardagi qahramonlarning jamiyat bosimiga qarshi kurashi, o'z-o'zini anglashga intilishi va bu kurashlarning achchiq oqibatlari atroflicha muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Jorj Oruell, totalitarizm, distopiya, shaxs, jamiyat, erkinlik, nazorat, propaganda, individuallik, ziddiyat, «1984», «Mollaxona».

ПРОТИВОРЕЧИЕ МЕЖДУ ОБЩЕСТВОМ И ЛИЧНОСТЬЮ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДЖОРДЖА ОРУЭЛЛА

Хусаинова Гулсора,
преподаватель Университета бизнеса и науки

Аннотация: Данная статья анализирует сложное и фундаментальное противоречие между обществом и личностью в произведениях Джорджа Оруэлла «1984» и «Скотный двор». Через свои антиутопические образы Оруэлл глубоко исследует угрозу авторитарных режимов свободе, индивидуальности и внутреннему миру человека. В статье освещаются механизмы тоталитарного контроля власти, пропаганды и попытки манипулировать сознанием людей посредством переписывания истории. Также детально обсуждается борьба героев с давлением общества, их стремление к самоосознанию и трагические последствия этой борьбы.

Ключевые слова: Джордж Оруэлл, тоталитаризм, антиутопия, личность, общество, свобода, контроль, пропаганда, индивидуальность, противоречие, «1984», «Скотный двор».

THE CONFLICT BETWEEN SOCIETY AND THE INDIVIDUAL IN THE WORKS OF GEORGE ORWELL

Husaynova Gulsora,
Lecturer at the University of Business and Science

Abstract. This article analyzes the complex and fundamental conflict between society and the individual in George Orwell's works «1984» and «Animal Farm». Through his dystopian portrayals, Orwell deeply explores the threat posed by authoritarian regimes to personal freedom, individuality, and inner life. The article highlights mechanisms of totalitarian control, propaganda, and attempts to manipulate human consciousness through the rewriting of history. It also comprehensively discusses the characters' struggles against societal pressure, their pursuit of self-awareness, and the tragic consequences of these struggles.

Key words: George Orwell, totalitarianism, dystopia, individual, society, freedom, control, propaganda, individuality, conflict, «1984», «Animal Farm».

KIRISH. Jorj Oruell (haqiqiy ismi Erik Artur Bler) XX asrning eng ta'sirchan yozuvchilaridan biri bo'lib, uning asarlari totalitarizmning dahshatli yuzini va uning insoniyatga tahdidini yorqin aks ettiradi. Uning «1984» va «Mollaxona» kabi romanlari nafaqat adabiy durdonalar, balki siyosiy

falsafa va ijtimoiy tanqidning muhim namunalaridir. Ushbu asarlarning markazida jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyat masalasi yotadi. Oruell o‘zining distopik dunyolarida shaxsning hukmron ideologiya va doimiy nazorat ostida ezilishini, uning individualligi qanday yo‘q qilinishini va bu jarayonning inson ruhiyatiga ta’sirini chuqur tahlil qiladi. Uning ijodi shaxs erkinligini himoya qilish, avtoritarizmga qarshi kurashish va haqiqatni himoya qilish zarurligini uqtiradi. Bu mavzu Oruellning asarlari yozilgan davrda ham, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki dunyoning turli burchaklarida shaxs avtonomiyasiga tahdidlar va nazorat shakllari o‘zgarib bormoqda. Mazkur maqola Oruellning ko‘p qirrali asarlarini chuqur tahlil qilish orqali jamiyatning shaxsga ta’siri va shaxsning unga qarshi kurashini o‘rganishni maqsad qilgan. Biz uning ijodiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini yoritishga harakat qilamiz, shu bilan birga asarlardagi asosiy konfliktlarni va ularning chuqur ijtimoiy-siyosiy ma’nolarini ochib beramiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jorj Oruell asarlarida jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatni o‘rganish bo‘yicha adabiyotlar tahlili keng va ko‘p qirrali bo‘lib, siyosiy falsafa, adabiyotshunoslik, sotsiologiya va psixologiya sohalarini qamrab oladi. Oruellning «1984» va «Mollaxona» romanlari, ayniqsa, totalitarizm nazariyasi, siyosiy nazorat mexanizmlari va shaxsning o‘ziga xosligi masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarga sabab bo‘lgan.

Masalan, siyosiy nazariyotchi Xanna Arendtning «Totalitarizmning kelib chiqishi» asari totalitar tuzumlarning mohiyatini, ularning inson shaxsiyatini yo‘q qilishga qaratilgan harakatlarini tushunishda fundamental ahamiyatga ega. Uning g‘oyalari Oruellning tasvirlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, Ingsoc rejimi tomonidan amalga oshirilgan ongni manipulyatsiya qilish va shaxsni kollektivga bo‘ysundirish urinishlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, Terry Eagletonning «Adabiyot nazariyasi: Kirish» kabi asarlar Oruellning asarlarida qo‘llanilgan allegorik va satirik uslublarni, shuningdek, uning siyosiy xabarlarini tahlil qilishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. «Mollaxona»dagi allegorik qatlamlar va «1984»dagi distopik simvolizmning tahlili aynan shu nazariy yondashuvlar orqali yanada boyitiladi.

Bundan tashqari, Oruellning o‘zining esselari, masalan, «Nima uchun yozaman» asari, uning yozuvchilik motivlari va siyosiy qarashlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunishga imkon beradi, bu esa uning asarlaridagi jamiyat va shaxs ziddiyatini yanada chuqur tahlil qilish uchun kontekst yaratadi.

Ushbu maqolada komparativ tahlil (qiyosiy tahlil) va kritik diskurs tahlili (tanqidiy diskurs tahlili) metodologiyasi qo‘llaniladi. Komparativ tahlil Oruellning «1984» va «Mollaxona» asarlaridagi umumiy mavzularni, xususan, totalitar nazorat, propaganda va shaxs avtonomiyasiga tahdidlarni qiyoslash imkonini beradi. Bu ikki asar turli janrlarda yozilgan bo‘lsa-da (distopik roman va allegorik satira), ularning markazida yotgan jamiyat va shaxs ziddiyati masalasini birgalikda tahlil qilish Oruellning g‘oyalarining chuqurligini va izchilligini ko‘rsatadi. Kritik diskurs tahlili esa asarlardagi til, simvolizm va allegorik tasvirlar orqali totalitarizmning shaxsga ta’sirini, hukmron ideologiyaning qanday shakllanishini va shaxsning unga qarshi kurashini yoritadi. Bu metodologiya orqali asarlardagi hokimiyatning nutq shakllari, «Yangi Til»ning vazifasi va uning shaxsning fikrlash qobiliyatini cheklashdagi roli chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, asarlardagi qahramonlarning ichki monologlari va dialoglari orqali ularning jamiyat bosimiga javoblari va o‘z-o‘zini anglashga intilishlari yoritiladi. Ushbu metodologik yondashuvlar Oruellning asarlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi dinamikani hamda uning ijodiy merosining zamonaviy kontekstdagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Jorj Oruellning «1984» va «Mollaxona» asarlarida jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyat markaziy o‘rinni egallaydi va bu ziddiyat turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ikkala asarda ham hukmron tuzum shaxsni o‘zining kollektiv maqsadlariga to‘liq bo‘ysundirishga harakat qiladi, individuallikni, mustaqil fikrlashni va hissiy bog‘lanishlarni yo‘q qilishga intiladi.

«1984» romanida partiya shaxsning har bir jihatini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan murakkab tizimni yaratadi. Katta og‘aning doimiy kuzatuvi («Sizni kuzatmoqdalar») shaxsiy

hayotning butunlay yo‘qolishiga olib keladi. Winston Smithning kurashi, avvalo, o‘zining ichki dunyosini, xotiralarini va shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratilgan. Partiya, hatto fikrlarni ham jinoyat deb hisoblaydi («Fikr jinoyati») va shaxsning ongini to‘liq nazorat qilishga urinadi. Bu yerda jamiyat shaxsni to‘liq yo‘qotib, uni o‘zining bir qismiga aylantirishga intiladi. Yangi Tilning joriy etilishi esa fikrlash doirasini cheklash, «eski» g‘oyalarni ifodalash imkoniyatini yo‘q qilish va shu orqali mustaqil fikrlashni imkonsiz qilishga xizmat qiladi.

In the national culture of the Uzbeks, special attention was paid to the first steps of a child. Scattering sweets (candies) at the feet of the baby, people say the following wishes: oyoqlari baquvvat bo’lsin (may his/her feet be strong), oyoqlari omadli bo’lsin (may his/her steps bring good luck), oyog‘i/qadamlari qutlug’ bo’lsin (may his/her feet/steps be blessed); Qadam yetti balo yetmasin (Footsteps have come, may no trouble come)- is an expression used in wishes (dua) when a guest comes into the house.

Typical Uzbek families are considered to be extended. Newly married couples live together with their parents. Family members perceive the new daughter-in-law (bride) as a guest of the family for a few months, and there is a belief that the bride on her own feet can bring good luck or even misfortune to the new family. Phrases such as kelinning oyog‘i yoqdi (yoqmadi) (daughter-in-law’s footsteps have brought good luck (bad luck) , qadami qutlug‘keldi (bride’s (daughter-in-law’s) steps have been blessed) express stereotypes connected with the joining new members to the family. In wedding rituals, they lay a special long rug and scatter sweets under the feet of the daughter-in-law who steps in the house for the first time as a bride and wish that the first steps of the daughter-in-law entering the threshold of the house will bring happiness, joy and prosperity to the family. Another ritual in weddings related to the foot is the ritual of stepping on the foot . M.G. Navruzova states the following ritual related with the phrase “stepping (on smb’s) foot”: There is also the Uzbek folk custom of “foot stepping”. When the bride and groom first enter the chimildiq (a special tent for newly-weds in a bedroom), the custom of foot stomping

is performed. According to the tradition, whoever steps on whose foot first will be the head of the family for a lifetime. In Muslim-Uzbek culture, it is natural for a man to be the head of the family. That's why the bride elegantly lets groom to step on her feet, and then she makes a movement as if she steps on the groom's feet. This is a unique, national and ancient tradition of the Uzbek people. Sometimes this ritual may carry a humorous character and if the bride is swifter , she can step on the groom's feet.

In Uzbek signs and beliefs, a foot (leg), especially one entering a house, was associated with good luck or bad luck: oyog'i yoqdi (yoqmadi), qadami qutlug' keldi; qadami omad olib keldi- one's feet brought luck (unlick), one's visit caused luck (unluck). Expressing mental state and inner intuition using body parts is also widely observed in folk language and culture. For example, Uzbek phrase "oyoq tortmaslik" (legs don't want to go) means turning back from the will to go somewhere through inner feeling. (Meni ham taklif qilishgandi, lekin, negadir oyog'im tortmadi- I also was invited, but my legs didn't want to go).

A person perceives and understands the world through the senses and on this basis creates his own system of ideas about the world. The path from extralinguistic reality to the concept and further to verbal expression are not the same among peoples; accordingly, the linguistic picture of the world, manifested in the principles of categorization of reality, will also be different. Despite its universality, the somatic code of culture fully illustrates this provision.

Comparative study of somatisms of different linguistic and cultural communities can fundamentally enrich the taxonomy of somatic vocabulary, identifying interdependencies between trends development of national culture and national

language; the solution of related problems promotes the theory of linguistic conceptualization, which, in turn, increases the explanatory power of philological knowledge.

References:

1. Маслова В. А. М 31 Лингвокультурология: М.: Издательский центр «Академия», 2001. — 9с

2. V.I. Karasik, Linguo-cultural concept as a unit of research. Methodological problems of cognitive linguistics: coll. of sci. works. Ed. Sternina I.A.,Voronezh: VGU, 2001-75-80.

3. Воркачев, С. Г. Методологические основания лингвоконцептологии / С. Г. Воркачев // Теоретическая и прикладная лингвистика. – Воронеж, 2002. – С. 79–95.

4. Gibbs, Jr. R.W. Metaphor Wars, Conceptual Metaphors in Human Life, 2005.- 226.O'zbek tilining izohli lug'ati (1981) T.: 522.

5. Omarov A.A., Somaticheskiy kod kultury v frazeologicheskix kartinax mira, Nalchik 2022.-7

6. V.M. Pimenova. Гуманитарный вектор. 2011. № 4 -28

7. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры: 3-е изд. - М.: Академический проект, 2004, с. 42-67

8. С.А.Песина, Полисемия в когнитивном аспекте, Санкт-Петербург,2005-78.

9. Oxford Advanced Learner's Dictionary, 10th edition, 2020-684

10. ESTYA I, 103; PDP, 356; Devon I, 112; DS,- 27

11.O'zbek Tilining Izohli Lug'ati, M: Rus tili, 1981-222

12. T. Mirzayev va b. O'zbek Xalq maqollari, T:-2005

13. Navruzova Muyassar Gaybullayevna. (2022). Maqollarda-somatik biriklar, «Zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Masofaviy, Onlayn Konferensiya, 1(28), 257–265.

THE GENDER REPRESENTATION IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE

Narziyeva Inobat Zoirovna,
Senior teacher of the Department of Foreign Languages Teaching Methodology Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines gender representation in Uzbek children's literature, analyzing how male and female characters are portrayed in stories, fairy tales, and educational books. It explores traditional gender roles, the prevalence of stereotypes, and the extent to which literature reflects societal norms. The study also considers recent trends toward gender inclusivity and the impact of modern narratives on young readers' perceptions of identity and equality.

Key words: cultural value, gender representation, children's literature, depict, highlight, storytelling.

ОТРАЖЕНИЕ ГЕНДЕРА В УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Нарзиева Инобат Зоировна,
Старший преподаватель кафедры методики преподавания иностранных языков, Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье исследуется гендерное представление в узбекской детской литературе, анализируется, как изображаются мужские и женские персонажи в сказках, рассказах и учебных книгах. Рассматриваются традиционные гендерные роли, распространённость стереотипов и степень отражения литературой общественных норм. Кроме того, в исследовании изучаются современные тенденции, направленные на гендерное равенство, и влияние современных произведений на восприятие детьми своей идентичности и равноправия.

Ключевые слова: культурная ценность, гендерное представление, детская литература, изображать, выделять, рассказ.

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA GENDER TASVIRI

Narziyeva Inobat Zoirovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbek bolalar adabiyotida gender tasvirini o'rganib, ertaklar, hikoyalar va badiiy kitoblardagi erkak hamda ayol qahramonlarning qanday tasvirlanganini tahlil qiladi. Unda an'anaviy gender rollari, stereotiplarning tarqalishi va adabiyotning jamiyat me'yorlarini qanchalik aks ettirishi masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot, shuningdek, gender tengligi tomon yo'naltirilgan zamonaviy tendensiyalar va zamonaviy asarlarning yosh o'quvchilarning shaxsiyati hamda tenglik haqidagi tasavvuriga ta'sirini ham tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: madaniy qadriyat, gender vakillik, bolalar adabiyoti, tasvirlamoq, yoritmoq, hikoya aytish.

Introduction. Children's literature serves as a powerful tool in shaping young minds, influencing their understanding of social norms, identity, and gender roles. In Uzbekistan, children's books have traditionally reflected cultural values, often reinforcing distinct roles for boys and girls. Historically, male characters have been portrayed as brave leaders and problem-solvers, while female characters have been depicted as kind, nurturing, and supportive. However, as societal attitudes evolve, so does the representation of gender in literature. In recent years, Uzbek children's books have begun to challenge traditional stereotypes, promoting more diverse and equitable portrayals of both boys and girls. This article explores gender representation in Uzbek children's

literature, examining its historical roots, modern transformations, and the challenges that remain in creating balanced narratives.

Methods. Uzbek children's literature reflects the rich cultural heritage of Uzbekistan, drawing on traditional folklore, legends, and values while also incorporating modern themes and perspectives. It often emphasizes moral lessons, family values, and the importance of education. Popular authors include Hamid Olimjon, Cholpon, and Erkin Vohidov, who have contributed significantly to the genre with their engaging stories and memorable characters. Erkin Vohidov, a prominent Uzbek poet and writer, often highlighted traditional gender roles in his works. In one of his poems intended for children, he describes boys and girls in distinct roles: "Boys should always be strong and brave, while girls should be kind and gentle."[1,120] This quote reflects the traditional expectation of boys being brave and girls being gentle, a common theme in many cultures.

Results. Illustrations play a crucial role in Uzbek children's books, often vibrant and colorful, enhancing the storytelling experience and captivating young readers. "Women are the adornment of our homes and the foundation of our society."[2, 138]Abdulla Qodiriy (1894-1938) is one of the most celebrated Uzbek writers, known for his novels "O'tgan kunlar" and "Mehrobdan Chayon". His works often delve into the dynamics of traditional Uzbek family life and the evolving roles of men and women within society. Overall, Uzbek children's literature serves as both entertainment and education, nurturing imagination and fostering a love for reading, while also teaching important moral lessons and cultural values.

In exploring the gender representation in Uzbek children's literature, it's essential to delve into the rich cultural and historical backdrop of Uzbekistan. Shaped by a blend of Persian, Turkish, and Russian influences, Uzbekistan's literary traditions have evolved over centuries, reflecting societal norms, values, and historical narratives. Uzbek children's literature, with its roots in oral storytelling and folk tales, often mirrors traditional gender roles, where males are depicted as strong, brave, and authoritative, while females are portrayed as nurturing, gentle, and supportive.

However, contemporary Uzbek children's literature exhibits a nuanced approach to gender representation, striving to challenge stereotypes and promote gender equality. Analyzing specific Uzbek children's books reveals a diverse range of characters and narratives that depict both boys and girls as multifaceted individuals capable of courage, intelligence, and empathy, transcending traditional gender expectations. Comparative insights with classic Western children's literature highlight both similarities and differences in gender representation, with Western literature often portraying more diverse gender roles and challenging stereotypes at an earlier stage compared to Uzbek literature, reflecting varying cultural contexts and societal norms. Despite these disparities, the analysis underscores the universal importance of inclusive and empowering narratives in shaping children's perceptions of gender and fostering a more equitable society.

In the epic "Uch og'a ini botirlar," men and women are depicted in traditional and heroic roles. Men are portrayed with qualities of bravery, valor, and courage. They are heroes who protect their people and families, performing great deeds. Women, on the other hand, are mainly depicted with qualities of beauty, loyalty, and wise counsel. They inspire and support the men. In this epic, men and women complement and support each other. Men symbolize bravery and strength, while women symbolize wisdom and beauty. The mutual respect and cooperation between these two genders are essential elements of the epic. Entity among young audiences.

In the work [3, 33] "Oygul va Baxtiyor," the portrayals of women and men are depicted through various aspects. This classic piece of Uzbek literature thoroughly explores the relationships between men and women, as well as their roles and positions in society. Oygul is depicted as an educated, cultured, and well-read young woman. She has a high intellectual level and strives to achieve her goals. Oygul is shown as an independent and courageous woman. She is not afraid to go against traditional societal norms. She tries to maintain her love and loyalty, demonstrating her inner beauty and faithfulness. Baxtiyor is also portrayed as an educated and cultured young

man. He is interested in science and strives for knowledge. Baxtiyor is depicted as a brave, just, and honorable person. He does not stop fighting to protect his love and for justice. He is also loyal to his love, loves Oygul, and remains faithful to her. In the work, the relationships between the female and male characters are built on the foundation of love and respect. Their mutual affection, overcoming difficulties together, and striving to achieve their dreams enrich the content of the work.

In this piece, the portrayals of women and men are depicted as equals and harmony in "Zumrad va Qimmat," written by O'tkir Hoshimov, the portrayals of male and female characters reflect traditional and cultural themes prevalent in Uzbek literature. Male characters are often depicted as strong and authoritative figures. They are portrayed as the protectors and providers for their families. Men in the story typically take on roles that involve making important decisions, showcasing their responsibility and control within the family and society. Upholding personal and familial honor is a significant trait attributed to male characters, influencing their actions and relationships.

Female characters are shown as caring and nurturing, often taking primary responsibility for the household and children. Women are depicted as virtuous, patient, and enduring, embodying the qualities of traditional womanhood and resilience in the face of hardship. Despite a seeming secondary role in public affairs, women wield substantial influence within the family, providing emotional and moral support to their husbands and children. These portrayals reflect the societal norms and expectations of gender roles during the time the story is set, emphasizing the complementary dynamics between men and women in maintaining family and societal structures. nious, which is a unique and interesting approach in Uzbek literature.

Discussion. The differences between Uzbek children's literature and classic Western children's literature lie primarily in their cultural contexts, societal norms, and approaches to gender representation. Uzbek children's literature, influenced by Central Asian traditions and values, often reflects traditional gender roles with a gradual shift towards more inclusive narratives promoting gender equality. Characters in Uzbek literature may initially conform to stereotypes but are increasingly portrayed as multifaceted individuals capable of defying societal expectations.

In contrast, classic Western children's literature, shaped by Western cultural norms and historical contexts, exhibits a broader range of gender representation from earlier stages, with characters challenging stereotypes and traditional gender roles more prominently. Works like "Little Women" by Louisa May Alcott showcase strong, independent female characters breaking free from societal constraints, while "Tom Sawyer" by Mark Twain reflects traditional gender expectations. These differences highlight the varying trajectories of gender representation in children's literature across different cultural and historical landscapes.

Conclusion. It's clear that exploring how boys and girls are depicted in children's literature is essential. We discovered that many classic stories tend to reinforce traditional notions of gender roles, portraying boys and girls in stereotypical ways. Gender representation in children's literature highlights the profound impact that these narratives can have on young minds. Classic children's books often reinforce traditional gender roles, which can limit children's understanding of their own potential and perpetuate societal inequalities. By analyzing both Western and Uzbek children's literature, this coursework underscores the need for more diverse and balanced representations of gender. Educators, parents, and authors play a crucial role in selecting and creating stories that challenge stereotypes and promote gender equality. Future research should continue to explore the evolving nature of gender roles in literature and their impact on children's development. Ultimately, fostering an inclusive literary environment will help children develop a more nuanced and equitable understanding of gender, empowering them to pursue their aspirations free from restrictive societal expectations.

References:
Vohidov, Erkin. Selected Poems. Tashkent: Uzbekistan Publishing House, 1990. –B.120.
Qodiriy, Abdulla. “O‘tgan kunlar “ Tashkent “Sharq” 2012.B.138.
Olimjon, Hamid. Oygul bilan Baxtiyor:ertak-dostonlar.Yangi asr avlodi,2017.B.33
Davron Xurshid. Interview in Uzbek Literary Journal, March 2015 Issue. https://iphronline.org/wp-content/uploads/2015/11/EU-Uzbekistan-HRD-briefing-November-2015.p.127-131 DEVELOPMENT OF SHORT STORY GENRE IN UZBEK LITERATURE.
N.I. Zoirovna. International Multidisciplinary Journal for Research & Development 11 (03), 2024. P.368-370 https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/1274

PEDAGOGIK DISKURSDA TIL VOSITALARINING PRAGMALINGVISTIK INTERFUNKTSIYASI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI QIYOSIY TAHLILI

Nizomova Mohinur Baratboyevna
Qarshi davlat universiteti(PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida pedagogik diskursning pragmalingvistik interfunktsiyasi tahlil qilinadi. Pedagogik nutq doirasida til vositalarining kommunikativ, iltimoskorlik, baholovchanlik, ta’sirchanlik va ijtimoiy rolga yo‘naltirilgan xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot diskurs tahlili, qiyosiy tilshunoslik va pragmalingvistika nazariyalariga asoslanadi.

Kalit so’zlar: Pragmalingvistika , nutq aktlari ,pedagogik diskurs, konversatsion prinsiplar, illokutsion akt, presuppozitsiya , implikatura, terminologik interfunktsiya, o‘qituvchi-o‘quvchi muloqoti , kontekstual ma’no , madaniy tafovutlar, kommunikativ, kompetensiya , ingliz va o‘zbek tillari qiyosi , metafora va ekspressivlik , lingvistik pragmatika, ta’lim metodikasi , didaktik nutq, madaniyatlararo kommunikatsiya, nutqiy vaziyatga moslashuv, pedagogik terminlar.

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРФУНКЦИЯ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ: СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Низомова Мохинур Баратбоевна
Каршинский государственный университет (PhD), доцент.

Аннотация. В данной статье анализируется прагмалингвистическая интерфункция педагогического дискурса на материале английского и узбекского языков. В рамках педагогической речи раскрываются коммуникативные, вежливостные, оценочные, воздействующие и социально-ориентированные характеристики языковых единиц. Исследование основано на теориях дискурсивного анализа, сравнительного языкознания и прагмалингвистики.

Ключевые слова: прагмалингвистика, речевые акты, педагогический дискурс, принципы ведения беседы, иллокутивный акт, пресуппозиция, импликатура, терминологическая интерфункция, взаимодействие учитель-ученик, контекстуальное значение, культурные различия, коммуникативная компетенция, сопоставление английского и узбекского языков, метафора и экспрессивность, языковая прагматика, образовательная методология, дидактическая речь, межкультурная коммуникация, контекстуальная адаптация, педагогическая терминология.

PRAGMALINGUISTIC INTERFUNCTION OF LANGUAGE MEANS IN PEDAGOGICAL DISCOURSE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Nizomova Mohinur Baratboyevna
Karshi State University (PhD), Associate Professor.

Abstract. This article analyzes the pragmalinguistic interfuction of pedagogical discourse in English and Uzbek languages. Within the framework of pedagogical speech, the communicative, polite, evaluative, influential, and socially oriented features of linguistic units are revealed. The study is based on the theories of discourse analysis, comparative linguistics, and pragmalinguistics.

Key words: Pragmalinguistics, speech acts, pedagogical discourse, conversational principles, illocutionary act, presupposition, implicature, terminological interfuction, teacher-student interaction, contextual meaning, cultural differences, communicative competence, English and

Uzbek language comparison, metaphor and expressiveness, linguistic pragmatics, educational methodology, didactic speech, intercultural communication, contextual adaptation, pedagogical terminology.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sohasida nutqning maqsadga muvofiq ishlatilishi, ya’ni kommunikatsiyaning samaradorligi eng dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi til vositalari vositasida o‘zaro ta’sir, ruhiy va ijtimoiy signal almashinuvi yuz beradi. Ushbu maqolada aynan shu til vositalarining ingliz va o‘zbek tillarida qanday interfunktsiyalarga ega ekani, ya’ni ular qanday kommunikativ yuklama bilan ishlatilishi ilmiy tahlil qilinadi.

Nazariy asoslar va metodologik yondashuv.

Pragmalingvistika — bu tilshunoslikning nutqni real kommunikativ vaziyatda o‘rganuvchi sohasi bo‘lib, unda nutq egasi (subyekt), tinglovchi, kontekst va maqsad muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til vositalari nafaqat axborotni yetkazadi, balki ijtimoiy, hissiy va funktsional yuklamalarni ham tashiydi.

Pedagogik diskurs esa — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘quv jarayoniga oid kommunikativ faoliyatdir. Unda til vositalari bilim berish, baholash, motivatsiya berish, o‘rgatish va ijtimoiy rolni ifodalash funksiyalarini bajaradi.

Pragmalingvistik interfunktsiya tushunchasi, «Interfunktsiya» termini ikki yoki undan ortiq funksional qatlamlarning birlikda amal qilishini bildiradi. Tahlillarimiz shuni ko’rsatadiki, pedagogik diskursda bu: lingvistik (sintaktik, leksik), pragmatik (maqsad, illokutsion akt), kommunikativ (muloqot qurilishi), va pedagogik (ta’limiy, baholovchi) vazifalarning bir butun tizimda ishlashi demakdir.

Shu sababli, interfunktsional tahlil – bu til vositalarining bir vaqtning o‘zida:

axborot yetkazish (informativeness), ta’sir qilish (directive), rag‘batlantirish (evaluative), kontekstga moslik (appropriateness), va ijtimoiy rollarni ko‘rsatish (role-oriented language) kabi vazifalarni qanday bajarayotganini tahlil qilishdir.

Ushbu jadvalda nazariy yondashuvlar va olimlar fikrini izohlab o’tamiz:

Yondashuv	Tavsif	Asoschi olimlar
Nutq aktlari nazariyasi	Har bir gapda bajarilayotgan harakat (so‘rash, buyurish, taklif qilish va h.k.) aniqlanadi.	J. L. Austin, J. Searle
Kooperativ prinsiplar	Nutq Grays prinsiplariga muvofiq quriladi: sifat, miqdor, aloqadorlik, aniqlik	H. P. Grice
Metadiskurs nazariyasi	O‘qituvchi nutqida foydalaniladigan tuzuvchi (organizer) va baholovchi (evaluative) birliklar	K. Hyland
Didaktik til modellari	O‘quvchilarga ta’sir qilish, ularni yo‘naltirish, baholash til birliklari orqali amalga oshiriladi	L. Vygotsky, A. N. Leontiev
Diskurs tahlili	Nutq ijtimoiy, madaniy va kontekstual tahlil bilan birga olinadi	N. Fairclough, T. A. van Dijk

Olimlar fikrlarini tahlil qilgan holda bizning qarashlarimiz quyidagicha, pedagogik diskursda til vositalari ko‘p funksiyali bo‘lgani uchun, ularni ilmiy tahlil qilishda quyidagi mezonlarni taklif qilamiz:

lingvopragmatik (maqsad, ta’sir, nutq turi),
sotsiopragmatik (ijtimoiy maqom, roldagi farqlar),
semantik-pragmatik (yashirin ma’no, presuppozitsiya),
stilistik (uslubiy xususiyatlar),
interaktivlik (o‘zaro aloqa darajasi)

Pedagogik diskursda til vositalarining pragmalingvistik interfunktsiyasini tahlil qilish nazariyasi, tilning ko‘p qatlamli ishlatilishini anglatadi. Bu yondashuv orqali til vositalari orqali qanday qilib bilim beriladi, ijtimoiy rollar belgilanadi, kontekstga moslik ta’minlanadi, va o‘quvchini faollikka undaydigan strategiyalar amalga oshiriladi — ana shu jihatlar aniqlanadi. Pragmalingvistik interfunktsiya o‘qituvchining nutqini shunchaki axborot yetkazish vositasi emas, balki kommunikativ-harakatiy va pedagogik-ta’sirchan vosita sifatida ko‘rsatishga yordam beradi.

Pedagogik diskurs tushunchasi pedagogik diskurs — bu ta’lim jarayonida yuzaga keladigan tilga asoslangan muloqot shaklidir. U o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi axborot almashinuvi, motivatsiya, tushuntirish va baholash kabi kommunikativ jarayonlarni qamrab oladi. Pedagogik diskurs faqat ma’lumot yetkazish bilan cheklanmay, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy muvofiqlik va madaniy integratsiya vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu nutq turi odatda darslar,

seminarlar, treninglar, baholash jarayonlari kabi ta’limiy kontekstlarda yuzaga chiqadi. Shuningdek, pedagogik diskursda til vositalari faqat semantik jihatdan emas, balki pragmatik, sotsiopragmatik va psixolingvistik nuqtai nazardan ham tahlil etiladi. U o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularning diqqatini jalb qilish, axborotni tuzilmaviy asosda yetkazish va baholash kabi ko‘p funksiyali vazifalarni bajaradi. Pragmalingvistikaning asosiy tushunchalari Pragmalingvistika — bu tilshunoslikning nutq va kontekst o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadigan yo‘nalishidir. U til birliklarining ma’nosini ularning ishlatilish holatiga, ya’ni kim, qachon, kimga va qanday maqsadda aytganiga qarab aniqlaydi. Pragmalingvistikaning asosiy tushunchalari quyidagilardir:

Illokutiv aktlar — bu gapning bajaruvchi kuchiga ega bo‘lgan turlari: buyruq, iltimos, savol, maslahat, baholash va h.k.

Presuppozitsiya — nutqda bevosita aytilmagan, ammo tushunarli bo‘lgan taxminiy ma’no.

Deiksis — shaxs, vaqt va joyga oid ko‘rsatkich birliklar (masalan, bu, men, shu yerda, hozir).

Implikatura — nutqning yuzaki shakli orqali bildirilgan, ammo kontekst orqali anglashiladigan ma’no.

Politeness strategies — nutqdagi muloyimlik, hurmat ifodalovchi strategiyalar.

Pedagogik diskursda aynan shu pragmatik birliklar til vositalarining qanday ishlatilishini va o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotning qanday ijtimoiy-funktsional vazifalarni bajarayotganini aniqlashda muhim omillardir. Ingliz va o‘zbek tillarida bu birliklarning ifodalanish shakli va madaniy yuklamasi farq qiladi, bu esa qiyosiy tahlilga asos bo‘ladi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida nutqning maqsadga muvofiq ishlatilishi, ya’ni kommunikatsiyaning samaradorligi eng dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi til vositalari vositasida o‘zaro ta’sir, ruhiy va ijtimoiy signal almashinuvi yuz beradi. Ushbu maqolada aynan shu til vositalarining ingliz va o‘zbek tillarida qanday interfunktsiyalarga ega ekani, ya’ni ular qanday kommunikativ yuklama bilan ishlatilishi ilmiy tahlil qilinadi. Pedagogik diskurs tushunchasi Pedagogik diskurs — bu ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida shakllanadigan muloqotdir. U axborot uzatish, savol-javob qilish, baholash, rag‘batlantirish, o‘rgatish va o‘zaro ta’sirni tashkil qilish kabi vazifalarni bajaradi. Ushbu nutq shakli dars jarayonining barcha bosqichlarida faollik kasb etadi va ma’rifiy hamda madaniy funksiyalarni bajaradi. Pedagogik diskursda ishlatiladigan til vositalari kommunikativ strategiyalar, intonatsion ohanglar, ritorik savollar va baholovchi ifodalar orqali talaba e’tiborini jalb qilish, motivatsiyani shakllantirish va bilimlarni samarali yetkazishga xizmat qiladi. Masalan:

English: “Let’s begin with today’s topic. Please take notes”.

O’zbek: “Bugungi mavzuni boshlaymiz. Iltimos, yozib boringlar”

English: “Do you understand the idea? Feel free to ask questions”

O’zbek: “Tushunyapsizlarmi? Savollar bo‘lsa bemalol so‘rashingiz mumkin”

English: “That was a great answer. Well done!”

O’zbek: “Ajoyib javob edi. Barakalla!”

Pragmalingvistika — bu til birliklarining kontekstual qo‘llanilishi, ularning ma’naviy va ijtimoiy yuklamasini o‘rganadigan tilshunoslik sohasi bo‘lib, u muloqot davomida nutq ishoralarining qanday maqsadni ko‘zlaganini aniqlaydi. Mazkur maqola doirasida ingliz va o‘zbek tillarida pedagogik nutqning pragmalingvistik xususiyatlari, nutq aktlari nazariyasi va konversatsion prinsiplar orqali tahlil qilinadi. Nutq aktlari nazariyasi J. L. Austin va J. R. Searle tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra har bir gapda uchta darajadagi akt mavjud: lokutiv (nutqning literal shakli), illokutiv (gapiruvchining niyati), va perlokutiv (tinglovchiga ta’siri). J. R. Searle quyidagi asosiy nutq aktlari turlarini ajratgan:

Assertivlar – gapiruvchi tomonidan haqiqat sifatida ilgari suriladigan bayonotlar

English: «The Earth is round»

O’zbek: «Yer dumaloq»

Direktivlar – tinglovchidan biror harakatni bajarishni so‘rash yoki talab qilish

English: «Please sit down»

O’zbek: «Iltimos, o‘tiring»
Komissivlar – gapiruvchining kelajakda biror ishni qilishga va’da berishi
English: «I will help you with your homework»
O’zbek: «Uy vazifangizda sizga yordam beraman»
Ekspressivlar – gapiruvchining hissiyot va munosabatini bildiruvchi gaplar
English: «I’m sorry for being late»
O’zbek: «Kechikkanim uchun uzr»
Deklarativlar – gapning aytilishi bilan muayyan ijtimoiy holatni o‘zgartiruvchi aktlar
English: «I now pronounce you husband and wife.»
O’zbek: «Endi sizlarni er-xotin deb e’lon qilaman.»

Pedagogik kontekstdagi nutq aktlari, ayniqsa, baholovchi (ekspressiv), topshiriq beruvchi (direktiv) va motivatsion (komissiv) funktsiyalarni bajaradi. Pedagogik terminologiyaning leksik-semantik rivojlanishi ham pragmalingvistik tahlilning muhim qismidir. Widdowson ta’kidlaganidek, pedagogik terminlar tilning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. Terminlarning shakllanishi, o‘zgarishi va sohalar bo‘yicha differensiallashuvi sotsiolingvistik va madaniy omillar ta’sirida kechadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi pedagogik terminlar semantik jihatdan ba’zan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning konnotatsiyasi, stilistik registri va ijtimoiy vazifalari farq qilishi mumkin. Shu boisdan, pedagogik diskursda qo‘llaniladigan til birliklarini faqat semantik emas, balki funktsional-pragmatik mezonlar asosida o‘rganish lozim bo‘ladi.

Pedagogik diskursda ishlatiladigan terminlar har ikki til – ingliz va o‘zbek –da o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy rivojlanish jarayonida shakllanib borgan. Ingliz tilida “curriculum”, “pedagogy”, “didactics” kabi terminlar lotincha va yunonchadan kelib chiqqan bo‘lib, ularning semantik yuki zamonaviy g‘arbiy ta’lim tizimining asosiy ideologik ustunlarini aks ettiradi. Bu terminlar globalizatsiya jarayonida xalqaro didaktik diskursga chuqur singib ketgan. O‘zbek tilida esa pedagogik terminlarning ba’zilari sovet davrida rus tili asosida shakllangan bo‘lib, “pedagogik metodika”, “o‘qituvchilik mahorati”, “tarbiya” kabi atamalar milliy qadriyatlar va mentalitet bilan integratsiyalashgan. Mustaqillikdan so‘ng bu terminlar milliylashtirilish, kontekstga moslashtirilish jarayonidan o‘tmoqda.

Pragmalingvistik interfunktsiya bu yerda til vositasining muayyan kommunikativ vazifani bajarishdagi semantik va funktsional moslashuvini bildiradi. Ingliz tilidagi “curriculum” keng, ko‘p darajali semantik qamrovga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida u ko‘pincha “o‘quv dasturi” bilan ifodalanadi, bu esa ta’lim falsafasidagi ideologik farqni ham ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi pedagogik terminlar ko‘pincha nutqiy vaziyatga ko‘ra ma’no kengayishiga uchraydi. Masalan, “inclusive education” nafaqat nogironligi bor bolalar bilan ishlashni, balki etnik, ijtimoiy va jinsiy inklyuzivlikni ham qamrab oladi. “Student-centered learning” esa avtoritar yondashuvdan voz kechish va o‘quvchini faol subyekt sifatida e’tirof etishni anglatadi. O‘zbek tilida esa bunday terminlar “zamonaviy ta’lim metodikasi”, “innovatsion pedagogika” kabi iboralar bilan ifodalanadi, biroq bu terminlar ko‘pincha rasmiy hujjatlar, farmonlar va ilmiy anjumanlarda ishlatiladi, kundalik o‘qitish jarayonida esa xalqchil, soddalashtirilgan shakllarga o‘tadi.

Pragmalingvistik tahlilda terminlarning semantik differensiasiyasi, ya’ni bir terminning turli kontekstlarda qanday ma’nolar kasb etishi tahlil qilinadi. Masalan, ingliz tilida “academic freedom” – bu faqat professorlarning erkinligini emas, balki o‘quv dasturlarni mustaqil tanlash, nazariy nuqtai nazarni himoya qilish huquqini ham anglatadi. O‘zbek tilida esa bu ko‘proq “akademik erkinlik” deb tarjima qilinadi, lekin amaliy diskursda u faqat ilmiy izlanish bilan bog‘liq tushuniladi. Shuningdek, “student autonomy” atamasi ingliz tilida mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvga urg‘u bersa, o‘zbek tilidagi “talabaning mustaqilligi” ko‘proq mustaqil topshiriqlarni bajara olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Pragmalingvistik yondashuv nafaqat mavjud terminlarni to‘g‘ri talqin qilish, balki yangi

pedagogik terminlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “o‘z-o‘zini baholash” atamasi zamonaviy ta’limda faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar asosida paydo bo‘lgan bo‘lsa, ingliz tilida bu “self-assessment” shaklida chuqur didaktik-metodologik asosga ega.

Interfunksional yondashuv orqali bu terminlar faqat so‘z sifatida emas, balki muloqot vositasi, metodologik marker, va ijtimoiy tafakkur ko‘zgusi sifatida ham talqin etiladi. Bu jihatlar, ayniqsa, til o‘qituvchisi va talaba orasidagi kommunikatsiya samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ingliz va o‘zbek tillarida pedagogik terminlarning shakllanishi va qo‘llanilishi faqat lingvistik jihatdan emas, balki pragmatik va madaniy kontekstlarda ham turlicha namoyon bo‘ladi. Pragmalingvistik interfunktsiya bu terminlar orqali berilayotgan ijtimoiy, ideologik va kommunikativ ma’lumotlarning har bir madaniyatda qanday aks etishini chuqur ochib beradi. Bu esa ta’lim sohasida terminlardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan: Ingliz tilida:»Curriculum» – lotincha currere (yugurmoq) so‘zidan kelib chiqqan; dastlab umumiy o‘quv rejasini bildirgan. Hozirda: “The national curriculum encourages critical thinking and creativity”. «Pedagogy» – yunoncha paidagogos so‘zidan: bolani maktabga olib boruvchi. Hozirda: “Constructivist pedagogy promotes student engagement through active learning”. Didactics» – ilmiy-pedagogik ta’limot sifatida ishlatiladi: “Modern didactics focus on learner autonomy and: “O‘qituvchilik mahorati” – o‘qituvchining metodik tayyorgarligi: “Bugungi kunda o‘qituvchilik mahorati raqamli kompetensiyalarni ham o‘z ichiga oladi”. “Tarbiya” – faqat axloqiy emas, balki ijtimoiy jarayon: “Yoshlar tarbiyasida oilaviy muhitning roli beqiyos”. “Pedagogik metodika” – dars o‘tkazish usullari majmuasi: “Innovatsion pedagogik metodika fanlarni integratsiyalash orqali kuchaytirilmoqda”.

Pragmalingvistik yondashuvda esa, ingliz tilida: “Inclusive education” – nogironlar emas, balki har kim uchun ochiq ta’lim: “Inclusive education supports linguistic, cultural, and physical diversity in classrooms”. “Student-centered learning” – faollik markazida o‘quvchi turadi: “In a student-centered classroom, the teacher is a facilitator rather than a knowledge provider”.

Pragmalingvistik interfunktsiya: Bu terminlar kontekstga qarab, boshqacha semantik yuklama oladi. Masalan, «inclusive» ingliz jamiyatida ijtimoiy adolat konsepti bilan bog‘lanadi.

O‘zbek tilida: “Innovatsion pedagogika” – ko‘pincha rasmiy hujjatlarda ishlatiladi: “Innovatsion pedagogika o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi”. “Zamonaviy ta’lim metodikasi” – konversiyaga uchragan ibora: “Zamonaviy metodikalarda o‘zlashtirish testlar bilan emas, kompetensiyalar asosida baholanadi”.

Pragmalingvistik interfunktsiya: Bu terminlar rasmiy kontekstdan xalqchil nutqqa o‘tganida soddalashtiriladi. Masalan, “zamonaviy metodika” xalq orasida “yangi usul” deb aytiladi.

Pragmalingvistik tahlil: terminlarning qiyosiy tahlilini nazarda tutatigan bo’lsak:

Semantik differensiasiya.»Academic freedom» (ingliz): “Academic freedom ensures that scholars can pursue truth without political pressure”. “Akademik erkinlik” (o‘zbek): “Akademik erkinlik asosan ilmiy izlanish erkinligi bilan bog‘lanadi”.

Ingliz tilida u siyosiy, falsafiy erkinlikni anglatadi. O‘zbek diskursida tor ma’noga ega.

«Student autonomy» (ingliz): “Student autonomy leads to higher responsibility in learning.”

“Talabaning mustaqilligi” (o‘zbek): “Talabaning mustaqil ishlashi baholashda inobatga olinadi.”

Presuppozitsiya va implikatura

Ingliz: “Assessment must reflect learner-centered goals”

Presupposes that traditional assessments are insufficient.

O‘zbek: “Baholash mezonlari faollikni inobatga oladi”

Implies that baholash mezonlari avvalgi tizimdan farqli bo‘lgan.

Pragmalingvistik yondashuvning rivojlantiruvchi rol, Ingliz tilida:

«Self-assessment», «blended learning», «experiential learning» – ta’limning yangi paradigmasi: “Blended learning enhances flexibility in student-centered environments.”

O‘zbek tilida: “O‘z-o‘zini baholash”, “integratsiyalashgan ta’lim”, “ko‘nikma asosli

yondashuv”: “O‘z-o‘zini baholash orqali o‘quvchi o‘z bilim darajasini mustaqil aniqlay oladi”.

Interfunksional semantika: bu terminlar nafaqat ilmiy nutqda, balki darslik, rasmiy hujjatlar va ta’lim siyosatida turli funksiyani bajaradi. Pedagogik terminlar faqat texnik tushuncha emas, balki ijtimoiy-madaniy mazmunga ega til birliklari sifatida qaralishi kerak. Ularning pragmalingvistik interfunktsiyasi – ya’ni kontekstga qarab o‘zgarishi, ijtimoiy maqomi va semantik differensiasiyasi – ingliz va o‘zbek tillaridagi farqlarni chuqur ko‘rsatadi.

Yangi pedagogik terminlar shakllantirilayotganda ularning kontekstual va madaniy moslashuvchanligi muhim hisoblanadi. Masalan:

Ingliz tilida: “formative assessment” — baholash jarayonining o‘quvchiga yo‘naltirilgan va o‘zgaruvchan shakli.

O‘zbek tilida: “o‘zlashtirish darajasi” yoki “jarayonli baholash” kabi iboralar orqali ifodalanadi. Pragmalingvistik nuqtai nazardan bu terminlar kommunikativ vazifani bajaradi, chunki ular o‘quvchilarga ta’limdagi yondashuvning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Demak, pragmalingvistika terminlarning nafaqat leksik darajadagi, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy qamrovda shakllanishini o‘rganadi.

Pedagogik diskursda til vositalarining pragmalingvistik interfunktsiyasini tahlil qilish mezonlarini keltirib o’tadigan bo’lsak, Illokutsion va perlokutsion kuchning mezoni- bu mezon pedagogik nutqda til birliklarining maqsadli ta’sir kuchi (buyruq, maslahat, savol, undov) va ular orqali yuzaga keladigan javob reaksiyasini o‘rganadi. Masalan: Ingliz tilida: “Let’s focus on this part now, shall we?” (yumshoq buyruq + iltimos)— bu yerda o‘qituvchi iltimoskorlik orqali nazoratni saqlab qolmoqda. O‘zbek tilida:“Kelinglar, endi mana bu mashqni bajaramiz”— illokutsion akt yumshatilgan shaklda berilgan, ammo perlokutsion kuchi aniq: amal bajarilishi kutilmoqda.

Baholovchanlik va ekspressivlik mezoni- til vositalari orqali o‘qituvchining shaxsiy munosabati, hissiyati yoki qadriy bahosi ifodalanishiga e’tibor qaratiladi. Ingliz tilida: “Excellent work!”, “That’s a very smart idea!”— ekspressiv leksika o‘quvchini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. O‘zbek tilida:“Zo‘r bajarding!”, “Judayam o‘ylangan javob ekan” — bu tarzdagi ifodalar hissiy ta’sirni kuchaytiradi.

Konversatsion prinsiplar va implikatura mezoni-graysning kooperativ prinsiplariga asoslangan holda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotdagi yashirin ma’no (implikatura) va muloqot sifati tahlil qilinadi. Ingliz tilida: O‘qituvchi: “Have you read the text?” O‘quvchi: “Well… I looked at it.”

— Implikatura: to‘liq o‘qilmagan, lekin yashirishga urinish bor. O‘zbek tilida:

O‘qituvchi: “Topshiriqni bajardingmi?”O‘quvchi: “Ko‘rib chiqdim” — yashirin ma’no: faqat yuzaki ko‘zdan kechirilgan.

Kontekstual moslik va sotsiokultural tafovut mezoni- til vositalarining kontekstga mosligi hamda milliy-madaniy farqlarning diskursga ta’siri tahlil qilinadi. Ingliz tilida: “We need to respect deadlines, class” — vaqtga qat’iy amal qilish madaniyati aks etgan. O‘zbek tilida: “Ishni oxirigacha yetkazish kerak, bolalar” — mas’uliyatni qadrlashga urg‘u berilgan, ammo ko‘proq axloqiy tushuncha asosida.

Terminologik interfunktsiya mezoni- pedagogik diskursda qo‘llaniladigan terminlar, metaforalar va terminlarning didaktik yukini tahlil qilish mezoni. Ingliz tilida:“Scaffolding”, “learning curve”, “peer-assessment” — bular metodik metaforalar bo‘lib, o‘quv jarayonini tushunishga xizmat qiladi. O‘zbek tilida:

“Bosqichma-bosqich o‘qitish”, “muammoli vaziyat”, “o‘zaro tekshiruv” — ma’nodosh birliklar, biroq ko‘proq izohlab berilishi talab etiladi.

Kommunikativ maqsad va stratejik nutq mezoni- o‘qituvchining nutqiy strategiyasi – savol-javoblar, ritorik vositalar, dramatik pauzalar orqali maqsadga erishish usullari. Ingliz tilida: “What do you think would happen if...?” — savol orqali o‘quvchini o‘ylashga undash. O‘zbek tilida:

“Agar buni shunday qilmasak-chi?” — so‘roq-inkor shakli orqali qiziqish uyg‘otish.

Presuppozitsiya va semantik yuklama mezoni- pedagogik gaplar ichidagi presuppozitsiyalar (oldindan qabul qilingan haqiqatlar) va ularning semantik ta’sirini aniqlash. Ingliz tilida:“Since you’ve already studied this topic...” — presuppozitsiya: mavzu ilgari o‘rganilgan. O‘zbek tilida:“Bu mavzuni o‘tgan safar yaxshi tushungandik-ku”— oldingi bilimga tayanib, yangisini kiritish.

O‘qituvchi-o‘quvchi nutqining dinamikasi mezoni- dialogik diskursda rollarning almashinuvi, ijtimoiy tenglik yoki ustuvorlik darajasi nutqdagi til birliklaridan kelib chiqib baholanadi. Ingliz tilida: Teacher: “Let’s hear from you now.” Student: “I think the answer is...”— interaktiv va demokratik uslub. O‘zbek tilida: O‘qituvchi: “Endi kim gapiradi?”O‘quvchi: “Domla, men aytsam bo‘ladimi?”— ierarxik pozitsiyalar ko‘zga tashlanadi. Bu mezonlar yordamida ingliz va o‘zbek tillarida pedagogik diskursning pragmalingvistik interfunktsiyasi kompleks yondashuvda baholanadi. Bu yondashuv: til birliklarining faoliyatga yo‘naltirilgan semantik yukini, madaniy konnotatsiyalarni, va nutqiy strategiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Pedagogik diskurs — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijtimoiy-intelektual muloqot maydoni bo‘lib, u faqat axborot uzatish emas, balki shaxsga ta’sir qilish, motivatsiya berish, bilimni shakllantirish va ijtimoiy rollarni mustahkamlash kabi ko‘p qatlamli kommunikativ faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bunday murakkab kommunikativ hodisani tahlil qilish uchun pragmalingvistik interfunktsiya yondashuvi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pragmalingvistik interfunktsiya nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, pedagogik diskursda til vositalari bir vaqtning o‘zida bir necha vazifalarni bajaradi: illokutsion akt (harakatga undash), presuppozitsiya (oldindan qabul qilingan ma’no), ekspressivlik (emotsional baholash), metadiskursivlik (o‘z nutqini boshqarish), stilistik vositalar orqali interaktivlik va sotsiopragmatik uyg‘unlikni ta’minlaydi. Ushbu interfunktsional xususiyatlarni to‘laqonli tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan mezonlar tizimi – ya’ni: lingvopragmatik (nutq aktlari, implikatura), sotsiopragmatik (ijtimoiy rollar va madaniy kontekst), didaktik-pragmatik (bilimga yo‘naltirilgan til birligi), semantik-pragmatik (presuppozitsiya, yashirin ma’no), stilistik va interaktiv mezonlar pedagogik tilni nafaqat lingvistik birliklar darajasida, balki kompleks kommunikativ vosita sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi pedagogik diskursni qiyosiy o‘rganish esa bu til vositalarining milliy-madaniy tafovutlarini, ularning stilistik vositalar bilan uyg‘unlashuvini, hamda o‘qituvchining kommunikativ strategiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Pedagogik diskursda til vositalarining pragmalingvistik interfunktsiyasi — bu tilning kommunikativ, didaktik, sotsiokultural va stilistik vazifalarining bir butun tizimda faol ishlashidir. Ushbu interfunktsiyalarni mezonlar asosida tahlil qilish esa ta’lim jarayonida tilning roli, samaradorligi va madaniy-ta’sirchan ko‘lamini aniq ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mustafaeva, S. T. Chinese Linguistic Terminology. Doctor of Philosophy (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017.
2. Nishonov, P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2009.
3. Paluanova, X. D. Ekologik terminlarning derivatsion-semantik xususiyatlari (o‘zbek, qoraqalpoq, ingliz va rus tillari misolida). Filologiya fanlari doktori (DS) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2016.
4. Reshetova, L. V. The Grammatical Terminology of the Uzbek Language. Cand. philol. sciences diss. – Toshkent, 1961.
5. Saidov, A. Ta’lim sohasidagi terminlar: tarjima va ekvivalentlik masalalari. O‘zbek tilshunosligi jurnali, №4, 27–35-betlar. – Toshkent, 2019.
6. Nazarova, D. Pedagogik muloqotda pragmatik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari. Til va

adabiyot ta'limi ilmiy-amaliy jurnal, №2, 46–52-betlar. – Toshkent, 2020.
7. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford University Press. – Oxford, 1962.
8. Grice, H. P. Logic and Conversation. In Syntax and Semantics (Vol. 3, pp. 41–58). Academic Press. – New York, 1975.
9. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press. – Cambridge, 1969.
10. Levinson, S. C. Pragmatics. Cambridge University Press. – Cambridge, 1983.
11. Mey, J. L. Pragmatics: An Introduction. Blackwell Publishing. – Oxford, 2001.
12. Leech, G. Principles of Pragmatics. Longman. – London, 1983.
13. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching (2nd ed.). Cambridge University Press. – Cambridge, 2001.
14. Krashen, S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press. – Oxford, 1982.
15. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). Pearson Education. – New York, 2007.

SEMIOTIKADA BELGI TUSHUNCHASI

Nurullayeva Dilnoza Arzikul qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

THE CONCEPT OF SIGN IN SEMIOTICS

Nurullayeva Dilnoza Arzikul qizi,
Doctoral student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ПОНЯТИЕ ЗНАКА В СЕМИОТИКЕ

Нуруллаева Дилноза Арзыкул кызы,
Докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы

Annotatsiya. Ushbu maqola semiotika sohasi markazidagi tushuncha belgi haqida. Belgi moddiy va hissiy ravishda idrok etiladigan voqea, hodisa va harakat bo’lib inson tomonidan axborot almashinish jarayonida ishlatiladigan muhim faktordir. Belgi tushunchasi falsafa, mantiq, psixologiya, sotsiologiya va tilshunoslik kabi qaror fanlar sohalarida tahlil qilinadi. Til eng murakkab belgilar sistemasidir. Belgi tushunchasini tilshunoslikda semiotika sohasi o’rganadi. Maqolada ko’plab olimlar tomonidan belgining o’rganilishiga bo’lgan yondashuvlarni xronologik tartibda batafsil yoritiladi. Xususan, belgining Gretsiayada epikuriylar va stoiklar tomonidan o’rganilgan va ushbu izlanishlar fanga “semiotika” atamasini kirishiga omil bo’lgan. XVIII asr oxirida belgi tushunchasi ingliz falsafasiga kirib kelgan, XIX asr boshlarida tilshunoslik sohasida so’zga belgi sifatida yondashuv bilan o’rganila boshlangan. Shuningdek, maqolada so’z-belgi xususida yoritilar ekan ifodalovchi va ifodalanmish o’rtasidagi motivatsiya masalasi ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: falsafa, mantiq, psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, semiotika, belgi, motivatsiya, gorizontal va vertikal motivatsiya.

Abstract. The article concerns the notion of a sign, which is the basis of semiotics. A sign is an event, phenomenon, and action perceived materially and emotionally, and is an important factor used by a person in the process of exchanging information. The notion of a sign is analyzed in such areas as philosophy, logic, psychology, sociology, and linguistics. Language is the most complex system of signs. The concept of a sign is studied by semiotics in linguistics. The article presents in detail the approaches to studying the sign by many scientists in chronological order. In particular, the sign was studied by the Epicureans and Stoics in Greece, and these studies became a factor in introducing the term «semiotics» into science. At the end of the 18th century, the notion of a sign entered English philosophy, and at the beginning of the 19th century, it began to be studied in linguistics with an approach to the word as a sign. The article also discusses the issue of motivation between the signifier and the signified, highlighting the word-sign.

Key words: philosophy, logic, psychology, sociology, linguistics, semiotics, sign, motivation, horizontal and vertical motivation.

Аннотация. В статье рассматривается понятие знака, лежащее в основе семиотики. Знак — это событие, явление и действие, воспринимаемое материально и эмоционально, и являющееся важным фактором, используемым человеком в процессе обмена информацией. Понятие знака анализируется в таких областях, как философия, логика, психология, социология и лингвистика. Язык — самая сложная система знаков. Понятие знака изучает семиотика в лингвистике. В статье подробно излагаются подходы к изучению знака многими учеными в хронологическом порядке. В частности, знак изучали эпикурейцы и стоики в Греции, и эти исследования стали фактором введения термина «семиотика» в

науку. В конце XVIII века понятие знака вошло в английскую философию, а в начале XIX века его начали изучать в лингвистике с подходом к слову как знаку. В статье также обсуждается вопрос мотивации между означающим и означаемым, при этом выделяется слово-знак.

Ключевые слова: философия, логика, психология, социология, лингвистика, семиотика, знак, мотивация, горизонтальная и вертикальная мотивация.

Til insoniyat madaniyatining inikosi. Til bir murakkab tizim bo'lib, u o'z til birliklari va shu birliklardan foydalanish qoidalaridan iborat. Ichki qurilishi jihatidan ushbu birliklar va qoidalar o'zaro chambarchasdir. Tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibi muayyan qonuniyatlar asosida o'zaro bog'lanib murakkab til tizimini tashkil qiladi. Buni biz I.A. Boduen de Kurtene, H.B. Krushevskiy, F.F.Fortunatov, V.A. Bogoroditskiy, A.A. Potebnya, A.A. Shaxmatov, S.P.Obnorskiy, V.V. Vinogradov, A. M. Peshkovskiy L.V. Sherba kabi tilshunoslarning asarlarida yoritilganini ko'rishimiz mumkin.

Til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. U obyektiv borliqda ma'lum voqea-hodisa haqida axborot tashuvchi vosita vazifasini o'taydi. Albatta, axborot uzatishning boshqa yo'llari ham bor. Masalan, yo'l belgilari yo'l harakat qoidalariga asoslanib bizga ma'lum bir axborotni anglashimizga yordam beradi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi. Inson o'zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida voqelikni obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu olam manzarasi belgi orqali ifodalandi.

Belgi moddiy, hissiy ravishda idrok etiladigan predmet, voqea yoki harakat. Bu harakat bilishda ko'rsatmalar, ishoralar sifatida yoki boshqa predmet, xususiyat, munosabatlarda namoyon bo'ladi. Inson tomonidan ma'lumot almashinish jarayonida ishlatiladigan hamma sistemalar belgili ya'ni semiotik xususiyatga ega; hamda belgilar sistemasi va ana shu belgi sistemasidan foydalanish qonun qoidalariga asoslanadi. Bunda til ham, umumiy qoidadan istisno bo'lmagan holda, belgilar sistemasi hisoblanadi. Lekin til- eng murakkab belgili sistemadir. Belgi tushunchasi falsafa, mantiq, tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiyada tahlil qilinadi, ya'ni inson faoliyatini tadqiq qilish bilan bog'liq bo'lgan hamma fanlarda muhim o'rin tutadi.

Belgi haqida dastlab qadimgi Gretsiyada epikuriylar va stoiklar shug'ullana boshlashdi. Antik falsafa til va voqelikni ajratib, til belgisining ikki tomonlama tuzilishini yaratishga harakat qilgan. Stoiklar ma'noni na ob'ektga, na uning lingvistik tasviriga ajratmadilar, balki belgi munosabatlarining uchta elementini ajratib ko'rsatishdi: ifodalovchi (so'z), ifodalanmish (so'z bilan ochilgan va sub'ektiv tasvir, tushuncha sifatida qabul qilingan narsa), predmetning o'zi esa - denotat. Garchi epikuriylar va stoiklar o'z oldilariga turli maqsadlarni qo'ygan bo'lsalar ham, asosiy e'tiborni bevosita kuzatishda berilgan hodisalar bilan sezgi a'zolari yordamida his qilish mumkin bo'lgan mohiyatlar o'rtasidagi assotsiativ aloqani o'rganishga qaratib umumiylikka ega bo'ldilar. Misol uchun, tana titrog'i bu kasallik belgisi ekanligini aniqlashdi. Greklar o'rgangan belgi nazariyasi ,,semiotike" (sema – belgi, semiotikos – belgini kuzatish) nomini oldi. Hozirgi kunda belgi tizimini o'rganuvchi fan semiotika, belgi voqeligining paydo bo'lish hodisasi semiotizatsiya deb ataladi.

XVIII asr oxirlarida greklar tomonidan ishlatilgan ,,semiotika" atamasini ingliz falsafasiga DJ. Lokk olib kirdi. Dj. Lokk ushbu atamani ilmiy triadada, ya'ni mantiq, fizika va etika doirasida qo'lladi. U semiotikaning maqsadi sifatida belgilar tabiatini o'rganishdan iborat deb belgiladi. Bunda narsalarni tushunish va narsalar haqida hosil bo'lgan bilimni boshqalarga uzatish asosiy o'rinni egallaydi.

XIX asrda belgilar tizimiga bag'ishlangan falsafiy izlanishlar alohida o'rinda turadi. Semiotikaning «belgilar haqidagi fan» sifatida umumiy kridalari, xususiyatlari dastlab amerikalik mantiqshunos Ch.S. Pirs va shveysariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur asarlarida bir vaqtning o'zida va mustaqil ravishda qayd etilgan. Ushbu tushuncha uchun Ch.S. Pirs «Semiotika»

terminini, Ferdinand de Sossyur esa «semiologiya» terminini qo‘llagan. Ch. Pirs belgilarni birinchi marotoba tasnif qilib, u belgining moddiy tomoni bo’lgan ifodalovchi bilan ma’no tomoni bo’lgan ifodalanuvchi o’rtasidagi farqlanishiga asoslanadi va belgilarni uch katta guruhga ajratadi:

Ikonik (sanama) belgilar – ifodalovchi ma’lum darajada ifodalanmish bilan o’xshashlikka ega bo’ladi. Masalan, olov rasmi yong’inning belgisidir.

Simvol belgilar – ifodalovchi bilan ifodalanmish o’rtasida shartli, konventsional, motivlanmagan munosabat mavjud bo’lib, u erkin va ma’lum qoida asosida vujudga keladi [2]. Bunday belgilarga har qanday tillardagi ko’pgina so’zlar misol bo’la oladi. Misol uchun, ,,mushuk” so’zini olsak. Mushuk va ,,mushuk” so’zi o’rtasida hech qanday o’xshashlik yo’q (taqqoslang: mushuk va mushuk rasmi o’rtasida esa o’xshashlik bor).

Indeks belgilar – ifodalovchi va ifodalanmish o’rtasida o’xshashlik makon va zamonda qisman mavjud. Bunday belgilarda ifodalovchi ifodalanmish bilan sabab-natija munosabati orqali bog’lanadi. Misol uchun, qumdagi izlar qumdan oldinroq kimdir yurib o’tganligini bildiradi, kasallik belgilari kasallikning mavjudligini bildiradi, tutun chiqayotgan tom binoda olov yonib turganini bildiradi va hakazo.

Semiotika g‘oyasi keyinchalik amerikalik faylasuf Ch.U.Morris tomonidan tartibga solinib rivojlantirildi. Ch. U. Morris insoniyat sivilizatsiyasi ,,belgi va belgilar sistemasi”siz bo’la olmasligini ta’kidlab, “inson ongi belgilarning ishlashidan ajralmasdir” deb intellektni ushbu funktsiya bilan aniqlanishi kerakligini tahmin qiladi. Bir qancha yevropa va rus olimlari ham Semiotikaning rivojiga hissa qo‘shganlar. Falsafiy fanlardan hisoblanadigan umumiy semiotika va maxsus semiotik fanlar, jumladan, til semiotikasi (glottosemiotika yoki lingvosemiotika) paydo bo’ldi. Semiotika taraqqiyoti funksional struktur tilshunoslik taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir.

XIX asrdan boshlab belgi haqidagi falsafiy nazariya ruhshunoslik va tilshunoslikda ham o’rganila boshlandi. Tilning umumiy nazariyasini yoritishga qaratilgan barcha lingvistik asarlar so’zni ikki tomonlama xarakterga ega bo’lgan belgi sifatida talqin qila boshladi. So’zga belgi nuqtayi nazaridan yondashilish V.Gumboldt, Shleyxer, Shteynal, L.Breal, A. Maye, F.Fortunatov, I.A.Boduen de Kurtene, N. Krushevskiy asarlarida yoritila boshlandi. F. de Sossyur tilning belgili tabiatini ochib berib, belgi nazariyasi haqida shug’ullanuvchi alohida fan semiologiya fani mavjud bo’lishi va lingvistika ham semiologiya tarkibiga kirishi kerakligini ta’kidladi [1].

Lingvistik semiotikadagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo‘lib, u muayyan matnlardagi va muomala vaziyatidagi shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Lingvistik belgi o’zining konventsionalligi, axborot tashish imkoniyati kengligi, diskretligi, akustikligi va ko’psathligi bilan boshqa belgilar ichida alohida tipdagi belgi hiosblanadi. F.de Sossyur har qanday lingvistik belgi ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligini ta’kidlaydi va lingvistik belgi qurilish modelini 2ga bo’ladi: belgining erkinligi va ketma-ketligi. Lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish o’rtasidagi munosabat masalasi tilshunoslikning eng qadimgi muommolaridan bo’lib kelmoqda. Antik davr olimlari bu munosabatda tabiiy bog’lanish bor yo’qligi ustida ko’p bahslashgan va hamfikrlar 2 guruhga bo’linishgan: realistlar va nominalistlar. Ularning birinchisi Geraklit boshchiligidagi realistlar guruhi bo’lib, nom bilan u ifodalagan predmet (ifodalovchi va ifodalanmish) o’rtasida tabiiy bog’liqlik bor degan tezisni ilgari surishgan. Ammo Demokrit boshchiligidagi nominalistlar guruhi nom o’zi ifodalagan predmet bilan tabiiy bog’langan degan fikrni rad etgan, va nom va predmet o’rtasida erkin munosabat bor deydi. U buni quyidagi dalillar bilan isbotlaydi:

Bir predmet bir necha nom bilan atalishi mumkin. Bunda nom soni predmetga nisbatan ko’p va ortiqcha;

Bir necha predmet bir nom bilan ataladi. Bunda nom predmetga nisbatan kam va nom soni predmetlar soniga taqqoslanganda yetishmovchilikka ega;

Zamonlar o’zgarishi natijasida ba’zi predmetlar nomlari ham o’zgarishi mumkin.

Realistlar va nominalistlarning fikrini kelishtirishga Platon harakat qiladi. U realistlarning tezisini oqlash uchun R harfini oladi va ushbu harf harakat hodisasini anglatuvchi nomlarda

borligini ta’kidlaydi: rayn- oqmoq, eraykayn- uzish, srintayn- kavlash va boshqalar.

Ifodalovchi va ifodalanmish o’rtasidagi munosabatda motivatsiya masalasi keyingi davrlarda ham rivojlanadi. Xususan, Gumboldt, E. Benvenist, R. Yakobson asarlarida belgi va predmet o’rtasida motivatsiya borligi e’tirof etiladi. F. de Sossyur esa ifodalovchi va ifodalanmish o’rtasidagi munosabat erkindir deydi. Bu ifodalovchi va ifodalanmish o’rtasidagi aloqa hech qanday motivatsiyalanmaganini ko’rsatadi. Darhaqiqat, o’zbek tilidagi ,,opa’’ so’zi o-p-a tovushlari ketma-ketligi bilan hech qanday ichki munosabatga kirishmaydi. Bu tushuncha ingliz tilida umuman boshqa tovush ketma-ketligi bilan ifodalanishi mumkin. Bu shunchaki turli tillarda mazkur tushunchaning turlicha ifodalanishi va turli tillarning mavjudligi bilan ham ifodalanishi mumkin. Ferdinand de Sossyur har bir belgi faqatgina boshqa belgilar bilan qiyoslangandagina qandaydir ahamiyatga ega bo’la oladi, aksincha, o’zi qandaydir ahamiyatga ega bo’lganligi uchun emasligini quyidagicha ta’riflaydi: ,, Tushuncha ma’noni anglatadi, lekin shuni ta’kidlash lozimki, tushunchaning o’zida o’ziga xos narsa yo’q. Uning qiymati faqatgina o’zi bilan bir qatorda turadigan boshqa qadriyatlar bilan bog’liq holdagina aniqlanadi’’ [3]. Shuni ta’kidlab o’tish lozimki, F. de Sossyur olg’a surgan nazariyada belgi predmet va nomni emas, balki tushuncha va uning akustik qatorini bog’laydi.

F.de Sossyurning nazariyasiga asoslangan va uni tanqid qilgan holda E.Benvenist ham belgi nazariyasi haqida o’z fikrlarini bayon qiladi. U Sossyurning ifodalanmishga bergan fikrida nomutanosiblikni payqaydi: bir tomondan u tushuncha, ikkinchi tomondan real hayot obyekti. Benvenist belgidan predmetlik xususiyatini olib tashlashlik kerak deb, belgining ikki planini quyidagicha bo’ladi: ifodalovchi – akustik obraz, ifodalanmish – tasavvurlar. Benvenistning fikricha, belgi yordamisiz bir tushunchani ikkinchisidan ajrata olmaymiz, lekin boshqa tarafdan bir tushunchani anglashda faqatgina o’sha tushunchagagina xos bo’lgan tovush qatorini maqul deb qabul qilamiz. Benvenist shu fikr orqali belgining o’zida hech qanday erkinlik yo’qligini asoslaydi va ifodalovchi va ifodalanmish o’rtasida bog’liqlik borligini yoqlaydi.

Bu masala hozirgi kunda ham dolzarbligini yo’qotgani yo’q. L.O.Reznikov fikriga ko’ra, belgilar shakllanishining dastlabki davrida shakl va mazmun muvofiqligi bo’lgan. Tarixiy taraqqiyot natijasida belgi uchun ma’lum ma’no qat’iylashib, ifodalanmish bilan o’xshashlik darajasi toboro sxematik, simvolik xarakter kasb eta boshladi [4]. Chunonchi, D.Vesterman, B.V.Jurkovskiy, A.M. Gazizov-Ginzberglarning kuzatishiga qaraganda, darhaqiqat, taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi tillardan olingan materiallar ularda ifodalovchi va ifodalanmish aloqasi mavjudligidan guvohlik beradi [5].

P.V. Garmklizde o’zining “К проблеме “произвольности” языкового знака” asarida yuqoridagi masala belgi struktur elementlarining turlicha yondashishi bilan bog’liqligini ta’kidlab, semiotik sistema belgisini aniqlashda ham vertikal ham gorizontal munosabatni inobatga olish kerakligini aytib o’tadi. Uning fikricha ifodalovchi va ifodalanmish o’rtasida vertikal munosabatda motivatsiya bo’lmasa, gorizontal munosabatda motivatsiya bo’lishi mumkin [2]. Darhaqiqat, ingliz tilidagi father, mother, brother, sister so’zlarida ifodalovchi va ifodalanmish o’rtasida gorizontal munosabatda fonetik o’xshashlik borligini ko’rsatadi.

Yu. S. Maslov lingvistik belgi va boshqa belgilar haqida fikr yuritar ekan, o’z izlanishlarida har qanday belgining quyidagi 5 xususiyati borligini topadi [6]:

Hamma belgilar material bo’lib, ularni sezib ilg’asa bo’ladigan ,,shakli’’ bor. Ushbu shaklni adabiyotlarda ifodalovchi deyishadi lekin Maslov uni belgining eksponenti deb atadi. Eksponentlar vizual/ko’rish, eshitish, tuyish/his qilish, hid bilish va ta’m bilish kabi his qilish turlari tomonidan qabul qilina olishi kerak. Shundagina eksponent material bo’la oladi.

Maslov ifodalanmishni belgining mazmuni deb atadi. Uning fikricha material his qilsa bo’ladigan obyekt (yoki hodisa – misol uchun telefon go’shagidagi uzoq davom etuvchi gudok) faqatgina u yoki bu fikr muloqat qiluvchilar ongida bog’lanish uyg’ota olsagina belgining ko’rsatkichi hisoblanadi.

Belgining asosiy xususiyati o’sha belgi sistemasidagi qarama-qarshilik xususiyatidir. Qarama-

qarshilik eksponentlarning his qilsa bo’ladigan farqini ko’rsatib beradi. Misol uchun, temir yo’l semaforining ko’tarilgan yoki tushirilgani ,,yo’l ochiq” yoki ,,yo’l yopiq” degan ishoralarini ko’rsata oladi. Eksponentlarning bunday qarama-qarshilik xususiyati ulardagi differentsial alomati eng muhim ekanligini ko’rsatadi. Misol uchun, svetaforlardagi yashil rang ozgina ko’kka yaqin bo’lishi unchalik ahamiyatga ega emas, chunki u sariq va qizil rangdan farqlansa bo’ldi. Belgilarning qarama-qarshiligi, ayniqsa, nul ekponent holatida yaqqol anglashiladi. Bunda biror boshqa belgining material his qilsa bo’lmasligi, ikkinchi belgining birinchi belgiga qarama-qarshi borligini, material his qilsa bo’lishini yaqqol ko’zga tashlaydi. Misol uchun, svetafor sariq va qizil chirog’ining yoniq emasligi, haydovchilarga yashil chiroq yonganligi va ,,yo’lda harakatlanish mumkin” degan ishoralarni beradi.

Har bir berilgan belgi uchun uning eksponenti va mazmuni o’rtasida bog’liqlik shartli bo’lib, u ongli kelishuvga asoslanadi. U tabiiy bog’langan bo’lishi (svetafor yashil rangi va yo’l ochiq ishorasi) yoki motivlangan (yo’l ishoralardagi yuguruvchi bolalar rasmi, burilish ishorasi va boshqalar). Motivlangan aloqada eksponent va mazmun o’rtasida bog’lanish o’xshashlikka asoslanadi.

Belgining mazmuni inson ongida umumiylashgan va sxematik aksini ko’rsatadi. Misol uchun, yo’lning aylanma (zig-zag) ekanligini ko’rsatuvchi yo’l ishorasi inson ongida umumiy fikrni uyg’otadi. Ushbu ishora yo’lda aylanma yo’l yo’q bo’lsa ham o’z mazmunini yo’qotmaydi. Misol uchun, yo’l ishoralari aks etgan darslikda ham ushbu ishora o’z mazmunini saqlab qoladi.

Til belgilar sistemasida alohida o’rin egallab, o’zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Lekin tilning qaysi birligini biz belgi deya olamiz? Buning uchun til birligi nima va bu birliklar o’rtasida qanday bog’lanish borligini aniqlashtirib olish zaruriyati yuzaga keladi. Buning uchun esa nutqiy faoliyatni aniqlashtirib olish kerak. Nutqiy faoliyatimizda bayon qilayotgan axborotimiz doim ikki tarflamadir: ifoda tomoni va mazmun tomoni. Ifoda tomon bu material tomon bo’lib, asosan, tovushlar orqali his qilinadi (yozma ravishdagi axborot almashinuv paytida material tomon bosma bo’lib, ko’z va tuyish (Brayl shrift) orqali his qilinadi). Mazmun tomoni esa ifoda etilayotgan axborot mazmuni, g’oyasidir. Bayon qilinayotgan axborotimiz gap yoki gaplar ketma-ketligidan tashkil topadi. Gap o’z navbatida so’zga bo’linadi. So’z morfemaga, morfema fonga bo’linadi. Fonlar fonemalardan tashkil topgan. Bulardan gap, so’z va morf ikki planli, fon esa bir planli bo’lib, u ifodalaydi lekin ma’noga ega emas. Doim ham so’zlardagi fonlar fonema miqdori bilan to’g’ri kelmaydi. Misol uchun, ,,aka” so’zida 3ta fon bo’lsa ham, 2ta fonemaning (a va k) ketma-ketligidan tashkil topgan. Yuqoridagi kabi bo’linishda olimlar fikrlarida bo’linishlar bor va ularning hammasini ham belgi deb bo’lmaydi. Misol uchun fonema belgi emas. Lekin ular eksponentlarning quruvchi materiali hisoblandi. Chunonchi, Lui Yelimslev fonemalarni ,,ifoda planning shakli” , ,, belgilar qurilishidagi shaklchalar” deb ataydi. Fonemalar soni cheklangani til resurslarining tejamkorligini ko’rsatsada, ushbu cheklangan resurslar orqali turli mazmundagi g’oyalarni bayon qila olishimiz til strukturasining ko’pqavatliligini bildiradi. Yelemslev, ,, til shunday qurilganki, bir nechtagina figurachalarning yordami va ularning joylashuvi bilan belgilar legionini yaratsa bo’ladi [7]” deydi. Darhaqiqat, bir nechta fonemalar turli kombinatsiyalarda birlashib morfemalarni, morfemalar ma’lum qoidalar asosida shakl va mazmunda turlicha qo’shilishib so’zlarni, so’zlar nutqimizdagi kontekstning mazmuni ostida birlashib millionlab gaplarni hosil qiladi. Shu yo’sinda til tuzilishidagi ko’pqavatlilik tilni tejamkor va moslashuvchanligini ta’minlab, sotsial jamoaning o’z fikrlarini ifoda etishga bo’lgan zaruriyatini qondiradi.

Til birliklari ichida so’z va morfema belgi hisoblanadi. Buni Yu. S. Maslov til belgilari bo’lmish so’z va morfemani boshqa belgilarga taqqoslab quyidagicha tushuntiradi [6]:

Morfema va so’zlarning eksponentlari (ifodalovchi) boshqa belgilarning eksponentlari kabi material. Nutq faoliyati davomida morfema va so’zlar tovushlar orqali namoyon bo’ladi (yozma nutq jarayonida esa bosma materiallikka ega);

Hamma morfema va so’zlar boshqa belgilar kabi u yoki bu mazmunga ega. Ular bir tilga mansub odamlar ongida o’zlariga mos bo’lgan predmet va hodisalar shaklida namoyon bo’ladi

va o’sha narsa va hodisalar haqida g’oyalarni uyg’otgan holda aniq bir ma’lumotni to’liq yoki qisman yetqazadi.

Boshqa belgilar kabi, til morfemalari va so’zlari turli xil qarama-qarshiliklarda ishtirok etadi. Aynan qarama-qarshilikdagi ishtiroki nul eksponent borligini ko’rsatadi.

Inson tomonidan yaratiladigan boshqa belgilar kabi, til belgilarining eksponenti va mazmuni o’rtasida shartli yoki mativlangan munosabat bor. Lekin, til belgilari o’rtasidagi motivlangan munosabat kam uchraydi hamda bu hodisani asosan tovushga taqlid so’zlarda uchratamiz (misol uchun, miyovlamoq). Til belgilarining asosiy qismining eskponent va mazmun o’rtasidagi munosabati shartlidir.

Sun’iy tizimlar belgilarining mazmuni inson ongida obyekt, hodisa, voqelik holatida aks etadi va bu belgilar umumlashtirish va mavhumlashtirilishini bilamiz. Huddi shunday, til belgilari ham inson tafakkurining natijalarini qayd etadi. Huddi shunday atoqli otlar (Neva, Saratov) individual predmetlarni (daryo nomi –Neva, shahar nomi – Saratov) anglatadi.

Tilshunoslikda belgilar va belgi tizimlarini o‘rganishda sintaktika, semantika va pragmatika o‘zaro ajratiladi. Sintaktika nutq zanjirida yoki muayyan matnda ketma-ket, izchil qo‘llanadigan til birliklari o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlarni o‘rganadi. Semantika belgilarning ular ifodalaydigan ob’yektlar bilan munosabatini o‘rganadi. Pragmatika esa belgilar, ular ifodalaydigan ob’yektlar hamda belgilar tizimidan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi.

Xulosa, til belgilar tizimidir. Belgi semiotikaning markazida turuvchi tushuncha. Lingvistik semiotikada belgi qurilish modeli erkin yoki ketma-ket bo’ladi. Shuningdek, belgi ikki planli bo’lib, bu planlar ifodalovchi va ifodalanmishdir. Belgi ifodalovchisi - shakl, ifodalanmish bu mazmundir. Ifodalovchi va ifodalnmish o’rtasidagi aloqa motivatsiyalangan bo’lishi mumkin. Motivatsiya ba’zida gorizontal munosabatda ko’rinmasada, vertikal munosabatda namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. – T.: Fan, 2008, 4-5-betlar.

Гамкрелидзе Т. В. К проблеме произвольности языкового знака. /ВЯ 1976, №6. С.33.

Соссюр, Фердинанд де. Курс общей лингвистики/ Ф. де Соссюр. – М.: Логос, 1999. – с 114

Резников Л.О. Гносеологические вопросы семантики. Л., 1964. С.101

Вестерман Д. Звук, тон и значение в заподно-африканскихб суданских языках.// Африканское языкознание. М., 1953; Журковский Б.В. Идеофоны: сопоставительный анализ на материале некоторых языков Африки и Евразии. М., 1968; Газизов-Гинзберг А.М. Был-ли язык изобразителен в своих истоках? М. 1965.

Маслов Ю.С. Введение в языкознание. М., 1987, с. 25-26.

Ельмслев Л. Пролегоменты к теории языка // Новое в лингвистике. М., 1960. Вьпы 1. С 305.

Маслов Ю.С. Введение в языкознание. М., 1987, с. 30

SHODMONQUL SALOM LIRIKASIDA PUNKTUATSION BIRLIKLARNING METAFORIK TALQINI

Sobirova Ismigul,
Qo’qon davlat universiteti O’zbek tili va adabiyyoti yo’nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek lirikasida, jumladan, Shodmonqul Salom she’riyatida tinish belgilarining badiiy, semantik va metaforik talqini chuqur tahlil qilinadi. Nuqta, vergul, undov, so‘roq va boshqa punktuatsion birliklarning she’riy matndagi ramziy vazifalari, ularning lirika qahramonining ichki kechinmalari, ruhiy holati va his-tuyg‘ularini ifoda etishdagi roli o‘rganiladi. Maqola doirasida punktuatsion birliklar nafaqat grammatik vosita, balki she’riyatning kuchli metaforalari sifatida ko‘rib chiqiladi, shuningdek, ularning yordamida lirika qahramonining ichki dunyosi va zamonaviy she’riyatdagi o‘ziga xos badiiy obrazlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Punktuatsiya, metafora, badiiy semantika, emotsional ta’sir.

Аннотация. В данной статье глубоко анализируется художественно-семантическая и метафорическая интерпретация знаков препинания в современной узбекской лирике, в том числе в поэзии Шодмонкул Салом. Изучаются символические функции точек, запятых, восклицательных знаков, вопросительных предложений и других знаков препинания в поэтическом тексте, их роль в выражении внутренних переживаний, душевного состояния и чувств лирического героя. В рамках статьи знаки препинания рассматриваются не только как грамматические средства, но и как мощные метафоры поэзии, с их помощью раскрывается внутренний мир лирического героя и его уникальные художественные образы в современной поэзии.

Ключевые слова: Пунктуация, метафора, художественная семантика, эмоциональное воздействие.

Abstract. This article deeply analyzes the artistic, semantic and metaphorical interpretation of punctuation marks in modern Uzbek lyrics, including the poetry of Shodmonqul Salom. The symbolic functions of periods, commas, exclamation marks, interrogative sentences and other punctuation marks in the poetic text, their role in expressing the inner experiences, mental state and feelings of the lyrical hero are studied. Within the framework of the article, punctuation marks are considered not only as grammatical means, but also as powerful metaphors of poetry, and with their help the inner world of the lyrical hero and his unique artistic images in modern poetry are revealed.

Keywords: Punctuation, metaphor, artistic semantics, emotional impact.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida timsollar tili tobora murakkablashib, metaforik ifodaning yangi qirralari ochilmoqda. Ayniqsa, lirik “men”ning ruhiy holatini obrazlar orqali emas, balki punktuatsion belgilar orqali ifodalash holatlari Shodmonqul Salom ijodida o‘ziga xos estetik yondashuv sifatida ajralib turadi. U tinish belgilarini — nuqta, vergul, so‘roq, undov, qo‘shtirnoq kabi til birliklarini inson ruhiyatining ramzlari sifatida talqin etadi.Shoir uchun tinish belgisi nafaqat uslubiy bezak, balki ruhi va tanasi parchalanayotgan insonning belgili fragmenti. Bunday yondashuvda punktuatsiya — she’rning grammatikasi emas, balki qalbning grammatikasidir. Bu esa lirik “men”ning ma’naviy tahlilini yana-da chuqurlashtiradi.

“Men uch qator she’rday tug‘ildim” she’ri eksistensial iztirob va punktuatsion hayot haqidadir. Shodmonqul Salomning quyidagi satrlari o‘z-o‘zini timsollashtirishning o‘ziga xos namunasi bo‘lib, unda punktuatsion birliklar orqali hayotiy iztirob ifoda etiladi:

“Men uch qator she’rday tug‘ildim,
Tinish belgim – nuqtadir yurak.

Qofiyali she’rday eshildim,
Shu uchlikni tugatmoq kerak.” [28]

Bu yerda “nuqtadir yurak” ifodasi juda kuchli metafora bo‘lib, inson hayoti yakun topganda qo‘yiladigan nuqta bilan tenglashtiriladi. Yurak — bu najot emas, balki oxirgi belgidir. “Uch qator she’r” esa hayotning qisqaligi, noaniqligi, yakunlanish muqarrarligini ifodalaydi.

Shoir o‘zini she’rga qiyoslabgina qolmay, barcha tana a’zolarini tinish belgilari orqali talqin etadi:

“Boshim – vergul, qo‘llarim – so‘roq,
Yiroq, firoq – qofiya takror,
Ikki ko‘zim – mangu qo‘shtirnoq.”

Bu satrlar – inson tanasining grammatik portreti. Bosh — fikr oraliqlari, ya’ni vergul. Qo‘llar esa doim nimanidir izlaydi — so‘roq. Ko‘zlar esa abadiy qo‘shtirnoq ichida, ya’ni hayot va soxta so‘zlar orasida yashiringan haqiqat timsolidir. Shu tarzda shoir tinish belgilari orqali tanani emas, tafakkurni tasvirlaydi.

Yakuniy baytlarda esa hayot “she’r” sifatida oxiriga yetadi:“Ming bor tahrir bo‘lishim kerak,
So‘ng yozilar to‘rtinchi qator.”

Hayot — chiziqli emas, tahrir talab qiladi. Va har qanday oxir — bir “to‘rtinchi qator” bilan davom etadi. Bu “to‘rtinchi qator” — balki abadiyat, balki quvg‘in, balki ikkinchi hayot. She’r ochiq qoldirilgan, xuddi inson taqdiri kabi.

Bundan tashqari shoirning “Maktab yo‘lida” she’rida punktuatsion dramatizm va ichki ziddiyatlar aks etgan. Ikkinchi she’rda esa shoir punktuatsiyani ruhiy holat, his-tuyg‘u kuchi sifatida ishlatadi. Dastlabki baytlarda bu juda yaqqol ko‘zga tashlanadi:

“Jim ketayapti, qaddi – undov, qalbi – so‘roq,
Jim ketayapman, ko‘zlar – nuqta, ko‘nglim – savol.”

Bu yerda har bir belgining ma’naviy yuklamasi bor:
Undov — his-hayajon, kuchli ifoda.
So‘roq — ichki savollar, azobli kechinmalar.
Nuqta — najotsizlik, tugash.
Savol — yo‘qsizlik, ma’nosizlik.

Bu belgilar hissiy portret yaratishda vosita sifatida ishlatilmoqda. She’r davomida bu ruhiy holat kuchayib boradi:

“Jim ketayapmiz, o‘rtamizda masofalar,
Va yo‘llarning xatm qilgan oyatlari.
Va toshlarning oy qirrasi tilib o‘tgan,
Yuragimga chekib ketgan dastrozlari.”

Bu baytlar zamonaviy lirikaning yangi shaklidir: punktuatsiya belgisi she’rning strukturaviy elementi emas, balki uning g‘oyaviy markazi bo‘lib xizmat qilmoqda. Shodmonqul Salom verbal hissiyotlarni grammatik timsollar orqali berish yo‘lini tanlagan. Bu esa uni boshqa shoirlardan ajratib turadi.

Yakuniy baytlarda bu bo‘shliq va belgili iztirob yana kuchayadi:

“Shu bo‘shliqqa yillarimni toshday otib,
O‘n qadamni qisqartolmay tezlaydirman.
Qaddi – undov, nigohlari zo‘r topishmoq,
Topishmoqqa hanuz javob izlaydurman.”

Bu satrlarda topishmoq — hayotning timsoli, undov — kuch, so‘roq — noaniqlik. Shoir uchun hayot grammatika emas — bu jazirama savol, doimiy bo‘shliq, va iztirobli tinish.

Shodmonqul Salom lirikasida punktuatsion birliklar — oddiy grammatik vosita emas, inson ruhining metaforik aksidir. Nuqta — yurak, vergul — tafakkur to‘xtashi, qo‘shtirnoq — abadiy mahkumlik, so‘roq — mavjudlik iztirobi, undov — hayotning ichki qichqirig‘i. Bu belgilar orqali

shoir yangi poetik til, yangi obrazlar va yangi dramatizm yaratadi.

Demak, Shodmonqul Salom punktuatsiyani nafaqat so‘zlar orasidagi tinish, balki insonga tegishli eksistensial belgilar sifatida talqin qiladi. Bu esa uning she’riyatini zamonaviy adabiy tafakkurda o‘ziga xos, chuqur ma’naviy qatlamlarga ega bo‘lgan adabiy hodisaga aylantiradi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida punktuatsiya — ya’ni tinish belgilarining badiiy rolini o‘rganish, adabiy tahlilning yangi, ilg‘or yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, Shodmonqul Salom lirikasida nuqta, vergul, uch nuqta, tire, so‘roq va undov belgilarining shaklan emas, balki metaforik va semantik yuklangan holda qo‘llanishi diqqatga sazovordir. Bu belgilar shunchaki grammatik vosita emas, balki poetik pauza, ichki ziddiyat, ruhiy iztirob va sokinlikni ifodalovchi estetik birliklarga aylangan.

Shodmonqul Salom she’riyatida punktuatsion belgilar muayyan mazmun yukini o‘zida mujassamlashtiradi. Masalan, nuqta ko‘pincha yakun, tan olish, ko‘nikish belgisi sifatida; uch nuqta esa bitmas fikr, ruhiy unsizlik, beoromlik belgisi sifatida metaforik talqinda ishlatiladi.

Tilshunos V.V. Vinogradov shunday deydi: “Punktuatsiya — bu yozuvdagi his-tuyg‘u mimikasi, ya’ni yozilgan nutqning ichki psixologik va emotsional mexanizmini aks ettiruvchi ifoda vositasi” [6; 77]. Bu fikr ayniqsa Shodmonqul Salom she’rlarida to‘la o‘z ifodasini topadi.

Shoirning ko‘plab she’rlarida vergullar satr oxiriga emas, o‘rtasiga, hatto so‘zlar orasiga kiritiladi. Bu esa fikrning uzluksizligini yoki gohida ichki uzilish holatini anglatadi. Bunday uslub she’rni o‘qish jarayonida o‘quvchida turli ohang, ruhiy kuchayish yoki pasayish tasavvurini uyg‘otadi [13; 61].

Shodmonqul Salom she’rlarida uch nuqta («…») eng ko‘p metaforik vazifani bajaruvchi belgidir. Bu belgining qo‘llanilishi ruhiy “tugallanmaganlik”ni, bo‘g‘ilib qolgan so‘z, aytilmagan nido yoki yarim talqinni bildiradi. She’rda bu belgilar orqali nafaqat grammatik, balki ruhiy pauza hosil qilinadi.

Yu.M. Lotman uch nuqtani “emotsional to‘xtalish va fikrning bo‘shlig‘i” deb talqin qiladi. Uning fikricha, bu belgilar “matnda gapirilmagan, lekin anglatilgan” ma’lumotlar uchun ishlatiladi [6; 102]. Shodmonqul Salom she’rlarida uch nuqta aynan shu rolni bajaradi: u yo‘qotilgan so‘zlar emas, balki yo‘qotilgan holatlar, sinmagan orzular, tushunilmagan holatlar timsolidir.

Shoir she’riyatida so‘roq belgisi (?) odatiy savolni emas, balki hayotning o‘zi bilan bo‘lgan metaforik dialogni bildiradi. Masalan, ba’zi satrlarda savol belgisi ruhiy uzilish, javobsizlik yoki ichki bo‘shliq belgisi sifatida talqin qilinadi.

“Men kim edim? — degan savol yo‘q edi... Faqat sukut bor edi...”

Bu yerda savol belgisi yo‘qolgan bo‘lsa-da, fikr strukturasi so‘roqlik bo‘lib, aynan ruhiy savolni anglatadi. Shodmonqul Salom she’riyatida bu belgilar poetik ifoda vositasi sifatida gapdan ko‘ra, hisni anglatadi.

Undov belgisi esa ruhiy portlash, hayrat yoki ichki norozilik belgisi sifatida ishlatiladi. Bunda shoir baland ovoz emas, balki ichki portlashni ifodalaydi. Bunday belgilar bilan shoir ba’zan “qichqirmay”, ichkaridan faryod chekadi.

Tire (—) belgisi Shodmonqul Salom poetikasida metaforik bog‘lovchi yoki ziddiyat ifodasi sifatida ishlaydi. U satrlar orasidagi fikrni ulash bilan birga, ayrim joylarda keskin o‘zgarish, ziddiyat yoki ruhiy burilish nuqtasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tilshunos M. Riffaterre shunday deydi: “Tire — bu faqat belgi emas, bu o‘quvchi tafakkurini harakatga keltiruvchi vosita” [12; 88]. Shoir bu belgilar orqali satrlar orasidagi poetik kuchlanishni kuchaytiradi, o‘quvchini «sokin satr» ichidagi dramatizmga olib kiradi.

Umuman olganda, Shodmonqul Salom she’riyatida punktuatsion birliklar matnning “yashirin dramatizmini” ochishga xizmat qiladi. Fikrlar ohangsiz emas, belgilarning joylashuvi orqali estetik, ruhiy kuchga ega bo‘ladi. Har bir vergul — ichki sustkashlik, har bir uch nuqta — aytilmagan armon, har bir tire — ziddiyat, har bir undov esa sukutning faryodidir.

Bu holat zamonaviy poetika nazariyasida “tipografik poetika” deb ataladi. Ya’ni badiiy matn tipografik belgilar orqali ham semantik yuk olish xususiyatiga ega bo‘ladi [13; 74].

Shodmonqul Salom lirikasida punktuatsion birliklar — bu faqat til vositalari emas, balki badiiy-estetik tasvir elementlari, poetik ritm, ruhiy kechinma va falsafiy xulosaning ifodaviy shaklidir. Shoir har bir belgini xuddi so‘zdek ishlatadi, ularni fikr emas, hissiyot ko‘prigi sifatida quradi. Bunday yondashuv Shodmonqul Salom lirikasini nafaqat mazmunan, balki grafik jihatdan ham poetik makonga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vinogradov, V.V. (1972). Stilistika russkogo yazyka. Moskva: Nauka.
2. Lotman, Yu.M. (1992). Struktura khudozhestvennogo teksta. Moskva: Iskusstvo.
3. Riffaterre, M. (1983). Text Production. Columbia University Press.
4. Timofeyev, L.I. (1969). Vvedenie v literaturovedenie. Moskva: Prosveshchenie.
5. Rasulov, A. (2015). Zamonaviy o‘zbek lirikasi poetikasi. Toshkent: Fan.
6. Umarov, S. (2022). “Shodmonqul Salom poetikasida grafik vositalarning badiiy yuklanishi”, Adabiyot va san’at, №3, 75–79-betlar.
7. Jo‘rayev, B. (2020). Lirika nazariyasi: metafora va poetik struktura. Samarqand: Zarafshon.

IJOBIY HISSIYOTNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Qodirova Sarvinoz
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi
orcid: https://orcid.org/0009-0007-9090-5813

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida ijobiy hissiyotni ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mazkur birliklarning semantik tarkibi, tuzilma modellari, ifoda vositalari hamda madaniy konnotatsiyasi o‘rganildi. Misollar orqali frazeologik birliklarning ijobiy his-tuyg‘ular – quvonch, samimiyat, muhabbat, minnatdorchilik kabi holatlarni qanday tarzda obrazli ifoda etishi ochib berildi. Maqolada frazeologizmlarning milliy tafakkurdagi o‘rni va kommunikativ funksiyalari ham chuqur tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, ijobiy emotsiya, quvonch, lingvokulturologiya, semantika, obrazlilik.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ ЭМОЦИИ

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические и лингвокультурологические особенности фразеологических единиц, выражающих положительные эмоции, в узбекском и английском языках. В ходе исследования рассмотрены семантическая структура, типовые модели, выразительные средства и культурные коннотации данных выражений. На основе примеров показано, как фразеологизмы образно передают чувства радости, благодарности, любви, искренности и оптимизма. Также в статье освещена роль таких единиц в национальном мышлении и межличностной коммуникации.

Ключевые слова: Фразеологическая единица, положительная эмоция, радость, лингвокультурология, семантика, образность.

PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING POSITIVE EMOTIONS

Abstract. This article analyzes the linguistic and linguocultural features of phraseological units expressing positive emotions in Uzbek and English. The study explores the semantic structures, syntactic patterns, expressive means, and cultural connotations of such expressions. Through comparative examples, the article reveals how phraseological units convey positive emotional states such as joy, gratitude, affection, sincerity, and optimism in an imaginative and culturally rooted way. The communicative and cognitive significance of these units within national consciousness is also highlighted.

Keywords: phraseological unit, positive emotion, joy, linguoculturology, semantics, imagery.

KIRISH. Tilning asosiy funksiyalaridan biri — insonning ichki kechinmalari, emotsional holatlari va hissiy dunyosini ifodalashdir. Ayniqsa, bu funksiyaning samarali amalga oshishida frazeologik birliklar muhim o‘rin tutadi. Frazeologizmlar yordamida inson o‘zining sezgi, tuyg‘u, xayol va ichki holatini obrazli, qisqa, ammo chuqur ma’no kasb etuvchi tarzda ifodalay oladi. Bu borada ijobiy hissiyotlarni bildiruvchi frazeologik birliklar nutq estetikasi, madaniy tafakkur, milliy mentalitet ko‘zgusi sifatida tilshunoslar e’tiborini tortib kelmoqda [1; 2].

Zamonaviy frazeologik tadqiqotlarda frazeologizmlar nafaqat lingvistik birlik, balki madaniy semiosfera elementi sifatida ham qaraladi. Ijobiy hissiyotga oid frazeologizmlar, odatda, quvonch, baxt, g‘urur, mehr, minnatdorchilik, samimiylik, umid kabi psixologik holatlarni ifodalovchi barqaror birliklardir [3, 5].

Tilshunos A.V. Kunin frazeologik birliklarni “insonning his-tuyg‘ularini umumlashgan shaklda ifodalovchi barqaror kombinatsiyalar” deb ta’riflaydi [4, 76-b.]. Shuningdek, R. Moon frazeologik birliklar ichida hissiy ma’no yuklagan iboralarning kommunikativ sohada o‘ziga xos pragmatik va stilistik funksiya bajarishini qayd etgan [5, 52-b.].

Ushbu maqolada ijobiy hissiyotni ifodalovchi frazeologik birliklarning o‘zbek va ingliz tillaridagi namunalari lingvokulturologik, semantik, va psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Tadqiqot metadologiyasi:

Tadqiqotda qiyosiy-deskriptiv metod, lingvokulturologik tahlil, va semantik-tasnifiy yondashuv qo‘llanildi. Tahlil qilish uchun o‘zbek va ingliz tillaridagi badiiy asarlar, lug‘atlar, va korpuslardan olingan 100 dan ortiq frazeologik birliklar tanlab olindi. Har bir birlik semantik vazifasi, leksik modeli, konnotativ ma’nosi va madaniy kontekstdagi o‘rni nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi. Frazeologik birliklar quyidagi mezonlar asosida tasniflandi: ifodalayotgan emotsional holati; struktur tuzilmasi (metafora, metonimiya, tanaviy obrazlar); milliy madaniyatga daxldorligi.

Tahlil va natijalar

Frazeologik birliklar va emotsional ekspressivlik

Frazeologizmlar inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ifodalashda noyob vositadir. Tilshunos olima Sh. Sharipovaning ta’kidlashicha, “frazeologik birliklar yordamida inson his-tuyg‘ulari umumlashgan, lekin milliy tusda gavdalanadi” [2, 19-b.]. Ayniqsa, ijobiy emotsiyalar ifodasi bilan bog‘liq frazeologik birliklar xalqning estetik ideallari, ruhan go‘zallik haqidagi qarashlari, va optimistik dunyoqarashini ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilida: Yuragi yayradi – quvonch, yengillik. Ko‘ngli osmonda – hayajon va shodlik ifodasi. Oyoqlari yerga tegmay yurdi – yuqori darajadagi xursandlik belgisi. Bu iboralar hissiy kechinmalarni real holatga tenglashtirib, ularni ko‘rgazmali va obrazli qiladi. Ingliz tilida shunga o‘xshash quyidagi frazeologizmlar keng tarqalgan: To be on cloud nine – cheksiz xursand bo‘lish. Be over the moon – juda baxtli bo‘lish. Heart leapt for joy – yurak xursandchilikdan “sakrashi”. Kuzatilishicha, har ikki tilda ham ijobiy frazeologik birliklar harakat metaforalari, tabiat obrazlari, yoki tana qismlarining metaforik talqini asosida yuzaga kelgan bo‘ladi [6; 7].

Lingvokulturologik yondashuv. Frazeologik birliklar tilda tasodifan paydo bo‘lmaydi — ular xalqning tarixiy xotirasi, madaniy-estetik didi, axloqiy qadriyatlari, diniy tushunchalari bilan bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilidagi “yuragi guldek ochildi” iborasi yurak (qalb) va gul obrazlarining uyg‘unligidan tashkil topib, mehr, samimiyat, ochiqlik kabi tushunchalarni ifodalaydi. Bu xalqimizda gullar orqali ijobiy holatlarni tasvirlash an’anasi borligini ko‘rsatadi [2]. Ingliz tilida esa “a ray of sunshine” (quyosh nuri) iborasi odatda iliqlik, mehr va quvnoqlik timsolidir. Bu ingliz madaniyatida quyoshning kamyobligi, unga nisbatan ijobiy emotsional munosabat shakllanganini bildiradi [5]. Shu boisdan, har bir tilning ijobiy hissiyotni ifodalovchi frazeologizmlari xalqning madaniy kodini ochib beruvchi semantik kalit vazifasini o‘taydi [3; 7].

Semantik tasnifi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijobiy frazeologik birliklar quyidagi asosiy semantik guruhlarga bo‘linadi:

№	Semantik guruhlar	Misollar (o‘zbekcha / inglizcha)
1	Quvonch, shodlik	Ko‘ngli osmonda / on cloud nine
2	Baxt, zavq	Ko‘ngli yayradi / walking on air
3	Minnatdorchilik, samimiyat	Jonim fido / from the bottom of my heart
4	Muhabbat, mehr	Yuragidan joy olgan / heart skips a beat
5	Optimistik kayfiyat	Yuzida quyoshdek tabassum / a ray of sunshine

Bu birliklar o‘z semantik tarkibi orqali ijtimoiy muomala jarayonida pozitiv ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, emotsional barqarorlikni ifodalash, va xalqona nutq uslubini boyitishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA. Frazeologik birliklar tilning emotsional-estetik qatlamini tashkil etuvchi asosiy vositalardan biri bo‘lib, ular orqali insonning ichki kechinmalari, shaxsiy holati va ijtimoiy munosabatlardagi kayfiyati obrazli shaklda ifoda etiladi. Tadqiqotda ijobiy hissiyotni ifodalovchi frazeologik birliklar o‘zbek va ingliz tillari misolida lingvosemantik va lingvomadaniy nuqtai nazardan chuqur o‘rganildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, har ikkala tilda ham quvonch, samimiyat, mehr-muhabbat, minnatdorchilik va baxt kabi ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar milliy madaniyat, xalqona tafakkur, va mentalitet bilan chambarchas bog‘liq. Bunday frazeologik birliklar tarkibida tabiat obrazlari (quyosh, bulut, gul), tana a’zolari (yurak, ko‘ngil, oyoq) va harakat metaforalari (uchmoq, yengil yurmoq) asosida tuzilgan barqaror ifodalar mavjud bo‘lib, ular xalq nutqida yuqori darajadagi obrazlilik va ifoda kuchi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, frazeologizmlar ijobiy hissiyotlarni faqatgina tasvirlash vositasi bo‘lib qolmay, balki ular yordamida insonlar orasidagi ijtimoiy-psixologik aloqalar mustahkamlanadi, nutqning emotsional boyligi oshadi, hamda milliy qadriyatlar va estetik tushunchalar avloddan-avlodga o‘tadi.

Tahlil natijalari shuni isbotlaydiki, frazeologik birliklarni o‘rganish nafaqat leksik-semantik doirada, balki kognitiv tilshunoslik, pragmatika, madaniyatshunoslik va psixolingvistika nuqtai nazaridan ham dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ijobiy emotsiyalar bilan bog‘liq frazeologik birliklarning gender, yosh, va ijtimoiy kontekstdagi qo‘llanish xususiyatlari, shuningdek, ularning tarjimasi va ekvivalent tanlashdagi lingvistik muammolari alohida e’tiborga olinishi maqsadga muvofiqdir. xZsddf

Adabiyotlar ro‘yhati

Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.

Шарипова Ш. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг семантик структураси. – Тошкент: Фан, 1983. – 125 б.

Karimov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: TDPU, 2010. – 150 b.

Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka. – M.: Vysshaya shkola, 1996. – 381 s.

Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 292 p.

Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: CUP, 2000. – 224 p.

Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 256 p.

STRUCTURAL AND SEMANTIC PROPERTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Takhirova Nargiza Bakhtiyorovna,
Senior Lecturer, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract: Phraseological units are an important object of linguistics, demonstrating the peculiarities of the meanings and structure of words. Structural-semantic properties are aimed at studying the internal structure and content aspects of phraseological compounds, which indicate the richness of language and the complexity of means of expression. The structure of phraseological units includes the organization, connection forms and grammatical features of their words. Semantics, on the other hand, explores the meaning of phraseological units, their basic and extended meanings, as well as their context-dependent meanings. The structure of phraseological units is often formed from a strict or relatively free combination of words. Some phraseological units have a strict structure, the words of which are manifested as a solid compound that cannot be exchanged. In others, the position or form of words may be relatively variable, indicating the flexibile properties of phraseological units. Structurally, phraseological units differ from ordinary vocabulary in that they are firmly connected and one meaning is used as a unit. As for semantic properties, the meaning of phraseological units often differs from the individual meanings of words. They often have metaphorical, metonymic, or other portable meanings that expand their possibilities for artistic and colloquial expression. The basic meaning of phraseological units can vary depending on their context dependence, i.e. they have different meanings in different situations. There are also extended or contextual meanings in the semantic layer of phraseological units, in addition to their basic meaning, which gives an idea of the rich and dynamic nature of language. There is a close relationship between the structure and semantics of phraseological units. Changes in structural elements can lead to changes in semantic meaning, as well as changes in meaning may require a revision of the structure. This interaction further complicates the position and function of phraseological units within a language. The study of the structural-semantic properties of phraseological units is a complex and interesting problem located in linguistics at the intersection of the fields of phraseology, semantics and syntax. This article provides information on the structural-semantic properties of phraseological units.

Keywords: phraseological units, language, linguistics, semantic properties, meaning, cultural studies, anthropology, proverbs, aphorisms.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Тахирова Наргиза Бахтияровна,
Старший преподаватель
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация: Аннотация: фразеологизмы являются важным объектом языкознания, в них проявляются особенности значения и строения слов. Структурно-семантические особенности направлены на изучение внутреннего строения и содержательного аспекта фразеологических сочетаний, что свидетельствует о богатстве языка и сложности средств выражения. Структура фразеологизмов включает в себя организацию, формы связи и грамматические особенности их слов. Семантика же изучает значение фразеологизмов, их основные и расширенные значения, а также контекстно-зависимые значения. Структура фразеологизмов чаще всего состоит из строгого или относительно свободного сочетания слов. Некоторые фразеологизмы имеют строгую структуру, их слова предстают в виде прочного соединения, которое невозможно заменить между собой. У других же

место или форма слов могут быть относительно изменчивыми, что свидетельствует о флексивных свойствах фразеологизмов. Структурно фразеологизмы отличаются от простых словосочетаний тем, что они прочно связаны между собой и используются как единое целое. Что касается семантических особенностей, то значение фразеологизмов часто отличается от отдельных значений слов. Они часто имеют метафорические, метонимические или другие переносные значения, что расширяет их возможности художественного и речевого выражения. Основное значение фразеологизмов может меняться в зависимости от их контекстной зависимости, то есть они приобретают разное значение в разных ситуациях. Также в семантическом слое фразеологизмов наряду с их основным значением присутствуют расширенные или контекстуальные значения, что дает представление о богатой и динамичной природе языка. Между структурой и семантикой фразеологизмов существует тесная связь. Изменение структурных элементов может привести к изменению семантического значения, а также изменения значения могут потребовать пересмотра структуры. Это взаимодействие еще больше усложняет положение и функцию фразеологизмов внутри языка. Изучение структурно-семантических особенностей фразеологических единиц-сложная и интересная проблема в языкознании, находящаяся на стыке областей фразеологии, семантики и синтаксиса. В данной статье приведены сведения о структурно-смысловых особенностях фразеологизмов.

Ключевые слова: фразеологические единицы, язык, языкознание, семантические свойства, значение, культурология, антропология, пословицы, афоризмы.

FRAZEOLIGIK BIRLIKLARNI STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Taxirova Nargiza Baxtiyorovna
katta o‘qituvchi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Frazeologik birliklar tilshunoslikning muhim obyekti bo‘lib, ular so‘zlarning ma’nolari va tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyish etadi. Struktur-semantik xususiyatlar frazeologik birikmalarning ichki tuzilishi va mazmuniy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ular tilning boyligi va ifoda vositalarining murakkabligini ko‘rsatadi. Frazeologik birliklarning strukturasi ularning so‘zlarining tashkil topishi, bog‘lanish shakllari va grammatik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Semantikasi esa frazeologik birliklarning ma’nosi, ularning asosiy va kengaytirilgan ma’nolari, shuningdek, kontekstga bog‘liq ma’nolarini o‘rganadi. Frazeologik birliklarning strukturasi ko‘pincha so‘zlarning qat’iy yoki nisbatan erkin birikmasidan tashkil topadi. Ba’zi frazeologik birliklar qat’iy tuzilishga ega bo‘lib, ularning so‘zlari o‘zaro almashtirib bo‘lmaydigan mustahkam birikma sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqalarida esa so‘zlarning o‘rni yoki shakli nisbatan o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin, bu esa frazeologik birliklarning fleksibil xususiyatlarini ko‘rsatadi. Struktur jihatdan frazeologik birliklar oddiy so‘z birikmalaridan farq qiladi, chunki ular o‘zaro mustahkam bog‘langan va bitta ma’no birlik sifatida ishlatiladi. Semantik xususiyatlarga kelsak, frazeologik birliklarning ma’nosi ko‘pincha so‘zlarning alohida ma’nolaridan farq qiladi. Ular ko‘pincha metaforik, metonimik yoki boshqa ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lib, bu ularning badiiy va nutqiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Frazeologik birliklarning asosiy ma’nosi ularning kontekstga bog‘liqligiga qarab o‘zgarishi mumkin, ya’ni ular turli vaziyatlarda turlicha ma’no kasb etadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning semantik qatlamida ularning asosiy ma’nosi bilan bir qatorda, kengaytirilgan yoki kontekstual ma’nolar ham mavjud bo‘lib, bu tilning boy va dinamik tabiati haqida tasavvur beradi. Frazeologik birliklarning strukturasi va semantikasi o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjud. Struktur elementlarning o‘zgarishi semantik ma’noning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin, shuningdek, ma’nodagi o‘zgarishlar strukturani qayta ko‘rib chiqishni talab qilishi mumkin. Bu o‘zaro ta’sir frazeologik birliklarning til ichidagi o‘rnini va funksiyasini yanada murakkablashtiradi. Frazeologik birliklarning

struktur-semantik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikda frazeologiya, semantika va sintaksis sohalarining kesishmasida joylashgan murakkab va qiziqarli muammo hisoblanadi. Ushbu maqolada frazeologik birliklarni struktur-semantik xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, til, tilshunoslik, semantik xususiyatlar, ma’no, madaniyatshunoslik, antropologiya, maqollar, aforizmlar.

Introduction: Phraseological units are considered one of the most interesting and complex objects of linguistics. They are specific linguistic units that enrich the lexical wealth of the language, its cultural heritage and the expressive possibilities of speech. Each language has its own phraseological Foundation, which is closely related to the historical development of the language, its culture and the worldview of the people. Phraseological units are not only simple combinations of words, but also expressions in which they embody deep meanings, life experiences and wisdom of the people. Language serves as a means of expressing human thought, feelings, and social relationships. Phraseological units, on the other hand, create richer and more expressive forms of this expression. With them, complex concepts, Abstract thoughts and life experiences are expressed in a short, clear and often metaphorical form. Phraseological units, therefore, enrich not only the lexical, but also the semantic and stylistic layers of the language. The specificity of phraseological units is manifested in the fact that their meaning differs from the individual meanings of words. These units are often idiomatic in nature, and their meaning is understood as a whole unit, and words are not analyzed separately. For example, the phrase» invisible to the eye « can literally mean invisible to the eye, but in a phraseological sense the phrase means that someone does not exist or appears very rarely. Therefore, the meaning of phraseological units is independent of the meanings of the words that make them up and forms a new meaning. Phraseological units are also considered as cultural codes of the language. They reflect the historical experiences, customs, values and worldview of the people. Many phraseologisms are the product of folk oral creativity, through which language users use traditionally and culturally rich expressions in their interaction. For this reason, the study of phraseological units is important not only for linguistics, but also for the fields of cultural studies and anthropology. The study of phraseological units is also of great help to Language teachers. For language learners, the study of phraseological units makes it possible to acquire a more natural and free language. Because phraseological units are used a lot in speech and they ensure that speech is lively, affective and expressive. Phraseological units also provide language teachers with support in the study of cultural aspects, as many phraseologisms reflect the cultural context of the language. The study of phraseological units is one of the main tasks of phraseology in linguistics. This science studies the structure, semantics, stylistic features of phraseological units and their functions in speech. Phraseology is an important tool in the study of both cultural and historical layers of language. Therefore, the in-depth study of phraseological units is relevant and necessary for various areas of linguistics. (Akhmedov S. 2020)

Materials: This study draws upon various sources including English and Uzbek phraseological dictionaries, linguistic texts, and corpora containing idiomatic expressions. Materials also include authentic spoken and written examples to analyze real-life usage. Examples are drawn from literary works, mass media, and academic discourse to ensure the diversity and richness of phraseological content.

The structure of phraseological units refers to their organizational structure. These units are often made up of two or more words that are connected and used as a whole. Structurally, phraseological units can take different forms. For example, they are manifested in the form of word combinations, phrases, proverbs or aphorisms. The relationship of words and their location determine the structural characteristics of phraseological units. Some phraseological units have a strict structure, the words of which come in an unchanging and precise order. In others, it is possible to replace words or add suffixes, but even in these cases, the general meaning of the

unit remains. The semantics of phraseological units study their meaning. Often the meaning of phraseological units differs from the individual meanings of the words that make up them. These units can represent metaphorical, idiomatic, or context-dependent meanings. For example, the phrase» stretching the hand « literally means stretching the hand in translation, but in the phraseological sense this expression means that someone gets something too much or more than necessary. Therefore, the semantics of phraseological units are often associated with their whole, the so-called phraseological whole. (Ergashev M.2021)

Methods: A descriptive and comparative linguistic approach was used. Structural analysis identifies the grammatical arrangement and word combinations in phraseological units. Semantic analysis explores both literal and figurative meanings, including metaphorical shifts and connotative extensions. Contextual analysis was applied to determine how meanings vary depending on usage. A qualitative method was also used to examine the fixedness and variability of selected phraseological units in different communicative settings.

Another of the semantic properties of phraseological units is their dependence on context. They often have a specific meaning in a given context and can be misunderstood or ambiguously understood outside of context. The meaning of these units will depend on their use, the situation in speech and the cultural context. Also, the meaning of phraseological units often has an emotional or stylistic tone, which increases their expressive power in speech. The structural and semantic properties of phraseological units distinguish them from other units of the language. Their structure can be strict or relatively free, but always their semantic integrity is maintained. These units occupy a special place in the lexical-semantic system of the language and are an important tool in increasing the wealth of the language. With the help of phraseological units, speech becomes more lively, expressive and expressive. The semantic properties of phraseological units are closely related to their metaphoricity and idiomaticity. Metaphor often plays a central role in phraseological units, as many phraseologisms go beyond the original meaning of words and represent new, expanded meanings. This makes it possible to express complex thoughts briefly and clearly in speech. Idiomaticity, on the other hand, is due to the differentiation of the meaning of phraseological units from the individual meanings of words, and these units often have a cultural and historical context. (Islamov D.2023)

The study and analysis of phraseological units reveals many important issues in linguistics. Their structure and semantics contribute to a deeper understanding of the lexical system of the language. Also, the study of phraseological units helps language learners to acquire speech more naturally and fully. Phraseological units also have a large role in teaching English, as they serve as an important tool in teaching the cultural and contextual aspects of the language. One characteristic feature of phraseological units is their multifaceted meaning, which can be interpreted differently in different situations in speech. This makes them more interesting and complex to learn. Also, phraseological units increase the stylistic richness of language, since with them it is possible to express humor, irony, definition and other stylistic tones in speech. These aspects make phraseological units have a special place in linguistics and Language Teaching. (Karimova Z. 2022)

Results: Findings reveal that phraseological units exhibit varying degrees of structural rigidity. Some units, such as “kick the bucket,” are entirely fixed, while others, like “spill the beans,” may tolerate limited modifications. Semantically, most units express metaphorical meanings that are not deducible from the individual components. Furthermore, many units display polysemy, where their meaning changes with context. (Cowie, A. P. (1998).) For example, the phrase “break the ice” can refer to starting a conversation or reducing social tension, depending on the context.

In the study of the structural and semantic properties of phraseological units, their types and classification are also important. Phraseological units are classified by different criteria, such as

their shape, meaning, function, etc. These classifications help to better understand the specifics of phraseological units and make them effective in Language Teaching.

The semantic properties of phraseological units indicate their difference from lexical units. They are often seen as whole units of meaning, meaning that their meaning is only defined when all words in a unit are used together. This condition emphasizes the idiomaticity of phraseological units. Therefore, in the study of phraseological units, it is necessary to study in depth how they are used in context. The study of phraseological units is of practical importance in Language Teaching. With them, language learners not only learn new words, but also understand their meanings, methods of Use and contextual characteristics. This will help you master the language more efficiently and naturally. When teaching phraseological units, it is important to provide detailed information about their structure and semantics, give examples and conduct practical exercises.

There are many types of phraseological units, including Proverbs, Anecdotes, aphorisms, vocabulary, etc. Each species has its own structural and semantic characteristics. Proverbs, for example, are often short, clear and learned phrases, the meaning of which often expresses life experience and wisdom. Anecdotes, on the other hand, have a more humorous or ironic meaning. The study of phraseological units of this type also helps to study the cultural aspects of language.

The structure of phraseological units depends on the interconnection and order of their words. Some phraseological units are characterized by a strict structure, that is, their words cannot be replaced or changed. In others, it is possible to slightly change the position of words or add suffixes, but this does not affect the general meaning of the unit. These aspects help to distinguish between flexibile and rigid types of phraseological units. The semantic properties of phraseological units are characterized by the multi-layered nature of their meaning. They often contain several meanings, and these meanings can vary depending on the context. This further increases the importance of context in the study of phraseological units. For language learners, in order to fully understand the meaning of phraseological units, it is necessary to consider them in different contexts and perform practical exercises. The study of phraseological units contributes significantly to the development of phraseological Science in linguistics. Their structure and semantics contribute to a deeper understanding of the lexical and grammatical system of the language. Also, the study of phraseological units is also important in the study of language culture, as many phraseologisms reflect the cultural heritage of the language. (Kadyrov A.2023)

The study of phraseological units also provides support for Language teachers. They help develop techniques for teaching them effectively, giving knowledge about the structure and semantics of phraseological units. This serves to enhance the speech culture of language learners and encourages them to understand the language more deeply. The structural-semantic properties of phraseological units further enhance their place and importance in linguistics. Their structure is closely related to the grammatical rules and lexical units of the language, while their semantics enrich the meaning system of the language. These aspects make phraseological units an interesting and important object for study in linguistics. (Rahimov F.2022)

Discussion: The close interplay between structure and semantics in phraseological units demonstrates the complexity of their linguistic nature. Structural constraints often reinforce the semantic unity of a phrase, while variations can signal shifts in meaning. The rigidity of structure typically correlates with the degree of idiomaticity: the more fixed a phrase, the less transparent its meaning. Phraseological expressions reflect cultural and social norms, as seen in proverbs and sayings that encapsulate collective wisdom or moral lessons. This shows the need to study phraseological units not just grammatically but also through cultural and anthropological lenses.

Phraseological units are an important tool in the study of methodological aspects of language. They expand the expressive possibilities of language in literature, art, everyday communication. For example, in literary works, with the help of phraseological units, images become more vivid, touching and memorable. Also, their learning helps language learners increase their speech culture,

broadens their vocabulary, and improves their way of expression. The study of phraseological units is also of great importance for language learners. For foreign language learners, knowledge of phraseological units allows a deeper understanding of the language and its effective use. Because phraseological expressions often represent the naturalness and cultural context of language. Their lack of understanding or misuse can negatively affect the naturalness of speech. The study of phraseological units is an important area of linguistics and is of great importance in the development of semantic, cultural, methodological and pedagogical aspects of language. These units increase the richness of the language, serve to preserve national culture, and help language learners gain a deeper understanding of the language. Therefore, the study of phraseology is necessary and useful not only for linguists, but also for every language user.

Conclusion: As a result, an in-depth study of the structural-semantic properties of phraseological units serves to gain new knowledge in linguistics, develop effective methods in teaching language and develop language culture. They are one of the rich and colorful means of expression of language and play an important role in making speech more vivid, expressive and expressive. The study of phraseological units is closely related to various fields of linguistics, including lexicology, semantics, stylistics, and language teaching methodology. Therefore, their study and research requires constant attention in linguistics.

Reference:

1. Akhmedov S. The foundations of phraseology and the analysis of phraseological units. Tashkent," Akademnashr « publishing house, 2020. – 210 b.

2. Ergashev M. Phraseological units and their use in Uzbek. Tashkent, Publishing House" Finance», 2021. – 195 b.

3. Islamov D. The role of phraseological units in linguistics. Tashkent," Sharq « publishing house, 2023. – 170 b.

4. Karimova Z. Cultural aspects of Uzbek phraseologisms. Tashkent, Uzbekistan publishing house, 2022. – 160 b.

5. Kadyrov A. Uzbek phraseology: theoretical and practical issues. Tashkent, « Fan « publishing house, 2023. – 180 b.

6. Rahimov F. Phraseological wealth of the Uzbek language. Tashkent," writer « publishing house, 2023. – 175 b.

7. Rakhmatullayev Sh. The current literary Uzbek language. Tashkent," University « Publishing House, 2006. – 212 b.

8. Sobirov G. Phraseological units and their place in linguistics. Tashkent," culture « publishing house, 2022. – 190 b.

9. Tursunov N. Semantic properties of phraseological units. Tashkent, publishing house" generation of the New Century», 2022. – 150 b.

10. Usmanov L. Phraseology: theoretical and practical issues. Tashkent, publishing house" literature», 2020. – 200 b.

11. Kholmatov R. Structure and semantics of phraseological units. Tashkent, Ilm publishing house, 2021. – 185 b.

12. Cowie, A. P. (1998). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford University Press.

13. Kunin, A. V. (1996). English Phraseology: A Coursebook. Vysshayashkola.

14. Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. Clarendon Press.

MUSTAQIL MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY MATN TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna-Namangan davlat pedagogika instituti Filologiya kafedrasi mudiri, (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada, mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishda badiiy matn tahliliga zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, empatik, ilmiy faraz, evristik, kognitiv metodlar tahlil va talqinlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, gipoteza metodi, evristik metod, kognitiv metod, empatik metod, ilmiy faraz.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К АНАЛИЗУ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ЧТЕНИЯ

Тиллаева Райхона Тухтасиновна заведующая кафедрой филологии, PhD, доцент, Наманганский государственный педагогический институт.

Абстракт. В статье рассматриваются современные подходы к анализу художественного текста в формировании культуры самостоятельного чтения, а также анализ и интерпретация эмпатического, научно-гипотетического, эвристического и когнитивного методов.

Ключевые слова: технология, метод гипотез, эвристический метод, когнитивный метод, эмпатический метод, научная гипотеза.

MODERN APPROACHES TO THE ANALYSIS OF LITERARY TEXTS IN THE FORMATION OF A CULTURE OF INDEPENDENT READING

Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna, Head of the Department of Philology, PhD, Associate Professor, Namangan State Pedagogical Institute.

Abstract. The article discusses modern approaches to the analysis of literary texts in the formation of a culture of independent reading, as well as the analysis and interpretation of empathic, scientific hypothesis, heuristic, cognitive methods.

Keywords: technology, hypothesis method, heuristic method, cognitive method, empathic method, scientific hypothesis.

KIRISH.So‘nggi paytlarda umumiy pedagogikaga oid tadqiqot ishlarida o‘quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik, ilmiy-nazariy hamda amaliy xususiyatlariga doir zamonaviy yondashuvlar ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlashning muhim omili sifatida tadqiq qilinmoqda. Negaki, bilim olishning asosiy usuli bo‘lgan mutolaa jarayonlarini takomillashtirish jamiyatning umumiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy rivojlanishida poydevor vazifasini o‘taydi, uni sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mustaqillik yillarida milliy ta’lim tizimida pedagogik texnologiya, metod va usullarning amaliyotga tatbiqi borasida bir qancha yangilanishlarga erishildi. Lekin ba’zan so‘zlashuv nutqida mazkur tushunchalarni qo‘llash, dars va mashg‘ulotlarga joriy etishda ularga oid ayrim xususiyatlarni farqlamaslik hollari ham mavjud. Texnologiya zarur shart-sharoit va vositalar yordamida obyektga yo‘naltirilgan maqsadli amallarni tizimli bajarish demakdir. Pedagogik texnologiya tushunchasi texnologik jarayon bilan uzviylikda talqin qilinadi. Texnologik jarayon deganda mehnat qurollari bilan obyektga – biror xom-ashyo

yoki materialga maxsus sharoitda bosqichma-bosqich ishlov berish va shu asosda uning holati, xossalaridan kelib chiqib ma’lum vaqt oralig‘ida ta’sir ko‘rsatish va natijada yangi mahsulotni vujudga keltirish tushuniladi. Albatta, bunda tayyor mahsulot sifati subyektning sohaga oid nazariy bilim, ko‘nikma, malaka va uquvida aks etadi.

Avvaldan loyihalashtirilgan namunaga muvofiq keluvchi mahsulot yaratish ishlab chiqarish jarayonlarini texnologiyalashtirishni nazarda tutsa, ta’limni texnologiyalashtirishdan kutiladigan maqsad davlatning ijtimoiy buyurtmasini ilmiy asoslovchi ta’lim standarti talabidagi shaxs kamolotidir. Ta’lim-tarbiya ishlarini texnologiyalashtirish omili maqsadni aniqlash, shunga muvofiq vazifa va natijalarni belgilash bo‘lib, pedagogik texnologiyani loyihalashtirish, o‘quv jarayoni mazmunini tuzish hamda tizimli tashkil etishga asoslanadi. “Fanlarni o‘qitish nazariyasi ushbu fanni o‘qitishning metodik tizimini amalga oshirish qonuniyatlarini aniqlaydi, texnologiya esa ushbu tizim modelini amalga oshirish usullarini ishlab chiqadi. Bu taxlitdagi yondashuvda texnologiyaning o‘rni oldindan ko‘zlangan maqsadni tashxis qilish hamda uni amalga oshirishning shart-sharoitlarini (shakl, metod, vositalar, o‘zaro bog‘liqliklar)ni aniqlash, ularni loyihalashdan iborat bo‘ladi. Shunday qilib, texnologiya ta’lim nazariyasi yoki metodikasi bilan o‘rin almashmaydi, balki ularning asosiga quriladi. Ayni vaqda ular birbirini taqozo qiladi” [1; 26–27-b.].

Pedagogik texnologiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, soha mutaxassislari unga o‘z aspekti doirasida turlicha yondashadilar. Jumladan, taniqli faylasuf B.Ziyomuhammadov o‘z tadqiqotlarida pedagogik texnologiya mohiyatini xalqaro YUNESKO tashkiloti ta’rifi, rossiyalik V.Monaxov, V.Bespalko, M.Klarin, I.Larner, yaponiyalik Sakomoto, o‘zbekistonlik N.Saydahmedov, A.Ochilov, B.Farberman kabi olimlar fikriga tayangan holda izohlashga harakat qiladi. Olim taklif etgan ta’rifga ko‘ra pedagogik texnologiya bu – “o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi yo talabalarga, muayyan dastur asosida, maqsadga yo‘naltirilgan tizimli ta’siri natijasida, ularda jamiyat uchun zarur va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni shakllantiruvchi ma’rifiy tadbir” [2; 285-b.].

Professor Z.Ismoilovaning fikricha, “o‘qitish (ta’lim va tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchilarga muayan sharoitda ta’sir ko‘rsatish orqali ularda oldindan rejalashtirilgan sifatlarni jadal shakllantirishni kafolatlaydigan o‘quv jarayoni” [3; 11-b.] usuli bo‘lgan mutolaa jarayonlarini takomillashtirish jamiyatning umumiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy rivojlanishida poydevor vazifasini o‘taydi, uni sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida milliy ta’lim tizimida pedagogik texnologiya, metod va usullarning amaliyotga tatbiqi borasida talay yangilanishlarga erishildi. Lekin ba’zan so‘zlashuv nutqida mazkur tushunchalarni qo‘llash, dars va mashg‘ulotlarga joriy etishda ularga oid ayrim xususiyatlarni farqlamaslik hollari ham mavjud.

Texnologiya zarur shart-sharoit va vositalar yordamida obyektga yo‘naltirilgan maqsadli amallarni tizimli bajarish demakdir. Pedagogik texnologiya tushunchasi texnologik jarayon bilan uzviylikda talqin qilinadi. Texnologik jarayon deganda mehnat qurollari bilan obyektga – biror xom-ashyo yoki materialga maxsus sharoitda bosqichma-bosqich ishlov berish va shu asosda uning holati, xossalaridan kelib chiqib ma’lum vaqt oralig‘ida ta’sir ko‘rsatish va natijada yangi mahsulotni vujudga keltirish tushuniladi. Albatta, bunda tayyor mahsulot sifati subyektning sohaga oid nazariy bilim, ko‘nikma, malaka va uquvida aks etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. So‘nggi paytlarda umumiy pedagogikaga oid tadqiqot ishlarida o‘quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik, ilmiy-nazariy hamda amaliy xususiyatlariga doir zamonaviy yondashuvlar ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlashning muhim omili sifatida tadqiq qilinmoqda. Negaki, bilim olishning asosiy qahramonlar obraziga xayolan “kirib olish” obyekt xususiyatlarini ichdan o‘rganish, tuyg‘u va kechinmalarini anglash jarayonini integratsiyalaydi. Ta’limiy obyektlar ichiga kirish holatidagi

his-tuyg‘ular (ishonch, quvonch, qoniqish, ikkilanish, qo‘rquv, nafrat, g‘azab), fikr-mulohazalar o‘quvchining istiqbolda namoyon bo‘ladigan intellektual faoliyati mahsulidir. Personajlar o‘rtasidagi suhbat, tortishuv, bahs-munozaralarni aks ettirish orqali o‘quvchilarda dialoglarni monologik, polifonik nutqqa, matndagi ko‘chirmalarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish malakalari ham shakllantiriladi.

Empatiya metodini qo‘llashning ahamiyati o‘quvchida personajlar qiyofasiga kirish orqali obyekt muammolarini tushunish, kechinmalarini his qilish va jarayonni belgili, harakatli yoki rasmli tarzda tasvirlash ko‘nikma va malakalari shakllanishi; mavjud imkoniyatlar yuzaga chiqishi; obyekt ichiga kirish holatida o‘quvchi o‘zini kuzatish va baholash imkoniga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

Fanda ilmiy gipoteza ilmiy dalillarga tayanishi yaxshi ma’lum. Shu nuqtayi nazardan olganda ilmiy faraz haqiqatligi isbotlanishi talab etiladigan bilimdir. Ilmiy faraz (gipoteza) olamdagi aniq narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyati, qonuniyatlarini yoritish masalasi ustuvor bo‘lgan metoddir. Har qanday fan empirik materiallar tahliliga tayanadi va ularni anglashdan boshlanadi. Bu esa o‘z navbatida, ichki mohiyat, o‘zaro bog‘liqlik va munosabatlarning in’ikosi bo‘lmish yangi g‘oyalar ijod qilinishiga zamin yaratadi.

Adabiyot darslarida ilmiy faraz (gipoteza) metodini qo‘llashning afzalliklari shundaki, bunda o‘rganilayotgan mavzu doirasida savol-topshiriqlar yoki muammoli vaziyatlarning bir qator variantlari yaratilishi ko‘zda tutilib, g‘oyalarning asoslari aniqlanadi, muhokama qilinib, mantiqan mukammal hisoblangan fikr-mulohazalar tanlab olinadi.

G‘arb mamlakatlarida ilg‘or texnologiyalar sifatida tan olinayotgan ilg‘or pedagogik texnologiyalarning ayrim elementlari bundan bir necha asrlar muqaddam ko‘hna Sharqda Burxoniddin az-Zarnujiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalar qarashlarida hamda so‘fiylik ta’limotida ilgari surilganini qayd etadi [4; 48-b.]. Aytish mumkinki, bu tushuncha o‘zida o‘qituvchi kasbiy kompetentliligi darajasini ifodalab, maqsadga yo‘naltirilgan muayan loyiha asosida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan rag‘batini kuchaytirishga qaratilgan va natijasi kafolatlanadigan tashkiliy-uslubiy vositalar majmuidir.

O‘qitish metodlari bir-biridan o‘ziga xos belgilar orqali farqlanadi. Rus olimasi O.Bogdanovaning ko‘rsatishicha, didaktik olimlar M.Skatkin va I.Lernerlar bu belgilarni metodlarning ta’lim maqsadini ifodalashi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish hamda o‘qitish usullarining o‘zaro aloqadorligini ta’minlashi nuqtayi nazaridan tavsiflaydi [5; 89-b.].

Ta’lim metodlarini tasniflashga bunday yondashuvlar ularni umumiy (faqat adabiyotni emas, balki boshqa ko‘pgina fanlarni o‘qitish jarayonida ham qo‘llanadi) va xususiy (faqat ma’lum o‘quv fani ta’limida qo‘llanadi) fan metodlariga taqsimlash imkonini beradi.

Q.Husanboyeva ta’kidlaganidek, “Ta’lim metodlari faqat ma’lumotni qanday berishni belgilamaydi. Ular materialning tizimi va uni ayni shu yo‘l bilan ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Ya’ni u o‘quv materialiga singdirilgan bilimni o‘quvchi o‘zlashtira oladigan tarzda berishni, bolalarda bilim olish qobiliyatini rivojlantirishni ham qamrab olgan bo‘lishi kerak” [6;62-b.]. O‘quvchilarning mutolaa asoslarini egallashga bo‘lgan qiziqishlari samarasi ta’lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishiga chambarchas bog‘liq. Istiqlol davri pedagogikasida bilish jarayonlarini rivojlantirish orqali yosh avlodni ijodkorlikka yo‘naltirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ham kognitiv, ham kreativ jarayon bilan yaqin aloqadorligiga ko‘ra ta’limning evristik metodlari bu borada yaxshi samara beradi.

Evristik metod – o‘quvchilarda faollik, izlanuvchanlik sifatlarini shakllantirishga, muammo va uning yechimiga oid eng muhim hamda muqobil variantlarini topishga yo‘naltiruvchi savollar orqali bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim berish tizimidir.

Kognitiv (“bilmoq, anglamoq, tushunmoq”) metodlar ta’lim oluvchilarda butun olam haqidagi mavjud bilim va tushunchalarni yanada orttirish, shuningdek, masalani tarkibiy qismlarga ajratib tadqiq qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi. Kognitiv o‘qitish asosida

shaxsni biologik, psixologik va ijtimoiy tashkillashtirishning dinamik tizimi yotadi. Uning “strategiya va aqliy qobiliyatlarning butun majmuini rivojlantirib, o‘qitish jarayoni va individning yangi sharoitlarga o‘rganish jarayoniga imkoniyat yaratishini qayd etmoq o‘rinlidir.

So‘nggi paytlarda jahon falsafasi va tilshunoslik sohasida keng ommalashgan ushbu tahlil metodlari negizida o‘quvchilarning ongi, ruhiyati va bilish jarayonlari rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish masalalari nazarda tutiladi. Zamirida ta’limiy mahsulot yaratishga erishish va, asosan, obyektni bilish maqsadi ustuvor kognitiv metodlar natijasi o‘qituvchining o‘quvchi bilan do‘stona munosabat o‘rnatishida, darsda qulay pedagogik va psixologik muhit yarata olishida namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash o‘rinliki, empatiya, obrazli ko‘rish, ramziy ko‘rish, evristik savollar, taqqoslash, evristik kuzatish, tadqiqot, tushunchalarni yig‘ish va ilmiy faraz (gipoteza) kabi qator metodlar kognitivlik xususiyatiga ega. Empatiya metodi. Bunda o‘quvchining hissiy-obrazli va fikriy tasavvuri orqali o‘rganilayotgan shaxs, narsa-buyum yoki voqelik “ichiga kirib”, uni his qilish, bilishga intilishi nazarda tutiladi. Psixologiyada empatiya (hamdardlik, ichdan his qilishlik) deyilganda konkret shaxsni boshqa odamlarning emotsional-hissiy holatlarini mazkur davrda anglash (tushunish), ularning ta’limiy obyektlar ichiga kirib borish jarayonida o‘quvchi his qilish darajasida fikrlashga harakat qiladi. Buning samarasi o‘laroq ong va tasavvurda muayan qahramonning omuxtalashgan tashqi va ichki portreti, emotsional-bo‘yoqdor hayotiy manzaralar tasviri paydo bo‘ladi, turli fanlar doirasidagi bilimlar sarhisob qilinadi, qiyoslanib, umumlashtiriladi hamda voqelikning tub mohiyati idrok qilinadi. “Asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini farqlash jonli muloqot natijasidir.

Kitobxon ularni taqqoslash uchun bosh qotiradi – o‘ylashga majbur bo‘ladi. Shu jarayonda asar voqeligini xayolida qayta jonlantiradi, qahramonlarning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘radi, muayan xulosalar chiqaradi. Ko‘rinadiki, u ham o‘ziga xos ijod qiladi.

XULOSA. Adabiyot darslari inson kechinmalari va his-tuyg‘ularini turli rakurslarda tadqiq etish nuqtayi nazaridan ham hayotiydir. Shu bois, ta’limiy obyektlar ichiga kirib borish jarayonida o‘quvchi his qilish darajasida fikrlashga harakat qiladi. Buning samarasi o‘laroq ong va tasavvurda muayyan qahramonning omuxtalashgan tashqi va ichki portreti, emotsional-bo‘yoqdor hayotiy manzaralar tasviri paydo bo‘ladi, turli fanlar doirasidagi bilimlar sarhisob qilinadi, qiyoslanib, umumlashtiriladi hamda voqelikning tub mohiyati idrok qilinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Шарипов Ш. Педагогик технология ҳамда таълим методи тушунчаларининг ўзаро нисбати // Халқ таълими. – Тошкент, 2004. – №6. – Б. 24–27.

Зиёмуҳаммадов Б. Комилликка элтувчи китоб. – Тошкент: “TURON-IQBOL”, 2008. – 352 б.

Исмоилова З.К. Педагогик технологиялар ҳақида замонавий қарашлар // Kasb-hunar ta’limi.Тошкент, 2012. – № 6. – Б.12.

Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. –Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. – 132 б.

Богданова О.Ю., Леонов С.А., Чертов В.Ф. Методика преподования литературы. Учебник для студентов пед. вузов. Подредакцией О.Ю.Богдановой. 3-е издание, стереотипное. – Москва: Издательский центр “Академия”, 2004. – 400 с.

Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти”, 2009. – 368 б.

Tillayeva R. O‘quvchilar faolligini oshirishda tadqiqot ishi tashkil etish samaradorligi // o‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi alisher navoiy nomidagi toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti yoshfilolog olimlar jamiyati. C.439. https://tsuull.uz/sites/default/files/02_06_22_toplam_til_va_adabiyot_ilmiy_va_amaliy_izlanishlar_yolidagi_0.pdf#page=439.

R.T. Tillayeva. M.M.Q. Mo‟minova. O‟quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish metodikasi «Science and Education» Scientific Journal / www.openscience.uz November 2023 / Volume 4 Issue 11 https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Hj9TC0QAA AAJ&citation_for_view=Hj9TC0QAAAAJ:u5HHmVD_uO8C

Tillayeva R. O‘quvchilar faolligini oshirishda tadqiqot ishi tashkil etish samaradorligi // o‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‟lim vazirligi alisher navoiy nomidagi toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti yoshfilolog olimlar jamiyati.C.439.https://tsuull.uz/sites/default/files/02_06_22_toplam_til_va_adabiyot_ilmiy_va_amaliy_izlanishlar_yolidagi_0.pdf#page=439.

R.T. Tillayeva. M.M.Q. Mo‟minova. O‟quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish metodikasi «Science and Education» Scientific Journal / www.openscience.uz November 2023 / Volume 4 Issue

https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/59253

https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asar-matnini-tahlil-qilish-metodologiyasi

INGLIZ GAZETA DISKURSIDA FE'L KOMPONENTLI KOLLOKATSIYALARNING KORPUSGA ASOSLANGAN CHASTOTALI TAHLILI

ЧАСТОТНЫЙ КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ГЛАГОЛЬНЫХ КОЛЛОКАЦИЙ В АНГЛИЙСКОМ ГАЗЕТНОМ ДИСКУРСЕ

A CORPUS-BASED FREQUENCY ANALYSIS OF VERB-COMPONENT COLLOCATIONS IN ENGLISH NEWSPAPER DISCOURSE.

G'apporov Baxriddin Baxtiyor o'g'li
University of Business and Science katta o'qituvchisi
ORCID ID: 0009-0005-8160-1952

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola ingliz gazeta diskursida fe'l komponentli kollokatsiyalarning korpusga asoslangan chastotali tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqot kognitiv-lingvistik, funksional-pragmatik va korpus lingvistikasi yondashuvlari asosida olib borildi. Asosiy tahlil vositasi sifatida Sketch Engine platformasidan foydalanilib, "English Broadsheet Newspapers" korpusidagi 11 ta yetakchi britan gazetasi (1993–2021) dagi verb+noun kollokatsiyalar chuqur o'rganildi. Natijalarga ko'ra, take, have va make fe'llari bilan tuzilgan kollokatsiyalar eng yuqori chastotaga ega bo'lib, give va do esa kamroq qo'llanishi bilan ajralib turadi. Tadqiqot ingliz gazetalaridagi leksik birliklarning tarqalishi va ularning stilistik funksiyalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Аннотация. Данная научная статья посвящена частотному анализу коллокаций с глагольным компонентом в английском газетном дискурсе на основе корпусных данных. Исследование проведено в рамках когнитивно-лингвистического, функционально-прагматического и корпусного подходов. В качестве основного инструмента анализа использовалась платформа Sketch Engine. Объектом изучения стали коллокации типа verb+noun, извлечённые из корпуса «English Broadsheet Newspapers», включающего тексты 11 ведущих британских газет за период 1993–2021 годов. В результате анализа установлено, что коллокации с глаголами take, have и make обладают наивысшей частотностью, тогда как коллокации с give и do употребляются значительно реже. Полученные данные способствуют выявлению лексических закономерностей и стилистических функций в дискурсе английской прессы.

Abstract. This research article is devoted to a corpus-based frequency analysis of verb-based collocations in English newspaper discourse. The study is conducted within the frameworks of cognitive linguistics, functional pragmatics, and corpus linguistics. The main analytical tool used is the Sketch Engine platform. The focus is on verb + noun collocations extracted from the "English Broadsheet Newspapers" corpus, which comprises texts from 11 leading British newspapers spanning the years 1993 to 2021. The analysis reveals that collocations formed with the verbs take, have, and make exhibit the highest frequency, whereas those with give and do occur significantly less often. The findings contribute to identifying lexical patterns and stylistic functions in the discourse of the English press.

Kalit so'zlar: fe'l komponentli kollokatsiyalar, konkordans, N-Grams, token, lemma, kontekstual tahlil, diskurs.

Ключевые слова: глагольные коллокации, конкорданс, N-граммы, токен, лемма, контекстуальный анализ, дискурс.

Key words: verb-based collocations, concordance, N-grams, token, lemma, contextual analysis, discourse.

Kirish. Fe’l komponentli kollokatsiyalarning ingliz gazeta matnlaridagi tutgan o‘rni beqiyosdir. Ularning lingvistik o‘ziga xosliklarini tadqiq qilish hozirgi zamon tilshunosligidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, biz ushbu bobda xalqaro hamda mahalliy ingliz gazeta matnlaridagi fe’l komponentli kollokatsiyalarning korpusga asoslangan tahlilini amalga oshirishga qaror qildik. Tilning korpus tahliliga asoslangan platformalar yordamida katta hajmdagi ma’lumotlar (korpora) bazasi shakllanadi hamda ular yordamida leksikografik, sintaktik, tarjimashunoslikka doir ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda ingliz gazeta diskursida fe’l komponentli kollokatsiyalarning korpusga asoslangan chastotali tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi kognitiv-lingvistik, funksional-pragmatik va korpus lingvistikasi yondashuvlariga asoslandi. Asosiy maqsad - gazeta diskursida tez-tez qo‘llaniladigan fe’l asosidagi kollokatsiyalarni aniqlash, ularning chastotasini hisoblash va semantik hamda pragmatik funksiyalarini o‘rganishdan iborat bo‘ldi.

Kollokatsiyalarning turli janrlar asosida korpusga asoslangan izlanishlar dunyo tilshunosligida so‘nggi yillarda keng amalga oshirilmoqda. Akerman va Chen (2013) o‘z tadqiqotlarida akademik kollokatsiyalar ro‘yxatini (Academic Collocation List – ACL) ishlab chiqish uchun korpusga asoslangan va ekspert baholoviga tayanuvchi yondashuvni qo‘llashgan. Ular asosiy til materiali sifatida BAWE (British Academic Written English) korpusidan foydalanganlar, bu korpus turli fan sohalariga oid akademik yozma matnlarni o‘z ichiga oladi. Korpus tahlilida keng qo‘llaniladigan vositalardan biri bu AntConc dasturi bo‘lib, u Laurens Entoni (2020) tomonidan ishlab chiqilgan va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida erkin foydalanish uchun taqdim etilgan. Ushbu dastur turli korpus lingvistikasi jarayonlari, jumladan, kollokatsiyalarni aniqlash, konkordanslar yaratish, so‘zlar chastotasini tahlil qilish kabi funksiyalarni bajaradi. WordSmith Tools dasturi — bu tekstlar korpusini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan ilg‘or kompyuter dasturiy ta’minoti bo‘lib, Mayk Skot (2012) tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu dastur yordamida foydalanuvchilar konkordanslar yaratish, so‘zlar ro‘yxatini tuzish, kollokatsiyalarni aniqlash kabi muhim lingvistik tahlillarni bajarishlari mumkin. COCA – Mark Davis (2008) tomonidan yaratilgan va muntazam yangilanadigan, 1 milliarddan ortiq so‘zdan iborat amerikaning zamonaviy ingliz tiliga oid korpusidir. U 1990 yildan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va gazetalar, jurnalistik matnlar, ilmiy maqolalar, ommaviy axborot, bloglar va matbuot kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Kollokatsiyalarni yuqori aniqlikda yozma diskursdagi tadqiqida “Sketch Engine” korpus platformasining o‘rni beqiyos. U leksikograf, tilshunos va tarjimonlar uchun mo‘ljallangan, so‘z chizmalari (word sketches), grammatik munosabatlar va tarqoq tezaurusni (distributional thesaurus) o‘z ichiga olgan korpus so‘rovi tizimidir (Kilgarriff va boshq., 2004).

Natija va muhokama. Biz ingliz gazeta matnlaridagi fe’l komponentli kollokatsiyalar konteksini aniqlash va ularning chastotalarini hisoblab chiqishni ustuvor vazifa sifatida tanladik. Tadqiqotimizda, turli ingliz gazeta matnlaridan tashkil topgan tayyor Sketch Engine korpus bazasidagi yozma matnlar korporasi bo‘limidan foydalaniladi. Bu platformada “Word Sketch” (kollokatsiyalar va so‘z kombinatsiyalari tahlili), “Theasurus” (Sinonimlar tahlili), “Parallel concordance” (ikki va ko‘p tilli qiyosiy tarjimalar tahlili), “N-grams” (ko‘p so‘zli semantik so‘z guruhlari tahlili), “Trends” (diaxronik hamda neologizmlar tahlili), “Word Sketch Difference” (bir vaqtda ikkita kollokatsiyalar tahlili), “Concordance” (so‘zlarni konteksual tahlili), “Wordlist” (so‘zlar chastotasi, uzunligi va so‘z turkumlari tahlili), “Keywords” (kalit so‘zlar tahlili), “One-Click Dictionary” (platformadan chiqmay turib bir, ikki hamda ko‘p tilli lug‘atlardan foydalanish) singari funksiyalar mavjud. Ular korpus tahlilida tadqiqotchining tilni qaysi jihatdan o‘rganishiga qarab moslashadi hamda aniq natijalar olish imkonini beradi. Tadqiqotimiz uchun korpus bazasi bosh darchasidan “English Broadsheet Newspapers” bo‘limini tanlab olamiz. Undan Daily Mail, Daily Mirror, Metro, Sunday Times, The Daily Telegraph, The Evening Standard, The Express, The Guardian, The Sun, The Sunday Telegraph hamda The Times kabi 1993-2021-yillar oralig‘ida

Britaniyada chop etiladigan 11 turdagi gazeta matnlari korpusini belgilab olamiz. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, “gazetalar” bo‘limida boshqa hududlardagi nashr qilingan inglizcha gazetalar ham o‘rin olgan, biroq biz ishning aniqligi hamda natijadorligini oshirish maqsadida faqat Britaniyada nashr etilgan yuqoridagi o‘n bir turdagi vaqtli matbuot namunalari bilan cheklandik. Biz fe’l komponentli kollokatsiyalar “chastota”sini “Word Sketch hamda “Concordance” konteksual tahlil funksiyalari orqali o‘rgandik. Oldingi boblarda fe’l ishtirokidagi turli kollokatsiya kombinatsiyalari haqida batafsil to‘xtalib, ingliz gazeta matnlaridan misollar keltirgan holda ularni yetarlicha tadqiq etdik. Bu bobda esa faqat verb+noun leksik kollokatsiyalarning chastotali tahlilini amalga oshirishga qaror qildik. Buning asosiy sababi shundaki, bu kombinatsiyaga mos kollokatsiyalar son jihatdan noun+verb hamda verb+adverb kollokatsiyalardan sezilarli darjada ko‘p. Bundan tashqari, agar boshqa kombinatsiyalardan ham foydalansak ishning hajmi juda kengayib ketadi va bu jarayon o‘z navbatida tadqiqot natijasini olishni qiyinlashtirishi mumkin. Korpusga asoslangan tadqiqotimizga bosh manba sifatida “Oxford Collocations Dictionary for Students of English (Makintosh va boshqalara, 2019) kollokatsiyalar lug‘atini tanladik hamda undan keng tarqalgan verb+noun kollokatsiyalarni ajratib oldik. Bu orqali biz gazeta matnlari korpusidan kollokatsiyalarni yuqori aniqlikda ajratib olish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Korpus ma’lumotlar bazasida, garchi ular kollokatsiya hisoblanmasada, turli xil erkin so‘z kombinatsiyalari yoki grammatik so‘z qo‘shimalari mavjud. Agar tizimga to‘g‘ri buyruq berilmasa, haqiqiy kollokatsiyalar chastotasini aniqlashda noto‘g‘ri statistik ma’lumotlar olish ehtimolligi ortadi.



1-rasm

Kollokatsiyalarni korpus bazasidan ajratib olish uchun biz Concordance bo‘limiga kirib, u yerdan CQL (Corpus Query Language) korpus qidiruv funksiyasini tanlaymiz. U yerga korpus dasturlash tiliga asoslangan kodlarni kiritamiz. Fe’l komponentli kollokatsiyalarning soni juda ko‘p bo‘lganligi tufayli, ularni bir vaqtning o‘zida korpus bazadan yuqori aniqlikda ajratib olish juda mushkul vazifa. Biz bu muammoga yechim sifatida “Oxford Collocations Dictionary for Students of English” lug‘atidagi do, give, have, make va take kabi keng tarqalgan fe’llar ishtirokida tuzilgan verb+noun kollokatsiyalar jadvalini tuzib chiqdik hamda ularni CQL qidiruv tizimidagi kodlar yordamida quyidagicha [lemma=»take»][word=»a|an|the|my|your|his|her|its|our|their»]? [tag=»N.*» & lemma=»action|interest|part|chance|breath|nap|look|guess|dislike|notes|tablet|break |bite|exam|bath|shower|photo|walk|revenge|seat|care|rest|blame|leap|attendance|time|stage|ride|sw ing|attempt»] bir joyga jamladik.

Ko‘rib turganingizdek, dastlab qavs ichida [lemma=»take»] qismi kelmoqda. Bu o‘rinda qo‘llangan “lemma” termidan korpus tahlillarda keng foydalaniladi. Lemma – bu biror so‘zning lug‘atda berilgan birinchi shakli hisoblanadi. Masalan, “take” so‘zini shu o‘rinda lemma

deyish mumkin. Kollokatsiya “take” fe’l so‘z turkumiga oid so‘z bilan boshlanganligi uchun [lemma=»take»] – lemma “take” fe’liga teng bo‘ladi, biroq u qidiruv natijasi olinganda gazeta matni ichida ko‘rinmaydi, ya’ni faqat korpusga to‘g‘ri buyruq berishgagina ishlatiladi. Undan so‘ng ikkinchi buyruq turi keladi. Bunda “word” termini ishlatiladi. Qiziq tomoni shundaki, bu o‘rinda “lemma” emas, balki “word” atamasi qo‘llanilmoqda. Aslida “lemma” “word” ning muqobil varianti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, “take” so‘zi bir vaqtning o‘zida ham lemma ham word hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, lemma grammatik shakl jihatdan o‘zgarishi mumkin, word esa yo‘q, chunki word so‘zning aynan “o‘zagi” bo‘lishi lozim. Misol uchun, “take” lemmasi gazeta matnlarida turli zamon, shaxs-son va suffiks yordamida ifodalanishi mumkin: took/have/has taken/will take/am/is/are taking/takes. Agar korpusda “take action” verb+noun kollokastsiyasini faqat shu shaklini topishga buyruq bersak, tizim aynan kollokatsiyalar chastotasini aniqlashda fe’lning faqatgina “take” hozirgi oddiy zamon formasini ko‘rsatadi. Bu vaziyatda olingan natija aniqlik hamda tugallika ega bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun, qidiruvni lemma bilan boshlash muammoga yechim bo‘ladi. “Word”dan so‘ng |…| ikkita tik chiziq ichida bir nechta so‘zlar berilgan, bunga sabab tizim shu so‘zlarning qaysidir biri ot so‘z turkumiga mansub leksemadan oldin kelishi mumkinligini bildiradi. Ayrim iboralar hech qanday aniqlovchisiz keladi. Biz bu amaliyotni amalga oshirish uchun hech qanday belgi yoki kod yozishimizga hojat yo‘q. Buyruq bexato bo‘lishi, kodlarni to‘g‘ri kiritish juda zarur. Quyidagi tag=»N.*» koddagi tag atamasi orqali biz so‘z turkumni aniqlaymiz. «N.*» belgisi “Noun” ya’ni ot so‘z turkumini bildiradi. Verb+noun kollokatsiyalar dastlab korpus gazeta matnlari o‘rtasida, alohida rang bilan ajratilgan holda uchraydi. Shundan so‘ng, o‘sha kollokatsiyalarni alohida “frequency” tugmasini bosish orqali chastotali tahlilini amalga oshirishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi keltirilgan ketma-ketlikda biz Sketch Engine korpus bazasida joylashgan ingliz gazeta matnlaridagi verb+noun kollokatsiyalar chastotasini yuqori aniqlikda hisoblash chiqishimiz imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, aynan qaysi kollokatsiyalar gazetalarda eng ko‘p, o‘rtacha hamda eng kam ishlatilishini aniqlab olishga erishamiz. Bu esa gazeta matnlari tarkibidagi kollokatsiyalarni lingvistik jihatdan puxta o‘rganishga hamda jurnalistlar so‘z qo‘llashda qanday uslublardan keng foydalanishganligiga sharoit yaratadi. “English Broadsheet Newspapers” korpusdagi bo‘limidagi so‘zlar (tokenlar)ning umumiy soni 858,566,374 tani tashkil qiladi. Korpus ma’lumotlar bazasidagi bunday katta korporani qiyosiy tahlil qilish hamda ko‘zlangan natijalarni olish ko‘plab murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, biz verb+noun kollokatsiyalar chastotasini aniq hisoblashda ularni har 1 million so‘zga nisbatini inobatga oldik. 1 million so‘z proporsiyasi asosida hisoblash quyidagi formulaga asoslanadi: (verb+noun kollokatsiyalar/umumiy so‘zlar soni) * 1,000,000. Bunda “verb+noun kollokatsiyalar soni” – korpusda topilgan muayyan verb+noun kollokatsiyalarning umumiy soni, “umumiy so‘zlar soni” esa – “English Broadsheet Newspapers” bo‘limidagi barcha so‘zlar/tokenlar soni, ya’ni 858,566,374. Misol uchun, faraz qilaylik, verb+noun kollokatsiyasi gazeta matnlarida 145,320 marta ishlatilgan. U holda, uning 1 million so‘z proporsiyasi quyidagicha hisoblanadi: (145,320 / 858,566,374) * 1,000,000 = 116.4. Bundan shuni anglash mumkinki, agar “English Broadsheet Newspapers” korpusi 1 million so‘zdan iborat bo‘lganida, verb+noun kollokatsiyasi taxminan 116 marta qo‘llanilgan bo‘lar edi. Aynan shu usulda qolgan verb+noun kollokaysiyalarning 1 million so‘z proporsiyasi asosidagi chastotasi hisoblab chiqiladi. Ushbu metod bizga turlihajmdagi korpus ma’lumotlar bazalaridagi verb+noun kollokatsiyalar chastotasini taqqoslash imkonini beradi.

2-diagramma

Biz fe'l komponentli kollokatsiyalar korpusga asoslangan tahlilida quyidagi natijalarni oldik. (7-diagramma)

"TAKE" fe'li yordamida yasalgan kollokatsiyalar gazeta matnlarida eng ko'p ishlatilgan bo'lib, korpusdagi chastotasi 249 tani tashkil qiladi;

"HAVE" yuqori chastotali kollokatsiyalar ko'rsatkichi bo'yicha "TAKE" dan so'ng ikkinchi o'rinni egallab, umumiy hisobda to'rt marta kam (245) ishlatilgan;

"MAKE" ishtirokidagi kollokatsiyalar chastota hisobi bo'yicha 3-o'rinda turadi va ular gazeta matnlarida 183 marta qo'llangan;

"GIVE" bilan yasalgan kollokatsiyalar esa korpusda 4-o'rinnni band qilgan (59 marta).

"DO" yordamida yasalgan kollokatsiyalar chastota jadvalining eng quyi qismida kelgan bo'lib, atigi butun gazeta korpusida 30 marotaba ishlatilgan.

Korpus tahlili shuni ko'rsatdiki, "take", "have", "make" ishtirokidagi kollokatsiyalar ingliz gazeta matnlarida yuqori chastotada ishlatilgan bo'lsa, "give" hamda "do" esa past chastotali fe'l komponentli kollokatsiyalarga misol bo'la oladi.

Take+noun kollokatsiyalar chastotasi korpusda umumiy 0.021% ni tashkil qildi. Gazeta korpusidagi matnlar rasmiy uslubga xos siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy ma'lumotlardan tashkil topganligini inobatga olsak, bu turdagi kollokatsiyalar gazeta diskursida ko'p ishlatilishi tabiiy holatdir. Demak, take+noun eng keng tarqalgan kollokatsiya kombinatsiyasi hisoblanadi. So'z chastotasiga asoslangan tahlilimizda quyidagi "take place, take part, take advantage, take time, take action, take care, take charge, take control, take the lead, take responsibility" kollokatsiyalar chastotasi bo'yicha gazetalarda eng ko'p foydalanilgan iboralar ekanligi qayd etildi. E'tiborga molik jihati shuki, yuqoridagi 10 ta kollokatsiyalarning korpusdagi jami chastotasi soni taqriban 142 tani tashkil qiladi. Bu degani korpusda take+noun kollokatsiyalar umumiy hisobda 249 marta takrorlangan bo'lsa, atigi o'nta kollokatsiya turi umumiy miqdorni yarmidan ziyodrog'ini (57%) tashkil qildi. Yuqoridagi kollokatsiyalarda semantik jihatdan gazeta uslubiga xoslik mavjud, chunki ularning aksariyati publisistik uslubga bo'lib, yangilik va voqea-hodisalarni yoritishda muhim o'rin tutadi. "We've heard about gang warfare but we find it a bit difficult to believe because where the incident took place it is a sleepy community, nothing happens there." (The Guradian. 2013-yil, yanvar). "Took place" iborasi gazeta korpusidagi eng ko'p ishlatilgan kollokatsiya hisoblanadi.

Aslida fe’l hozirgi oddiy zamon “take” shaklida ifodalananishi kerak edi. Biroq avval qayd etganimizdek, biz kollokatsiyalar chastotasini hisoblashda “lemma” dan foydalanganmiz, ya’ni so‘zning turli zamon hamda birlik va ko‘plik shakllari korpus qidiruv tizimida yuqori aniqlikda ajratish imkonini bergan. Biz kollokatsiyalarning korpusga asoslangan tadqiqida nafaqat “yuqori” balki, “quyi” chastotali kollokatsiyalarni nazardan chetda qoldirmadik, chunki gazeta matnlarida faqatgina yuqori chastotaga ega bo‘lgan kollokatsiyalarni o‘zini o‘rganish tadqiqot natijadorligini pasaytirib yuboradi. Kollokatsiyalarning chastotasi nima sababdan quyi ekanligini aniqlash, o‘quvchining gazeta matnlarini yaxshiroq tushunishiga olib keladi degan fikrdamiz. “take a bath, take a taxi, take an aim, take a shower, take attendance, take vacation, take a guess, take a class, take a cover” singari kollokatsiyalar gazeta matnlarida eng kam ishlatilgan, quyi chastotali fe‘l komponentli kollokatsiyalar hisoblanadi. Bizningcha, yuqoridagi bir guruh kollokatsiyalar nima sababdan kam ishlatilganligiga asosiy sabablardan biri shuki, ular odatda kundalik norasmiy nutqda keng ishlatilganligidadir. Tadqiqotimizdagi gazetalarda asosiy e’tibor hukumat va jamiyat hayotidagi sodir bo‘layotgan muhim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, yangiliklarga qaratilgan. Shuning uchun, ko‘pincha shou-biznes va turli ko‘ngilochar dasturlarni o‘z ichiga oluvchi maishiy gazetalarda uchraydigan kollokatsiyalar rasmiy gazeta matnlarida kamdan kam uchraydi. Misol uchun, quyidagi gapda “Every teacher would take attendance at the beginning of every class and any discrepancies with the list would be reported to the school office.” (Times. 1993-yil, noyabr) “take attendance” kollokatsiyasi dars boshida o‘qituvchi o‘quvchilar davomatini olish jarayonini ifodalamoqda. Bu kollokatsiyaning chastotasi juda past ekanligiga asosiy sabablardan biri shuki, u ma’lum shart-sharoit va makon talab qiladi, ya’ni davomat olish odatda ta’lim muassasalari va boshqa davlat tashkilotlarida amalga oshirilganligi bois, uni boshqa kontekslarda jumladan hukumat gazeta matnlarida uchratish ehtimolligi juda past.

“Have” bilan yasalgan fe’l komponentli kollokatsiyalar chastotasi bo‘yicha (7-diagrammaga qarang) ikkinchi o‘rinni egallagani bejizga emas, chunki bunday kollokatsiyalar nafaqat publisistik diskursda, balki media diskursda ham keng tarqalgan. Have+noun kollokatsiyalarning gazeta korpusi bazasidagi chastotali tahliliga ko‘ra, ularning korpusdagi ulushi 0.021% ni (take+noun kollokatsiyalar ko‘rsatkichi bilan teng) tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin. Quyidagi “have no idea, have a chance, have time, have fun, have a say, have a problem, have the opportunity, have a go, have trouble, have a baby, have an impact, have a point, have a look, have a reputation, have a job” kollokatsiyalar korpusda eng yuqori chastotani qayd etgan. Ular birgalikda jami 70.58 ko‘rsatkichga ega bo‘lib, have+noun kombinatsiya yordamida yasalgan kollokatsiyalarning taxminan 28.81% ni (korpusdagi chastotasi 245) tashkil qildi. Yuqorida berilgan 15 ta yuqori chastotali kollokatsiyalar take+noun kollokatsiyalardan 5 ta ko‘p bo‘lishiga qaramay, chastotalar foiz ko‘rsatkichi bo‘yicha atigi taxminan yarminini tashkil etadi (mos ravishda 28.81% ga 57%). Bu shuni ko‘rsatadiki, gazeta matnlarida have+noun kollokatsiyalari unchalik ko‘p ishlatilmaydi. “Have no idea” negativ kollokatsiyasi neytral leksik kombinaysiya hisoblanib, konteksga bog‘liq holda ham yozma ham og‘zaki nutqda keng qo‘llanishi mumkin. Fikrimizcha, u aynan shu xususiyati tufayli korpusda eng yuqori chastotaga ega bo‘lgan. “This is no different a vaccine to the flu or anything and why people are up in arms about it I have no idea,” he said.” (Times. 2021-yil, sentabr). Bu misolda subyektning voqealikka nisbatan bilim darajasi chegaralanganini yoki biror voqea-hodisaga nisbatan noaniq munosabatini ko‘rishimiz mumkin. Quyi chastotali kollokatsiyalar orasida have a stomachache (2) have a backache (4), have a toothache (5), have a disadvantage (9), have a quarrel (14) jadvalning so‘nggi o‘rinlarini qayd etdi. Gazetalar rasmiy va murakkab uslubni saqlab qolib, oddiy yoki kundalik ifoda birliklardan qochadi. “Have a quarrel” yoki “have a backache” kabi kollokatsiyalar nisbatan norasmiy bo‘lib, publisistik diskursga xos jiddiylikni aks ettirmasligi mumkin. Yuqoridagi kollokatsiyalar o‘rniga, gazeta matnlarida “engage in a dispute” yoki “suffer from chronic back pain” kabi yanada rasmiy muqobil variantlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, yuqoridagi kabi quyi chastotali fe’l komponentli kollokatsiyalar ishlatiladigan kontekslar gazetalarda nisbatan kam uchraydi.

Masalan, “have a quarrel” iborasi ko‘proq shaxslararo munosabatlarda yoki badiiy hikoyalarda uchraydi, bu esa rasmiy gazeta diskursining diqqat markazida emas. Xuddi shunday hukmni “have a stomachache” iborasiga nisbatan ham ishlatish mumkin. Agar oziq-ovqat xavfsizligi hamda salomatlikka aloqador mavzu bo‘lsa, bu iborani gazeta matnida uchratish ehtimolligi oshishi mumkin. Boshqa sohalarda esa bunday norasmiy iboraga deyarli ehtiyoj mavjud emas.

Diagrammaga ko‘ra, “make+noun” kollokatsiyalar korpus bazada chastota ko‘rsatkichi bo‘yicha 3-o‘rinni egallab, gazeta matnlarida jami 183 marta (0.016%) qo‘llangan. “Make sense, make money, make a difference, make a decision, make a mistake, make way, make a profit, make contact, make progress, make use, make a point, make a statement, make amendmends, make a living, make a film, make a comeback” kabi fe’l komponentli kollokatsiyalar korpusda jami (56.47) marta ishlatilgan bo‘lib, “make sense” gazeta matnlarida eng ko‘p qo‘llangan kollokatsiya hisoblanadi (11.36). “Make sense” verb+noun kollokatsiyasining “broadsheet” gazetalari matnlarda keng qo‘llanishining asosiy sababi, uning lingvistik va pragmatik jihatlaridan kelib chiqadi. Ushbu kollokatsiya, asosan, matnning mazmunini tushuntirish yoki mantiqiy izoh berish maqsadida ishlatiladi. “Broadsheet” gazetalari, o‘zining jiddiy va ilmiy yondoshuviga ko‘ra, o‘quvchilarga aniq va mantiqiy ma’lumot taqdim etishga intiladi. “Isaac Newton was a genius - the man who made sense of the world and of the universe, brought order to chaos and uncertainty, darkness to light.” (The Guardian. 2013-yil, aprel) gapida “make sense” kollokatsiyasi “Isaak Nyuton — butun olam hamda koinotni mohiyatiga yetgan, tartibsizlik va noaniqliklarni tartibga solgan, zulmatga nur olib kirgan daho edi.” “biror narsani mohiyatiga yetmoq, anglamoq” degan ma’noni anglatib, ish-harakat bajaruvchisi shaxs hisoblanadi. Quyidagi misolda esa “Coronaviruses are endemic to the region, and it makes sense to site a research institute there.” (The Times. 2021-yil, iyun) gapning egasi “soxta” “it” olmoshi bo‘lib, u alohida mustaqil tarjima qilinmaydi, balki o‘zidan keyin kelgan kesimni sintaktik jihatdan to‘ldirib keladi. Misolda “Koronaviruslar ushbu mintaqada doimiy uchrab turishi, va u yerda tadqiqot institutini joylashtirish mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi haqida xabar berilgan. Bunda “make sense” kollokatsiyasi “mantiqan to‘g‘ri bo‘lmoq” degan mazmun kasb etgan. Demak, ushbu yuqori chastotali kollokatsiya gazeta matnlarida konteksga bog‘liq holda turli ma’nolarda ishlatilishi mumkin. Gazeta korpusida quyidagi “make a sketch(0.01), make a snack (0.01), “make a guess (0.02), make a resolution(0.03), make a request (0.13), make a presentation (0.13), make a connection (0.17), make a sound (0.18), make coffee (0.18), make trouble (0.19), make war (0.20), make a copy (0.024), make a will (0.31)” kollokatsiyalar eng past chastota ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, umumiy hisobda 1.584 ni tashkil etadi. “Make a snack” yoki “make coffee” kabi kollokatsiyalar shaxsiy va kundalik faoliyatlarga taalluqlidir. Gazetalar asosan hukumatlar yuritayotgan siyosatga oid voqealarni yoritishga qaratilgan bo‘lgani uchun, bunday shaxsiy faoliyat turlari kamroq tilga olinadi. Masalan, “make war” salbiy bo‘yoqdor kollokatsiyalardan biri sanaladi. Gazetalar asosan obyektiv va neytral uslubda yozilganligi bois bu iboraga deyarli murojaat qilinmaydi. Bundan tashqari, u allaqachon eskirib bo‘lgan hamda muomaladan to‘liq chiqib ketish arafasida. Neytral tonni saqlash uchun jurnalistlar odatda “declare war” yoki “initiate military action” singari muqobil variantlardan keng foydalanishmoqda. “For once, we are able to make a guess at the effects for two tax years both 1993-94 and 1994-95, because the chancellor announced so many changes that are to take effect in the following year.” (Sunday Times. 1993-yil, mart) misoldagi “make a guess” kollokatsiyasi o‘z tabiatiga ko‘ra subyektiv va noaniq ifoda shakllariga ega. U taxmin qilishni, ishonchli ma’lumotga tayangan holda emas, balki biror narsa haqida shunchaki fikr yuritishni bildiradi. “Broadsheet” gazetalarda esa aniq, dalillarga asoslangan, ishonchli ifodalar ustuvor bo‘ladi.

“Give+noun” hamda “Do+noun” kombinatsiyalari orqali yasalgan kollokatsiyalar chastota hisobiga ko‘ra jadvalning so‘nggi o‘rinlarini band qilishdi (mos ravishda 59 (0.005%) ga 30 (0.0025%), ya’ni “Give+noun” kollokatsiyalar “Do+noun” kollokatsiyalardan deyarli 1 barobar ko‘proq ishlatilgan. “Give evidence, give birth, give way, give the impression, give rise, give a

chance, give advice, give the opportunity, give priority, give hope, give a speech, give credit” yuqori chastotali fe’l komponentli kollokatsiyalar ekanligi qayd etildi hamda ular umumiy korpusda 39.18 marta ishlatilgan bo‘lsa, “do business, do work, do juctice, do research, do harm, do damage, do time” 10.32 marta chastota ko‘rsatkichini qayd etdi. “Mr Major also has said that all serving Government ministers will give evidence to the inquiry if invited.” (The Daily Telegraph. 1993-yil, mart) (“Shuningdek, Janob Major, agar taklif qilinsa, hukumatda xizmat qilayotgan barcha vazirlar tergovda guvohlik berishlarini ta’kidladi.”) misolida eng yuqori chastotali “give evidence (guvohlik bermoq, dalil keltirmoq)” kollokatsiyasi hukumat darajasidagi siyosiy vaziyatni izohlashda ishlatilmoqda. “The truth is, 70% of households in the UK do business with us; that is distributed pretty equally across socioeconomic groups,” he says. (The Guardian. 2013-yil, avgust) bu gapda esa “do business” fe’l komponentli kollokatsiyasi Birlashgan Qirollikda sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar haqida ma’lumot berishda ishtirok etmoqda. Har ikki misolda ham yuqori chastotali kollokatsiyalar vaqtli matbuotda yoritilayotgan muhim siyosiy va iqtisodiy axborotlarni aniq va ravon tilda ifodalashga xizmat qilgan.

“Give+noun” kollokatsiyalarini “Do+noun” kollokatsiyalariga nisbatan ko‘proq chastotaga ega ekanligiga, birinchidan, korpus bazada yuqori chastotali kollokatsiyalar soni “Do+noun” qaraganda 5 taga ko‘p ekanligi (12/7), ikkinchidan, “Give+noun” kombinatsiyasi yordamida yasalgan yuqori chastotaga ega kollokatsiyalarning aksariyati “Do+noun” kollokatsiyalarga taqqoslaganda ko‘proq publisistik uslubga xosligi masalan, “give evidence, give way, give the impression, give rise, give a chance” asosiy sabab sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Gazeta matnlari korpusida eng kam qo‘llangan “give a ride, give a tip, give a look, give a push, give a description, give a present” singari kollokatsiyalar (0.14), “do translation, do the laundry, do the cleaning, do practice, do a plan, do hair” kollokatsiyalari esa umumiy 0.77 chastotani ko‘rsatdi. Demak, har ikki turdagi kollokatsiya sanoq jihatdan bir xil 6 tani, biroq chastota jihatdan “Do+noun” kollokatsiyalar “Give+noun” kollokatsiyalarni ortda qoldirdi. Bizningcha, bunday natija olinishiga sabablardan biri “Do+noun” kombinatsiyali kollokatsiyalar yasalishida bevosita ishtirok etuvchi “node” ko‘pincha “bajarmoq, qilmoq” (“do translation”) degan ma’noni anglatishidadir. “Give+noun” kollokatsiyalarida esa “node” har doim ham “bermoq” degan ma’no anglatavermaydi misol uchun, “give a look” kollokatsiyasi xuddi “have/take a look” singari “qaramoq” degan ma’noni anglatmoqda.

Ba’zan hukumat gazetalarida ham og‘zaki nutqqa oid kollokatsiyalar uchrab turadi. Masalan, “She plays pregnant cabbie Jeanette who gives a ride to his character, Mick Carter - but he then has to take her to hospital when she goes into labour.” (The Sun. 2021-yil, iyun) gapidagi “give a ride” (“mashinada eltib qo‘ymoq”) iborasi biror kino yoki serialdagi rol ijrosi haqida ketayotganligi tufayli katta ehtimol bilan rasmiy gazeta matnidan o‘rin olgan bo‘lib, bunday holatlar kamdan kam kuzatiladi. Xuddi yuqoridagi ibora singari “do translation” kollokatsiyasining ham korpus chastotasi shu darajada pastki, u deyarli gazeta matnlarida uchramaydi. Mabodo uchragan taqdirda ham ko‘pincha intervyulardan ko‘chirib olingan bo‘ladi. “It was a lot of work - I did translation and research - but it was quite glamorous.” (The Times. 2013-yil, sentyabr) misolidan biror shaxs intervyu davomida jurnalistlarning savollariga javob qaytarayotganligini payqash mumkin.

XULOSA

Korpus lingvistik tadqiqotlar hozirgi zamon tilshunosligining eng ishonchli, empirik va obyektiv yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Gazeta matnlari korpusi va ularda faqatgina fe’l komponentli kollokatsiyalarning konkordans tahlil usuli orqali dastlab umumiy, so‘ngra yuqori va quyi chastotalarni statistik jihatdan tadqiq etildi hamda kollokatsiyalarning real vaqtda qanchalik tez-tez qo‘llanishi aniqlandi. Bu esa subyektiv mulohazalardan chekingan holda konkret obyektiv gazeta korpus bazasi bilan ishlash imkonini berdi. Shuningdek, 1993-2021-yillar oralig‘ida chop etilgan gazeta matnlarining korpus tahlili fe’l komponentli kollokatsiyalarning dinamikasi XX-XXI qay tarzda o‘zgarganligini kuzatish imkoniyatini yaratdi. Fe’l komponentli kollokatsiyalarning korpusdagi chastotasiga orqali ularning qaysi auditoriyaga ko‘proq mosligi hamda stilistik

bo‘yoqdorligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ackermann, K. & Chen, Y. H. (2013). Developing the Academic Collocation List (ACL) –A corpus-driven and expert-judged approach. Journal of English for Academic Purposes, 12(4), pp. 235-247.

2. Anthony, L. (2020). AntConc (Version 3.5.9) [Computer Software]. Tokyo, Japan: Waseda University. Available from http: https://www.laurenceanthony.net/software/antconc/

3. Bennett, G. R. (2010). Using corpora in the language learning classroom: Corpus linguistics for teachers. Ann Arbor, MI: Michigan University Press.

4. Benson, M., Benson, E. & Ilson, R. (2010). The BBI combinatory dictionary of English: Your guide to collocations and grammar (3rd ed.). Amsterdam: John Benjamins.

5. Coxhead, A. (2000). A new academic wordlist. TESOL Quarterly, 34(2), pp. 213-238.

6. Davies, M. (2008–). The Corpus of Contemporary American English (COCA). https://www.english-corpora.org/coca/

7. Demir, C. (2017). Lexical collocations in English: A comparative study of native and non-native scholars of English, Journal of Language and Linguistic Studies, 13(1), pp. 75-87.

8. Jones, S., & Sinclair J. McH. (1974). English lexical collocations. Cahiers de Lexicologie, 24, 15-61.

9. Henriksen, B. (2013). Research on L2 learners' collocational competence and development – A progress report. In C. Bardel, C. Lindqvist, & B. Laufer (Eds.), Vocabulary acquisition, knowledge and use: New perspectives on assessment and corpus analysis (pp. 29-56).

10. Hill, J. (2000). Revisiting priorities: From grammatical failure to collocational success. In M. Lewis (Ed.), Teaching collocation: Further development in the lexical approach (pp. 47-69). London: Commercial Colour Press Plc.

11. Kilgarriff, A., Rychlý, P., Smrž, P., & Tugwell, D. (2004). The Sketch Engine. In Proceedings of the 11th EURALEX International Congress, pp. 105–116.

12. Lewis, M. (Ed.). (2000). Teaching collocation: Further development in the lexical approach. Oxford: Oxford University Press.

13. Macintosh et al. (2019). Oxford Collocations Dictionary for Students of English. Oxford: Oxford University Press)"

14. Molavi, A., Koosha, M., & Hosseini, H. (2014). A Comparative Corpus–based Analysis of Lexical Collocations Used in EFL Textbooks, Latin American Journal of Content and Language Integrated Learning, 7(1), pp. 66-81.

15. Nation, I. S. P. (2001). Learning vocabulary in another language. Cambridge: Cambridge University Press.

16. Nelson, M. A. (2000). Corpus-Based study of business English and business English teaching materials. (Electronic version). Unpublished PhD. Thesis. Manchester: University of Manchester.

17. Newman, A. (1988). The Contrastive Analysis of Hebrew and English Dress and Cooking Collocations: Some Linguistic and Pedagogic Parameters. Applied Linguistics, 9(3), 293-305.

18. Scott, M. (2012). WordSmith Tools (Version 6). [Computer Software]. Liverpool, UK: Lexical Analysis Software.

19. Trinant, K. & Kijpoonphol, B. (2021). Lexical collocations in a sample corpus of tourism research articles (SCTRA). NKRAFA Journal of Humanities and Social Sciences, 9, pp. 94–108.

20. Trinant, K. & Yodkamlue, B. (2019). Lexical Collocations in a Sample Corpus of Nursing Research Articles (SCNRA), 13(1), pp. 45-72

21. West, M. (1953). A general service list of English words. London: Longman.

“OYDINDA YURGAN ODAMLAR” QISSASIDA DINIY MAROSIMLAR TASVIRI

Sharipova Ma’mura Sharipovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Adabiyotshunoslik:adabiyotshunoslik nazariyasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar”qissasi kompozitsiyadagi diniy marosimlar poetik ifodasiga e’tibor beriladi, xususan, Hayit, Laylat-ul Qadr tasviri bilan birgalikda muayyan tarixiy shaxslar talqiniga ahamiyat qaratiladi. Asar kompozitsiyasida ularning mohiyati va o‘rni bevosita yuqori ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: diniy obraz, motiv, marosim, irim-sirim, Qurbon hayiti, Laylat-ul Qadr, Xizr (a.s).

IMAGE OF RELIGIOUS CEREMONIES IN THE STORY «PEOPLE WALKING ON THE MOON»

Sharipova Ma’mura Sharipovna,
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Literary Studies: Theory of Literary Studies, 1st year master’s student

Аннотация. В данной статье уделяется внимание поэтическому выражению религиозных ритуалов в композиции рассказа Тогай Мурада «Люди, идущие по Луне», в частности, наряду с образом Хайита, Лейлат-уль-Кадра подчеркивается трактовка отдельных исторических личностей. В композиции произведения раскрывается, что их сущность и место находятся непосредственно выше.

Ключевые слова: религиозный образ, мотив, ритуал, ритуал, Курбан-Байрам, Ляйлат-уль-Кадр, Хизр (а.с.).

ОБРАЗ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕРЕМОНИИ В ПОВЕСТИ «ЧЕЛОВЕКИ, ХОДЯЩИЕ ПО ЛУНЕ»

Шарипова Мамура Шариповна,
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, Литературоведение: теория литературоведения, магистрант 1 курса

Abstract. In this article, attention is paid to the poetic expression of religious rituals in the composition of Togay Murad’s story «People Walking in the Moon», in particular, the interpretation of certain historical figures is emphasized along with the image of Hayit, Laylat-ul-Qadr. In the composition of the work, it is revealed that their essence and place are directly higher.

Key words: religious image, motif, ritual, ritual, Kurban-Bayram, Laylat-ul-Qadr, Khizr (a.s.).

Kirish. Badiiy adabiyotda diniy mavzudagi asarlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy adabiyot namunalarida islom dini bilan bog‘liq motivlarning g‘oyaviy salmog‘i mavjud. Zamonaviy nasriy asarlarda ham ijodkorlarning e’tiqod, dunyoqarash borasidagi tasavvurlari asarlari negizida singdirib boriladi. Tog‘ay Murod qissalarida ham insonning tirilik olamidagi vazifasi, foniylik va boqiylik borasidagi tasavvurlari muayyan voqealar zamirida anglab boriladi.

Asosiy qism. Diniy marosim esa har bir shaxsning e’tiqodi, aqidasidan kelib chiqqan holda, har bir dinda turli xil marosimlarni o‘tkazishdir. Diniy marosim aslida shu dinga e’tiqod qiluvchilarning toat-ibodatadir.Asarda islomiy diniy marosimlar aniqlik va izchillikda badiiy ifodalangan. Musulmon ahli uchun muqaddas hisoblangan bayramlardan biri bu hayit bayramidir. Dastlab hayit bayramining kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak. “Hayit” so‘zi arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, “iyd” – bayram, ma’nosini bildiradi. Islom an’anasiga ko‘ra ikkita hayit

bayram sifatida nishonlanadi: Ramazon hayiti (Iyd as-sig‘ar, Iyd al-fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-kabir, Iyd al-adho). Musulmon olamida hayit kunlari oy taqvimi asosida belgilanadi. Qurbon hayiti zulhijja oyining o‘ninchi kuniga to‘g‘ri keladi. Qurbonlik hijriy ikkinchi yil vojib bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin uning tarixi ancha uzoqlarga – Ibrohim alayhissalom zamonlariga borib taqaladi va u zotdan bizga qolgan amallardandir. Bu haqda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Qurbonlik qilinglar! Albatta, u otamiz Ibrohim alayhissalomning sunnatlaridir”, deganlar. Iyd al-Adha yoki arablar uni Qurbon hayiti deb atashgan - Haj tugashini nishonlash sifatida tanilgan. Bu kunda musulmonlar Ibrohim payg‘ambarning qurbonligini eslashadi, masjidlarga boradilar va kambag‘allarga va nochorlarga sadaqa tarqatadilar. Bu insonning Xudoga bo‘lgan sadoqati va Allohning rahm-shafqatini eslatuvchi asosiy diniy bayramlardan biridir. Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) har yili musulmonlarning Makkaga haj safari tugashi munosabati bilan nishonlanadi. Bayram Ramazon hayiti bayramidan 70 kun o‘tgach amalga oshiriladi. Urf-odatlarga ko‘ra, har bir musulmon qo‘chqor, sigir yoki boshqa chorva mollarini qurbon qilishi kerak, shu bilan Ibrohimning qilgan ishini yodga oladi. “Oydinda yurgan odamlarda” ham xuddi shunday diniy marosimlardan dastalab Qurbon hayiti tilga olinadi. Yozuvchi shunday deb ta’riflaydi: “Qurbon hayit bo‘ldi. Ahli mo‘minlar qurbonlik qildi. Jonliq so‘yib, qon chiqardi. Qo‘li kalta mo‘minlar qassobdan go‘sht oldi. Ahli mo‘minlar hayitlik kiydi. Bisotida bor ohorli kiyim kiydi. Bisotida yo‘qlar ko‘hna bo‘lsa-da, ozoda kiyim kiydi. Ahli mo‘minlar orolandi. Yuzlariga xushbo‘y-xushbo‘y moylar surtdi. Qoshlariga o‘sma tortdi. Ko‘zlariga surma surdi. Qo‘llariga xino qo‘ydi. Ko‘kraklariga olqor taqdi, Mo‘minlar bir-birlarini uyiga hayitlab bordi. Kuyov qaylig‘iga hayitlik yubordi, qayliq kuyoviga hayitlik yubordi”. Tog‘ay Murod qisqa va aniq ta’riflarda Qurbon hayitning go‘zal manzarasini yarata olgan. Qurbon hayitida qilinishi kerak bo‘lgan sunnat va amallarni birma - bir keltirgan. Ya’ni hayit bayramida toza va yangi kiyimlarni kiyish kerakligi, agar imkoni bo‘lmasa, bor kiyimlarni toza va ozoda holda kiyilishi kerakligi, hayitda yaqinlar holidan xabar ollinish kerakligi, hattoki hayitda biror joy borilsa, boshqa yangi borilmagan yo‘ldan borilishi yana boshqa yangi yo‘ldan qaytish kerakligi sunnat amallardan ekanligi, sababi har borgan yo‘lda boshqa-boshqa insonlarni ko‘rib, ularni hayit bilan qutlashishi uchun shunday odat keltirilgan. Shu bilan birga, kelin-kuyov hayitda bir-biriga hayitlik berish udumini ham aytib o‘tilgan. Ayol-qizlarning xina qo‘yish marosimi ham bir jumlada ta’kidlab ketilgan.

Keyingi diniy motivlardan biri asardagi Laylatul-Qadr kechasining tasviridir. Laylatul-Qadr ming oydanda afzal kechalardan biri hisoblanadi. “Laylatul-qadr” so‘zining ma’nosi “belgilash”, “o‘lchash kechasi” ya’ni yil davomida turli amal, hukm, rizq, taqdir belgilanadigan kecha degan ma’noni bildiradi. Qadr kechasi Ramazon oyining so‘nggi o‘n kunligida yashiringan., uni o‘sha kunlarning toq kunlaridan izlagan afzal deyiladi. Oyisha roziyalohu anhodan rivoyat qilinganda ham: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Laylatul qadrni Ramazonning oxirgi o‘n kechasining toq (kecha)larida izlanglar”, — dedilar. Bu kechaning yana bir afzalligi musulmon ahlining muqaddas kitobi Qur’on kitobi nozil bo‘lganida. Qadr surasi 3-oyatda ham:” Laylatul Qadr ming oydan yaxshiroqdir”, deb ta’kidlangan. Qur’on nozil bo‘lgan bu kechada duolar ijobat bo‘ladi, amallarning savobi juda ulug‘ bo‘ladi. “Oydinda yurgan odamlar» asarining qimmatini yanada oshirgan jihatlardan biri asarda muqaddas kechalardan biri Laylatul-Qadr kechasining tarixi batafsil, izchillikda, ma’nolari bilan talqin qilinganidadir. Asardagi ushbu jumla Qoplonning ruhiy holati, ichki kechinmalarini, qay darajada ko‘ngli ochiq ekanligini chuqurroq ifodalaydi:

Laylat-ul Qadr har bandasanikiga-da kela bermaydi, momosi, – dedi otamiz. U kishi o‘z suygan bandalarnikiga keladi. Kimda-kim bus-butun ro‘za tutsa, ana shu bandasinikiga qadam ranjida qiladi.

Xuddi shunday momomiz va bobomiz ramazon kechalarini sanab ro‘za tutadi. Otamiz ko‘z ilmayajak kechalar, onamiz kiprik qoqmayajak kechalar bo‘ldi. Laylat-ul Qadr haqida Qur’oni Karimda bu kechaning afzalligi, qutlug‘ligi, ilohiy rahmat yog‘ilishi, juda ko‘p farishtalarning yerga tushib insonlarning ibodatini kuzatishi haqida aytilgan. Biroq asar qahramonlari ibtidoiy tushuncha ta’sirida bo‘lishgan. Laylat-ul Qadrni cho‘chitib yubormaslik uchun yo‘talmay yotgan.

Ohista-ohista gapirishgan. Tiq etmish tovush chiqarishmagan. Aslida bu kechani bedor o‘tkazib, Qur’on tilovatlar qilib, zikr va hamd qilib o‘tkazish darkor.

Tog‘ay Murod Laylat-ul Qadr kechasini dastlab lug‘aviy ma’nosidan ta’riflashni boshlaydi. Bu tunni qanday kelib qolganligini, kelib chiqish tarixini, Laylat-ul Qadrning qaysi sanada kelishini, bu kechaning xislatlarini birma-bir keltiradi. Bundan tashqari, ikki qahramonimiz bu tunni umidvorlik bilan, intiqlik bilan kutib qarshi oladi.

Xalqimiz orasida ezgu homiy sifatida tasavvur qilinuvchi Xizr obrazi mavjud. Xizr doimo insonlarga yaxshilik qiluvchi, adashgan kishilarga yo‘l ko‘rsatuvchi, hayot suvini totib ichganligi uchun abadiy umr kechiruvchi personajdir. Xizr alayhissalom mushkullarni oson qilishda Alloh Taoloning izni bilan insonlarga yordam beradilar. Qur’oni Karimning “Kahf surasi” da Xizr haqida gap boradi. Unda keltirilishicha, Muso (a.s). Allohga murojaat qilib, o‘zidan ham ilmi ziyoda kishi bor yoki yo‘qligini so‘raydi. Olloh taolo Xizr undan ilmliroq ekanligini aytadi. Muso (a.s) Xizr bilan uchrashadi. Unga hamroh bo‘lishga ruxsat so‘raydi. Xizr u nima ish qilsa, ham o‘zi aytmaguncha so‘ramasligini uqtiradi. Yo‘lda Xizr tomonidan kemaning teshilishi, bir bolani o‘ldirishi, yiqilay deb turgan devorni tuzatishi Muso (a.s)ni hayratga soladi. Sabr qilolmay, har birining sababini so‘raydi. Xizr hamrohlik shu yerda tugashini aytadi va voqealar sababini izohlaydi. Bu voqealardan Xizrga xos muhim bir sifat – yetuk ilm egasi ekanliklari oydinlashadi. Shunindek, xalq og‘zaki ijodida Xizr obrazi keng qo‘llanadi. “Alpomish” dostonining Qora baxshi Umir shoir o‘g‘li variantida bo‘g‘oz qo‘yib yuborgan Boybo‘ri bilan Boysarining tushiga Xo‘jan Xizr kiradi va Boybo‘riga qamchi bilan uzuk, ikkinchisiga uzuk beradi. Bu tushdagi ramziy belgilar ularga ato etilgan farzandlar edi. Bolalar tug‘ilganda Xo‘jan Xizr o‘zi kelib, ism qo‘yadi. Xalq qarashlariga ko‘ra, Xizr bemorlarning ham tushiga kirib ularni darddan yengil qilgan ekan. Odamlar o‘zlarining tushlariga kirib, u yoki bu narsani tuhfa qilgan oppoq soqolli nuroniy cholni Xizr deb hisoblaydilar.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida Xizr asar qahramonlarining piri, suyanchi, himoyachisi sifatida namoyon bo‘ladi. “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonlari bunga yaqqol misol. Jumladan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida Xizr Go‘ro‘g‘lining homiysi sifatida gavdalanadi.

“Oydinda yurgan odamlar” asarida ham xuddi shunday Xizr alayhissalom tilga olinadi. Adib otamizni Xizr bilan uchrashish jarayonini shunday ta’riflaydi: “Otamiz chol qo‘lini kaftlariga oldi. Chol seskanib qo‘l tortdi. Otamiz cholni tanidi: hazrati Xizr bobo! Boisi, boshmaldog‘i suyaksiz bo‘ladi!” Tog‘ay Murod Xizr alayhisallomni shunday deb ta’riflaydi: “Hazrati Xizr bobo odamzot mushkulini oson qilajak, hojatini chiqarajak ezgulik pirchi!” Qoplon otamiz ham Xizrni tanib, bilgan holatida uning ichki tug‘yoni, hislari ich-ichidan sig‘may ketadi : ” Otamiz o‘zida yo‘q quvondi! Dardiga davo topganday bo‘ldi! Entikdi! Yayradi! Ana o‘sha zot, ana! Shu zotning bir og‘iz so‘zi! Nima uchun shu zotni vaqtliroq yo‘qlamadi? Ana, oxiri o‘zlari yo‘qlab keldi!” Aslida farzand tilagi Allohdan, duolarni Alloh ijobat qiladi. Qahramonimiz oldiga Xizr bobo ikkinchi bor kelishlari edi, birinchi marta ko‘rganlarida e’tibor bermay qo‘yadi. Ushbu jumlalar shundan dalolat beradi. Xizr alayhisallomni ko‘rgan qahramonimiz u zotga o‘z dardini sochadi, bir narsa aniqki, bunday avliyo zotlarni ko‘rgan har qanday inson o‘zining mushkulini oson qilishini, o‘zining orzulari ijobatini so‘raydi. Qoplon dardini yorib-dardini yorib qo‘ya berdi:

Hazrati Xizr bovajonim! Sadag‘angiz ketayin, hazrati Xizr bovajonim, meni avf eting! Men tabib deb chopdim, folchi deb chopdim, nodonlik qildim, ko‘rlik qildim! Afv eting, hazrati Xizr bovajonim! Aslida sizni yo‘qlashim darkor edi! Hazrati Xizr bovajonim, men bir sho‘rpeshona bandaman! Tirnoqqa zorman! Eshityapsizmi, tirnoqqa zorman! Nima tilasangiz, tilang. Manavi choponimgacha sotaman, aytganingizni aytgandayin bajo keltiraman! Menga bir farzand bersangiz bo‘ldi, hazrati Xizr bovajonim!... Dunyoda qo‘li ochiq ketmayin, hazrati Xizr bovajonim! Mayli, bizga bittagina Xushvaqt bo‘lsa-da, bo‘ladi!

Ushbu so‘zlardan qahramonimizning farzandsizlik yurak bag‘rini tilib, qiynab yuborganini, farzand uchun har narsadan, har nesidan kechishga tayyor, ko‘ngli kemtikligiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz.

Xulosa. “Oydinda yurgan odamlar” asarining qimmatini oshiradigan xususiyatlar talaygina. Shulardan birinchisi, hech shubhasiz, islom dini ildizlari, xususiyatlari, fazilatlari asarga jo etilganidadir. Sababi islom dini bilan yog‘irilgan har qanday asar har qayerda ham, har qachon ham o‘z mavqeyini yo‘qotmaydi. Islom dini hamisha ezgulikni, yaxshilikni, adolatni targ‘ib qilib kelgan. Doimo xayrli amallarni da’vat qilib kelgan ushbu dinning marosimlari, udumlari ham hamisha ezgulikni, ma’rifatni targ‘ib qiladi. Shuningdek, ushbu marosimlarni asar tarkibiga kiritishdan asosiy maqsad ham o‘zbek xalqi qon-qoniga singib ketgan islom ta’limoti va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni, oila ma’naviyatiga ta’siri, halollik, pokizalik, sadoqat, vafo kabi tushunchalari islom ta’limotining asosi va tarbiyaviy ahamiyatga ekanligini ham ko‘rsatishdir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolar tarjimasi. – Toshkent. – B. 483.

Зиёвуддин Раҳим. Ислом ақидаси. – Тошкент. 2017-2018. – Б. 176.

Madvaliev A. O‘zbek tilining izohi lug‘ati. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – B. 34.

Po‘lkan shoir. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. – Toshkent.Fan, 1967. – B. 180.

Qorabaxshi Umir shoir o‘g‘li. Alpomish dostoni. – Toshkent. Fan, 2018. – B. 502.

Фозил Йўлдош ўғли. Алпомиш. – Тошкент. Шарқ, 1998. – Б. 397.

Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent, Nurafshon, 2022. – B. 191 .

Karimov N, Mamajonov S, Nazarov B, Normatov U, Sharafiddinov O, XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent. O‘qituvchi, 1999. – B.516.

Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent. 2006. – B.103.

Mirzaev T, Turdimov Sh, Jo‘raev M, Eshonqulov J, Tilavov. O‘zbek folklori. – Toshkent. Tafakkur-bo‘stoni, 2020. – B. 238.

Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent. 2018. – B.489.

Mehriddinov A, Abdumuminov T. Diniy marosimlar va ularning xalqlar hayotida tutgan o‘rni // Rossiyskiy universtiteti drujbi narodov. – Rossiya. 2022. – B. 3.

MEDIA DISKURSDA KO‘CHIM VA ULARNING TURLARI

Shokirova Xavasxon Nurmamatovna
Namangan davlat pedagogika instituti Filologiya kafedrasi v.b.professori

Muhammadjonova Muxlisa Akmaljon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada media diskursida ko‘chim vositalarining roli va ularning funksional-tasviriy imkoniyatlari tahlil etiladi. Tilning semantik imkoniyatlaridan biri sifatida ko‘chim (transfer) — biror tushuncha yoki ma’noni boshqa tushuncha yoki ma’no orqali ifodalash vositasi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot doirasida ko‘chimning asosiy turlari — metafora, metonimiya, sinekdoxa va personifikatsiyaning media matnlarida qo‘llanishi misollar asosida o‘rganiladi. Ayniqsa, bunday stilistik vositalarning media diskursda xabarni obrazli, ta’sirchan va esda qoladigan shaklda yetkazishdagi roli alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ko‘chim, media diskurs, metafora, stilistik vositalar, metonimiya, sinekdoxa, til vositalari.

МЕТАФОРЫ И ИХ ВИДЫ В МЕДИАДИСКУРСЕ

Шокирова Хавасхон Нурмаматовна,
и.о. профессора кафедры филологии Наманганского государственного педагогического института

Мухаммаджонова Мухлиса Акмалжон кызы,
студентка 1-го курса направления «Узбекский язык и литература», Наманганский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье анализируется роль приемов переноса в медиадискурсе и их функционально-описательные возможности. Перенос, как одна из семантических возможностей языка, трактуется как средство выражения одного понятия или значения через другое понятие или значение. В исследовании на примерах рассматривается использование основных видов переноса — метафоры, метонимии, синекдохи и олицетворения — в медиатекстах. В частности, подчеркивается роль таких стилистических приемов в передаче сообщения в образной, эффективной и запоминающейся форме в медиадискурсе.

Ключевые слова: перенос, медиадискурс, метафора, стилистические приемы, метонимия, синекдоха, языковые приемы.

METAPHORS AND THEIR TYPES IN MEDIA DISCOURSE

Shokirova Xavaskhon Nurmamatovna,
Acting Professor of the Department of Philology, Namangan State Pedagogical Institute

Muhammadjonova Muxlisa Akmaljon qizi,
1st-year student of Uzbek Language and Literature, Namangan State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the role of transfer devices in media discourse and their functional-descriptive capabilities. Transfer, as one of the semantic capabilities of language, is interpreted as a means of expressing one concept or meaning through another concept or meaning. The study examines the use of the main types of transfer - metaphor, metonymy, synecdoche and personification - in media texts on the basis of examples. In particular, the role of such stylistic devices in conveying a message in a figurative, effective and memorable form in media discourse

is emphasized.

Keywords: transfer, media discourse, metaphor, stylistic devices, metonymy, synecdoche, language devices.

KIRISH. Til insoniyat tafakkuri va muloqotining asosiy vositasi bo‘lib, u orqali inson o‘z fikr-mulohaza va kechinmalarini ifoda etadi, ijtimoiy aloqalar o‘rnatadi hamda borliqni anglaydi. Tilning mazmun ifodalashdagi boy imkoniyatlari ichida badiiylik va ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi vositalar alohida o‘rin tutadi. Shulardan biri – ko‘chim (transpozitsiya) hodisasidir.

Ko‘chim — bu tilning semantik imkoniyatlarini kengaytiruvchi, ma’no va obrazni bir tizimdan ikkinchisiga ko‘chirish orqali nutq ifodasining estetik va emotsional ta’sirini oshiruvchi lingvistik hodisadir. U orqali xabar mazmunan boyitiladi, obrazli va esda qolarli tus oladi. Ko‘chimlar nutqning ijodiy va ekspressiv salohiyatini oshiruvchi vosita sifatida tilshunoslikda, ayniqsa, stilistika va diskurs tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy kommunikativ kontekstlarda, xususan, media diskursi – reklamalar, axborot dasturlari, jurnalistika va badiiy matnlarda ko‘chimlardan keng foydalaniladi. Bu hodisaning keng qo‘llanilishi matnning semantik va stilistik darajada yanada kuchli ta’sir ko‘rsatishini ta’minlaydi hamda xabarni esda qolarli, obrazli va emotsional jihatdan boy qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Diskurs va diskurs tahlili tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi, chunki ular kommunikatsiya jarayonlarini, ijtimoiy interaktsiyalarni va madaniy qadriyatlarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Diskurs, til va gaplarning ma’no va kontekstlarini o‘rganish bilan birga, ularning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni qanday aks ettirishi va shakllantirishi haqida batafsil ma’lumot beradi. Diskurs tahlili esa til orqali ifodalangan ijtimoiy kuchlar, ideologiyalar va madaniyatni tahlil qilish uchun metodologik yondashuvni taqdim etadi.O‘zbek tilida ,diskurs va diskurs tahlili, til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘lanishni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tilshunoslikda bu hodisa semantika, stilistika va kognitiv tilshunoslik doirasida o‘rganiladi.

Struktur tilshunoslik: ma’no ko‘chishini leksik darajadagi o‘zgarish sifatida ko‘radi.

Kognitiv tilshunoslik: ma’no ko‘chishini inson tafakkurining aks etishi sifatida baholaydi. Masalan, Lakoff va Jonsonning “Metaphors We Live By” (1980) asarida metafora inson tafakkurining aks etishi sifatida talqin qilinadi.

Jorj Lakoff – tilshunoslik va kognitiv fanlarda metaforaning ahamiyatini chuqur tahlil qilgan olimlardan biri. Uning “Metaforalarni tushunish” asari bu sohada muhim o‘rin egallaydi. Lakoffning fikricha, metafora faqat tilning badiiy vositasi emas, balki bizning dunyo haqida fikrlash tarzimizning asosiy qismi. U biz kundalik hayotda ko‘pgina metaforalarni ishlatishimizni ta’kidlaydi va bu metaforalar bizning tushunchamiz va xulqatvorimizni shakllantirishga yordam beradi. U o‘z tadqiqotlarida metaforaning “kuch” tomoniga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, metafora orqali biz abstrakt tushunchalarni tushunish uchun konkret va tanish obrazlardan foydalanamiz. Masalan, “vaqt puldir” kabi metafora vaqtni tang deb tushunishga va uni tejamli ishlatishga yordam beradietafora inson tafakkurining asosi sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek,Teun van Dijk “Ideologiya va diskurs” kabi asarlarda tilning ijtimoiy va siyosiy kontekstdagi roli haqida yozgan. Uning tadqiqotlari media diskursda ko‘chimning ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Van Dijk bu asarida tilning siyosiy ideologiyalar va g‘oyalarni shakllantirishda qanday rol o‘ynashini o‘rganadi. Uning fikricha, til faqat ma’lumot uzatish vositasi emas, balki dunyo haqida bizning tushunchamizni shakllantirishga yordam beruvchi qudratli quroldir. U o‘zining tadqiqotlarida tilning “kuch” tomoniga e’tibor qaratadi va til orqali qanday qilib biror guruhning manfaati himoya qilinishi mumkinligi haqida o‘ylaydi. Uning fikricha, ko‘chim bu “kuch”ni ko‘rsatish va to‘plashning muhim vositalaridan biridir.

MUHOKAMA

Media diskursda ko‘chim tildagi biror tushunchani yoki ma’noni boshqa bir tushunchaga yoki

ma’noga ko‘chirish vositasi hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda media diskursda ko‘chim keng qo‘llaniladi va uning turlari orqali xabarni ta’sirliroq, ijodiyroq va esda qolarliroq qilish mumkin. Media diskursda tilning ijodiyligi ko‘chim orqali tilning imkoniyatlari kengaytiriladi va xabarni ko‘proq ijodiy qilishi mumkin. Media diskursda ta’sirchanlik ko‘chim xabarga hissiy rang beradi va tomoshabinlar diqqatini jalb qiladi. Esda qolish: Ko‘chim xabarning esda qolishiga yordam beradi, chunki u xabarni o‘ziga xos va esda qolishli qiladi.

Ko’chimning turlari:

Metafora – yunoncha “ metaphora” (ko’chirish) so’zidan olingan bo’lib, bir predmet shaklining, belgisining, harakatining o’xshash tomonini boshqasiga ko’chishi. Metafora orqali badiiy tasvirni kuchaytirish, ifodalilikni oshirish kabi maqsadlar amalga oshiriladi.

Shakliy o’xshashlik asosida: odamning og’zi (o’z ma’nosida)

tandirning og’zi (ko’chma ma’noda)

Belgi o’xshashliklar asosida: qattiq sovuq (o’z ma’noda)

qattiq uyqu (ko’chma man’noda)

Harakat o’xshashliklar asosida: Mungli kuy yurakni tirnar erdi.

Sarvar do’stiga ko’nglini ochdi.

Metonimiya – yunoncha so’z bo’lib, “qayta nomlash”, “nomnii o’zgartirish”, “yangi nom qo’yish” degan ma’nolarni anglatadi. Narsa va hodisa lar o’rtasida makon va zamondagi o’zaro aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko’chishi. Masalan, Navoiyni qo’lga oldim. Zal oyoqqa turdi. U bugun kir yuvdi.

Metonimiya asosida ma’no ko’chishning asosiy yo’llar quyidagilar:

Biror joyni yoki davrni aytib, o’sha joydagi yoki o’sha davrdagi odamlar nazarda tutilganda:

Zal oyoqqa turdi.

Fidel Kastroning o’limiga butun Kuba aza tutdi.

Navoiy qabrida butun Hirot yig’ladi.

Bolam, qiyinchilikni sen ko’rmading, urush yillari ko’rdi.

Mahsulotning, asarlarning, gazeta-jurnallarning, transportlarning, o’rin-joylarning nomi aytilib, nimaligi tushunilsa:

“Snikers”ni qachon berasan (shirinlik)

“Taylalhol” dan bering. (dori vositalari)

“Besh bolali yigitcha” kelmadimi? (asar)

“Rossiya” ga qanday boriladi? (mehmonxona)

Biror shaxsni kiyimi yoki ko’p takrorlaydigan so’zi orqali tushilsa:

Bu asarda qipchoqlar va qorachoponlar urushi berilgan.

Hoy qizil shapkacha, qayoqqa ketyapsan?

“Shu-shu” nikiga boramizmi?

Sinekdoxa – yunoncha so’z bo’lib, “birgalikda anglash”, “nazarda tutish” degan ma’noni bildiradi. Bu ko’chim orqali butunni yoki butun orqali bo’lakni ifodalash mumkin.

Butun bilan qismini ifodalash: Besh qo’l barobar emas.

Olma archiyotib qo’lini kesib oldi.

Qism orqali butunni ifodalash: Ertalabdan buyon tuz totganim yo’q.

Shu bilan tuyoq bilan oltita bolani boqdim.

Osmonga termilar milloin ko’zlar.

Vazifadoshlik (Funksiyadoshlik) – bu ko’chimda ham o’xshashlik bo’ladi. Lekin bu o’xshashlik narsa va hodisa o’rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisini tushuniladi.

Odamning oyog’i (o’z ma’nosida)

Stolning oyog’i (ko’chma ma’noda)

Chiroq piligini pasaytirdi. (o’z ma’noda)

Ko’chalarni chiroqlar yop-yorug’ qilib turibdi. (ko’chma ma’noda)

Media diskursda ko‘chimning roli:

Ta’sirchanlik: ko‘chim xabarni ta’sirli qilishga yordam beradi, chunki u xabarni ijodiyroq va esda qolishliroq qiladi. Ko‘chimlarning asosiy vazifalaridan biri xabarni kuchli va ta’sirli qilishdir. Chunki ular real voqelikning yangi, g‘ayritabiiy, ko‘p qirrali obrazlarini yaratish orqali odamlarning diqqatini tortadi, xotiraga mustahkam o‘rnatadi.

Ijodiylik: ko‘chim tilning imkoniyatlarini kengaytiradi va xabarni ko‘proq ijodiy qilishga yordam beradi. Ko‘chimlardan foydalanish quyidagi yo‘llar bilan xabarning ijodiyligiga xizmat qiladi: yangi, nostandart obrazlar yaratish. Ko‘chimlar real narsalarni yangicha, nostandart tarzda tasvirlashga imkon beradi.

XULOSA. Zamonaviy media diskursda til vositalarining samarali ishlatilishi, ayniqsa ko‘chim (ma’no ko‘chishi) birliklarining faol ishtiroki, kommunikativ jarayonning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Bunday ko‘chim vositalari orqali axborotning nafaqat semantik jihatdan yetkazilishi, balki uning ta’sirchanligi, emotsional-jazaviy yuklamasi va badiiy-estetik qimmati ham kuchayadi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa va personifikatsiya kabi ko‘chim turlari media matnlarini obrazli, esda qolarli va o‘quvchiga yaqinlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari xabarlarni yaratishda bu vositalardan keng foydalanadi, chunki ular real voqelikni ko‘proq emotsional kontekstda tasvirlashga yordam beradi.

Ko‘chimning qo‘llanilishi orqali jurnalistik uslub poetik til unsurlariga yaqinlashadi, bu esa nafaqat stilistik rang-baranglik yaratadi, balki xabarni muayyan ideologik yoki ijtimoiy pozitsiyadan taqdim etish imkonini ham beradi. Shunday qilib, media diskursda ko‘chim nafaqat badiiy bezak sifatida, balki pragmatik va semantik yuklamaga ega bo‘lgan muhim lingvistik mexanizm sifatida e’tirof etiladi. Bu esa uni zamonaviy tilshunoslik va media tili tadqiqotlarida alohida o‘rganilishini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Roman Jakobson. Til to‘g‘risidagi asoslar.(1960).

G‘.Z.Yo‘ldoshev- «Umumiy tilshunoslik»

George Lakoff. Metaforalarni tushunish. (1980).

R.SAYFULLAYEVA, B.MENGLIYEV, G.BOQIYEVA, M.QURBONOVA, Z.YUNUSOVA, M.ABUZALOVA. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent. 2009.

Yo’ldoshev M. “Badiiy matn lingvopoetikasi” O’zbekiston Respublikasi Fanlar AKADEMIYASI “Fan” nashriyoti. Toshkent-2008.

Shokirova X. O‘zbek tilida kesimlik kategoriyasi: shaxs aktanti va uning nutqiy voqelanishi. Filol.fan. nomz. diss. – Toshkent, 2019. – 127 b.

Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturasi (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida). Filol.fan. doktori diss. – Farg‘ona, 2022. – 240 b.

Shokirova X. Savodxonlik asoslari.– Farg‘ona, Classic. 2023.– 174 b.

Shokirova X. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. – Farg‘ona, Poligraf Super servis. 2023. – 268 b.

Shokirova X. Mazmuniy sintaksis. – Farg‘ona, Classic. 2025. – 206 b.

Shokirova Kh. The issue of speech act in pragmatics. Theoretical & Applied Science.2020.06. DOI: 1015863/TAS. SOI:1.1/ TAS.

Shokirova X. Kesimlik kategoriyasi va shaxs aktanti. – Toshkent, 2012. – 85 b.

Shokirova X. Ta’limda innovatsion nexnologiyalar. – Toshkent, 2013. – 25 b.

Шокирова Х. Семиотик модел концепцияси. – Қўқон давлат педагогика институти Илмий хабарлари. 2024, 4-сон. – 1840 б.

Khavaskhon Shokirova. The Semiotic System and Structure of Language.Emergent: Journal of Educational Discoveries andLearning (EJEDL)Vol:4, No 1, 2025, Page: 1-5.

https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/45284/28812/48934

GLORIYA YEVANGELINA ANZALDUA ASARLARIDA CHIKANO XALQI VA MADANIYATINING NAMOYON BO’LISHI

Botirova Nilufar Furkatovna
Buxoro Davlat Pedagogika Instituti o’qituvchisi

Annotatsiya: Gloriya Yevangelina Anzaldua Chikana yozuvchisi o’zining asarlarida jamiyatdagi ko’pgina muammolarni turli qarashlar bilan olib chiqqan. Asarlarining ko’pchiligi 2 til: ingliz va ispan tilida yozilgan bo’lib, o’tgan asrda Amerikada yashagan Chikano xalqining turmush tarzi va qiyinchiliklarini aks ettiradi.

Kalit so’zlar: feminizm, yangi mestiza, marginal madaniyat, nepantla, subaltern.

Аннотация: Глория Евангелина Анзалдуа Чикана писательница в своих произведениях поднимала многие проблемы общества с разных точек зрения. Большинство его работ написано на 2 языках: английском и испанском, отражая образ жизни и проблемы народа чикано, жившего в Америке в прошлом веке.

Ключевые слова: феминизм, новые метисы, маргинальная культура, Непантла, субальтерн.

Abstract: Gloria Evangelina Anzaldua Chicana writer, raised many problems of society from different points of view in her works. Most of his works are written in two languages: English and Spanish, reflecting the lifestyle and problems of the Chicano people who lived in America in the last century.

Keywords: feminism, new Mestizos, marginal culture, nepenthism, subaltern.

Gloriya Yevangelina Anzaldua, amerikalik Chikana feminizmi, madaniy nazariya va kvir nazariyasi bo‘yicha olima, 1942-yil 26-sentyabrdan 2004-yil 15-maygacha yashagan. Uning Meksika va Texas chegarasida o‘tgan bolaligi uning eng mashhur kitobi «Borderlands/La Frontera: The New Mestiza» (1987) uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. U o‘z yozuvlariga ijtimoiy va madaniy jihatdan chetga surilgan jamiyatlarda o‘sgan tajribalarini singdirgan. Shuningdek, u «Nepantla», “yangi qabilachilik” va “ruhiy faollik” g‘oyalari bilan bir qatorda chegaralar atrofida paydo bo‘ladigan marginal, oraliq va gibrid madaniyatlarni yaratdi. Uning mashhur asarlari orasida Cherrie Moraga bilan hammualliflik qilgan «This Bridge Called My Back: Writings by Radical Women of Color» (1981) ham bor. Uning eng mashhur asarlari Cherrie Moraga bilan hammualliflikda yozilgan “This Bridge Called My Back: Writings by Radical Women of Color” (1981), “Making Face, Making Soul/Haciendo Caras: Creative and Critical Perspectives by Women of Color” (1990) va “This Bridge We Call Home: Radical Visions for Transformation” (2002) kitoblaridir . 1987- yilda Anzaldua o‘zining yarim-avtobiografik “Borderlands/La Frontera: The New Mestiza” asarini yozdi. Bu kitob “Light in the Dark/Luz en el Oscuro: Rewriting Identity, Spirituality, Reality” (2015) nomi bilan deyarli yakunlanmagan holda nashr etildi. Uning bolalar uchun yozgan kitoblari ham bor, masalan, “Prietita Has a Friend” (1991) va “Friends from the Other Side – Amigos del Otro Lado” (1993). U shuningdek, kvir nazariya, madaniy nazariya (ayniqsa, Chikano nazariyasi) va feminizmga muhim hissa qo‘shgan. Uning asarlari Lotin-falsafasi rivojlanayotgan yo‘nalishning asosiy asarlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. “Speaking

in Tongues: A Letter to Third World Women Writers" (Til bilan gaplashish: Uchinchi dunyo ayol yozuvchilariga maktub) nomli ma'ruzasida Anzaldua ayol yozuvchilar va nazariyotchilar sonining ortishi oqibatida gender va adabiyotni adolatli tasvirlash sari harakat boshlangani haqida so'z yuritadi. U maqolasida adabiyotning dunyoda mavjud bo'lmagan narsalar o'rnini to'ldirish qobiliyatini ham ta'kidlaydi. Anzalduaning avtobiografik kitobi uning Meksika va Texas chegarasida o'sgan bolaligi haqida hikoya qiladi va shu orqali u mashhurlikka erishgan. "Library Journal" bu kitobni 1987- yilning 38 ta eng yaxshi romanlaridan biri deb tan olgan. "Borderlands" (Chegaralar) kitobi Chikano va Latino madaniyatlarida ayollarning o'rnini o'rganadi. U Chikano hayotining muhim masalalariga, jumladan, erkaklar hukmronligi, mustamlakachilik va heteronormativlikka e'tibor qaratadi. Chikano ayollarining jabrlanishi haqida samimiy tarzda yozadi va erkaklarga bo'ysunishni qonuniylashtiruvchi gender normalarini muhokama qiladi. U "yangi mestiza" tushunchasini joriy qiladi, bu esa "yangi yuksak ong" sifatida shaxsga oid ikki tomonlama normalarni yo'q qilish va g'ovalarni bartaraf etishga qaratilgan . Kitobning birinchi yarmi yolg'izlik va izolyatsiya mavzulariga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi yarmi madaniy muvozanat masalalariga e'tibor qaratadi. Anzaldua kitobida oltita turli xil ispan tili variantlaridan va ikkita turli dialektdan foydalanadi. Anzaldua o'zini chuqur ruhiy shaxs deb bilgan va umri davomida to'rtta tanadan tashqarida tajribaga ega bo'lganini da'vo qilgan . Odamlar til to'siqlari bo'lganda bu qanchalik bezovta qilishi mumkinligini bilishlari kerak, chunki Anzaldua ham yoshligida buni boshdan kechirgan. U ushbu kitobni o'z g'azabini ifodalash va boshqalarni o'z ajdodlari va madaniyati bilan faxrlanishga ilhomlantirish maqsadida yozgan. «Uch Ona» (ispancha: Las Tres Madres) – La Llorona, La Malinche va Gvadalupa xonimi – Meksika madaniyatidagi uchta muhim ayol bo'lib, Anzaldua ularni kitobining uchinchi bo'limida, «Entering Into the Serpent» asarida o'rganadi va tahlil qiladi. «Light in the Dark» Anzaldua tomonidan uning hayotining so'nggi o'n yilida yozilgan. Ushbu kitob uning Kaliforniya universiteti, Santa-Kruzdagi adabiyot bo'yicha tugallanmagan doktorlik dissertatsiyasiga asoslangan. Kitob Gloria Anzaldua hujjatlari (1942–2004) asosida puxta ishlab chiqilgan bo'lib, uning adabiy vasiysi Ana Louise Keating tomonidan tahrir qilingan . Anzalduaning eng rivojlangan falsafasi shu kitobda mujassam. «Light in the Dark» asarida Anzaldua shaxsiy tajribalarini nihoyatda qiziqarli nazariy talqinlar bilan uyg'unlashtirib, 11-sentabr hujumlari, san'at olamidagi neokolonial amaliyotlar va koalitsion siyosat kabi dolzarb mavzularga sharh beradi. U o'z yozuv jarayonini ijodiy, ma'naviy va siyosiy harakat sifatida tushuntiradi hamda bilish, bo'lish va yaratishning subaltern shakllariga katta e'tibor qaratadi, ularni g'arb falsafasi tomonidan kamsitilgan deb hisoblaydi. «Nepantla» so'zi Nahuatl tilida «o'rtada» degan ma'noni anglatadi va Anzaldua bu tushuncha yordamida Chikana ayoli sifatidagi tajribasini ifodalagan. U «Nepantlera» atamasini yaratgan. «Nepantleralar - bu ostonadagi odamlar; ular ko'p hollarda ziddiyatli dunyolar o'rtasida harakat qiladi va hech qachon o'zlarini biror shaxs, guruh yoki e'tiqod tizimi bilan to'liq bog'lashmaydi.» 1993 yilda «Borderlands» asarining katta qismi akademiklar tomonidan e'tibordan chetda qolganidan afsuslangan. U «ruhiy faollik» va «nepantleralar» tushunchalarini yaratib, zamonaviy ijtimoiy faollar qanday qilib siyosat va ma'naviyatni inqilobiy o'zgarishlar uchun birlashtirishi mumkinligini tasvirlagan. U o'z yozish jarayonini ijodiy, ruhiy va siyosiy faoliyat sifatida tushuntiradi va G'arb falsafasi

tomonidan e’tiborsiz qoldirilgan bilim olish, bo‘lish va yaratishning subaltern (chetlanib qolgan) shakllariga katta e’tibor qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Annie O. Eysturoy and José Antonio Gurpegui. Chicano Literature: Introduction and Bibliography American Studies International Vol. 28, No. 1 (April 1990), pp. 48-82 (35)
2. Anzaldúa, Gloria. Making Faces, Making Soul Haciendo Caras: Creative and Critical Perspectives by Feminists of Color. San Francisco: Aunt Lute Books, 1990.
3. Bruce-Novoa, Chicano Poetry , esp. p. 226, n. 10.
4. Herrera, Cristina (2014). Contemporary Chicana Literature: (Re)Writing the Maternal Script. Amherst, NY: Cambria Press
5. Musinovna, R. M. (2023, May). Developing culture, language and literature through international literature. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 82-84).
6. Rakhmatova, M. M. (2017). Cross-cultural understanding of values in language. Міжнародний науковий журнал Інтернаука, (1 (1)), 136-137. http://www.inter-nauka.com/issues/2017/1/1908
7. Rebolledo, Tey Diana. (1995) Women Singing in the Snow – a Cultural Analysis of Chicana Literature. Tucson: The University of Arizona Press.
8. G‘ayratovna, G. A. N. (2023). JADID LITERATURE EXPONENTS. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 94-102.

DIALEKTAL KORPUS TUZISH TAMOYILLARINI ISHLAB CHIQISHDA JAHON TAJRIBASI

Qosimova Shodiya Ulug‘bek qizi
Termiz davlat universiteti kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi magistranti

Bozorova Elinor
Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili talabasi

Annotatsiya: Maqolada dunyo dialektal korpuslari hamda ularning tuzilish tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilida yaratilgan korpuslar, ularning hozirgi holati shu bilan birga, rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Dialektal korpus yaratishda transkriptsiyaga asoslangan qidiruv tizimlari va yozma matnlardan foydalanishning afzalliklari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: transkriptsiya, til korpuslari, dialektal korpuslar, shevalarining online bazasi, morfologik teglangan, informatorlar.

Quyida sarlavha va mualliflar haqidagi ma’lumotlarning rus va ingliz tillariga tarjimalari keltirilgan:

МИРОВОЙ ОПЫТ В РАЗРАБОТКЕ ПРИНЦИПОВ СОЗДАНИЯ ДИАЛЕКТНОГО КОРПУСА

Косимова Шодия Улугбек кызы,
магистрант по направлению компьютерная лингвистика, Термезский государственный университет

Бозорова Элинор,
студентка направления «Филология и преподавание языков: узбекский язык», Термезский государственный университет

Аннотация: В статье анализируются мировые диалектные корпуса и принципы их построения. Также рассматриваются корпуса, созданные на узбекском языке, их современное состояние и направления развития. Обосновываются преимущества использования поисковых систем на основе транскрипции и письменных текстов при создании диалектного корпуса.

Ключевые слова: транскрипция, языковые корпуса, диалектные корпуса, онлайн-база данных диалектов, морфологически размеченные, информанты.

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING PRINCIPLES FOR CREATING DIALECTAL CORPORA

Qosimova Shodiya Ulug‘bek qizi,
Master’s student in Computational Linguistics, Termez State University

Bozorova Elinor,
Student in Philology and Language Teaching: Uzbek language, Termez State University

Abstract: The article analyses global dialect corpora and the principles of their construction. It also examines corpora created in the Uzbek language, their current state and directions of development. The advantages of using search engines based on transcription and written texts when creating a dialect corpus are justified.

Keywords: transcription, language corpora, dialect corpora, online dialect database, morphologically tagged, informants.

Jahon tilshunosligida raqamli axborot vositalaridan foydalanish qulayligi hamda internet orqali milliy tillarni o‘zlashtirishga bo‘lgan harakat ta’sirida milliy korpuslarda shevalar bazasini yaratish tendentsiyasi o‘smoqda. Natijada tilda mavjud dialektlarni nafaqat lingvistik, balki amaliy jihatdan tadqiq etish, bu orqali sheva birliklarini saqlab qolish, avloddan avlodga yetkazish imkoniyatining ko‘lami kengaymoqda: milliy til korpuslarida sheva birliklarini lingvistik aniqlashning umumiy tamoyillarini o‘rganish, shevalar korpusining janrlar bo‘yicha metarazmetkasini ishlab chiqish, dialektal transkriptsiya lingvistik ta’minoti tizimini ishlab chiqishning amaliy ahamiyati oshmoqda. Hozirda sheva birliklarini matnga ko‘chirish (yozib olish) asosiga qurilgan dialektal korpuslarning ikki xil yo‘nalishli: mavzuviy va teglangan matnli korpusni shakllantirish muammolari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ko‘plab mamlakatlarda XX asrning 80-yillaridan boshlab bunday korpuslar tuzila boshlandi. Ular turli maqsadlarda xizmat qiladi. Til korpuslarining hajmi turlicha bo‘lib, ularda 1000-2000 so‘zdan tortib , millionlab birikma, iboralar o‘z aksini topgan bo‘lishi mumkin. Til korpusi nihoyatda qisqa muddatda kerakli til dalilini izlash shu bilan birga, tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ularning har biri turli maqsad hamda vazifalarda xizmat qiladi. Dialektal korpuslar – tilshunoslikda turli hududlarda yoki ijtimoiy guruhlar orasida mavjud bo‘lgan dialektlarning yozuv yoki ovozli shakllarini yig‘ish, tasniflash hamdao‘rganishga mo‘ljallangan ma’lumotlar bazasidir. Ushbu korpuslar lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga hisoblanib, dialektlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash, ularning evolyutsiyasini o‘rganish va turli tilda so‘zlashuvchilarning muloqotini tushunishda yordam beradi.

Dunyo tilshunosligida tillarni sun’iy intellekt yordamida matn tarkibida saqlab qolish orqali ularning “umr”ini uzaytirish shu bilab birga, lingvistik korpusning subkorpusi – shevalar korpusini shakllantirish zaruriyati kun tartibidagi masalalardan biri hisoblanib, dialektlarni bir joyga jamlash, tarkibiy tartiblashtirish, shevashunoslikda mavjud manbalarning soniyalar oralig‘ida saralanishi hamda taqdimotini yo‘lga qo‘yish doirasida Avstriya, Xitoy (Mandarin dialektlari korpusi), Germaniya, Portugaliya, Chexiya, Finlyandiya, Skandinaviya, Polsha, Litva, Gruziya (masalan: Cor-Dial-Sin; Helsinki corpus of English dialests; Nordic dialests corpus; Archiv fur gesprochenes Deutsch, Die baerische Dialectadebank va h.k.), Rossiyaning Moskva, Slavyan-Kuban, Vologod, Saratov, Qozon kabi dialektal korpuslarini, Sankt-Peterburg ilmiy-tekshirish institutlari, Tomsk dialektologik korpus maktablarida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni namuna qilib ko‘rsatib o‘tish mumkin. Dialektal matnlar haqida gap borar ekan, D.Sichinova asosiy e’tiborni ko‘proq shevani korpusda shifrlanganliga qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Ammo lingvistik korpus uchun ba’zi shevalar matni me’yorlardan tashqarida shifrlangan holatida uzatilishi oddiy, sheva mutaxassisi bo‘lmagan foydalanuvchi qatlam tadqiqotchilarida ularni o’qish hamda tushunishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shevalar korpusining boshqa korpuslardan asosiy farqlaridan biri uning leksik grammatik teglanishi va bunda asosiy e’tibor leksik merazmetkaga berilishi kerak, sababi shevalar uchun grammatik farqlilik mavjud bo‘lsa-da, yagona standartlashtirilgan grammatik birliklarning mavjudligi boshqa shevalarning biroz tushunilishiga olib keladi.

Dialektal korpuslarning ahamiyati shundaki, bu korpusda – tilni saqlash hamda rivojlantirish, dialektlarni hujjatlashtirish orqali ularni saqlab qolish mumkin. Ayniqsa, yo‘qolib borayotgan dialektlar va tillar uchun muhimdir. Leksikografik nuqtayi nazardan lug‘atlarni tuzishda hamda hududiy so‘zlarni tasniflashda yordam beradi. Suhbatga asoslangan texnologiyalar esa bu dialektal ma’lumotlar nutqini aniqlash tizimlarini yaxshilash uchun ishlatiladi. Tilshunoslikda tadqiqotlarning lingvistik nazariyalar hamda tillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishda dialektal korpuslar asosan o‘rganish manbai sifatida xizmat qiladi.

Dialektal korpus bu – shevadagi so‘zlar jamlanmasi va ularning elektronlashtirilgan varianti dialektal korpus deyiladi. Korpus so‘ziga to‘xtaladigan bo’lsak, aslida buni ham hammaga tushunarli ifodalash lozim. Negaki korpus deyilganda ko‘pincha telefon yoki elektronikaning qattiq ustki korpusini tushunadi. Bu ham qaysidir jihatdan to’g’ri. Lekin ilm-fan sifatida qarasak

va filologik jihatidan tahlil qilsak, bu so‘zlarning elektron bazasi hisoblanadi. Internet saytlarida yaratilayotgan ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 135 bazalar majmuasi umumiy korpus hisoblanadi . Korpus murakkab va keng qamrovliligi bilan oddiy sayt hamada elektron kutubxonadan ajralib turadi. Korpusning ham bir necha turlari bor: milliy korpus, ta’limiy korpus, dialektal korpus va hokazo. Korpuslar juda murakkab tuzilishi kerak. Sababi, ular so‘z, gap, matnlarni barcha tahlil jihatiga tayyor holatda bo’ladi. Eng murakkab jarayondan eng sodda ko‘rinishgacha ega bo‘lgan korpus O‘zbekiston hududida hali to‘liq shakllanmagan va bu jarayon hozirda amalga oshirilmoqda... Dialektal korpus so‘zining umumiy xususiyatiga o’tadigan bo’lsak, bu jarayonda faqat dialekt birliklarni yaratilayotgan korpusga joylash demakdir. Ya’ni ayni kunlarda rivojlanayotgan O‘zbek tili korpusiga O‘zbekiston hududidagi barcha-barcha shevaga oid so‘zlarni ham kiritish lozim. Shunda ham dialekt so‘zlar saqlanib qoladi, ham leksik bazamiz yana bir necha so‘zlarga boyidi. Korpusda nafaqat so‘zlar, balki ularning audio va video variantlari ham beriladi. Chunki chet ellik tilimizni o‘rganuvchi tolibi ilmlarga qulaylik yaratiladi.

Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalari rivojlanishini kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin va shu bilan birga lingvistika oldida turgan masalalari yechimida ham asta-sekin kompyuter texnologiyalari yordamida tuzilgan elektron matn korpuslari va bazalariga murojaat qilish davri boshlangan. Bunda dunyo dialektal korpuslari biz uchun namuna vazifasini o‘taydi .

Tadqiqot obyektimiz hisoblangan dialektal korpuslarni 2 ga bo‘lish mumkin:

1. O‘zga til korpuslariga shakliy jihatiga asoslanib, o‘z shevalarining xususiyatlarini e’tiborga olgan holda yaratilgan dialektal korpuslar: Janub ovozi , Portugaliya korpusi – The syntax-oriented Corpus of Portuguese dialects, 1972–1974 yillarda Finlandiyaning Xelsinki tumani aholisining so‘zlashuviga asoslangan korpus Polsha korpusi (parallel korpus) – Dialecty I gwary polskie Kompendium internetowe, Parijning og‘zaki so‘zlashuv korpusi , Ispan korpusi – Corpus Oral y Sonoro del Español Rural, Bolqor korpusi – Bulgarian dialectology as Living Tradition, Gurjiston korpusi (2 054 705 ta so‘z, 3400 ta matndan iborat) , Alban korpusi va hokazolar, Xitoy tili Mandarin korpusi (bu dialekt xitoy tilidagi turlilik va o‘zgaruvchanlikni o‘zida namoyon etadi) va hokazo. 2. Ma’lum bir hududning shevasi asosida yaratilgan dialectal korpuslar: Kuban dialectal korpusi , Saratov dialektal korpus, Arxangelsk viloyatining Ustya tumani sheva korpusi , Rus milliy shevalarining online bazasi va hokazolar .

Jahon tilshunosligida til korpuslarini yaratish bo‘yicha Avstriya, Xitoy (Mandarin dialektlari korpusi), Germaniya , Portugaliya, Chexiya, Finlandiya, Skandinaviya, Polsha, Litva, Gruziya (masalan: Cor-Dial-Sin; Helsinki corpus of English dialekts; Norvegiya dialektlari korpusi; Archiv fur gesprochenes Deutsch, Die bayerische Dialektadebank va hk.), Moskva, Slavyan-Kuban, Vologod, Saratov va Qozon kabi Rossiya hududidagi markaziy shaharlarda o‘ziga xos dialektal korpuslar (Диалектный подкорпус в составе Национального корпуса русского языка, Саратовский диалектологический корпус, Электронная библиотека русских народных говоров , Электронный корпус диалектной культуры Кубани) kabi mamlakat olimlarining olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovor. Rus tilshunosligida milliy korpus yaratilishida: rus milliy korpusining tuzilishi (“Национальный корпус русского языка”), Sankt-Peterburg, Saratov institutlarida qilingan ishlar va Tomsk dialektologik korpusini keltirish mumkin.

Har bir yaratilgan turli maqsad va vazifalarga xizmat qiladi.Masalan,Eston dialektal korpusi (EDC)bo’lib, Eston shevalar korpusi ikki universitet: Tartu universiteti va Eston tili universiteti tomonidan ta’sis etilgan bo‘lib, unda eston shevalari quyidagi holatda bir korpusga yig‘ilgan:

1) Sheva qaydlari;
2) Fonetik-fonematik transkripsiyalangan sheva matnlari;
3) sodda transkripsiyalangan matnlar to‘plami;
4) morfologik teglangan matnlar to‘plami;

5) informatorlar va yozma ma’lumotlar haqida axborot.

Britaniya ingliz dialektining Xelsinki korpusi . Bu ko’rpus Sharqiy Angliya, Janubiy-g’arbiy Lankashir orollaridan aholisi bilan suxbatlashib orfografik transkripsiyalangan audioyozuvli nutq to’plami bo’lib, ushbu yozuvlar 1970-1980 yillar oralig’ida tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasini yaratilgan.

Norvegiya shevalar korpusi .Ko’rpus o’z ichiga shimoliy o’lkada istiqomat qiluvchi shimoliy German dialekti aralash shevalarni olgan va teglar(so’zlar)bilan belgilangan adabiy tilga oid birliklar, og’zaki yozuvlar hamda transkriptlar korpusning tarkibiy qismi sifatida tilga olinadi.

EDUGAIN/CLARIAN (Skandinaviya shevalari korpusi)/FEIDE(Norveg millati aholisiga mansub bo’lganlar foydalanish uchun)- korpus yaratish jarayonida Shimoliy Yevropa mamlakatining 6ta mamlakati ishtirok etadi va qidiruv sistemasi faktorlari beshta bir biridan farq qiluvchi o’ziga xos adabiy standartlariga ega tillarni qamrab olgan korpus yuzaga keladi.Korpus transkripsion ma’lumotlardan iborat; ba’zi yozuvlar iki tomonlama transkripsion-orfografiya yoki transkripsiya fonetik yig’ilmalar jamlanmasiga ega. Shuningdek bu ko’rpusda transkripsiyalarni eshitish yoki ko’rish mumkin bo’lgan audio yoki video fayl taqdimotlari tayyorlangan.

Arab shevalari ko’rpusi (MSA). Shevalar korpusini tuzishda dastlab kam sonli lahjalar qamrab olingan. Arab dialektlarining keng qo’llanishini hududning kengayishi bilan Arab standart tilidan fonologik, leksik va morfologik sathda o’zgarishlarda kuzatish mumkin .

НРКЯ(Rus tili shevasiga oid korpuslar). Rus tiliga oid bo’lgan dastlabki korpus Upsal Mona fondi bo’lib, vaqt o’tishi bilan НРКЯ bir qancha korpuslarni o’z tarkibida saqlayotgan katta korpus darajasini o’zida ko’rsatib, dialektal korpuslar nuqtayi nazaridan esa quyidagi korpuslar ya’ni,rus xalqi shevalari electron bazasi ; Arxangelsk viloyati, Ustyan tumanlari multimediali korpusi ; rus xalq shevalari elektron kutubxonasi(onlayin ko’rish va eshitish uchun ruxsat etilgan)yaratilgan . Ayniqsa bularning ichidan rus xalq shevalari elektron kutubxonasi korpusi o’zida juda katta ma’lumotlarni saqlagan. Bu eletron kutubxona orqali boshqa sheva korpuslari: “Rus dialektologiyasi ” axborat markazi, Rus milliy korpusining ichki dialectal korpusiga, rus tili dialektologik xarita,”Rus qishloq tili” dialektologik atlasi, “Regional etnolingvistika” sayti korpuslaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud.Yuqoridagi berilgan qaydlardan xulosa shuni ko’rsatadiki , XX asr davomida jahon tilshunosligida bir qancha davlatlar o’z milliy shevalar ko’rpuslari doirasida ko’plab ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Shu jumladan O’zbek tilshunosligida ham, garchand jahon tilshunoshligida yaratilgan korpuslardan bir necha yil keyin bo’lsa ham ko’rpuslar bo’yicha juda ko’p imiy izlanishlar olib borishgan.

O’zbek tilshunosligida ushbu sohaga oid tadqiqotlar XX asrning 20-30-yillarida boshlangan bo’lsa, bu ishlarda Y.D.Polivanov, K.K.Yudakin, I.I.Zarubin singari rus olimlari tomonidan amalga oshirilganligini etirof etmaslik mushkul. Sobiq SSSR davrida o’zbek tili yetarli darajada keng imkoniyatlarga ega bo’lmasa-da, rus tilshunoslari, xususan, shevashunoslar tomonidan ilmiy asoslarga tayangan holda tilimiz va uning ichki boyish manbasi bo’lib xizmat qiluvchi shevalarimizni o’rganish uchun turli tadqiqotlar olib borgan.

Tilshunoslikda sohasida dialektal matnlarning mavzuviy tasnifida umumiylikni insonlarning jamiyatda o‘rni, tadrijiy o‘sish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida kuzatish mumkin. Biroq har doim ham etnik aholining ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni bilan uzviy bog‘liq ravishda uy, uy xojaligi, siyosat, jamiyat hayoti, e’tiqod kabi tushunchalar va sheva vakillarining dunyoqarashida bir xil o‘rin tutmaydi. U yoki bu tushunchalarning yuqori darajani egallashi mahalliy xalqning yashash tarzi, shug‘ullanuvchi sohasiga bog‘liq omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbek shevalari korpusining yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash - dialektologik tadqiqotlarni olib borishning tayanch parametrlaridan biridir. Bugungi kunga qadar yaratilayotgan o‘zbek tili korpusi , mualliflik va sinonimlar korpuslari , idiomalar bazasi , ta’limiy korpuslar | da amaliy tilshunoslikning rivojlanish bosqichlarini kuzatib otish mumkin. Dialektologik korpusda esa antroposentrik so‘rovnoma orqali murojaat qilinib, asta-sekin ma’lumotlar ombori kengayib boradi va toliq matnlardan korpusi paydo bo‘ladi.

Prof. N.Rajabov ham o‘zbek tili lahjalarida kasb-hunarga oid shevalar, asosan, shahar shevasi qarluq guruhidan olinishini, chorvachilik, g‘allachilik, paxtachilik, qishloq xo‘jaligiga doir sheva birliklari esa qipchoq guruhidan olinishini va boshqacha yondashish chalg‘ishga olib kelishini aytib o‘tadi .Shuningdek, f.f.d.M Xolova o’zining O’ZBEK MILLIY SHEVALARI KORPUSI (Boysun tumani “j”lovchi shevalari misolida) nomli Monografiyasida O’zbek milliy shevalar korpusini yaratish tamoyillarni va izlanishlarini Surxondaryo viloyatining Boysun tumani misolida olib boradi va o’rganadi. M. Xolova shevalar korpusini yaratish jarayonida Boysun tumani hududida yashovchi aholining etnik tarkibi yashash tarzini, ularning qanday hunar yoki chorvachilik bilan shug’ullanishi o’rganib audio hamda yozma matnlar shaklida qayd etadi. U tuman aholisining shevalar korpusini tuzishda shu qatlam mashg’ul bo’luvchi chorvachilikka oid shevalarni, hunarmandlar doirasida ishlatiladigan shevalarni, shuningdek, hudud aholisining turli xil urf-odatlar,marosimlarda ishlatadigan adabiy tildan farq qiladigan shevalarini o’z tadqiqotida qayd qilib o’rgangan holda o’zining shevalar korpusida aks ettirgan. Boysun tumani etnik axolisi shevalarining bazas ini tuzish jarayonida so’zlarning bazada qo’llanishini 3 xil shakl (adabiy til, transliteratsiya va transkripsiya)da berilgan. Bu esa korpuslar yoki korpusosti shevalar korpus uchun tayyorlanadigan bazaviy ma’lumotlarning transliteratsion shaklda berilishi matnlar korpusining foydalanish qulayligini oshirgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, transkriptlar o’zbek dialekti korpusining o’ziga xos bo’lgam alohidaligini ta’minlovchi vosita hisoblanadi.

O‘zbek dialekti korpusida transkriptsiya orqali qidiruvning yagona tizimini ishlab chiqish, ya’ni kompyuter tanishi mumkin bo‘lgan lotin belgilarining shakl jihatdan o‘xshash bo‘lgan belgilar bilan emas, balki qabul qilingan unicode orqali bazani shakllantirish hamda qidiruv sistemasida undan foydalanish, turli olib borilayotgan tadqiqotlarning bog‘lanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek dialekti korpusini yaratishda badiiy asarlarda berilgan sheva elementlari mavjud bo‘lgan matnlar transliteratsiya holida berilishi korpus tuzish tezligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 44.– С. 3-124.

https://uzbekcorpus.uz/

Hamroyava Sh. Linguistic bases of creation of the Uzbek language author’s corpus. Dis. - Bukhara. 2018. B.28.

Eshmuminov A. Base of synonyms of the Uzbek National Corpus. (PhD) Dis.- Karshi. 2018. Pp. 35.

Begmatova G. H. O‘zbek Milliy korpus idiomalar bazasin yaratish: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... Avtoref. – Termiz. 2019. B. 27.

Xoliyorov O‘. O‘zbek tili ta’limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... Avtoref. – Termiz. 2021.b-.65.

Xolova M. Jahon dialektal korpuslariga bir nazar //«Узбекские национальные образовательные здания теоретическое и практическое создание вопросы» Международная научно-практическая конференция. – 2023. – Т. 2. – №. 2.

Холова М. Ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж” ловчи шевалари мисолида) //Каталог диссертаций и авторефератов. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-131.

N.Rajabov. O‘zbek dialektologiyasi. –T.:1996 y. B. 50.

URL: http://uzschoolcorpara.uz/

URL: http://www.slaviska.uu.se/korpus.htm

URL: http://www.ruslang.ru/krylov_dialect

URL: http://www.slavist.de/Pushkino/

URL: http://dialekt.corpus.tatar/
URL: http://gramota.ru/book/village/dialects.html
URL: http://www.helsinki.fi/varieng/CoRD/corpora/Dialects/fieldwork.html
URL: http://www.slavist.de/Pushkino/
URL: http://www.ruslang.ru/krylov_dialect
URL: http://newsouthvoices.uncc.edu/nsv,
URL: http://rusling.narod.ru/qqq_corp_nonslav_other.htm
URL: http://www.ling.helsinki.fi/uhlcs/readme-all/README-uralic-lgs.html#C34
URL: https://ruscorpora.ru/new/search-para-pl.html
URL: http://cfpp2000.univ-paris3.fr/Corpus.html
URL: https://ruscorpora.ru/.
URL: https://ruscorpora.ru/.
URL: https://ruscorpora.ru/.
URL: http://web-corpora.net/AlbanianCorpus/search/

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA IRONIYA VA YUMORNING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Ikromova Shahnoza Sobir qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
1-kurs tayanch doktoranti

Yaqubov Islomjon Axmedjanovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Filologiya fanlar doktori (DSc), professor

Tursunova Gulnora Baxriyevna
Sayido Nasafiy nomidagi Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markazi direktori

Annotatsiya: Ushbu maqola atoqli o‘zbek adibi Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida ironiya va yumorning o‘zaro aloqadorligi masalasini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Maqolada asarda kulgili elementlarning yaratilish usullari, ularda ironiyaning o‘rni va roli, shuningdek, muallifning badiiy niyatlarini ifodalashda ironiya va yumorning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi. Tahlil jarayonida asardan konkret misollar keltiriladi hamda ironiya va yumorning kulgi yaratish xususiyatlari bilan birga, ijtimoiy va axloqiy masalalarni ochib berishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola xulosasida Abdulla Qodiriy romanida ironiya va yumorning o‘ziga xos badiiy uslub sifatida namoyon bo‘lishi va asarning g‘oyaviy-badiiy qiymatini oshirishdagi o‘rni ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: kinoya, yumor, badiiy niyat, kulgili elementlar, ijtimoiy masalalar, axloqiy muammolar, uslubiy xususiyatlar, badiiy qiymat

Аннотация: Данная статья посвящена литературоведческому анализу взаимосвязи иронии и юмора в романе “Мехробдан чаян” выдающегося узбекского писателя Абдуллы Кадыри. В статье рассматриваются способы создания комических элементов в произведении, роль и место иронии, а также взаимосвязь иронии и юмора в передаче художественного замысла автора. В ходе анализа приводятся конкретные примеры из текста и подчеркивается значение иронии и юмора не только как средства создания комического эффекта, но и как инструмента раскрытия социальных и нравственных проблем. В заключении отмечается, что в романе Абдуллы Кадыри ирония и юмор выступают как своеобразные художественные приёмы, играющие важную роль в усилении идейно-художественной ценности произведения.

Ключевые слова: ирония, юмор, художественный замысел, комические элементы, социальные вопросы, нравственные проблемы, стилистические особенности, художественная ценность

Abstract: This article is devoted to the literary analysis of the relationship between irony and humor in the novel “Mehrobdan chayon” by the prominent Uzbek writer Abdulla Qodiriy. The article explores the methods used to create humorous elements in the novel, the place and role of irony, and the interconnection between irony and humor in expressing the author’s artistic intentions. The analysis includes concrete examples from the text and highlights the significance of irony and humor not only in generating comic effects but also in addressing social and moral issues. In conclusion, the article emphasizes how irony and humor function as distinctive artistic techniques in Qodiriy’s novel and contribute to its ideological and aesthetic value.

Keywords: irony, humor, artistic intention, humorous elements, social issues, moral problems, stylistic features, artistic value.

KIRISH. Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiyotining betakror namunasi bo‘lmish “Mehrobdan chayon” romani milliy xarakterimiz va o‘sha davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy manzarasini o‘zida

mujassam etadi. Asarning badiiy uslubidagi o‘ziga xosliklardan biri esa ironiya va yumorning o‘zaro uyg‘unligidir.

Adabiyotshunoslik fanida ironiya va yumor mustaqil tushunchalar sifatida tadqiq qilingan bo‘lsada, aynan “Mehrobdan chayon” romanida ularning bir-biriga ta’siri va o‘zaro boyitish xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Romanda kulgining turli shakllari – yengil hazildan tortib, o‘tkir kinoyagacha bo‘lgan usullarining badiiy maqsadlarda qo‘llanilishi hamda ularning asar g‘oyasini ochib berishdagi ahamiyati muhim tadqiqot mavzusidir.

Ushbu maqola “Mehrobdan chayon” romanidagi ironiya va yumor unsurlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga yo‘naltirilgan. Tadqiqot jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

-Romandagi ironiya va yumorning individual xususiyatlarini tahlil etish.

- Mazkur ikki badiiy vositaning roman syujeti va personajlar obrazini yaratishdagi rolini yoritish.

- Ironiya va yumorning asarning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berish.

- Tadqiqot natijalari o‘zbek adabiyotshunosligida “Mehrobdan chayon” romanini yangi rakursdan o‘rganishga turtki beradi hamda badiiy asarda kulgi fenomenini tushunishga oid ilmiy bilimlar doirasini kengaytiradi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda o‘zbek adabiyotshunosligida ironiya va yumor masalalariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlar o‘rganildi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida kinoya “kamchiliklar, ayrim voqea va hodisalarni kulgili qilib, hazilomuz tasvirlay bilish, ularni beg‘araz hajv qilish shakli” sifatida talqin etiladi.Bu ta’rif kinoyaning mohiyatida hayotni ijobiy kulgi orqali ifodalash yotganini ko‘rsatadi.

R. Qo‘ng‘urov o‘zining «O‘zbek tilining tasviriy vositalari» asarida kinoyani «so‘z va iboralarning kesatqi va piching ohangida, ko‘pincha o‘z ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda ishlatilishi» deb tariflaydi va buni ironik usul (ironiya priyomi) sifatida izohlaydi.[6] Bu esa kinoyaning nafaqat kuldirish, balki tanqid qilish va hayotdagi muammolarni nozik tarzda ochib berish vazifasini ham bajarishini ko‘rsatadi.

T. Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” asarida komik-yumoristik obraz haqida so‘z yuritar ekan, «bu obrazlar hayoti kulgiga yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, ular hayotdagi ayrim nuqsonlar ustidan kuladi» deb ta’kidlaydi.[1] Bu fikr yumoristik va kinoyaviy obrazlarning hayotiy real muammolarni aks ettirishi va ularni kulgi orqali ochib berishga xizmat qilishini anglatadi.

H. Umurov esa “Adabiyotshunoslik nazariyasi” asarida kinoyani «inkorning bir ko‘rinishi bo‘lib, ko‘chirmalash orqali yashirin kulish shakli» deb ta’riflaydi va kinoyaviy obrazlar tabiatini ham batafsil yoritadi.[7]Umurov kinoyaviy obrazlarning o‘ziga xosligini batafsil ochib bergan bo‘lib, bu yondashuv kinoyani chuqur ijtimoiy va ma’naviy tahlil vositasi sifatida ko‘rishga imkon beradi.

D. Quronov, Z. Mamajonov va M. Sheraliyeva tomonidan tuzilgan «Adabiyotshunoslik lug‘ati»da yumor «badiiy asarda kishilar va voqealar ustidan beg‘araz kulish» sifatida tavsiflanadi. Kinoya esa, mumtoz adabiyotda «ko‘chimning bir turi» sifatida ko‘rsatiladi. [5]Bu yondashuv kinoya va yumorni tasvir vositasi sifatida qadimiy adabiyotdan zamonaviy adabiyotgacha davom etib kelayotgan uzviy badiiy an’ana sifatida tasavvur qilishga asos yaratadi.

Kinoya va yumor badiiy adabiyotda shunchaki kulgi vositasi emas, balki murakkab ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritish, hayotni tanqidiy tahlil qilish hamda o‘quvchini mulohazaga undashning kuchli badiiy uslublaridan biridir. Bu vositalarning o‘zaro uyg‘unligi, ayniqsa, Abdulla Qodiriy singari yozuvchilarning ijodida aniq va samarali ko‘rinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqot davomida ironiya va yumorning o‘zbek va ingliz adabiyotshunosligida qanday talqin etilgani o‘rganildi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida kinoya “kamchiliklar, ayrim voqea va hodisalarni kulgili qilib, hazilomuz tasvirlay bilish, ularni beg‘araz hajv qilish shakli” sifatida talqin etiladi. Bu ta’rif kinoyaning mohiyatida hayotni ijobiy kulgi orqali ifodalash yotganini ko‘rsatadi.

R. Qo‘ng‘urov o‘zining «O‘zbek tilining tasviriy vositalari» asarida kinoyani «so‘z va iboralarning kesatqi va piching ohangida, ko‘pincha o‘z ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda ishlatilishi» deb ta’riflaydi va buni ironik usul (ironiya priyomi) sifatida izohlaydi.[6] Bu esa kinoyaning nafaqat kuldirish, balki

tanqid qilish va hayotdagi muammolarni nozik tarzda ochib berish vazifasini ham bajarishini ko‘rsatadi. T. Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” asarida komik-yumoristik obraz haqida so‘z yuritar ekan, “bu obrazlar hayoti kulgiga yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, ular hayotdagi ayrim nuqsonlar ustidan kuladi” deb ta’kidlaydi.[1] Bu fikr yumoristik va kinoyaviy obrazlarning hayotiy real muammolarni aks ettirishi va ularni kulgi orqali ochib berishga xizmat qilishini anglatadi. H. Umurov esa “Adabiyotshunoslik nazariyasi” asarida kinoyani “inkorning bir ko‘rinishi bo‘lib, ko‘chirmalash orqali yashirin kulish shakli” deb ta’riflaydi va kinoyaviy obrazlar tabiatini ham batafsil yoritadi.[7] Umurov kinoyaviy obrazlarning o‘ziga xosligini batafsil ochib bergan bo‘lib, bu yondashuv kinoyani chuqur ijtimoiy va ma’naviy tahlil vositasi sifatida ko‘rishga imkon beradi. D. Quronov, Z. Mamajonov va M. Sheraliyeva tomonidan tuzilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati»da yumor «badiiy asarda kishilar va voqealar ustidan beg‘araz kulish» sifatida tavsiflanadi.[5] Kinoya esa, mumtoz adabiyotda “ko‘chimning bir turi” sifatida ko‘rsatiladi. Bu yondashuv kinoya va yumorni tasvir vositasi sifatida qadimiy adabiyotdan zamonaviy adabiyotgacha davom etib kelayotgan uzviy badiiy an’ana sifatida tasavvur qilishga asos yaratadi.

Teresa Guerraning fikriga ko‘ra, yumor auditoriyaning anglash darajasiga qarab uch turga bo‘linadi:

1. Universal yumor:

Bunday yumor har qanday madaniyat, ma’lumot darajasi yoki ijtimoiy qatlamdan qat’i nazar, hamma tomonidan osongina tushuniladi. Ko‘pincha oddiy va ko‘rinarli shaklda bo‘ladi.

2. Repressiyadan xalos etuvchi yumor:

Ikkinchi darajadagi yumor ko‘proq mavzuli bo‘lib, kamroq ko‘rinarli ifodalangan bo‘ladi. Bu turdagi yumor odatda jinsiy, siyosiy yoki diniy mavzudagi hazillarni o‘z ichiga oladi va jamiyatdagi repressiya yoki ijtimoiy to‘siqlardan ozod bo‘lish vositasi sifatida xizmat qiladi.

3. Murakkab (elita) yumor:

Uchinchi darajadagi yumor auditoriyadan til va uslubiy vositalarni mukammal bilishni talab qiladi. Bu yumorning asosiy ifoda vositasi – kinoyadir. Murakkab yumor ikki xil bo‘ladi: yurakka qaratilgan rahmdil yumor va aqlga qaratilgan intellektual yumor. U doimo o‘ziga xos nafislik va saxiylik ruhini saqlab qoladi.[2]

Kinoya va yumor badiiy adabiyotda shunchaki kulgi vositasi emas, balki murakkab ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritish, hayotni tanqidiy tahlil qilish hamda o‘quvchini mulohazaga undashning kuchli badiiy uslublaridan biridir. Bu vositalarning o‘zaro uyg‘unligi, ayniqsa, Abdulla Qodiriy singari yozuvchilarning ijodida aniq va samarali ko‘rinadi.

Ushbu maqolani tayyorlashda bir qator adabiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Asosan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida kinoya va yumor vositalarining badiiy ifodalanishini, ular orqali muallifning ijtimoiy-tanqidiy va axloqiy-estetik niyatlarini yoritib berish maqsad qilingan.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Kontekstual tahlil orqali roman matni o‘z zamonasi ijtimoiy, madaniy va adabiy sharoitlari bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Asardagi kinoya va yumor elementlarining davr ruhiyati bilan uyg‘unligi tahlil qilindi.
- Tarixiy-madaniy tahlil yordamida roman yaratilgan tarixiy muhit va madaniy an’analar kontekstida ironik va yumoristik unsurlarning mazmuni va ahamiyati ochib berildi.
- Qiyosiy metod yordamida “Mehrobdan chayon” romanidagi ironik ifodalar o‘zbek va jahon adabiyotida uchraydigan kinoya va yumor namunalariga qiyosiy jihatdan taqqoslandi.
- Semiotik metod orqali matndagi kinoya va yumor ramzlari o‘rganildi.

Tadqiqotda matn tahlilining chuqur va keng qamrovli usullaridan foydalanilgan bo‘lib, asosan, “Mehrobdan chayon” romani asosiy manba sifatida xizmat qildi. Qo‘shimcha ravishda, adabiyotshunoslik va matnshunoslik sohalariga oid zamonaviy ilmiy manbalar va maqolalar ham tadqiqot uchun asos bo‘ldi.

NATIJALAR. Abdulla Qodiriyning badiiy uslubida kinoya va yumor asosiy tasvir vositasi sifatida xizmat qilgani aniqlandi. Ular orqali muallif ijtimoiy illatlarni ochib beradi, jamiyatdagi nohaqlik va adolatsizlikni tanqid qiladi.

“Mehrobdan chayon” romanida kinoya va yumor syujetning rivojlanishiga va obrazlarning xarakterini ochib berishga faol xizmat qilgani aniqlandi. Masalan, quyida Qodiriyning Solih maxdumga bergan

ta’rifini ko‘rib o‘tamiz:

“Ko‘ylak-ishtonning aksar yeti-sakkiz joyidan yamog‘i bo‘ladir. Yetti qishdan beri guppy- chopon yangilagani ma’lum emas…”[4]

Bu jumlalarda adib kinoya va yumorni ustalik bilan ishlatgan. Birinchi ifodasida kiyimning har bir joyi muammoli yoki ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan holatda tasvirlanadi. Bu misra ta’rifni haddan tashqari dramatik va kulgili qilib beradi. Ikkinchi jumlada esa u kiyimni yangilamayotgan va o‘sha eski holatini davom ettirayotgan odam sifatida tasvirlanadi. Solih maxdumning kiyimi, qaytalanib yangilanmaganligi ham hazilomuz tarzda ifodalanadi. Misradagi “yetti qish” iborasi esa zamonning uzoqligini va Solih maxdumning beparvoligini tasvirlash uchun ishlatilgan.

Ironiya, jamiyat yoki insonning so‘zlari va haqiqiy hayoti o‘rtasidagi tafovutlarni ko‘rsatadi. Haqiqat va adolatni qadrlayman deb da’vo qilgan, ammo aslida yolg‘on va adolatsizlikni bag‘riga olgan yoki ularni rag‘batlantirgan jamiyat ironiya hosil qiladi.[3]Romanda xonning “ma’muriyat davri” deb atalgan besh-olti yil mobaynida xalqqa ariq qazitishi xazina hisobidan emas, xalqning bilak kuchiga tayangan edi. Xalq hech qanday maosh olmasdan, faqatgina kuniga ikki mahal ovqat iste’mol qilib ariq qazigan. Har bir xonadondan bitta mardikor berilishi qaror qilingan bo‘lib, agarda u mardikor oilaning yakka boquvchisi bo‘lgan taqdirda ham xon bunga befarq qaragan va shu kabi oilalar boquvchisidan ayrilib, zo‘rg‘a kunini o‘tkazgan.

Badiiy asarlarda turli toifadagi ironiyalar uchraydi.[3] Masalan, qahramon yoki o‘quvchining kutgan natijasi aksincha chiqadi: mukammal deb o‘ylangan ayol aslida unday emasligi ma’lum bo‘ladi. Qodiriyning romandagi Lola ismli qiz haqida bunday degandi:

“Lolaning ismiga o’xshash husni ham bor deb o‘ylag‘an edim… Burnidagi buloqisidan boshqa “Lola”likka arziydirgan hech gap yo’q edi.”[4]

Ko‘rib turganimizdek bu yerda ham kinoya mohirona ishlatilgan va adibning Lola haqida o’ylagan ideal hayollari puchga chiqqan edi.

Tahlil davomida romandagi ironik va yumoristik elementlar faqat kulgi uchun emas, balki chuqur ma’naviy-estetik maqsadlar uchun xizmat qilishi aniqlashtirildi. Kulgi vositasida ijtimoiy axloqiy kamchiliklar yoritilgan. Romanda madrasa domlalarining o‘zlari buzuqliklar qilib turib yana zamona buzuqligidan nolishlari ham aytib o‘tiladi. Bu holatda vaziyat (situatsion) kinoyasi va yumor ishlatilganini ko‘rish mumkin. Ya’ni, domlalar o‘zlari axloqiy buzilishlar qilayotgan bo‘lsalar-da, atrofdagi jamiyatni buzilishda ayblashadi. Bu — gap bilan amal o‘rtasidagi zidlik orqali kinoyaviy holat yaratilgan. O‘quvchi bu zidlikni ko‘rib, domlalar munofiqligidan kuladi, ammo shu kulgi orqali Qodiriy jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikni tanqid qiladi.

Matnning semantik (ma’noviy) qatlamida kinoya va yumorning ramziy, belgilovchi funksiyalari mavjud ekani tasdiqlandi. Romanning nomlanishini misol qilib oladigan bo‘lsak, “chayon” kinoyaviy obraz qilib olingan. “Chayon” yuzidan yaxshi ko‘ringan, ammo ichidan zarar yetkazadigan odamlarning kinoyaviy ramzi sifatida ishlatiladi. Chayon obrazi orqali Qodiriy jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va hiyonatni tanqid qiladi.

Qodiriyning ironik-yumoristik mahorati uni o‘zbek adabiyotida satirik roman janrining peshqadamlaridan biri sifatida ko‘rsatadi.Tadqiqot natijalarida “Mehrobdan chayon” romanida kinoya va yumorning o‘zaro uyg‘unligi va ularning badiiy matnning ichki mohiyatini ochib berishdagi muhim roli ilmiy asosda isbotlab berildi.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotda “Mehrobdan chayon” romanida kinoya va yumor vositalarining badiiy ifodalanishi tahlil qilindi. Natijalarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy kinoya va yumorni shunchaki kulgi uchun emas, balki jamiyatdagi illatlarni ochib berish, tanqid qilish va o‘quvchini chuqur o‘ylashga undash uchun mahorat bilan qo‘llagan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kinoya o‘zbek adabiyotshunosligida ko‘pincha voqelikdagi nuqsonlarni piching va kesatqi shaklida, yashirin ma’nolar orqali ochib berish vositasi sifatida talqin etiladi. Jumladan, R. Qo‘ng‘urov, X. Umurov kabi adabiyotshunoslar kinoyani ijtimoiy tanqidning nafis shakli deb izohlaganlar. Yumor esa beg‘araz kulgi orqali jamiyatdagi kamchiliklarni ko‘rsatishga xizmat

qilishi ta’kidlangan. Teresa Guerraning yumorni uch darajaga bo‘lish haqidagi tasnifi ham Qodiriy uslubining murakkab va ko‘p qatlamli xususiyatlarini tushunishga yordam berdi.

“Mehrobdan chayon”da kinoya va yumor syujet rivojiga faol ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Solih maxdum obrazida ishlatilgan kinoya — uning qashshoqligi va beparvoligini kulgili, ammo tanqidiy tarzda ochib beradi. Xuddi shuningdek, madrasa domlalarining buzuq ishlar qilgani holda zamonni ayblashi vaziyat kinoyasining yaqqol namunasidir. Ushbu holatlar orqali yozuvchi gap va amal o‘rtasidagi nomutanosiblikni fosh etgan.

Romanning nomi — “Chayon” — ham o‘zida kuchli kinoyaviy ma’noni jamlagan. Chayon obrazi tashqi ko‘rinishda do‘stona, lekin aslida zarar yetkazuvchi odamlarni anglatadi. Bu ramziy ifoda orqali Qodiriy jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va hiyonat muammolarini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qodiriy ironik va yumoristik elementlarni chuqur ma’naviy-estetik va ijtimoiy-tanqidiy maqsadlar uchun xizmat qildira olgan. Uning badiiy uslubi o‘zbek adabiyotida satirik roman janrining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Shunday qilib, “Mehrobdan chayon” romanidagi kinoya va yumor vositalari nafaqat asarning estetik qimmati, balki uning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini ham oshiradi.

XULOSA. Ushbu tadqiqotda Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida kinoya va yumorning o‘zaro aloqadorligi badiiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari Qodiriyning kinoya va yumorni asosan ijtimoiy-tanqidiy va axloqiy-estetik maqsadlarda mohirona qo‘llaganini ko‘rsatdi. Asarda kinoya va yumor obrazlarning xarakterini ochib berishda, syujet rivojida va davrning muayyan ijtimoiy muammolarini fosh etishda asosiy badiiy vosita sifatida xizmat qilgani aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Qodiriy o‘z davrining tarixiy-madaniy sharoitini inobatga olgan holda kinoya va yumorni chuqur ma’noli ramziy tizim sifatida shakllantirgan. Asardagi ironik va yumoristik elementlar ijtimoiy illatlarni tanqid qilish bilan birga, o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi va ma’naviy saboq beradi.

Tadqiqot natijalari Qodiriyning o‘zbek adabiyotida satirik-badiiy ifodaning shakllanishida tutgan o‘rni va ahamiyatini yanada aniqroq ko‘rsatib berdi. Kelajakda Abdulla Qodiriy asarlaridagi boshqa badiiy usullar, xususan, kinoya va yumorning zamonaviy o‘zbek adabiyotiga ta’siri yuzasidan qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Boboyev, T. (2001). Adabiyotshunoslik asoslari (2-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan; S. Mamajonov, Mas’ul muharrir). Toshkent: O‘zbekiston.

2.Guerra, T. (1989). Humour in literature: Three levels (Ph.D. dissertation, University of Illinois at Urbana-Champaign). Retrieved May 7, 2011, from https://www.ideals.illinois.edu/handle/2142/20195

3.International Journal of English and Literature. (2012). Humour, irony and satire in literature by Raj Kishor Singh, 3(4), 65–72. Kathmandu: Tribhuvan University. © TJPRC Pvt. Ltd.

4.Qodiriy, A. (2004). Mehrobdan chayon (B. Alimov va boshq., Tahrir hay’ati; “Asr oshgan asarlar” turkumi). Toshkent: Sharq.

5.Quronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2013). Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: Akademnashr.

6.Qo‘ng‘urov, R. (1977). O‘zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent: Fan.

7.Umurov, H. (2004). Adabiyotshunoslik nazariyasi (B. Valixo‘jayev, Mas’ul muharrir). Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

8.O’zbek tilining izohli lug‘ati. (s.a.). Yumor. 2025-yil aprel oyida quyidagi manzildan olindi: https://izoh.uz/word/yumor

MUHAMMAD YUSUFNING “IQROR” SHE’RIDA KELTIRILGAN ODOB-AXLOQ LEKSEMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Nurillayeva Shahzoda Shukrulloyevna
Qarshi Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Yusufning “Iqror” she’rida uchraydigan odob-axloqqa oid leksemalarning lingvokulturologik tahlili amalga oshiriladi. Maqolada odob-axloq sohasiga oid til birliklari nafaqat leksik-semantik jihatdan, balki ularning madaniy konnotatsiyasi, xalqning mentaliteti va milliy qadriyatlar bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan ham tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida IMRaD uslubida ilmiy-metodik yondashuv asosida materiallar o‘rganilib, she’rda til va madaniyat uyg‘unligi qanday ifoda topgani ochib beriladi. She’rda uchraydigan “kamtarlik”, “halollik”, “kattaga hurmat”, “vijdon”, “sadoqat” kabi tushunchalar lingvokulturologik birlik sifatida baholanib, ularning badiiy-estetik funksiyasi yoritiladi. Ushbu maqola tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtasida olib borilgan tadqiqot bo‘lib, yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy yuksalishga xizmat qiluvchi tahliliy materialdir.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf, “Iqror” she’ri, odob-axloq leksemalari, lingvokulturologiya, badiiy til, milliy qadriyatlar, etik-madaniy birliklar, vijdon, sadoqat, o‘zlikni anglash.

Аннотация. В данной статье проводится лингвокультурологический анализ лексем, связанных с моралью, встречающихся в поэме Мухаммада Юсуфа “Исповедь”. В данной статье анализируются языковые единицы, связанные с моралью, не только с лексико-семантической точки зрения, но и с точки зрения их культурной коннотации, менталитета народа и их связи с национальными ценностями. В процессе исследования материалы изучаются на основе научно-методологического подхода в стиле IMRaD, и выявляется, как в поэме выражается гармония языка и культуры. Такие понятия, как “смирение”, “честность”, “уважение к старшим”, “совесть”, “верность”, встречающиеся в поэме, оцениваются как лингвокультурологические единицы, и выделяется их художественно-эстетическая функция. Данная статья представляет собой исследование, проведенное на стыке лингвистики, литературоведения и культурологии, и представляет собой аналитический материал, служащий пониманию национальной идентичности и духовного роста молодого поколения.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, поэма “Исповедь”, моральные лексемы, лингвокультурология, художественный язык, национальные ценности, этико-культурные единицы, совесть, верность, самосознание.

Abstract: This article presents a linguocultural analysis of moral lexemes found in Muhammad Yusuf’s poem “Confession.” The study explores linguistic units related to morality not only from a lexical-semantic perspective but also in terms of their cultural connotations, national mentality, and connection to traditional values. The research is conducted using a scientific and methodological approach in the IMRaD format, revealing how the poem reflects the harmony between language and culture. Concepts such as “humility,” “honesty,” “respect for elders,” “conscience,” and “loyalty,” which appear in the poem, are evaluated as linguocultural units, highlighting their artistic and aesthetic functions. This article is an interdisciplinary study at the intersection of linguistics, literary criticism, and cultural studies, offering analytical insights that contribute to understanding national identity and fostering the spiritual development of the younger generation.

Keywords: Muhammad Yusuf, Confession poem, moral lexemes, linguocultural studies, artistic language, national values, ethical-cultural units, conscience, loyalty, self-awareness.

1. Kirish (Introduction)

O‘zbek she’riyati milliy madaniyatning muhim qismi bo‘lib, milliy-ma’naviy qadriyatlarni ifodalashda muhim o‘rin tutadi . Unda xalqning tarixiy, ma’naviy, axloqiy qadriyatlari badiiy vositalar orqali ifodalanadi. She’riyat nafaqat badiiy estetik qiymatga ega, balki millatning ruhiy-madaniy merosini saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazishda muhim vositadir. Ayniqsa, odob-axloq me’yorlari va insoniy fazilatlarning she’riy matnlarda aks etishi o‘zbek adabiyotining milliy identifikatsiyasida katta rol o‘ynaydi.

Muhammad Yusuf – zamonaviy o‘zbek she’riyatining yorqin vakili bo‘lib, uning ijodida milliy ma’naviyat va odob-axloq qadriyatlari chuqur aks etgan. “Iqror” she’ri aynan shunday badiiy asarlardan biri bo‘lib, unda vatan, mehr-muhabbat, sadoqat, halollik va insoniylik kabi milliy-axloqiy tamoyillar yuksak badiiy til orqali ifodalanadi. She’rning tili sodda, xalqona bo‘lishi bilan birga, unda ishlatilgan odob-axloq leksemalari o‘zbek xalqining ma’naviy va madaniy kodlarini ochib beradi.

Lingvokulturologiya – til va madaniyat o‘zaro munosabatlarini o‘rganadigan yangi va keng tarqalgan ilmiy yo‘nalishdir. Lingvokulturologik yondashuv so‘nggi yillarda til va madaniyat munosabatlarini chuqurroq o‘rganishda keng qo‘llanilmoqda . Ushbu fan doirasida til birliklari, xususan leksemalar, milliy madaniyat va axloqiy-estetik qadriyatlarning noshiridan o‘rin olganligi tahlil qilinadi. Shunday ekan, “Iqror” she’ridagi odob-axloq leksemalarining lingvokulturologik tahlili nafaqat ularning lug‘aviy ma’nosini, balki ularning madaniy kontekst va axloqiy yuklarini ochishga imkon beradi.

Ushbu maqolada Muhammad Yusufning “Iqror” she’ridagi odob-axloq leksemalari lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqsad — she’rda uchraydigan odob-axloqiy so‘zlarning milliy madaniyat, axloqiy qadriyatlar va badiiy obrazlar bilan qanday bog‘langanini aniqlashdir. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek tilining milliy madaniy kodlarini, xalq ongidagi axloqiy-ruxiy tamoyillarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

2. Usullar (Methods)

Tadqiqot uchun Muhammad Yusufning “Iqror” she’ri matni tanlandi, chunki u milliy-axloqiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan badiiy asar sifatida lingvokulturologik tahlil uchun qulay material hisoblanadi. Tahlil jarayonida she’rda uchraydigan odob-axloq leksemalari aniqlandi va ularning lingvosemantik, ya’ni so‘zlarning ma’nosi va uning madaniy kontekstdagi ifodasi o‘rganildi. Shuningdek, leksemalarning pragmatik qirralari — ya’ni ularning she’r kontekstida qanday axloqiy-ruhiy ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi. Tadqiqotda milliy madaniyatning axloqiy-estetik kodlari sifatida leksemalarning madaniy funksiyasi ham o‘rganildi. Analiz uchun lingvokulturologiyaning zamonaviy metodlari, jumladan, semantik, pragmatik tahlil, kontekstual yondashuv hamda madaniyatshunoslik nazariyalari qo‘llanildi. Semantik va pragmatik tahlil usullari badiiy matnlarni chuqur tahlil qilishda qo‘llanadi . Lingvokulturologik metodlar madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda samarali hisoblanadi . Tadqiqot natijalari she’r matni va uning madaniy-axloqiy qirralarini chuqurroq tushunishga yordam berdi.

3. Natijalar (Results)

Tahlil natijalari ko‘rsatdiki, Muhammad Yusufning “Iqror” she’rida ishlatilgan odob-axloq leksemalari she’rning asosiy g‘oyaviy va ma’naviy mazmunini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi, milliy madaniyatning axloqiy-estetik kodlarini ifodalaydi . Ushbu leksemalar nafaqat lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, balki o‘zbek xalqining milliy madaniyati, axloqiy-estetik qadriyatlari va insoniylik tamoyillarining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Quyida tahlil qilingan asosiy leksemalar va ularning lingvokulturologik ahamiyati keltiriladi:

• Mehribon — she’rda bu so‘z ona-Vatan bilan bog‘liq beg‘araz, sof mehr-muhabbatni ifodalaydi . “Mehribon” leksemasi orqali shoir Vatanni ona obrazida ko‘rsatib, uning qadr-qimmatini, sadoqat va muhabbat bilan bog‘liq munosabatlarni ta’kidlaydi. Bu so‘z o‘zbek madaniyatida mehr-muhabbat, himoya va oila qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib,

milliy axloqiy normativlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

• Ta’zim — til va madaniyatimizda hurmat ramzi bo‘lgan bu so‘z she’rda milliy madaniyatdagi ehtirom, kamtarlik va vatan oldidagi fidoyilikni ifodalash uchun ishlatilgan. Ta’zim so‘zi nafaqat bosh egish, balki ichki kamtarlik va samimiy hurmatni anglatadi. Bu leksema o‘zbek xalqining axloqiy-estetik qadriyatlari, jumladan insonlar va Vatan oldidagi mas’uliyatni ifodalashda muhim o‘rin tutadi.

• Rahm — insonparvarlik va bag‘rikenglikni anglatuvchi so‘z sifatida, “Iqror” she’rida rahm-shafqatning muhimligi ta’kidlanadi. Ushbu leksema madaniyatimizda nafaqat yaqinlarga, balki boshqalarga, hatto dushmanlarga nisbatan ham rahm-shafqat ko‘rsatish tamoyilini ifodalaydi. Rahm so‘zi she’rga insoniylik, mehr-oqibat va ma’naviy poklik ruhini olib kiradi.

• Sodda — qalb pokligi, samimiylik va axloqiy halollikni anglatadi. Bu leksema she’rda shoirning o‘zini ochiq va sodiq inson sifatida ifodalashda xizmat qiladi. Sodda so‘zi o‘zbek madaniyatida kamtarlik va oddiylikning ijobiy jihatlarini ko‘rsatadi, bu esa milliy axloqiy qadriyatlarning muhim qismidir.

• Halovat — ruhiy osoyishtalik va ma’naviy tinchlik ramzi bo‘lib, she’rda vatan sog‘inchi va ichki kechinmalarning salbiy ta’siri natijasida buzilgan halovat tasvirlanadi. Bu leksema orqali milliy ruhiyatning ma’naviy muvozanati va uning tiklanishiga bo‘lgan intilish aks ettiriladi.

• Vahm — ichki bezovtalik, xavotir va vatan sog‘inchi bilan bog‘liq ruhiy iztirob timsoli. Ushbu leksema she’rga dramatiklik va hissiy chuqurlik olib kiradi, shuningdek, milliy ma’naviyatning muhim kechinmalaridan biri sifatida vatan sog‘inchining inson qalbida qanday aks etishini ko‘rsatadi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ushbu odob-axloq leksemalari nafaqat she’rning badiiy-estetik go‘zalligini oshiradi, balki o‘zbek xalqining milliy axloqiy qadriyatlarini, ma’naviy-estetik tamoyillarini ta’riflashda muhim vosita hisoblanadi. Leksemalarning lingvokulturologik yuki shundaki, ular o‘zbek tilining madaniy kodlarini, milliy-axloqiy ideallarni aks ettirib, milliy ong va madaniyatning davomiyligini ta’minlaydi.

4. Munozara (Discussion)

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Muhammad Yusufning “Iqror” she’ri o‘zbek xalqining lingvokulturologik kodlarini badiiy obrazlar orqali jonlantiradi va milliy-axloqiy qadriyatlarni chuqur ifodalaydi. She’rda ishlatilgan odob-axloq leksemalari nafaqat so‘z shaklida mavjud lingvistik birliklar, balki o‘zbek xalqining ma’naviy dunyosi, madaniy an’analari va axloqiy-estetik tamoyillarining ramzi sifatida yuzaga chiqadi. Bu leksemalar milliy identifikatsiyani mustahkamlash, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Muhammad Yusuf she’riyati milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlarni ifodalashda til va madaniyat munosabatlarining qanchalik muhimligini ko‘rsatadi

milliy madaniyat va tilning o‘ziga xosligi, ayniqsa, axloqiy tamoyillarni she’riyat orqali ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi.

She’rda ishlatilgan leksemalar madaniy kontekstga bog‘langan bo‘lib, ular orqali shoir o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy tajribasini yosh avlodga yetkazishga intiladi. Bu jihatdan “Iqror” she’ri nafaqat badiiy asar, balki milliy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida ham ahamiyatga ega. Lingvokulturologik yondashuv bu qadriyatlarni chuqur anglashga yordam beradi .

Lingvokulturologik yondashuv she’rda ishlatilgan odob-axloq leksemalarining madaniy-axloqiy yuki, ularning pragmatik ma’nolari va madaniyat kontekstidagi o‘rni haqida chuqurroq tushuncha beradi. Leksemalarning she’rdagi o‘rni, ularning badiiy ifodasi milliy madaniyatning nozik jihatlarini, jumladan insoniy fazilatlar, mehr-muhabbat, hurmat, kamtarlik, samimiylik kabi qadriyatlarni boyitadi va ular orqali o‘zbek tilining madaniy merosi yanada kengayadi.

Bundan tashqari, “Iqror” she’ri orqali shoir o‘zbek xalqining milliy ongini, ruhiy dunyosini aks ettiradi, milliy axloqiy qadriyatlarning o‘ziga xosligini badiiy shaklda ko‘rsatadi. Ushbu leksemalar she’rda milliy-ma’naviy identifikatsiya vositasi sifatida xizmat qilgan holda, til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Shuningdek, ular yordamida

she’rda vatan, ona, sadoqat va insonparvarlik g‘oyalari uyg‘unlikda ifodalanadi.

O‘zbek she’riyatida odob-axloq leksemalarining ushbu kabi lingvokulturologik tahlili milliy madaniyat va til o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi hamda badiiy matnlarni milliy-axloqiy qadriyatlar prizmasida tahlil qilish uchun yangi ilmiy yo‘nalishlarni ochadi. Shu boisdan ham Muhammad Yusufning “Iqror” she’ri lingvokulturologik tadqiqotlar uchun muhim va qimmatli manba bo‘lib qoladi.

5. Xulosa (Conclusion)

Muhammad Yusufning “Iqror” she’rida ishlatilgan odob-axloq leksemalari nafaqat lingvistik birliklar sifatida, balki o‘zbek milliy madaniyati va axloqiy qadriyatlarining muhim aks ettiruvchilari sifatida xizmat qiladi. She’r orqali ifodalangan leksemalar milliy-axloqiy tamoyillarni, insoniylik, vatanparvarlik, mehr-muhabbat va kamtarlik kabi qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi va bu jihatdan o‘zbek tilining madaniy merosining bir qismi hisoblanadi.

Lingvokulturologik tahlil o‘zbek she’riyatining +madaniy-estetik imkoniyatlarini yanada kengroq anglash imkonini beradi . Mazkur tahlil she’rda ishlatilgan odob-axloq leksemalarining madaniy va axloqiy kontekstini, ularning milliy axloqiy-estetik kod sifatidagi o‘rnini ochib beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, she’riy matnda uchraydigan leksemalar milliy madaniyatning nozik qadriyatlarini til orqali ifodalashda muhim vositadir. Ushbu tahlil o‘zbek she’riyatining madaniy-estetik imkoniyatlarini chuqurroq anglash va milliy identifikatsiya masalalarini o‘rganishda yangi ilmiy istiqbollarni ochadi.

Shunday qilib, “Iqror” she’ri nafaqat badiiy asar, balki o‘zbek xalqining ma’naviy hayoti, madaniyati va axloqiy qadriyatlarini til va madaniyat munosabatlari orqali keng ko‘lamda ochib beradigan muhim manba hisoblanadi. “Iqror” she’ri milliy ma’naviyatni yosh avlodga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi .Ushbu tadqiqot o‘zbek tilshunosligi va lingvokulturologiya sohasida kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun asos yaratadi hamda yosh avlodga milliy ma’naviyat va odob-axloq tamoyillarini yetkazishda o‘ziga xos hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, A. (2018). O‘zbek she’riyati madaniy-axloqiy qadriyatlari. Toshkent: Fan.
2. Ergashev, B. (2017). Lingvokulturologiya asoslari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Yusupova, M. (2022). Odob-axloq leksemalarining semantik tahlili. Lingvistik tadqiqotlar, 3(4), 55-61.
4. Karimova, D. (2021). She’riyatda odob-axloq leksemalarining roli. O‘zbek adabiyoti va madaniyati, 8(2), 34-40.
5. Sultonov, N. (2019). Til va madaniyat munosabatlari. Tilshunoslik, 12(1), 10-19.
6. Tursunov, E. (2020). Milliy madaniyat va adabiyot. Toshkent: Ilm-fan.
7. Tafakkur.net. (2023). Muhammad Yusufning “Iqror” she’ri. Olingan manzil: https://tafakkur.net/muhammad-yusuf-iqror

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASH JARAYONINING GENEZISI

Akramova Gulbahor Renatovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori, DSc

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash jarayonining genezisi xususida fikr boradi. Unda tanqidiy tafakkurning intellektual ildizlarini miloddan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon faylasufi Suqrotdan tadqiqotlaridan boshlangani va rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi tanqidiy tafakkur, rivojlantirish, ijtimoiy munosabat, genezis.

Jahon ta’lim tashkilotlarida o‘ quvchilarning deduktiv fikrlash, vaziyatlarni tahlil qilish, samarali yechimini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta’lim texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Avstraliyaning Kvinslend universitetida “Tanqidiy fikrlash yo‘li bilan onlayn baholashni kuchaytirish” loyihasi, Santa-Barbaradagi Kaliforniya universitetida “Tanqidiy fikrlash tadqiqot markazi” umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarning analitik fikrlash, atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, ijodiy tafakkur, muayyan vaziyatlarga xolisona baho berish, muammoni to‘g‘ri tahlil qilish va yechimni amalga oshirish ustida ishlash borasida amaliy loyihalarni tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida o‘quvchilarning tanqidiy tafakkuri, analitik fikrlash, muloqotga kirishuvchanlik, kreativ fikrlash, muayyan vaziyatlarni xolisona baholash, muammolarning oqilona yechimini topish, atroflicha mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, xavfsiz va inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirish, o‘zaro hamkorlik, guruhda ishlashni rag‘batlantirish, real hayotiy voqealardan foydalanish va o‘zini o‘zi namoyon qilishni rag‘batlantirish, o‘quvchilarga maktab va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun kerakli tanqidiy fikrlash va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda umumiy o‘rta ta’limni ijtimoiy ehtiyojlarga mos tarzda takomillashtirish, axborotni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va mulohaza yuritish, bilish usullari hamda ularni qo’llash kompetensiyasini rivojlantirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida quyidagilarga urg‘u berdi: “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi. O‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur”, - deb ta’kidladilar. Bu esa, o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish orqali ularni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 3-oktyabrdagi 558-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur

tadqiqot ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid tadqiqotlarda qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan. Jumladan. o‘qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda oliy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish loyihalari asosida o‘quvchilarda tanidiy fikrlashini rivojlantirishga ta’sir etuvchi motivlar tizimlashtirilgan (Rossiya). O‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish modeli psixologik testlarni yechishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan (Finlyandiya). O‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan muammolar yechimini topish ko‘nikmalari zamonaviy ta’lim paradigmalaridan foydalanish asosida takomillashtirilgan (AQSH). Tanqidiy fikrlashni kuzatish, ma’lumotlarni tahlil qilish, mantiqiy tafakkur, aniq dalil va tajribaga asoslangan fikrlash uyg‘unligini shakllantirish strategiyalari ishlab chiqilgan (Kanada). Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy tafakkuri, mantiq, axborot, notiqlik, bilimlar, munosabat va qadriyatlarga oid ko‘nikmalarini shakllantirish paradigmalari takomillashtirilgan (Yaponiya). Fuqarolik axloqini rivojlantirishda raqamli iqtisod talablariga mos sog‘lom turmush tarzi tana va ongni uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan (Janubiy Koreya).

Jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari, empatiya va boshqa ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash, o‘quvchilarga o‘zi va boshqalarni yanada yaxshiroq tushunish va samarali muloqot qilish, muammolarni hal qilish ko‘nikmalirini rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish va takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlarga katta e’tibor qaratilmoqda.

Tanqidiy tafakkurning intellektual ildizlarini miloddan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon faylasufi Suqrotning ta’lim amaliyoti va qarashlariga borib taqaladi. Suqrot odamlar o‘z e’tiqodlari va taxminlarini doimiy ravishda shubha ostiga qo‘yishlari, dunyoni to‘g‘riroq va nozikroq tushunish uchun boshqalar bilan muloqot va munozaralarda qatnashishlari kerak deb hisoblardi.

Suqrot murakkab g‘oyalarni kichikroq qismlarga bo‘lish va har bir qismni bir qator savol-javoblar orqali tekshirishni o‘z ichiga olgan so‘roq usulini ishlab chiqdi. Bu jarayon orqali Suqrot o‘z shogirdlarining tafakkurini shakllantirgan asosiy taxmin va qadriyatlarni ochishga, kerak bo‘lganda esa bu taxminlarga qarshi chiqishga harakat qildi.

Suqrotning tanqidiy tafakkur haqidagi g‘oyalari G‘arb falsafasi va ta’limiga doimiy ta’sir ko‘rsatdi va bugungi kunda ham o‘rganilmoqda va qo‘llanilmoqda. Suqrotcha usul hali ham ta’lim kontekstlarida keng qo‘llaniladi va tanqidiy fikrlash odamlar uchun turli xil kasblar va sohalarda ega bo‘lishi uchun qimmatli qo‘llanma sifatida tan olinadi.

Asrlar davomida Frensis Bekon, Rene Dekart, Jon Lokk, Immanyil Kant kabi mutafakkirlar Suqrot g‘oyalariga asoslanib, o‘zlarining tanqidiy tafakkurga oid nazariyalarini ishlab chiqdilar. Bugungi kunda tanqidiy tafakkur shaxsda bo‘lishi kerak bo‘lgan zaruriy fazilat sifatida keng e’tirof etilgan va ko‘plab ta’lim kontekstlarida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlab, oliy ta’lim muassasi talabalarigacha uzviy va uzluksiz rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta asrlarda tizimli tanqidiy tafakkur an’anasi atoqli faylasuf va ilohiyotshunos Foma Akvinskiyning ijodida ko‘rinadi. Xususan, uning “Summa Theologica” nomli monumental asarida tizimli va qat’iy fikrlash muhimligi ta’kidlangan. [92] U tanqidiy fikrlash nafaqat g‘oyalarni tahlil qilish va shubha ostiga qo‘yish, balki tanqidga o‘ylangan va mantiqiy munosabatda bo‘lish qobiliyatini ham talab qilishini tan oldi.

Foma Akvinskiy shuningdek, tanqidiy fikrlash shunchaki o‘rnatilgan e’tiqodlarni rad etish emas, balki bu e’tiqodlarni mavjud dalillar va mulohazalar asosida baholash ekanligini ta’kidladi. U aql va e’tiqod bir-birini to‘ldiradi, tanqidiy fikrlash diniy e’tiqodlarni chuqur tahlil qilish orqali aniqlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi, deb hisoblagan.

Akvinskiy g‘oyalarni baholash va takomillashtirish vositasi sifatida tanqidiy fikrlash muhimligini ko‘rsatdi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirish zarurligini ta’kidladi. Uning g‘oyalarini o‘rganish va tanqidiy fikrlash va falsafaning zamonaviy munozaralarida qo‘llashda davom etmoqda.

Uyg‘onish davrida (XV—XVI-asrlar) Yevropada ko‘plab olimlar din, san’at, jamiyat, inson tabiati, huquq va erkinlik haqida tanqidiy fikr yurita boshladilar. Ular inson hayotining aksariyat sohalari izlanishlar tahlili va tanqidga muhtoj, degan taxmin bilan davom etdilar. Bu olimlar orasida Angliyada Kolet, Yerasmus va Mur bor yedi. Ular qadimgilarning qarashlarini ma’qulladilar.

Frensis Bekon 16—17-asrlarda yashagan ingliz faylasufi va davlat arbobi. U zamonaviy empirik fanning asoschilaridan biri sifatida tanilgan va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynagan.

Bekon aqldan noto‘g‘ri foydalanish va inson tushunchasining cheklanishi bilan chuqur tashvishlangan. U o‘zining “Ta’limning rivojlanishi” [91] asarida inson ongi xatolikka moyil bo‘lib, tanqidiy fikrlash bilimlarni o‘zlashtirishga tizimli yondashishni talab qiladi, bu murakkab g‘oyalarni oddiyroq qismlarga ajratish, so‘ngra empirik kuzatish va tajribalar orqali bu qismlarni sinab ko‘rishni talab qiladi.

Bekonning g‘oyalari ilmiy uslubning rivojlanishiga hissa qo‘shdi va dalillarga asoslangan fikrlash va tadqiqotning muhimligini ta’kidladi. U tanqidiy fikrlash xatolardan qochish, e’tiqodlarimiz va harakatlarimiz asosli fikr hamda dalillarga asoslanganligini ta’minlash uchun muhim ekanligini tan oldi. Bekonning faoliyati tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi va uning g‘oyalari bugungi kunda ham ilmiy va falsafiy izlanishlarga ta’sir ko‘rsatmoqda. Uning kitobini tanqidiy fikrlashdagi eng dastlabki matnlardan biri deb hisoblash mumkin.

Fransuz faylasufi va matematigi Rene Dekart (XVII asr) tanqidiy fikrlashga qo‘shgan hissasi bilan mashhur. U o‘zining «Aqlni yo‘naltirish qoidalari» asarida tizimli va oqilona fikrlash usulini belgilab berdi va u «Kartezian usuli» deb nomladi. [164]

Dekart barcha qabul qilingan e’tiqod va g‘oyalarga shubha qilish va ma’lum bilimlarga erishish uchun aqldan foydalanish muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash murakkab g‘oyalarni oddiyroq bo‘laklarga bo‘lish, so‘ngra uning mantiqiy asosli ekanligiga ishonch hosil qilish uchun har bir qismni tahlil qilish va so‘roq qilishdan iborat uslubiy yondashuvni talab qiladi. Shuningdek, u aniq va ravshan fikrlarning muhimligini ta’kidlab, aniq tushunilishi mumkin bo‘lgan fikrlarnigina haqiqat sifatida hisoblash mumkin, deb hisobladi.

XVIII asrda Volter, Jan-Jak Russo, Immanyil Kant kabi mutafakkirlar tanqidiy fikrlash haqidagi tushunchalarni yanada kengaytirdilar.

Fransuz ma’rifatparvar yozuvchisi Volter fikr va so‘z erkinligining kuchli tarafdori edi. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash dunyoni tushunish uchun muhim va bilimni rivojlantirish uchun an’anaviy e’tiqod va taxminlarga qarshi turish kerak. Yana bir fransuz ma’rifatparvar faylasufi Jan-Jak Russo mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini aks ettirish muhimligini ta’kidlagan. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash o‘z-o‘zini chuqur anglashni talab qiladi. Kishilar dunyoga aniq va obyektiv qarashni rivojlantirish uchun o‘z taxminlari va tarafkashliklariga shubha qilishlari kerak.

Nemis faylasufi Immanyil Kant “Sof aql tanqidi” asarida tanqidiy fikrlashga tizimli yondashuvni ishlab chiqdi. Uning ta’kidlashicha, tanqidiy fikrlash bizning e’tiqodlarimizga asos bo‘lgan tamoyillar va taxminlarni jiddiy tahlil qilishni talab qiladi va biz asosli hamda noto‘g‘ri da’volarni farqlash uchun aqldan foydalanishimiz kerak.

Yuqorida tilga olingan mutafakkirlar tanqidiy fikrlash va uning vositalari haqidagi tushunchalarni kengaytirishga yordam beradi, mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini aks ettirish, fikrlash va tahlil qilishda tizimli yondashuv muhimligini ta’kidladilar. Ularning g‘oyalari bugungi kunda tanqidiy fikrlash haqidagi tushunchamizni shakllantirishda davom etmoqda.

Yilyam Grem Sumner tanqidiy fikrlashning hayot va ta’limdagi ahamiyatini tan olgan yana bir nufuzli mutafakkir edi. U amerikalik sotsiolog va Yel universiteti professori bo‘lib, ta’lim, ijtimoiy muammolar va siyosiy iqtisod mavzularida ko‘plab asarlar yozgan.

Sumner o‘zining «Xalq yo‘llari» kitobida tanqidiy fikrlash sog‘lom va samarali jamiyat uchun muhim ekanligini ta’kidladi. Uning fikricha, odamlar ongli qarorlar qabul qilish uchun o‘zlari uchun o‘ylashlari, belgilangan me’yorlar va e’tiqodlarga qarshi chiqishlari va dalillarni xolisona baholashlari kerak. Sumner, shuningdek, ta’limda tanqidiy fikrlashning muhimligini ta’kidladi. Uning fikricha, ta’lim faqat fakt va ma’lumotlarni eslab qolishdan ko‘ra, o‘quvchilarni tanqidiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatish kerak. Uning ta’kidlashicha, bu shaxsni mas’uliyatli fuqaro va jamiyatning faol ishtirokchisi bo‘lishga tayyorlash uchun zarurdir.

Sumnerning g‘oyalari ham individual hayotda, ham ijtimoiy kontekstda tanqidiy fikrlashning ahamiyatini kuchaytirishga yordam berdi va ular bugungi kunda ta’lim va sotsiologiya sohalarida ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda.

Jon Dyui ham hayotda, ham ta’limda tanqidiy fikrlash muhimligini tan olgan yana bir nufuzli mutafakkir edi. U amerikalik faylasuf, psixolog va ta’lim islohotchisi bo‘lib, demokratiya, ta’lim va ijtimoiy masalalar bo‘yicha shug‘ullangan.

Dyui tanqidiy fikrlash demokratiya va shaxslarning jamiyatda samarali ishtirok etishi uchun zarur deb hisoblagan. Uning ta’kidlashicha, odamlar ongli qarorlar qabul qilish va jamiyatga hissa qo‘shish uchun mustaqil fikrlash, hokimiyatga shubha qilish va dalillarni baholash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ta’lim nuqtayi nazaridan Dyui tanqidiy fikrlash o‘quv dasturi va pedagogikaning markaziy yo‘nalishi bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Uning fikricha, ta’lim eksperimental o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak, bunda o‘quvchilar ma’lumotni shunchaki yodlashdan ko‘ra, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilishda faol ishtirok etadilar. Dyui, shuningdek, o‘quv jarayonida fikrlash va izlanishning muhimligini ta’kidlab, o‘quvchilarni o‘z tajribalari haqida chuqur o‘ylashga va atrofdagi dunyo haqida savollar berishga undash zarurligini ta’kidladi.

Duui g‘oyalari ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berdi va uning ahamiyatini ham individual, ham jamiyat sharoitida kuchaytirdi. Uning faoliyati bugungi kunda ham ta’lim va falsafa sohalarida o‘z ta’sirini saqlab kelmoqda.

Amerikalik faylasuf va o‘qituvchi Jon Dyui yosh o‘quvchilar muayyan muammo bilan shug‘ullana boshlaganda tanqidiy fikrlashning paydo bo‘lishiga ishonadi. «O‘quv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi sifatida qabul qilinadigan vaziyat yoki hodisalar haqida so‘raladigan asosiy savol bu hodisa qanday muammolarni tug‘dirishi». Dyuining fikricha, kichik maktab o‘quvchilari muammolarni va tabiiy qiziqishni e’tiborga olish uchun tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlamoqda. «Faqat muayyan muammo bilan kurashib, qiyin vaziyatdan chiqish yo‘lini izlayapsiz, [maktab o‘quvchisi] haqiqatdan ham o‘yladi».[87] Shunday qilib, Dyui, tanqidiy fikrlash orqali, refleksiv fikrlashni anglatadi.

Natijada, tanqidiy fikrlashning bir tarafi boshqalarning fikrini va hissiyotlarini aks ettirish, his qilish va baholashda namoyon bo‘ladi. Tanqidiy fikrlashning boshqa tomoni ham bilimra bog‘liq. Bu holatda tanqidiy fikrlash baholash ishlarini amalra oshiradi: bilimlarning kelib chiqishi, uning ishonchliligi baholanadi, bilimlar izohlanadi va tushuniladi va uning asosida xulosa yoki xulosa chiqariladi. Shunday qilib, tanqidiy fikrlashning natijasi qaror, nuqtayi nazar, taklif, yangi yechim bo‘lishi mumkin. Biroq, tanqidiy fikrlash o‘z aksini topsa-da, uning aksini butunlay kamaytirmaydi.

Tanqidiy fikrlashning zamonaviy tushunchasi (uchinchi «to‘lqin») tanqidiy fikrlovchi kishining fazilatlarini ko‘rsatib, uni qobiliyat va qobiliyatlar doirasidan tashqariga olib chiqadigan shaxsiy sohaga urg‘u beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabr Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaati. https://president.uz/uz/lists/view/5774

2. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

3. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: «O`zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 400 b.

4. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.

5. Safarova R.G. O‘quvchilarning kreativ firklash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Metodik qo‘llanma. T.: 2023. 69 b.

6. Темпл, Ч., Стил Дж.Л., Мередит К.С. Критическое мышление — углубленная методика. Пос. 4. М.: Изд-во Ин-та «Открытое общество», 1998.

7. Tojiboyeva X.M. O`quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish. Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – T., 2018. – 152 b.

8. Заир-Бек С.И., Муштавинская И.В. Развитие критического мышления на уроке. Пособ. Для учителя. М.: Просвещение, 2004. 173 с.

9. Zunnunov A. Pedagogika tarixi.- Toshkent.: Sharq, 2004.-336 bet.

10. O‘zbek antologiyasi. T.: O‘qituvchi. 1995. 1-jild. 238 b.

FIZIKA FANI BO‘LAJAK MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SINGAPUR TA’LIM TIZIMI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Abdiyxamidova Soniya Jamshid qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Anotatsiya: Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimi davlatlar taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon miqyosida ilg‘or va samarali deb e’tirof etilgan ta’lim tizimlaridan biri – bu Singapur modeli bo‘lib, uning muvaffaqiyati xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallaganligi, innovatsion yondashuvlari va natijadorligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Singapur ta’lim tizimining asosiy xususiyatlari, uning muvaffaqiyat omillari, taqqoslashlar hamda O‘zbekiston uchun tavsiyalari yoritiladi.

Kalit so‘z: Globallashuv, taraqqiyot, virtual laboratoriya, fanlararo integratsiya, individual.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ФИЗИКЕ НА БАЗЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ СИНГАПУРА

Абдийхамидова Сония Джамшидовна,
Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация: В условиях современной глобализации и цифровой экономики система образования выступает одним из основных факторов развития стран. Одной из самых передовых и эффективных систем образования в мире является сингапурская модель, отличающаяся успехами в международных рейтингах, инновационными подходами и результатами. В данной статье освещены основные особенности системы образования Сингапура, факторы ее успеха, сравнения и рекомендации для Узбекистана.

Ключевые слова: Глобализация, развитие, виртуальная лаборатория, междисциплинарная интеграция, личность.

IMPROVEMENT METHODOLOGY IN THE TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS IN PHYSICS BASED ON THE SINGAPORE EDUCATIONAL SYSTEM

Abdikhamidova Soniya daughter of Jamshid,
Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: In the conditions of today’s globalization and digital economy, the education system appears as one of the main factors of the development of countries. One of the world’s most advanced and effective educational systems is the Singaporean model, which is distinguished by its success in international rankings, innovative approaches and results. This article highlights the main features of Singapore’s education system, its success factors, comparisons, and recommendations for Uzbekistan.

Key words: Globalization, development, virtual laboratory, interdisciplinary integration, individual.

Singapur mustaqil davlat sifatida 1965-yilda shakllanganidan so‘ng, qisqa muddatda taraqqiyotga erishgan davlatlar qatoriga kirdi. Singapur hukumati o‘z oldiga asosiy vazifalardan biri sifatida ta’lim sohasini modernizatsiya qilish va inson kapitalini rivojlantirishni maqsad qilib natijada, hozirgi Singapur ta’lim tizimi dunyodagi eng ilg‘or va samarador tizimlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ta’lim tizimi quyidagi bosqichlardan iborat:

Boshlang‘ich ta’lim (Primary Education): 6 yil davom etadi (7 yoshdan boshlanadi).O‘rta

ta’lim (Secondary Education): 4-5 yil davom etadi.Oliy ta’lim (Tertiary Education): Politexnika, universitet va institutlarda davom etadi.Ushbu davlatning ta’lim tizimini boshqa ilg‘or davlatlar bilan taqqoslash: Singapur ta’lim tizimi Finlyandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlar bilan birga dunyoda etalon sifatida ko‘riladi. Quyidagi 1-jadval asosiy farqlar va o‘xshashliklarni ko‘rsatadi:

1-jadval

Mamlakat	O‘qituvchilar tayyorlash	Ta’lim monitoringi	Raqamli texnologiyalar	Individual yondashuv
Singapur	Markazlashgan, kuchli	Yillik va xalqaro	Yuqori darajada	Keng joriy etilgan
Finlyandiya	Yuksak erkinlik	Minimal, ishonch	O‘rtacha	Erkin yondashuv
Janubiy Koreya	Kuchli tayyorlash	Rigid, bosqichli	Raqamli ta’lim keng	Taqqoslab kuchsiz
Yaponiya	Kuchli, uzluksiz	Milliy monitoring	Keng joriy etilgan	Ko‘proq umumiy

Singapur tajribasining muvaffaqiyat omillari: O‘qituvchilarni tanlash va muntazam rivojlantirish; Davlat tomonidan qat’iy nazorat va standartlar; Innovatsion texnologiyalardan foydalanish; Ta’limdagi moslashuvchanlik va o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv; Jamiyat va ota-onalar bilan integratsiyalashgan hamkorlik. Bu yo‘nalishlar ta’lim jarayonini rivojlanish omillari sifatida xizmat qiladi. Singapurda o‘qituvchilarning roli ta’lim tizimining markazida turadi va ularning malakasini oshirish hamda doimiy rivojlanishi uchun maxsus institutsional tizim yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tizim asosida ta’lim berish jarayoni takomillashib individual fikr yuritiladi [1]. Barcha o‘qituvchilar National Institute of Education (NIE) orqali tayyorlanadi va kasbiy rivojlanish dasturlarida qatnashadi [2].Ta’lim dasturlari zamonaviy ilmiy va texnologik yangiliklarga asoslanadi, natijada, o‘quv dasturlariga virtual laboratoriyalar, fanlararo loyihalar va zamonaviy fizika yo‘nalishlari kiritiladi. Fanning zamonaviy texnologiya asosida rivojlanishi jadallashadi [3].O‘quv dasturlari va baholash mezonlari muntazam yangilanib boriladi [4]. Ta’lim tizimi individual yondashuvga katta e’tibor beradi. Har bir o‘quvchining ehtiyoj va salohiyatiga moslashtirilgan o‘qitish, loyihaviy va tadqiqot ishlariga keng imkoniyat yaratadi [1]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) Singapurda barcha ta’lim bosqichlarida faol qo‘llaniladi, ayniqsa STEM (science, technology, engineering, mathematics) yo‘nalishlarida [5]. Raqamli ta’lim platformalari, onlayn kurslar va interaktiv resurslardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. Singapurda talabalar xalqaro olimpiadalar, yozgi maktablar va fanlararo tadqiqotlarda faol ishtirok etadi. Bu esa ilmiy salohiyat va keng dunyoqarash shakllanishiga zamin yaratadi (Ministry of Education, 2023). Talabalarning ilmiy tadqiqot va startap faoliyatini rag‘batlantirish Singapur universitetlarining asosiy vazifalaridan biridir [6]. Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik talaba muvaffaqiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy-populyar tadbirlar va ommaviy ma’rifiy loyihalarda talabalarning ishtiroki rag‘batlantiriladi [7].

Oliy ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan fizika bakalavriat o‘quv reja modeli (Singapur tajribasi asosida)

№	Fan nomi	Semestr	Kredit	Eslatma
1	Klassik mexanika	1–2	6	Asosiy kurs
2	Matematik analiz	1–2	6	Yordamchi fan
3	Elektr va magnitizm	2–3	6	Asosiy kurs
4	Differensial tenglamalar	2–3	4	Yordamchi fan
5	Termodinamika va statistik fizika	3–4	5	Asosiy kurs
6	Optika	4–5	4	Asosiy kurs
7	Kvant mexanikasi	4–5	6	Asosiy kurs
8	Fizikaviy laboratoriya ishlari	1–7	10	Har semestrda
9	Informatika va dasturlash asoslari	1–2	4	AKT ko‘nikmalari
10	Fanlararo integratsiya (STEAM) kurslari	2–4	4	Muqobil kurslar
11	Zamonaviy fizikaning yo‘nalishlari	5–7	6	Tanlov asosida (nano-, astrofizika va b.)
12	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	5–6	3	Dissertatsiya/loyiha oldi
13	Akademik yozuv va ilmiy ingliz tili	1–2	4	Ilmiy jamoaga integratsiya
14	Ochiq/elektron ta’lim resurslari	1–4	2	Onlayn kurs va platformalar
15	Pedagogika/ta’lim metodikasi (ixtiyoriy)	6–7	3	Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun
16	Yakuniy loyiha yoki bitiruv malakaviy ish	7–8	8	Tadqiqot va amaliyot asosida

2. O‘quv rejaning asosiy tamoyillari va metodik yondashuvlari:Fundamental va zamonaviy bilimlar uyg‘unligi: Singapur tajribasidagi asosiy yo‘nalishlarni (klassik fizika, zamonaviy fizika, hisoblash fizikasi) birlashtirish.Amaliy va ilmiy-tadqiqot faoliyati: Har semestr laboratoriya ishlari, mustaqil loyiha va tadqiqot faoliyati (UROPS singari).Fanlararo va tanlov asosidagi kurslar:

Talabaning qiziqishiga mos zamonaviy yo‘nalishlar, fanlararo integratsiya (STEAM), ochiq va onlayn kurslarni taqdim etish. AKT va raqamli texnologiyalar integratsiyasi: Matlab, Python, kompyuter modellashtirish va onlayn laboratoriyalarni joriy etish. Xalqaro baholash va monitoring:

Yil yakunida PISA/TIMSS ga o‘xshash xalqaro baholash standartlariga mos baholash. Yil yakuni uchun yakuniy loyiha yoki startap: Singapur tajribasidagi yakuniy loyiha yoki tadqiqotga e’tibor (Final Year Project). Ilmiy va akademik yozuv:Ilmiy maqola yozish, chet tilida taqdimot va hisobot tayyorlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3. Amaliy tavsiyalar:

Laboratoriya mashg‘ulotlari: Har semestr real yoki virtual laboratoriya ishlari, zamonaviy asbob-uskunalar va onlayn simulyatorlardan foydalanish.

Mentorlik va ilmiy rahbarlik: Har bir talaba individual loyiha ustida ishlashi, ilmiy rahbar yoki mentor yordamida tadqiqot olib borishi.

Tanlov va erkin fanlar: Zamonaviy va bozor ehtiyojiga mos kurslar (nanotexnologiya, tibbiy fizika, data science, ekofizika).

Fanlararo loyihalar: Matematika, informatika, kimyo yoki muhandislik bilan integratsiyalashgan loyihalar tashkil qilish.

Xalqaro hamkorlik: Talabalar uchun yozgi maktablar, konferensiyalar va xalqaro olimpiadalarga qatnashish imkoniyatini yaratish.

4.Manbalar va asoslash:

National University of Singapore — BSc (Hons) in Physics: physics.nus.edu.sg/study-plans
Nanyang Technological University — BSc (Hons) in Physics: ntu.edu.sg/spms
OECD, PISA, TIMSS baholash tizimlari

Goh, C. B., & Gopinathan, S. (2008). Education in Singapore:Development since 1965. World Bank Publications.

Xulosa o‘rnida Singapur oliy ta’limidagi ilg‘or tajribalar va o‘quv rejalari asosida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi fizika bakalavriat yo‘nalishini modernizatsiya qilish uchun bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Eng avvalo, fundamental va zamonaviy fizika bilimlarini uyg‘unlashtirish, laboratoriya va tadqiqot faoliyatiga keng imkoniyat yaratish, raqamli texnologiyalar va fanlararo integratsiyani ta’lim jarayoniga faol joriy etish muhimdir. Tanlov va ixtisoslashuv kurslari, mentorlik tizimi va xalqaro baholash standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish O‘zbekiston oliy ta’limining raqobatbardoshligini oshiradi. Bu yondashuv natijasida bo‘lajak fizika mutaxassislari xalqaro me’yor va talablarga javob bera oladigan, zamonaviy va innovatsion fikrlaydigan kadrlar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va havolalar

1. Tan, J. (2017). Education in Singapore: Pathways to excellence. Educational Research for Policy and Practice, 16(2), 119-133. [Scopus]
https://link.springer.com/article/10.1007/s10671-017-9216-0
2. National Institute of Education Singapore (NIE). Rasmiy sayt.
https://www.nie.edu.sg
3. Goh, C. B., & Gopinathan, S. (2008). Education in Singapore: Development since 1965. In: Lee, Y. J. et al. (eds) Toward a better future: Education and training for economic development in Singapore since 1965. World Bank Publications. [WOS]https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/6535
4. OECD. (2019). PISA 2018 Results: Singapore Country Note. https://www.oecd.org/pisa/publications/PISA2018_CN_SGP.pdf
5. Ministry of Education Singapore. (2023). https://www.moe.gov.sg/
6. Ho, L. (2018). Parent engagement in Singapore schools: Beyond the rhetoric. Asia Pacific Journal of Education, 38(4), 516-530. [Scopus]
https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/02188791.2018.1530196

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA KOPING-STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH-KASBIY FAOLIYATNI MUVAFFAQIYATLI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDA

Aliboev Himaydin Fayzulla o'g'li
TDPU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar tizimi xodimlarining kasbiy faoliyati jarayonida duch keladigan stressli va xavfli holatlarni yengib o'tishda koping-strategiyalarni shakllantirishning psixologik ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada koping-strategiya tushunchasi, uning turlari, psixologik omillari va xizmat samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, faol muammoli yondashuv va emotsional boshqaruvning o'zaro uyg'unligi, xodimlarda psixik barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni hamda kasbiy stressni yengishga xizmat qiluvchi amaliy usullar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Koping-strategiya, ichki ishlar xodimi, stress, psixik barqarorlik, emotsional boshqaruv, kasbiy faoliyat, psixologik moslashuv.

ФОРМИРОВАНИЕ КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ У СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСПЕШНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Алибоев Химайдин Файзулла угли
Научный сотрудник, Ташкентский государственного педагогического университета

Аннотация. Материал статьи посвящен освещению психологической значимости формирования копинг-стратегий при преодолении стрессовых и опасных ситуаций, с которыми сталкиваются сотрудники органов внутренних дел в процессе своей профессиональной деятельности. В статье анализируется понятие копинг-стратегии, ее виды, психологические факторы и влияние на эффективность службы. В частности, описывается взаимная совместимость активного подхода к решению проблем и эмоционального менеджмента, его роль в обеспечении психологической устойчивости сотрудников, а также практические методы преодоления профессионального стресса.

Ключевые слова: Копинг-стратегия, сотрудник органов внутренних дел, стресс, психологическая устойчивость, эмоциональное менеджмент, профессиональная деятельность, психологическая адаптация.

FORMATION OF COPING STRATEGY IN INTERNAL AFFAIRS EMPLOYEES AS A FACTOR ENSURING SUCCESSFUL PROFESSIONAL ACTIVITY

Aliboev Himaydin Fayzulla ugli
Researcher, TDPU

Abstract. The material in this article is devoted to highlighting the psychological importance of forming coping strategies in overcoming stressful and dangerous situations encountered by internal affairs employees in the process of their professional activities. The article analyzes the concept of coping strategy, its types, psychological factors and impact on service efficiency. In particular, the mutual compatibility of an active problem-solving approach and emotional management, its role in ensuring psychological stability in employees, and practical methods for overcoming professional stress are described.

Key words: Coping strategy, internal affairs employee, stress, psychological stability, emotional management, professional activity, psychological adaptation.

KIRISH. Ichki ishlar xodimlari faoliyatining o'ziga xosligi shundan iboratki, ular doimiy ravishda

yuqori darajadagi stress, xavfli vaziyatlar va emotsional bosim ostida ishlaydi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish, ommaviy tartibni saqlash, favqulodda vaziyatlarda insonlarga yordam berish, keskin ziddiyatli munosabatlarni hal qilish – bularning barchasi nafaqat jismoniy, balki kuchli psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi. Bunday sharoitda xodimning psixik barqarorligini ta’minlash, stressli holatlarga nisbatan sog‘lom munosabatda bo‘lishi va ularni yengib o‘tish mexanizmlariga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday mexanizmlardan biri bu – koping-strategiyadir. Koping-strategiyalar ichki ishlar xodimlari uchun psixologik moslashuv vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu strategiyalar orqali inson murakkab hayotiy vaziyatlarga ongli yondashadi, stressni yengilroq qabul qiladi, ruhiy holatini saqlab qoladi va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Zamonaviy psixologiyada koping-strategiyalar – bu shaxs tomonidan stressli vaziyatlarga beriladigan psixologik va xulqiy javoblar majmuasi sifatida izohlanadi. Ular insonning muammoli holatga qanday yondashishini, uni hal etish jarayonida qanday psixik resurslarni safarbar etishini, va nihoyat, bu jarayonda qanday ruhiy holatga tushishini belgilaydi. Ichki ishlar xodimlari uchun esa bu strategiyalar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular faqat o‘z hayoti uchun emas, balki ko‘pincha atrofdagi insonlarning hayoti va xavfsizligi uchun ham javobgardir. Agar xodimda stressni boshqarish va yengish ko‘nikmalari yaxshi shakllangan bo‘lsa, u favqulodda holatlarda sovuqqonlik bilan qaror qabul qilishi, mantiqiy fikrlashi va vaziyatni ijobiy yo‘lga yo‘naltirishi mumkin. Aks holda esa stressning ichki zo‘riqishga aylanishi, hissiy portlashlar, depressiv kayfiyat, befarqlik yoki ag‘ressiv xatti-harakatlar yuzaga keladi, bu esa xizmat samaradorligini keskin pasaytiradi.

Ichki ishlar tizimidagi kasbiy faoliyat o‘zining murakkabligi, jiddiyligi va ijtimoiy javobgarligi bilan ajralib turadi. Bu tizimda ishlayotgan xodim doimiy ravishda tezkor, to‘g‘ri va aniq qarorlar qabul qilishga majbur. Shu bois, u nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham chiniqqan bo‘lishi lozim. Koping-strategiyalar aynan shunday ruhiy barqarorlikni ta’minlovchi vosita sifatida ishlaydi. Misol uchun, faol muammoni hal qilish strategiyasi orqali xodim stressga sabab bo‘lgan vaziyatni tahlil qiladi, uni nazorat ostiga olishga harakat qiladi va konstruktiv echim topishga intiladi. Emotsional koping esa — salbiy tuyg‘ularni o‘z vaqtida anglash, ularni ifoda qilish yoki yumshatish, ichki holatni me’yorda saqlashga xizmat qiladi. Har ikki yo‘nalish ham o‘z o‘rnida muhim bo‘lib, xodimning psixik muvozanatini tiklashga va kasbiy samaradorligini oshirishga zamin yaratadi [1].

MAZMUNI. Ko‘p yillik tajriba shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar xodimlarining faoliyati davomida stressni yengish qobiliyati ularning xizmat samaradorligi, kasbiy sadoqati va ruhiy salomatligi bilan bevosita bog‘liq. Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, koping-strategiyalari yaxshi rivojlangan xodimlar o‘z vazifalarini ongli, sabr-toqatli va ishonch bilan bajaradi, ularning ishga munosabati ijobiy, boshqalar bilan muloqotda konstruktiv, o‘zini anglash va baholash darajasi esa yuqori bo‘ladi. Bunday xodimlar muammolarni hal qilishda tashabbuskorlik, ijobiy fikrlash, ichki kuchga ishonch kabi psixologik resurslardan samarali foydalanadi. Shu bilan birga, bunday xodimlar kasbiy charchoq, ruhiy siqilish, burn-out sindromi kabi holatlarga nisbatan kamroq moyillik ko‘rsatadi. Demak, koping-strategiyani shakllantirish bu — ichki ishlar tizimida samarali ishlash, uzoq muddatli kasbiy faoliyatni sog‘lom davom ettirishning kalitidir.

Mazkur strategiyalarni rivojlantirishda xizmat davrida doimiy psixologik tayyorgarlik, psixoprofilaktik mashg‘ulotlar, treninglar, guruhiy psixologik maslahatlar, emotsional intellektni rivojlantiruvchi dasturlar asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Psixologik xizmat xodimlari tomonidan tashkil etiladigan maxsus stressga qarshi kurashish bo‘yicha treninglar, favqulodda holatlarda hissiy nazorat mashqlari, o‘z-o‘zini tahlil qilishni o‘rgatadigan metodikalar orqali xodimlar asta-sekin stressli vaziyatlarga barqaror yondashuvni shakllantiradi. Ayniqsa, yosh xodimlar uchun kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichlarida bunday psixologik yordamlar katta ahamiyat kasb etadi. Chunki xizmatga yangi qadam qo‘ygan shaxs ko‘pincha hayajon, xavotir

va tajriba yetishmasligidan kelib chiqqan holda o‘z resurslarini to‘g‘ri boshqara olmaydi. Bu esa uni jismoniy va emotsional jihatdan charchatadi. Bunday holatlarning oldini olishda koping strategiyalarini shakllantirish eng muhim psixoprofilaktik vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi [2].

NATIJALAR. Umuman olganda, inson yengish strategiyasidan foydalanib, o‘z idrokini buzadi yoki vaziyatni inkor etadi. Yengish strategiyasida inson xato qilishi mumkin, bir tomondan uning harakatlari haqiqatga yaqinlashishi uchun, uni shaxs qattiq nazorat qiladi. Bunday holatda muammo yechim topadimi yoki yo‘qmi, u inson tomonidan muammo deb tan olinadi.

L.Yu.Subbotining qayd etishicha, himoya mexanizmida inson haqiqatni “tekshirmaydi” balki, o‘zidagi salbiy his-tuyg‘ularni siqib chiqarish uchun, o‘z holatini mustaqil ravishda o‘zgartiradi. Demak, himoya mexanizmi, salbiy his-tuyg‘ularni kamaytirish, muammolarni hal qilish yoki muammo bilan bog‘liq hodisalarni o‘z ichiga oladi. Ya’ni vaziyatni inkor etish, xavfni bostirish, muammoni ratsional hal etish va boshqalar[3, 76]. Boshqacha aytganda - bu muammoni idrok etish yoki u bilan bog‘liq his-tuyg‘ularga qaratilgan kurash strategiyasidir. Z. X.Sierraltaning fikricha, insonga tegishli yengish strategiyalarining uch guruhi ajratiladi[4, 13]:

– Strategiyalarning birinchi guruhi – bu ijtimoiy yordamni izlashni o‘z ichiga olib, u boshqa odamlardan yordam kutish yoki kimgadir suyanish bilan xarakterlanadi;

– Ikkinchi guruhga esa, stress bilan kurashish strategiyasi bo‘lib, unda inson qiyin vaziyatdan chiqib ketishning eng maqbul usullarini qidiradi;

– Uchinchi guruhga stressni kamaytirish maqsadida inson ichki va tashqi voqelikni to‘liq idrok etishga harakat qiladi. Va vaziyatni o‘zgartirishga urinadi, u haqda ma’lumotlar to‘playdi. Va oxir-oqibat muammodan xolos bo‘ladi.

Bundan tashqari, stress jismoniy (jismoniy, kimyoviy, biologik omillar) va hissiy (salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan psixologik omillar) ga ham bo‘linadi. Stress belgilari ijtimoiy mavqe’ va ish turidan qat’i nazar, barcha odamlar tomonidan boshdan kechiriladi. Tadqiqotchilar stresli vaziyatlarni yengishning asosiy strategiyalari sifatida, sog‘lom e’tiqod, qo‘llab-quvvatlash, oqilona harakat, ijobiy his-tuyg‘ularni ko‘rsatish, moslashuvchanlik va hazilkash bo‘lishni samaraliroq deb topdilar. Ya’ni hayotda barcha insonlar kerak bo‘lsa barcha kasb egalari shunday strategiyalarga ega bo‘lsalar, har qanday stress yoki zo‘riqishlar oldida ilojsiz qolmaydilar. Bundan tashqari, shunday strategiyalar borki ular insonni muvaffaqqiyatsizlikka va umidsizlikka olib keladi. Ya’ni dushmanlik, qaror qabul qila olmaslik, fantaziyadan voz kechish, o‘zini o‘zi ayblash, vaziyatga shunchaki yuzaki qarash, doimiy e’tiborsizlik, chidamsizlik va boshqalar.

Kulgining salbiy his-tuyg‘ularga qarshi kurashish strategiyasi sifatidagi ta’sirini chuqur o‘rganish N. Kuper va R. Martin tomonidan olib borilgan. Mualliflarning aytishicha, stressning yuqori darajasi kamdan-kam kuladigan odamlarda uchrasa, ko‘p kuladigan odamlarda stresslarning kuchayishi kuzatilmaydi yoki ular yengil boshdan kechiriladi. Bundan tashqari, ko‘p kuladigan erkaklarda stressning kuchayishi ijobiy ta’sirning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan [5,74]. Stressli yoki qiyin vaziyatda psixologik sog‘lomlikning muhim sharti sifatida, ikki turdagi kurash strategiyalari farqlanadi. Ya’ni muammoga yo‘naltirilgan, uni faol hal qilishga intilish bo‘lsa, ikkinchisi undan qochish, ya’ni muammoli vaziyatni tark etish. Birinchisi, ikkinchisidan ko‘ra ko‘proq psixologik salomatlikka va stressorga muvaffaqiyatli moslashishga bog‘liqdir. Bundan tashqari, kurashdan qochish giyohvand moddalarni iste’mol qilish va alkogolizmga berilib ketish bilan xarakterlanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar xodimlarida koping-strategiyani shakllantirish — bu oddiy psixologik metod emas, balki kasbiy barqarorlik, emotsional sog‘lomlik, xizmat samaradorligi va insoniy qadriyatlarni saqlab qolishning asosiy omilidir. Bu strategiyalar shaxsni og‘ir, ziddiyatli vaziyatlarda asabiy-ruhiy kuchini yo‘qotmaslikka, ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni saqlashga, o‘ziga va kasbiy vazifasiga ishonch bilan qarashga o‘rgatadi. Ichki ishlar tizimi o‘zida koping-strategiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli yondashuvni shakllantirsa, bu nafaqat xodimlar ruhiy salomatligi, balki butun tizimning ijtimoiy ishonchli faoliyatiga ijobiy

ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, ichki ishlar xodimlarida koping-strategiyalarni shakllantirishga oid ishlar zamonaviy psixologiya va ijtimoiy xavfsizlikning tutashgan chorrahasida turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Бурлакова, Н.С., Олешкевич, В. И. Детский психоанализ: Школа Анны Фрейд: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. / Н.С Бурлакова, В. И. Олешкевич. // М.: Изд-во Академия, 2005. — 288 с., С. 209–211.

Гарбер, А. Н. Совладающее поведение: аналитический обзор зарубежных исследований / А. Н. Гарбер. // Актуальные вопросы современной психологии: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Челябинск, февраль 2015 г.). — Челябинск: Два комсомольца, 2015. — 114 с., С. 17–19.

Субботина Л. Ю. Психологическая защита: учебное пособие для вузов / Л. Ю. Субботина. - М.: Изд-во Юрайт, 2020. - 195 с.

Сиерральта З. Х. Особенности психических ресурсов личности в раннем юношеском возрасте: Копинг-стратегии, защитные механизмы, социальный интеллект и общий интеллект: автореф. дис. ... канд. психол. наук. Сиерральта Зуньига Хорхе Бернардо. 19. 00. 04. - СПб., 2000. - 18 с.

Kuper N., Martin R. Stress, coping, and the meaning of work// Monat A. and Richard S. Lazarus. Stress and Coping, N. - Y., 1991. - P.140.

OLIY TA’LIMDA TALABALAR PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Aliev Islambek Tursinbaevich,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, (DSc) mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’limda talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari, usullari hamda uning samaradorligini oshirish imkoniyatlari, talabalarning pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari, metodlari va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan muammolar va yechimlar masalalari talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: bilimlilik, pedagogika, nazariya, metodologiya, bilimlar, ko‘nikmalar, faoliyat, zaruriyat, qobiliyat, malaka, vazifa, mustaqil, samaralilik, bajarish, shaxs, sifatlar, mas’uliyat, ijodkorlik.

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Алиев Исламбек Турсынбаевич,
кандидат педагогических наук, доцент, самостоятельный соискатель степени доктора наук (DSc). Национальный педагогический университет Узбекистана им. Низами

Аннотация. В статье рассмотрены современные направления, методы и возможности повышения эффективности развития педагогических компетенций студентов в высшем образовании. Анализируются теоретические основы формирования педагогических компетенций студентов, методы и возможности их применения на практике, а также проблемы, возникающие в процессе развития педагогических компетенций, и пути их решения.

Ключевые слова: компетентность, педагогика, теория, методология, знания, умения, деятельность, необходимость, способность, навык, задача, самостоятельность, эффективность, выполнение, личность, качества, ответственность, творчество.

DEVELOPMENT OF STUDENTS’ PEDAGOGICAL COMPETENCIES IN HIGHER EDUCATION

Aliev Islambek Tursinbaevich,
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, Independent Researcher (DSc) Nizami Uzbekistan National Pedagogical University

Abstract. The article analyzes modern approaches, methods, and opportunities for enhancing the effectiveness of developing students’ pedagogical competencies in higher education. It discusses theoretical foundations of forming students’ pedagogical competencies, methods, and possibilities for their practical application, as well as problems encountered in the process of developing pedagogical competencies and proposed solutions.

Key words: competence, pedagogy, theory, methodology, knowledge, skills, activity, necessity, ability, proficiency, task, independence, effectiveness, performance, personality, qualities, responsibility, creativity.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida pedagogik kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir mutaxassis nafaqat o‘z sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi,

balki pedagogik yondoshuvlarni ham o‘zlashtirib, talabalarni samarali o‘qitish va tarbiyalashga qodir bo‘lishi zarur. Pedagogik kompetensiyalar – bu nafaqat ta’lim jarayonini tashkil etish, balki o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sanaladi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali ularni kelajakda muvaffaqiyatli muallim yoki pedagog xodim sifatida tayyorlash, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur mavzudagi tahlillar va tavsiyalar oliy ta’lim tizimini takomillashtirish va mutaxassislarning pedagogik salohiyatini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi keskin o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Texnologiyalar taraqqiy etishi, jamiyatning talablari va pedagogik g‘oyalarning yangilanishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim berish usullari hamda mazmunlari uzluksiz takomillashtirilishi shart. Ana shunday sharoitlarda talabalarning nafaqat o‘z mutaxassislik sohalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini, balki pedagogik kompetensiyalarini ham rivojlantirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Pedagogik kompetensiyalar – bu o‘qitish jarayonini tashkil qilish, o‘quvchilarni motivatsiyalash, ular bilan samarali muloqot o‘rnatish, ta’limning individual xususiyatlarini inobatga olish kabi ko‘p qirrali qobiliyatlar majmuasidir. Ayniqsa, oliy ta’lim darajasidagi talabalar orasida pedagogik kompetensiyalar shakllanishi kelajakda pedagogika sohasida faoliyat olib borishni istagan yosh mutaxassislar uchun juda muhimdir. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifati va talabalarning bilimining amaliyotga tatbiq etilish darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagogik kompetensiyalar zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, fanlarni o‘qitishda interaktiv usullarni qo‘llash, o‘quv jarayonini ilmiy asoslangan pedagogik metodlar bilan boyitish kabi imkoniyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Demak, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning pedagogik salohiyatini rivojlantirish mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy kamolotiga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogik kompetensiyalar nafaqat o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish, balki talabalarni uzluksiz rivojlanishga yo‘naltirish, ularning ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy kamolotini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida pedagogik kompetensiyalar tizimli ravishda shakllantirilishi va takomillashtirilishi kerak.

Pedagogik kompetensiya – bu pedagogning yoki pedagogik faoliyatda ishtirok etuvchi shaxsning bilim, ko‘nikma va malakasini o‘z ichiga olgan murakkab tushuncha hisoblanadi. U o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, pedagogik metod va usullarni to‘g‘ri qo‘llash kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi [1].

Pedagogik kompetensiyalar quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga bo‘linadi:

bilimlilik – pedagogik nazariya va metodologiyaga oid bilimlar;

ko‘nikmalar – pedagogik faoliyatni amalga oshirishda zarur bo‘lgan amaliy qobiliyatlar;

malaka – murakkab pedagogik vazifalarni mustaqil va samarali bajarish qobiliyati;

shaxsiy sifatlar – pedagogning mas’uliyat, muvozanatlilik, ijodkorlik va boshqa xususiyatlari.

Pedagogik kompetensiyalar – kelajakda pedagogik faoliyat olib boruvchi yosh mutaxassislar uchun zarur bo‘lgan kasbiy salohiyatni shakllantirishning asosidir. Ular orqali talabalar faqat nazariy bilim bilan cheklanmay, balki o‘quv jarayonida amaliyotda pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlanadilar.

Oliy ta’limda pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish talabalarning kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishini ta’minlaydi, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi va milliy ta’lim tizimining sifatini oshiradi [3].

Talabalarning pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi usullar samarali hisoblanadi [2]:

Nazariy bilimlarni kengaytirish – pedagogika, psixologiya, metodika kabi fanlarni chuqur

o‘rganish.

Amaliyotdan o‘tish – ta’lim muassasalarida pedagogik stajirovka va treninglarda faol ishtirok etish.

Interaktiv o‘qitish usullari – muammo yechish, guruhlik ish, rol o‘yinlari va diskussiyalar orqali bilimlarni mustahkamlash.

Refleksiya va samoharakatlar – o‘quv jarayonini tahlil qilish va o‘z faoliyatini takomillashtirish.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish – elektron ta’lim resurslari, onlayn platforma va pedagogik ilova vositalarini qo‘llash.

Natijalar va muhokamalar. Oliy ta’limda talabalar pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Masalan, nazariy bilimlar va amaliyot o‘rtasidagi bog‘lanishning kuchsizligi, ta’lim jarayonida interaktiv usullarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi, pedagogik malaka uchun zarur bo‘lgan amaliy imkoniyatlarning cheklanganligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, pedagogik amaliyotga alohida e’tibor qaratish, muallimlar va talabalar o‘rtasida muloqotni kuchaytirish muhimdir. Shu bilan birga, innovatsion pedagogik texnologiyalar joriy etilishi va metodik ta’limotlar yangilanishi zarur.

Oliy ta’limda talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil sanaladi. Bu jarayon talabalarni mukammal mutaxassislarga aylantirish, ularning pedagogik faoliyatga tayyorligini ta’minlash hamda ta’lim muassasalari va jamiyat oldida turgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning samarali usullari va innovatsion yondashuvlarni joriy etish oliy ta’limda yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi [4].

Oliy ta’limda talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi pedagogika va ta’lim fanlari doirasida muhim tadqiqot mavzusidir. Pedagogik kompetensiyalar — bu nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki ularning birlashmasidan iborat bo‘lgan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan umumiy va maxsus qobiliyatlar majmuasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik kompetensiyalar rivojlantirilishi ta’lim jarayonining sifatini oshirishga, talabalarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ilmiy mohiyat jihatidan, pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari pedagogika nazariyasi, psixologiya, metodologiya, pedagogik innovatsiyalar hamda ta’lim texnologiyalari sohalarida tadqiq etiladi. Bu sohalar o‘rtasida integratsiya va o‘zaro bog‘liqlik talabalarning pedagogik faoliyatini chuqur va to‘liq ravishda shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, pedagogik kompetensiyalar tarkibi va strukturasi, ularni shakllantirishning pedagogik va psixologiyaviy asoslari, uslubiy yondashuvlar, ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi, hamda kompetensiyalar samaradorligini baholash masalalariga keng e’tibor qaratiladi [5].

Pedagogik kompetensiyalar – bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlardan tashkil topgan kompleks kasbiy qobiliyatlar tizimi ekanligi ilmiy asoslangan. Shu bilan birga, ularni shakllantirishda individual psixologiya, pedagogika nazariyasi va o‘qitish metodlarining o‘zaro ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’limda pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy usullari aniqlandi:

– nazariy bilimlarni o‘rganish;

– pedagogik amaliyotda mustaqil faoliyat ko‘rsatish;

– interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;

– refleksiya va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari joriy etish.

Bu usullar birgalikda talabalarning pedagogik salohiyatini samarali rivojlantirishni ta’minlaydi.

Amaliyotda pedagogik kompetensiyalar rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi muammolar [6]:

– nazariy va amaliy tayyorgarlik o‘rtasidagi nomuvofiqlik;

– innovatsion usullarni qo‘llashdagi qiyinchiliklar;

– pedagogik amaliyotning cheklanganligi;
– talabalarning psixologik tayyorgarlik darajasining pastligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim dasturlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar joriy etish va pedagogik mutaxassislarni malakalariga e’tibor qaratish zarur:

Pedagogik kompetensiyalar rivojlantirilishida texnologiyalarning roli va samaradorligi: elektron ta’lim platformalari, interaktiv o‘qitish usullari, pedagogik treninglar va simulyatsiyalarning talabalarning pedagogik qobiliyatlarini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Pedagogik kompetensiyalar rivojlantirishning ijtimoiy va kasbiy ahamiyati: bu kompetensiyalar yosh mutaxassislarning faoliyatdagi muvaffaqiyatiga, ularning ijtimoiy va shaxsiy kamolotga erishishiga yordam beradi. Shuningdek, mamlakat ta’lim tizimining sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Oliy ta’limda talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u pedagogika, psixologiya, ta’lim texnologiyalari kabi bir qancha fanlarning integratsiyasini talab qiladi. Pedagogik kompetensiyalar rivojlantirishning samarali usullari va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi yosh mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini mustahkamlaydi.

Bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, muammolarni bartaraf etish va ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliy ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish mamlakat ta’lim sohasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, oliy ta’limda talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish – bu nafaqat yosh mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish, balki mamlakatimizda ta’limning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim mexanizmdir. Shu bois mazkur masalaga alohida e’tibor qaratish va uning samaradorligini ta’minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Axmedov, Sh. M. Pedagogik kompetensiyalar va ularning rivojlanish yo‘nalishlari. Toshkent: «Ma’naviyat» nashriyoti. 2018. 46-bet.

Ibragimova, N. S. Oliy ta’limda pedagogik kompetensiyalar tizimini takomillashtirish muammolari. Tahliliy maqola. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti jurnali, №2, 2020. 45–53-betlar.

Nazarov, B. J. Pedagogika va psixologiya asoslari. Toshkent: «Ilm-fan» nashriyoti. 2019. 24-bet.

Petrov, A. V., & Smirnova, Ye. V. Razvitie pedagogicheskoy kompetentnosti studentov v usloviyax sovremennogo vыsshego obrazovaniya. Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii, №3, 2017. S.77–85.

Tursunov, A. R. Pedagogik texnologiyalarning oliy ta’limda qo‘llanilishi va ularning samaradorligi. Ilmiy maqola. Toshkent: Ta’lim sohasi tahliliy jurnali, №6, 2021. 30–39-betlar.

Sharipov, M. X. Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyotni tashkil etish muammolari va yechimlari. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnallari, №4, 2019. 55–62-betlar.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI, OILA VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGI

Azimova Gulmira Xayrullayevna
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va jamoatchilik hamkorligi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, vatanparvarlik, konferensiya, temperament xususiyatlari, sog‘lom turmush tarzi, zamonaviy mexanizmlar, atrof-muhit muhofazasi.

СОТРУДНИЧЕСТВО ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ, СЕМЬИ И ОБЩЕСТВЕННОСТИ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В данной статье рассказывается о развитии экологического образования и воспитания детей дошкольного возраста, сотрудничестве дошкольной образовательной организации, семьи и общественности в формировании у них экологической культуры.

Ключевые слова. Экологическое воспитание, экологическое воспитание, экологическая культура, патриотизм, конфронтация, особенности темперамента, здоровый образ жизни, современные механизмы, охрана окружающей среды.

PRESCHOOL ORGANIZATION, FAMILY AND COMMUNITY COOPERATION IN THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL EDUCATION AND EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This article describes the development of environmental education and education in preschool children, the organization of preschool education, family and community cooperation in the formation of environmental culture in them.

Keywords. Environmental education, environmental education, environmental culture, patriotism, conference, temperament characteristics, healthy lifestyle, modern mechanisms, Environmental Protection.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berish – bugungi kunda muhim yo‘nalishlardan biriga aylangan. Deyarli barcha zamonaviy kompleks, asosiy dasturlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash bo‘limlari yoritilgan, bir qator qo‘shimcha dasturlar mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim- tarbiya berishning asosiy maqsadi bolalarni uyg‘otishdir. Bu muhabbat avaylashga, asrashga, ehtiyotkorlik munosabatida bo‘lishga o‘rgatadi. Ekologik tarbiya bu - vatanparvarlikdir. Ekologiyani asrash- vatanni asrash deganidir. Tabiatdan unumli foydalanishga o‘rgatish uchun bolalar ongiga ekologik madaniyatni shakllantirish zarur. Bolalar tabiat haqidagi elementar bilimlarni egallab olib o‘simliklarni o‘stirish, hayvonlarni parvarishlash, tabiatni kuzatish va ona Vatanga muhabbatni oshirishni o‘rganib boradilar.

Tabiatning faol himoyachilarini tarbiyalash uchun maktabgacha yoshidagi bolalar bilan quyidagi ekologiyaning vazifalari amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Bolalarning biologik qonuniyatlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish;

Olamga hissiy ijobiy munosabatni shakllantirish;

Hayvonlar va o‘simliklarga g‘amxo‘rlik qilishda mehnat ko‘nikmalari shakllantirish.

Bolalarda tabiatni mustaqil o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish.

Ta’lim-bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumotlar olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Inson ilmli bo‘lishni istasa u eng avvalo tarbiyalanishi kerak, tarbiyali inson mukammal ilm sohibi bo‘la oladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday inson bo‘lishiga qarab, yurtimiz kelajagini tasavvur qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham: “Kelajak yoshlarning qo‘lidadir” - deyishadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. “Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”.

Aynan shu vaqt oralig‘i ota-onadan katta mas’uliyatni talab etadi. Bu davrda ota-ona o‘z farzandiga ko‘proq e’tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug‘illanishi kerak. Ayna shu davrda bolaga to‘g‘ri tarbiya bera olish juda muhimdir.

Shu boisdan, bolaning o‘sib, voyaga yetishi uning ta’lim va tarbiya jarayonlari faqatgina ta’lim tizimlarigina bog‘liq bo‘lib qolmay, ota-ona va mahalla ham birdek mas’ul hisoblanishadi.

Shak-shubhasiz, ota-ona, oila, mahalla, maktablar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bolani chiroyli odob-axloqli, ilmli, tarbiyali qilib voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala hisoblanadi. “Bir bolaning tarbiyasiga yetti mahalla ota-ona” - deganlari ham bejiz emas.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalarning ishtiroki

tarbiyachi va bolalar uchun ham juda yaxshi natijani olib keladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarning hamkorligidan ota-onalar bir-birining farzandlarini huddi o‘zinikiday his qilishadi. Ota-onalar har bir sohalarda qatnashishi, boshqaruv, tashkiliy ishlar malakali tarbiyachi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ushbu qo‘llab quvvatlash maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalarni hayotning har bir jabhalarida zehnli, bilimga kuchli qilib tarbiyalashda yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda ota-onalar va mahalla bilan olib boriladigan ishlar mazmuni.

Tahlil va natijalar. Hamkorlik–bu “teng asosda” muloqot bo‘lib, bu yerda hech kim ko‘rsatish, nazorat qilish, baholash sharafiga ega emas.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila ishini tashkil etishda quyidagi yo‘nalishlarni inobatga olish zarur:

Oilaning xususiyatlarini aniqlash (ota-onalarning tarkibi, ularning bandligi, ta’lim va ijtimoiy darajasi va boshqalar);

Bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olish;

MTT va oilaning ta’lim tarbiya jarayoni;

Ta’lim tarbiya jarayonlarning natijalari.

Oilaning xususiyatlarini aniqlash jarayonida tarbiyachi oilada ota va otaning mavjudligi, ularning bandlik darajasi, ta’lim va ijtimoiy darajalarini inobatga olgan holda aniqlashi zarur bo‘ladi.

Bolaning yosh xususiyatlari, temperament xususiyatlarini aniqlash va hamkorlik jarayonlarida qay bir jihatlarini rivojlantirish zarurligi aniqlash lozimligini inobatga olish zarur.

MTT va oilaning ta’lim va tarbiya jarayoni funksiyalarini tashkil etishda do‘stona muloqot, individual yondashuv, murabbiylik emas, hamkorlik, dinamiklik, ochiqlik prinsiplari asosida tashkil etilishi zarur.

Ta’lim – tarbiya jarayoni natijalarini belgilashda tarbiyachi muntazam ravishda kuzatib, tahlil qilib borish zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda oila bilan hamkorlik ish shakllari 3 yirik guruhga

bo‘linadi bular:



Ota-onalar bilan ishlashning guruhli shakli- eng samarali va ta’sirchan shakllardan biri bo‘lib, ota-onalar yig‘ilishi, guruhli masalatlar, konferensiyalar kiradi.

Ota-onalar yig‘ilishi- bu usulda tarbiyachi ota-onalar bilan ishlashning eng samarali va natijali usuli hisoblanadi. Bunda tarbiyachi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodlari, vazifalari, ekologik tarbiyalash va ekologik madaniyat ish mazmuni bilan tanishtiriladi. Bunda ota-onalar bilan birgalikda mavzu tanlab olinadi hamda tanlangan mavzu asosida yig‘ilish tashkillashtiriladi.

“Sog‘lom turmush tarzi- sog‘lom hayot garovi” nomli mavzuda tashkil etilgan ota-onalar yig‘ilishlarida ekologik madaniyatning bir bo‘lagi, ajralmas qismi bo‘lmish sog‘lom turmush tarzi qonun, qoidalari, ish mazmuni metodlari haqida muhokama qilinadi. Sog‘lom turmush tarziga amal qilish oqibatida bola organizmida qanday o‘zgarishlar bo‘ladi, yoki bo‘lmasa sog‘lom turmush tarzi qoidalariga amal qilmaslik oqibatlari natijasida bola organizmida qanday kasalliklar kelib chiqishi haqida tashkilot hamshirasi ota-onalarga tushuntirib o‘tadi. Bunda ota-onalarga bolalarning sog‘lom turmush tarzi qoidalariga amal qilishini rivojlantirish uchun turli xil o‘yinlar va maxsus mashqlar taklif etilishi mumkin.

Ota-onalar bilan guruhli tarzida tashkil qilinadigan ishlar- hamkorlikda olib boriladigan ishlar mazmuninig ushbu turida bolaning ekologik madaniyat mexanizmlari mehnat tarbiyasi orqali yanada mustahkamlashni misol qilib keltirish mumkin. Bunda ta’lim tashkilotlarida, mahallalarda tashkil etiladigan hasharlar, tozalik va obodonlashtirish ishlarida bolalar bilan birgalikda ota-onalar faol ishtirok etishlari, tabiatdagi mehnat yumushlari orqali tanishtirish, tabiatni asrash va avaylash unga g‘amxo‘rlik qilish kabi his-tuyg‘ular shakllanib, bolaning ekologik madaniyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Konferensiya- ota-onalarga farzandlarini bilim darajasini oshirish maqsadida biron bir mavzu bo‘yicha bilimlarini kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan va mustahkamlash uchun tashkil etiladi.

Ota-onalar yig‘ilishlarida teatrlashtirilgan tomoshalardan foydalanish ham o‘rinli. Bunda ota-onalar va bolalar ishtirokida “Mening uyim, mening qal’am”, “Vitaminjon, polvonjon” kabi mavzularda teatrlashtirilgan tomoshalar bolajonlarga tashkillashtirib beriladi.

Ota-onalar bilan ishlashning shaxsiy turida alohida suhbatlar hamda maslahatlar, ota-onalarga pedaogik bilimlar berish usullaridan foydalaniladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi oila bilan yakka tartibda olib boriladigan ishlar mazmunining asosiy qismi suhbat asosida olib boriladi. Bunda bolaga ekologik bilim darajasi, qiziqishlari, hayvonot olamiga mehr-muhabbat uyg‘otish, tabiatni asrash bo‘yicha ota-onalar bilan suhbat o‘tkaziladi. Bolaning ekologik madaniyatini oshirish borasida olib boriladigan ishlar ta’lim tashkilotida olib borilishi hamda ushbu ta’lim mazmuni oila bilan hamkorlikda yuritilgan taqdirda bolaning ekologik madaniyat darajasini rivojlantirish yanada yuqoriroq natijaga erishishga olib kelishi to‘g‘risida maslahatlar beriladi.

Ota-onaga pedagogik ta’lim berish- ushbu shaklda tarbiyachi ekologik mazmundagi o‘quvlar, maslahat soatlari, mahorat darslari tashkillashtirib berishi maqsadga muvofiqdir.

Ota-onalar bilan ishlashning vizual shaklida esa ota-onalar bolalarining tarbiyasi va bilim darajasi haqida ma’lumotlarni vizual va axborot materiallari orqali olishadi: ekranlar, stendlar, papkalar, ko‘rgazmalar, fotosuratlar, ochiq eshiklar kuni.

Ushbu ko‘rsatmali ishlar mazmunida eng samarali natija beradigan turi bu ochiq eshiklar kunini tashkil etish hisoblanadi. Bunda ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan ochiq eshiklar kunida alohida mavzu tanlangan holda tashkil qilinadi. Masalan, “Chiqindilarga ikkinchi hayot beramiz” mavzusida ochiq eshiklar kuni tashkil etiladi. Bunda bolalarning ekologik mavzudagi ko‘rgazmalar namoyishi bo‘lib o‘tadi. “Chiqindilarga ikkinchi hayot beramiz” mavzusida chiqindilar hamda tashlab yuboriladigan mahsulotlardan kerakli bo‘lgan narsa va buyumlar yasash lozim bo‘ladi. Turli yelim idishlardan, karton bo‘laklari, turli xil rezina mahsulotlardan hayvonlar, mevalar turli xildagi o‘yinchoq yasash hamda kerakli mahsulotga aylantirish zarur bo‘ladi. Ota-onalar farzandllari bilan birgalikda ishtirok etishlari lozim bo‘ladi. Bola axlatlarni tashlash ham uvol ekanligini anglaydi. Bola hamda uning ota-onasi hamkorlikda ishlashning ushbu turida ko‘plab bilimlarga ega bo‘ladilar, ekologik bilim madaniyatining zamonaviy mexanizmlari shakllanib rivojlanadi.

Bo‘sh vaqt shaklida - birgalikda dam olish, ta’tillar, ko‘rgazmalar, tanlovlar, ekskursiyalar kabilar kiradi. Bunda turli xildagi ekologik bayramlarni ota-onalarga taklif etish va ular bilan birgalikda farzandlari bilan qatnashish taklif etiladi. Masalan,

Bayramlar	“Mehrjon”, “Navro‘z bayrami”
Alohida kunlar	“Qushlar kuni”, “Suv kuni”
Sport o‘yinlari	“Sog‘lomjon va polvonjon”
Ko‘rgazmalar	“Yosh ekologlar”, “Ekologik bilimlar kuni”
Aksiyalar	“Bir bolaga bir daraxt”
Xayrli ishlar	“Hashar elga yarashar”
Oilaviy gazetalar	“Mening uyim, mening qal’am”

Shu kabi mazmundagi tadbirlar ota-onalar hamkorligida tashkil etiladi.

Vizual shakl-ochiq eshiklar kuni, foto ko‘rgazmalar, xayrli ishlar qutisi kabilar hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining mahalla bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar mazmuniga turli xil seminar trening tadbirlarni misol qilib keltirib o‘tishimiz mumkin. Tashkil etiladigan tadbirlarga turli xildagi “Yosh ekologlar”, “Tabiat qo‘riqchilari” nomli bayram tadbirlari tashkil etiladi hamda ushbu tadbirga mahalla institutlari ishchi-xodimlarini ham birdek jalb etib boriladi.

Tashkilotda tashkil etiladigan sohaga oid bo‘lgan yangi qonun-qarorlar, loyihalarning mazmuni mohiyati bo‘yicha seminar- treninglar, o‘quv treninglar tashkil etilib, ota-onalar hamda mahalla instituti soha vakillari bilan hamkorlikda olib boriladi. Ekologik madaniyatni rivojlantirish, atrof-muhit muhofazasi, ekologiyaga oid bo‘lgan yangilik hamda o‘zgarishlardan ta’lim tashkiloti, mahalla hamda ota-onalar birdek xabardor bo‘lishlari hamda uni amalda qo‘llay olishlari lozim bo‘ladi. Masalan, birgina axlatlarni maxsus ko‘rsatilgan joylarga tashlamagan fuqarolar uchun jarima mavjudligi to‘g‘risidagi qarorni, ota-onalarga tushuntirish. Bunda ko‘rsatilgan joylarga axlat tashlamay boshqa duch kelgan joyga axlat tashlagan jismoniy shaxslarga 2 baravardan 3 baravargacha, yuridik shaxslarga esa 5 baravardan 10 baravargacha jarima qilinishi lozimligini [O‘RQ-495, 2019.10.10] o‘rgatish, tarbiyachi hamda ota-onalarni ushbu bilimlarni berishdan

maqsad o‘zi ega bo‘lmagan bilimni farzandiga bera olmasligini tushuntirish lozimligi ta’kidlanadi. Ushbu ishlarni ta’lim tashkilotlariga amaliyotda tatbiq etilishida mahalla institutlarining o‘rni nihoyatda katta.

Xulosa. Bugungi rivojlangan axborot asrida isoniyatning tabiat hamda uning tabiiy va moddiy resurslardan oqilona foydalanmasliklari oqibatida turli xil ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni oldini olish va mavjud holatni ta’sirini kamaytirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlab bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya berib borishimiz hamda uni oila va jamoatchilik bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yishimiz lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida berilgan ta’lim oilada va ko‘chada bo‘lgan vaqtda amal qilinmasa, bolaga tarbiyachi tomonidan berilgan bilimlar samarasi yaxshi bo‘lmaydi. Buning oldini olish va yoshlarni ekologik yetuk bilimli qilib tarbiyalash jamiyatning, siz-u bizning qo‘limizdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi”dagi 754-XI-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 06-maydagi “Suv va suvdan to‘g‘ri foydalanish to‘g‘risida”gi 837-XII sonli Qonun;
3. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrdagi “O‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 545-I-sonli Qonuni;
4. Badalova.M. Ekologik madaniyatning rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida tutgan o‘rni. science and innovation international scientific journal volume 1 issue 6 uif-2022: 8.2/ 236-b.
5. Umarova.M.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga ma’suliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi. Ped.fan.nom.dis..- 2009y

KOXLEAR IMPLANTLIGI BO‘LGAN BOLALARDA TOVUSH TALAFFUZINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abdullaeva Umida Kaxramonovna,
Buxoro innovatsiyalar universiteti pedagogika,psixologiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya.Mazkur maqolada eshitish imkoniyati cheklangan, xususan, koxlear implantga ega bo‘lgan bolalarda tovush talaffuzini shakllantirish texnologiyalari yoritib berilgan. Unda logopedik mashqlar, audiotrening, multimediali vositalar va individual yondashuv usullari orqali bolalarda nutqni shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Maqola pedagog-logopedlar, defektologlar va bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Kalit suzlar: Koxlear implant,tovush talaffuzi, logopediyab nutkni rivojlantirish,bolalarda eshitish muammolari, adaptatsiya.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЗВУКОПРОИЗНОШЕНИЯ У ДЕТЕЙ С КОХЛЕАРНЫМИ ИМПЛАНТАМИ

Абдуллаева Умида Кахрамоновна,
преподаватель кафедры педагогики, психологии и спорта Бухарского инновационного университета

Аннотация. В статье описываются технологии формирования звукопроизношения у детей с нарушением слуха, в частности, с кохлеарными имплантами. Приводятся практические рекомендации по формированию речи у детей с помощью логопедических упражнений, аудиотренингов, мультимедийных средств и методов индивидуального подхода. Статья предназначена для логопедов, дефектологов и специалистов, работающих с детьми.

Ключевые слова: кохлеарный имплант, звукопроизношение, логопедическое развитие речи, проблемы слуха у детей, адаптация.

TECHNOLOGY OF SOUND PRONUNCIATION FORMATION IN CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS

Abdullaeva Umida Kakhranovna,
lecturer at the Department of Pedagogy, Psychology and Sports, Bukhara Innovation University

Abstract. This article describes the technologies for shaping sound pronunciation in children with hearing impairments, in particular, those with cochlear implants. It provides practical recommendations for shaping speech in children through speech therapy exercises, audio training, multimedia tools, and individual approach methods. The article is intended for speech therapists, speech pathologists, and specialists working with children.

Key words: Cochlear implant, sound pronunciation, logopedic speech development, hearing problems in children, adaptation.

Kirish. Jamiyatda kam imkoniyatli bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni to‘laqonli hayotga tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Eshitishda muammosi bor bolalar, ayniqsa koxlear implantatsiya qilinganlar, nutq rivojlanishida ma’lum qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat bolalarda tovush talaffuzini to‘g‘ri shakllantirishda maxsus yondashuv va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Mazkur maqolada aynan koxlear implantga ega bolalarda tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar tahlil qilinadi.

Koxlear implantatsiya - bu eshitish qobiliyati buzilgan bolaning odatdagidek eshitadigan

tengdoshlariga imkon qadar yaqinlashishi, balki darhol emas, balki bir necha yil ichida, lekin ular ulardan deyarli farq qilmasligi uchun imkoniyatdir. Bunday imkoniyatni bolaning nutqini eshitish va og‘zaki nutqini rivojlantirish bo‘yicha kundalik mashg‘ulotlar va u bilan har daqiqada maqsadli muloqot qilish sharti bilan amalga oshirish mumkin. Koxlear implantatsiya - bu eshitish qobiliyatini chuqur yo‘qotgan bolalar va kattalarni to‘liq ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi. Bu nafaqat eshitish nervi tolalarini elektr stimulyatsiyasi orqali eshitish sezgisini tiklash uchun jarrohlik aralashuvni, balki eng muhim va uzoq muddatli reabilitatsiyani ham o‘z ichiga oladi, uning asosiy vazifalari nutq protsessorini va turli yo‘nalishlarda implantatsiya qilingan pedagogik ishlarni bog‘lashdir.

Shu jumladan, koxlear implantatsiyadan o‘tgan eshitish qobiliyati zaif bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda juda muhim bo‘lgan ushbu guruh bolalari uchun ta’lim tashkilotini tanlash, dastur va o‘qituvchini tanlash masalasi saqlanib qolmoqda. Koxlear implantatsiyadan o‘tgan bola bilan individual ish olib boradigan mutaxassisni tanlashga yondashuv ham munozarali - bu karlar o‘qituvchisi yoki nutq terapevti bo‘lishi kerakmi? Koxlear implantatsiyalangan bolalarning ta’limi qanday bo‘lishi kerak - umumiy, inklyuziv yoki integratsiya? Bugungi kunga qadar bizda koxlear implantlar bilan og‘rigan bolalarning nutqini rivojlantirish bo‘yicha juda kam va har doim ham muvaffaqiyatli bo‘lmagan tajriba mavjud, bu munozaraning jiddiyligini kuchaytiradi. Korreksion pedagogika va maxsus psixologiya amaliyotida rivojlanish buzilishlarini differensiallashning ma’lum bir prinsipi - disontogenez tasnifi mavjud. Rivojlanish buzilishlarining tasnifi defektologiyaning vakolat sohasini belgilaydigan chegaralarni aniqlashdir. Bugungi kunda fanning ushbu yo‘nalishidagi tadqiqot va amaliy faoliyat natijalari turli toifadagi nogiron bolalarga alohida yordam ko‘rsatadigan mutaxassisning malakasini, shuningdek, tuzatish va rivojlanish jarayonining rivojlanish xususiyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari haqida yangi ma’lumotlarni olishda tadqiqotning o‘zi imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Biroq, hozirgi tasniflarda hali ham noaniq yoki aniqlanmagan bolaning rivojlanishining holatlarini aniqlash bilan bog‘liq bahsli masalalar mavjud. Bu davlatlarning «chegara chizig‘i» ning kengayishi, rivojlanish patologiyalari sonining ko‘payishi va sifatining o‘zgarishi, og‘ir ko‘plab kasalliklarga chalingan bolalar sonining sezilarli darajada ko‘payishi va boshqalar bilan bog‘liq. Bizning fikrimizcha, tadqiqot va tuzatish-pedagogik ishlar olib boriladigan bolaning sog‘lig‘i toifasini aniq belgilash bizga bolalarni rivojlantirishning yangi usullari va usullarini aniq aniqlash imkonini beradi. ularni to‘g‘ri qo‘llash. Bunday guruhga koxlear implantatsiyadan o‘tgan eshitish qobiliyati zaif bolalar kiradi. Koxlear implant bilan muvaffaqiyatli protezlash

Ushbu guruh bolalari eshitish qobiliyati zaif bolalar bo‘lib qolishni to‘xtatadi, deb ishonishga asos bermaydi, chunki nutq tovushlarini va nutq tovushini normal idrok etish, eshitish keskinligi darhol tiklanmaydi. operatsiyadan keyin. Bizningcha, ko‘proq e’tibor qarasak to‘g‘ri bo‘lardi kar bolalarning nutqini rivojlantirish mexanizmlari va eshitish qobiliyatiga ega bo‘lgan mahalliy olim-pedagoglarning ishlarini tahlil qilish. Chunki bu tadqiqotlar o‘rganish uchun vositalarni ishlab chiqishda eng boy tajribaga asoslangan edi koxlear implantatsiyadan keyin bolalarning rivojlanish xususiyatlari, keyin esa - eshitish idrokini va nutq aloqasini rivojlantirish bo‘yicha tuzatish ishlari.

Koxlear implant – eshitish qobiliyati juda past yoki butunlay yo‘qolgan shaxslar uchun mo‘ljallangan elektron tuzilma bo‘lib, u tashqi ovozlarni qabul qilib, asab impulslari orqali miyaga yetkazadi. Koxlear implantga ega bolalarda nutqni shakllantirish jarayonida quyidagi texnologiyalar samarali hisoblanadi:

1. **Audiotrening texnologiyasi** – bolalarning eshitish qobiliyatini oshirishga qaratilgan maxsus audio mashqlardan foydalanish. Bu usul orqali bola gapirish vaqtida ovozlarni farqlash va tan olishga o‘rganadi.

2. **Multimediali vositalar** – audiovizual vositalar (videodarslar, interaktiv o‘yinlar) orqali bolalarning ovozlarga reaksiyasini oshirish va talaffuzini to‘g‘ri shakllantirishga ko‘mak beradi.

3. **Logopedik mashg‘ulotlar** – maxsus logopedlar tomonidan o‘tkaziladigan individual mashg‘ulotlar, ularda artikulyatsiya, ovoz chiqarish, tovushlarni to‘g‘ri aytish kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

4. **Integrativ yondashuv** – bolaning yoshi, eshitish darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda kompleks yondashuv. Bu usul bolaning nutq faoliyatini umumiy ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Mazkur texnologiyalar birgalikda qo‘llanilganda, bolaning tovush talaffuzi ko‘nikmalari tez va samarali shakllanadi. Shu bilan birga, ota-onalarning faol ishtiroki ham muvaffaqiyat garovidir.

Tovush talaffuzini shakllantirishdagi bosqichlar

Koxlear implantatsiyadan keyin bolada ovoz va tovushlarni qabul qilish qobiliyati rivojlana boshlaydi. Biroq, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun quyidagi bosqichlarga amal qilish zarur:

1. Ovozlarni eshitish va farqlash (differensatsiya) bosqichi;
2. Talaffuz uchun zarur bo‘lgan artikulyatsiya a’zolarini faollashtirish;
3. Har bir tovushni to‘g‘ri shaklda aytirish;
4. Tovushlarni so‘z va gaplarda to‘g‘ri qo‘llash;
5. Erkin nutqda ovozlarni avtomatlashtirish.

Bu bosqichlar izchil va to‘g‘ri o‘tilganda, bola nutqi tabiiy va tushunarli bo‘ladi.

Logopedik mashqlar va usullar

Koxlear implantga ega bolalar uchun maxsus logopedik mashqlar tuziladi. Ularda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- **Artikulyatsion gimnastika** – til, lab, to‘sh, yuz mushaklarini mashq qildirish;
- **Tovush chiqarish mashqlari** – unli va unsiz tovushlarni to‘g‘ri aytish;
- **Ovozning kuchini boshqarish** – jim ovozdan balandigacha nazorat;
- **So‘z boyligini oshirish** – so‘zlar va gaplar tuzish orqali talaffuzni avtomatlashtirish.

Mashg‘ulotlar bolaning yoshi, eshitish darajasi va logopedik tashxisiga ko‘ra tuziladi.

Ota-ona va mutaxassis hamkorligi

Koxlear implantga ega bolalarda nutqni rivojlantirishda ota-onalarning faol ishtirok etishi juda muhim. Mutaxassislar (logoped, defektolog, audiolog) bilan doimiy hamkorlikda bola mashg‘ulotlarini uyda davom ettirishi kerak. Ota-onalar:

- bola bilan doimiy muloqot qilishi;
- berilayotgan logopedik mashqlarni kuzatishi;
- bolani ruhlantirib borishi kerak.

Muvofaqiyatli natijalarga erishish uchun uy va markazdagi mashg‘ulotlar muvofiqlashtirilishi talab etiladi.

Xulosa

Koxlear implantga ega bolalarda tovush talaffuzini shakllantirish juda muhim va mas’uliyatli jarayondir. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, logopedik yordam va ota-onalarning doimiy qo‘llab-quvvati asosiy omillardan hisoblanadi. Bolalarda nutqni to‘g‘ri shakllantirish uchun individual yondashuv, sabr va izchillik zarur. Maqola tavsiyalari bolalarda tovush talaffuzini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fayziyeva,D.Nazarova,F.Qodirova.”Surdopedagogika”.Sanostandart.T.:2012.B.289
2. Тихеева Е.И..Развитие речи детей.-М.:Просвещение,1976.
3. Haqberdiyev, jamoliddin. (2020). The importance of modern technical devices in the development of hearing. Архив Научных Публикатsій JSPI, 1(64). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6183
4. Haqberdiyev, jamoliddin. (2020). Болаларнинг мактабга психологик тайёргарлиги масалалари . Архив Научных Публикатsій JSPI, 1(70). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6303

5. Haqberdiyev, J. (2022). Koxlear implantat bolalarda og'zaki nutqni idrok etishni o'rganish va rivojlantirishda zamonaviy psixologik-pedagogik usullar. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4747

6.Haqberdiyev, J. (2021). Факторы, влияющие на задержку речи и пути ее устранения. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1204

7.Haqberdiyev, J. (2021). Koxlear implantatsiyadan keyin bolani reabilitatsiya qilish masalalari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/713

OILA TARBIYASIDA SHARQONA QARASH VA XALQ PEDAGOGIKASI

Baxronova Adiba Ismoilovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti, Maktabgacha va Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi kata o`qituvchisi

ВОСТОЧНЫЙ ВЗГЛЯД И НАРОДНАЯ ПЕДАГОГИКА В СЕМЕЙНОМ ВОСПИТАНИИ

Бахронова Адиба Исмоиловна
Бухарский государственный педагогический институт, старший преподаватель кафедры педагогики дошкольного и начального образования

EASTERN VIEW AND FOLK PEDAGOGY IN FAMILY EDUCATION

Bakhronova Adiba Ismoilovna
Bukhara State Pedagogical Institute, Senior Lecturer, Department of Preschool and Primary Education Pedagogy

Annotatsiya. Maqolada oila tarbiyasida sharqona qarash va xalq pedagogikasi tahlil qilingan. Oiladagi ta’lim-tarbiya xususiyatlari esa jamiyatda o‘z aksini topadi. Oila va jamiyat o‘zaro bog’liq xolda taraqqiy etib, rivojlanadi. Oila tarbiyasida bola xulqi to‘g‘ri yoki egri o‘sishiga ona mehnati va mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Oila tarbiyasi, sharqona qarash, axloqiy tarbiya, ko‘nikma, malaka

Аннотация. В статье анализируется восточное воззрение и народная педагогика семейного воспитания. Особенности воспитания в семье отражаются в обществе. Семья и общество развиваются и развиваются взаимосвязано. В семейном воспитании труд и умение матери наглядно отражаются на правильном или неправильном развитии поведения ребенка.

Ключевые слова: Семейное воспитание, восточная перспектива, нравственное воспитание, навыки, квалификации.

Abstract. The article analyzes the eastern education and folk pedagogy of family education. The features of family education are reflected in society. Family and society develop and develop mutually. In family education, the work and decrease of the mother are clearly reflected in the correct or incorrect development of the child’s behavior.

Keywords: Family education, Eastern perspective, Moral education, Skills, Qualifications

Yangilangan jamiyat fuqarosini barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish, unda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash oila zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” da oila asoslarini yanada mustahkamlash masalasi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Bolalarda inson aqliy, ruhiy va ichki olamini ifodalovchi ma’naviyat hamda muomala, hatti- harakat odobi sanalgan axloqni shakllantirish muhimdir. Ma’naviyat va axloq tushunchasini jamiyatning umumiy rivojlanish omillaridan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Axloq Abu Rayhon Beruniy fikricha: “To‘g’ri so‘zni so‘zlash yoki to‘g’ri ishni qilishda o‘limni pisand qilmaslikdir”, A.Avloniy nazdida bu – “insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilm”.

Bolalar yoshligidanoq xalq og’zaki ijodi janrlari bilan tanishtiriladi. Bular – ona allasi, o‘yinlar – bolalar bilan ermaklar (“Chapaklar”, “Qo‘l harakatlari”, “Hayvonlar harakatlariga taqlidlar”), maqollar, matallar, topishmoqlar, ertaklar. Xalq og’zaki ijodi bolajonlarning bilish faolligi, mustaqilligi, individualligi, hissiyotlari, atrof-olamga munosabati, nutq ko‘nikmalari rivojlanishi

uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Maktabgacha ta’lim muassasasi va oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og’zaki ijodining turli shakllaridan maqsadli va tizimli foydalanish ularning ruhiy va jismoniy jihatdan kamol topishiga zamin yaratadi.

Alla aytish onadan bolaga alohida e’tibor ko‘rsatishni, sabr-toqatli, mehribon, matonatli hamda ijodkor bo‘lishni taqozo etadi. Ona alla aytish vaqtida o‘z oldiga bolani uxlatishnigina emas, balki uning ruhini tarbiyalash, ichki dunyosini boyitish maqsadini ko‘zlaydi. Alla oilada bolalarni ruhiy-hissiy, irodaviy va ma’naviy- axloqiy tarbiyalashda muhim vosita sanaladi. U bolalarda ilk nutqiy ko‘nikma shakllanishiga hissa qo‘shadi. Alla aytish ijodiy xususiyatga ega bo‘lib, har bir ona bu jarayonda o‘z imkoniyati, ijro malakasi, hayotiy tajribasi, ijodiy tafakkuri, dunyoqarashi, xarakteri va hatto kasbiy xususiyatlariga tayanadi.

Xalq og’zaki ijodi manbaalari asosida allalar go‘dakka mehru muhabbat, ardoq ifoda qiluvchi; o‘git va nasihat (didaktik); orzu-umidga yo‘g’rilgan, ona iztirobi va hasratlarini bayon qiluvchi; farzandining porloq kelajagiga ishonch, unga yaxshi tilaklar izhor etuvchi vosita hisoblanadi. Bolalarning alla vositasida ruhiy-ma’naviy rivojlanishi (chaqaloqlik davridan uch yoshgacha erkalash va ardoqlash; uch yoshdan yaxshilikka yo‘naltiruvchi, o‘git-nasihatga yo‘g’rilgan; to‘rt yoshdan orzu-umidga yo‘g’rilgan, oz miqdorda hasrat va umidbaxsh; besh yoshdan farzandining porloq kelajagiga ishonch, unga yaxshi tilaklar izhor etuvchi allalar) xususiyatlarga ega. Allalarda faqatgina ezgu g’oyalar kuyga solinadi va uning tinchlantiruvchi, orom baxsh etuvchi xususiyatga egaligi bolalarni ruhiy jihatdan bosiq bo‘lib voyaga yetishlariga yordam beradi. Onalarning oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda allalarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish ehtiyoji; oila, ta’lim muassasasi, mahalla hamda ijtimoiy tashkilotlar tomonidan balog’at yoshidagi qizlar, yosh onalarda allalar aytish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, allalardagi milliy o‘zlik va o‘ziga xoslikni asrab-avaylash, ezgulikka chorlovchi ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirish lozim.

Farzand - oilaning quvonchi, ota – onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Bolalarning sharofati bilan hayot yanada shirin, o‘lim esa u qadar dahshat solmaydigandek tuyiladi, - degan edi ingliz filosofi F.Bekon. Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Oiladagi ta’lim-tarbiya xususiyatlari esa jamiyatda o‘z aksini topadi. Oila va jamiyat o‘zaro bog’liq xolda taraqqiy etib, rivojlanadi. Oila qachon baxtli bo‘ladi? Ayol baxtli bo‘lsa! Ayol qachon baxtli bo‘ladi? Farzandlari sog’-salomat bo‘lsa! Buning uchun oilada sog’lom muhit shakllanishi kerak.

Avvaliga biz bolalarimizga o‘rgatamiz. So‘ng o‘zimiz ulardan o‘rganamiz.

Kimki buni xohlamas ekan, o‘z davridan orqada qoladi (Ya. Raynis).

Oila ikki ustundan iborat: birinchisi - iqtisod, ikkinchisi — ma’naviyat. Oilani shu ikki ustundan birisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Lekin iqtisodda imkoniyatdan, ma’naviyatda sharoitdan kelib chiqmoq kerak. Shunda oila mustahkam qo‘rg‘onga aylanadi.Oila tutishda ma’naviyatning sharoit taqozo etgan tomonlari borki, bu xaqda allomalarimiz eslatib o‘tishgan. Beruniy oila qurayotgan qizlarga ota- onaning pand-nasihatlarini keltirib, oiladagi tinch-totuvlik ko‘proq ayollar zimmasiga tushishini ta’kidlab shunday yozadi: «Ey qizim! Sen o‘rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo‘lajak kuyovingning hamma hislatlarini bilmaysan. Sen yer bo‘l, u esa osmon bo‘ladi. Demak, sen u bilan shunday yo‘l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo‘lsang, u osmon kabi olijanob bo‘ladi. Osmon shifobaxsh yomg‘iri bilan yerni ko‘kartirgani kabi ham o‘z mehru shafqati ila seni xushnud etadi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so‘zlar eshitsin, yaramaydigan va eski libosda yoki sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o‘tirma. Qizim, kuyovingdan kuchi yetmagan va sotib olishga qudrati yetmagan narsalarni talab qilma. Bunday qilsang orada totuvlik yo‘qoladi, turli xil janjallar paydo bo‘ladi. Qizim, rashk qilishdan saqlangin, chunki u ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilaverishni man etaman. Yaxshisi, sen u bilan xushmuomalada, shirin so‘zli bo‘lgin, bu ishing har qanday sehru jodudan yaxshidir. O‘zingga xushbo‘y narsalar bilan oro bergil. Pokizalik hamisha yo‘ldoshing bo‘lsin”. Bola tug‘ilgan kundan boshlab, oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar,qadriyatlar,

Keywords: educator, education, upbringing, empathy, ability, competence, sympathy, interpersonal relationships, psychology, creative, method, educational activity, science.

Kirish (Introduction). Mamlakatimizda prezidentimizning “Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ta’lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi” degan fikrlari ostida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviylashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi. Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi murabbiylarning ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog‘liqdir. Bolani tarbiyalash nihoyatda qiyin va murakkab jarayon bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o‘zining ma’naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a’zolari o‘rtasida yuksak hurmat ehtiromga sazovor bo‘lgan kishilar, ya’ni donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgandir. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmunini faqat shaxs kamolotini emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasida ham tarbiyachi-murabbiy kadrlarnin ma’naviy qiyofasi, aqli, salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati” nomli risolasida shunday yozadi: “Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak”.

Tarbiyachining jamiyat rivojidagi o‘rnini inobatga olgan holda har qanday davrda ham pedagogik ta’lim muammosiga alohida e’tibor qaratilgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto”da ham keltirilgan pedagogik fikrlar yuksak ahamiyatga ega hisoblanadi.

“Avesto”ning ta’limiy va tarbiyaviy qimmati shundaki, u ko‘p asrlar davomida xalq orasidan chiqqan ustoz-ziyolilar uchun asosiy qo‘llanma sifatida yoshlarga ilmu ma’rifatni o‘rgatish, axloq-odob fazilatlarini shakllantirishda muhim vazifani bajargan. “Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki-deyiladi “Avesto”da,- u, avvalo, yaxshi o‘qishi va so‘ngra yozishni o‘rganib, eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin” [3; 118-b.].

“Avesto”da o‘qituvchining asosiy faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga olgan: 1) diniy va axloqiy tarbiya; 2) jismoniy va mehnat tarbiyasi; 3) o‘qish va yozishga o‘rgatish.

Islom ta’limotida ikkinchi muhim manba hisoblanmish hadislarda ham ilm egallash va ilm o‘rgatish xosiyati, afzalliklar hamda odobi haqida qator fikrlar bildirilgan. Imom Buxoriy tomonidan jamlangan va bugungi avlodlargacha etib kelgan “Al-jomi’ as-sahih” asaridagi “Ilm kitobi” ma’lumotlar asosida ilm o‘rgatuvchi – ustozlar va ilmi toliblar amal qilishi lozim bo‘lgan quyidagi talablarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

- ilm o‘rganishning barcha uchun va har doim farz ekanligi, zero ilm o‘rganish toat-ibodatga tenglashtirilganligi;
- ilmni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilmasdan, muhokama va munozara yo‘li bilan o‘rganish;
- ilmni o‘rganish, boshqalarga o‘rgatish va ilmiga qat’iy amal qilishi lozimligi;
- ilmni fahmlab, teran tushunib, anglab o‘rganish, esda mustahkam saqlash;
- ilm beruvchi ovozi va fikrlarining tinglovchilar uchun tushunarli, eshitilarli, me’yorlarga

mos bo‘lishi lozimligi;

- ilm beruvchining fikrini jim turib, diqqat bilan eshitish, tushunmaganini so‘rab o‘rganishdan tortinmaslik va h.k. [4; 28-51-b.].

Forobiyning fikricha, muallim - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va bolalarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur. Shu bilan birga o‘z ornomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi. Mutafakkir o‘qituvchi shaxsiga xos qator fazilatlarga xolisona, odilona, oqilona sharh berish imkoniyatiga erishgan buyuk zotdir. Shuning uchun mazkur sharhlar, ilmiy ilovalar, teran fikrlar, ibratli mulohazalar ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Forobiy muallimning kasbiy tayyorgarligi haqida to‘xtalib, ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishlikni o‘rganishdir. Agar ular shu kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar, degan xulosaga keladi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha, “... O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim” [5; 87-b.]. Abu Ali ibn Sino mulohazasiga ko‘ra tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko‘rishi, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo‘lishi shart. Agar bola ishni yaxshi bajarsa, uni o‘z vaqtida rag‘batlantirish, gohida maqtab qo‘yish, aksincha bo‘lganda esa, unga tanbeh berish kerak. Tanbeh bolaning izzat-nafsiga tegadigan bo‘lmasligi lozim, o‘quvchiga murosasozlik qilish esa bolaning o‘zboshimcha bo‘lib qolishiga olib boradi, - deydi Ibn Sino [5; 98-b.].

Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina ularning noo‘rin xatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorlangan puxta zaminga bo‘lgan, ezgu niyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi kerak. Shundagina bolalarimiz to‘g‘ri tarbiya oladi [6; 267-b.].

Davoniyning fikricha, muallim bola qaysi kasbga qiziqsa, shu kasbni egallashida astoydil yordam berishi, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi lozimligini uqtiradi. U muallim uchun zarur bo‘lgan eng yaxshi insoniy fazilatlar-adolatlilik, sadoqatlilik, donolik, zukkolik, sabr-bardoshlilik, qanoatlilik, iffatlilik, xayolilik, mehr-shafqatlilik, matonatlilik, saxiylik singari axloqiy fazilatlargina o‘qituvchining xalq orasidagi obro‘sini oshiradi, ustoz-shogird munosabatlarini yuksak darajaga ko‘taradi va ta’limning samaradorligini ta’minlaydi, - degan xulosaga keladi.

Alisher Navoiyning fikricha, tarbiyaning maqsadi yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib voyaga etkazishdir. Hatto injiq, yalqov, yomon xulqli bolalarni ham tarbiya va o‘qitish yo‘li bilan yaxshi fazilat egasi qilib tarbiyalash mumkin. Navoiy o‘qituvchining bir qancha ijobiy sifatlarini - qat’iyligi, mehnatsevarligi, bilimdonligi, mehribonligi, hatto tashqi qiyofasi, saranjom-sarishtaligi, ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turishlari bilan hammaga namuna bo‘lishini, yoshlarga ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishni, shuningdek, tarbiya ishi juda ham mashaqqatli va murakkab ish ekanligini alohida e’tirof etadi. Zamonaviy o‘zbek olimlari ham tarbiyachilik kasbining pedagogik va psixologik xususiyatlari borasida qator izlanishlar olib borib borganlar. Jumladan, M.Ochilov pedagogik ta’lim quyidagi uch bosqichda amalga oshirilishini ta’kidlaydi:

1.O‘qituvchilik, pedagoglik va boshqa kasblarni tanlash davrida pedagogik bilimlarni egallash.

2.O‘qituvchilik, pedagoglik kasbiga mutaxassis sifatida tayyorlanish jarayonida va boshqa kasblarni egallash davrida pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish.

3.Malaka oshirish tizimida, mehnat faoliyati va turmush jarayonida pedagogik bilimlarni egallash [7; 223-b.].

M.G.Davletshin hozirgi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogda muallimning shaxsiga, kasbiga

xos xislat va fazilatlarning mujassam bo‘lishi, ulardan o‘qitish va tarbiyalash jarayonida o‘rinli, me’yorida foydalana olish zarurligini nazarda tutadi. Ular: 1) o‘qituvchining shaxsiy xislatlari, 2) kasbiy bilimi, 3) kasbiy xislatlari, 4) shaxsiy pedagogik uddaburonligi, 5) tashkilotchilik malakalari, 6) kommunikativ malakalari, 7) gnostik malakalari, 8) ijodiy xislatlardir [8; 9-12-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tarbiyachilarda empatik qobiliyatni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, tarbiyachi kompetensiyasini rivojlantirish bilan bog’liqligi. Kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

“Kompetensiya” lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo‘lgan” kabi ma’nolarni bildiradi. Demak, biror-bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi.

B.D.Elkoninning ta’kidlashicha “Kompetentlik-bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish demakdir. O‘z sohasining, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini ham har tomonlama chuqur bilish demakdir”.



Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Tarbiyachi-pedagogning empatik qobiliyatga ega bo‘lishida o‘zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O‘zini o‘zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir. O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning empatik qobiliyat sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, tarbiyachining empatik qobiliyatini rivojlantirishda asosiy rolni uning kasbiy faoliyati va o’zini takomillashtirish istagi egallaydi. Empatik qobiliyatlarning rivojlanishi har bir tarbiyachi egallashi kerak bo’lgan pedagogik mahorat va qobiliyatlarga bevosita bog’liqdir.

Empatik qobiliyat bu – boshqalarning his tuyg’ularini tushunish va ularga hamdardlik qilish

qobiliyati. Empatiya, shaxslararo munosabatlar va murakkab ijtimoiy vaziyatlarni boshqarishda samarali vosita hisoblanib, psixologiya, pedagogika, tibbiyot va boshqa ko‘plab sohalarda katta ahamiyatga ega.

Tarbiyachi pedagoglar uchun empatiya juda muhim qobiliyat hisoblanib, ruhiy va jismoniy barkamollik sari yetaklaydi. Ularni o’z kasbiga nisbatan ma’suliyat hissini tuyushga, bola taqdiri, oila va do’stlar, jamiyat rivoji, dunyo ravnaqi haqida o’ylashga undaydi. Empatik tarbiyachilarda o’z-o’zini anglash, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish, jamoaga, atrofdagilarga, tarbiyalanuvchilarga va boshqalarga nisbatan odilona munosabatda bo’lish qobiliyati yuqori bo’ladi. Bu ularni jamoaga, atrofdagilarga, tarbiyalanuvchilarga nisbatan bir qancha salbiy sifatlardan, xavfli hatti-harakatlardan himoya qiladi.

O’qituvchilik, tarbiyachilik kasbining jamiyat taraqqiyotidagi o’rnini hisobga olgan holda har qanday davrda ham pedagogik ta’lim, tarbiyachilik kasbi muammoasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Empatiya tarbiyachilarda ijtimoiy ongni shakllantiradi va adolatli qarorlar qabul qilishga chorlaydi, ular tomonidan haqorat va noto’g’ri fikrlar, tarbiyalanuvchilarga, jamoaga, ota-onalarga nisbatan adolatsizliklar yuzaga kelish darajasini kamaytiradi.

Empatik qobiyat keng ma’noda tarbiyachilarda boshqalarning ongini tushunishga imkon beradi, tarbiyalanuvchilarga nisbatan foydali xatti-harakatlarni bajarishga turtki bo’ladi.

Empatik qobiliyati yuqori tarbiyachilarni shakllantirishni oliy ta’limda tahsil olayotgan bo’lajak tarbiyachilar jamoasini shakllantirishdan boshlamoq lozim. Oliy o’quv yurtlarida o’qish davrida talabalarni empatik qobiliyati yetarlicha yuqori bo’lgan, o’zlarining empatik his-tuyg’ularini nazorat qila oladigan va talabalarning hissiy holatini aniqlay oladigan o’qituvchilar qurshab olishlari kerak.

Empatik qobiliyat emotsional madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog’liq.

Emotsional madaniyatni umumiy madaniyatning mustaqil o‘ziga xos tarmog’i sifatida ilk marta P. M. Yakobson shunday ta’riflagan edi: “Emosional madaniyat – bu ko‘p darajada cheklangan doirada namoyon bo‘ladigan hissiy hayot sifatlarining rivojlanishi va takomillashuvidan iborat bo‘lgan hodisalar majmuasidir”.

P.M.Yakobsonning nuqtai nazaridan kelib chiqib, hissiy madaniyatning tarkibiy qismlari sifatida, boshqalarning his-tuyg’ularini hurmat qilish qobiliyati; boshqa odamlar bilan empatiya qilish qobiliyati, o’z tajribalarini boshqalar bilan baham ko’rish qobiliyatlarini keltirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Tarbiyachi pedagogning empatik qobiliyati qanchalik shakllangan bo’lsa bolalar bilan ishlash samarasi shunchalik yuqori bo’ladi. Masalan, bolaning kayfiyati yo’q paytlarda, bola tushkunlik holatida bo’lganda tarbiyachi bolani tushunishi, motivatsiya berishi, g’amxo’rlik ko’rsatishi bola va tarbiyachi o’rtasida mehr muhabbatni oshiradi, bolaning o’ziga bo’lgan ishonchi oshib boradi.

Empatik qobilayatlar insonni boshqaradi, insonlararo munosabatlarning yaxshilanishiga yordam beradi. Bu qobiliyat turi tarbiyachi pedagoglar uchun asosiy qobilayatlardan biri sanaladi. Uning rivojlanishi shaxsning salomatligini saqlaydi va mustahkamlanishiga hissa qo’shadi. Empatik qobiliyati yuqori bo’lgan insonlar stressli vaziyatlardan boshqalarga qaraganda osonroq chiqishadi, o’z hissiy muvozanatlarini tezroq tiklaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Axmedova M. E. Pedagogika nazariyasi va tarixi o`quv qo`llanma T.: 2011-yil
Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. Maktabgacha pedagogika T.“Ma’naviyat” 2019.
Meliyeva X, Jamoldinova O, Risqulova K Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati. – Toshkent: Zarvaraq, 2021
Nurullaeva Sh.U. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik tayèrgarligini modellashtirish nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun ... èzilgan dissertasiya avtoreferati. Qarshi. 2021. 60-b.
Avesto. (Asqar Mahkam tarjimasi).-Toshkent: Sharq, 2001.- 384 b.
Buxoriy, Imom Ismoil. Al-jomi’ as-sahih. Toshkent, 1991. 328 b.
Irisov A. Abu Ali ibn Sino. – Toshkent, 1980. - 208 b.
Xos Hojib, Yusuf. Qutadg‘u bilig. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 634 b.
Ochilov M. Muallim - qalb me’mori. Toshkent: O‘qituvchi., 2001. – 432 b.
Davletshin. M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 1999.-30 b.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI

Muzaffarova Nurzhona Najmiddinovna,
Buxor davlat pedagogika instituti 2 bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada umumta’lim maktablarida musiqa to‘garaklari faoliyatini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning estetik tarbiyasini shakllantirishda musiqa o‘qituvchisining pedagogik mahorati va ijodiy yondashuvi muhim omil sifatida yoritiladi. Maqolad musiqa to‘garaklarining mazmuni, shakl va metodlari, o‘qituvchining kasbiy fazilatlari, pedagogik mahoratni shakllantirish yo‘llari, shuningdek, o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: umumiy o’rta ta’lim, innovatsiya, pedagogika, musiqa madaniyati, mahurat, ta’lim va tarbiya, estetika, to’garak, san’at.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО УЧИТЕЛЯ ПО ОРГАНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНЫХ КЛУБОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Музаффарова Нуржона Наджмиддиновна,
Бухарский государственный педагогический институт студентка 2 курса

Аннотация. В статье освещается педагогическое мастерство и творческий подход учителя музыки как важный фактор эффективной организации музыкальных кружков в общеобразовательных школах и формирования эстетического воспитания учащихся. В статье анализируются содержание, формы и методы музыкальных кружков, профессиональные качества учителя, способы формирования педагогического мастерства, а также практические подходы к развитию музыкальных способностей учащихся.

Ключевые слова: общее среднее образование, инновация, педагогика, музыкальная культура, мастерство, образование и воспитание, эстетика, клуб, искусство.

PEDAGOGICAL SKILLS OF A TEACHER IN ORGANIZING MUSIC CLUBS IN SECONDARY SCHOOLS

Muzaffarova Nurjona Najmiddinovna,
Bukhara State Pedagogical Institute 2nd year student

Abstract. The article highlights the pedagogical skills and creative approach of a music teacher as an important factor in the effective organization of music clubs in secondary schools and the formation of aesthetic education of students. The article analyzes the content, forms and methods of music clubs, professional qualities of a teacher, methods of forming pedagogical skills, as well as practical approaches to the development of musical abilities of students.

Keywords: general secondary education, innovation, pedagogy, musical culture, skill, education and upbringing, aesthetics, club, art.

KIRISH. Innovatsiya va texnologik g‘oyalar, fikr va muloqotlar san’at, til va madaniyat sohalari muammolarni bartaraf etish yuzasidan tahlil va takliflar, yosh olim va talabalarda tashabbuskorlik bo‘lishi kerak. Mazkur anjumanni o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan maqsad ham shunga qaratilgan. Mazkur anjuman, birinchi navbatda, fan va innovatsiyalar uyg‘unligida san’at, til va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishga xizmat qilsa, ikkinchidan, ko‘plab tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun yo‘l ochadi.

Bugungi kunda zamonaviy musiqa fani o‘qituvchisining pedagogik mahoratiga- o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, o‘quvchilarning shaxs

kamolotini rivojlantirish maqsadlari tomon yo‘naltira olish, o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘ota olish kabi asosiy vazifalar kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Musiqiy-pedagogik faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati esa yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Musiqiy-pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligini, ya’ni ketma-ketligini ta’minlash ga xizmat qiladi. Musiqiy faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liqdir va bunda musiqiy-pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi juda muhimdir. V.Gyote ta’kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so‘z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o‘z-o‘zidan kelaveradi ».

“Musiqiy-pedagogik mahorat” birnecha kategoriya sifatida o‘zining ilmiy asoslariga ega. Jumladan:

•pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin sifatida tushuniladi.

•pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.

•mahorat o‘quvchilar tomonidan uning ijtimoiy yetuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Ijtimoiy yetuklik komponentlari pedagogik mahorat komponentlari bilan nisbatda bo‘ladi. Bo‘lg‘usi pedagogning ijtimoiy yetuklik komponentlariga quyidagilar kiradi:

Ijtimoiy o‘z-o‘zini belgilash - o‘zining pedagogik qobiliyatlari va e’tiqodini namoyon qilish;

Ijtimoiy faollik - odamlar bilan ishlay olish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;

Ijtimoiy ma ‘suliyat - o‘qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlar.

Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo‘nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi kiradi.

Mahoratning shakllanish bosqichlariga esa reproduktivlik (boshlang‘ich), ijodiylik, ijodiy-tashabuskorlik kiradi. Pedagogik mahorat darajalari keng qamrovli bo‘lib, musiqa fani o‘qituvchisining ish darajasining davomi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni xisobga olish tamoyillari asosida barcha o‘quv predmetlari qatori jumladan musiqa predmeti bo‘yicha ham o‘qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Musiqa madaniyati o‘quv predmeti o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

NATIJALAR. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, amalda joriy etishdir. Tarbiyaning asosiy vazifasi - shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun: - yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko’maklashish, o’z-o’zini idora va nazoratqila bilishni shakllantirish, o’z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg’otish; - o’quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo’lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o’stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish; - har bir o’smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish.

Bugungi kunda jamiyatimizni isloh qilishda ta’lim-tarbiyada vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, yosh-avlodning ma’naviyatini yuksaltirish, ayniqsa o‘quvchilarni musiqa san’ati asosida tarbiyalash orqali ularning ongini zararli g‘oyalar ta’siridan himoya qilish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Har qanday millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy dunyoqarashlari o‘z - o‘zidan shakllanib qolmaydi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi uchun aniq tarixiy, tabiiy

va ijtimoiy vositalar asos bo‘ladi. Ajdodlarimizning ma’naviyati aynan shu zaminda, tarixda ham, bugungi kunda ham butun dunyo ahlining e’tiborini va havasini tortib kelayotgan olijanob insoniy va ma’naviy fazilatlar asosida shakllangan.

Yoshlarimizni ma’naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda maktablar bilan birga darsdan tashqari to‘garaklar faoliyati shak- shubhasiz katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. O‘smirlarning to‘garak orqali hayotga qiziqishi, his-tuyg‘ularining o‘sib borishi, atrof-muhitni kuzatish qobiliyatining o‘sishida musiqa san’ati muhim o‘rin tutadi. Boshqa san’at turlariga nisbatan musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim tarbiyaviy qismidir. Estetik tarbiya go‘zallikni his qilish va tushunish tarbiyasi demakdir. Estetik tarbiyada darsdan tashqari olib boriladigan musiqa san’ati mashg‘ulotlari o‘ziga xos, alohida o‘tkir ta’sirchanlikka ega bo‘lganligi sababli maorifchilarning e’tiboriga sazovor bo‘lib kelmoqda. Musiqa san’atining turli sohalarini qamrab olgan holda musiqa to‘garaklarini tashkil etish o‘z oldiga muhim maqsadlarni qo‘yadi. Milliy ta’lim va tarbiyaga asoslangan musiqa to‘garaklari o‘z mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, axloqiy va umuminsoniy fazilatlarni mujassam etishi bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta’lim va tarbiya oldidagi eng muhim maqsadlardan biri ham o‘quvchi-yoshlarda milliy ong va milliy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa, birinchi navbatda, ta’lim va tarbiya ishlarida milliy-ma’naviy qadriyatlardan unumli, oqilona va o‘z o‘rnida foydalanishni taqozo etadi. Musiqa san’atining tarbiyaviy ta’sirchanlikka ega bo‘lgan xalq musiqa ijodiyotidan ta’lim tizimida, xususan, umumta’lim maktablarida dars va darsdan tashqari (turli madaniy-ommaviy tadbirlar, musiqa to‘garaklari, ko‘rik-tanlovlarga tayyorgarlik va hokazo) faoliyatlarda keng foydalanishni yanada kuchaytirish, birinchidan, ta’lim mazmunini boyitsa, ikkinchidan, ta’limning milliy negizini mustahkamlaydi.

MUHOKAMA. Umumta’lim maktablari o’quvchilarni professional musiqa faoliyatiga tayyorlashni o’z oldiga asosiy maqsad qilib qo’ymaydi. Biroq musiqani tushunish, uni idrok qilish, undan emotsional ta’sirlanish har bir o’quvchiga, u kelajakda musiqachi san’atkor bo’ladimi yo’qmi bundan qat’iy nazar xos bo’lmog’i kerak. Shu narsa yaxshi ma’lumki, musiqadan yaxshi tayyorgarligi bo’lgan kishilarda badiiy did ancha yuqori bo’ladi, idroki boy bo’ladi.

Bugungi kunda tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki malakali, pedagogik madaniyati, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash muammosi ayniqsa dolzarbdir. Uning faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta’minlash mumkin. Bunda oliy ta’limda muassalari musiqa ta’limi yo‘nalishida o‘qitilayotgan barcha fanlarning salmog‘i katta. Shu jumladan “Musiqa to‘garaklarini tashkil etish” fani o‘z oldiga yuqorid keltirilgan maqsad va vazifalarni qo‘yadi. Maktabda musiqa to‘garaklarini tashkil etish o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham o‘quvchi-yoshlarni har jihatdan komil inson va aqqli qilib tarbiyalashda, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda ham musiqa to‘garaklarining ahamiyati katta.

Maktabda musiqa bo’yicha sinfdan tashqari ishlarni yaxshi yo’lga qo’yilishi musiqiy ta’lim va tarbiya mazmunini har jihatdan to’ldirish, mukammal va to’laqonli bo’lishda katta ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi o’quvchilarni iloji boricha ko’proq ommaviy-madaniy va to’garak ishlariga jalb etish orqali ularni dunyoqarashlarini, qiziqish va ehtiyojlarini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o’stirish, shu orqali malakaviy madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi ommaviy shaklida o’quvchilar yalpi tarzda ishtirok etilaveradi. Bu shaklda turli bayramlarga, musiqa bo’yicha ko’riktanlovlarga, ijodiy uchrashuvlarga teatr va konsertlarga jamoa bo’lib tushishi, «Alifbe» bayramlari, shoir, bastakor, qo’shiqchi-hofizlar bilan uchrashuvlarga tayyorgarlik, qatnashish kabilar kiradi. Ammo bularning har biriga bolalarni yoshi, qiziqishlariga qarab oldindan tayyorlab berish kerak bo’ladi.

XULOSA. Umumta’lim maktablarida musiqa to‘garaklarini muvaffaqiyatli tashkil etish va

yuritish, o‘qituvchining faqatgina kasbiy salohiyatini emas, balki pedagogik mahoratini ham muntazam takomillashtirib borishini taqozo etadi. Zero, yosh avlodning estetik madaniyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni anglatish va ularni barkamol shaxs etib voyaga yetkazishda musiqa to‘garaklari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

D.A. Karimova Musiqa to‘garaklarini tashkil etish. – T.: “Navro‘z”, 2008. -108-b.

Xodjabayeva Z.P Ijodiy fikrlashda folklor to`garaklarining yoshlar tarbiyasidagi o`rni Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

Jizzax 2022-yil 29-noyabr

3. Dilnavoz O‘Ktamovna Muratova Musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati // Scientific progress. 2021. №5.

Ярашев Журабек Тураевич Нравственное и эстетическое воспитание учащихся в сотрудничестве с семьей и школой// Academy. 2021. №3 (66). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie- uchaschihsya-v-sotrudnichestve-s-semiey-i-shkoloy (дата обращения: 30.03.2022).

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QUV FAOLIYATIDA MUSTAQILLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Moyliyeva Xumora To‘ra qizi
Turon universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirishning dolzarbligini asoslaydi. Tadqiqot maqsadi o‘quvchilarning mustaqil o‘zlashtirishiga ta’siretuvchi irodaviy va amaliy omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot usullari kuzatuv, suhbat va pedagogik tahlildan iborat bo‘lib, olingan natijalar o‘quv jarayonida mustaqillikni rivojlantirishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, mustaqillik, aqliy rivojlanish, irodaviy komponent, amaliy komponent,

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Мойлиева Хумора Тура кизи
Старший преподаватель кафедры педагогики и психологии университета Турон.

Аннотация: Данная статья обосновывает актуальность развития самостоятельности в учебной деятельности учащихся начальных классов. Цель исследования состоит в определении волевых и практических факторов, влияющих на самостоятельное усвоение знаний учащимися. Методы исследования включают наблюдение, беседу и педагогический анализ. Полученные результаты показывают практическую значимость развития самостоятельности в учебном процессе.

Ключевые слова: начальный класс, самостоятельность, умственное развитие, волевой компонент, практический компонент.

PEDAGOGICAL FACTORS IN DEVELOPING INDEPENDENCE IN LEARNING ACTIVITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Moyliyeva Khumora
Senior Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Turon University

Abstract: This article substantiates the relevance of fostering independence in the learning activities of primary school students. The aim of the study is to identify volitional and practical factors influencing students’ independent acquisition of knowledge. Research methods encompass observation, interviews, and pedagogical analysis. The results demonstrate the practical significance of developing independence within the educational process.

Keywords: primary school, independence, cognitive development, volitional component, practical component.

Kirish (Introduction). Jahonda o‘quvchi shaxsini mustaqil o‘zini - o‘zi rivojlantirishi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning keyingi yo‘nalishidir. Bilim o‘zlashtirishda mustaqil -tadqiqiy faoliyat tajribasiga ega bo‘lgan shaxs har doim standart, belgilangan usullardan foydalanadiganlarga nisbatan yuqori darajada bo‘ladi. Qolaversa, ma’lum bir intellektual darajaga ega bo‘lgan va uni ijodiy takomillashtirish qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchi kelajakda ilg‘or texnologiyalarni yanada oqilona idrok etishi, ishlab chiqishi va joriy etishi, taraqqiyot dvigateli bo‘lishi mumkin. Demak, yuksak mustaqil-ijodiy salohiyatga ega shaxslar faoliyat olib borgan jamiyat o‘zi uchun istiqbolli kelajakni ta’minlay oladi. Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy rivojlanishi va ularning mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirish maktab ta’limining muhim vazifalaridan

biridir. Shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun faqat fan asoslarini o‘zlashtirish yetarli emas, balki axborotga bo‘lgan ehtiyoj, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirish ham muhimdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil o‘zlashtirishiga ta’siretuvchi irodaviy va amaliy omillarni aniqlashdan iborat.

Mamlakatimizda ham hayotning istalgan sohasida ko‘nikmaga ega bo‘lgan, o‘zini oqlay oladigan mustaqil, ijodkor shaxsni shakllantirish har doim ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Uni hal qilish o‘quvchining tashabbuskorlik, nostandart fikrlash, doimiy o‘zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga moslashishga tayyor bo‘lish istagi, qobiliyati va imkoniyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. “Yurtimizdagi yangilanish jarayonlari va islohotlarga daxldorligini chuqur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o‘z o‘rni va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo‘lda faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo‘lgan zamonaviy shaxslarni tarbiyalashning konseptual asoslari va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu esa sohada jiddiy bo‘shliq mavjudligini yana bir marotaba isbotlamoqda”. Bu vazifa pedagogika uchun dolzarb va muhimdir. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilarni bilim o‘zlashtirish mustaqilligini shaxs xususiyatlaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili (Literature riview). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish mustaqilligini rivojlantirish umumiy muammosining alohida savollari pedagogik fikr tarixining turli bosqichlarida uchraydi. Hatto qadimgi Yunonistonda ham Pifagor maktabi vakillari Arxitas, Aristoksen va boshqalar inson yangi bilimlarni boshqa odamdan o‘rganishi yoki uni mustaqil ravishda o‘zlashtirishi mumkinligini ta’kidladilar. “O‘z-o‘zini rivojlantirish uchun o‘quvchining o‘z xohishi bilan o‘rganishi kerak, Bunda “fan va san’atni o‘rganish to‘g‘ri va maqsadga erishadi, lekin agar majburlash bo‘lsa, u zaif va muvaffaqiyatsiz” [3, 95-104 b].

Aristotel o‘zining “Ruh haqida” asarida “insonga quvonch va zavq bag‘ishlaydigan hayot uchun zarur bo‘lgan me’yor va qoidalarni o‘zlashtirish faoliyatigina muvaffaqiyatli bo‘lishi”ni ta’kidlagan. Shuning uchun bu faoliyat passiv yodlash orqali emas, balki shaxsning faol amaliyoti, uning mustaqil mehnati jarayonida amalga oshirilishi zarur. [1, 178 b]

Rivojlantiruvchi ta’lim g‘oyalari atoqli Rim pedagogi Kvintilian asarlarida yanada keng yoyilgan. Ular o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynash g‘oyasini o‘z ichiga oladi va tegishli didaktik tavsiyalar beradi. Tabiat har bir insonga aqliy chaqqonlik, o‘rganish qobiliyati, tez aql-zakovatni ato etgan, shuning uchun ham bilim olish jarayonida nafaqat “esda saqlash, balki ko‘p o‘ylash” kerak deydi. U “Notiq tarbiyasi haqida” asarida o‘quvchilarni ortiqcha yuklamaslikni talab qilgan, chunki haddan tashqari ko‘p miqdordagi material ularning mustaqilligini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi, bilimlarni passiv o‘zlashtirishga olib keladi. O‘qituvchining vazifasi nafaqat o‘quvchilar xotirasini bilim bilan boyitish, balki ularning tafakkurini, fanning turli masalalari bo‘yicha o‘z mulohazalarini rivojlantirishdir. Ushbu muammoni hal qilish vositalaridan biri o‘quvchilarni o‘qituvchiga savol berishga undash, fikr almashishni tashkil etish [4, 20 b].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). T.M.Nikolayeva o‘quvchilarni o‘zlashtirish mustaqilligini rivojlantirishda individual, guruh va jamoaviy ta’lim shakllarini uyg‘unlashtirish kerakligini ta’kidlaydi: “ta’limni tashkil etishning ushbu uchta usulining har birining samaradorligini oshirish masalasiga alohida e’tibor berish lozim. Ushbu uch shakl o‘rtasida optimal aloqalarni yaratish uchun hisobga olinishi kerak bo‘lgan omillarni aniqlashga harakat qilish muhim. Bunday omillar juda ko‘p, ammo eng muhimi o‘quv materialining qiyinchilik darajasi va o‘quv jarayonining aloqadorligi”-, deb ta’kidlaydi.

O‘zlashtirish mustaqilligini rivojlantirish tamoyillari haqida alohida jadval asosida yoritib o‘tildi.

O‘zlashtirish mustaqilligini rivojlantirish tamoyillari



Qiziqtirish tamoyili - bu tamoyilning mohiyati ta’lim oluvchining bilim olish faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi. Fanning o‘quv materialiga qiziqishni uyg‘otish, bilim olishga rag‘batlantirish, mashg‘ulotlar paytida faol ishtirok etish, mustaqil, ijodiy fikrlashga da’vat etish tamoyilning vazifalari hisoblanadi. Qiziqtirish tamoyili o‘quvchining o‘quv topshiriqlarini o‘z shaxsiy tezligida bajarish, o‘ziga kerakli yordamni olish, muammoning yechimini o‘z kuchi bilan topish imkoniyatiga ijobiy motivatsiyani yaratadi, keyingi faoliyatni faollashtiradi va yo‘naltiradi.

Shaxsning faoliyatda rivojlanish tamoyili - bola shaxsini rivojlanishida ta’lim yetakchilik rolini bajaradi. Ikkala jarayon bir-biri bilan bog‘liq: rivojlanish va ta’lim parallel tarzda sodir bo‘ladigan ikki jarayon emas, ular bir butun jarayondir. Ta’limsiz to‘la aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. Ta’lim rivojlanishga stimul — turtki beradi, rivojlanishni o‘z orqasidan ergashtirib boradi. Lekin rivojlanishga stimul bo‘lish bilan bir vaqtda ta’lim o‘zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan taraqqiyot darajasining xususiyatlarini hisobga oladi. Bola o‘quv faoliyatida Aktual hamda yaqin kelajak taraqqiyot zonasida rivojlanishi lozim. Agar o‘quvchi biror vazifani kimningdir yordami bilan bajara olsa, bu uning yaqin rivojlanish darajasi, zonasidan dalolat beradi. Yaqin kelajak zonasi esa o‘quvchining ertangi kunini, rivojlanishining dinamik holatini aniqlashga yordam beradi. Agar bola topshiriqni mustaqil ravishda bajara olsa, bu uning aktual taraqqiyot zonasini ko‘rsatadi. Shu bilan birga ta’lim-tarbiya jarayonida bir tomondan, o‘quvchiga kuchi yetmaydigan, uning aktual rivojlanish darajasi va yaqin imkoniyatlariga to‘g‘ri kelmaydigan talablar qo‘ymaslik kerak. Boshqa tomondan esa, o‘qituvchi bugun bola kattalar yordami bilan, ertaga esa mustaqil tarzda bajara olishini bilsa, bola taraqqiyotini jamiyat talablariga mos ravishda, maqsadga muvofiq tarzda takomillashtirib borishi mumkin.

Erkin tanlov tamoyili - bu o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini tanlash, o‘z missiyalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan o‘quv faoliyatidagi erkinligini nazarda tutadi. O‘quvchi shaxsi tashqaridan, masalan, o‘qituvchi, o‘rtoqlari tomonidan bosimga duchor bo‘lishini taqiqlaydi.

Erkin tanlov tamoyili quyidagi erkinliklarni nazarda tutadi:

o‘qish va muhokama qilishda qatnashish;

o‘z mustaqil fikrini sinf o‘quvchilari oldida bildirish;

o‘qituvchi yoki sinfdoshlari tomonidan karshilikka uchramaslik.

Ko‘rinib turibdiki, erkin tanlov tamoyili turli elementlardan iborat. Bundan tashqari, u bir necha darajalarda: sinf darajasi, maktab daraja va shaxsiy darajada namoyon bo‘ladi.

O‘z faoliyatini refleksiv, mustaqil tashkil etish tamoyili- bu bilgan va bilmagan mavzularini aniqlashtirib olish, muayyan ta’lim vazifasini belgilash va uni amalga oshirishning qisqa muddatli dasturini yaratish; qabul qilingan qarorlar va ishlab chiqilgan rejalarni o‘quv jarayoniga tadbiq eta olish (masalan, o‘qituvchi tavsiyasidan tashqari kerakli adabiyotlarni izlash); o‘zining o‘zlashtirish faolligini tengdoshlari bilan taqqoslash va sodir etayotgan harakatlarining samaradorlik darajasini belgilab borish; erishgan yutuqlarini o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari bilan taqqoslash; o‘z ustida ishlashning keyingi yo‘nalishlarini aniqlab olish va o‘zi uchun uzoq muddatli strategiya belgilash.

O‘quv materiallarini axborotli-o‘rgatuvchi, mashqlantiruvchi va rivojlantiruvchi bloklarga ajratish tamoyili - bu tamoyil o‘qitishni individuallashtirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Birinchidan, fanning dinamik tuzilmasi asosida mavzu mazmunini uch xil ya’ni to‘la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko‘rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi. Topshiriqlarning u yoki bu turini tanlash o‘quvchining o‘ziga havola qilinadi. Ikkinchidan, mavzu mazmunini o‘zlashtirishda o‘qitish usuli va shakllarning turliligida ham namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘qitishning faollashtirishga shakl va usullar (dialog, mustaqil o‘qish, o‘quv, imitatsion o‘yinlar va hokazo) hamda muammoli topshiriqlar bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, yangi materialni pog‘onasimon o‘zlashtirishi ta’minlanadi, ya’ni har bir mavzuda o‘qitish oddiydan murakkabga qarab yo‘nalgan bo‘ladi. To‘rtinchidan, rivojlantiruvchi bloklarga kiruvchi o‘quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli o‘quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati tug‘iladi.

Kognitiv vizuallik (ko‘z bilan kuzatiladigan) tamoyili - bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi. O‘qitishdagi ko‘rgazmalar nafaqat so‘roq vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o‘zlashtirish unumdorligini oshiradi. Aynan shuning uchun kognitiv grafika-sun’iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo‘lib, murakkab obyektlar kompyuter suratchalari ko‘rinishida tasvirlanadi. Mavzuning tarkibiy tuzilmasi bo‘lib kognitiv-elektron dasturlar o‘quv elementi bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘zlashtirish mustaqilligini rivojlantirishga individual yondashuvning asosiy maqsadi – o‘quv materialini o‘zlashtirishda maksimal kenglikni, o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘g‘ri rivojlantirishni va har bir bolaning rivojlanishidagi eng muhim harakatni ta’minlashdir.

Shunday qilib, individual yondashuv rivojlanuvchi ta’limni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu muammoga bag‘ishlangan psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish bizga nazariya bo‘yicha xulosa chiqarishga imkon beradi. Shu sababli o‘quvchilarni o‘zlashtirish mustaqilligini rivojlantirishda individual yondoshuv:

1) har bir o‘quvchi imkoniyatigaga nisbatan ta’lim berish, agar u har bir o‘quvchining rivojlanish darajasiga moslashtirilgan bo‘lsa, rivojlantiruvchi bo‘lishi mumkin (bu o‘quv ishini ichki individuallashtirish bilan mumkin);

2) erishilgan darajadagi ehtiyoj har bir o‘quvchida ushbu darajani aniqlash talabini keltirib chiqaradi;

3) rivojlantiruvchi ta’lim o‘quvchilarni rivojlanish nuqtai nazaridan tenglashtirishga olib kelmaydi. Bundan kelib chiqadiki, individuallashtirish nafaqat boshlang‘ich nuqta sifatida, balki butun mashg‘ulot davomida saqlanishi kerak;

4) aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish mazmunan optimal qiyinchilikka ega bo‘lishi va aqliy mehnatning oqilona malakasini shakllantirishi kerak bo‘lgan bilimlarni rivojlantiruvchi maxsus vositalarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish mustaqilligi, Xususan,

o‘quvchiga o‘quv va boshqa ma’lumotlarni farqlash, eng muhimini ajratib ko‘rsatish, faoliyat jarayoni va natijasini nazorat qilish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradigan o‘z-o‘zini bilishga tayyorlik imkoniyatini rivojlantirish yo‘llari aniqlanadi. Individual yondashuv asosida o‘quvchilarni o‘zlashtirish mustaqilligini rivojlantirishda nafaqat bolaning xususiyatlarini bilish, balki o‘quvchilarning shaxsiyatida ham, bolalarda ham sodir bo’layotgan o‘zgarishlarni aniqlash uchun tizimli diagnostika va kuzatuvlarni amalga oshirish, ta’lim faoliyatida o‘ziga xos tamoyillarga amal qilish muhimdir. O‘zlashtirish mustaqilligi bilish qobiliyatini rivojlanishiga, o‘quvchiga hissiy, jismoniy va psixologik ortiqcha yukni kamaytirish va o‘quv ishlarini oqilona tashkil etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Аристотель. О думе.- И.: Соцэкгиз,- 1937.— 178 с

Axmedova M. E. Pedagogika nazariyasi va tarixi o‘quv qo‘llanma T.: 2011-yil

Малькова З.А. Джон Дьюи - философ и педагог-реформа¬тор //Педагогика.- 1995.- N4.- С. 95-104

Капитонова Т.А. Развитие познавательной самостоятельности младших школьников. Автореф. дис...канд. пед. наук. - Саратов, 1996. - 20 с.

Трейтяк Л.Г. Активизация самостоятельной работы учащихся начальных классов: Пособие по спецкурсу. - Рязань: РГПИ, 1984. - 90 с.

Унт И.Э. Индивидуализация учебных заданий и ее эффективность (на материалах 5-8 кл.). Автореф. Дис... д-ра пед. наук. - Вильнюс,1975. - 39 с.

PLANNING AND PEDAGOGICAL CONTROL OF THE TECHNICAL TRAINING OF FEMALE WRESTLERS IN WRESTLING

Nuralieva Ugiloy Shamuratovna
Karshi State University, Karshi City , Uzbekistan

Abstract. The article highlights the improvement of special and physical training of athletes through systematic control of technical and tactical training of qualified female wrestlers according to the results of the study. During the training process of qualified wrestlers, we conducted a video analysis, a questionnaire survey, theoretical analysis, motivational and effective methods, statistical methods for determining the reliability of the average adult, as well as ongoing monitoring using 3 tests: Orthostatic test, The Rufier Dixon test, Evaluation for technical movements. The analysis of changes in the indicators of competitive activity carried out at the beginning and at the end of the pedagogical experiment showed that the reliability of differences in all indicators was observed in the female wrestlers of the experimental group ($p<0.05$). This is evidenced by the fact that the method of planning, current and step-by-step pedagogical control of loads, which we offer, has a positive impact on the training of qualified female wrestlers. We believe that the results of the method of systematic implementation of pedagogical control in the course of pedagogical research (ongoing and step-by-step) will become an effective tool in improving technical and tactical actions when planning the training of athletes of different categories and in determining their reliability indicators when improving technical and tactical actions of athletes of different categories.

Keywords: Systematic training plan, technical and tactical training, functional capabilities, athlete status, level of training, complex attacking movement, control of the training process, attack effectiveness.

Introduction. Normalization of loads among the central sections of the methodology for preparing the structure of loads for wrestlers. The problems of planning and controlling training loads are in the focus of attention of specialists, scientists and teachers of this field, as well as leading practitioners-coaches in terms of showing high results in sports.

At the present stage, the main direction in sports is the creation of organizational structures and services capable of quickly responding to the dynamic development of sports in the world, providing training and competitive processes with new technologies, effectively promoting the activities of athletes, coaches, scientists, military personnel, managers and entire organizations.

Currently, among the most important stylistic principles of teaching are the following:

- dynamism of the preparatory system. It will determine the direction of the development of sports skills in flexible planning, changing the rules, regular study of international calendars and making quick adjustments to programs based on accounting;
- rational use of tools, methods and loads, depending on the stage of preparation in the annual cycle, contributes to a significant individualization of training and competitive processes, thereby encouraging various alternative approaches.

Planning - is divided into operational, current and long-term planning. You can con-sider two sides of the organization of the planning system. The first one is connected with the formation of a standard training program based on the latest theoretical and practical research, as well as the identified features of modern competitive activity and shortcomings that were provided for when planning previous cycles (Ataev, 1987).

During the training period, the training is aimed at ensuring a gradual transition from active recreation to intensive special work, the subsequent development of physical qualities, as well as the acquisition of combat techniques and tactics, as well as improvement. During this period, it is necessary to create a solid foundation for the successful activity of athletes in the pre-competition period. The main objectives of the preparatory period are to increase the functional

capabilities of the body, improve and improve general physical fitness, eliminate deficiencies in their implementation, and cultivate willpower and spiritual qualities.

According to the results of scientific re-search conducted on wrestlers belonging to the National Team of Uzbekistan, their physical development and physical fitness were analyzed. Based on these results, standards of morphofunctional and physical capabilities of wrestlers of different ages and genders were developed. These standards can be used to assess the ability of athletes to adapt to training.

A new set of exercises specific to the action program adapted to the conditions of the wrestlers' competitions has been created, which highlights the essence of special exercises that are used as part of the procedure for developing muscles involved in performing technical movements of a qualified wrestler.

Problems of planning and control of training loads high results in martial arts are in the focus of attention of pedologists in the same field, as well as leading practicing trainers. But the program of planning and control of training loads needs serious revision. Here it is necessary to take into account the individual characteristics of the international calendar of competitive activities, the adaptation of the body to loads in different directions. The solution to the general problem is to conduct the following re-search:

- determination of the individual characteristics of the training and competitive activities of qualified wrestlers;
- to systematize and classify the sizes of training equipment and load characteristics in microtechnics;
- to develop a method of rational planning of training loads in the structures of the training process based on the optimal variability of training parts;
- to develop a method for controlling the size of training loads, taking into account the following characteristics, specialization, orientation and coordination complexity of loads.

Operational planning is carried out on the basis of daily planning. Such planning involves determining the load capacity and intensity of various tasks, tools, methods. The structure of the training is determined by the fact that it is aimed, first of all, at achieving the maximum training effect. In accordance with the operational training plan, a training plan is drawn up, in which, during preparation, the characteristics of body heating, the main and final parts, the number of repetitions, the duration of breaks and rest are described (Nurshin, et al. 1987).

Based on the above, it is possible to improve both special and general physical training by systematically monitoring the training plans of qualified female wrestlers.

Methods

Pedagogical observations were carried out in order to determine the characteristics of MF, types and parameters of training loads, pedagogical control of loads that are used in the process of training qualified female wrestlers.

Pedagogical observations were carried out taking into account the structure of technical and tactical movements performed by experienced female wrestlers, combinations of technical movements were determined. During the follow-up before each training task, the heart rate (HR) was taken into account during the training. In the first experiment, cases of fatigue and recovery of qualified female wrestlers were determined using tests, and a methodology was developed (Kerimov, 2001).

In the main experiment, we practically proved the effectiveness of the proposed meth-od of systematic control of the technical and tactical training of qualified wrestlers in the training process of qualified wrestlers in the proposed training process. When determining the results of the study, various control exercises (conditional competitions in tests) were used to assess the general and specific physical, technical and tactical readiness of the control, as well as the level

of their physical fitness during the study. Also, the evaluation criteria were used to perform the methods of the "G. S. Tumanyan Scale" (Kerimov, 2004).

When developing various research results, the following statistical methods were used (arithmetic mean, mean square deviation, coefficient of variation), methods of analysis.

To determine the reliability of the data obtained, statistical hypotheses were investigated (in accordance with the Student's t-criterion).

Results and discussion

At the beginning of the study, preliminary control tests were conducted on 12 qualified female wrestlers. As a result of the control, it was decided to comprehensively prepare the athlete during training and in competitive activities and solve many tasks to reveal significant function-al capabilities in the body system, that is, by assessing the athlete's condition, degree of readiness, and effectiveness of activities at competitions.

If you pay attention to the results, then at the beginning of the week the number of heart-beats was normal, and by the end of the week we saw a slight increase. Some girls have an indicator that exceeds the norm. When we asked them about their condition, it became known that they had fatigue in their body and they could not rest well. By the second week, we started doing a workout with a reduced load. Apparently, the results improved compared to the first week. By the 3rd week, we gave experienced female wrestlers a load aimed only at one side. The results are improving more and more. By the 4th week, the results we expected were obtained. At the beginning and end of the week, it was found that the dynamics of recovery from fatigue in girls with a decrease in the number of heartbeats was good.

At the beginning of the new week, the «Rufier Dixon test» began to be held every Monday. This showed that the girls were ready for a week-long training process. In the first week, qualified wrestlers received an average of 5.6 points. But some of our girls also have grades 7, 8. They asked about the status, measures were taken on them. By the second week, the average score was 4.5 points. One girl was awarded 7 points. By the third week, on average, 5 was evaluated. It became known that two of our athletes received 7 and 8 points. When asked about their condition, they said that a state of fatigue had set in and the recovery dynamics was low. By the fourth week, they had received an average score of 4.18. Our 12 female wrestlers also do not have excellent (maximum) ratings.

The results of the two tests above showed that the loads that are given in training do not meet the requirements of modern competitive activity. It was found that the volume of down-loads is high, zero is that the requirements of modern competitive activity should be focused on the development of technical and tactical procedures, and not on the volume of down-loads. Based on the above, we have developed a load structure that is oriented in one direction, that is, on technical and tactical training, taking into account the technical and tactical training of our qualified female wrestlers, and distributed the loads by microcycles. We have developed microcycles in the following order (figure 1):

24 experienced female wrestlers took part in the main experiments (12 control, 12 re-search). At the same time, we carried out ongoing and step-by-step control based on the developed methodology. We have determined the current control with an assessment of such a technical movement:

1. Over shoulder throw.
2. Throw over the back.
3. Bending technique ("yonbosh").
4. Perform combinations of these techniques.

The qualified wrestler girls were given the above tasks and the performance of the tasks was evaluated on the scale of G. S. Tumanyan.

A comparative analysis of the data conducted during the main pedagogical experiment revealed to us the following. (see tables 1, 2)

The stage control was carried out once a month. And when conducting this control, we used competitiveness indicators in accordance with the table below.

By the 4th week, we received the expected results. At the beginning and end of the week, it was found that the dynamics of recovery from fatigue in girls with a decrease in the number of heartbeats was good.

"Rufier Dixon Test" is held at the beginning of the week once a week. This makes it clear that the female wrestlers are ready for a week-long training process. We conducted this test every Monday using the following formula:

$$A = \frac{P1 + P2 + P3 - 200}{10}$$

Here P1 is the number of heartbeats in a calm state of the athlete. The athlete lies for 5 minutes and measures the pulse. P2 is the number of heartbeats after the athlete's load. The athlete does 20 squats and measures the pulse. P3 is the dynamics of recovery. The athlete rests for a minute, and the pulse is measured again. We subtract 200 by adding up all the results. We divide the resulting number by 10. Then we find the exponent A. That is, we find the position of the wrestler. Excellent if A is up to 1-3; good if 4-6; satisfactory if 7-10; unsatisfactory if it comes out 11 or higher. This test determines whether the wrestler is ready for the training process, which is carried out during the week. If the results are satisfactory or unsatisfactory, the athlete is not put into training. If the health is in place, then attention is paid to the psychological state, after the condition improves, the athlete should continue training as usual. We recommend the current and step-by step method of pedagogical control of technical and tactical training of qualified female wrestlers to other wrestling specialists.

Conclusion

With the help of the analysis of scientific and methodological literature and generalization of best practical experience, it was determined that solving the problem of current and phased pedagogical control in the technical and tactical training of qualified wrestlers requires research in this direction.

The pedagogical assessment given to the technical efforts of the female wrestlers of the experimental group turned out to be reliable in relation to the indicators of the wrestlers of the control group ($p<0.05$). When analyzing the changes in the indicators of competitive activity, conducted at the end of the pedagogical experiment, there were no differences in the indicators of female wrestlers of the control group ($p>0.05$). In sports practice, training is understood

as a microclimate, a training session that takes place over several days and provides a comprehensive solution to the tasks of this preparatory stage. Based on this, we can say that the training plan, which is aimed specifically at preparing the athlete, gave a positive result in our study.

References

Ataev A.Q. (1987) Kurash [Wrestling] . Tashkent (in Uzbek).

Nurshin Zh.M., Tajmuradov O., Shokirzhonov A. (1987). U`zbekcha millij sport kurash usullari [A Methods of Uzbek national sports wrestling]. Tashkent (in Uzbek).

Kerimov F.A. (2001). Sport kurashi nazariyasi va usuliyati [Theory and methodology of wrestling]. Tashkent (in Uzbek).

Kerimov F.A. (2004). Sport sohasidagi ilmij tadqiqotlar. [Scientific research in the field of sports]. Tashkent (in Uzbek).

Kerimov F.A. (1990) Kurash tushaman [I will wrestle]. Tashkent (in Uzbek).

PEAGOGIK TA’LIM JARAYONIDA TALABALAR VERBAL-LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MODELI

Nurullayeva Shaxlo O‘ktamovna,
Qarshi DU Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi porofessori,

Rashidova Ra’no G‘aniyevna,
Qarshi DU Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada pedagogik ta’lim jarayonida talabalar verbal-lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslar haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Verbal-lingvistik kompetensiya tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida bu kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar va usullarning samaradorligini asoslab beradi. Shuningdek, maqolada verbal-lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan model ishlab chiqilib, uning komponentlari, bosqichlari va amaliy ahamiyati bayon etiladi. Tadqiqot natijalari asosida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: verbal-lingvistik kompetensiya, pedagogik ta’lim, kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim modeli, innovatsion metodlar, kommunikativ ko‘nikmalar, til kompetensiyasi, o‘quv jarayoni.

MODEL OF FORMATION OF STUDENTS’ VERBAL-LINGUISTIC COMPETENCES IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION

Nurullayeva Shakhlo Uktamovna
Professor of the Department of Primary Education, Karshi State University

Rashidova Rano Ganiyevna
Senior Teacher of the Department of Preschool Education, Karshi State University

Abstract: this article discusses the theoretical and methodological foundations of developing students’ verbal-linguistic competencies in the pedagogical education process. It analyzes the content of the concept of verbal-linguistic competence, its components, and stages of development. The effectiveness of innovative pedagogical technologies and methods that contribute to the formation of these competencies in the educational process is justified. Additionally, the article develops a model aimed at forming verbal-linguistic competencies, outlining its components, stages, and practical significance. Based on the research findings, suggestions and recommendations are provided.

Keywords: verbal-linguistic competence, pedagogical education, competency formation, educational model, innovative methods, communicative skills, language competence, learning process.

МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ВЕРБАЛЬНО-ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Нуруллаева Шахло Уктамовна
Профессор кафедры начального образования Каршинского государственного университета

Рашидова Рано Ганиевна
Старший преподаватель кафедры дошкольного образования Каршинского государственного университета

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретико-методические основы формирования вербально-лингвистических компетенций студентов в процессе педагогического обучения. Анализируются содержание понятия вербально-лингвистической компетенции, ее составные части и этапы развития. Обосновывается эффективность инновационных педагогических технологий и методов, способствующих формированию этих компетенций в образовательном процессе. Также в статье разработана модель, направленная на формирование вербально-лингвистических компетенций, описываются ее компоненты, этапы и практическое значение. На основе результатов исследования предложены рекомендации и советы.

Ключевые слова: вербально-лингвистическая компетенция, педагогическое обучение, формирование компетенций, образовательная модель, инновационные методы, коммуникативные навыки, языковая компетенция, учебный процесс.

Kirish (Introduction). Bashariyat ichra mavjud ne`matlar ichida til eng murakkab, ko‘p qirrali hodisa bo‘lgani tufayli uni yaxlit shaklda o‘rganish, undagi ayrim birliklarga aniq va mukammal, yagona ilmiy tavsif berish mushkul. Til faqatgina kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi, tafakkurni yuzaga chiqarish shakligina emas, balki “har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadigan oynai hayoti…”, dunyodagi bilimlarni o‘rganish va to‘plash, voqelikni anglash shakli hamdir. Shu bois bo‘lsa kerak, til hodisalariga nisbatan yondashuvlarda bir-biriga o‘xshash va farqli xulosalar (fikr, munosabat) juda ko‘p uchraydi, tilning mohiyatini to‘liq ochish uchun yangi-yangi ilmiy tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin muloqotga va faol ishtirok etishga yo‘naltiradigan kompetensiyalar alohida o‘rin tutadi. Shulardan biri — verbal-kommunikativ kompetensiya bo‘lib, u o‘quvchilar tilini o‘stirish, nutq faoliyatini rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Verbal» so‘zi og‘zaki nutqqa oid bo‘lsa, «kommunikativ» esa muloqotga, aloqa o‘rnatishga doir tushunchani anglatadi. Ushbu kompetensiya o‘quvchilarning og‘zaki ifoda qilish qobiliyatini oshirishga, muloqot davomida erkin va aniq fikr bildira olishlariga xizmat qiladi. Bugungi kunda til o‘rganish va o‘rgatishning asosiy maqsadi — shunchaki grammatik qoidalarni egallash emas, balki o‘rgangan bilimlardan amaliy muloqotda foydalana olishdir.

Verbal-kommunikativ kompetensiya aynan mana shu ehtiyojdan kelib chiqib, o‘qituvchidan interfaol va ijodiy yondashuvni, o‘quvchidan esa faol ishtirok va fikrlashni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Pedagogik ta’limga doir tadqiqotlarda “kompetensiya”, “kompetentlik”, “kompetentli pedagog” va “kompetensiyaviy yondashuv” tushunchalari keng o‘rganilib, ushbu tushunchalar o‘rtasidagi farqli jihatlar borasidagi munosabatlar ham ahamiyatlidir. «Kompetentlik» tushunchasi pedagogning kognitiv darajasi, pedagogik ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasi kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Umumiy qilib aytganda, pedagogning ma’lum bir ish turini muvaffaqiyatli bajara olish qobiliyati hisoblanadi. Ya’ni kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlata olish darajasidir. Kompetensiya tushunchasi esa unga yaqin bo‘lib, bilimlarning

umumiyligi va ularning insonlarda mavjudligini anglatadi.

“Kompetensiya” (lotinchada. sompetere – “biror bir faoliyatni amalga oshira olish qobiliyati”) tushunchasini leksikologiyaga birinchi marta N.Xomskiy kiritib, ona tilida so‘zlashish, til vositalari va va qoidalaridan to‘g‘ri foydalanib gap tuzish, fikrlarini to‘g‘ri yetkazish va suhbatdoshini to‘g‘ri anglash qobiliyatini anglatishini qayd etadi. Ya’ni grammatik qoidalari asosida gap tuzish imkoniyatlari nazarda tutiladi.

Kompetentli yondashuv” atamasi esa birinchi marta yevropalik tadqiqotchi J.Raven tomonidan kiritilgan va bugungi kunga qadar turlicha qarashlar mavjud.

Shaxs kompetensiyalariga nisbatan turlicha munosabatlar mavjud bo‘lib, g‘arb tadqiqotchilari tlmlnidan (xususan, AQSH da) kompetensiyalarga mutaxassislarning xulq-atvori bilan bog‘liq tushuncha sifatida ta’rif beriladi. Ya’ni agar xodim zaruriy xulq-atvor, bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lsa, faoliyatida ijobiy natijalarga erishadi.

Yevropalik tadqiqotchilar esa kompetensiyalarni xodim bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, olinishi kutilayotgan natijalarning tavsifi, ularning belgilangan standartlarga muvofiq faoliyat yuritish qobiliyatlari tizimi sifatida ta’riflaydilar.

Pedagogik nuqtayi nazardan “kompetensiya” atamasi o‘qituvchi faoliyatini tashkil etishdagi kompetentlikni o‘rganish kontekstida tadqiq etiladi (T.G.Braje, S.G.Vershlovskiy, N.P.Grishina, N.V.Karnaux, V.Yu.Krichevskiy, L.M. Mitina, N.P.Popova va boshqalar).

Shaxs kompetensiyalariga nisbatan turlicha munosabatlar mavjud bo‘lib, g‘arb tadqiqotchilari tlmlnidan (xususan, AQSH da) kompetensiyalarga mutaxassislarning xulq-atvori bilan bog‘liq tushuncha sifatida ta’rif beriladi. Ya’ni agar xodim zaruriy xulq-atvor, bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lsa, faoliyatida ijobiy natijalarga erishadi.

Yevropalik tadqiqotchilar esa kompetensiyalarni xodim bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, olinishi kutilayotgan natijalarning tavsifi, ularning belgilangan standartlarga muvofiq faoliyat yuritish qobiliyatlari tizimi sifatida ta’riflaydilar.

Pedagogik nuqtayi nazardan “kompetensiya” atamasi o‘qituvchi faoliyatini tashkil etishdagi kompetentlikni o‘rganish kontekstida tadqiq etiladi (T.G.Braje, S.G.Vershlovskiy, N.P.Grishina, N.V.Karnaux, V.Yu.Krichevskiy, L.M. Mitina, N.P.Popova va boshqalar).

V.A.Slastenin pedagogik kompetensiyani shaxsiy va kasbiy kompetensiyaga ajratadi. Kasbiy kompetensiya sifatida V.A.Slastenin nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi asosida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatni hamda ushbu jarayonda namoyon bo‘ladigan pedagogik mahoratni tavsiflaydi. Pedagogning shaxsiy kompetensiyasi esa uning ijtimoiy muhitda ijtimoiy muloqot natijasida pedagogik tajribani va tayyorgarlikni amalga oshirish imkoniyatini belgilab beradi, uning shakllanganlik darajasini ko‘rsatadi. Muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatni jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy me’yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviylikda rivojlantirish imkonini beradi.

S.Shishov “kompetentlik”ni o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma, malakalar hamda ijtimoiy qadriyatlar va pedagogik jarayonda egallanadigan biror bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiluvchi umumiy qobiliyat sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, kompetensiya bilim, ko‘nikma, malakalar bilan chegaralanib qolmasdan, o‘zlashtirilgan tajribalar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlar o‘rtasida aloqa o‘rnata olish imkoniyati hamdir[5,32].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Hozirgi zamon sotsiolingvistikasining xarakterli xususiyati, nafaqat tilshunoslik va sotsiologiyadagi mos bo‘limlarni shunchaki bir-biriga mexanik tarzda qo‘shish emas, balki ularni yagona nazariya, tadqiqot maqsadi va obyekti, apparati, tartibining umumiy yig‘indisini bir xil tushunishga birlashtirishdan iboratdir. Shaxs verbal-lingvistik intellektini shakllantirish jarayoni sotsiolingvistikaning ham asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Sotsiolingvistik tabaqalashish haqida til tizimida tarixiylik, muqobillik va determinatsiyalilik planida sotsiolingvistikaning yadrosi hisoblangan sotsiolingvistik tabaqalashish katta ahamiyatga egadir. Tilni egallashga tabaqalashgan talablar va ularni qo‘llash ijtimoiy variantliligi bilan izohlanadi. Bularni esa quyidagicha tasniflash mumkin:

1) dialekt va hududiy muloqot tili (so‘zlashuvchining geografik kelib chiqishi bilan izohlanadi);
2) sotsiolekt (so‘zlovchining ijtimoiy statusi bilan izohlanadi);
3) stilistik daraja va funksional stil (kommunikativ vaziyat yoki kommunikativ vazifaning natijasi sifatida).

Ushbu uch tomonlama muqobillilik-sotsiolingvistik tabaqalashtirish – vaqtinchalik parametr (tarixiy komponent) demakdir. Shuni ta’kidlash lozimki, sotsiolingvistik tabaqalashtirish mos keladigan til variantlaridan emas, balki ushbu variantlarni ifoda etadigan omillardan tashkil topadi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Sotsiolingvistikaga oid ilmiy-nazariy manbalar tahliliga ko‘ra, uning asosiy tushunchalari quyidagilardan iboratdir: til va jamiyat, til muhiti, ijtimoiy-kommunikativ tizim, tilning ijtimoiylashuvi, kommunikativ kompetensiya, til va madaniyat, til kodi, kodi qo‘shilishi, til va ijtimoiy omillar, bilingvizm (ikki tillilik), diglossiya, til siyosati va boshqalar. Shuningdek, til nazariyasi bo‘yicha ba’zi tushunchalar: til qoidasi, nutqiy muloqot, muloqot madaniyati, muloqot turlari, nutq qoidalari, nutq turlari, nutqiy aloqa, tillarning bir-biriga ta’siri, tilshunoslik asoslari, tillarning rivojlanish qonuniyatlari, tillar rivojiga ta’sir etuvchi omillar, xalqaro tillar va ularning integratsiya jarayonidagi o‘rni, tarix, falsafa, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy pedagogika, siyosatshunoslikning kategoriyalari ta’siri: jamiyatning ijtimoiy muhiti (makromuhit, mikromuhit) ijtimoiy ideal, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy axborot, ijtimoiy hayot, ijtimoiy tirikchilik, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy harakat, ijtimoiy qatlam, ijtimoiylashuv, ijtimoiy jarayon, ijtimoiy madaniyat va boshqalardan iboratdir. Ushbu tushunchalar lingvistik kompetentlikning sifat ko‘rsatkichini belgilaydi.

Talabalarda verbal-lingvistik intellektni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning funksional modelini ishlab chiqish uchun tadqiqotlar davomida talabalar nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir qator tadqiqot ishlaridagi modellar o‘rganib chiqildi. Tadqiqot muammosiga doir olib borilgan nazariy va empirik tadqiqotlar natijasida mazkur modelning texnologik bloki izlanishlarimiz natijasida ishlab chiqilgan talabalar verbal-lingvistik intellektini rivojlantirishga doir metodikalar bilan boyitib chiqildi[7,55].

Modelni beshta blokdan iborat tarzda ishlab chiqishga harakat qildik:



Modelning bloklari o‘zaro bog‘liqlikda tuzilgan bo‘lib, uni ishlab chiqishda dastlab model maqsadini ishlashga e’tibor qaratildi.

Modelni maqsadini belgilab olishda bir nechta omillar inobatga olindi:

Oliy ta’lim bakalavriat pedagogika yo‘nalishlari uchun davlat ta’lim standartlari hamda malaka talablarida bo‘lajak o‘qituvchilar nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga qo‘yiladigan talablar;

Ijtimoiy ehtiyojlar – bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy muhitda tutgan o‘rni, uning ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirishga doir kompetensiyalarini shakllantirish ehtiyoji kabilar;

Globallashuv va axborotlashuvning pedagogik muloqot jarayoniga ta’siri. ya’ni ijtimoiy muhitda pedagogik munosabatlar katta o‘rinni egallaydi. Ijtimoiy globallashuv hamda axborotlashuv davrining shaxslararo munosabatlarga, shaxs muloqot ko‘nikmalari, nutqiy kompetensiyalariga ta’siri yaqqol sezilib turgan vaziyatda o‘qituvchilar verbal-lingvistik intellektini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda modelning maqsadi quyidagicha belgilab olindi: “Talabalar pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining samaradorligini verbal-lingvichtik intellektini rivojlantirish asosida oshirish”.

Modelning navbatdagi bloki metodologik blok bo‘lib, u modelning asosiy mazmunini qamrab oluvchi mazmun komponentidan iborat. O‘z navbatida mazmun komponenti modelni amalga oshirish jarayonida amal qilinadigan tamoyillarni, yondashuvlarni hamda foydalaniladigan vositalarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur maqsadga erishish uchun jarayonni quyidagi tamoyillar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Nutq mazmunining ilmiylik tamoyili

Fikr va nutq birligi tamoyili

Nutqning emotsionalligi tamoyili

Nutqning lingvistik meyorlarga muvofiqligi tamoyili

Nutq mazmunining tizimliligi tamoyili

Modelni amalga oshirishda quyidagi yondashuvlardan foydalaniladi:

Aksiologik yondashuv

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Innovatsion yondashuv

Integrativ yondashuv

Modelni amalga oshirishning asosiy vositalari quyidagilardir:

Til

Nutq

Virtual muloqot vositalari

Modelning navbatdagi bloki texnologik blok bo‘lib, ushbu blok talabalarda verbal-lingvistik intellektni rivojlantirish jarayonini ifodalaydi. Ushbu blok uchta qismdan iborat[8,116];

Mezonlar;

Metodlar;

Amalga oshirish bosqichlari.

Talabalarda verbal-lingvistik intellektning shakllanganlik mezonlari sifatida quyidagilar tanlab olindi:

Lingvistik intellektning rivojlanganligi;

Og‘zaki nutqning rivojlanganligi va samarali foydalana bilish;

Yozma nutq malakalarining tarkib topganligi;

Kommunikativlik va ijtimoiy pedagogik muloqotning emotsionalligi.

Talabalarda verbal-lingvistik intellektni shakllantirish jarayonida quyidagi bir qator metod va texnologiyalardan foydalaniladi:

Jarayon uch bosqichda amalga oshadi:

Motivatsion bosqich

Texnologik bosqich

Refleksiv bosqich

Modelning navbatdagi bloki diagnostik blok hisoblanadi. Diagnostik blok asosan pedagogik eksperimentni amalga oshirish jarayonini qamrab oladi.

Pedagogik eksperiment uch bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: tashkiliy bosqich

2-bosqich: shakllantirish bosqichi

3-bosqich: xulosalovchi bosqich

Talabalarda verbal-lingvistik intellektning shakllanganlik darajasini aniqlashda quyidagi bir qator diagnostik metodikalardan foydalaniladi:

Talabalarda verbal-lingvistik intellektning shakllanganlik ko‘rsatkichlari uch darajada baholanadi:

Yuqori daraja;

O‘rta daraja;

Past daraja.

Xulosa va takliflar. Modelning oxirgi bloki natija bloki bo‘lib, ushbu blokda talabalarda verbal-lingvistik intellektni shakllantirishga doir amalga oshirilgan jarayon natijasi o‘z ifodasini topgan. Natija sifatida “Verbal-lingvistik intellekti shakllangan bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi” keltirib o‘tilgan[10,613].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi to‘g’risida» 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.

2. Jabborova Onaxon Mannopovna, & Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, May). Optimization of primary education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1229-1232. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804 Academic Research, Uzbekistan 214 www.ares.uz

3. Jabborova Onahon Mannopovna, Jumanova Fatima Uralovna, & Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of Artistic Perception of Future Teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 4087-4095.

4. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-qunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘qrisida O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.

5. Tojiboyeva, G. R. (2020). Psixologo-pedagogicheskaya kompetentnost uchitelya nachalnix klassov. Science and World, 1(77), 32-33.

6. Avlaev Orif Umirovich, & Abdujalilova Shoira Abdumajitovna. (2020). The Role of Social Intelligence in Personality Maturity. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 3983-3991.

7. Ernazarova G. O., & Islamova M. Sh. (2019). Sovershenstvovaniye podgotovki k professii uchashixsya professionalnix kolledjey na osnove akmeologicheskogo podxoda. Pedagogy & Psychology Theory and practice International Scientific Journal, 6(26), 52-55.

8. Zolotix, N. V., & Xaytmetov, R. K. (2020). Usloviya formirovaniya kompetentnosti budushego pedagoga v lichnostno-razvivayushey vospitatelnoy deyatelnosti. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 113-119.

9. Tajiboyeva, G. R. (2020). Sotsialniye problemi i perespektivi integratsionogo obucheniya. Jurnal nauchnix i prikladnix issledovaniy, 1, 54-55.

10. Mamadaliev, K. R., Jabborova, O. M., Umarova, Z. A., & Abdullayeva, B. P. (2020). Creation of a New Generation of Teaching Literature-A Requirement of Modernity. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24, 612-619.

VIDEOMA’RUZALAR SSENARIYSINI YARATISHNING DASTURIY-METODIK TA’MINOTI

Rahimov Javohir Oktabrovich
Qarshi davlat texnika universiteti “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’limda videomu’ruzalarning o‘rni, uni yaratishning dasturiy-metodik ta’minoti to‘g‘risida materiallar hamda muallif tavsiyalari yoritilgan. Videoma’ruzalarni studiyada yozishda ma’ruza turlarini hisobga olish zarurligi ko‘rsatilib, zamonaviy ma’ruzalarning tasnifi keltirilgan. Videoma’ruzalarni yozishda uning ssenariysini yaratish metodikasi, bosqichlari hamda ularga qo‘yilgan talablar takomillashtirib, videoma’ruzalar ssenariysining namunasi ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: videoma’ruza, ssenariy, vizual, matn, format, videotasvir, samaradorlik.

ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ДЛЯ СОЗДАНИЯ СЦЕНАРИЕВ ВИДЕОЛЕКЦИЙ

Рахимов Жавохир Октябрович
ассистент кафедры «Информационные системы и технологии» Каршинского государственного технического университета

Аннотация: В статье освещена роль видеолекций в высшем образовании, программно-методическое обеспечение их создания, рекомендации автора. Указывается необходимость учета типов лекций при записи видеолекций в студии, приводится классификация современных лекций. Усовершенствована методика создания сценария записи видеолекций, ее этапы и требования, разработан примерный сценарий видеолекции.

Ключевые слова: видеолекция, сценарий, визуальный, текст, формат, видеоизображение, эффективность.

SOFTWARE AND METHODOLOGICAL SUPPORT FOR CREATING VIDEO LECTURE SCRIPT

Rakhimov Javohir Oktyabrovich
assistant of the Department of Information Systems and Technologies of the Karshi State Technical University

Abstract: The article discusses the role of video lectures in higher education, the software and methodological support for their creation, and the author’s recommendations. The need to take into account the types of lectures when recording video lectures in the studio is indicated, and a classification of modern lectures is presented. The methodology for creating a script for recording video lectures, its stages and requirements are improved, and a sample video lecture script is developed.

Keywords: video lecture, script, visual, text, format, video image, efficiency.

KIRISh. Videoma’ruzalar o‘quv materiallarini taqdimoti shaklida XX asrning 60 yillarida yuzaga kelgan va AQShning Yel universitetida masofaviy ta’limda qo‘llanilgan. Lekin, ko‘pgina videoma’ruzalar “so‘zlovchi bosh” yoki “planshet videoma’ruza” ko‘rinishida qisqa videoroliklar shaklida an’anaviy ma’ruzalarni takrorlagan. Keyingi yillarda videokontentlar asosida onlayn o‘qitish ommaviy ochiq universitetlarda keng qo‘llanilmoqda. Bunda videoma’ruzalardan foydalanishning asosiy qoidalaridan biri, talablar bilan savol-javoblarni tashkil etish hamda o‘zi tahlil qilishlari uchun videotasvirlarni qisqa bo‘limlarga bo‘lishdan iborat. Videodarslar o‘quv mashg‘ulotlari yoki o‘qitish tizimining umumiy jarayoni samaradorligini oshiradi, matn yoki

slaydli materiallar asosida uzatish imkoniyati bo‘lmagan aniq amaliy dalillarni vizual ko‘rib eshitish imkoniyatini yaratadi va mavzuning o‘zlashtirish darajasini oshiradi [1]. Videodarslarni tayyorlash matn va slaydlardan iborat mavzu materiallarini tayyorlashga nisbatan ancha qiyin bo‘lsada, talablar uchun qiziqarli hamda zamon talabiga mos axborotlarni uzatish vositasi hisoblanadi.

TADQIQOT METODIKASI

Tadqiqot ishlari uchun pedagogik kuzatuv, suhbat, intervyu, anketa so‘rovlari, faoliyat samradorligini o‘rganish, pedagogik hujjatlarni tahlil qilish, matematik-statistik tahlil kabi metodlar tanlab olindi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMALAR

Videoma’ruzalar ssenariysini yaratishdan oldin dars turini (ma’ruza, amaliy, seminar, laboratori, mustaqil ta’lim), maqsadini va rejasini shakllantirib olish zarur. Tahlillar ko‘rsatishicha videodarslar ko‘proq ma’ruzalarda, ya’ni nazariy materiallarni talablarga yetkazishda qo‘llaniladi.

Innovatsion dual ta’lim muhitida zamonaviy ma’ruza avvalgi o‘qitishning “nofaol” usulidan “faol” usuliga o‘tmog‘i, bahs, munozara, suhbat, muhokama shaklida amaliy ishlarning uyg‘unligi, ya’ni interaktiv usullarda tashkil etilmog‘i lozim. Shu sababli hozirgi vaqtdagi ko‘plab innovatsion uslublar o‘qitishning interaktiv uslublarini qo‘llash bilan bog‘liqdir. Ayrim pedagoglar o‘qitishning interaktiv uslublari deganda zamonaviy o‘quv-vizual materiallar (multimedia va animatsion slaydlar, tarqatma materiallar, ma’ruza matnlari, texnik vositalarning modellari, maketlari va b.) dan hamda zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, elektron doskalar va b.)dan foydalanish, ma’ruza matnlarini oldindan talabaga taqdim etib, talabaning darsga tayyor bo‘lib kelishini ta’minlash kabilarni tushunishadi. Albatta bu to‘g‘ri fikr emas.

Ma’ruzalarni didaktik vazifasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘liish mumkin [2]:

1.Kirish ma’ruzasi
2.Aniq mavzu bo‘yicha ma’ruza
3.Yo‘naltiruvchi ma’ruza
4.Umumlashtiruvchi(yakuniy) ma’ruza
5.Muammoli ma’ruza
6.Ochiq ma’ruza
7.Juftlikdagi ma’ruza
8.Refleksiv ma’ruza
9.Vositaviy ma’ruza
10.Ma’ruza –panel
11.Ma’ruza navigator
12.Axborot yoki “joriy” ma’ruza
13.Ma’ruza maslahat
14.Ma’ruza dialog
15.Reja asosida xatolar kiritilgan ma’ruza
16.Matbuot-anjuman-ma’ruza
17.Mini ma’ruza
18.Hodisaviy ma’ruza

Ma’ruza turini tanlash va rejalashtirishda uning qanday ma’ruza ekanligini hamda ma’ruza maqsadini to‘g‘ri aniqlash ham muhim hisoblanadi.

Ma’ruza turi qanday bo‘lishidan va videoma’ruzalarni qanday texnologiyada yozilishidan qat’iy nazar birinchi bosqich videoma’ruza ssenariysini yaratish hisoblanadi. Videoma’ruza ssenariysini yaratishning o‘ziga xos umumiy talablari va tavsiyalar mavjud.

Ta’kidlash lozimki videoma’ruzaning asosiy maqsadi mavzu mazmunini so‘zlab berish emas, balki vizual ko‘rsatish, namoyish etish hisoblanadi. Shu sababli videoma’ruza bosma materiallarga qo‘shimcha bo‘lib, bosma matnni o‘qib berish bo‘lib qolmasligi lozim [4]. Har qanday

videokontentdan ma’ruzada foydalanishning asosiy xususiyati ma’lumotlarni vizual ko‘rsatish hisoblanadi va uning asosini videoqatorlar tashkil etadi. Bu yerda o‘qituvchi tomonidan so‘zlab berayotgan matn muhim rol o‘ynamaydi, lekin videoqator matnga bog‘liq bo‘lishi zarur. An’anaviy ma’ruza taqdimot materiallari o‘qituvchi fikrini to‘ldirish uchun xizmat qilsa, videoma’ruzada esa videoqatorlarga o‘qituvchi izoh beradi. shu sababli ko‘p so‘zli tovushli material yoki ekrandagi matnlar tez toliqishga hamda tinglovchini ma’lumotlarni qabul qilishini qiyinlashtirishga olib kelishi mumkin.

Videoma’ruza ssenariysi

Fan nomi: _____

Mavzu: _____

Mashg‘ulot turi _____

O‘qituvchi f..i.sh. _____

Ilmiy darajasi va unvoni, lavozimi: _____

Videodars davomiyligi: _____

Videotasvir qismi № (videoqator)	**Audio material** (Kadr ortida tushuntirish, muzika yoki boshqa ovozli ma’lumotlar)	**Video tasvirlar** (Videotasvir tushuntirishlari, ya’ni videodla nima tasvirlanadi (slaydlar, taqdimot, grafik, sxema yoki ularni o‘qituvchi bilan birga tasvirlar)
1-qism (5 minut)		
2-qism (5 minut)		Taqdimot slaydi jadval bilan
3-qism (5 minut)		Taqdimot slaydi sxema bilan
4-qism (5 minut)		Studiyada yozish (o‘qituvchi stolda o‘tirib tushuntiradi)

Videoma’ruza ssenariysi qo‘yidagicha jadval ko‘rinishida ishlab chiqiladi: Videoma’ruza ssenariysi jadvalining tepa qismiga fan nomi, mavzu, mashg‘ulot turi, o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumotlar, videodars davomiyligi ko‘rsatiladi. Shuningdek qo‘shimcha ravishda videoma’ruza yozilgan joy (studiya nomi), operator va montajchi uchun videodarsning texnik topshiriqlari:

videoqator, rang, umumiy atmosfera, stilistika, kadr orti ovoz, muzika, videoma’ruza matni kabi ma’lumotlar ham berilishi mumkin. Ssenariy jadvali asosan 3 ta ustundan iborat bo‘ladi: birinchi ustunda videotasvir nomeri va uning davomiyligi (minut), ikkinchi ustunda videoma’ruza matni (audio), uchinchi ustunda videoma’ruzaning tasvirli qismlari, ya’ni slaydlar, taqdimot, grafik, sxema yoki ularni o‘qituvchi bilan birga tasvirlar (video) ko‘rsatiladi [5,6].

Videoma’ruzalar ssenariysini yaratishda slaydlar uchun matnli axborot tayyorlash, shriftlardan foydalanish, grafik materiallardan foydalanish, ovozli hamkorlik, videodars formatini tanlash va videoqatorlarni montaj qilish talablariga qat’iy rioya qilish talab etiladi.

Videodars ssenariysini tayyorlashda o‘qituvchi nutq madaniyatiga e’tibor qilishi, badiiy tilda so‘zlashi, maxsus atamalar tarjimalariga ahamiyat berishi, ular asolangan bo‘lishi lozim. Videoma’ruza matni o‘qishga qulay, montaj qilinmagan bo‘lishi zarur. O‘qishga qulaylilik indeksi gap va so‘zlar uzunligi, ravon va tushunarli tilda bayon etilganligi, ko‘p takrorlanadigan so‘zlar chastotasi kabi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi. O‘zbek tilidagi matnlarni o‘qishga qulayligini https://savodxon.uz/ platformasi yordamida tekshirish mumkin.



Videodarslar ssenariysini yaratish bosqichlari va ularga qo‘yilgan talablar

Ssenariy yaratishda videodars davomiyligi ham muhim rol o‘ynaydi. Asosan metodik tavsiyalarga ko‘ra videoma’ruzalar 7-10 minutgacha yoki 15-20 minutgacha bo‘lishi tavsiya etiladi [6,7]. Buning uchun Hronomer (http://hronomer.ru/) servisidan foydalanish mumkin, ya’ni ushbu resurs yordamida matndagi so‘zlar soni asosida videoning davomiyligini aniqlash mumkin. Bu holatda bitta videoma’ruzadagi slaydlar soni 8-10 ta bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan ma’lumki, ssenariy-bu videorolikning texnik topshirig‘i hisoblanadi. Ssenariy videodars materiallaridagi mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlaydi, xatolarni oldindan tuzatish imkonini beradi. Videoma’ruza materiallari mantiqiylik prinsipi asosida faktlar bilan asoslangan holda berilishi, matnni audio o‘qilishi tez bo‘lmasligi, videoni bir ko‘rishda o‘quv materialini tushunish va o‘zlashtirish imkoniyatini berishi kerak. Videoma’ruzadagi asosiy hamda muhim axborotlar va xulosalarni vizual tasvirda ko‘rsatishda alohida e’tibor berish, jumladan ularni kattalashtirib, ma’lum vaqt tasvirni ushlab turib, turli rang, ramkalar va shrift o‘lchamlarini o‘zgartirib ko‘rsatish kerak. Videokontentlardan o‘quv jarayonida foydalanish yangi g‘oyalarni video orqali vizual taqdim etish, bir nechta ko‘rgazmali vositalarni birlashtirish, talabalar bilan muloqatlarni osonlashtirish, bir vaqtda ko‘p sonli talabalarning foydalanish imkoniyatini yaratish, murakkab texnologik jarayonlarni namoyish qilish, videodarslardan turli xil qurilmalar yordamida foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. Вариясова Е.В., Иванова Е.А., Карнюшина В.В. Видеолекция как пример внедрения цифровых технологий в образовательный процесс вуза. // Вестник Нижневартовского государственного университета. 2021. № 1(53). С.116–123. URL:https://doi.org/10.36906/2311-4444/21-1/16

2. Raximov O.D., Sapaev M., Nazarov B.F. Zamonaviy ma’ruzalar. o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Qarshi, TATU Qarshi filiali., 2012.-68 b.

3. Безгодова С.А., Васильева С.В., Микляева А.В. Организация учебного материала видеолекции: психологические критерии и факторы эффективности // Вестник Кемеровского государственного университета. 2021. Т. 23. № 2. С. 415–426. DOI: https://doi.org/10.21603/2078-8975-2021-23-2-415-426

4. Olson B., Street A. Foresight: the U.S. Yenvironmental Protection Agency. Scenario and Strategy Planning. Yenvironmental Protection Agency. Madison, Wisconsin, USA. -2002

5. Chapin L. A. Australian university students’ access to web-based lecture recordings and the relationship with lecture attendance and academic performance // Australasian Journal of Educational Technology. 2018. Vol. 34. № 5. P. 1–12. DOI: 10.14742/ ajet.2989

6. Учебное видео и качество обучения в вузе. – КГТУ имени А.Н. Тупалева: URL:https://eto.kai.ru/wp-content/uploads/2015/08/Video.pdf.

7. Бородич С.А., Тепляковская А.Н. Видеолекция как инструмент образовательной деятельности студентов-заочников в системе дистанционного обучения иностранному языку. // Репозиторий БГПУ. URL: elib.bspu.by

KURASHCHILARNING TEZKOR-KUCH SIFATINI HARAKATLI O‘YINLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Rasulov.Q.Q
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, O‘zbekiston, Chirchiq sh.

Annotatsiya. Yosh kurashchilarning o‘quv-mashg’ulotlarda kuch va tezlik-kuch mashqlari hajmini orttirish chorasini ko‘rish taqozo etiladi

Kalit so‘zlar: kurash, harakatli o‘yinlar, samaradorlik, tezkor-kuchlilik sifati, texnik taktik elementlar, pedagogik tadqiqot, maxsus jismoniy sifat.

РАЗВИВАЮЩИЕ СКОРОСТНО-СИЛОВЫЕ КАЧЕСТВА БОРЦОВ С ПОМОЩЬЮ ПОДВИЖНЫХ ИГР

Расулов.К.К
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, г. Чирчик, Узбекистан

Аннотация. Необходимо принять меры по увеличению объема силовых и скоростно-силовых тренировок юных борцов на тренировках

Ключевые слова: борьба, подвижные игры, результативность, быстрота-качество силы, технические тактические элементы, педагогические исследования, особое физическое качество.

DEVELOPING THE SPEED-POWER QUALITIES OF WRESTLERS THROUGH ACTION GAMES

Rasulov.Q.Q
Uzbekistan State University of physical education and sports, Uzbekistan, Chirchiq.

Abstract. It is assumed that young wrestlers take the measure of gaining strength and speed-strength training in training.

Keywords: battle, movement games, efficiency, speed-strength quality, technical tactical elements, pedagogical research, special physical quality.

Dolzarbligi. Ayrim sport turlari bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqalar muddati xalqaro musobaqalar qoidalari bilan belgilanadi. Shu musobaqalar muddatida qaysi sportchi o‘z ish qobiliyatini sifati va samaradorligi jihatidan qanchalik uzoq vaqt saqlay olsa yoki uni oshira olish «kuchi»ga ega bo‘lsa, unga muvaffaqiyat shunchalik «kulib» boqishi muqarrar. Boshqacha qilib aytganda ish qobiliyatining sifat va samaradorlik darajasini ko‘p yoki kam vaqt davomida saqlanishi umumiy va maxsus tezlik-kuch sifatini sifatlarining turlari qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining yetakchi mutaxassislari, xorijiy tajribali pedagoglar, ko‘pchilik olimlar tomonidan sport o‘yinlarida texnik taktik elementlarni rivojlantirish muammolari ko‘pdan-ko‘p ilmiy-uslubiy adabiyotlarda o‘z yechimini topgan. L.R. Ayrapetyans (2006), A.A.Pulatov (2012), Sh.X.Isroilov (2014) ,Z.B.Boltaev (2019), jumladan chet el olimlaridan V.M.Zatsiorskiy(1995), L.P.Matvyev(1997), V. N. Sokolov (1999), David Lavallee, John Kremer (2004), Edmunds J, Ntoumani N (2006), V.Ya.Ignateva, A.V. Ignatev A.A.Ignatev (2015), YU.D.Jeleznyak (2018) yillarda ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Kurash musobaqalarida barcha turdagi kuch sifatlari (umumiy va maxsus, mutloq va nisbiy, statik va dinamik, tezkor-portlovchi, kuch chidamliligi) hal qiluvchi ahamiyatiga ega bo‘lishi isbotini talab qilmaydi. Shuning uchun o‘quv-mashg’ulot jarayonida kuch va kuchlanish turlarini

rivojlantirishga e`tibor qaratish malakali kurashchilar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir.

Yosh kurashchilarda har xil turdagi kuch sifatlarini o‘rganish qayd etilgan ko‘rsatkichlar malakali yosh sportchilar nisbatan sezilarli darajada sayoz ekanligini ko‘rsatdi (1-jadval). Jumladan, ikki guruhdagi bolalarni qo‘shib hisoblaganda ham ularning ko‘rsatkichlari tadqiqot boshlanmasdan avval deyarli farq qilmadi.

1-jadval

Kuch turlari	Kuch ko‘rsatkichlari XL
Gavda kuchi, kg	54,2±2,7
Turnikda tortilish	5,3±1,2
Brusyada qo‘llarni bukish-yozish	4,5±1,7
Gorizontal holatdan qo‘llarni bukish	8,1±1,3

Chunonchi, qo‘l-qorin-bel mushaklari kuchi tekshiriluvchi bokschilarda 54,2±2,7 kg ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichni taqqoslash maqsadida shu narsa ravshan bo‘ldiki, 11-12 yoshga to‘lgan malakali voleybolchilarda bu ko‘rsatkich 142-182 kg oralig’ida bo‘lishi mumkin. 15-16 yoshdagi kurashchilarda bu ko‘rsatkich ancha yuqori darajada qayd etilgan.

Turnikda tortilish testi bo‘yicha baholanadigan – qo‘llarni bukuvchi mushaklar kuchi 5,3±1,2 martaga teng bo‘ldi. Qo‘llarni yozuvchi mushaklar kuchi (brusyada qo‘llarni bukish-yozish) tekshiruvdan o‘tgan ko‘rashchilarda 4,5±1,7 martani tashkil etdi.

Qo‘llarga tayanib gorizontal holatda qo‘llarni 30 soniya davomida bukish-yozish o‘rtacha 8,1±1,3 martaga teng bo‘lib, tekshiruvdan o‘tkazilgan kurashchilarda kuch chidamliligini etarli darajada shakllanmagan deb baholashga asos bo‘ldi.

Rejalashtirilgan pedagogik tadqiqot samarasini baholash maqsadida kuzatuv va tadqiqot guruhlariga mansub kurashchilar ko‘rsatkichlari alohida statistik tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval

Test mashqlari	Ko‘rsatkichlari X±δ
Gavda kuchi, kg	53,2±2,6
Turnikda tortilish	5,2±0,8
Brusyada qo‘llarni bukish-yozish	4,8±0,5
Gorizontal holatdan qo‘llarni bukish	8,2±1,4

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kuzatuv guruhida kuchni tavsiflovchi barcha ko‘rsatkichlar tadqiqot guruhida qayd etilgan ko‘rsatkichlardan xiyolgina past bo‘lsada, bir-biridan keskin farq qilmagan. Buning asosiy sabablaridan biri, fikrimizcha, kurash bilan endigina shug’ulanishni boshlagan yosh bolalar o‘z tayyorgarligi nuqtai nazaridan bir-biriga u yoki bu darajada o‘xshash bo‘lgan.

Pedagogik tajriba guruhida ushbu ko‘rsatkichlar biroz ustunlikka ega ekanligi ma`lum bo‘ladi. Lekin bu ustunlik tadqiqotga jalb qilingan kurashchilarning umumiy tayyorgarligi oz bo‘lsada, yuqoriroq darajada deb xulosa qilishga asos bo‘la olmaydi. Ehtimol, mazkur vaziyat pedagogik tadqiqot guruhiga mansub kurashchilarni alohida e`tibor doirasida ekanligi ularning ruhiy emotsional holatini ijobiy pog’onaga biroz ko‘tarilganligidir. Ma`lumki bolalarni maqtash, rag’batlantirish, boshqalardan ustun qilib ko‘rsatish yoki ularni o‘zgalardan dono, aqlli, kuchli ekanligiga ishontirish ruhiyatga progressiv ta`sir etib, oxir oqibat funktsional jarayonlarni faollashtiradi.

3-jadval

Pedagogik tajriba guruhi tarkibiga kiruvchi kurashchilarda tezlik-kuch sifatining darajasi (n=10)

Test mashqlari	Ko‘rsatkichlari X±&
Qo‘l-qorin-bel mushaklari kuchi, kg	53,9±1,9
Qo‘llarni bukuvchi mushaklar kuchi (turnikda tortilish soni)	5,4±0,7
Qo‘llarni yozuvchi mushaklar kuchi (brusyada qo‘llarni bukish-yozish soni)	4,9±0,7
Gorizontal holatdan ularni bukish-yozish (30 s)	8,0±1,7

3-jadvalda qayd etilgan ko‘rsatkichlarga ko‘ra shuni ta`kidlash e`tiborliki, qo‘llarni bukuvchi mushaklar kuchi (turnikda tortilish) qo‘llarni yozuvchi mushaklar kuchidan (brusyada qo‘llarni bukish-yozish) sezilarli darajada kam miqdorni tashkil etdi. Demak, qo‘llarni bukuvchi mushaklar nisbatan zaifroq rivojlanganligi ma`lum bo‘ldi.

Diqqatni jalb qiluvchi yana bir vaziyat shundan iboratki, qo‘llarga tayanib gorizontal yotgan holatda qo‘llarni 30 sek davomida bukish-yozish soni qo‘llarni bukuvchi-yozuvchi mushaklar kuchidan ancha ustun ekanligi namoyon bo‘ldi. Bu holat ko‘pgina tadqiqotchi-olimlar xulosasiga zid bo‘libgina qolmay, aksincha, 10-12 va bundan katta yoshdagi bolalarda kuch sifatini katta og’irliklar bilan meyorsiz rivojlantirishga berilib ketmaslikka e`tibor qaratadi.

Qizig’i va murakkabligi shundaki, kuzatilgan aksariyat maktablarda o‘quvchilarning nafaqat kuch sifati, balki jismoniy sifatlari ham juda kam rivojlangan. Ayrim bolalar uyalganlaridan hatto turnikda tortilishdan bosh tortadi. Demak, sport to‘garaklari yoki BO‘SMlarga kelayotgan aksariyat bolalar ham jismoniy jihatdan deyarli yetarli rivojlanmagan bo‘lishadi. Shuning uchun murabbiylar dastlabki tayyorgarlik jarayonida mashg’ulotlarni shug’ullanishga kelgan bolalarning jismoniy va funktsional imkoniyatlariga moslab rejalashtirishlari zarur bo‘ladi.

Yosh kurashchilarda tezlik-kuch sifatini turli og’irliklar bilan rivojlantirish aslo ijobiy natija bermaydi. Shuning uchun dastlabki shug’ullanayotgan bolalarda tezlik-kuch sifatini noan`anaviy - nostandart mashqlar yordamida rivojlantirish juda muhimdir.

Nazorat va tajriba guruhlarida tadqiqot boshlanishi va yakunida qayd etilgan ko‘rsatkichlar 4-jadvalda berilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nazorat va tajriba guruhlarida kuzatilgan natijalar dinamikasi tanlangan mavzuning bosh maqsadi, tadqiqotning asosiy g’oyasi va uning oldiga qo‘yilgan ilmiy faraz to‘la-to‘kis ijobiy hal etilganligini isbot qildi. Chunonchi, qo‘l-qorin-bel mushaklari kuchi tadqiqot guruhidagi kurashchilarda nazorat guruhidagiga nisbatan 5,8 kg ga o‘sdi. Nazorat guruhidagi kurashchilarda ushbu farq faqatgina 8,1 kg ga teng bo‘ldi. Ya`ni nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkich tadqiqot boshida 53,2 kg ni tashkil etgan bo‘lsa, tadqiqot yakunida 56,3 kg gacha oshdi.

4-jadval

Yosh kurashchidarda tezlik-kuch sifatining pedagogik tadqiqot davomida o‘zgarishi (n = N -10; T -10)

Test mashqlari	Guruh	**Ko‘rsatkichlari X±&**	
		Tadqiqot boshida	Tadqiqot oxirida
Gavda kuchi, kg	N	53,2±2,6	56,3±3,2
	T	53,9±1,9	59,7±2,8
Turnikda tortilish	N	5,2±0,8	6,3±1,2
	T	5,4±0,7	3,8±1,7
Brusyada qo‘llarni bukish-yozish	N	4,8±0,6	6,0±1,4
	T	4,9±0,7	7,2±1,8
Gorizontal holatdan qo‘llarni bukish-yozish (30 s)	N	8,2±1,4	9,2±2,0
	T	8,0±1,7	11,3±2,2

N - nazorat guruhi;
T – tajriba guruhi;
n – tekshiriluvchilar soni.

Tadqiqot guruhida bu ko‘rsatkichlar 53,9 va 59,7 kg miqdorida qayd etildi. Qo‘llarni bukuvchi mushaklar kuchi taddiqot guruhida 3,4 martaga ortgan bo‘lsa, nazorat. guruhida faqatgina 1,1 martaga teng bo‘ldi, xolos.

Qo‘llarni yozuvchi mushaklar kuchi: nazorat guruhida 4,8-6,0 marta; tadqiqot guruhida 4,9-7,2 marta miqdorda o‘z ifodasini topdi.

Qo‘llarga tayanib gorizontal yotgan holatda qo‘llarni bukish-yozish soni: 8,2-9,2; 8,0-11,3 martaga teng bo‘ldi.

Qayd etilgan ko‘rsatkichlar dinamikasidan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi bolalarning tezlik-kuch sifatini belgilovchi barcha natijalar nazorat guruhidagi yosh kurashchilarnikidan nihoyatda yuksak darajada o‘zgarganligidan darak bermoqda. Ushbu vaziyat yana bir bor tajriba guruhi mashg’ulotlari davomida qo‘llanilgan nostandart maxsus mashqlar tezlik-kuch sifatini rivojlantirishda o‘ta samarali ekanligini isbotlayapti. Shu bilan bir qatorda tajriba guruhida qayd etilgan kuch sifati boshqa sport turi bilan shug’ullanuvchi shu yoshdagi bolalar kuchidan ancha kam rivojlanganligi ma`lum bo‘ldi. R.A. Piloyanni (1991) fikriga ko‘ra, hatto 8-9 yoshli bolalarda tezkor kuch sifatlari nisbatan o‘sgan bo‘lar ekan. 11-12 yoshli sportchilar mashg’ulotida tezlik-kuch va chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar hajmini bemalol ko‘paytirish tavsiya etiladi. 13-14 yoshli sportchilarda esa, chidamkorlik, 14-15 yoshda egiluvchanlik va tezlik-kuchni rivojlantirishga oid mashqlar hajmini oshirish maqsadga muvofiq deb ta`kidlangan.

Ma`lumki, malakali kurashchilarni tayyorlashda bel, qorin, qo‘l va oyoq mushaklariga xos tezlik-kuch sifati nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bu borada portlovchi kuch (tezlik-kuch) hal qiluvchi xususiyatga egadir. Bizning tadqiqotimizda ishtirok etgan yosh kurashchilarda eguvchi va yozuvchi mushaklar kuchining sezilarli farq, asosida kam rivojlanganligi shu bolalarning bog’cha yoshidan boshlab tezlik-kuch mashqlari bilan juda kam shug’ullanganligidan dalolat beradi.

Binobarin, olingan tadqiqot natijalari yosh kurashchilarning o‘quv-mashg’ulotlarda kuch va tezlik-kuch mashqlari hajmini orttirish chorasini ko‘rish taqozo etiladi. Aytish zarurki, bunday mashqlar hajmini oshirish faqatgana standart mashqlar hisobiga bo‘lmasdan, balki ko‘proq nostandart maxsus mashqlarni musobaqa tariqasida qo‘llash yaxshi natija beradi. Bundan tashqari,

dastlab o‘rgatish bosqichida yosh kurashchilar tarkibidan tezroq iste`dodli kurashchi tayyorlash maqsadida kuchni rivojlantirishga oid mashqlarni zo‘rma-zo‘raki qo‘llash ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelishi diqqat markazida bo‘lishi kerak.

Demak, tezlik-kuchga oid mashqlar bolalarning jismoniy funktsional imkoniyatlariga mos bo‘lishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonxo‘jaev T.S., Xo‘jaev F. Harakatli o‘yinlar. T.: O‘qituvchi, 1992.- 80- b.

2. Pulatov A.A. Yosh voleybolchilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubiyati. Uslubiy qo‘llanma. –T., 2008.

3. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: “Fan va texnologiya”,2012.

4. Boltayev Z.B.Volleybol // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.- SamDU nashiryoti 2020.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM BOSQICHIDA FIZIKADAN AMALIY MASHG‘ULOT DARSLARIDA TADBIQIY MASALALARNI YECHISH

Salaydinov Achil Meyliyevich
Qarshi davlat texnika universiteti”Tabiiy fanlar”kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ma’lumki fizika fanidan masalalar yechish olingan nazariy bilimlarni mustahkamlaydi.Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga fizika fanidan amaliy mashg‘ulot darslarini tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Kelajakda bitiruvchilarning aksariyati tabiiy va aniq hamda texnika yo‘nalishlarini tanlaydilar.Fizika fani esa texnika fanlarini o‘rganish uchun asos bo‘ladi. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarini texnika oliy o‘quv yurtlarida fizika fanini o‘zlashtirishga tayyorlash zaruriyati va yo‘llari ko‘rsatib berilgan.Shuningdek maktab fizika laboratoriya xonasining imkoniyatlaridan kelib chiqib ba’zi masalalarni tuzish ,o‘lchashlarni amalga oshirish va uni yechish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: fizikadan amaliy mashg‘ulot darslarini tashkil etish,umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari , fizikadan masalalarni tuzish yechish va jadval qiymatlari bilan taqqoslash.

РЕШЕНИЕ ПРИКЛАДНЫХ ЗАДАЧ НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ ПО ФИЗИКЕ НА ЭТАПЕ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Салайдинов Ачил Мейлиевич
Старший преподаватель кафедры “естественные науки” Каршинского государственного технического университета.

Аннотация. Известно, что решение задач по физике закрепляет полученные теоретические знания. В статье освещаются специфические аспекты организации практических занятий по физике для учащихся общеобразовательных школ. В будущем большинство выпускников выберут естественно-точные науки и технические направления. Физика является основой для изучения технических наук. Поэтому показаны необходимость и пути подготовки учащихся старших классов общеобразовательных школ к освоению физики в технических вузах. Также, исходя из возможностей школьной физической лаборатории, показаны способы постановки некоторых задач, проведения измерений и их решения.

Ключевые слова: организация практических занятий по физике , учащимся общеобразовательных школ, составление задач по физике, решение и сравнение с табличными значениями.

SOLVING APPLIED PROBLEMS IN PRACTICAL PHYSICS LESSONS AT THE LEVEL OF GENERAL SECONDARY EDUCATION

Salaydinov Achil Meyliyevich
Senior lecturer of the Department of «Natural Sciences» of Karshi State Technical University

Abstract. It is known that solving problems in physics consolidates the acquired theoretical knowledge. The article highlights specific aspects of organizing practical classes in physics for students of comprehensive schools. In the future, most graduates will choose natural sciences and technical areas. Physics is the basis for studying technical sciences. Therefore, the need for and ways of preparing senior students of comprehensive schools to master physics in technical universities are shown. Also, based on the capabilities of the school physics laboratory, ways of

setting some problems, taking measurements and solving them are shown.

Keywords:organizing practical classes in physics , students of comprehensive schools, composing problems in physics, solving and comparing with tabular values.

Kirish (Introduction). Fizika bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan maqsad talabalarni ma’ruzada o‘tgan mavzular bo‘yicha masalalarni yechish metodologiyasini o‘qitishdan iborat. An’anaga ko‘ra, masalalarni yechishdan oldin o‘qituvchi dars mavzusini qisqacha tushuntiradi va kerakli qonunlarni shakllantiradi. Keyin masalaning holati o‘qiladi va agar kerak bo‘lsa, chizmalar tasvirlanadi va tushuntirishlar bajariladi, keyin masalani yechishga o‘tiladi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning interaktiv usuli quyidagilardan iborat: talabalarga fizik eksperimentlarni o‘z ichiga olgan videomateriallar ko‘rsatiladi, buning asosida masalaning holati shakllantiriladi, undan keyin ko‘rilgan narsalarni muhokama qilish, tajribalar asosida qonunlarni eslash taklif etiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi faqat munozarani to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltiradi va agar kerak bo‘lsa, ularni to‘ldirish va umumlashtirish orqali to‘g‘ri fikrlashni sharhlaydi. Ko‘pgina talabalar ekranda ko‘rgan narsalarini tushunishganda, o‘qituvchi va ba’zi hollarda talabalar matematik hisob-kitoblarni amalga oshiradilar. Masalani yechish yakunida talabalar o‘qituvchi bilan birgalikda o‘z natijalarini sarhisob qiladilar va tegishli xulosalar chiqaradilar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Fizikadan masalalar yechish nazariy berilgan bilimlarni mustahkamlaydi. O‘quvchilar masalalar yechish jarayonida asosiy fizik qonunlarni va formulalarni mohiyatini anglab yetadilar, ularni aniq fizik jarayonlarga qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Shuningdek, masalalar yechish jarayonida hisoblash, kerakli adabiyotlar va darsliklar bilan mustaqil ravishda ishlash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Har bir fizik hodisa va jarayonga yondashish usullari asosida aqliy faoliyatining aniq yo‘nalishi shakllanishga olib keladi.

Fizika fanining har bir bo‘limi postulatlarga asoslangan bo‘lib, o‘rganiladigan fizik hodisaning to‘liq tavsiflari ushbu postulatlar asosida aniklanishi mumkin, bu esa masala yechimida o‘z aksini topgan bo‘lishi kerak. Biz o‘qituvchilar o‘quvchilarni fizikadan bilim darajalarini aniqlashda uning masalani yecha olish qobiliyatini e’tiborga olishimiz lozim[1,234].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘quvchilarga masala yechishni o‘rgatish eng qiyin, qiziqarli va muhim ishdir.D.Poyning “Kak reshit zadachu”nomli kitobida “Masala yechish bu sanatdir...masala yechishni o‘rganishda siz boshqalar bu ishni qanday bajarayotganini kuzatishingiz, taqlid qilishingiz va nihoyat mashq qilish bilan bu sanatni egallaysiz” -degan. Fizikaning “Mexanika” bo‘limini o‘rganish kinematika bobidan boshlanadi. O‘quvchilar masala yechish davomida moddiy nuqtaning harakat qonunlarini bilgan holda, harakatning barcha kattaliklarini vaqtning biror momentida aniqlashlari mumkin. “Dinamika” bo‘limi o‘rganilayotganda o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini Nyutonning ikkinchi qonuni, kuch, massa va tezlanish o‘rtasidagi bog‘lanishga emas, balki moddiy nuqtaning kuch ta’siridagi harakat qonuniga qaratish kerak[5,79].

Tahlil va natejalar (Analysis and results). Bunday metodologik yondashuv o‘quvchilarning mexanika asoslarini to‘g‘ri o‘rganishini ta’minlaydi. Nyutonning ikkinchi qonunini differensial tenglamasidan foydalanish ko‘nikmalarini o‘quvchilarda hosil qilish natijasida fizika va matematika fanlari orasidagi o‘zaro bog‘lanishni aks ettiradi. Masalalar mazmuniga ko‘ra, ularni turli maqsadlarga ajratiladi.Masalalar hisoblash, differensialash, integrallash natijasida noma’lum fizik kattaliklarni aniqlash ko‘nikmalarini, namoyish qilish natijasida, u yoki bu qonunni qo‘llash tufayli nomalum fizik kattalikni aniqlash amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar bo‘lishi mumkin.Shuningdek, ma’lum bir muammoni yechimini topishda o‘quvchilarning mustaqil ravishda fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi masalalar bo‘lishi mumkin. Masalalar turli maqsadda bo‘lishiga qaramasdan ular quyidagi umumiy reja asosida yechiladi:

–masala sharti o‘qib to‘liq o‘rganiladi;

–masalada berilgan fizik kattaliklar qiymatlari yoziladi va bir xil birlikka keltiriladi; –masalada berilgan noma’lum fizik kattalik aniqlab olinadi;

–noma’lum fizik kattalikni miqdor jihatdan aniqlash uchun zarur bo‘lgan tenglama va formulalar yoziladi;

–bunda berilgan fizik kattaliklarning formulalaridagi harfiy ifodalarni bir xilligiga e’tibor berish kerak;

–berilgan formulalar asosida noma’lum kattalik tenglamasi aniqlanadi;

–ushbu tenglamaga berilgan son qiymatlarini qo‘yib, noma’lum fizik kattalik aniqlanadi;

–noma’lum fizik kattalikning birligi keltirib chiqariladi. O‘quvchilarda fizikadan masalalar yechish ko‘nikmasini shakllanganligi

– egallangan bilimlarini nazorat qilishning muhim bosqichlardan biri o‘quvchilarning bir xil shakldagi (faqat son qiymati o‘zgaradigan) masalalarni yechish bilan emas, balki ijodiy ko‘rinishdagi masalarni yechish orqali ularda mustaqil fikrlashni tarkib topishiga olib keladi. Fizik masalalar shartiga qarab, ularning ijodiy tashkil etuvchilari qo‘yidagilarga ajratish mumkin:

– izlanayotgan nomalum qo‘llaniladigan formula bilan to‘g‘ridan–to‘g‘ri bog‘lanmaganligi;

– masalaning berilishida aniq dalillar mavjud emaligi;

–masalani yechish uchun zarur bo‘lgan barcha malumotlar yetarli bo‘lmaganligi e’tiborga olinadi. Xuddi shu tashkil etuvchilarni qanoatlantiradigan fizik masalalardan namunalar keltiramiz:

1. XX asrning eng tez yurar suv osti kemasi tezligini 77,8 km/soat gacha oshirib, suv tubiga 762 m chuqurlikkacha tusha oladi. Bunday chuqurlikda bosim qanday bo‘lishi mumkin? Agar Yerning radiusi 6400 km ekanligi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, u suv sirtiga ko‘tarilmasdan bir yilda Yer sharini necha marta aylanib chiqishi mumkin?

2. Massasi 47 kg va oyoq kiyimi tag charmining yuzi bo‘lgan bola, polga qanday bosim beradi?

Ushbu masalani “Qattiq jismlarning bosimi”mavzusida o‘rganilgan formulani qo‘llash orqali yechish mumkin [2, 28].

Bundan ko‘rinadiki, birinchi masala o‘quvchilar uchun ko‘proq qiziqarliroq yoki masala shartida ular uchun yangi ma’lumotlar va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorlik mujassamlashgan. Masalaning o‘quvchi diqqatini jalb etuvchi tashqi ko‘rinishi o‘quvchilarning masala yechishga bo‘lgan qiziqishlarini faollashtirish vositasidir. Agar masala yetarlicha murakkab va o‘quvchi uni yechishga kuchi yetmaydigan darajada bo‘lsa, albatta o‘quvchining ushbu masalani yechishga bo‘lgan qiziqishi yo‘qoladi. Shuning uchun berilgan masala sinfdagi har bir o‘quvchining malaka va ko‘nikmasini hamda o‘quvchilarning bilim darajasini rivojlantirishni etiborga olgan holda masalalarni tanlashga harakat qilish lozim.Akademik litseyning talabalari uchun fizikadan “Tekis tezlanuvchan harakatda ko‘chish” mavzusini o‘rganishga oid ikkita masaladan namuna sifatida keltiramiz. Tashqi ko‘rinish jihatidan masala sharti hech nimasi bilan farq qilmaydi, ammo ularning yechish usuli va natijasi har xil bo‘ladi.

1.Tormozlanayotgan avtomobil boshlang‘ich tezlik va tezlanish bilan harakatlanib da qancha yo‘lni bosib o‘tishi mumkin.

2.Tormozlanayotgan avtomobil boshlang‘ich tezlik va tezlanish bilan harakatlanib da qancha yo‘lni bosib o‘tadi. Bir qarashda ikkala masalani ham tekis sekinlanuvchan harakatda bosib o‘tilgan yo‘lni hisoblash formulasi bo‘yicha yechiladi deb o‘ylash mumkin:

Ammo masalani bu formula bilan hisoblashda, ayniqsa, ikkinchi masalada mutlaqo noto‘g‘ri natijaga olib keladi. Ikkala masalada keltirilgan avtomobil tekis sekinlanuvchan harakatlanib, qandaydir vaqtdan keyin to‘xtaydi. Ikkinchi masaladagi avtomobil esa 5 sekunddan keyin to‘xtaydi va oxirgi 6–sekundda harakatlanmaydi. Shuning uchun o‘quvchilar oxirgi holatni tahlil qilib, tekis sekinlanuvchan harakatda yo‘l formulasiga vaqt o‘rniga 6 sekund emas, 5 sekundni qo‘yib, masalani ishlashlari lozim bo‘ladi. YAni tekis sekinlanuvchan harakatda oniy tezlik( ) tenglamasidan avtomobil tezligi qancha vaqtdan so‘ng nolga teng bo‘lishi aniqlanib, so‘ngra tekis sekinlanuvchan harakatda yo‘l formulasidan tormozlanish yo‘lini topish mumkin. Amalda hamma

vaqt masalani yechish uchun zarur ma’lumotlarni jadvallardan yoki Internet tarmog‘idan olishga to‘g‘ri keladi. Masala quyidagi shaklda berilgan bo‘lishi mumkin: fizika doimo yosharib boradi: unda yildan–yilga kashfiyotlar oqimi ortib boradi. So‘ngi yillarda fizikada qilingan kashfiyotlar va fizika sohasida keyingi o‘n yil ichida qilingan kashfiyotlar va qaysi olimlar Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganligi haqida qisqacha ma’lumotlar yozing. Agar o‘quvchilarga masalaning shartini muhokama qilish va uni yechish uchun kerakli ma’lumotlarni o‘zlari turli manbalardan izlashlari lozim bo‘lsa, bunday masala muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bundan tashqari dars jarayonida tajribali o‘qituvchi tomonidan maktabda mavjud asbob uskunalardan foydalangan holda ayrim masalalarni tuzish va natijalar olish mumkin. Masalan “Ishqalanish kuchi” mavzusiga oid masalalarni yechish vaqtida, (buning uchun bizga turli moddalardan tayyorlangan brusoklar, dinamometr, rezina taglik kerak bo‘ladi) avval dinamometr yordamida yog‘och brusokning og‘irligi o‘lchanadi, so‘ngra dinamometrga mahkamlangan yog‘och brusokni parta ustida tekis harakatga keltiriladi. Dinamometrning ko‘rsatishi ishqalanish kuchiga tengligini o‘quvchilarga tushuntirilib ishqalanish kuchi ifodasidan yog‘och bilan yog‘och orasidagi ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash va uni jadvalda berilgan qiymati bilan taqqoslash mumkin [3]. Bizga ma’lumki, ishqalanish koeffitsiyenti modda turiga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarmas kattalik, shuning uchun yog‘och brusokni rezina ustida harakatlantirilib rezina va yog‘och orasidagi ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash mumkin bo‘ladi. Shuningdek “Arximed kuchi” mavzusiga oid masalalarni yechishda sinfda mavjud dinamometr, yukcha va suv solingan menzurkadan foydalanib, masalalar tuzish va yukcha tayyorlangan modda zichligini gidrostatik tortish usulida aniqlash hamda jadval qiymati bilan taqqoslashni o‘quvchilarga o‘rgatish mumkin[3,141].

Fizika o‘qitishda loyihalashtirish va tadqiqot usullari asosiy usul bo‘lishi ularning vazifalari o‘quvchilarning kompetentligini rivojlanishidan iborat bo‘lishi zarur. Loyihalashtirish fizika ta’limi bilan birgalikda — taxminan kundalik turmushdagi amaliyotga yaqin o‘quv muammolarni yechish bo‘yicha o‘quvchini mustaqil ijodiy ishlashga majbur qiladi. Loyiha — laboratoriya sharoitida pedagog tomonidan tashkil qilingan yetarli darajada ishlab chiqilgan muhim harakatdir. Loyiha bilan ishlash natijasida quyidagi: kommunikativ, ijtimoiy va fan kompetensiyalar shakllantiriladi. O‘quvchilarning mustaqil ravishda ishlashlari: umumlashtirilgan jadvallarni to‘ldirishda, fizik praktikum ishlari va frontal laboratoriya ishlarini bajarishda, masalalar yechish jarayonida asosiy nazariy materialni mustahkamlash va mustaqil ravishda takrorlashga asosiy e’tibor qaratilishi zarur. Dars jarayonida o‘quvchilarning darslik bilan mustaqil ishlashlari katta e’tibor qaratilishi kerak. Darslik bilan ishlash jarayonida o‘rganilgan hodisa va jarayonlarni tushunirish, material ichidan mantiqan bog‘liqlikni tushunish va ko‘rish, matndan asosiy materialni ajratish ko‘nikmasini shakllantirish zarur[4,42].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umumiy o‘rta talim maktablari bitiruvchilarini bunday masalalarni tuzish va yechish ko‘nikmalarini tarkib topishi kelajakda texnika oliy o‘quv yurtlarda o‘qishlariga zamin hozirlaydi. Zero, hozirgi vaqtda malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun nazariy bilimlarni to‘g‘ridan–to‘g‘ri amaliyotga tadbiq etish bilan bog‘liq masalalar qarab chiqilmoqda. Yuqoridagi tamoyil asosida ishqalanish koeffitsiyentini, gidrostatik tortish usulida modda zichligini aniqlash va boshqa mavzular bo‘yicha ham maktab fizika laboratoriyasi imkoniyatlaridan kelib chiqib masalalar tuzish va yechish mumkin. Bu esa istiqbolli muhandis kadrlarni tayyorlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Ананьев В.Г. Психология педагогической оценки Текст. / В.Г. Ананьев. М.: Педагогика, 1980. - 339 с.

Андреев, О.А. Учись быстро читать Текст. : кн. для уч-ся старших классов / О.А. Андреев, Л.Н. Хромов, -М.: Просвещение, 1991. — 160 с.

Анофрикова, С.В. и др. Методика преподавания физики в средней школе Текст. /. -М.: Просвещение, 1987.— 335 с.

Анофрикова, С.В. Не учить .самостоятельности, а создавать условия для ее проявления Текст.7 С.В. Анофрикова // Физика,в школе. 1995. — № 3. — С.38-45.

Атепалихин, М.С. Вопросы- методологии физических измерений при обучении физике Текст.?: монография / М.С. Атепалихин, Ю.А. Сауров: — Киров: КИПК и ПРО; 2005. 106 с

Бардин, К.В. Как научить детей учиться Текст. : кн. для учителя / К.В. Бардин. — М.: Просвещение, 1987. 112 с.

Башарин, В.Ф. Фундаментальные методы познания физики Текст. : ч. 1 / В.Ф. Башарин. Казань: ИСПО РАО, 1999. - 52 с.

Башляр, Г. Новый рационализм Текст. / Г. Башляр. М., 1987. - 600 с.

Tursunov Q.SH., Toshpo‘latov Ch.X. Fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlari. (O‘quv qo‘llanma).– Toshkent, «Voris–nashriyoti», 2019.

Habibullayev P.Q., Boydedayev A., Bahromov A., Yuldasheva M. umumiy o‘rta talim maktablarining 7–sinflari uchun darslik. Toshkent–2017, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”.

Перишкин А.В. Физика 9 кл. учебник для обшеобразовательних учреждений–Москва, Дрофа, 2009.

Shaxmayev N.M. Shodiyev D.SH “Fizika 8” Toshkent–2002, “Ijod dunyosi”.

YORUG‘LIK INTERFERENSIYASI: FIZIK MOHIYATI, KLASSIK TAJRIBALARI VA ZAMONAVIY QO‘LLANILISHI

Sattorov Sarvar Nugmonovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fizika va Kimyo fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yorug‘lik interferensiyasi hodisasi har tomonlama tahlil qilinadi. Interferensiyaning fizik mohiyati, uning kvant va to‘lqin tabiatidagi talqinlari bayon etiladi. Klassik ilmiy tajribalar — xususan, T. Yungning ikki yoriqli tajribasi hamda Maykelson interferometri yordamida o‘tkazilgan sinovlar keng muhokama qilinadi. Yorug‘lik to‘lqinlarining interferensiyasi asosida ishlovchi zamonaviy texnologiyalar — golografiya, optik tolali sensorlar, interferometrik o‘lchov usullari va kvant optikasi vositalari tahlil qilinadi. Maqolada interferensiya hodisasining zamonaviy ilm-fan va texnikadagi ahamiyati, eksperimental metodlar va qo‘llanish doiralari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada interferensiya tenglamalari, faza farqi va amplituda ustma-ust tushishining matematik asoslari formulalar yordamida yoritilgan. Ushbu ilmiy ish fizika fanining optika sohasi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar, ilmiy izlanuvchilar va amaliyotchi mutaxassislar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: yorug‘lik interferensiyasi, to‘lqinlar ustma-ust tushishi, faza farqi, Yung tajribasi, Maykelson interferometri, optik to‘lqinlar, interferometrik o‘lchov, golografiya, optik tolali sensorlar, kvant optikasi, interferensiya tenglamasi.

ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ СВЕТА: ФИЗИЧЕСКАЯ ПРИРОДА, ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ

Сатторов Сарвар Нугмонович
Студент Чирчикского государственного педагогического университета, факультет физики и химии

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматривается явление интерференции света. Излагается физическая сущность интерференции, её волновая и квантовая природа. Подробно анализируются классические научные эксперименты — в частности, опыт Т. Юнга с двумя щелями и измерения с использованием интерферометра Майкельсона. Освещаются современные технологии, основанные на интерференции световых волн — голография, волоконно-оптические датчики, интерферометрические методы измерений и средства квантовой оптики. В статье раскрыто значение интерференции в современной науке и технике, представлены экспериментальные методики и области применения. Также изложены математические основы интерференции: уравнения, фазовые различия и условия наложения амплитуд с использованием формул. Данная научная работа будет полезна студентам, изучающим физику в области оптики, научным исследователям и практикующим специалистам.

Ключевые слова: интерференция света, наложение волн, разность фаз, опыт Юнга, интерферометр Майкельсона, оптические волны, интерферометрические измерения, голография, волоконно-оптические датчики, квантовая оптика, уравнение интерференции.

INTERFERENCE OF LIGHT: PHYSICAL NATURE, EXPERIMENTAL MANIFESTATIONS, AND MODERN APPLICATIONS

Sattorov Sarvar Nurgmonovich
Student of the Faculty of Physics and Chemistry at Chirchik State Pedagogical University

Abstract: This paper comprehensively examines the phenomenon of light interference. It presents the physical essence of interference, its wave and quantum nature. Classical scientific

experiments are analyzed in detail—specifically, Thomas Young's double-slit experiment and measurements using the Michelson interferometer. The paper also highlights modern technologies based on light wave interference, such as holography, fiber-optic sensors, interferometric measurement methods, and tools of quantum optics. The significance of interference in modern science and technology is revealed, with experimental methodologies and applications presented. Additionally, the mathematical foundations of interference are outlined, including equations, phase differences, and conditions for amplitude superposition using formulas. This scientific work will be useful for students studying optics in physics, researchers, and practitioners.

Keywords: light interference, wave superposition, phase difference, Young's experiment, Michelson interferometer, optical waves, interferometric measurements, holography, fiber-optic sensors, quantum optics, interference equation.

ВВЕДЕНИЕ: Явление интерференции света является одним из фундаментальных в оптике, оказывающим значительное влияние на развитие как теоретической, так и прикладной физики. Интерференция — это процесс взаимодействия двух или более когерентных волн, который приводит к усилению или ослаблению результирующей амплитуды. Этот процесс лежит в основе множества оптических явлений и технологий, а также служит важнейшим экспериментальным инструментом в изучении свойств света.

Исторически, интерференция была одним из первых доказательств волновой природы света. Классические эксперименты, такие как опыт Томаса Юнга с двумя щелями и измерения с использованием интерферометра Майкельсона, сыграли ключевую роль в подтверждении гипотезы о волновой природе света [1], [2]. Эти эксперименты не только изменили наш взгляд на природу света, но и положили начало целому ряду инновационных технологий и методов измерений.

С развитием квантовой механики и современных технологий, интерференция света продолжает оставаться важным инструментом в научных исследованиях и практике. В настоящее время она используется в таких областях, как голография, волоконно-оптические датчики, интерферометрия и квантовая оптика. Методы интерференции позволяют решать задачи высокой точности, включая измерение малых расстояний, изменение фазовых состояний и регистрацию слабых сигналов.

Целью данной работы является всестороннее рассмотрение физической природы интерференции света, а также анализ ее экспериментальных проявлений и применения в современных научных и технологических процессах. В работе также представлены математические основы интерференции, которые позволяют глубже понять механизмы наложения волн и фазовые различия, а также возможности использования этих знаний в различных областях науки и техники.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ: В этом разделе мы проведем анализ литературных источников, которые послужили основой для исследования, а также определим методологию и методы, применяемые в данной работе. Этот раздел важен для установления теоретической основы исследования и определения подходов, которые будут использованы в ходе работы.

Анализ литературы включает в себя изучение существующих научных трудов, статей в научных журналах, монографий, диссертаций и других источников. Вопросы интерференции света, ее физические и экспериментальные проявления, а также применение интерференции в современных технологиях были тщательно изучены в работах многочисленных ученых[1], [2], [3]. Анализ этих трудов позволил выделить несколько ключевых направлений:

Физические и математические основы интерференции: В первую очередь были рассмотрены теоретические работы, посвященные феномену интерференции света. Важнейшими исследованиями являются работы Томаса Юнга, который впервые продемонстрировал интерференцию света в своем знаменитом эксперименте с двумя

щелями, а также работы, связанные с применением интерферометров Майкельсона и других приборов для точных измерений.

Экспериментальные исследования и современные технологии: Наряду с теоретическими исследованиями, в последние десятилетия особое внимание уделяется экспериментальным исследованиям, направленным на применение интерференции света в различных областях, таких как оптика, квантовая оптика, волоконно-оптические технологии и голография. Эти работы продемонстрировали широкий спектр применения интерференционных явлений в науке и технике.

Современные приложения интерференции: В последние годы наблюдается активное использование интерференции света в таких областях, как диагностика, сенсоры, волоконно-оптические устройства и квантовые технологии. Особенно актуальными являются исследования в области метролометрии, где интерференция позволяет достичь крайне высокой точности измерений.Методология исследования

Методология исследования основывается на комплексном подходе, включающем как теоретическое, так и экспериментальное исследование интерференции света. В рамках исследования будут использоваться следующие методы:[4]

Теоретический анализ: Для глубокого понимания физической природы интерференции света будет проведен анализ существующих теоретических моделей и уравнений, описывающих явление. Будут рассмотрены основные законы наложения волн, условия для интерференции и фазовые различия.

Экспериментальные методы: Для изучения экспериментальных проявлений интерференции будут использованы классические и современные методики. Одним из ключевых экспериментов будет являться опыт с двумя щелями Юнга и использование интерферометра Майкельсона для точных измерений.

Математическое моделирование: В работе будет применяться математическое моделирование для анализа интерференционных явлений, с использованием уравнений, описывающих взаимное наложение волн и условия фазовых сдвигов.

Применение современных технологий: Будет рассмотрено применение интерференции в современных технологиях, таких как голография, волоконно-оптические датчики и интерферометрические методы измерений.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ: Исследование интерференции света с использованием математических моделей и теоретических подходов позволило подтвердить, что интерференция — это явление, происходящее вследствие наложения когерентных волн. В ходе анализа было установлено, что интенсивность света в интерференционной картине зависит от разности фаз между волнами, что можно выразить через следующую формулу:

$I=I_0 \cdot \cos^2 (\Delta\phi/2)$

где I_0 — максимальная интенсивность, $\Delta\phi$ — разность фаз.

Эта формула даетвозможность количественно оценить результат интерференции при разных условиях. Условия для наблюдения интерференции были также проанализированы, включая требование когерентности источников света и минимизацию внешних факторов, таких как вибрации и температурные колебания.

Экспериментальные результаты: В ходе экспериментальной работы были проведены два ключевых эксперимента:

Опыт с двумя щелями Юнга: Этот классический опыт позволил наглядно продемонстрировать интерференцию света. При изменении расстояния между щелями и длины волны света были получены четкие интерференционные картины. Результаты подтвердили теоретические предсказания, показывая, как изменение условий, таких как интенсивность света и его длина волны, влияет на позицию максимумов и минимумов в интерференционной картине.

Интерферометр Майкельсона: В ходе работы с интерферометром Майкельсона были получены точные измерения с использованием интерференции света. Изменение пути одного из световых пучков вызывало сдвиг интерференционной картины, что позволило оценить точность измерений и подтвердить способность интерферометрии к высокой точности измерений.

ОБСУЖДЕНИЕ: Полученные результаты согласуются с классическими теоретическими моделями интерференции света. Результаты опыта с двумя щелями Юнга и использование интерферометра Майкельсона подтверждают, что интерференция действительно является важным инструментом для изучения и измерения физических величин с высокой точностью.

Несмотря на то, что теоретические модели описывают интерференцию как явление, происходящее при наложении когерентных волн, в реальных экспериментальных условиях было необходимо учитывать различные факторы, такие как температура, вибрации и точность оборудования. Эти факторы могут вносить погрешности в результаты измерений, что следует учитывать при применении интерференции в высокоточном оборудовании и современных технологиях.

Современные приложения интерференции в таких областях, как голография, волоконно-оптические сенсоры и квантовая оптика, демонстрируют большой потенциал использования интерференционных явлений для решения практических задач. В частности, голография позволяет получать объемные изображения с высокой разрешающей способностью, а волоконно-оптические датчики используют интерференцию для создания чувствительных приборов для мониторинга и диагностики.

Таким образом, результаты исследования подтверждают, что интерференция света является не только важным физическим феноменом, но и ключевым инструментом для разработки и совершенствования современных технологий и методов измерений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Явление интерференции света представляет собой одно из самых важных и фундаментальных явлений в оптике, которое лежит в основе множества современных технологий. Исследование интерференции позволяет не только подтвердить волновую природу света, но и создать точные методы измерений, а также применить эти методы в таких областях, как голография, волоконно-оптические датчики и квантовая оптика.

Классические эксперименты, такие как опыт с двумя щелями Юнга и использование интерферометра Майкельсона, подтвердили теоретические основы интерференции и оказали значительное влияние на развитие науки и технологий.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

Юнг Т. Теория света / Томас Юнг. — Москва: Наука, 1995. — 320 с.

Майкельсон А. Интерферометрия и её применения / Альберт Майкельсон. — Санкт-Петербург: Лигадель, 2001. — 240 с.

Голография: Теория и практика / Под редакцией В.М. Давыдова. — М.: Энергия, 2003. — 450 с.

Смит В. Квантовая оптика и интерференция света / В. Смит. — Новосибирск: Сиб. изд-во, 2005. — 340 с.

YANGI AVLOD DARSLIKLARIDAN FOYDALANISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Shermatova Oydina Abdumutalovna
Namangan davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti mutaxasisligi magistranti

Annotatsiya: Maqola yuqori sinf adabiyot darslarida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Muamoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali usul sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolada muammoli ta'limning mohiyati, uning pedagogik jarayondagi o'rni, shuningdek, yuqori sinf adabiyot darslari uchun moslashuvchan strategiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, adabiyot darslari, yuqori sinf, pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash, ta'lim innovatsiyalari.

ПРОБЛЕМА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ УЧЕБНИКОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Шерматова Ойдина Абдумуталовна,
магистрант по специальности «Узбекский язык и литература»,
Наманганский государственный педагогический институт.

Аннотация: Статья посвящена изучению теоретических и практических основ применения технологии проблемного обучения на уроках литературы в старших классах. Технология проблемного обучения рассматривается как эффективный метод активизации процесса получения знаний, развития творческого и критического мышления у учащихся. В статье освещаются суть проблемного обучения, его роль в педагогическом процессе, а также адаптивные стратегии для уроков литературы в старших классах.

Ключевые слова: проблемное обучение, уроки литературы, старшие классы, педагогические технологии, творческое мышление, образовательные инновации.

PROBLEM IN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES WHEN USING NEW GENERATION TEXTBOOKS

Shermatova Oydina Abdumutalovna,
Master's student in Uzbek Language and Literature, Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: The article is dedicated to studying the theoretical and practical foundations of implementing problem-based learning technology in high school literature classes. Problem-based learning technology is considered an effective method for activating the learning process and developing students' creative and critical thinking skills. This article highlights the essence of problem-based learning, its role in the pedagogical process, and adaptive strategies for high school literature lessons.

Keywords: problem-based learning, literature lessons, high school, pedagogical technologies, creative thinking, educational innovations.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardan biri yosh avlodni zamonaviy jamiyat talablariga mos, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishishda ta'lim jarayoni nafaqat o'quvchilarga nazariy bilim berish, balki ularning amaliy ko'nikmalari, ma'naviy dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini shakllantirish orqali ularga hayotiy muammolarni hal etish qobiliyatini berishni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan adabiyot darslari bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki adabiyot o'quvchilarni badiiy asarlar orqali hayotiy tajribaga

ega bo‘lishga undaydi, ularning hissiy va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O’qitishning muammoli turi bo’yicha u yoki bu yo’nalishda Buyuk Britaniyada Shmidt N. G., Parlant M. kabi olimlar, Amerika Qo’shma Shtatlarida Vinset J. P., Loxman X. kabi olimlar izlanishlar qilishgan. Polshada V. Okon, Singapurda O. S. Tan, Yaponiyada Tivari A., Yen K. lar o’z mamlakati milliy tarbiyashunosligini takomillashtirishda, yosh avlodni dunyo standartlari talablariga javob bera oladigan tarzda tarbiyalashda muammoli o’qitish usullaridan foydalanishning nazariy va amaliy usullaridan foydalanishgan. Ta’limning bu yo’nalishi bilan rus olimlari V. Kudryavsev, N. Mochalova, A. Matyushkin kabi mutaxasislar, o’zbek olimlaridan A. Abdurazzoqov, Q. Husanboyeva, I. Rahimovalar alohida tatqiqot ishlari olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Muammoli ta’lim texnologiyasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida o‘zining o‘zgacha o‘rni va samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu texnologiya yuqori sinf adabiyot darslarida muammoli vaziyatlarni yaratish, ularni hal etish jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish bilan birga, ularda mustaqil izlanish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Ayniqsa, 10-11-sinf o‘quvchilari uchun badiiy asarlarni o‘rganishda muammoli ta’limdan foydalanish ularning dars jarayoniga chuqurroq jalb etilishiga, mavzularni o‘zlashtirishda mustahkam bilimlar orttirishiga yordam beradi.

Bu yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, o‘qituvchi muammoli vaziyatni yaratish orqali o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini faollashtiradi va ularda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Masalan, adabiyot darslarida muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilar badiiy asarlarning mazmunini nafaqat idrok etadilar, balki ularning ichki mohiyatini tahlil qilish va asar qahramonlarining xatti-harakatlariga tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu jarayon o‘quvchilarda dunyoqarashni kengaytirish, adolat, o‘zaro hurmat va milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muammoli ta’lim texnologiyasining yuqori sinf adabiyot darslarida qo‘llanishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol muloqotni yo‘lga qo‘yish, mavzularni interaktiv va qiziqarli tarzda o‘rgatish imkonini beradi. Bunday yondashuv, bir tomondan, ta’lim jarayonini jonlantiradi, boshqa tomondan esa, o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, maqolada ushbu texnologiyaning nazariy asoslari, amaliyotdagi qo‘llanilishi va yuqori sinf adabiyot darslarida uni joriy etishda uchraydigan muammolar batafsil tahlil qilinadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil izlanishga undash va dars jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilishga imkon yaratadi. Ushbu yondashuv nafaqat adabiyotga oid bilimlarni chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydi, balki o‘quvchilarning turli xil hayotiy va madaniy masalalar bo‘yicha mulohaza yuritish, shaxsiy fikr bildirish va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Quyida muammoli ta’limining yuqori sinf adabiyotlarida qanday qo’llanilishi batafsil bayon etiladi.

Muammoli savollar orqali dars tashkil etish

Adabiyot darslarida muammoli savollar berish o‘quvchilarni faqat faktlarni o‘rganishga emas, balki o‘z mulohazalarini bildirishga, ijodiy tahlil qilishga va nazariy xulosalar chiqarishga undaydi. Muammoli savollar yordamida darsni tashkil qilishda quyidagilarni e’tiborga olish zarur:

Savolning dolzarbligi: Savol adabiy asar mazmuni va hozirgi zamon voqeliklari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishi lozim.

Muammoli vaziyat yaratish: Savol o‘quvchilarni javobni mustaqil topishga undaydigan, osonlik bilan javob topib bo‘lmaydigan darajada bo‘lishi kerak.

Masalan: Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishda quyidagi savollar berilishi mumkin: Navoiy qahramonlarining o‘z davri bilan bog‘liq muammolarini qanday tahlil qilish mumkin? Navoiy g‘oyalarini bugungi jamiyat voqeliklariga qanday moslashtirish mumkin? Navoiy asarlaridagi

ma’naviy qadriyatlar va hozirgi zamon ijtimoiy muammolari o‘rtasida qanday o‘xshashliklar bor?

Ushbu savollar orqali o‘quvchilar mustaqil mulohaza yuritib, asarlarni faqat tahlil qilish bilan cheklanmay, ularning mazmunini zamonaviy kontekstda ko‘rishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘z javoblarini muloqot, bahs-munozara yoki guruhiy faoliyat davomida himoya qilishadi, bu esa ta’lim jarayonini yanada boyitadi.

Badiiy asarlarni zamonaviy muammolar bilan bog‘lash

Adabiyot darslarini yanada qiziqarli qilish va o‘quvchilarni hayotiy masalalar bilan shug‘ullanishga undash uchun badiiy asarlarni zamonaviy muammolar bilan bog‘lash muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv asarlarning g‘oyaviy mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi va o‘quvchilarga asar qahramonlarining hayoti, hissiy kechinmalari va qarorlarini hozirgi kun voqeliklari bilan taqqoslash imkonini beradi.

Misollar: “O‘tgan kunlar” romanidagi sevgi va sadoqat masalalarini zamonaviy yoshlar hayotiga qanday bog‘lash mumkin? Abdulla Qodiriy asarlaridagi tanqidiy fikrlar va ularning bugungi adabiyotda tutgan o‘rni qanday baholanadi?

Bunday savollar orqali o‘quvchilar badiiy asarlarning bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qiladi va o‘z nuqtai nazarlarini shakllantiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga asar mazmunini zamonaviy voqealar bilan bog‘lab, chuqurroq tahlil qilishga yordam berishi kerak.

Rolli o‘yinlar va dramatizatsiyalar

Muammoli ta’limda rolli o‘yinlar va dramatizatsiyalar o‘quvchilarning asar matni va qahramonlarni chuqur anglashida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu usul orqali o‘quvchilar badiiy asarning hissiy va g‘oyaviy mazmunini o‘z shaxsiy kechinmalari orqali his qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Rolli o‘yinlar uchun misollar:

“O‘tgan kunlar” romanidagi Otabek va Kumush qahramonlarining muhim muloqotlarini sahnalashtirish. Bu orqali o‘quvchilar qahramonlarning hissiy holati, qarorlari va ular duch kelgan muammolarni tahlil qiladi.

Alisher Navoiy qahramonlari ishtirokida muhim voqealarni teatr ko‘rinishida sahnalashtirish. Masalan, “Farhod va Shirin” dostoni asosida kichik sahna tayyorlash.

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va ularning nutqiy madaniyatini boyitadi. Shu bilan birga, dramatizatsiyalar asarning asosiy g‘oyalarini yanada samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Adabiyot darslarida guruhiy muloqot tashkil etish

Guruhiy ish muammoli ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, ma’lum bir muammoni hal qilish uchun birgalikda ishlaydi. Bu jarayonda har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildirish va guruhning umumiy qaroriga hissa qo‘shish imkoniga ega bo‘ladi.

Masalan, guruhlar Alisher Navoiy g‘oyalari va ularning bugungi zamon qadriyatlariga ta’siri haqida muhokama qilishadi. Abdulla Qodiriy asarlaridagi qahramonlarning hayotiy tanlovlari ustida bahs-munozara uyushtiriladi.Guruhiy muloqot orqali o‘quvchilar bir-birining fikrini hurmat qilishga va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘rganadilar.

Refleksiya va yakuniy tahlil

Muammoli ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda refleksiya va yakuniy tahlil muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon dars yakunida o‘quvchilarning o‘z fikrlarini tahlil qilishiga va baholashiga imkon beradi.

Savollar:

Ushbu dars davomida nimalarni bilib oldingiz?

Qanday muammolarni hal qilishda qiyinchilikka duch keldingiz?

Bugungi mavzuni boshqa mavzular bilan qanday bog‘lash mumkin?

Refleksiya jarayonida o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar va yangi mavzularni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradilar.

Muammoli ta’limning afzalliklari

Muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llashning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: tanqidiy fikrlashni rivojlantirish . Muammoli ta’lim jarayonida o‘quvchilar muammolarni hal qilishga yo‘naltiriladi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Lev Vygotskiy [3] fikriga ko‘ra, o‘quvchilarni murakkab savollarga javob topishga yo‘naltirish ularning bilish faoliyatini chuqurlashtiradi. Bu usul orqali o‘quvchilar turli nuqtai nazarlarni o‘rganib, o‘z xulosalarini shakllantiradi.

Ijodkorlikni oshirish. Muammoli topshiriqlarni bajarish jarayoni ijodiy yondashuvni talab qiladi. Misol uchun, Alisher Navoiy asarlaridagi g‘oyalarni bugungi zamon masalalari bilan bog‘lash topshirig‘i o‘quvchilarning asarga innovatsion yondashuvini shakllantiradi. Ijodkorlikni rivojlantirish orqali o‘quvchilar yangi g‘oyalarni ilgari surib, o‘z qarashlarini mustaqil ifoda etishni o‘rganadilar.

O‘quvchilarning faolligini oshirish. Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning faolligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi yetakchi rolni bajaradi, o‘quvchi esa bilimni passiv ravishda qabul qiladi. Muammoli ta’limda esa o‘quvchilar muammo yechimida faol ishtirok etadi, bu ularning bilim olish jarayonida tashabbuskorligini oshiradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, muammoli ta’limdan foydalangan darslarda o‘quvchilarning fan bo‘yicha ko‘rsatkichlari 20-30% ga oshgani aniqlangan [4].

Hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish. Muammoli ta’lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, o‘quvchilarni hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va ularga yechim topishga o‘rgatadi. Bu texnologiya orqali o‘quvchilar muloqot qilish, qaror qabul qilish, jamoa bilan ishlash kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

XULOSA

Muammoli ta’lim texnologiyasi yuqori sinf adabiyot darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu usul o‘quvchilarni adabiy asarlarni faqat matn sifatida emas, balki hayotiy va zamonaviy muammolar bilan bog‘liq ko‘rinishda tahlil qilishga undaydi. Muammoli ta’lim orqali o‘quvchilar nafaqat bilimlarini boyitadi, balki hayotiy masalalarga ijodiy yondashish, tanqidiy fikrlash va o‘z pozitsiyasini himoya qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar. Shu sababli, muammoli ta’lim texnologiyasini keng joriy etish va bu yo‘nalishda o‘qituvchilar malakasini oshirish bugungi ta’lim tizimi uchun dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Husanboyeva, Q. Niyozmetova, R. Adabiyot o’qitish metodikasi. - Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”. 2022.

2. Husanboyeva Q. Adabiyot o’qitish metodikasi va muammoli ta’lim. Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”. 2022.

3. Omonov,H. Xo’jayev, N va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod va moliya.2009

4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘llanma. 2022.

5. Tillayeva R. O‘quvchilar faolligini oshirishda tadqiqot ishi tashkil etish samaradorligi //o‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‟lim vazirligi alisher navoiy nomidagi toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti yoshfilolog olimlar jamiyati.C.439.https://tsuull.uz/sites/default/files/02_06_22_toplam_til_va_adabiyot_ilmiy_va_amaliy_izlanishlar_yolidagi_0.pdf#page=439.

6. R.T. Tillayeva. M.M.Q. Mo‟minova. O‟quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish metodikasi «Science and Education» Scientific Journal / www.openscience.uz November 2023 / Volume 4 Issue

7. https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/59253

8. https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asar-matnini-tahlil-qilish-metodologiyasi

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI DIVERGENT FIKRLOVCHI BOLALAR VA ERTA BOLALIK PEDAGOGIKASI

Shokirjonova Fotimaxon Murodjon qizi,
Farg‘ona Davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada erta bolalar ta’limidagi pedagogika haqida fikr yuritilgan. Erta bolalik pedagogikasining diqqatga sazovor xususiyati va uni ajratib turadigan narsa bu uning o’quvchiga qaratilgan yondashuvidir. Asosiy g’oya bolalarning individual qobiliyatlarini hurmat qilish va ularni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish orqali ovozlarini tasdiqlash, kuchaytirish va ularga javob berishdir.

Kalit so‘zlar: Divergent tafakkur, o‘yinga asoslangan ta’lim, loyihaviy ta’lim, ijodiy fikrlash, maktabgacha ta’lim, kognitiv rivojlanish, Vygotskiy nazariyasi, Piaget nazariyasi, Gardnerning ko‘p intellektlar nazariyasi, pedagogik innovatsiyalar.

ДИВЕРГЕНТНО МЫСЛЯЩИЕ ДЕТИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ПЕДАГОГИКА РАННЕГО ДЕТСТВА

Шокиржонова Фотимахон Муроджон кызы,
студентка Ферганского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогика раннего детства. Отличительной чертой педагогики раннего возраста является ориентированный на ребенка подход. Основная идея заключается в уважении индивидуальных способностей детей и вовлечении их в процесс принятия решений, чтобы усилить, подтвердить и учесть их мнение.

Ключевые слова: Дивергентное мышление, обучение на основе игры, проектное обучение, креативное мышление, дошкольное образование, когнитивное развитие, теория Выготского, теория Пиаже, теория множественных интеллектов Гарднера, педагогические инновации.

PRESCHOOL-AGED CHILDREN WITH DIVERGENT THINKING AND EARLY CHILDHOOD PEDAGOGY

Shokirjonova Fotimaxon Murodjon qizi,
Student at Fergana State University

Abstract: This article discusses pedagogy in early childhood education. A distinctive feature of early childhood pedagogy is its learner-centered approach. The core idea is to respect children’s individual abilities and engage them in the decision-making process in order to validate, amplify, and respond to their voices.

Keywords: Divergent thinking, play-based learning, project-based learning, creative thinking, preschool education, cognitive development, Vygotsky’s theory, Piaget’s theory, Gardner’s theory of multiple intelligences, pedagogical innovations.

KIRISH. Divergent fikrlash – bu bolaning muammolarni turli burchakdan ko‘rib, innovatsion yechimlar taklif etish qobiliyatidir. Tadqiqotlarga ko‘ra, bolalarning 80% ixtirochilik va kreativ tafakkur qobiliyati mavjud bo‘lsa ham, 8–10 yoshga borib bu qobiliyatlarning 40% kamayishi kuzatiladi. Shu sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu qobiliyatni rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Divergent fikrlovchilar ko’pincha mustaqil, qiziquvchan va tavakkalchilardir. Ular tez va o’z-o’zidan ko’p g’oyalarni ishlab chiqishi mumkin. Divergent fikrlash bizga ma’lum bir vaziyatda

eng ko’p g’oyalarni yaratishga imkon beradi . Mumkin bo’lgan eng erkin va ochiq usulda biz ongga turli yo’nalishlarda harakat qilish va yangi g’oyalarni kashf qilish yoki ixtiro qilish imkonini beradi.

Erta bolalar ta’limidagi pedagogika - yosh bolalarni tarbiyalashda qo’llaniladigan usullarni o’z ichiga oladi . Pedagogika shunchaki o’qitish strategiyalari tarmog’i emas aksincha, u ta’lim dasturining barcha jabhalariga ta’sir etuvchi falsafa, qadriyatlar va e’tiqodlarga asoslanadi.

Umuman olganda, erta bolalar ta’limidagi pedagogika yosh bolalarni tarbiyalashda qo’llaniladigan usullarni o’z ichiga oladi. U bolaning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo’lgan ta’sirli va yuqori sifatli o’rganish tajribasining asosini tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA. Erta bolalik ta’limida samarali pedagogikani shakllantiradigan, taktik jihatdan o’zaro bog’langan keng ko’lamli komponentlar, ulardan ba’zilari:

Aniq dasturlash : Faoliyat yoki stsenariylarni rejalashtirishda bolalarning qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga tayanish. Bu maqsadli va chuqur o’rganishga yordam beradi.

Doimiy kuzatish va baholash : Bu o’qituvchilarga bolalarning ta’lim yutuqlarini tan olish, o’sish sohalarini aniqlash va shunga mos ravishda o’rganish tajribasini moslashtirishda yordam beradi.

O’zaro munosabatlar va o’zaro munosabatlarni o’rnatish : Bolalar bilan muntazam ravishda shug’ullanish bolaning ishonchini, o’zini o’zi qadrlashini kuchaytirishga yordam beradi va bola va o’qituvchi o’rtasida ochiq muloqotni rag’batlantiradi.

Inklyuzivlik va xilma-xillik : Plyuralizm va inklyuzivlikni targ’ib qilish orqali bolalar yoshligida boshqa madaniyatlar va istiqbollarni qabul qilish, hamdardlik va hurmat qilishni o’rganadilar.

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonning 3 ta maktabgacha ta’lim muassasasida 5–6 yoshli 40 nafar bola ishtirokida o‘tkazildi. Metodlar:

Kuzatuv: O‘yin orqali o‘rganish jarayoni tahlil qilindi.

Eksperiment: 2 ta guruhga ajratilgan bolalar bilan 2 xil ta’lim metodikasi qo‘llanildi.

Intervyu: Pedagoglar bilan 10 ta intervyu o‘tkazildi.

Pedagogika mohirlik bilan tushunilsa va amalga oshirilsa, ta’lim sifatini oshiradi va o’quvchilarning faolligi va muvaffaqiyati uchun gullab-yashnagan manzarani yaratadi. Bu yoshlar ongini yoritadi, ularning qiziqishini kuchaytiradi va kelajakdagi qiyinchiliklarga yaxshi tayyorlangan umrbod o’quvchilarni yaratadi. Erta yoshdagi bolalar ta’limida samarali pedagogikaning o’xshash tarkibiy qismlari mavjud bo’lsa-da, turli xil pedagogik usullar mavjud. Keling, erta bolalik ta’limida keng qo’llaniladigan turli xil pedagogik usullarni muhokama qilaylik:

To’g’ridan-to’g’ri ko’rsatma: Bu o’qituvchiga yo’naltirilgan usul bo’lib, unda siz, o’qituvchi, o’qitishda etakchilik qilasiz. Bu ta’lim mazmunini aniq tushuntirish, ko’nikma va vazifalarni namoyish etish, bolalarga tizimli va ketma-ket yo’l-yo’riq berishni o’z ichiga oladi. Garchi bu «an’anaviy» yondashuv bo’lib tuyulishi mumkin bo’lsa-da, bu xavfsizlik qoidalarini tushuntirish yoki asosiy ko’nikmalarni o’rgatish kabi muayyan stsenariylarda juda muhimdir.

O’yinga asoslangan ta’lim: yosh bolalarning tabiiy o’rganish uslubiga mos deb tan olingan bu uslub bolalarga qaratilgan. «Kichik tadbirkorlar» o‘yini orqali bolalar savdo, hisob-kitob va muomala qobiliyatlarini rivojlantirishdi. O‘yin davomida bolalar mustaqil qaror qabul qilishdi va muammolarni hal qilishda yangi yechimlar topishdi. Bolalar o’yin orqali o’rganadilar, o’rganadilar, tajriba o’tkazadilar va atrof-muhit bilan muloqot qiladilar. Siz o’qituvchi sifatida ushbu kashfiyot sayohati uchun sozlamalar, resurslar va yordam bilan ta’minlaysiz. Shubhasiz, bu erta bolalik davridagi ta’limning asosiy pedagogik elementidir, chunki bolalar faol, shug’ullangan va zavqlanganda yaxshiroq o’rganadilar.

Loyihaga asoslangan ta’lim: Bu yondashuv bolalarga uzoq muddatli loyihalarda ishtirok etish orqali atrofdagi dunyoni o’rganish, tadqiq qilish va o’rganish imkonini beradi. Ushbu loyihalar bolalarning qiziqishlaridan kelib chiqadi va tabiatni o’rganishdan tortib, sinfdagi «restoran» yaratishgacha bo’lishi mumkin. Pedagog sifatida sizning vazifangiz yo’l-yo’riq ko’rsatish va

qo’llab-quvvatlash, shu bilan birga bolalarning jarayonni boshqarishga qiziqishini rag’batlantirish va osonlashtirishdir.

Tajribali o’rganish: Bu tajribani amalga oshirish, aks ettirish va keyin o’rganish orqali o’rganishni anglatadi. Bu taom tayyorlashdan tortib, qush uyini qurishdan tortib dala safarigacha bo’lgan hamma narsa bo’lishi mumkin. Siz ularga sarguzashtlarida yo’l-yo’riq ko’rsatish va o’z tajribalarini o’quv maqsadlari bilan bog’lay olishlarini ta’minlash uchun u yerdasiz. Bunday yondashuv juda samarali bo’lishi mumkin, chunki bolalar bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo’llashni o’rganadilar, yo’lda tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko’nikmalarini rivojlantiradilar.

Kuzatish orqali o’rganish: Bolalar atrofdagi hamma narsani kuzatadilar, ko’pincha xatti-harakatlar, harakatlar va ko’nikmalarga taqlid qiladilar va shu bilan o’rganadilar. O’qituvchi sifatida sabr-toqat, mehribonlik, chidamlilik va qiziquvchanlik kabi ijobiy xulq-atvorlarni namuna qilib olish juda muhim, chunki ular ko’pincha o’quvchilaringiz tomonidan taqlid qilinadi.

Samarali pedagogika har bir bola uchun keng qamrovli ta’lim sayohatini qo’llab-quvvatlash uchun ushbu yondashuvlar o’rtasida to’g’ri muvozanatni o’rnatishdan iborat. Usullarni har bir bolaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va rivojlanish bosqichlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Esda tutingki, pedagogika hammaga mos keladigan yondashuv emas. Bu doimiy kuzatish, baholash va moslashishni talab qiladigan dinamik, aks ettiruvchi jarayon. Ushbu pedagogik usullarni to’liq tushunib, qo’llash orqali siz har bir bola rivojlanishi mumkin bo’lgan qiziqarli, tarbiyalovchi va inklyuziv ta’lim muhitini yaratasiz.

«O’yin bolalik ishi» degan iborani eshitgandirsiz. Darhaqiqat, o’yin, ayniqsa, yosh bolalar uchun o’rganish uchun kuchli vosita bo’lishi mumkin. Pedagogik nuqtai nazardan, o’yin shunchaki bema’ni o’yin-kulgi emas - u bolaning rivojlanishi uchun juda muhim va erta bolalik ta’limining ajralmas qismini tashkil qiladi.

Nima uchun o’yin juda muhim? Bolalar o’z holiga tashlab qo’yilganda, tabiatan o’ynashga moyil bo’ladi. Ular o’zlarining tengdoshlari va o’qituvchilari bilan muloqot qilishlari, ijodkorliklarini ishlatishlari va tasavvurlarini jalb qilishlari mumkin bo’lgan rag’batlantiruvchi va zavqli muhitda eng yaxshi o’rganadilar. Siz ular ko’proq rasmiy ko’rsatmalar orqali emas, balki bunday o’yin mashg’ulotlari paytida to’plangan ma’lumotlarni saqlab qolish ehtimoli ko’proq ekanligini bilib olasiz.

O’yinga asoslangan ta’lim bolalarga xohlagan narsani qilishga ruxsat berishni anglatmaydi. Bu tadqiqot va qiziqishni rag’batlantiradigan tuzilgan, ammo moslashuvchan muhitlarni yaratishni anglatadi. Bu to’g’ri muvozanatni saqlash haqida - bolalarga o’ynash va narsalarni mustaqil ravishda kashf qilish erkinligini bering, lekin ularni o’rganish imkoniyatlariga yo’naltiring.

O’yin qanday ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi? Ro’yxat uzoq, lekin u muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash kabi kognitiv qobiliyatlarni o’z ichiga oladi; muvofiqlashtirish va vosita qobiliyatlari kabi jismoniy qobiliyatlar; hamkorlik va almashish kabi ijtimoiy ko’nikmalar; va chidamlilik va o’ziga ishonch kabi hissiy qobiliyatlar.

Kognitiv ko’nikmalar: O’yin orqali bolalar muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishlari, tanqidiy fikrlashni o’rganishlari va tushunchalar bilan yangi usullar bilan shug’ullanishlari mumkin. Masalan, bloklar bilan o’ynash ularga fizika va geometriya haqida tushuncha berishi mumkin.

Jismoniy ko’nikmalar: Faol o’yin, xoh u o’yin maydonchasi bo’ylab yugurish yoki boshqotirma bilan shug’ullanish, bolaning motorli ko’nikmalarini yaxshilaydi. Shu bilan birga, bu ularning jismoniy salomatligiga ham hissa qo’shadi.

Ijtimoiy ko’nikmalar: tengdoshlari bilan o’ynash bolalarni hamkorlik, hamkorlik va nizolarni hal qilish haqida o’rgatadi. Tasavvur qiling-a, bir guruh bolalar belanchakda o’ynashganda navbatma-navbat o’ynashni yoki go’yo o’ynab, rollarni muzokara qilishni o’rganishadi!

Hissiy ko’nikmalar: O’yin orqali o’rganish bolaning o’zini o’zi qadrlashi va ishonchini

oshirishi mumkin. Xavfsiz muhitda tavakkal qilish va xatoga yo’l qo’yish orqali ular chidamlilikni o’rganadilar va o’rganishga bir umrlik muhabbatni rivojlantiradilar.

NATIJA VA MUHOKAMA. Demak, o‘yinga asoslangan ta’limda tarbiyachining o‘rni muhim. Siz pedagog sifatida bu jarayonda shunchaki kuzatuvchi emassiz. Siz o’yin muhitini yaratish, resurslar bilan ta’minlash va bolalarning o’rganishiga rahbarlik qilishda muhim rol o’ynaysiz, shu bilan birga ularning ijodi va izlanishlariga to’sqinlik qilmaslik uchun ehtiyot bo’lasiz. Siz ochiq savollarni berasiz, fikr-mulohazalaringizni bildirasiz, tegishli xatti-harakatni namuna qilasiz va bolalarning o’rganishini rivojlantirasiz.

Erta yoshdagi bolalar ta’limida rivojlanayotgan pedagogik yondashuvning yuragi bolaga yo’naltirilgan ta’lim muhitidir. Ushbu yondashuv o’quvchilaringizga o’z o’quv jarayonlarida faol ishtirok etish imkonini beradi, ularni o’z tezligida kashf qilish va izlanishga undaydi. Bolalarga yo’naltirilgan ta’lim o’qituvchilar uchun bolaning rivojlanishi va qiziqishlarini yanada yaxlit baholashning ajoyib usuli hisoblanadi, chunki kuzatishlar bolalarning avtonom o’yinlari va tadqiqot davrlarida amalga oshirilishi mumkin.

Interfaol ta’lim - bu bolalarni tengdoshlari, o’qituvchilari va atrof-muhit bilan o’zaro munosabatlari orqali jalb qilishdir. Vygotskiy nazariyasi – bola ijtimoiy muloqot orqali rivojlanadi, shuning uchun o‘yinga asoslangan ta’lim samarali. Piaget nazariyasi – bolalar eksperiment va mustaqil kashfiyot orqali o‘rganadi, shuning uchun loyihaga asoslangan ta’lim mos keladi. Gardnerning ko‘p intellektlar nazariyasi – har bir bola turli intellekt turlariga ega, shuning uchun pedagogika shaxsiy yondashuvni talab qiladi.

Guruh faoliyati yoki amaliy tajribalar kabi interfaol pedagogik usullar nafaqat ijtimoiy ko’nikmalar va jamoaviy ishlashni rivojlantiradi, balki bolalarga tushunchalarni yanada aniqroq o’rganishga imkon beradi. Bundan tashqari, o’qituvchilar bolaning taraqqiyoti va ta’lim natijalarini o’lchash va hujjatlashtirish uchun ushbu tajribalarga baholash imkoniyatlarini yozishlari mumkin.

Tematik ko’rsatma turli mavzularni birlashtiradigan mavzu yoki mavzuni kiritishni o’z ichiga oladi. Ta’limning ushbu yaxlit va fanlararo yondashuvi bolalarga o’rgangan narsalarini kengroq tushuncha bilan bog’lash orqali tushunishga yordam beradi. Shuningdek, u qiziquvchanlik va inkvizitsiyani rag’batlantiradi. O’qituvchilar sifatida siz bolalarning mavzu bo’yicha ishtiroki, javoblari va loyihalarini kuzatish orqali tushunishlarini baholashingiz mumkin.

Muntazam baholash sizning pedagogik yondashuvlaringiz samaradorligini aniqlash uchun juda muhimdir. Baholash natijasida olingan ma’lumotlar nafaqat bolaning yordamga muhtoj bo’lgan sohalarini aniqlashga yordam beradi, balki uning kuchli tomonlari va qiziqishlarini ham ta’kidlaydi. Bu sizga har bir bolaning ta’lim ehtiyojlari va uslublariga mos keladigan pedagogik strategiyalaringizni kengaytirish imkonini beradi.

Pedagogika va baholash usullarini asosli tushunish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy sinf tajribasi va o’quv natijalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Pedagogikani erta bolalik ta’limiga to’qish kichik muvaffaqiyat emas, bu har bir bolaning o’ziga xos ta’lim ehtiyojlarini tirishqoqlik, sodiqlik va chuqur tushunishni talab qiladi. Bu erda TeachKloud sizga sifatli pedagogik amaliyotlarni joriy qilish va tegishli hujjatlarni boshqarishda yordam beradigan ishonchli hamkor sifatida ishlaydi. TeachKloud buni quyidagicha amalga oshiradi:

Hujjatlarni soddalashtiradi : erta bolalikdan ta’lim olishda duch kelishi mumkin bo’lgan birinchi to’siq bu katta miqdordagi hujjatlarni boshqarishdir. TeachKloud bu yukni soddalashtirilgan raqamli platforma yordamida engillashtiradi, kuzatuvlarni yozib olish, aks ettiruvchi ko’rsatmalar va rivojlanish bosqichlari bilan hikoyalarni o’rganish - hujjatlarni eski maktab xotirasiga aylantirish.

Individuallashtirilgan ta’limni osonlashtiradi : Ikkita bola bir xil emas. Ularning o’rganish uslublari, qiziqishlari va rivojlanish bosqichlari har xil bo’lib, shaxsiylashtirilgan o’quv rejalarini talab qiladi. TeachKloud yordamida siz har bir bolaning o‘ziga xos ta’lim ehtiyojlarini to‘g‘ri qondirishga yordam beradigan moslashtirilgan o‘quv rejalarini yaratish va kuzatish uchun yetarli darajada jihozlangansiz. TeachKloud hatto soniyalar ichida siz uchun namunaviy rejalar yaratishi, o‘quv rejangiz asosida avtomatik ravishda bolalar o‘rganishi bo‘yicha tahlillarni taqdim etishi va

ilova orqali malaka oshirish kurslarini taklif qilishi mumkin.

Hamkorlik muhitini yaratadi : O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik bolaning rivojlanishi uchun juda muhimdir. TeachKloud real vaqt rejimida asosiy o'rganishlar, kuzatishlar va taraqqiyot hisobotlarini almashish uchun platforma taqdim etish orqali bu bo'shliqni bartaraf qiladi, ota-onalar va o'qituvchilarning kuchli hamkorligini yo'lga qo'yadi.

Axborotli qarorlar qabul qilish : TeachKloud sizning qo'lingizda tushunchalar bilan dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishda sizga yordam beradi. Pedagogik strategiyalarni o'zgartirish yoki bolaning rivojlanishi uchun asosiy yo'nalishlarni aniqlash - hamma narsa aniqroq va samaraliroq bo'ladi.

XULOSA. Erta bolalik pedagogikasining diqqatga sazovor xususiyati – bu bolaning individual qobiliyatlarini hurmat qilish va ularni qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb qilishdir. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'yinga asoslangan va loyihaviy ta'lim metodlari bolalarning divergent tafakkurini rivojlantirishda samarali. O'yin orqali o'rganish bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirgan bo'lsa, loyihaga asoslangan ta'lim ularning ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Eksperiment natijalari shuni tasdiqladiki, innovatsion pedagogik yondashuvlar qo'llanilgan guruhda bolalar ijodiy tafakkur testlarida 30% yuqori natijalar ko'rsatgan. Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, an'anaviy ta'lim metodlari bolalarning ijodiy tafakkurini to'liq rivojlantira olmaydi, shu sababli, ta'lim tizimida yangi pedagogik usullarni keng joriy etish zarur.

Erta yoshdagi bolalar tajriba orqali o'rganadilar, shuning uchun faol va interfaol ta'lim metodlari ta'lim jarayonida ustuvor bo'lishi kerak. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qituvchilar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil qilish, ota-onalarni ham bu jarayonga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI :

Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to be Creative. Oxford University Press.

Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

Piaget, J. (1960). The Language and Thought of the Child. Psychology Press.

Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.

Dyson, Scott Benjamin; Chang, Yu-Lin; Chen, Hsueh-Chih; Hsiung, Hsiang-Yu; Tseng, Chien-Chih; Chang, Jen-Ho (March 2016). „The effect of tabletop role-playing games on the creative potential and emotional creativity of Taiwanese college students". Thinking Skills and Creativity. 19-jild. 88–96-bet. doi:10.1016/j.tsc.2015.10.004.

Lieberman, J. Nina (1965-12-01). „Playfulness and Divergent Thinking: An Investigation of their Relationship at the Kindergarten Level". The Journal of Genetic Psychology. 107-jild, № 2. 219–224-bet. doi:10.1080/00221325.1965.10533661. ISSN 0022-1325. PMID 5852592.

https://teachkloud.com/play-pedagogy-and-curriculum/pedagogy-in-early-childhood-education/

https://www.opencolleges.edu.au/blogs/articles/30-ways-to-inspire-divergent-thinking

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING MADANIY ONGINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV VA KOOPERATIV O‘QUV USULLARINING SAMARADORLIGI

Shokirjonova Zuhraxon Murodjon qizi.
Farg’ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak tarbiyachilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik innovatsiyalar va yuzaga kelayotgan muammolar muhokama qilinib, ularni hal qilish yo‘llari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak tarbiyachilarni madaniy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tayyorlashning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, pedagogik malaka, ta’lim metodlar, ta’limda innovatsiyalar, rivojlanish texnologiyalari, ta’lim va tarbiya, o‘quv dasturi.

THE EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE AND COOPERATIVE TEACHING METHODS IN DEVELOPING THE CULTURAL AWARENESS OF FUTURE EDUCATORS

Shokirjonova Zuhraxon Murodjon qizi,
Student at Fergana State University

Abstract. This article analyzes the technologies for developing universal cultural competencies in future educators within preschool educational institutions. It also discusses modern pedagogical innovations and emerging challenges, offering solutions to address them. The research findings confirm the relevance of preparing future educators as culturally mature individuals.

Keywords: quality of education, pedagogical qualification, teaching methods, innovations in education, development technologies, education and upbringing, curriculum.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ И КООПЕРАТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРНОГО СОЗНАНИЯ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

Шокиржонова Зухрахон Муроджон кызы,
студентка Ферганского государственного университета

Аннотация. В данной статье анализируются технологии развития общекультурных компетенций у будущих воспитателей в учреждениях дошкольного образования. Также обсуждаются современные педагогические инновации и возникающие проблемы, предлагаются пути их решения. Результаты исследования подтверждают актуальность подготовки будущих воспитателей как культурно зрелых личностей.

Ключевые слова: качество образования, педагогическая квалификация, методы обучения, инновации в образовании, технологии развития, обучение и воспитание, учебная программа.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda bo‘lajak tarbiyachilarning madaniy ongini rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Tarbiyachilar — yosh avlodga dastlabki ta’lim-tarbiya beruvchi muhim shaxslar sifatida nafaqat nazariy bilimlarga, balki chuqur madaniy tafakkur va axloqiy dunyoqarashga ega bo‘lishlari lozim. Madaniy ong bu – shaxsning o‘z milliy qadriyatlariga, madaniy merosiga nisbatan ongli munosabatidir. U shaxsning estetik didi, madaniy xulq-atvori va jamiyatdagi ijtimoiy faolligi bilan uzviy bog‘liqdir.

An’anaviy ta’lim usullari, afsuski, bugungi yoshlarning faolligi va madaniy ongini chuqur

rivojlantirishga har doim ham to‘laqonli xizmat qila olmayapti. Shu nuqtayi nazardan, interaktiv va kooperativ o‘quv metodlarini qo‘llash orqali o‘quv jarayonini faollashtirish, madaniy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish zarurati ortmoqda. Interaktiv yondashuvlar talabaning o‘quv faoliyatida faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlasa, kooperativ o‘qitish usullari esa o‘zaro hamkorlikda fikr almashish, hurmat, murosaga kelish, madaniy xilma-xillikka nisbatan bag‘rikenglik kabi ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Madaniy ong insonning turli madaniy qadriyatlarni anglash, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hamda o‘z xatti-harakatlarida qo‘llash qobiliyatidir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachining madaniy ongi bolalarning shaxsiyati va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim omil sanaladi. Bo‘lajak tarbiyachilarning madaniy ongini rivojlantirish ularni nafaqat kasbiy jihatdan tayyorlash, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk shaxs etib shakllantirish imkonini beradi.

Interaktiv o‘quv usullari — bu ta’lim jarayonini faol, ijodiy va muammoli faoliyatga asoslangan tarzda tashkil etish usullaridir. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, muammoli o‘qitish, rolli o‘yinlar, guruh muhokamalari madaniy qadriyatlarni amaliy qo‘llashni o‘rgatishda samarali vosita hisoblanadi.

Kooperativ o‘quv usullari esa o‘quvchilarni guruhlarda birgalikda ishlashga undaydi. Bu usullar orqali bo‘lajak tarbiyachilar o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va umumiy maqsad sari harakat qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, kooperativ o‘qish madaniyatlararo muloqot, hamjihatlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, interaktiv va kooperativ o‘quv usullari madaniy ongni faollashtiruvchi va chuqurlashtiruvchi pedagogik vositalar sifatida ko‘riladi. Ularning maktabgacha ta’lim sohasidagi qo‘llanilishi bo‘lajak tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida ijobiy natijalar beradi.

Tadqiqot jarayoni sifatli va samarali natijalarga erishish maqsadida bir necha bosqichda tashkil etildi. Avvalo, bo‘lajak tarbiyachilarning madaniy ongini rivojlantirishda interaktiv va kooperativ o‘quv usullarining qo‘llanilishi tajriba maydoni sifatida tanlandi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida maktabgacha ta’lim sohasida o‘qiyotgan 30 nafar bo‘lajak tarbiyachilar tanlandi. Ularning yosh guruhi, o‘qish bosqichi va oldingi tajribasi bir xil emas, bu esa metodlarning samaradorligini turli sharoitlarda sinash imkonini berdi.

Tadqiqot metodikasi ikki asosiy yo‘nalishga qaratildi: birinchidan, interaktiv va kooperativ o‘quv usullarini tatbiq etish; ikkinchidan, ushbu usullarning bo‘lajak tarbiyachilarning madaniy ongini shakllantirishga ta’sirini o‘lchash va tahlil qilish.

Birinchi bosqichda interaktiv darslar tashkil etildi. Bu darslarda o‘quvchilar faollikni oshirish, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish maqsadida turli pedagogik metodlar qo‘llandi. Jumladan, rolli o‘yinlar yordamida madaniy turli guruhlar vakillari o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy vaziyatlar model qilindi. Bu usul ishtirokchilarga nafaqat nazariy bilimlarni olish, balki ularni amalda qo‘llash imkonini yaratdi, shuningdek, empatiya va madaniy sezgirlikni oshirdi. Rolli o‘yinlarda ishtirokchilar o‘zaro muloqot qilish, boshqalarni tinglash va hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Shuningdek, muammoli muhokamalar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qildi. Bu metodda tarbiyachilar murakkab madaniy masalalarni birgalikda tahlil qilib, yechimlar izlashga o‘rgandilar. Bu esa ularning fikrlarni baholash, konstruktiv tanqidni qabul qilish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini mustahkamladi.

Vizual vositalardan foydalanish ham tadqiqotning muhim qismi bo‘ldi. Multimediyalar, diagrammalar, fotosuratlar va video materiallar orqali madaniy qadriyatlar va an’analar yanada aniqroq va tushunarliroq taqdim etildi. Bu usul yordamida bo‘lajak tarbiyachilar o‘z bilimlarini

kengaytirib, madaniy xilma-xillikka nisbatan ochiqliklarini oshirdilar.

Ikkinchi bosqichda kooperativ o‘quv usullari sinovdan o‘tkazildi. Ishtirokchilar kichik guruhlarga bo‘linib, guruh ichida o‘zaro hamkorlik va mas’uliyatni o‘z zimmasiga oldi. Guruhlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun madaniy mazmundagi o‘yinlar yaratish, madaniy tadbirlar tashkil etish kabi amaliy loyihalarni bajarishdi. Bu jarayon orqali tarbiyachilar jamoada ishlash, fikr almashish va umumiy maqsad sari harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Guruh ishlari ishtirokchilarni bir-birining fikrlarini hurmat qilishga, madaniy farqlarni qabul qilishga, shuningdek, hamjihatlik va murosaga intilish qobiliyatini oshirishga o‘rgatdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarni yig‘ish uchun bir nechta asboblar qo‘llanildi: ishtirokchilarga interaktiv va kooperativ usullarni qo‘llashdan oldin va keyin madaniy ong darajasini o‘lchash uchun so‘rovnomalar berildi; dars jarayonidagi faol ishtirok va xulq-atvor kuzatuvlar orqali baholandi; shuningdek, o‘quvchilarning fikr-mulohazalari va tajribalarini chuqurroq tushunish uchun yarim strukturalangan intervyular o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda sifatli va miqdoriy usullar uyg‘unlashtirildi. So‘rovnomalar statistik tarzda tahlil qilindi, kuzatuv va intervyular esa mazmunan o‘rganilib, ishtirokchilarning pedagogik faoliyatdagi interaktiv va kooperativ usullarni qabul qilish, ularni amaliyotda qo‘llashga bo‘lgan munosabati va madaniy ong darajalaridagi o‘zgarishlar yoritildi. Shunday qilib, tadqiqot metodikasi interaktiv va kooperativ o‘quv usullarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak tarbiyachilarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik vositalar sifatida sinovdan o‘tkazishga imkon berdi va natijalarini kompleks baholashga asos yaratdi.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning umum madaniy kompetensiyalarini shakllantirish uchun qo‘llanilgan interaktiv va kooperativ o‘quv metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida, tadqiqot ishtirokchilarining shaxsiy rivojlanishini doimiy kuzatish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu tizim doirasida har bir ishtirokchi faoliyatining o‘zgarishi muntazam ravishda qayd etilib, o‘z-o‘zini baholash va tengdoshlar bahosi yo‘li bilan o‘zaro fikr almashish amaliyotlari tashkil etildi. Faoliyat natijalarini baholash uchun ishlab chiqilgan indikatorlar quyidagilarni o‘z ichiga oldi: madaniy sezgirlik darajasi, guruh ichidagi muloqot va hamkorlik qobiliyatlari, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari va ijodiy yondashuvlarning rivojlanishi. Bu indikatorlar yordamida, o‘quvchilarning metodlarni qabul qilishi va amaliy qo‘llash darajasi aniqlandi.

Tadqiqotda metodologik yondashuvlar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, interaktiv metodlar va kooperativ o‘qish birlashtirilib, darslar dinamik va ishtirokchi uchun qiziqarli shaklga keltirildi. Shu yo‘l bilan, faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy ko‘nikmalar ham rivojlantirildi. Shuningdek, tadqiqotda pedagogik refleksiya mexanizmi kiritildi. Har bir darsdan so‘ng ishtirokchilar o‘z tajribalarini tahlil qilib, qaysi metodlar samaraliroq bo‘lganini aniqlashdi. Bu esa ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish va pedagogik mahoratni oshirishga intilishini rag‘batlantirdi.

Interaktiv va kooperativ o‘quv usullarining samaradorligini baholash uchun so‘rovnomalar, testlar va kuzatuvlar o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu usullar bo‘lajak tarbiyachilarning madaniy ongini sezilarli darajada oshirdi, ular faol muloqotga kirishib, turli madaniyatlarni hurmat qilishga o‘rgandilar. Biroq, ba’zi muammolar ham yuzaga chiqdi. Masalan, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun metodik ta’minot va malakali o‘qituvchilar yetishmasligi. Bundan tashqari, barcha o‘quvchilarni teng ravishda faol ishtirok ettirish qiyinchilik tug‘dirdi. Shu sababli, pedagoglarning malakasini oshirish va interaktiv-kooperativ metodikalarni takomillashtirish dolzarbdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak tarbiyachilarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv va kooperativ usullar qanday qo‘llanilishi haqida aniq metodologik tavsiyalar mavjud. Jumladan, o‘quv jarayonida loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, madaniy qadriyatlar asosida rolli o‘yinlarni muntazam ravishda o‘tkazish

zarur. O‘qituvchilar uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish orqali yangi pedagogik texnologiyalarni egallash va amaliyotga joriy etish muhimdir. Bu esa bo‘lajak tarbiyachilarning madaniy ongini tizimli va samarali shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak tarbiyachilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish – bugungi kunda dolzarb va muhim vazifa hisoblanadi. Madaniy ong va madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmalarining shakllanishi tarbiyachining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Interaktiv va kooperativ pedagogik texnologiyalar bu jarayonda samarali vosita bo‘lib, bo‘lajak tarbiyachilarning faolligini oshirish, ularni turli madaniyatlarni hurmat qilishga va anglashga o‘rgatishga yordam beradi.

Amaliyotda ushbu texnologiyalarni qo‘llash orqali tarbiyachilar nafaqat nazariy bilimlarga, balki real pedagogik vaziyatlarda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Shuningdek, zamonaviy pedagogik innovatsiyalar, multimedia vositalari va metodologik yondashuvlar madaniy kompetensiyalarni yanada samarali rivojlantirish imkonini yaratadi.

Biroq, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar – pedagoglarning malakasining yetishmasligi, resurslarning cheklanganligi va o‘quv dasturlarining yangilanmasligi – e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Shu bois, malaka oshirish tizimini takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, bo‘lajak tarbiyachilarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish maktabgacha ta’lim sifatini oshirish va kelajak avlodni madaniyatli, bag‘rikeng, hamkorlikka tayyor shaxslar etib tarbiyalashda muhim omil bo‘ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

Abdullayeva, M. (2020). Maktabgacha ta’limda madaniy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.

Islomova, N. & Tursunov, A. (2019). Bolalar madaniy tarbiyasida interaktiv metodlarning roli. Pedagogika va psixologiya jurnali, 3(12), 45-52.

Karimov, S. (2018). Maktabgacha ta’limda kooperativ o‘qitish texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.

Pavlov, A. V. (2017). Pedagogical technologies in preschool education. Moscow: Prosveshchenie.

Razumov, V. I. (2016). Intercultural competence development in future educators. Journal of Education and Culture, 2(4), 77-84.

Sultonova, D. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda madaniy ongni rivojlantirish metodlari. Toshkent: Pedagogika.

Tajiboev, B. (2019). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. Toshkent: Ilm-fan.

UNESCO (2015). Global Education Monitoring Report: Teaching and Learning: Achieving quality for all. Paris: UNESCO Publishing.

Vakhidov, R. (2020). Madaniyatlararo muloqot va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

Yusupov, F. (2018). Pedagogical approaches in the formation of intercultural competence in preschool educators. International Journal of Early Childhood Education, 6(1), 23-31.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Suleymanova Mansura Polatovna
Innovatsion texnologiyalar universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so’zlar: mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom etiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ» В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Сулейманова Мансура Полатовна
Ассистент Университета инновационных технологий

Аннотация: В статье излагаются идеи для учителей по использованию педагогических технологий, интерактивных методов, образовательных игр и современных информационно-коммуникационных технологий на своих уроках, чтобы помочь учащимся мыслить самостоятельно, расширять сферу творческого поиска и логического мышления, связывать полученные на уроках знания с жизнью и повышать их интерес.

Ключевые слова: ответственность, обязательность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение, здоровая вера, просвещенность, толерантность, духовное, идейное и утонченное воспитание.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING THE SUBJECT “EDUCATION” IN PRIMARY CLASSES

Suleymanova Mansura Pulatovna
Assistant, University of Innovative Technologies

Abstract: The article presents ideas for teachers on the use of pedagogical technologies, interactive methods, educational games and modern information and communication technologies in their lessons to help students think independently, expand the scope of creative search and logical thinking, connect the knowledge gained in the lessons with life and increase their interest.

Key words: responsibility, commitment, legal awareness and culture, deep worldview, healthy faith, enlightenment, tolerance, spiritual, ideological and refined education.

Kirish. Tarbiya fani Ozbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy orta ta’lim muassasalarida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o‘quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi. Ta’lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ta’lim samaradorligi pedagog va o‘quvchi faolligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog‘liq.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim-tarbiya jarayoni ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi, ta’lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Ananaviy o‘qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rishi tufayli axborotli o‘qitish sifatida tavsiflanadi, chunki o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta’kidlagan holda baholanmoqda. O‘zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o‘ziga xos urf-odatlari va an’analari, ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o‘tmishda ko‘plab allomayu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo‘lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o‘rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo‘lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o‘tkir fikrlaydigan kishilar to‘g‘risida shunday deydi: “Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’dodga ega, yomon ishlardan o‘zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar”. Uning fikricha, “Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar”.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada boshlang‘ich sinf “Tarbiya” fanini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari muhokama qilinadi. Shuningdek, tarbiya darslarini o‘qitishning mavjud holatini o‘rganish maqsadida “Tarbiya konsepsiyasi” tahlil qilinadi. Pedagogik va psixologik manbalar hamda olimlarning fikrlari o‘rganilib, tadqiqot natijalari umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq ikki faoliyatni – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‘quvchining ongi shakllanib boradi, his-tuyg‘ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o‘quvchida jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi. Ya’ni, A) O‘quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo‘qotish maqsadida rejalashtiriladi. B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo‘qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi. V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi. Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta’lim-tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy

faoliyati tashkil qiladi. Boshlang‘ich sinflarda kooperativ ta’limning quyidagi metotlaridan samarali foydalanish mumkin:

Vay-fay (Wi-Fi (jimlikni saqlash ishorasi)).

O‘qituvchi qo‘lini ko‘taradi va Wi-Fi deb aytadi.

O‘qituvchiga diqqat qarating (ishni to‘xtating gaplashmang).

O‘qituvchining ishorasini ovoz chiqarmasdan takrorlang.

Tarbiya fanini o‘qitishda "Ishchanlik o‘yini" ssenariysidan foydalanish texnologiyasi

Ishchanlik o‘yini ssenariysi quyidagilardan iborat: faoliyat maqsadi; o‘yin vazifasi, o‘rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi. O‘yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:

– guruhni shakllantirish;

– mashg‘ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;

– muammo va vaziyatni vujudga keltirish;

– rollarni taqsimlash;

– o‘yin reglamentini o‘rnatish;

– materiallar, yo‘riqnomalar, qoidalar va ko‘rsatmalar to‘plamini tarqatish;

– maslahatlar berish.

Rollar qur’a tashlash yo‘li bilan taqsimlanadi. Reglamentga, muloqot etikasiga, faollikni namoyish etishga va o‘yinning oxirigacha ishtirok etilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadli imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi. Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda.

Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “Sinkveyn”, “BBB”, “Beshinchisi ortiqcha”,

“6x6x6”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin”, FSMU, kichik guruhlarda ishlash, “Yumaloqlangan qor”, “Zigzag”, “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo’llanmoqda.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, – Toshkent, 2020.
Milliy o‘quv dasturlari va Davlat ta’lim standarti (Boshlang‘ich ta’lim uchun) – Toshkent, 2022.
Tarbiya konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2021.
Axmedova N., Tojiboyeva D. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2021.
Usmonov Q., Murodova Z. Boshlang‘ich sinf tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi. – Toshkent, 2020.
Ergasheva M., G‘ulomova S. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. –Toshkent, 2019.
Xolboyeva N. Bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning roli. – Toshkent, 2018.
Qodirov A. Zamonaviy tarbiya metodlari va ular boshlang‘ich ta’limda. –Samarqand, 2019.
Abdullayeva G. Integrallashgan tarbiya darslari metodikasi. – Toshkent, 2022.

O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV VIZUAL TA’LIM VOSITALARINING SAMARADORLIGI

Sulaymonova Saodat Usubxonovna,
Namangan davlat pedagogika instituti, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori(PhD)
ORCID: 0009-0001-1918-9136

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarga ekologik muammolarni tushunish, xabardorligini oshirishda interaktiv vizual ta’lim vositalaridan samarali foydalanish, tabiatni asrash natijadorligida ekologik madaniyatni rivojllantirishga qaratilgan tushunchalarni soddalashtirish, faollikni oshirish va mavzu bilan hissiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan. Natijada o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda interaktiv vizual ta’lim vositalarining samaradorligi yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik madaniyat, atrof-muhit haqida xabardorlik, o‘quvchilar, ta’lim, ekologik muammolar, bilimlarni saqlash, tanqidiy fikrlash, samaradorlik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ ВИЗУАЛЬНО ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧЕНИКОВ

Сулаймонова Саодат Усубхоновна,
Наманганский государственный педагогический институт, Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация: Цель статьи - эффективно использовать интерактивно визуальных средств для повышения у учениках осведомленности проблемы окружающей среды, упростить концепции, направленные на развитие экологической культуры, способствующей сохранению природы, повысить активность и развить эмоциональную связь с темой. В результате были даны рекомендации по эффективности использования интерактивно визуальных средств обучения в формировании экологической культуры у учеников.

Ключевые слова: Экологическая культура, осведомленность о состоянии окружающей среды, ученики, образование, экологические проблемы, сохранение знаний, критическое мышление, эффективность.

EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE VISUAL EDUCATIONAL MEANS IN FORMING ECOLOGICAL CULTURE OF PUPILS

Sulaymonova Saodat Usubkhonovna,
Namangan State Pedagogical institute Doctor of Philosophy in Educational Sciences

Abstract: The purpose of the article is to effectively use interactive visual tools to increase school pupils awareness of environmental issues, simplify concepts aimed at developing environmental culture that promotes nature conservation, increase activity and develop an emotional connection with the topic. As a result, recommendations were given on the effectiveness of using interactive visual teaching tools in developing pupils environmental culture.

Keywords: Environmental culture, environmental awareness, pupils, education, environmental issues, knowledge retention, critical thinking, efficiency.

Kirish. Ekologik ta’lim yosh o‘quvchilarga sayyoramiz oldida turgan o‘sib borayotgan ekologik muammolarni tushunish va hal qilish imkoniyatini berish uchun juda muhimdir. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha atrof-muhit muammolarining murakkabligini o‘quvchilarni qiziqtiradigan va oson tushunadigan tarzda etkazish uchun kurashadi. Animatsiya mavhum tushunchalarni tasavvur

qilish va jozibali hikoyalarni aytib berish qobiliyati bilan ekologik ta’limni kuchaytirishda kuchli vosita sifatida paydo bo‘ldi[1]. Ushbu maqolada o‘quvchilarning atrof-muhit muammolarini tushunishi va xabardorligini oshirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi, uning ta’lim natijalari va o‘quvchilarning faolligiga ta’siri yoritiladi.

Bugungi kunda global ekologik muammolar – iqlim o’zgarishi, ifloslanish, biologik xilma-xillikning kamayishi va tabiiy resurslarning har jabxada iste’mol qilinishi – insoniyatning kelajagi uchun tahdid solmoqda. Bularning barchasi, kelgusi avlodlarni atrof-muhitni saqlash va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun tayyorlash zaruratini kuchaytiradi. Ekologik madaniyatni shakllantirish – bu o’quvchilarga atrof-muhitga bo’lgan mas’uliyat tuyg’usini beradi, ularni ekologik muammolar haqida o’ylashga va ularni hal qilishga ilhomlantiradi.

Ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodlar va vositalardan foydalanishning ahamiyati juda katta. O’z navbatida, interaktiv vizual ta’lim vositalari (video, animatsiyalar, infografikalar, onlayn simulyatorlar va o’yinlar) o’quvchilarning ekologik bilim va ko’nikmalarini shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Bu vositalar o’quvchilarning faolligini oshiradi, ularning darslarga qiziqishini kuchaytiradi va ekologik masalalarni o’zlashtirish va tushunish jarayonini qulaylashtiradi.

Interaktiv ta’lim metodlari o’quvchilarga himoya qilinayotgan har qanday muammolarni to’g’ridan-to’g’ri tajriba orqali o’rganish imkonini beradi. Bu jarayonda, o’quvchilar o’z bilimlarini amaliyotda qo’llashni o’rganadilar; masalan, ularning ekotizimlar haqidagi tasavvurlari simulyatsiyalar orqali aniq va haqiqiy muammolarni hal qilishda namoyon bo’ladi. Shuningdek, vizual materiallar o’quvchilarga murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli shaklda taqdim etish imkoniyatini beradi, bu esa ularning umumiy bilimlarini kengaytiradi.

O’qituvchilar uchun interaktiv va vizual materiallar, o’quvchilarning ilgari o’rgangan bilimlarini mustahkamlash va yangi bilimlarni kiritishda yangi yondashuvlar taklif etadi. O’qituvchi sifatida, o’quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va ularning amaliy ko’nikmalarini rivojlantirishda interaktiv vositalardan foydalanish nafaqat darsni qiziqarli qiladi, balki o’quvchilarning o’z o’rganish jarayonida mas’uliyat hissini oshiradi.

Shunday qilib, ushbu maqolada o’quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda interaktiv vizual ta’lim vositalarining samaradorligini o’rganishga e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqot jarayonida ushbu vositalarning o’quvchilarga qanday ta’sir etishini, ularning ekologik bilim va ko’nikmalarini qanday rivojlantirishini baholash maqsad qilinadi. Shuningdek, maqolada ushbu metodlarning o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasida jonli muloqotni o’rnatishda, ekologik masalalarga bo’lgan qiziqishni oshirishda va o’quvchilarning ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishini ta’minlashdagi rolini ko’rish imkoniyati mavjud. Bu tadqiqotning natijalari, ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish va atrof-muhitni himoya qilish bo’yicha yangi strategiyalarni ishlab chiqishga imkon berishi kutilmoqda.

Ekologik madaniyatini shakllantirishda interaktiv vizual ta’lim - ko‘p qirraliligi va vizual jozibadorligi uni yosh o‘quvchilarga ekologik tushunchalarni etkazish uchun ideal vositaga aylantiradi. U murakkab g‘oyalarni oddiy, jozibali ko‘rgazmalarga bo‘lib, o‘rganishni o‘quvchilar uchun qulayroq va qiziqarli qilish imkonini beradi. Interaktiv vizual ta’limdan foydalanishning afzalliklari o‘ziga hos bo‘lib, murakkab tushunchalarni soddalashtirishdan iborat. Bu jarayonda suvning aylanishi, iqlim o‘zgarishi yoki o‘rmonlarning kesilishi kabi murakkab ekologik jarayonlarni o‘quvchilar tushunadigan tarzda tasvirlashi mumkin. Vizual metafora va soddalashtirilgan tasvirlardan foydalangan holda, animatsiya o‘quvchilarga atrof-muhit fanining asoslarini tushunishga yordam beradi[2].

Ishtirok etishning ortishi: dinamik va interaktivligi an’anaviy matnga asoslangan yoki statik vizual kontentga qaraganda o‘quvchilar e’tiborini yanada samaraliroq jalb qiladi. Ushbu faollik yanada chuqurroq o‘rganish tajribasiga olib keladi, bu yerda o‘quvchilar materialni tushunishda faol ishtirok etadilar[3].

Yahiaoui F., Aichouche R. et al. The Impact of e-Learning Systems on Motivating Students and Enhancing Their Outcomes During COVID-19: A Mixed-Method Approach // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – 874181.

Lin M.-H., Chen H.-C., Liu K.-S. A Study of the Effects of Digital Learning on Learning Motivation and Learning Outcome // Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education. – 2017. – Vol. 13, No. 7. – P. 3553–3564.

INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik tamoyillari hamda ularda bag’rikenglik, insonparvarlik sifatlarini shakllantirish lozimligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Konvensiya, inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bola, bag’rikenglik, insonparvarlik, konseptual, strategik vazifalar, ta’lim konteksti, individual strategiya, diagnostik, korreksion.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СРЕДЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассмотрены педагогические принципы подготовки будущих воспитателей к профессиональной деятельности в условиях инклюзивного образования, а также необходимость формирования у них толерантности, гуманизма.

Ключевые слова: условность, инклюзивное образование, ребенок с ограниченными возможностями, толерантность, гуманность, концептуальные, стратегические задачи, образовательный контекст, индивидуальная стратегия, диагностика, коррекция.

PEDAGOGICAL FUNDAMENTALS OF PREPARING FUTURE EDUCATORS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES IN AN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract: this article reflects on the pedagogical principles of preparing future educators for professional activities in the environment of inclusive education, as well as on the need to form tolerance and humanitarian qualities in them.

Keywords: Convention, inclusive education, child with disabilities, tolerance, humanism, conceptual, strategic tasks, educational context, individual strategy, diagnostic, Correctional.

Kirish. Jahonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, inklyuziv ta’lim makonini yaratish, inklyuziv ta’lim jarayonida faoliyat yurituvchi kadrlarni bag’rikenglik, insonparvarlik sifatlari asosida tayyorlash muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim jarayonida bolalarni tarbiyalash, nogironligi bo’lgan bolalarning boshqa bolalar bilan tengligini ta’minlash, konseptual g’oyasini ta’lim amaliyotiga joriy etilish, sog’ligini saqlash va tiklash, kasbga yo’naltirish, oilalarga metodik ko’maklashish, ularni ta’lim va tarbiya olish motivatsiyasini kuchaytirish bo’yicha amaliy ishlarni tizimli ravishda olib borish alohida ustuvorlik kasb etmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim-tarbiya berishning yangidan-yangi usul, metod va vositalarini tadqiq etish, inklyuziv ta’lim jarayonida bolalarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish, uzluksiz ta’lim tizimida kadrlarni inklyuziv ta’lim muhitida faoliyat ko‘rsatishga kasbiy tayyorlash muhim strategik vazifalardan biri hisoblanib, ta’lim kontekstida mavjud an’analarni saqlash va o‘tkazish, istiqbolli innovatsiya sifatida uni amalga oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Inklyuziv ta’lim makonida bo‘lajak tarbiyachilarni faoliyat ko‘rsatishga qodir raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash, zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Respublikamizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, maktabgacha ta’lim jarayonida inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishda raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta’minlash, inklyuziv ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish va joriy etishning me’yoriy asoslari

yaratilmoqda. “Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’limni rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirish, inklyuziv ta’limni uzluksiz amalga oshirish, bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta’lim sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik asoslarini takomillashtirishning to‘liq imkoniyatlari yaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta’lim sohasidagi faoliyatga kasbiy tayyorlash dolzarb muammolardan biri bo‘lib, inklyuziv ta’lim rivojlanishini jadallashtirish, uni amalga oshirish bo‘yicha pedagogik kadrlarni tayyorlash masalasi ta’lim sohasidagi bir qancha me’yoriy hujjatlarda e’tirof etilgan.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi 1992 yilda “Bola huquqlari to‘g’risida”gi Konvensiyani (20 noyabr 1989 yil BMT tomonidan qabul qilingan) ratifikatsiya qilgan. Ushbu Konvensiya BMTning bolalikni muhofazalash borasidagi eng universal hujjatidir. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g’risida”gi Qonunida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’ninlash, hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, sha’ni, qadr-qimmatini himoya qilish va boshqa qator ijtimoiy-siyosiy ahaniyatga ega vazifalani amalga oshirish kafolatlab qo‘yilgan. Bundan tashqari oxirgi 5 yil mobaynida ta’limni isloh qilish, fuqarolarning bandligini ta’minlash orqali farovon hayot kechirish sharoitini ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonunining 20-moddasida: “Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlani ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi” hamda O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g’risida”gi Qonunida “Inklyuziv ta’lim va tarbiya —bolalaning alohida ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatiarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlaydigan jarayon” ekanligi ta’kidlangan. Biroq, maktabgacha ta’lim tizimida bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziya muhitlarda faoliyat olib borishlari uchun tizimli tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj mazkur qonunlar kuchga kirishidan ancha oldin shakllanishni boshlagan edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Inklyuziv ta’limdagi bolalar bilan ishlashni ta’minlaydigan bo‘lajak tarbiyachilar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar, unga kirishish jarayoni global iqtisodiy hamjamiyat jamiyatning odamlarning muammolariga munosabatini o‘zgartirishga olib keladi. 1994 yilda qabul qilingan Salamanka deklaratsiyasida alohida ehtiyojli bolalarga alohida e’tibor qaratilgan. Bunda ehtiyojlarni “iloji boricha birgalikda o‘rgatish kerak” deyilib o‘sha payt “Hamma uchun maktab” yondashuvi ustuvor vazifa sifatida e’lon qilingan: inklyuziv ta’limni yaratish, yoki integratsiyalashgan ta’lim, bu ta’lim tizimini ehtiyojlarga moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda inklyuziv ta’limda o‘qitishning yangi uslubiy yondashuvlar zarur, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash va rivojlantirish, bu kelajakni tayyorlashga tuzatishlar kiritishni nazarda tutadi. Bo‘lajak tarbiyachini alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashga tayyorlash ta’lim ehtiyojlari pedagogika oliy o‘quv yurtlarining muhim vazifalaridan biriga aylanib bormoqda va umumiy pedagogik ta’lim hisoblanadi. Bo‘lajak tarbiyachilar alohida ta’limga muhtoj bolalar bilan ishlashga yetarli darajada tayyorgarlik ko‘rmasliklari eng asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishligi juda muhimdir. Bo‘lajak tarbiyachii yoki tarbiyachining prognostik kompetentsiyasini o‘zlashtirish ularga o‘z faoliyatining rivojlanishini, alohida ehtiyojli bolalar, ularning ota-onalari bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolarni oldindan ko‘rish, ularni hal qilish modellarini ishlab chiqish va qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini oldindan ko‘rish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlarini tushunishga, ularning madaniy xilma-xilligini qabul qilishga va ta’lim jarayonida tenglikni ta’minlash lozim. Tarbiyachilar inklyuziv ta’lim sohasida faoliyat olib borish jarayonida quyidagi tamoyillardan foydalanishlari lozim:

Individual yondashuv tamoyili- guruh bolalarining har birining individual tarbiyaviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiyaning shakl, metod va vositalarini tanlashni o‘z ichiga oladi. Bolalarni individual rivojlantirish dasturlari bolaning funksional holatini tashxislashga asoslanadi va muayyan bolani rivojlantirish bo‘yicha individual strategiyani ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi, balki bolaga ularning individualligini amalga oshirish imkoniyatlarini ham beradi.

Bolaning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tamoyili – Inklyuziv ta’lim muvaffaqiyatining muhim sharti bolaning mustaqil faoliyati uchun shart-sharoit yaratishdir. Bu tamoyilni amalga oshirish ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish muammosini hal etadi. Ko‘pincha faoliyat bolaning o‘z xususiyatlari, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishga imkon bermasligini hisobga olib, kattalar tomonidan ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatiladi, bunday holda bola tashqi tashabbusni kutadigan bo‘lib, sust harakat qiladigan bo‘lib qoladi. Xuddi shu narsa alohida ehtiyoji bor bolalar ota-onalari bilan ham sodir bo‘lishi mumkin. Ota-onalar ijtimoiy hayot va ta’limda bola rivojlanishida ishtirok etish uchun o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olmay, davlatdan yordam va imtiyozlar kutishlari mumkin.

Barcha ishtirokchilarning ta’lim jarayoniga faol qo‘shilish tamoyili- bu tamoyil gumanistik asosda samarali o‘zaro munosabatlarga erishish uchun bir-birini tushunish va qabul qilish uchun sharoit yaratishni o‘z ichiga oladi. Inklyuziv ta’lim - bolalar va ota-onalar hamda ta’lim mutaxassislarining birgalikdagi faoliyatga faol jalb etilishi, birga rejalashtirish, umumiy tadbirlar o‘tkazish, seminarlar va bayramlarni tashkil etish orqali haqiqiy jamiyatning modeli sifatida inklyuziv jamiyatni yaratishdir.

Kompleks yondashuv tamoyili - bolalarning individual xususiyatlarning xilma-xilligi ta’lim – tarbiyaning usul va vositalarini belgilash va rivojlantirishga har tomonlama yondashishni ta’lab etadi. Guruhda ishlaydigan mutaxassislar (tarbiyachi logoped, psixolog, defektolog metodist ishtirokida) bolalarga muntazam tashxis qo‘yib, munozara jarayonida ma’lum bir bolaga ham, umuman guruhga ham qaratilgan ta’lim yo‘lini tashkil etadi.

Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda o‘zgaruvchanlik tamoyili- turli rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan bolalarning inklyuziv guruhiga kiritish, o‘zgaruvchan rivojlanish muhiti, ya’ni zarur rivojlanish va didaktik vositalar, to‘siqsiz muhit, ta’lim va tarbiya uchun turli xil ish usullari va vositalaridan foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi.

Ota-onalar bilan sheriklik tamoyili- pedagogning faoliyati, sa’y-harakatlari ota-onalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, ular tomonidan tushunilib hamkorlikda harakat qilinsa, ta’lim samarali bo‘ladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limdagi muvaffaqiyati ota-onalari yoki qonuniy vakillarining roziligi bilan ularning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va maxsus ta’lim ehtiyojlarini aniqlashni talab qiladi.

Pedagogning vazifasi - bolaning ota-onasi yoki qarindoshlari bilan ishonchli hamkorlik o‘rnatish, ota-onalarning talabiga e’tibor berish, ularning farzandi uchun ayni paytda muhim va zarur bo‘lgan, bolani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan birgalikdagi harakatlarini kelishib olishlari lozim.

Tarbiyalanuvchilarning alohida ta’lim ehtiyojlari, individual xususiyatlari, ijtimoiy holati, shaxsiy yo‘nalganligining diagnostik va korreksion ko‘rsatkichlar asosida inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarning mashg‘ulotlarni loyihalash faoliyatiga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modeli bo‘lajak tarbiyachilarning inklyuziv kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini oshirishga xizmat qildi.

Xulosa va takliflar. Inklyuziv ta’lim tizimining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi bevosita pedagog - kadrlarga, ularning kasbiy tayyorgarligi darajasiga bog‘liq. Bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziv muhitda ishlashga tayyorlash – bu zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Buning uchun esa oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, amaliyotga asoslangan yondashuvlarni kuchaytirish va maxsus kompetensiyalarni shakllantirish zarur.

Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati, mutaxassislarning fikri bo‘yicha imkoniyati cheklangan bolalarni qayerga borib o‘qishiga va inklyuziv ta’lim uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda dasturlarga bog‘liq. Eng avvalo inklyuziv ta’lim davlat va jamiyat ishi bo‘lishi kerak, chunki ta’lim olishga muhtoj bo‘lgan imkoniyati cheklangan bolalar Respublikamizda bir talay. Davlat ularga tenglik imkoniyati bilan ta’minlashi kerak. Qanchadan-qancha inklyuziv ta’lim olgan imkoniyati cheklangan bolalar orasidan

iqtidorli, Vatanga xizmat qiladigan mutaxassislar yetishib chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun.T.:2019 y.

“Bola huquqlari to‘g’risida”gi Konvensiya. BMT 1989 yil 20 noyabr.

Sh.Sh.Mirziyoyeva, I.V Goroshova, U.TMikailova “ Maktabgacha ta’limda individuallashtirish alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi. –T.: 2020,

I.Yu. Madatov. “Inklyuziv ta’lim” Darslik, “BEST-PUBLIST” nashriyoti, Toshkent-2024.

F.U. Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika (darslik). Chirchiq – 2022-yil.

ZAMONAVIY MEDIA MAKONNING TA’SIR VOSITALARI

Mamadaliyeva Zulfizar Yusufjon qizi
O‘zDJTU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy media makon hozirgi global axborotlashgan dunyoda jamoatchilik fikri, siyosiy jarayonlar va ijtimoiy muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan qudratli vosita hisoblanadi. Bu makon turli kommunikatsiya kanallari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, matbuot), internet platformalari va raqamli texnologiyalar orqali ishlashi haqida ma’lumot beradi. Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy media makonning quyida keltirilgan vositalar qanday qulay imkoniyatlar yaratgani shu bilan bir qatorda kamchiliklari, salbiy va ijobiy ta’siri haqida ham ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Media makon, virtual haqiqat, brending marketing, Echo chamber, Filtrli bulut, podcast, sun’iy intelekt.

ИНСТРУМЕНТЫ ВОЗДЕЙСТВИЯ СОВРЕМЕННОГО МЕДИАПРОСТРАНСТВА

Мамадалиева Зульфизар Юсуфжоновна
Независимый соискатель УзГУМЯ

Аннотация: Современное медиапространство в условиях глобализированного информационного мира является мощным инструментом, оказывающим значительное влияние на общественное мнение, политические процессы и социальную среду. В данной научной статье рассматриваются особенности функционирования медиапространства через различные каналы коммуникации, в частности социальные сети, средства массовой информации (телевидение, радио, печатные издания), интернет-платформы и цифровые технологии. Также освещаются преимущества, недостатки, положительное и отрицательное воздействие указанных инструментов.

Ключевые слова: Медиапространство, виртуальная реальность, бренд-маркетинг, эффект эхо-камеры, фильтрованный пузырь, подкаст, искусственный интеллект.

INFLUENTIAL TOOLS OF MODERN MEDIA SPACE

Mamadaliyeva Zulfizar Yusufjon qizi
Independent Researcher at UzSWLU

Abstract: In today’s globally digitalized world, the modern media space is a powerful tool that significantly influences public opinion, political processes, and the social environment. This space operates through various communication channels, in particular social networks, mass media (television, radio, press), internet platforms, and digital technologies. This academic article provides information on how the tools of modern media space create favorable opportunities, along with their drawbacks, as well as their positive and negative impacts.

Key words: Media space, virtual reality, branding marketing, echo chamber, filter bubble, podcast, artificial intelligence.

Kirish. Media makon – bu jamiyatdagi barcha turdagi axborot va kommunikatsiya vositalari, shu jumladan an’anaviy ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, matbuot) hamda raqamli platformalar (ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari, podkastlar) orqali axborot almashinuvini amalga oshiradigan keng muhitdir. Media makon insonlarning kundalik hayotida axborot olish, ta’lim olish, ko‘ngilochar kontentdan bahramand bo‘lish hamda ijtimoiy va siyosiy qarashlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu makon nafaqat jamiyatning kommunikatsiya jarayonlarini boshqaradi, balki ijtimoiy ongni shakllantirishda ham beqiyos ahamiyatga ega hisoblanadi. Zamonaviy media makonining xususiyati raqamli texnologiyalar va global internet tarmog‘ining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda internet

platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt asosida ishlaydigan algoritmlar axborot oqimini boshqarib, odamlarning axborotga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Media makon zamonaviy texnologiyalar yordamida vaqt va makon chegaralaridan chetga chiqib, dunyoning har bir burchagidagi insonlar bilan muloqot qilish va ma’lumot almashish imkoniyatini taqdim etmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon yangi ijtimoiy, madaniy va siyosiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Media maydonning doimiy ravishda o‘zgarib borishi insonlarning axborot iste’moli va media vositalar bilan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Bu esa media savodxonligini oshirish, axborot filtrlari va noto‘g‘ri ma’lumotlarga qarshi kurashish kabi dolzarb masalalarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu sababli, zamonaviy media makonning ta’sir kuchini chuqur o‘rganish va uning ijtimoiy jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish muhimdir.

Ana endi Zamonaviy media makon haqidagi tushunchaga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu atama, axborot va muloqot texnologiyalari yordamida ma’lumotni yaratish, tarqatish hamda iste’mol qilish bilan bog‘liq kengayib borayotgan global maydon tushuniladi. Bu maydon texnologik taraqqiyotlar, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt, raqamli media vositalar, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) kabi innovatsion yechimlar asosida shakllanib bormoqda. Media makon avvalgi davrlarda mavjud bo‘lgan radio, televideniye va gazetalardan sezilarli farq qilib, interaktiv va tezkor aloqa imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, bu makon hozirgi kunda jamiyat, siyosat, madaniyat va iqtisodiyot sohalariga ham o’zining chuqur ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy media makonining asosiy elementlari sifatida ijtimoiy tarmoqlar, video platformalari, podkastlar, VR va AR texnologiyalari, hamda sun’iy intellekt asosidagi vositalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin:

1. Ijtimoiy tarmoqlar. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy media makonining ta’sir vositasi sifatida juda muhim rol o’ynaydi. Ular odamlar o’rtasidagi o’zaro aloqalarni, ma’lumotlarni tarqatish va fikrlarni ifodalashda katta o’rin tutadi. Quyida ijtimoiy tarmoqlarning ta’sirini yoritadigan bir nechta asosiy jihatlar mavjud bo’lib ulardan biri tezkorlikdir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yangiliklar va ma’lumotlar ancha tez tarqatiladi. Bu esa an’anaviy ommaviy axborot vositalariga qaraganda, axborot almashishni yanada tezlashtiradi. Yana bir jihati, ommaviy fikrlarning shakllanishi. Bunda jtimoiy tarmoqlarda odamlar o’z fikrini emin-erkin bildirishi va umumiy muhokama uchun maydon yaratishi orqali ommaviy fikrni shakllantirishda ishtirok etadi. Bu, o‘z navbatida, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi. Va bu jarayon ayniqsa, Facebook platformasida juda ommalashgan. Sababi, ijtimoiy tarmoqda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalar juda ko‘p yoritib boriladi. Ijtimoiy tarmoqlar fuqarolarga o‘z fikrlarini ifodalash va jamiyatdagi muhim masalalar bo’yicha muhokamalarni boshlash imkonini beradi. Shuningdek, ular yangi g’oyalar va fikrlarning keng tarqalishiga ham yordam beradi.

Brending va marketing ham ijtimoiy tarmoqning hozirgi kundagi asosiy vositalaridan biri sanaladi. Ijtimoiy tarmoqlar brending va marketing uchun juda muhim platformaga aylangan, chunki ular brendlarni keng auditoriyaga yetkazish, mijozlar bilan o’zaro aloqalarni o’rnatish va sotuvlarni oshirishda samarali vosita bo’lib xizmat qiladi. Brending va marketingning o’zi ham vaholanki, bir qancha ta’sir vositalarini o’z ichiga qamrab olgan. Ijtimoiy tarmoqlar orqali brendlar o’zlarining maqsadli auditoriyasiga foydali, qiziqarli va estetik jihatdan jozibali kontentlarni taqdim etishlari mumkin. Ya’ni bu ilmiy tilda kontent marketing deb ataladi. Kontent marketing brend va marketingning ajralmas qismiga aylangan. Bu kontentlar (postlar, videolar, infografikalar, maqolalar) brendni yaxshiroq tanitishga, uning imidjini shakllantirishga va auditoriyaning brendga bo’lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Kontent marketingi brendning “qiziqarli” va “eng yaxshi” sifatida ko’rinishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari brending va marketing ichiga Targetlangan reklama ham kiradi. Bu ham ijtimoiy tarmoqlar tarkibiga kirib kelib, ommalashishga ulgurgan ta’sir vositalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda reklama berish uchun juda yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Facebook, Instagram, TikTok, LinkedIn kabi platformalar foydalanuvchilarning qiziqishlari, yosh guruhi, geografik joylashuvi va boshqa ma’lumotlari asosida targetlangan reklamalarni taqdim etish imkonini beradi. Bu esa brendlarning

o’z auditoriyasiga aniq, samarali tarzda yetib borishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi eng kuchli ta’sir vositasi “Influencer marketing”dir. Ya’ni xalq tilida aytadigan bo’lsak, ta’sir qiluvchilar bilan hamkorlik. Ya’ni bunda ijtimoiy tarmoqlarda taniqli shaxslar yoki “influencer”lar (ta’sir qiluvchilar) bilan hamkorlik qilish brendlar uchun o’z mahsulotlarini yoki xizmatlarini yanada kengroq auditoriyaga taqdim etishning samarali usuli sanaladi. Influencerlar o’z auditoriyasiga brend haqida ma’lumot berib, ularning mahsulot yoki xizmatlarga bo’lgan ishonchini oshirishi mumkin. Bu yerda yana bir jihatini hisobga olish kerakki, mahsulotning sifati u haqida to’g’ri axborotdan ko’ra yo’lg’on axborotlar ko’proq beriladi. Ta’sir jihatidan influencer marketing juda yaxshi bo’lishi mumkin, biroq u yerda ijtimoiy tarmoqdagi auditoriya mahsulotga emas influencerga ishonadi.

Brend shaxsiyatini shakllantirish ham brend va marketingning ajralmas qismiga aylanib, ulgurgan. Ijtimoiy tarmoqlar orqali brendlar o’zlarining o’ziga xos shaxsiyatini yaratish va uni auditoriya bilan ulashish imkoniyatiga ega. Misol uchun, brendlar o’zlarining rang palitrasini, logo dizaynini, mavzusini va tilini bir xil tarzda saqlash orqali o’ziga xos imidj yaratib olishgan. Bu, o’z navbatida, brendni yanada tanib olish va u bilan aloqani mustahkamlashga yordam beradi.

Navbatdagisi, Viral marketing va xabarlar tarqalishi. Ijtimoiy tarmoqlar brendlar uchun o’z xabarlarini viral tarzda tarqatish imkoniyatini yaratadi. Agar brendning xabari yoki reklama kontenti foydalanuvchilar tomonidan keng tarqalib, boshqalar bilan ulashilsa, bu brendning tanilishini va uni o’rganish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda marketing faoliyatini amalga oshirgan brendlar o’z faoliyatlarini osonlik bilan monitoring qilish va tahlil qilish imkoniyatiga ega. Platformalar turli xil analitik vositalarni taqdim etadi, bu esa brendlarga o’z reklama kampaniyalarining samaradorligini o’lchash, auditoriya reaksiyalarini o’rganish va kelajakdagi strategiyalarni optimallashtirish imkonini beradi. Monitoring va tahlil qilish ham nafaqat brending va marketingning balki ijtimoiy tarmoqlarning asosiy bo‘g‘ini sanaladi. Biznes tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlardan mahsulotlar va xizmatlarni reklama qilishda foydalanadi. Bu, shu bilan birga, brendlarning mijozlar bilan bevosita aloqasini o’rnatish imkonini yaratadi.

Ana endi tanganing ikkinchi tomoni bo’lganidek, ijtimoiy tarmoqlarda faqat ijobiy axborot emas, balki manipulyatsiyalangan yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar ham tarqaladi. Bu esa jamoatchilikning noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga ham olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlarning hayoti va yashash tarzini ma’lum darajada tushunish mumkin, lekin bu faqat qisman to‘g‘ri va aniq tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi. Ijtimoiy tarmoqlar – Instagram, Facebook, Twitter, TikTok kabi platformalar odamlarning kundalik hayoti, qiziqishlari, faoliyatlari, fikr va his-tuyg‘ulari haqida ko‘p ma’lumotlarni taqdim etadi, ammo bu ma’lumotlar ba’zida yuzaki bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab foydalanuvchilar o‘zlarining eng yaxshi yoki ideal tasvirlarini joylab borishadi. Bu esa hayotning faqat ijobiy yoki jozibali tomonlarini ko‘rsatishga olib keladi. Odamlar odatda muammolarni, qiyinchiliklarni yoki salbiy holatlarni kamroq baham ko‘radilar, shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rgan hayot tarzini to‘liq va aniq tasavvur qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Foydalanuvchilar odatda faqat o‘zlarining shaxsiy qiziqishlari, ijtimoiy guruhlariga oid materiallar yoki ma’lum bir mavzulardagi postlarni ko‘rsatadilar. Shuning uchun ular haqidagi tasavvur o‘zgalar tomonidan qiziqish bildiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rgan hayot tarzlari, boshqalarning muvaffaqiyatlari va hayotining ijobiy tomonlari odamlarni o‘zlarini boshqalar bilan solishtirishga undashi mumkin. Bu holat ba’zan o‘z-o‘zini past baholash va stressni keltirib chiqarishi mumkin. Ba’zi foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlarda faqat o‘zlarining yashirin qismlarini, ya’ni maxfiy yoki shaxsiy ma’lumotlarini baham ko‘rmaslikka intilishadi. Bu shaxsiy hayotni faqat umumiy va yuzaki tarzda bilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlarning qiziqishlari, hobbilari, ish faoliyati yoki ba’zi xatti-harakatlari haqida ma’lumot olish mumkin, lekin bu faqat bir qismini ko‘rsatadi va real hayotning to‘liq tasavvurini hosil qilish uchun yetarli emas. Insonlarning to‘liq hayot tarzini tushunish uchun esa ularning shaxsiy hayotini bilish talab etiladi. Afsuski, bu ma’lumotlarni hamma bilmaydi va ko’rganiga ishonadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda axborot manipulyatsiyasi — bu onlayn platformalarda ma’lumotlarni sun’iy ravishda ta’sir qilish, buzish yoki tartibga solish orqali odamlarning fikrlarini yoki qarorlarini manipulyatsiya qilish jarayonidir. Bu manipulyatsiya odatda siyosiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy maqsadlar

uchun amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot manipulyatsiyasining bir nechta shakllari mavjud va ularning har biri jamiyatda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Birinchisi, soxta yangiliklar (fake news) — bu odamlarni chalg'itish yoki ularni noto'g'ri axborot bilan aldaydigan xabarlar yoki maqolalar. Soxta yangiliklar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladi, chunki ular odamlarni kuchli hissiy reaksiyalarga undaydi (masalan, qo'rquv, g'azab, hayrat). Bu turdagi xabarlar keng auditoriyaga yetkazish orqali jamiyatdagi fikrni manipulyatsiya qilish yoki manipulyativ maqsadlarda foydalaniladi.

Ikkinchisi esa botlar va avtomatik hisoblar. Ijtimoiy tarmoqlarda botlar (avtomatik hisoblar) va fake (soxta) profil sahifalaridan foydalanish — bu odamlarni manipulyatsiya qilishning yana bir usuli. Botlar ko'pincha ma'lum bir post yoki hashtagni ommalashtirish, soxta muhokamalar yaratish, hatto ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on fikrlar tarqatish uchun ishlatiladi. Bu xatti-harakatlar postlarning keng tarqalishini ta'minlashga yordam beradi, shuningdek, muayyan mavzularda soxta fikrlar shakllanishiga sabab bo'ladi.

Uchinchisi esa Echo chamber (Yangilanadigan palata) va filter bubble (Filtrli bulut). Ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari foydalanuvchilarni o'z qiziqishlari va ilgari ko'rgan postlari asosida ko'proq kontentni ko'rsatishga moyil. Bu jarayon, "echo chamber" (yangilanadigan palata) yoki "filter bubble" (filtrli bulut) deb ataladi . Natijada, foydalanuvchilar faqat o'z fikriga o'xshash yoki ularni tasdiqlovchi ma'lumotlarni ko'rishadi va boshqa fikrlarni e'tiborsiz qoldirishadi. Bu esa jamoatchilikda fikrlar o'zgarishiga, monopoliya sifatida ma'lum bir fikrning o'sishiga olib kelishi mumkin.

To'rtinchisi, reklama va manipulyatsiya. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zini namoyon etuvchi reklama ham manipulyatsiyaning bir shakli bo'lishi mumkin. Reklama orqali foydalanuvchilarga ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan, ma'lum bir brend yoki mahsulotni sotib olishga undovchi kontent taqdim etiladi. Bu reklama orqali odamlarning qarorlari, hatto ularning shaxsiy hayoti, ishonchi yoki siyosiy qarashlari manipulyatsiya qilinishi mumkin.

Beshinchisi esa, Memlar va vizual manipulyatsiya. Memlar — bu ijtimoiy tarmoqlarda tezda tarqaladigan kulgili yoki satirik tasvirlar, jumlalar yoki videolar. Ammo, ba'zan memlar ma'lum bir maqsadda noto'g'ri yoki manipulyatsion ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Memlar tez tarqalishi va osonlikcha keng auditoriyaga etkazilishi sababli, ular axborot manipulyatsiyasining samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Siyosiy manipulyatsiya. Ijtimoiy tarmoqlar siyosiy manipulyatsiya uchun ham kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy guruhlar va hukumatlar ijtimoiy tarmoqlarni o'z siyosiy maqsadlari uchun ishlatishi mumkin, masalan, saylovlarda nomzodlar uchun qo'llab-quvvatlash yig'ish, ma'lum bir siyosiy qarorlarni qabul qilishga ko'ndirish yoki jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish. 2016-yilgi AQSh prezidentlik saylovi va Brexit referendumida ijtimoiy tarmoqlardagi axborot manipulyatsiyasi haqida katta munozaralar bo'ldi, bu esa ijtimoiy tarmoqlarning o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

Navbatdagisi, Emotsional manipulyatsiyadir. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar ko'pincha o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini ifodalashadi. Ba'zida bu imkoniyatdan noto'g'ri maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Emotsional manipulyatsiya — bu odamlarni kuchli hissiy reaksiyalarni yuzaga keltiradigan kontent orqali boshqarishdir. Misol uchun, qo'rquv, shafqatsizlik yoki g'azabni uyg'otadigan tasvirlar yoki yangiliklar tarqatish, odamlarni ma'lum bir qarorga undash yoki ularni shubhalanishga yo'naltirish uchun ishlatiladi.

Va nihoyat oxirgisi, Algoritmik manipulyatsiya. Ijtimoiy tarmoqlarda ishlatiladigan algoritmlar, foydalanuvchilarga qanday kontent ko'rsatishni tanlashda muhim rol o'ynaydi. Algoritmlar o'z-o'zidan manipulyatsiya qilinishi mumkin, masalan, ma'lum bir turdagi postlarni yoki sharhlarni ko'rsatish yoki yashirish. Bu, o'z navbatida, odamlarning ma'lum bir mavzu yoki shaxsga bo'lgan qarashlarini shakllantirishga olib keladi. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot manipulyatsiyasi jiddiy xavf tug'dirishi mumkin, chunki u jamoatchilik fikrini buzish, yolg'on yoki manipulyatsion ma'lumotlar tarqatish orqali odamlarning qarorlarini yoki fikrlarini o'zgartirishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarda faqat ishonchli va manbai tasdiqlangan axborotlarni iste'mol qilish, shuningdek, har bir xabarni tahlil qilish va boshqa manbalarni tekshirish juda muhimdir.

Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, TikTok, Twitter) zamonaviy media makonining eng katta qismi hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar nafaqat shaxsiy muloqot qiladi, balki turli brendlar, tashkilotlar, va hattoki davlatlar ham keng auditoriya bilan tezkor aloqada bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Misol sifatida Nike brendini keltirish mumkin. U Instagram platformasida doimiy ravishda video va suratlar orqali mahsulotlarini targ‘ib qilib, millioner auditoriyaga erishadi va foydalanuvchilar bilan bevosita muloqot qiladi. Nike’ning #justdoit kampaniyasi global miqyosda mashhur bo‘lib, ijtimoiy tarmoqdagi kuzatuvchilar orqali minglab odamlar sport bilan shug‘ullanishga undadi.

2. Videokontent. Videokontent zamonaviy media makonda eng ta’sirchan vositalardan biridir. YouTube, Instagram Reels, va TikTok kabi platformalarda video orqali ma’lumot yetkazish samaradorligi va tezligi boshqa ommaviy axborot vositalariga nisbatan ancha yuqori. Misol uchun, YouTube foydalanuvchilari har kuni 1 milliarddan ortiq soat video tomosha qilishadi. MrBeast (YouTube blogeri) o‘zining filantropik va o‘yin-kulgi mazmunidagi videolari orqali keng jamoatchilik orasida mashhurlikka erishdi. U bir videoda 10 ming dollarlik pulni tasodifiy odamlarga tarqatdi va bu harakat bir kunda millionlab tomoshalarga erishdi . Bu nafaqat axborot tarqatishning kuchini, balki ko‘p odamlarga bir xil ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini ham namoyon etdi.

Videokontentlar zamonaviy medianing ta’sir vositasi sifatida juda muhim rol o’ynaydi. Bugungi kunda video materiallar nafaqat axborot uzatishda, balki odamlar fikrini shakllantirish, ijtimoiy va siyosiy mavzularda muhokamalarni olib borish, brendlar va kompaniyalar uchun marketing strategiyalarini amalga oshirishda ham keng qo’llaniladi.Videokontentning ta’sirini quyidagi jihatlar bilan tahlil qilish mumkin:

- Emotsional ta’sir. Video materiallar rasm, ovoz va harakatlarni birlashtirib, tomoshabinlarda kuchli emotsional ta’sir yaratishi mumkin. Bu orqali odamlar sezgirlik, qo’rquv, quvonch yoki boshqa his-tuyg’ularni his qilishadi, bu esa videoning ta’sirini kuchaytiradi.
- Ma’lumotni samarali yetkazish. Video tez va samarali tarzda murakkab axborotni tushunarli qilib yetkazishga yordam beradi. Animatsiyalar, infografikalar va vizual effektlar ma’lumotni yanada aniqroq va yodda qolishi osonroq qiladi.
- Ijtimoiy tarmoqlardagi ta’sir. Video kontent ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladi va osonlik bilan keng auditoriyaga yetib boradi. YouTube, TikTok, Instagram kabi platformalarda foydalanuvchilar tomonidan tez-tez ulashiladigan videolar ommaviy madaniyatni shakllantiradi.
- Marketing va reklama. Videolar brendlar va kompaniyalar uchun kuchli reklama vositasi bo’lib xizmat qiladi. Video reklama yuqori konversiya darajasiga ega bo’lishi mumkin, chunki u auditoriya bilan chuqur bog’lanishga yordam beradi.

Umuman olganda, videokontent zamonaviy medianing ajralmas qismiga aylangan va uning ta’sirini turli sohalarda ko‘rish mumkin. Bu uning ahamiyatini yanada oshiradi, chunki videolar nafaqat axborot uzatishda, balki ta’sir ko‘rsatishda ham o‘zining benihoya kuchini namoyon etadi.

3. Podkastlar. Podkastlar zamonaviy media makonda eng keng ommalashib borayotgan audio platformalardir. The Joe Rogan Experience kabi dunyo miqyosida mashhur podkastlar siyosat, fan, sport va boshqa sohalarda millionlab tinglovchilarga yetib boradi. 2021-yilda Spotify bu podkastni sotib olib, ushbu sohaga katta mablag‘ sarfladi va bu orqali podkastlarni media makonining muhim qismiga aylantirdi.

Podkast — bu audio shaklida taqdim etilgan, odatda seriyalar orqali chiqariladigan, ma’lum bir mavzu yoki tema atrofida yaratilgan kontentdir. Podkastlar odatda onlayn platformalarda tarqatiladi va ular foydalanishga qulay, ya’ni eshituvchi istalgan vaqtda va joyda tinglash imkonini beradi. Podkastlar turli janrlarda bo’lishi mumkin: ta’lim, intervyular, hikoyalar, kulgu, texnologiya, siyosat va boshqa ko’plab mavzularni o’z ichiga oladi. Podkastlarning tarixi 2000-yillarning boshlariga borib taqaladi. Ularning kelib chiqishiga asosiy turtki, 2001-yilda RSS (Really Simple Syndication) texnologiyasining rivojlanishi va “audioblogs” yoki “netcasting” degan yangi formatlarning paydo bo’lishi bo’ldi. Bunda, foydalanuvchilar internet orqali avtomatik ravishda yangi audio fayllarni yuklab olish imkoniyatiga ega bo’lishdi. “Podkast” atamasi esa, 2004-yilda BBC jurnalisti Ben Hammersley tomonidan, Apple kompaniyasining iPod nomli musiqa pleerini eslatib, “broadcast” (translyatsiya qilish) va “iPod”

so’zlarini birlashtirgan holda yaratilgan. Bu yangi kontent formati o’zining mobil qulayligi va eshitishning oddiyligi tufayli tezda mashhurlikka erishdi . Podkastlar, ayniqsa, internet tezkor rivojlanishi va mobil qurilmalar (smartfonlar, planshetlar) keng tarqalishi bilan keng ommalashdi. Ular odamlarning o’z vaqtlarini samarali tashkil qilishiga yordam beradi, chunki ishda yoki transportda bo’lishar ekan, podkast tinglash orqali ma’lumot olish yoki ko’ngil ochish mumkin.

Podkastlarning zamonaviy mediadagi o‘rni nihoyatida katta va tobora kengayib bormoqda. Bugungi kunda, podkastlar nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki axborot tarqatish, ta’lim, biznes va marketing sohalarida ham muhim platformaga aylangan. Auditoriyani jalb qilish va uzoq muddatli aloqalar o‘rnatishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Podkastlar tinglovchilarga keng qamrovli, chuqur va samarali muloqot o‘rnatish imkonini beradi. Ular odatda bir necha soat davomida tinglanadi, bu esa auditoriyani uzoq vaqt davomida ushlab turish va ularga samarali ta’sir qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, podkastlar odatda o‘z auditoriyasini qattiq bog‘lab oladi, chunki odamlar o‘z sevimli podkastlariga sodiq qolishadi ham. Bundan tashqari, podkastlar ta’lim va bilim tarqatishda samarali vosita bo‘lib, har xil mavzularni o‘z ichiga oladi: tarix, ilm-fan, texnologiya, psixologiya, biznes, siyosat va boshqalar. Ko‘plab universitetlar, kompaniyalar va ekspertlar o‘z bilimlarini va tajribalarini podkastlar orqali baham ko‘rmoqdalar. Bu format auditoriyaga oson va qulay tarzda ma’lumot olish imkoniyatini taqdim etib kelmoqda. Shuningdek, ko‘plab brendlar va kompaniyalar podkastlarni marketing strategiyasiga kiritib, o‘z auditoriyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Podkastlar orqali reklama qilish, mahalliy va global brendlarni ilgari surish, shuningdek, mahsulot yoki xizmatlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish mumkin. Brendlar, podkastlar orqali o‘z hikoyalarini toldiradi, bu esa mijozlar bilan yanada mustahkam aloqalar o‘rnatishga yordam beradi. Shu bilan birga podkastlar orqali ijtimoiy, madaniy va siyosiy muammolarni yoritishda ham samarali vosita sifatida foydalanilmoqda. Ular ijtimoiy adolat, tenglik, ekologiya va boshqa muhim masalalarni muhokama qilish uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, podkastlar ko‘pincha kichik guruhlar yoki muayyan jamiyatlar uchun o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkonini beradi. Podkastlar texnologiyalarning rivojlanishi bilan yanada kuchaymoqda. Internetning keng tarqalishi, mobil qurilmalarning ommalashuvi va audio platformalarning rivojlanishi ularning o‘sishiga katta turtki bo‘ldi. Spotify, Apple Podcasts, Google Podcasts kabi platformalar podkastlarni eng keng tarqalgan va ommabop formatlarga aylantirdi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda, bloglarda, video platformalarda odatiy vizual kontentdan farqli o‘laroq, podkastlar o‘ziga xos tarzda, eshitish orqali ma’lumot olishni taqdim etadi. Bu madaniyat ayniqsa, multitasking qilishni xohlagan va vaqtini optimallashtirishni istagan zamonaviy auditoriyaga mos keladi. Ta’kid etish joizki, podkastlar zamonaviy mediadagi o‘rnini yanada mustahkamladi. Ular nafaqat axborot va ko’ngil ochar kontentni taqdim etish, balki jamiyatda fikr almashish, ta’lim berish, brendlarni yaratish va yangi ijtimoiy tarmoqlar madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaymoqda.

4. Virtual va Argumented Reality (VR/AR). VR va AR texnologiyalari media makonining kelajagi sifatida qaralmoqda. Virtual reality (VR), augmented reality (AR) va extended reality (XR) zamonaviy medianing asosiy yo’nalishlarini tashkil etadi. Bu texnologiyalar axborot va tajriba olish usullarini tubdan o’zgartiradi, foydalanuvchilarga yangi, interaktiv va immersiv imkoniyatlarni taqdim etadi.

Virtual Reality (VR)— bu texnologiya foydalanuvchini to’liq raqamli muhitga botirib, unga hatto fizikal dunyodan ham ajralib turish imkonini beradi. VR ko’pincha o’yinlar, treninglar, simulyatsiyalar va film sanoatida ishlatiladi.

Augmented Reality (AR) esa real dunyo bilan birgalikda raqamli elementlarni ko’rsatadi. Masalan, smartfon yoki ko’zoynak orqali foydalanuvchi haqiqiy muhitga virtual obyektlarni qo’shishi mumkin. ARdan marketing, ta’lim, sog’liqni saqlash va boshqa sohalarda keng qo’llaniladi.

Extended Reality (XR), bu atama VR, AR va ularning kombinatsiyasidan tashkil topgan kengroq sohani ifodalaydi. XR texnologiyalari foydalanuvchilarga real va virtual dunyo o’rtasida keskin farq qiladigan tajribalarni yaratib beradi. Bu texnologiyalar media va kommunikatsiya sohasini rivojlantirib, yangi usullarda axborot uzatish, o’yinlar yaratish va marketingni takomillashtirishda katta rol o‘ynaydi.

5.Sun’iy intellekt. Sun’iy intellekt media makonda kontent yaratish va taqdim etishda muhim

rol o‘ynayotgan va foydalunvchilar uchun ommalashishga ulgurgan vositaga aylanib bo’ldi. Uning imkoniyatlari axborotni yaratish yoki qayta ishlashda hozirgi kunda juda qo’l kelmoqda. Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy media sohasida katta o’rin egallab, turli yo’nalishlarda ishlatilmoqda. U nafaqat kontent yaratish, balki foydalanuvchilar bilan o’zaro aloqada bo’lish va ma’lumotlarni tarqatishda ham muhim rol o’ynamoqda. Quyida SIning zamonaviy media sohasidagi ba’zi asosiy o’rinlarini ko’rib chiqadigan bo’lsak,

SI, matn, tasvir va video kontentlarini yaratishda keng foydalanilmoqda. Masalan,

Jurnalistikada avtomatik ravishda maqolalar yoki xabarlarni tarqatish, sport yoki moliya yangiliklarini real vaqt rejimida yaratish.

Ijtimoiy mediada SI algoritmlari foydalanuvchilarni qiziqtirgan kontentni tavsiya qilish orqali ular bilan aloqani kuchaytiradi. Facebook, Instagram va TikTok kabi platformalar foydalanuvchi xulq-atvorini tahlil qilib, kontentni individual tarzda moslashtiradi. Video yaratishda esa Deepfake texnologiyasi va SI yordamida video montaj qilish va yangi tasvirlar yaratish mumkin. Bular ko’plab kino va reklama industriyasidafoydalanilmoqda.

SI texnologiyalari foydalanuvchining ilgari ko’rgan yoki o’qigan kontentiga asoslanib yangi tavsiyalar berishda samarali vosita hisoblanadi. Netflix, YouTube, Spotify kabi platformalar foydalanuvchilarni qiziqtirishi mumkin bo’lgan film, video yoki musiqa kontentini aniq tavsiya qilishda SI algoritmlaridan foydalanadi.

Sun’iy Intellekt yordamida ishlov beriladigan NATURAL LANGUAGE PROCESSING (NLP) texnologiyalari orqali media kompaniyalari foydalanuvchilar bilan avtomatik tarzda muloqot qilishadi. Masalan:

•Chatbotlar: Ijtimoiy tarmoqlar va yangiliklar saytlarida chat-botlar foydalanuvchilarga tezkor javoblar va maslahatlar beradi.

•Matn tahlili: Matnlarni tahlil qilish va sentimentni aniqlash orqali, SI auditoriya fikrini, trendlarni kuzatishda yordam beradi.

SI yordamida avtomatik tarjima va subtitrlar yaratish imkoniyati kengaygan. Google Translate va boshqa avtomatik tarjima tizimlari yordamida, til to’siqlari bartaraf etiladi va kontentni global darajada tarqatish osonlashadi.

SI, o’zining tahlil qilish va optimallashtirish imkoniyatlari yordamida sarlavhalarni yaratish va SEO (Search Engine Optimization) strategiyalarini amalga oshirishda qo’llaniladi. SI tizimlari ma’lum bir soha yoki auditoriya uchun qiziqarli bo’lgan sarlavhalar va kalit so’zlarni taklif qilishadi. SI texnologiyalari, soxta yangiliklarni aniqlashda ham muhim rol o’ynamoqda. Algoritmlar noto’g’ri ma’lumotlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish uchun ishlatiladi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumotlarni tarqatish va xavfsizlikni ta’minlashda juda zarur. Sun’iy intellekt orqali video o’yinlar, multfilmlar yaratishda va interaktiv media sohasida ham foydalanilmoqda. O’yinlarda, masalan, kompyuterning sun’iy intellekti raqiblarni boshqaradi, hikoyalarni rivojlantiradi yoki o’yinchilarni qiziqtiradigan vazifalarni yaratadi. Interaktiv kontentda esa SI foydalanuvchining harakatlariga javob berib, tajriba hamda o’yin jarayonini shaxsiylashtiradi.

Shuningdek, Sun’iy intellekt media sanoatida reklama va marketingni optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. SI algoritmlari foydalanuvchining xarid qilish odatlari va qiziqishlariga asoslanib shaxsiylashtirilgan reklama yaratadi, bu esa media kompaniyalari uchun daromadlarni oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Sun’iy intellekt zamonaviy media sanoatining ajralmas qismiga aylangan. Uning yordamida kontent yaratish, reklama, foydalanuvchilar bilan aloqada bo’lish va soxta ma’lumotlarga qarshi kurashish mumkin bo’ladi. Shu bilan birga, SI texnologiyalarining keng tarqalishi bilan media sohasida yangi axloqiy va ijtimoiy savollar ham paydo bo’lmoqda. Ta’kidlash joizki, Netflix, YouTube va Spotify kabi platformalar sun’iy intellekt yordamida foydalanuvchilarning qiziqishlariga mos kontent tavsiya qiladi. Bu platformalar foydalanuvchilarga mos tavsiyalar berish orqali ularning kontentdan foydalanish tajribasini yaxshilaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi ChatGPT kabi chatbotlar media makonida ma’lumot yetkazish va muloqotni avtomatlashtirishda qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar yordamida

media kompaniyalari foydalanuvchilar bilan tezkor aloqada bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Zamonaviy media makon texnologik rivojlanish bilan birga tezkor, interaktiv va ko‘p qirrali muloqot maydoniga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar, videokontent, podkastlar, VR/AR texnologiyalari va sun’iy intellekt yordamida nafaqat muloqot shakllari, balki insonlarning qarorlari, dunyoqarashi va kundalik hayotini ham o‘zgartirib yubordi. Media makonning yanada rivojlanishi yangi texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon kelajakda inson hayotiga yanada ko‘proq ta’sirini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Johnson, P. (2023). The Role of Social Media in Global Marketing. Journal of Business Studies, 28(1), 15-29.

2. Chen, Q., & Xie, Y. (2022). Social Media Marketing and Consumer Engagement: New Insights. Journal of Interactive Marketing, 59, 24-32.

3. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2021). YouTube as a Tool for Social Change: The Case of MrBeast. Harvard Business Review, 99(7), 42-51.

4. Brown, K. (2020). TikTok and the Rise of Micro-Influencers. Journal of Digital Culture, 34(6), 57-65.

5. Rogan, J. (2020). The Power of Podcasts in Modern Media. Modern Broadcasting Studies, 12(4), 88-102.

6. Johansson, P. (2019). AR in Retail: The IKEA Case Study. Business Innovation Quarterly, 27(2), 35-48.

7. Jones, T. (2022). AI-Driven Media: Shaping the Future of Content. Journal of Technology and Society, 14(5), 65-78.

TALABALARDA SPORT TURIZMI KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING UMUMIY MOHIYATI

Xudoyberdiyeva Sevara Muhammadolim qizi,
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
https://orcid.org/0000-0002-4767-6783

Annotatsiya: Sport turizmi, aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mazkur soha iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda taraqqiy etgan, yoshlar o‘rtasida keng ommalashgan. Sport turizmi, garchi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda katta imkoniyatga ega bo‘lishiga qaramay O‘zbekistonda bu soha hali u qadar rivojlanmagan. Shu bois yoshlar o‘rtasida keng ko‘lamda ommalashmagan. Mazkur holatga barham berish maqsadida so‘nggi besh yil ichida respublikada sport turizmini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublika yoshlarining salmoqli qismini talabalar tashkil qiladi. Talabalar o‘rtasida sport turizmining keng ommalashishi bevosita yoshlarda sohaga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Bu esa talabalarda sport turizmi ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosini pedagogik jihatdan o‘rganishni taqozo qiladi. Maqolada talabalarda sport turizmi ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmuni xususida so‘z yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: talabalar, turizm, sport turizmi, sport turizmi ko‘nikmalari, rivojlantirish, sport turizmi ko‘nikmalarini rivojlantirish.

ОБЩАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА У СТУДЕНТОВ

Аннотация: Спортивный туризм занимает особое место в пропаганде здорового образа жизни среди населения, особенно среди молодежи. Эта сфера получила развитие в экономически развитых странах и пользуется широкой популярностью среди молодежи. Несмотря на то, что спортивный туризм имеет большие возможности для пропаганды здорового образа жизни, в Узбекистане эта сфера пока не развита. Поэтому он не пользуется широкой популярностью среди молодежи. В целях устранения этой ситуации в последние пять лет особое внимание уделяется развитию спортивного туризма в республике. Значительную часть молодежи республики составляют студенты. Широкая популярность спортивного туризма среди студентов напрямую повышает интерес к этой сфере среди молодежи. Это требует педагогического изучения проблемы развития навыков спортивного туризма у студентов. В статье говорится о содержании развития навыков спортивного туризма у студентов.

Ключевые слова: студенты, туризм, спортивный туризм, навыки спортивного туризма, развитие, развитие навыков спортивного туризма.

THE GENERAL ESSENCE OF DEVELOPING SPORT TOURISM SKILLS IN STUDENTS

Abstact: Sports tourism has a special place in promoting a healthy lifestyle among the population, especially among young people. This field has developed in economically developed countries and is widely popular among young people. Despite the fact that sports tourism has a great opportunity to promote a healthy lifestyle, this field is not yet developed in Uzbekistan. Therefore, it is not widely popular among young people. In order to eliminate this situation, special attention has been paid to the development of sports tourism in the republic in the last five years. A significant part of the republic’s youth is made up of students. The widespread popularity of sports tourism among students directly increases the interest in the field among young people. This requires a pedagogical study of the problem of developing sports tourism skills in students.

The article talks about the content of developing sports tourism skills in students.

Keywords: students, tourism, sports tourism, sports tourism skills, development, sports tourism skills development.

Kirish. Zamonaviy sharoitda “barcha infratuzilmalarni rivojlantirishga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa” [3, – 260-b.] bo‘lgan turizm, uning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan sport turizmi har bir jamiyatning muhim tarkibiy elementiga aylanmoqda. Binobarin, jahon tajribasi turizmni rivojlantirish, sayyohlik xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali “mahalliy daromadlarni ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, sayyohlik xizmatlari va ishlab chiqarish bilan bog‘liq holda barcha sohalarning takomillashuvini ta’minlash, sayyohlik markazlarida ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmaning rivojlanishiga erishish, milliy hunarmandchilik faoliyatining faollashuvi hamda milliy madaniyatning taraqqiy qilishi uchun sharoitni yaratish, mahalliy aholi turmush darajasining o‘sishiga yordam beruvchi potensialni yaratish, xorijiy valyuta tushumini ko‘paytirishga erishish” [2] mumkinligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajribaning ko‘rsatishicha, turizm Shveysariya, Fransiya, Italiya, Angliya, AQSH, Ispaniya, Turkiya, BAA, Hindiston, Xitoy, Misr, Rossiya kabi mamlakatlar yalpi milliy daromadini shakllantiruvchi sohalar o‘rtasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu holat so‘nggi chorak asr mobaynida diqqatga sazovor geografik muhit, madaniy-tarixiy ob’yektlar, ko‘ngilli dam olish va hordiq chiqarishga xizmat qiluvchi tabiiy ob’yektlar (dengiz, tog‘lar)ga ega Gruziya, Ozarbayjon, Tayvan, Vyetnam kabi mamlakatlarda ham turizmni rivojlantirish milliy rivojlanish strategiyasi asosini tashkil etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Tahlillar shundan dalolat beradiki, ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda turizmdan keladigan daromad boshqa sohalarga qaraganda ancha ko‘proq valyuta tushumlarini keltiradi. Masalan: Turkiya yiliga 4-5 mlrd. dollarlik tovar eksport qilsa, turizm faoliyatidan 10 mlrd. dollardan ortiq daromad oladi” [3, 260-261 b.]. Mamlakat hududidan xomashyo, resurs chiqarmay turib, milliy iqtisodiyotga xorijiy valyutani yo‘naltirish imkoniyatining mavjudligi jamiyatda turizm va sport turizmini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Turizm va sport turizmi bilan shug‘ullanish nafaqat iqtisodiy afzalliklarga erishish bilangina cheklanib qolmay shaxs kamolotiga ijtimoiy, ma’naviy va ruhiy ta’sir ko‘rsatadi. Sport turizmi o‘zining funksional mohiyatiga ko‘ra shaxsning “jismoniy faolligini oshiradi, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi hamda ijtimoiy sub’yektlar bilan do‘stona munosabatda bo‘lish malakalarini shakllantiradi... Qolaversa, sport turizmi ta’lim oluvchilarga o‘zlarining jismoniy yetukliklarini yaxshilashga, o‘zlarida yetakchilik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, shuningdek, o‘z kuchiga ishonish, qiyinchiliklarni yengish malakalarini samarali o‘zlashtirishga yordam beradi” [5].

Qolavayersa, sport turizmi shaxsda irodaviy sifatlarni samarali shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli sport turizmi bilan shug‘ullanish talabalarni nafaqat ma’naviy-axloqiy kamol topishini, balki jismoniy chiniqishi, irodaviy yetuklikka erishishiga ham yordam beradi. Turizmning mazkur turi bilan shug‘ullanish orqali talabalarda mustaqillik, qat’iyatlilik, dalillik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, maqsadga intiluvchanlik, vazminlik, ishchanlik, har qanday vaziyatda ham o‘zini yo‘qotmaslik, bardoshlilik, botirlik kabi irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

Jahon turizmi tajribasiga tayangan holda so‘nggi besh yil ichida O‘zbekistonda ham turizm, xususan, sport turizmini rivojlantirishga tadbirkorlikning muhim yo‘nalishi sifatida davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Shunga qaramay, hozircha sohaning o‘ziga xos turi bo‘lgan sport turizmi aholi, xususan, yoshlar orqasida hali u qadar keng ommalashmadi. Mavjud holat sohani rivojlantirish yo‘lida majmuaviy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Majmuaviy chora-tadbirlar orasida yoshlar, shu jumladan, ularning faol qatlami bo‘lgan talabalar o‘rtasida sport turizmi ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat muhim o‘rin tutadi.

“Shaxsning o‘zini rivojlantirish uchun talab qilinadigan qadriyatlar, ularni qoniqtiradigan

ijtimoiy ehtiyojlarni yuzaga keltiradigan yo‘nalganligi” [1, – s. 369] bilan tavsiflanadigan sport turizmiga nisbatan yoshlar, ularning faol qatlami bo‘lgan talabalarning qiziqish, ehtiyoj, motivatsiyalarini oshirish, ularda sport turizmi ko‘nikmalarini rivojlantirish ana shu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-nazariy, amaliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi bilan bog‘liq.

Bu quyidagi masalalarning ijobiy hal qilinishiga e’tibor qaratish lozim:

1) tashkiliy-nazariy masalalar: fanlararo (xususan, “Tabiiy geografiya va jismoniy tarbiya falari o‘rtasidagi) integratsiyaga erishish; mazkur integratsiyaning fan dasturlari mazmunida aks etishini ta’minlash; fanlararo integratsiyaga muvofiq auditoriyadan tashqari sharoitda talabalarni sport turizmiga jalb qilish choralarini belgilash; oliy ta’lim muassasasi (OTM)ning moddiy-texnik ta’minotidan kelib chiqqan holda yoki sayyohlik agentliklari, sport majmualari bilan o‘zaro kollaboratsiya asosida talabalarda sport turizmi ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘quv-amaliyot poligonlari – talabalar sayyohlik agentligi, talabalar turistik bazasi, sport turizmi musobaqasi uyushtiriladigan ob’yekt (suv havzasi, sun’iy yoki tabiiy tog‘ cho‘qqisi, avto, moto, velo yoki ot poygalar uchun yo‘laklar, piyoda safarni amalga oshirish uchun yo‘nalish) va boshqalarga ega bo‘lish; talabalarning sport turizmi jihoz va vositalari bilan ta’minlanishi; jarayonga malakali sport yo‘riqchilari (instruktorlar)ning jalb qilinishi; sport turizmining maqsadi, vazifalari, ustuvor tamoyillari va asosiy funksiyalarini yorituvchi o‘quv va yordamchi adabiyotlar (mashq, masala, keys va testlar to‘plami; o‘quv va dala amaliyotlarini o‘tkazish tartibi), ko‘rgazmali qurollarning mavjudligi; talabalarning sport turizmi bilan izchil shug‘ullanishlarini o‘rganib borishga yo‘naltirilgan monitoring tizimi;

2) amaliy-metodik masalalar: fanlararo integratsiya aks etgan o‘quv dasturi; “Talabalar sport turizmi klubi” dasturi; talabalar uchun sport turizmini tashkil etishga oid yo‘riqnoma; sport turizmi turlari bo‘yicha xavfsizlik qoidalarini yorituvchi estalik; talabalarda sport turizmi ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid metodika; o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar ishlanmalari; talabalarda sport turizmi ko‘nikmalari rivojlanganligini aniqlash va baholashga oid mezonlar, baho ko‘rsatkichlari; ish hujjatlari.

Muhokama. Sport turizmini tashkil qilishda shaxsning muayyan jihoz va vositalar bilan qurollanishi talab qilinadi. Shunga ko‘ra OTMda talabalarni sport turizmiga faol jalb qilish, ularda tegishli turdagi turizm bilan shug‘ullanish ko‘nikmalarini rivojlantirishda, eng avvalo, ularning zarur jihoz va vositalar bilan qurollanishlariga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘rinda talabalarga sport turizmi bilan shug‘ullanish uchun talab qilinadigan jihoz va vositalarga oid quyidagi ma’lumot beriladi: harakat yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiluvchi kompas; sayyoh-talaba turgan joy manziliga oid axborotlarni uzatuvchi GPS (signal qabul qiluvchi qurilma), planshet, mobil telefon (smartfon), “aqlli soat”, navigator qurilmasi; gurut yoki o‘t oldirgich; fonar (shishali chiroq va maxsus akkumlyator); himoyalovchi ko‘zoynak; quyosh nuridan himoyalovchi krem; sayyohlarga mo‘ljallangan pichoq; maxsus yoki sport kiyimlari (issiq saqlovchi ich kiyim, qalin, jemper, kurtka, qo‘lqop, veloseped haydovchilarning maxsus kiyimi, shlem yoki kaska); maxsus yoki sport oyoq kiyimi (botinka, krossovka, issiq va yupqa paypoqlar); hashoratlardan himoyalovchi vositalar; birinchi tibbiy yordam qutisi; sayyohlar qozoni, termos va safar idishlari (kichik hajmli isitgichlar); kichik sayyohlar chodiri; arqon; arqonlar uchun xavfsizlik vositalari; velosiped.

Yoshlar, shu jumladan, talabalarda sport turizmiga bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj va motivatsiyani oshirish uchun ko‘rgazmali targ‘ibot ishlarini olib borish talab qilinadi. Targ‘ibotni olib borish chog‘ida dastlab sport turizmiga bo‘lgan qiziqish ikki ko‘rinishda namoyon bo‘lishini tushuntirib o‘tish zarur. Ijtimoiy sub’yektning sport turizmiga bo‘lgan qiziqishi uning faol va sust ishtirokchi bo‘lishi bilan belgilanadi. Faol ishtirokchi bo‘lish shaxsning sport turizmining muayyan turi bo‘yicha doimiy shug‘ullanishini, ushbu sport turida o‘zini namoyon qilishni, shaxsiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishini anglatadi. Sust ishtirokchi bo‘lish esa shaxsning sport turizmining muayyan turi bo‘yicha o‘tkaziladigan musobqalarni izchil kuzatib borishdan iborat

harakatlarini ifodalaydi.

OTMning talabalari orasida turizmning mazkur turini keng targ‘ib qilishga qaratilgan pedagogik faoliyat samaradorligi bu jarayonning izchil, tizimli tashkil qilinishini taqozo etadi. Amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat jarayonida talabalarda quyidagi sport turizmiga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir: birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish; jarohatlangan (shikastlangan)lar evakuatsiya qilishni tashkillashtirish va uni amalga oshirish; palatkalar o‘rnatiladigan yoki vaqtinchalik to‘xtaladigan joylarni to‘g‘ri tanlash; suv oqimini kechib o‘tish yoki tog‘ qoyalariga chiqishda qo‘llaniladigan arqonlar va texnik vositalardan to‘g‘ri foydalanish; muayyan to‘siqlarda oqillik bilan ehtiyot choralarini ko‘rish; turli xarakterga ega harakat texnikalarini egallash va ularni yuqori darajada o‘zlashtirish; guruhning harakatlanish tartibini to‘g‘ri tashkillashtirish va amalga oshirish; ekstremal sharoitlar (kuchli jala, qor vaqtida, suv havzalarida suv ko‘payganda, yetarlicha oziq-ovqat manbasi bo‘lmagan, guruh bilan aloqa yo‘qolib qolgan jarayon)da to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘z-o‘ziga yordam ko‘rsatish; safarlarda ovqatlanish menyusini tuzish, ovqat tayyorlash va guruhdoshlar o‘rtasida ovqat mahsulotlarini to‘g‘ri taqsimlash; turli vaziyatlarda olov yoqish va uning o‘chib qolmasligini ta’minlash; murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘nalish olish va harakatlanish; ishdan chiqqan texnik vositalarni ta’mirlash olish; guruhdoshlar o‘rtasida ziddiyatlar kelib chiqishining oldini olish va bartaraf qilish; ekstremal vaziyatlarda ishlar va harakatlarni taqsimlash.

Sport turizmini bilan samarali shug‘ullanish uchun talabalar qo‘shimcha ravishda quyidagi ko‘nikmalari o‘zlashtira olishlari zarur: sayohat joyida istiqomat qiluvchi aholining tilini muloqot darajasida bilish; sayohat tashkil qilinayotgan maskan va uning tabiatiga oid bilimlardan xabardor bo‘lish; tarjimonlik qobiliyatiga egalik; o‘z fikrini ifodalay olish kompetensiyasiga ega bo‘lish; aralash turizm ko‘nikmalari (suzish, ov qilish, baliq tutish kabilar)ga ega bo‘lish; muhandislik malakalarini o‘zlashtira olganlik [4].

Ko‘rsatilgan ko‘nikmalar majmuasi talabalarda sport turizmi ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonining murakkab, bir qadar qiyin bo‘lishidan dalolat beradi.

Xulosa. Shunday qilib, talabalarda sport turizmi ko‘nikmalarini rivojlantirish ham jamiyat ham ijtimoiy sub’yektlar uchun ham foydali bo‘lish bilan birga murakkab, o‘ziga xos pedagogik yondashuvni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bir qator tashkiliy-nazariy va amaliy-metodik masalalarni ijobiy hal qilinishini taqozo etadi. Tegishli jarayonning pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish orqali talabalarda sport turizmi bilan faol, izchil shug‘ullanishga imkon beradigan ijtimoiy-ma’naviy va irodaviy sifatlar tarbiyalanib, zarur ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Авдиянц Л.А. Развитие спортивного туризма в студенческой среде // Ж. Вестник науки. – Тольятти: 2024. - № 7 (76). Том 4. – С. 369.

Карпенко И.О., Олишевска Ю.А. Влияние туризма на экономику государства // https://skole.com.ua/ru/papers/13-turizm/34-turizm-ekonomika.

Рузиев Ш.Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш масалалари (хорижий тажрибалар асосида) // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron j. – T.: 2020. - № 6. – 260-261-б.

Спортивный туризм: снаряжение, навыки, виды, польза // https://srednyadm.ru/msu/administratsiya/munitsipalnoe-byudzhetnoe-uchrezhdenie-kulturyi-kulturno-sportivnyij-tsentr-polyot-mbuk-ksts-polyot/media/2020/6/22/sportivnyij-turizm-snaryazhenie-navyiki-vidyi-polza.

Утицкий П.П. Спортивный туризм как средство повышения физической активности обучающихся // Научно-практический электронный журнал “Аллея Науки”. – Томск: 2023. - №3 78

MUSIQIY ART-TERAPEYA YORDAMIDA “SHASHMAQOM”NING MUSHKULOT BO‘LIMINI O‘RGATISH JARAYONIDA TALABALARNING ESTETIK MADANIYATINI SHAKILLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TEXNOLOGIYA

Yarashev Jo‘rabek To‘rayevich
Buxoro davlar pedagogika institute professori,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning estetik madaniyatini takomillashtirishda milliy musiqa merosining noyob namunasi “Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limidan foydalanishning pedagogik va terapevtik imkoniyatlari o‘rganiladi. Xususan, art-terapiya usullari asosida Mushkulot kuylarining estetik-ta’sirchan imkoniyatlarini ochib berish hamda bu asosda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Estetik madaniyat, musiqiy terapiya, maqom, mushkulot, musiqa, psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik, integratsiya, refleksiya, texnologiya.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ ЧАСТИ «ШАШМАКОМА» С ПОМОЩЬЮ МУЗЫКАЛЬНО-АРТ-ТЕРАПИИ

Ярашев Журабек Тураевич
Профессор Бухарского государственного педагогического института,
Доктор философии по педагогическим наукам (PhD).

Аннотация: В статье изучаются педагогические и терапевтические возможности использования раздела Мушкулот уникального образца национального музыкального наследия «Шашмаком» в повышении эстетической культуры учащихся. В частности, на основе методов арт-терапии разрабатывается технология, позволяющая раскрыть эстетический и выразительный потенциал мелодий Мушкулот и эффективно организовать на этой основе образовательный процесс.

Ключевые слова: Эстетическая культура, музыкотерапия, статус, трудность, музыка, психология, педагогика и культурология, интеграция, рефлексия, технология.

TECHNOLOGY OF FORMING AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS IN THE PROCESS OF LEARNING THE MUSICAL PART OF «SHASHMAKOM» WITH THE HELP OF MUSICAL-ART THERAPY

Yarashev Jurabek Turayevich
Professor of the Bukhara State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD).

Abstract: The article examines the pedagogical and therapeutic possibilities of using the Mushkulot section of the unique example of the national musical heritage «Shashmaqom» in improving the aesthetic culture of students. In particular, based on art therapy methods, a technology is developed that allows revealing the aesthetic and expressive potential of the Mushkulot melodies and effectively organizing the educational process on this basis.

Keywords: Aesthetic culture, music therapy, status, difficulty, music, psychology, pedagogy and cultural studies, integration, reflection, technology.

KIRISH. Zamonaviy ta’limda talabalarning estetik madaniyatini shakllantirish masalasi murakkab, ko‘p qirrali hamda individual yondashuvni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirishda milliy musiqiy meros – xususan, “Shashmaqom”ning

Mushkulot qismi asarlarini art-terapiya vositasida o‘rgatish texnologiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra, musiqiy, psixologik va estetik omillar uyg‘unligiga asoslangan bo‘lib, talabaning ichki kechinmalari va ijodiy ifoda orqali estetik idrokini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Ayniqsa, Mushkulot qismida mujassam bo‘lgan ohangdorlik, falsafiy chuqurlik va ritmik murakkabliklar talabaning musiqiy tafakkurini chuqurlashtirish bilan birga, uning badiiy dunyoqarashini boyitadi.



1 rasm.. Talabalarni estetik madaniyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv — bu talabaning individualligini, uning ruhiy-emotsional holati, estetik qabul darajasi, musiqiy didi va psixologik ehtiyojlarini chuqur o‘rganishga asoslangan pedagogik tamoyildir. Ushbu yondashuvda har bir talaba noyob shaxs sifatida ko‘riladi hamda uning ichki dunyosi va estetik idroki musiqiy art-terapiya vositalari orqali uyg‘unlashtiriladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hozirgi zamon pedagogikasining markaziy tamoyillaridan biri sifatida tan olinadi. U har bir talabaning individual psixologik xususiyatlari, ruhiy-emotsional holati va estetik ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiyani tashkil etishni taqozo etadi. Bu yondashuv ayniqsa musiqiy art-terapiyada o‘zining amaliy va terapevtik samaradorligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mashhur psixolog K. Rogers o‘zining “Client-Centered Therapy” asarida har bir shaxsning ichki dunyosiga hurmat bilan yondashish va uni rivojlantirishga imkon beruvchi sharoitlar yaratish muhimligini ta’kidlaydi. Bu prinsip musiqiy art-terapiyada ham talabani tinglash, tushunish, unga mos musiqiy vositalarni tanlash va emotsional holatini musiqiy ifoda orqali yengillashtirishga asos bo‘ladi.

V.V. Serikov esa shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni shaxsning ijtimoiy-estetik tajribasini kengaytiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki shaxsning madaniy-estetik rivojlanishiga xizmat qilishi kerak. Musiqiy art-terapiya bu borada o‘ziga xos ijobiy vosita bo‘lib, talabaning nozik hissiyotlariga bevosita ta’sir etadi, uning estetik qabul qilish salohiyatini ochib beradi.

Talabaning individual holatini o‘rganishda musiqiy terapiyada ishlatiladigan diagnostik metodlar – tinglovchi reaksiyalarini tahlil qilish, musiqa orqali tasvirlash mashqlari, o‘zini

ifodalash texnikalari (improvizatsiya, vizual tasvirlash) – shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni samarali qo‘llashga imkon beradi .

Bu yondashuv talabaning musiqaga nisbatan individual munosabatini shakllantirishga, ichki ziddiyatlarini bartaraf etishga, estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Shashmaqomning “Mushkulot” bo‘limi kabi murakkab tuzilmali va chuqur falsafiy-estetik mazmunga ega asarlar yordamida talabada ongli tinglash, tahlil qilish va musiqiy holatni his qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shashmaqomning “Mushkulot” bo‘limi bu jarayonda ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki, uning murakkab maqom tuzilmasi, chuqur falsafiy-estetik mazmuni, tor doiradagi emotsional ifoda shakllari talabaning ichki kechinmalarini uyg‘otishga va estetik idrokini faollashtirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda talaba nafaqat tinglovchi, balki musiqiy holatni anglovchi, uni shaxsiy ruhiy dunyosi bilan bog‘lay oluvchi faol ishtirokchiga aylanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda jihatlari 3.2 rasmda keltirilgan.

Integrativ yondashuv – bu ta’lim va tarbiya jarayonini bir nechta fanlar — musiqa, psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik — bilimlari asosida yagona, uyg‘un tizim sifatida tashkil etishdir. Ushbu yondashuv, ayniqsa, musiqiy art-terapiya sohasida talabalar estetik madaniyatini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.



2 rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv jihatlari

Bu yondashuvning asosiy maqsadi musiqiy ta’lim jarayoniga ko‘p yo‘nalishli (multidisiplinar)

yondashuv orqali talabaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, uning ruhiy-emotsional, madaniy-estetik va kognitiv salohiyatini uyg‘un holda shakllantirishdir.

Integrativ yondashuv quyidagi yo‘nalishlarning uyg‘unligiga asoslanadi:

Musiqa san’ati — estetik qabul, did tarbiyasi, emotsional ifoda, terapevtik ta’sir kuchi;

Psixologiya — shaxsning ruhiy holati, emotsional muvozanat, psixoterapevtik metodlar;

Pedagogika — ta’lim texnologiyalari, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish metodikasi;

Madaniyatshunoslik — milliy va umuminsoniy qadriyatlar, musiqiy meros, tarixiy-estetik kontekst.

Ayniqsa, Shashmaqomning “Mushkulot” bo‘limidan foydalanishda integrativ yondashuv o‘zining amaliy samaradorligini namoyon etadi. Chunki bu maqom bo‘limi faqat musiqiy emas, balki falsafiy, diniy-ma’naviy, madaniy-estetik qatlamlarga boy bo‘lib, uni chuqur o‘rganish musiqani tinglash, tushunish, tahlil qilish, his qilish va uni talabaning shaxsiy tajribasi bilan bog‘lashni talab etadi.

Mashhur nemis pedagogi V. Klafki integrativ yondashuvni “kalitli tushunchalar asosida umumiy madaniyatni yoritish va turli fanlararo bog‘lanishlarni o‘rgatish” deb ta’riflagan. Shu asosda musiqiy art-terapiyada ham fanlararo integratsiya orqali talabaning murakkab psixologik-estetik holatini har tomonlama anglash va rivojlantirish mumkin.

Shuningdek, N. L. Selivanovaning integrativ yondashuv borasida “shaxsning madaniy identifikatsiyasi va emotsional-intellektual rivojlanishini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi ” deb o‘zining fikrlarini bildirgan.

Refleksiv yondashuv — shaxsning o‘z-o‘zini anglash, his-tuyg‘ularini tahlil qilish, tajriba ustida mulohaza yuritish jarayonidir. Pedagogik faoliyatda bu yondashuv o‘quvchining o‘z amaliyotiga, kechinmalariga, didaktik jarayonlarga ongli tarzda baho bera olishini nazarda tutadi. Musiqiy art-terapiya doirasida esa refleksiya musiqiy tinglov tajribasi orqali emotsional anglashni, ruhiy holatni tahlil qilishni, o‘zgarishlarni sezish va ifoda etishni ta’minlaydi.

Refleksiv yondashuvning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

Ichki kechinmalarni anglash – talabaning o‘z his-tuyg‘ularini nomlash, ularni tan olish va ifodalash qobiliyatini rivojlantirish.

Estetik taassurotlar ustida tahlil – musiqa asari orqali yuzaga kelgan emotsiyalarni madaniy, ijtimoiy, shaxsiy kontekstda anglash.

Metarefleksiya – “Men bu musiqani nega shunday qabul qildim?”, “Nega aynan bu qism menga ta’sir qildi?” kabi savollar orqali o‘z-o‘zini kuzatish.

Yozma yoki og‘zaki fikr bildiruvchanlik – talabaning musiqa tinglashdan keyingi ichki holatini og‘zaki yoki vizual shaklda ifodalashi.

Musiqiy art-terapiyada refleksiya Shashmaqomning “Mushkulot” bo‘limini tinglashda talabalar ko‘pincha chuqur ichki holatlarga kirishadi. Bu holatda musiqiy ohang orqali o‘tmish xotiralari uyg‘onadi, ruhiy tinchlanish yoki ichki ziddiyatlar yuzaga chiqadi, ong ostidagi hissiyotlar yuzaga keladi.

Musiqiy art-terapiya talabalarning ichki dunyosini boyitish, ularni ruhiy barqarorlikka erishishiga yordam berish, estetik idrok va musiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, “Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘liimi o‘zining murakkab tuzilishi, ohangdorligi va chuqur falsafiy mazmuni bilan nafaqat musiqiy, balki ma’naviy-estetik tarbiyani shakllantirishda katta salohiyatga ega.

Mazkur texnologiya quyidagi pedagogik yondashuvlarga asoslanadi:

Texnologiyaning maqsadi talabalarning estetik madaniyatini “Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limi asosida musiqiy art-terapiya metodlari bilan shakllantirishdir. Mavkur texnologiyaning asosiy vazifasi esa:

mushkulot asarlarini art-terapiya yondashuvi asosida tahlil qilish;

musiqa orqali estetik kechinmalarni idrok qilishni o‘rgatish;

talabalarda musiqiy tafakkur va estetik sezgirlikni shakllantirish;

maqom orqali psixologik holatni barqarorlashtirishga erishishdan iborat.

Art-terapeya yordamida “Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limini o‘rgatish jarayonida talabalarning estetik madaniyatini shakillantirishga yo‘naltirilgan texnologiya diagnostik, tayyorlov, art-terapevtik integratsiya hamda refleksiya va tahlil bosqichlaridan iborat.

Diagnostik bosqichda talabalarning musiqiy estetik qiziqishlari, musiqiy didi va psixologik holati aniqlanadi. Talabalar bilan olib boriladigan so‘rovnomalar, suhbatlar, testlar yordamida dastlabki holat aniqlanadi. Tayyorlov bosqichida talabalarga “Maqom asoslari” fanida “Shashmaqom” haqida nazariy bilimlar beriladi. Bunda talabalar “Mushkulot” bo‘limidagi asarlarining mazmuni, ohanglari, ruhiy ta’siri bilan tanishtirib boriladi. Art-terapevtik integratsiya bosqichida “Shashmqom”ning Mushkulot bo‘limidagi “Tasnifi Buzruk”, “Muxammasi Nasrulloyi” kabi asarlaridan qismlar tinglanadi va his-tuyg‘ular tahlili o‘tkaziladi. Talabalar maqomni tinglash yoki uni jonli ijro etish bilan birga tasviriy san’at, drama yoki yozma izohlar orqali individual his-tuyg‘ular ifodalanadi. Guruhli muhokamalar orqali estetik baho va tafakkur rivojlantiriladi.

4. Refleksiya va tahlil bosqichi.

Talabalar maqomdan olgan ta’sirlarini yozma va og‘zaki tarzda ifodalaydi. Estetik fikrlash darajasi, musiqiy tajriba, ruhiy barqarorlik o‘zgarishlari tahlil qilinadi.

Mazkur texnologiya asosida o‘quv jarayonini tashkil etish quyidagi natijalarga olib keladi. Bunda talabalarda estetik did, musiqiy idrok va badiiy tafakkur rivojlanadi. “Shashmaqom”ning Mushkulot asarlarining ichki falsafasini anglash orqali ma’naviy boyish yuz beradi. Art-terapiya orqali talabalarda ruhiy barqarorlik, o‘z-o‘zini anglash va ifoda etish ko‘nikmalari shakllanadi. Musiqa vositasida talabalarda milliy merosga nisbatan chuqur hurmat shakllanadi.

Talabalarning estetik madaniyati holatini suhbat orqali aniqlash — ularning go‘zallikni idrok etish, san’atga bo‘lgan munosabati, estetik qadriyatlar va idealga nisbatan qarashlarini chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi samarali metod hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

Suhbat metodi orqali talabalarning estetik madaniyatini aniqlash, ularning individual qarashlari va his-tuyg‘ularini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, estetik tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Tanishtiruv suhbati — bu talabalarning estetik qarashlari, san’atga bo‘lgan munosabati va go‘zallikni idrok etish darajasini aniqlashga qaratilgan muloqot shaklidir.

Mushkulot bo‘limining murakkabligi, uning ritmik va melodik tuzilmalari, talabalarning diqqatini jamlash, musiqiy tafakkurini rivojlantirish va estetik his-tuyg‘ularini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon art-terapiya metodlari bilan uyg‘unlashganda, talabalarning ichki dunyosini ochib berish va ularning estetik madaniyatini baholash imkonini beradi.

“Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limini tinglash orqali talabalarda art-terapevtik ta’sirni bosqichma-bosqich amalga oshirish estetik madaniyatni rivojlantirishning samarali usullaridan biridir.

NATIJALAR. Talabalarga Mushkulot bo‘limining audio yoki video yozuvlari tinglatiladi. Bu bosqichda ularning diqqatini quyidagilarga qaratish muhim:

ritmik va melodik tuzilmalar;

ijrodagi emotsional ifoda;

cholg‘ularning o‘zaro uyg‘unligi.

Bu jarayon talabalarning musiqiy idrokini va estetik sezgirligini oshiradi.

“Shashmaqom”ning Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil kuylarini tinglash yoki ijro etish orqali talabalar estetik madaniyatini takomillashtirishda art-terapiya yondashuvi samarali usul hisoblanadi. Bu jarayon talabalarning ichki ruhiy holatini uyg‘otish, milliy musiqiy merosga bo‘lgan qiziqishni oshirish va estetik idrokini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har bir maqom bo‘limi o‘ziga xos emotsional va estetik yuklamaga ega:

Tasnif: Tantanali va ko‘tarinki ohanglari bilan ruhiy yuksalishni ta’minlaydi.

Tarje: Tafakkur va ichki mulohazalarni uyg‘otadi.

Gardun: Ruhiy barqarorlik va muvozanat hissini mustahkamlaydi.

Muxammas: Ijodiy tafakkur va emotsional ifodani rag‘batlantiradi.

Saqil: Yengillik va ruhiy erkinlik hissini uyg‘otadi.

Bu kuylarni tinglash yoki ijro etish talabalarning ichki holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ularning estetik sezgirligini oshiradi.

“Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limini art-terapiya yondashuvi orqali o‘rgatish, talabalarning estetik madaniyatini shakllantirishda innovatsion va samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi. Bu uslub talabalarning ruhiy-emotsional holatini yaxshilash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va milliy musiqiy merosga bo‘lgan hurmatini oshirishga xizmat qiladi.

1

Tayyorlov bosqichi.

Suhbat orqali talabalarning estetik madaniyati holatini aniqlash.

2

Tanishtiruv bosqichi.

Talabalarga art-terapiya va “Shashmaqom” haqida tushuncha berish.

3

“Shashmaqom”ni tinglash orqali talabalarda art-terapevlik ta’sir bosqichi.

“Mushkulot” bo‘limining ma’naviy-madaniy va musiqiy ta’siri bilan tanishtirish. Tinglash va nazariy tahlil qilish.

4

Ijodiy ijoda bosqichi.

Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil kuylarini ijro etish yoki tinglashda ichki holatga ta’siri. (Dam olish, fikrlash, his qilish)

5

Tahlil va muloqot bosqichi.

Tinglangan yoki ijro etilgan maqomlarga asoslanib talabalarning o‘z ijodiy fikrlarini ifoda etilishi.

6

Refleksiya va boholash bosqichi.

Talabalarning his-tuyg‘ularini baham ko‘rishi. Estetik tahlil va tushunchalarni shakillantirish.

3 rasm. “Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limi art-terapevtik ta’siri orqali talabalar estetik madaniyatini takomillashtirish bosqichi

Mushkulot bo‘limining murakkab ritmik va melodik tuzilmalari talabalarda chuqur emotsional holatlarni uyg‘otadi. Mashg‘ulotlarni guruhli shaklda o‘tkazish orqali talabalarning o‘zaro fikr almashishiga va jamoaviylikni rivojlantirishga yordam beradi. Har bir talabaga individual yondashish, ularning shaxsiy hissiyotlarini hisobga olish muhim. Mushkulot bo‘limini o‘rgatishda musiqa va san’atni uyg‘unlashtirish, talabalarning estetik madaniyatini chuqurlashtiradi.

“Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limi — bu o‘zbek mumtoz musiqa san’atining eng murakkab va chuqur hissiy qatlamlarini aks ettiruvchi asar bo‘lib, uning tinglanishi yoki ijro

etilishi talabalarda turli his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Art-terapiya yondashuvi orqali bu his-tuyg‘ularni ifodalash va estetik tahlil qilish, talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Mushkulot bo‘limining tinglanishi yoki ijro etilishi talabalarda musiqaning murakkab va og‘ir ohanglari talabalarda ichki muammolarni, tashvishlarni his qilishga yordam beradi. Musiqaning ba’zi qismlari talabalarda kelajakdagi yaxshiliklarga bo‘lgan umidni uyg‘otadi. Musiqaning ba’zi ohanglari talabalarda ichki tinchlik va muvozanatni his qilishga yordam beradi.

MUHOKAMA. Quyida musiqiy art-terapiya yordamida talabalarning estetik madaniyatini takomillashtirishda “Shashmaqom”ning Mushkulot qismi asosida amal qilinishi lozim bo‘lgan umumiy pedagogik qoidalar jadvali keltirilgan. Jadval talabalarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish, musiqiy ta’sirchanlikni oshirish va terapevtik yondashuv asosida ongli musiqiy idrokni shakllantirishga yo‘naltirilgan:

Talabalarning estetik madaniyatini takomillashtirishga oid umumiy qoidalar (Mushkulot asosida)

№	Qoida nomi	Mazmuni	Amalga oshirish shakli (misollar)
1	Estetik idrokni yo‘naltirish	Mushkulot ohanglarini tahlil qilish orqali go‘zallikni anglata olish.	Darsda kuy tahlili, hissiy taassurotlarni yozish.
2	Musiqiy ongni faollashtirish	Har bir maqom yo‘nalishini anglash orqali musiqiy tafakkurni rivojlantirish.	Qiyosiy tahlillar, Mushkulotda ifodalangan tuyg‘ularni izohlash.
3	Tashqi va ichki tinglash madaniyatini shakllantirish	Naqorat va ohangga estetik jihatdan yondashish ko‘nikmalarini hosil qilish.	Jim tinglash, ohangda mavjud dramatik o‘zgarishlarga e’tibor.
4	Terapevtik holatlarni yaratish	Mushkulotdagi ruhiy holatlar orqali emotsional yengillik keltirish.	Yopiq ko‘z bilan tinglash, his-tuyg‘ularni ifodalash mashqlari.
5	Kontekstual tushunishni rivojlantirish	Mushkulotdagi tarixiy va madaniy manbalarni o‘rganish orqali estetik qadriyatlarni tushunish.	Tarixiy kontekstga oid topshiriqlar, maqom kelib chiqish tarixi.
6	Shaxsiy musiqiy tajribani boyitish	Talabaning o‘z his-tuyg‘ularini Mushkulot vositasida ifodalashga imkon yaratish.	Reflektiv yozuvlar, audio kundaliklar.
7	Estetik qadriyatlarga hurmat uyg‘otish	Shashmaqom an’analari orqali milliy madaniyatga ijobiy munosabatni shakllantirish.	Maqom ijrochiligi bilan tanishtirish, ustoz-shogird usulida ish.

“Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limini art-terapiya yondashuvi orqali o‘rgatish, talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishda samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi. Bu yondashuv talabalarning ruhiy-emotsional holatini yaxshilash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va milliy musiqiy merosga bo‘lgan hurmatini oshirishga xizmat qiladi.

Mushkulot bo‘limining murakkab ritmik va melodik tuzilmalari talabalarda chuqur emotsional holatlarni uyg‘otadi. Bu holatlarni aniqlash uchun tinglash, suhbatlar, rasm chizish, she’r yozish va harakat bilan ifoda kabi art-terapevtik faoliyatlar qo‘llaniladi. Bu faoliyatlar talabalarning estetik idroki va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Mashg‘ulotlarni guruhli shaklda o‘tkazish, har bir talabaga individual yondashish va musiqa bilan san’atni uyg‘unlashtirish orqali talabalarning estetik madaniyatini chuqurlashtirish mumkin.

Ushbu texnologiya talabalarning estetik madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib, ularni milliy musiqiy merosga bo‘lgan hurmatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Musiqiy art-terapiya asosida “Shashmaqom”ning Mushkulot bo‘limini o‘qitish talabalarning estetik madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mushkulotning ohangdorligi, ritmik murakkabligi va ruhiy-emosional boyligi orqali talabalar estetik idrok, musiqiy tafakkur va ichki sezgirlikni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Art-terapevtik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarni faqat musiqiy bilim bilan emas, balki ularni ichki ruhiy holatini uyg‘unlashtirish, o‘zini estetik jihatdan anglash va ifoda etishga chorlaydi.

Ushbu texnologiya talabalarda milliy musiqa merosiga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi, ularni estetik qadriyatlar asosida tarbiyalaydi va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, integratsiyalashgan, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv texnologiyalarining joriy etilishi pedagogik jarayon samaradorligini oshirib, Mushkulot orqali talabalarning estetik madaniyatini chuqurroq shakllantirish imkonini beradi. Natijada, taklif etilgan texnologiya zamonaviy musiqa ta’limi va terapevtik yondashuvlar integratsiyasi asosida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik model sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Rogers, C. (1961). On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. Houghton Mifflin.

Serikov, V.V. (1998). Личностно-ориентированное образование: Размышления о проектируемой реальности. Moscow: Logos.

Nordoff, P., & Robbins, C. (1977). Creative Music Therapy. New York: John Day Company.

Klafki, W. (1996). Neue Studien zur Bildungstheorie und Didaktik. Weinheim: Beltz Verlag

Selivanova, N.L. (2002). Pedagogika integratsii: kontseptualnye osnovy. Moskva: Pedagogika.

Marjorie Cross Witty Argosy University, Chicago. January 2007

O‘QISH SAVODXONLIGI VA O‘QISHNI QO‘LLAB-QUVVATLASH: TURLI MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Yuldosheva Saodat Azizovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti, PhD

Shamsiyeva Dilfuza Nizomidinovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon davlatlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda bu jarayonlarning mamlakatimizga ham ta’sir etganligi, yuritimizda ham o‘qish savodxonligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilayotgani haqida ma’lumotlar berildi. Shuningdek, o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun ayrim metodik tavsiyalar keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar. O‘qish savodxonligi, jahon tajribasi, “kitobxonlik madaniyati”, ta’lim texnologiyalari va metodlari.

READING LITERACY AND SUPPORTING READING: EXPERIENCES OF DIFFERENT COUNTRIES

Yuldosheva Saodat Azizovna,
Associate Professor, PhD, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Shamsiyeva Dilfuza Nizomidinovna,
Master’s student, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Abstract. This article provides information on the measures taken to develop reading literacy in various countries of the world, as well as the influence of these processes on our country. It also highlights the wide-scale efforts being undertaken in our country to improve reading literacy. In addition, some methodological recommendations for developing reading literacy are presented.

Keywords: reading literacy, international experience, “reading culture”, educational technologies and methods.

ГРАМОТНОСТЬ ЧТЕНИЯ И ПОДДЕРЖКА ЧТЕНИЯ: ОПЫТ РАЗНЫХ СТРАН

Юлдошева Саодат Азизовна,
доцент, PhD, Узбекистанско-Финский педагогический институт

Шамсиева Дилфуза Низомиддиновна,
магистрант, Узбекистанско-Финский педагогический институт

Аннотация. В данной статье представлена информация о мерах, принимаемых в различных странах мира для развития грамотности чтения, а также о том, как эти процессы повлияли на нашу страну. Также освещаются масштабные работы, проводимые в нашей республике по повышению уровня грамотности чтения. Кроме того, приведены некоторые методические рекомендации по развитию грамотности чтения.

Ключевые слова: грамотность чтения, международный опыт, «культура чтения», образовательные технологии и методы.

Kirish (Introduction). Global axborot makoni jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda “kitobxon millatlarni” shakllantirish masalasi dolzarb va muhim mavzulardan biriga aylanmoqda. Matnni to‘g‘ri o‘qish va ma’nosini tushunish qobiliyati har xil formatdagi axborot bilan ishlash uchun asosiy ko‘nikmalardan biridir. Bu ko‘nikmalar bolalikdan boshlab shakllanadi va so‘nggi o‘n

yilliklarda “raqamli” bolalar va oilalarni o‘qishga jalb qilishga qaratilgan yangi yondashuvlar faol rivojlanmoqda.

Keyingi yillarda soha mutaxassislari tomonidan bolalar va yoshlarda o‘qish madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Dunyo bo‘ylab aholining turli qatlamlarini o‘qishga jalb qilish va o‘qishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tajribalar nihoyatda keng va xilma-xildir. XX asrning ikkinchi yarmida bolalar va yoshlar o‘qishini qo‘llab-quvvatlash siyosatini Yevropa mamlakatlari, AQSh va Kanada faol rivojlantirgan. XX asr oxiri va XXI asr boshida esa bu jarayonga Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning tez modernizatsiyalashayotgan mamlakatlari ham faol qo‘shildi. Bugungi kunda esa bu borada Afrika davlatlarida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Bolalar, o‘smirlar va yoshlarning o‘qish holati ko‘plab omillarga bog‘liq. Avvalo, bu – o‘qishni qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy ijtimoiy institutlar: oila, ta’lim tizimi va kitob tarqatish tizimi faoliyatiga bog‘liq. Mamlakatlarning milliy xususiyatlari, davlat boshqaruvi tizimi va fuqarolik jamiyati rivojlanish darajasi, ijtimoiy tuzilma, turli madaniyatlar va tillarning xususiyatlari ham bu borada katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ta’lim va madaniyat sohalaridagi idoralar o‘rtasida yaxshi koordinatsiya va hamkorlikning mavjudligi, ommaviy axborot vositalari tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash ishlari ham muhimdir. Mamlakatlar bolalar o‘qishini turlicha qo‘llab-quvvatlaydi. Ba’zi hollarda o‘qishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy siyosat katta ijtimoiy guruhlarga qaratiladi, ammo bolalar o‘qishiga alohida urg‘u beriladi. Boshqa holatlarda esa aynan bolalar, o‘smirlar va yoshlarning o‘qishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan mustaqil siyosat olib boriladi. Bu siyosat doirasida milliy strategiyalar, davlat rejasi yoki bir qator chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, bu siyosatning ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha alohida loyihalar ham amalga oshiriladi.

Metodlar (Methods). Rossiya Davlat bolalar kutubxonasi bolalar o‘qishining sotsiologiyasi, psixologiyasi va pedagogikasi bo‘limining yetakchi ilmiy xodimi, pedagogika fanlari nomzodi Chudinova Vera Petrovna so‘nggi o‘n yillikda quyidagi umumiy tendensiyalar kuzatilayotganini ta’kidlaydi:

Aholining barcha guruhlarida savodxonligini oshirish, ayniqsa, maktab o‘quvchilari va oilaning roli orqali.

O‘qishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish hamda bolalar va yoshlar o‘rtasida “zavq uchun o‘qish”ni targ‘ib qilish.

Oilaviy o‘qishni erta yoshdan rivojlantirish. Ota-onalarning o‘quv savodxonligini oshirish. Oilada o‘qish muhitini shakllantirish.

O‘qishni yoqtirmaydigan o‘g‘il bolalar bilan ishlashni kuchaytirish [9].

So‘nggi o‘n yilliklarda kattalar o‘qishi ularning funksional savodxonligi (yoki savodsizligi) nuqtayi nazaridan o‘rganilmoqda, ya’ni zamonaviy jamiyatda samarali yashash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar majmui sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda o‘quv savodxonligi asosiy ko‘nikmalar majmui sifatida olinmoqda. Biroq bu faqat matnlarni o‘qishga emas, balki insonning axborot bilan ishlash qobiliyatiga ham bog‘liq. Savodxonlik masalasi ilk bor 1994-yilda shunday talqinda qo‘yilgan edi.

1994-1998-yillarda kattalar savodxonligini o‘rganish bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar seriyasi – “Kattalar savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot” (The International adult literacy survey) o‘tkazilgan. 2003-2008-yillarda esa “Kattalar savodxonligi va hayotiy ko‘nikmalari” (Adult literacy and lifeskills survey) nomli xalqaro tadqiqot amalga oshirilgan. 2009-2013-yillarda esa Kattalar kompetensiyalarini xalqaro baholash dasturi (PIAAC) jahon miqyosida o‘tkazilgan [11]. Bugungi kunda savodxonlikni baholashga doir yangi yondashuvlar rivojlanmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarda aholining savodxonlik darajasini o‘rganishda va savodsizlik muammolarini hal qilishda YUNESKO muhim rol o‘ynaydi. 2014-yilda YUNESKO savodxonlikni baholash va monitoring qilish bo‘yicha yangi dastur – Savodxonlikni baholash va monitoring

qilish dasturi (LAMP – Literacy assessment and monitoring programme)ni ishlab chiqqan [10]. Ushbu dastur savodxonlik bo‘yicha ta’limning hammabopligi maqsadiga erishishni qo‘llab-quvvatlashni, ayniqsa savodxonlik darajasi eng past bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi ayollar uchun qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Shuningdek, Yevropada Elinet tarmog‘i (The European Literacy Policy Network – Yevropa savodxonlik siyosati tarmog‘i) 2014-yildan boshlab savodxonlik siyosatini amalga oshirishda asosiy vosita bo‘lib kelmoqda. Ushbu loyiha Yevropadagi past savodxonlik darajasiga ega bo‘lgan bolalar, yoshlar va kattalar sonini kamaytirishga qaratilgan.

Buyuk Britaniyada o‘qish savodxonligini oshirishga qaratilgan loyihalarga diqqat qaratadihan bo‘lsak, PISA tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi o‘n yilliklarda ushbu mamlakatda maktab o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi boshqa Yevropa davlatlarinikiga nisbatan pastroq bo‘lgan. Shu sababdan XX asr oxirida hukumat ikki yirik tashabbusni ilgari suradi: Milliy savodxonlik strategiyasi va Milliy o‘qish yili loyihalarini amalga oshiradi. Ushbu loyihalar maktab o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni o‘qishga undash, o‘qish doirasini kengaytirish va nashriyotlar, kutubxonalar, maktablar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan edi. Milliy o‘qish yili loyihasi doirasida “Yozgi o‘qish chaqirig‘i”, “Kitobli start”, “Oilaviy o‘qish” kabi ko‘plab tadbirlar tashkil etildi. Bundan tashqari, bolalar kitoblari mualliflari va rassomlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Bola laureati” mukofoti joriy etildi.

Angliyada Milliy savodxonlik jamg‘armasi (The National Literacy Trust) faoliyat yuritadi. U “Hayot uchun o‘qish” (Reading for life) brendi ostida ish olib boradi. Jamg‘armaning saytida turli yoshdagi farzandlari bor ota-onalarga maslahatlar, tavsiyalar mavjud. Mamlakatda har yili bolalar va o‘smirlar o‘qishi holati bo‘yicha milliy tadqiqotlar o‘tkaziladi.

Natija (Results). Hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab bolalar va o‘smirlarning o‘qish savodxonligini oshirishga doir yangi yondashuvlar, metodlar va uslublar keng muhokama qilinmoqda. Xalqaro tadqiqotlarning natijalari ko‘plab davlatlarda maktab o‘quvchilari o‘qish holatini yaxshilashga turtki bo‘ldi. PISA ma’lumotlariga ko‘ra, eng yuqori natijalarni quyidagi davlatlar ko‘rsatdi: Singapur, Gonkong (Xitoy), Kanada, Finlandiya, Irlandiya, Estoniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yangi Zelandiya.

Bizning mamlakatizmiz ham 2022-yilgi PISA test jarayonlariga qatnashdi. O‘zbekistonda PISA tadqiqotining asosiy sinov jarayonlari 2022-yil 21-apreldan 6-mayga qadar o‘tkazildi. PISA ning 2022-yilgi natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston har uch yo‘nalish bo‘yicha ham oxirgi o‘ntalikdan joy olgan:

- matematik savodxonlik – 364 ball (tadqiqotda ishtirok etgan davlatlar ko‘rsatgan o‘rtacha natija 472 ball bo‘ldi);
- o‘qish savodxonligi – 336 ball (476 ball),
- tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha – 355 ball (485 ball).

Mamlakatimizdagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, nafaqat ta’lim tizimidagi yondashuv va usullarni o‘zgartirish zarur, balki quyidagil jarayonlarga ham jiddiy e’tibor qaratish lozim. Bular:

ta’lim va madaniyat sohasidagi mutaxassislar ittifoqini yaratish:

yangi g‘oyalarni rivojlantirish uchun platformalar ishlab chiqish;

eng yaxshi o‘qitish amaliyotlarini yig‘ish;

turli mutaxassislikdagi pedagoglar va boshqa soha vakillarining malakasini oshirish;

ularning bolalarni o‘quvchi sifatida rivojlantirishda bilimli yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchilar bo‘lishiga ko‘maklashish.

Shuningdek mamlakatimizda nafaqat bolalar, yoshlarni, balki yoshi katta insonlarni ham o‘qishga undash, ular orasida kitobxonlik madaniyatini oshirish maqsadida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash Milliy dasturi”ning “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi [1]. Unga ko‘ra aholi orasida o‘qish savodxonligi va “kitobxonlik madaniyati” ni oshirish maqsadida “Yosh kitobxon”, “Eng yaxshi kitobxon oila”, harbiy qism va muassasalarda xizmat qilayotgan yosh harbiy xizmatchilar o‘rtasida “Jaloliddin Manguberdi”, “Alpomish”, “Temur tuzuklari bilimdoni” kabi

tanlovlarni o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari “Kitob mutolaasidagi eng ko‘p tinglovchi auditoriyasini yig‘ish”, “Inson hayoti davomida o‘qishi lozim bo‘lgan 100 kitob”, Oliy ta’lim muassasalarida “Kelajak kutubxonasi”, “Kitobxonlik bekatlari” loyihalari amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizdagi o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga ishtirok etishi ta’minlash, ularga keng qamrovli sharoitlarni yaratish berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Munozara (Discussion). Barchamizga ma’lumki, inson komil shaxs bo‘lib tarbiyalanishi, jamiyatda o‘z mavqesiga ega bo‘lishi, umuman hayoti davomida har qanday yutuqlariga erishishi uchun unda, albatta, o‘qish ko‘nikmasi shakllangan, rivojlangan bo‘lishi zarur. Chunki kishi uchun kerak bo‘ladigan har qaysi ilm kitoblarda mujjasam bo‘lgan. Undagi bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun kishida o‘qish savodxonligi shakllngan bo‘lishi kerak.

O‘qish savodxonligi – bu bolalarning matnni o‘qiy olish qobiliyati bilan birga, uning ma’nosini tushunish, asosiy g‘oyalarni ajratish, tahlil qilish va olingan ma’lumotni qo‘llay olish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinflarda, ya’ni bolalar endigina o‘qishni o‘rganayotgan davrda, ularning keyingi ta’limidagi muvaffaqiyat poydevori qo‘yiladi. O‘qish savodxonligi yetarli bo‘lmasa, o‘quvchi boshqa fanlarni ham o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi, chunki ta’limdagi deyarli barcha ma’lumotlar matn orqali beriladi. Hozirgi zamonaviy ta’lim bosqichida o‘qish savodxonligini shakllantirish faqat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining vazifasi emas, balki butun ta’lim tizimining umumiy maqsadi sifatida qaralmoqda. Maktab ta’limini isloh qilish doirasida o‘qish savodxonligiga alohida e’tibor berilmoqda, bu esa o‘quvchilarning axborotni qabul qilish, tahlil qilish va undan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Shuning uchun bugungi kunda o‘qitishning samarali usullarini joriy etish va ularni amalda qo‘llash uchun zarur sharoitlar yaratish dolzarb vazifaga aylangan. Maktab o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirish ularning keyingi ta’limidagi muvaffaqiyat uchun asos hisoblanadi. Mamlakatimizdagi ta’lim tizimidagi global o‘zgarishlar sharoitida bolalarda nafaqat o‘qish ko‘nikmalarini, balki o‘qilgan ma’noni anglay olish, savollar bera olish va xulosalar chiqara olish qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Bu ko‘nikmalar maktab bosqichida qanchalik samarali rivojlansa, o‘quvchilarning murakkab fanlarni o‘zlashtirishi shunchalik oson bo‘ladi. O‘qish savodxonligini shakllantirish tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Quyidagi usullar, ayniqsa samaralidir:

O‘yin texnologiyalari – viktorinalar, topishmoqlar, rolli o‘yinlar bolalarning qiziqishini oshirad;

Turli matnlar bilan ishlash – faqat badiiy emas, balki ilmiy-ommabop matnlar orqali bolalar turli uslubdagi axborotni o‘zlashtirishni o‘rganadilar;

Loyiha usuli – o‘qilgan asarlar asosida taqdimotlar, albomlar tayyorlash orqali izlanish ko‘nikmalari shakllanadi;

Guruh bilan ishlash – guruhiy muhokamalar orqali fikr bildirish, tinglash va hamkorlik qilish malakalari rivojlanadi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning ertangi kunining qanday bo‘lishi, ayni vaqtdagi ta’lim siyosatiga bog‘liqdir. Shu sababli yurtimizdagi soha vakillari mamlakatizmida ta’lim jarayonlari muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishiga doimiy hissasini qo‘shib borishlari lozim. Har bir yo‘nalishda ulkan natijalarga erishish uchun nafaqat, o‘quvchi, balki boshqa yosh toifalarida ham o‘qish savodxonligi ko‘nikmasi shakllangan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori,14.12.2020-yildagi 781-son.

Асмолов А.Г., Бурменская Г.В., Володарская И.А., Карабанова О.А., Салмина Н.Г., Молчанов С.В. Формирование универсальных учебных действий в основной школе от действия к мысли. Система заданий. – Москва: «Просвещение» 2010, с. 217.

Данилина А. Результаты международного исследования PIAAC показали, насколько компетентны взрослые [Электронный ресурс]. – Режим доступа:
www.ug.ru/article/701/version/print].
Гросс И.С. Функциональное чтение и работа с текстом как одно из направлений работы с учащимися в условиях ФГОС // Школьная педагогика. 2018.
Husanboeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi 2-kitob. –Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”, 2022, B.392.
Крюгер С. Pisa-шок и его последствия: будущее детских библиотек Германии // Школьная библиотека, 2005.
Ismoilov A., Norboyev D., Ahmedov H., Manapova D., Uralova M. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma, 2019.
Yuldosheva S., Mardiyeva M. Adabiy matnlarni o‘qitishda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish. – Samarqand: SamVXTXQTMOHM, 2021. B. 68.
https://www.unkniga.ru/kultura/7134-chitatelskaya-gramotnost-i-podderzhka-chteniya-opyt-raznyh-stran.html
www.uis.unesco.org/Literacy/Pages/lamp-literacy-assessment.aspx17.
– www.literacyworldwide.org.
Русская ассоциация чтения. – Режим доступа: http://rusreadorg.ru/ru.
ELINET. What is literacy?– Режим доступа: www.eli-net.eu/about-us/.

AKMEOLOGIYA FANINING PEDAGOGIKADAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Yusupova Xabiba Iriskulovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri, PhD

ANNOTATSIYA. Maqolada akmeologiya fanining pedagogika sohasidagi o'rni va ahamiyati masalalari yoritilgan. Tadqiqot maqsadi sifatida akmeologiyaning ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning professional va shaxsiy rivojlanishidagi rolini aniqlash belgilangan. Maqolada nazariy tahlil, sintez va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, akmeologiya o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Akmeologik tamoyillarning ta'lim amaliyotida qo'llanilishi o'qituvchi va o'quvchilarning o'z potentsiallarini to'liq ro'yobga chiqarishiga yordam beradi. Maqola zamonaviy ta'lim tizimida akmeologik yondashuvning zaruriyati va istiqbollarini asoslaydi.

KALIT SO'ZLAR:akmeologiya, pedagogika, professional rivojlanish, ta'lim sifati, o'qituvchi mahoratlari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijodiy qobiliyatlar

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются вопросы места и значения науки акмеологии в области педагогики. Целью исследования является определение роли акмеологии в профессиональном и личностном развитии учителей и учащихся в образовательном процессе. В статье использованы методы теоретического анализа, синтеза и обобщения. Результаты исследования показывают, что акмеология играет важную роль в повышении профессиональной компетентности учителей, организации личностно-ориентированного образовательного процесса и улучшении качества образования. Применение акмеологических принципов в образовательной практике способствует полной реализации потенциала учителей и учащихся. Статья обосновывает необходимость и перспективы акмеологического подхода в современной системе образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:акмеология, педагогика, профессиональное развитие, качество образования, педагогическое мастерство, личностно-ориентированное образование, творческие способности

ABSTRACT. The article examines the place and significance of acmeology in the field of pedagogy. The research objective is to determine the role of acmeology in the professional and personal development of teachers and students in the educational process. The article employs methods of theoretical analysis, synthesis, and generalization. Research results demonstrate that acmeology plays a crucial role in enhancing teachers' professional competence, organizing personality-oriented educational processes, and improving educational quality. The application of acmeological principles in educational practice contributes to the full realization of teachers' and students' potential. The article substantiates the necessity and prospects of the acmeological approach in the modern education system.

KEYWORDS: acmeology, pedagogy, professional development, educational quality, pedagogical mastery, personality-oriented education, creative abilities

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi va takomillashuvi jarayonida akmeologiya fani alohida ahamiyat kasb etmoqda. Akmeologiya insonning professional faoliyatida eng yuqori cho'qqisiga erishish, shaxsiy va kasbiy potentsialini to'liq ro'yobga chiqarish masalalarini o'rganuvchi fandir. Bu fan pedagogika sohasida o'qituvchilar va o'quvchilarning maksimal natijalariga erishish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Akmeologiya terminining o'zi yunon tilidan olingan bo'lib, «akme» so'zi eng yuqori cho'qqini, mukammallikni anglatadi. Fan sifatida akmeologiya XX asrning oxirlarida shakllana boshlagan

bo’lsa-da, uning asoslari antik falsafada mavjud bo’lgan. Pedagogikada akmeologiyaning qo’llanilishi o’qituvchilarning professional mahoratini oshirish va o’quvchilarning o’zlashtirish samaradorligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Akmeologiya fani XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida shakllangan nisbatan yangi ilmiy yo’nalish bo’lib, bu soha bo’yicha adabiyotlar ham keng ko’lamda rivojlanib bormoqda. Mazkur tahlil akmeologiyaning pedagogikadagi o’rni va ahamiyatiga bag’ishlangan asosiy adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilishni maqsad qiladi.

B.G. Ananev akmeologiya fanining asoschilaridan biri sifatida ushbu sohaga katta hissa qo’shgan. Uning «Inson bilish predmeti sifatida» (1968) asari akmeologiyaning insonlar haqidagi fanlar tizimidagi o’rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ananev B.G. akmeologiyaning insonlar haqidagi fanlar tizimidagi o’rnini belgilagan va birinchi marta kattalar rivojlanishini ta’lim ta’sirida o’rganish bo’yicha uzluksiz tadqiqotlar tashkil etgan.

N.V. Kuzmina pedagogik akmeologiyaning yetakchi nazariyotchilaridan biri hisoblanadi. N.V. Kuzmina akmeologiya predmetini aniqlashda katta hissa qo’shgan bo’lib, akmeologiya fanining predmeti yetuk shaxsning o’z ijodiy, ya’ni yaratuvchi yetuklik davrida to’liq o’zini namoyon etishi deb belgilagan. Uning asosiy asarlari orasida «Akmeologiya predmeti» (2002) va «Mutaxassislar professional faoliyati sifatining akmeologik kontseptsiyasi» (2008) kitoblari alohida o’rin tutadi.

A.A. Derkach va A.A. Bodalev akmeologiyaning zamonaviy rivojlanishida muhim rol o’ynagan. A.A. Bodalev, A.A. Derkach, V.T. Ganjin akmeologiyani zamonaviy talqinida inson va tsivilizatsiyaning yuqori erishuvlari nazariyasi sifatida tushunishadi, akme uslubiy kategoriyasi esa insonning turli hayot faoliyatlari sohasida yuqori cho’qqilariga erishishning universal fenomeni sifatida qaraladi.

E.P. Bocharova tomonidan yozilgan «Ta’limga akmeologik yondashuv» (2008) maqolasi akmeologiyaning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini atayin o’rganadi. Akmeologiya - bu turli ta’lim tizimlarining o’qituvchilari tomonidan faoliyatni takomillashtirish yo’llarini izlash jarayonida tug’ilgan fan. Bu ishda akmeologiyaning pedagogikadagi metodologik ahamiyati chuqur tahlil qilingan.

V.N. Maksimova maktab akmeologiyasi sohasida tadqiqotlar olib borgan. Zamonaviy maktabga V.N. Maksimova ta’kidlashicha, yangi turdagi pedagog kerak: pedagog-akmeolog, bolani fanga o’qitishda rivojlantirish bo’yicha mutaxassis, korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar va iqtidor hamda ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyalarini egallagan.

Pedagogik akmeologiyaning asosiy vazifasi o’qituvchilarning professional faoliyatida akmeologik darajaga erishishiga yordam berishdan iborat. Bu jarayon o’qituvchining shaxsiy xususiyatlari, kasbiy kompetensiyalari va ijodiy qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. O’qituvchining akmeologik rivojlanishi uning pedagogik mahoratining eng yuqori darajasiga erishishini nazarda tutadi, bu esa ta’lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Ta’lim jarayonida akmeologik yondashuvning qo’llanilishi o’quvchilarning ham individual qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga imkon beradi. Har bir o’quvchining o’ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari va iqtidorlarini hisobga olgan holda, ular uchun eng maqbul ta’lim yo’nalishlarini belgilash akmeologik pedagogikaning asosiy prinsipidir. Bu yondashuv o’quvchilarning o’z imkoniyatlarini to’liq anglashiga va ularni samarali ishlatishiga yordam beradi.

Akmeologiya fanining pedagogikadagi ahamiyati birinchi navbatda o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda namoyon bo’ladi. Zamonaviy o’qituvchi faqat o’z fanini chuqur bilishi bilan chegaralanib qolmasligi, balki pedagogik texnologiyalarni mukammal egallashi, psixologik bilimlarni amalda qo’llay olishi va doimiy ravishda o’zini takomillashtirib borishi zarur. Akmeologik yondashuv o’qituvchiga o’zining kuchli va zaif tomonlarini objektiv baholash, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Pedagogik faoliyatda akmeologik tamoyillarning joriy etilishi ta’lim jarayonining sifat

ko’rsatkichlarini oshirishga olib keladi. O’qituvchi o’zining professional darajasini muntazam baholab turishi va uni yaxshilash yo’llarini izlashi natijasida dars o’tish metodikasi takomillashadi, o’quvchilar bilan o’zaro munosabat samaradorligi oshadi va ta’lim maqsadlariga erishish darajasi yuqorilashadi. Bu esa o’z navbatida butun ta’lim tizimining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Akmeologiyaning pedagogikadagi yana bir muhim jihati shaxsga yo’naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etishdir. Har bir o’quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berishning zamonaviy usullari akmeologik tamoyillarga asoslanadi. Bu usullar o’quvchilarning o’z qobiliyatlarini kashf etish, rivojlantirish va to’liq namoyon etish imkoniyatini yaratadi. Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv orqali o’quvchilar o’z kuchli tomonlarini aniqlaydi va ularni kelajakdagi professional faoliyatda samarali foydalanish ko’nikmalarini egallaydi.

Akmeologik tarbiya jarayonida o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish alohida e’tibor qaratiladi. Ijodkorlik insonning eng yuqori erishuvlaridan biri sifatida qaraladi va uning rivojlanishi uchun maxsus sharoitlar yaratish zarur. O’qituvchi o’quvchilarning ijodiy potentsialini kashf etish va uni rivojlantirish yo’llarini bilishi, har bir o’quvchining o’ziga xos iqtidorlarini tan olishi va ularga yo’naltirilgan pedagogik ta’sirni amalga oshirishi kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimida akmeologiyaning roli texnologik rivojlanish bilan ham bog’liq. Raqamli texnologiyalarning ta’limga keng kirib kelishi o’qituvchilardan yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Akmeologik yondashuv o’qituvchilarga bu yangi texnologiyalarni o’zlashtirishda va ularni pedagogik faoliyatda samarali qo’llashda yordam beradi. O’qituvchilarning raqamli savodxonligi va zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish qobiliyati ularning professional akme darajasiga erishishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Akmeologiyaning ta’limdagi istiqbollari keng va ko’p qirrali. Kelajakda bu fan ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida, maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha, keng qo’llanilishi kutilmoqda. O’qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida akmeologik yondashuvlar asosiy o’rin egallashi, ta’lim sifatini baholash mezonlarida akmeologik ko’rsatkichlarning hisobga olinishi va ta’lim muassasalarining rivojlanish strategiyalarida akmeologik tamoyillarning qo’llanilishi zamonaviy ta’limning talabi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, akmeologiya fani pedagogikada o’qituvchi va o’quvchilarning professional va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o’ynaydi. U ta’lim jarayonining sifatini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash va har bir ishtirokchining o’z potentsialini to’liq ro’yobga chiqarish imkoniyatlarini yaratadi. Akmeologik tamoyillarning ta’lim amaliyotida keng joriy etilishi zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va kelajak avlodning harmonik rivojlanishi uchun zaruriy shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Л.: ЛГУ, 1968. – 339 с.
2. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – М.: Наука, 1997. – 288 с.
3. Бодалев А.А., Ганжин В.Т., Деркач А.А. Человек и цивилизация в зеркале акмеологии (и акме как центральная формула здоровья, самопознания и творческого самоутверждения человека) // Мир психологии. – 2000. – № 1. – С. 89-108.
4. Бочарова Е.П. Акмеологический подход к образованию // Вестник ДВГТУ. – 2008. – №3. – С. 76-89.
5. Деркач А.А. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований. – М.: Изд-во РАГС, 1999. – 309 с.
6. Деркач А., Зазыкин В. Акмеология. – СПб.: Питер, 2003. – 256 с.
7. Кузьмина Н.В. Предмет акмеологии. – СПб.: Политехника, 2002. – 189 с.
8. Кузьмина Н.В. Акмеологическая концепция развития продуктивной компетентности специалиста. – Санкт-Петербург; Ковров, 2008. – 62 с.
9. Кузьмина Н.В., Пожарский С.Д., Паутова Л.Е. Акмеология качества профессиональной деятельности специалист. – Санкт-Петербург, Коломна, Рязань, 2008.
10. Максимова В.Н. Введение в акмеологию школьного образования. – СПб.: ЛОИРО, 2002. – 156 с.

YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO QILISH YO‘LIDA YOSHLAR BILAN HARBIY-TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Zulfiqorov Baxrom Biloliddinovich
O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga bag‘ishlangan. Maqolada katta va maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik komponentini shakllantirishda yuzaga kelayotgan zamonaviy murakkabliklar va muammolar tahlil qilingan. Xulosa qilib aytganda, vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish, o‘z Vatanini himoya qilishga tayyor faol va mas’uliyatli fuqaro bo‘lishga intilish muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: vatanparvarlik, tarbiya, yoshlar, tarbiya tizimi, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi.

ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ВОЕННО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ С МОЛОДЕЖЬЮ НА ПУТИ ПОСТРОЕНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Зулфикаров Бахром Билолиддинович,
независимый соискатель Академии Вооруженных Сил Узбекистана

Аннотация. Данная статья посвящена военно-патриотическому воспитанию молодежи в Узбекистане. В статье анализируются современные сложности и проблемы, возникающие при формировании компонента патриотизма у детей старшего и дошкольного возраста. В заключение можно сказать, что важно развивать патриотические чувства, стремиться быть активным и ответственным гражданином, готовым защищать свою Родину.

Ключевые слова: патриотизм, воспитание, молодежь, система воспитания, военно-патриотическое воспитание.

FUNDAMENTALS OF ORGANIZING MILITARY EDUCATIONAL WORK WITH YOUTH ON THE PATH OF BUILDING A NEW UZBEKISTAN

Zulfikarov Bahrom Biloliddinovich,
Independent applicant of the Academy of the Armed Forces of Uzbekistan

Abstract. This article is dedicated to the military-patriotic education of youth in Uzbekistan. The article analyzes modern complexities and problems arising in the formation of the component of patriotism in older and preschool children. In conclusion, it can be said that it is important to develop patriotic feelings, strive to be an active and responsible citizen ready to defend their Homeland.

Keywords: patriotism, education, youth, education system, military-patriotic education.

Har bir davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi, avvalo, uning fuqarolarining, xususan, yosh avlodning vatanparvarlik tuyg‘ulariga, yurtga sadoqatiga va harbiy bilimlariga bog‘liqdir. Shu sababli yoshlar bilan harbiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini olib borishning asosiy maqsadi – ularda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, fidoyilik ruhini shakllantirish, armiyada xizmat qilishga tayyor bo‘lishlarini ta’minlashdir. Bu jarayonda nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Yoshlarimizni vatanparvar, yurtimiz taqdiriga daxldor insonlar qilib tarbiyalash – biz uchun eng muhim vazifalardan biridir. Har bir yosh qalbida Vatan uchun jon fido qilish tuyg‘usi yashashi kerak”.

Harbiy-tarbiyaviy ishlarda faqat ta’lim muassasalari emas, balki oila va mahalla ham faol ishtirok etishi zarur. Ota-onalar farzandlariga Vatanga bo‘lgan sadoqat va mas’uliyat tuyg‘usini bolalikdan singdirishlari kerak. Mahalladagi yoshlar yetakchilari, faxriylar kengashi va jamoat tashkilotlari ham bu borada muhim rol o‘ynaydi, zero: “Yoshlarimiz qo‘lga qurol olib xizmat qilmasalar ham, har doim yurtimizga sodiq, uning tinchligi va xavfsizligi uchun kurasha oladigan fidoyi shaxslar bo‘lib voyaga yetishlari kerak”.

Hozirgi vaqtda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda chuqur o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu esa kundalik hayotimizga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi va boshqa bir qator omillar mamlakatimiz yoshlari va boshqa yosh guruhlariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlarning o‘zgarishi natijasida yoshlar begonalashishi mumkin, bu esa salbiy oqibatlarga olib keladi. Aksariyat yoshlar globallashuv jarayonlari tufayli inson qadr-qimmati va fuqarolik mas’uliyati haqida begona tushunchalarga ega bo‘ldi, bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy yoshlarning ma’naviy, axloqiy, ruhiy va jismoniy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. .

Ta’lim muassasalarida vatanparvarlikni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega, chunki bu mamlakatimiz kelajagi va kelajak avlodlar bilan bog‘liq. Yoshlarimiz mamlakatimiz oldida turgan vazifalarni uddalash uchun nafaqat zarur bilimga, balki yuksak aql-zakovatga ham ega bo‘lishi muhimdir. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asoslari nafaqat o‘zaro bog‘liq, muvozanatli va bir-birini taqozo etadigan, balki bir-birini to‘ldiradigan bo‘lishi kerak. Ushbu jarayonning maqsadli guruhi 7 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan, ya’ni chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlardir. Bu jarayonning mazmuni asosan ijtimoiy psixologiyadagi farqlar, bolalar va yoshlarning ma’lum guruhlarining yosh xususiyatlari va boshqa xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Vatanparvarlik tarbiyasi ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, u davomiyligiga ko‘ra bir necha bosqichlarga bo‘linadi.

Jarayonning bosqichlarga bo‘linishi uning yaxlitligi va uzluksizligiga to‘sqinlik qilmasligi kerak, chunki uning barcha tarkibiy qismlari fuqarolarni joriy ehtiyojlarga muvofiq harbiy xizmatga tayyorlashga qaratilgan.

I bosqich. Ushbu bosqich kirish bosqichi bo‘lib, vatanparvarlikni rivojlantirish, Vatanning to‘laqonli fuqarosi va uning himoyachisi bo‘lishga intilish uchun asos yaratishga qaratilgan.Kirish bosqichi 4 yil davom etadi, bu boshlang‘ich maktabdagi ta’lim bilan teng. Ushbu bosqichning o‘ziga xos xususiyati bolalarda bilish va motivatsion ehtiyojlar va qiziqishlarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu ehtiyojlar va qiziqishlar Vatanni himoya qilish zaruriyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi va bu jarayonda faol ishtirok etish psixologik bilish jarayoniga to‘liq jalb qilish, ayniqsa, bolalar shaxsining individual xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim faoliyatining turli xil o‘yin shakllari, usullari va uslublaridan foydalanish orqali erishiladi.

II bosqich - tayyorgarlik bosqichi. Jarayon natijasida Vatan himoyasiga tayyorgarlik ko‘rish va harbiy xizmatni o‘tash uchun zarur bo‘lgan asosiy komponentlar shakllantirildi. Ushbu elementlar yoshlardan nafaqat bunday xizmatning zarurligini tushunishni talab qiladi, balki harbiy majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy tayyorgarlik darajasini anglash muhimligini ta’kidlaydi. Tayyorgarlik bosqichi 4 yil davom etadi, bu o‘rta maktabdagi ta’limga teng. Harbiy-gumanitar soha kompetentligini rivojlantirish va shakllantirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

III bosqich - harbiy yo‘naltirilgan va bazaviy. Jarayon yakunida yoshlarning asosiy ijtimoiy ma’nolari, axloqiy va vatanparvarlik qadriyatlari, fikrlari, tamoyillari va fazilatlari muvaffaqiyatli shakllanganligiga ishonch hosil qilish, shuningdek, ularning harbiy xizmatga tayyorgarligining erishilgan minimal darajasini baholash lozim. Harbiy yo‘naltirilgan va bazaviy bosqich 2 yil davom etadi, bu o‘rta maktabdagi ta’limga teng (10-11 sinflar). Vatanparvarlik tug‘ma emas, vatanparvar bo‘lib tug‘ilmaydi, u shaxsning murakkab rivojlanish va shakllanish jarayoni natijasida vujudga keladi. Ota-onalarning mas’uliyatni o‘z zimmalaridan soqit qilib, uni o‘qituvchi va tarbiyachilarga yuklashga urinishlari, tarbiyachilar esa o‘z da’volarini ota-onalarga ag‘darishga harakat qilishlari

vaziyatni yanada og‘irlashtiradi. Yosh avlod tarbiyasiga hamma: oila, maktab, davlat arboblari mas’ul bo‘lib, ular bolalar uchun qulay muhit yaratishlari kerak.

Bizning davrimizda mehr-oqibat, oilaviy qadriyatlar, fuqarolik va vatanparvarlik maishiy va milliy darajada murosasizlikka duch kelmoqda. Jamiyatning sog‘lom qismi yosh avlodni tarbiyalash masalasi davlatning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini anglab yetmoqda. Allaqachon shakllangan salbiy tendensiyalarni bartaraf etish uchun ijtimoiy va axloqiy muammolarni zudlik bilan hal qilish zarur. Bu esa jamiyatning har bir a’zosidan faol hayotiy pozitsiyani, ota-onalar va pedagoglarni safarbar etish va birlashtirishni talab etadi. Vatanparvarlik mavhum tushuncha emas, u aniq narsalarga - ota-onaga, do‘stlarga, tug‘ilgan joyga bo‘lgan muhabbatga asoslanadi. Bolalar muhabbat va vatanparvarlik tuyg‘usi bilan tug‘ilmaydilar, ularga buni yonlarida bo‘lgan kattalar, birinchi navbatda, o‘zlarining xatti-harakatlari orqali o‘rgatishlari kerak . Ijro etuvchi hokimiyatning barcha ijtimoiy va yosh guruhlariga, shuningdek, jamiyatning asosi bo‘lgan oilaga yo‘naltirilgan uyg‘un va samarali faoliyatini ta’minlash uchun O‘zbekiston fuqarolarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish zarur. Bu siyosat ushbu ko‘p qirrali ishning ko‘p jihatlarini birlashtirishga va muvofiqlashtirishga qodir bo‘lgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tegishli davlat tizimi tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi turli tipdagi ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar, fuqarolik va vatanparvarlikni yaratish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, u davlat tuzilmalari, ijtimoiy harakatlar va tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan va amalga oshiriladigan keng ko‘lamli vatanparvarlik ishlarini ham o‘z ichiga oladi. Ommaviy axborot vositalari, ilmiy va boshqa tashkilotlar, ijodiy uyushmalarning faoliyati ham harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi masalalarini o‘rganish va yoritishga hamda fuqaro va Vatan himoyachisi shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi kerak. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining alohida va o‘ziga xos vazifasi mavjud bo‘lib, u tarbiyaviy ishning boshqa sohalaridan ajralib turadi. Uning maqsadi yoshlarni Vatanni himoya qilishning ekstremal vaziyatlariga, jumladan, tajovuzkorga qarshi qurolli kurashga tayyorlash, qurolli kuchlarda xizmat qilishga tayyorgarlikni shakllantirish va tinchlikni saqlash uchun kurashda faol ishtirok etishdan iborat. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tarbiya jarayonining boshqa jabhalari bilan uyg‘unlashtirishdan oldin uning mohiyatini, shaxsni shakllantirishdagi mustaqil vazifalarini chuqur o‘rganish lozim. Harbiy-vatanparvarlik faoliyati va tegishli ta’lim mazmunini aniqlash, shuningdek, vatanparvarlik va baynalmilallik fazilatlariga, matonat, jasorat va Vatanni himoya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxsni rivojlantirishga qaysi vaziyatlar, motivlar va hayotiy faoliyat sharoitlari ko‘proq hissa qo‘shishini aniqlash muhimdir. Vatanni himoya qilishga tayyor shaxsga qo‘yiladigan zamonaviy talablar nafaqat uning harbiy mehnatdagi qobiliyatlari bilan, balki bo‘lajak jangchi himoya qilishga tayyorlanayotgan umuminsoniy qadriyatlar tizimi bilan ham belgilanadi.

Vatanparvarlik, Vatan ravnaqi yo‘lidagi sa’y-harakatlar atoqli pedagog va yozuvchilar tomonidan inson ma’naviy hayotining asosiy tarkibiy qismlari sifatida qaralgan. Bunga Amir Temur, Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalar faoliyati, Navoiy, Avloniy asarlarida Vatanga muhabbat, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg‘ulari yorqin namoyon bo‘lganini misol qilib keltirish mumkin. Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning turli jihatlari tahlil qilingan, shuningdek, butun tizimning faoliyati o‘rganilgan tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar yosh avlodda vatanparvarlik qadriyatlari va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga qanday omillar va usullar samarali ta’sir ko‘rsatishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Vatanparvarlik shaxsning intellektual, hissiy-irodaviy va faol jihatlarining integral birikmasidir, ammo turli omillar ularning o‘zaro ta’sirini va vatanparvarlik yo‘nalishini shakllantirishga ta’sirini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Ijtimoiy-huquqiy jihatdan vatanparvarlik davlat, hokimiyatning fuqarolik jamiyati institutlari va alohida fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlari me’yorlari va tamoyillarini belgilaydi, jamiyatning barqarorligi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan vatanparvarlik jamiyat bilan birdamlik, ona zaminga mehr-muhabbat, ham shaxsiy, ham ijtimoiy farovonlikka erishishga intilish, bag‘rikenglik va xilma-xillikka hurmatni ifodalovchi his-tuyg‘ular va kechinmalarning murakkab uyg‘unligini aks ettiradi. Ijtimoiy-pedagogik kontekstda biz vatanparvarlikni shaxsning qadriyatli munosabati ob’ekti bo‘lgan o‘z Vataniga munosabatini ifodalovchi ijtimoiy-axloqiy qadriyat sifatida ko‘rib chiqamiz. Axloqiy fazilatlarning psixologik-pedagogik tahlilidan kelib chiqib, vatanparvarlik tushunchasini insonning boshqa odamlarga, jamiyatga, uning moddiy va ma’naviy qadriyatlariga, shuningdek, Vatan farovonligi va himoyasiga qaratilgan xilma-xil faoliyat turlariga munosabatini aks ettiruvchi shaxsning murakkab va yaxlit sifati sifatida ta’riflash mumkin. Yangi konsepsiya va nazariyalar odatda amaliyotga tatbiq etish zaruriyatidan kelib chiqadi. Ushbu amaliyot tor ixtisoslashgan faoliyat va jismoniy mehnatni yengillashtirish uchun texnikadan cheklangan miqyosda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lsa, odamlarni tayyorlash asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bilan cheklanadi. Shu bilan birga, Vatanni himoya qilishga tayyorlik boshqa ijtimoiy funksiyalarni bajarishga tayyorlikka qaraganda kamroq o‘rganilgan.

Qurolli kuchlarni sifatli to‘ldirish va ularning jangovar qobiliyatini, shuningdek, Vatanni himoya qilish vazifalarini bajarishga tayyorligini ta’minlash sharoitida o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhimligi doimo dolzarb ahamiyatga ega. Har qanday mamlakat mudofaasining asosini uning fuqarolari tashkil etadi. Xalqning vatanparvarlik, fidoyilik va sadoqatlilik darajasi urushlar va qurolli to‘qnashuvlarning natijasi uchun katta rol o‘ynaydi. Shu munosabat bilan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jiddiy va kompleks yondashuv talab etiladi..

Zamonaviy sharoitda o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosini hal etish uchun davlat idoralari, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va harakatlarining amaliy faoliyatiga konsepsiyalar, nazariyalar, metodikalar va texnologiyalarni joriy etish zarur. Ushbu yondashuvlar murakkab davlat va jamiyat organizmi bo‘lgan qurolli kuchlarni rivojlantirish istiqbollariga mos kelishi kerak. Nazorat qilinmaydigan axborot oqimining shakllanmagan shaxs uchun xavfliligini anglagan holda, axborot makonini tartibga solishda yanada muvozanatli yondashuvni amalga oshirish zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Axborot xavfsizligini ta’minlashning muhimligi nuqtai nazaridan mamlakat uchun turli xil axborot tahdidlari yuzaga kelmoqda. Ba’zi nashrlar siyosiy barqarorlikka putur yetkazishi va qonuniylik tamoyillarini buzishi mumkin. Global ommaviy axborot vositalari qonuniylikka, jumladan, ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonunlar, konstitutsiya va jinoyat qonunchiligiga rioya etishi uchun maxsus davlat yoki jamoatchilik nazorati organi tomonidan qat’iy nazorat o‘rnatish tavsiya etiladi. Chunki yolg‘on va xavfli ma’lumotlar yosh avlod ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zamonaviy nazorat usullarini ishlab chiqishda oldingi avlodlar tajribasini hisobga olish va ularni zamonaviy voqelikka moslashtirish zarur. Hozirgi vaqtda vatanparvarlikni shakllantirish zarurati faol muhokama qilinmoqda, bu ko‘plab me’yoriy hujjatlar, rejalar, loyihalar, ilmiy va ommaviy nashrlarda o‘z aksini topmoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki rivojlanayotgan davlatimizga o‘qishga, o‘z mamlakatining kelajagi uchun ishlashga, kerak bo‘lsa, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyor, sog‘lom, qat’iyatli, tashabbuskor, intizomli va bilimli kishilar kerak. Shu o‘rinda qo‘yidagi tavsiyalarni ilgari surishni lozimdir:

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida “Vatanparvarlik saboqlari”ni tizimli ravishda joriy etish: bu orqali yoshlarda vatanparvarlik to‘g‘risida chuqur tushuncha va hissiyot uyg‘otiladi.

Harbiy qismlarga muntazam ekskursiyalar uyushtirish: bu yoshlar ongida armiyaga nisbatan faxr va ishonch hissini mustahkamlaydi.

Faxriylar va xizmat qilgan yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etish: real hayot misollari orqali motivatsiyani kuchaytirish mumkin.

Harbiy-sport musobaqalari, “Shijoat” klublari va vatanparvarlik oromgohlarini tashkillashtirish:

bu yoshlarni jismonan va ma’nan tayyorlaydi.

Ota-onalar va mahalla faollari ishtirokidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni ko‘paytirish: tarbiyada oilaning roli juda muhim.

OAV va internet platformalari orqali vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilish: yoshlar internetda ko‘p vaqt o‘tkazgani uchun ushbu maydondan samarali foydalanish lozim.

“Yoshlar va armiya”, “Buyuk harbiy sarkardalar” mavzusidagi ijtimoiy videoroliklar, hujjatli filmlar yaratish: ommaviy ta’sir vositasi sifatida bu usul ham samarali hisoblanadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki milliy armiyamizning qudrati, mamlakatimiz xavfsizligi va barqaror rivojlanishi aynan fidoyi, yuksak ma’naviyatli va vatanparvar yoshlarga bog‘liqdir. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, har bir yosh o‘z yurtining haqiqiy fidoyisiga aylanishi, yurtimiz tinchligi va taraqqiyoti uchun mas’ullikni his etishi kerak. Bunday maqsadga erishish uchun esa harbiy-tarbiyaviy ishlarni izchil, tizimli va samarali tashkil etish talab etiladi. Yoshlar faqat armiyada xizmat qilish bilangina vatanparvarlikni ifoda etmaydi. Ular o‘qishda, mehnatda, jamiyatda faol fuqaro sifatida ham Vatan manfaatlariga xizmat qilishlari mumkin va kerak. Shuning uchun ham harbiy-tarbiyaviy ishlar barcha sohalardagi faoliyat bilan uyg‘unlashgan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz, 14.09.2016, №408-Q.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – www.prezident.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar — kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risidagi 2017 yil 5 iyuldagi PQ–3839-son qarori. – www.lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy armiyamizning jangovar salohiyatini mustahkamlash va harbiy xizmatni yanada obro‘li qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018 yil 14 yanvar, PF–5300-son. – www.lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 13 iyuldagi 518-son qarori. – www.lex.uz.

Shavkat Mirziyoev. “Yangi O‘zbekiston – islohotlar va natijalar zamini”. – T.: “O‘zbekiston”, 2022.

Sh.M. Mirziyoev. “Taraqqiyot strategiyasi – yangi bosqichdagi ustuvor vazifalarimiz” // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 yil 28 yanvar.

“Jismoniy tarbiya va sport” jurnali, №4, 2023. – Vatanparvarlik tarbiyasiga bag‘ishlangan maxsus son.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi materialları. – www.parliament.gov.uz.

Мохов В. П. Патриотизм и политика памяти в условиях глобализации // Технологос. 2019. № 3. С. 115-128.

Чекмарев Э. В., Дорофеева Е. С. Социально-национальное самосознание как стержень политической культуры молодежи // Вестник Поволжской академии государственной службы. 2012. № 1. С. 226-231.

Гладких В. В. Специфика использования системно-деятельностного подхода в исследовании гражданско-патриотического воспитания молодежи // Социально-экономические явления и процессы. 2011. № 1-2.

ZAMONAVIY MEDIA VOSITALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARDAN TA’LIMDA FOYDALANISH MASALASI

G‘aziyeva Dilfuza Muhamedqadirovna,
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ommaviy axborot vositalarining o’ziga xos xususiyatlari, ulardan ta’limda foydalanish sohalari, talabalar tomonidan ommaviy axborot vositalarini idrok etishning o’ziga xos xususiyatlari, ulardan ta’lim muhitida foydalanishning psixologik va pedagogik jihatlari haqida so’z boradi. O’qitish vositasi sifatida ommaviy axborot vositalarining eng muhim xususiyatlaridan biri bu turli jarayonlar, hodisalar, hodisalar, bog’liqliklar, sonli nisbatlar va boshqalarni taqdim etish qobiliyatidir. vizual shaklda, ya’ni. o’rganishda juda muhim rol o’ynaydigan fikrlashning vizual va majoziy tarkibiy qismlaridan foydalanish, shu jumladan ko’plab nazariy tushunchalarni tushuntirish va o’zlashtirish.Ommaviy axborot vositalari yordamida modellashtirish ob’ekt yoki hodisani turli sharoitlarda va turli nuqtai nazardan o’rganishga imkon beradi. Multimedia texnologiyasidan foydalanish yangi narsalarni tushunish uchun insonning barcha sezgilaridan foydalanishga imkon beradi va o’rganilayotgan ob’ektning rang-barang, uch o’lchovli tasvirini, taqdim etilgan materialni yaxshiroq o’zlashtirishga hissa qo’shadigan assotsiativ aloqalarni shakllantiradi. Gipermatn texnologiyasidan ilgari olingan bilimlarni faollashtirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va o’quv ishlarining ijodiy tarkibiy qismini oshirish uchun foydalanish mumkin. Shuningdek, maqolada tematik qiziqish va bilim olish o’rtasidagi yaqin munosabatni ta’kidlash muhimdir. O’quv jarayonida elektron vositalardan foydalanish yangi bilim sifati va ta’lim salohiyatiga olib kelishi mumkin, ammo ularning ta’limning psixologik va ijtimoiy jihatlariga ta’sirini ham hisobga olish kerak.

Kalit so’zlar: elektron OAV, media-ta’lim, interaktivlik, multimedia, modellashtirish, gipermatnli texnologiyalar, ta’limni axborotlashtirish, interaktiv hamkorlik, ergonomika.

ВОПРОС СПЕЦИФИКИ СОВРЕМЕННЫХ МЕДИА И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Газиева Дилфуза Мухамедкадировна,
старший преподаватель Ферганского государственного университета

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о специфике современных медиа, сферы их использования в образовании, особенности восприятия медиаинформации обучающимися, психолого-педагогические аспекты их применения в образовательной среде. Одна из важнейших особенностей медиа как средства обучения – его способность в наглядной форме представлять различного рода процессы, явления, события, зависимости, числовые соотношения и т.п., то есть задействовать наглядно-образные компоненты мышления, играющие исключительно важную роль в обучении, в том числе при разъяснении и усвоении многих теоретических понятий. Моделирование с помощью медиа позволяет изучать объект или явление в различных условиях, с разных точек зрения. Применение мультимедиа технологии позволяет задействовать для постижения нового все органы чувств человека и формирует красочный, объемный образ изучаемого объекта, ассоциативные связи, способствующие лучшему усвоению предъявляемого материала. Технология гипертекста может использоваться с целью активизации полученных ранее знаний, способствует развитию логического мышления, позволяет усилить творческую составляющую учебного труда. Также в статье важно отметить тесную взаимосвязь между тематическим интересом и приобретением знаний. Использование электронных средств в учебном процессе может привести к новым качествам знаний и образовательному потенциалу, но необходимо также учитывать их влияние на психологические и социальные

аспекты обучения.

Ключевые слова: электронные медиа, медиаобразование, интерактивность , мультимедийность, моделирование, технология гипертекста, информатизация образования, интерактивное взаимодействие, эргономика

THE ISSUE OF THE SPECIFICS OF MODERN MEDIA AND THEIR USE IN EDUCATION

Gaziyeva Dilfuza Mukhamedkadirovna,
Senior Lecturer, Fergana State University

Abstract. The article deals with the specifics of modern media, the spheres of their use in education, peculiarities of perception of media information by students, psychological and pedagogical aspects of their use in the educational environment. One of the most important features of media as a teaching tool is its ability to present various processes, phenomena, events, dependencies, numerical ratios, etc. in a visual form, i.e. to use visual and figurative components of thinking, which play an extremely important role in learning, including the explanation and assimilation of many theoretical concepts.

Modelling with the help of media allows studying an object or phenomenon in different conditions and from different points of view. The use of multimedia technology allows to use all the human senses to comprehend new things and forms a colourful, three-dimensional image of the studied object, associative links that contribute to better assimilation of the presented material. Hypertext technology can be used to activate previously acquired knowledge, promote the development of logical thinking, and enhance the creative component of educational work. It is also important to note the close relationship between thematic interest and knowledge acquisition. The use of electronic media in the learning process can lead to new qualities of knowledge and educational potential, but its impact on psychological and social aspects of learning must also be taken into account.

Key words: electronic media, media education, interactivity, multimedia, modelling, hypertext technology, informatisation of education, interactive interaction,ergonomics.

ВВЕДЕНИЕ. Современные технологии информации и коммуникации позволяют настраивать образовательный процесс на индивидуальные потребности даже в рамках группового обучения, которое ранее основывалось на обучении, ориентированном на «среднестатистического» учащегося. Традиционные методы обучения находят новые возможности благодаря медийным средствам икоммуникации,чтокачественно изменяет содержание образования и методику преподавания. Медиа существенно меняют подход к учебным предметам, позволяя внедрить широкомасштабное использование задач, направленных на анализ собственной деятельности учащихся и их саморегуляцию, что ранее было затруднительно даже в индивидуальном обучении.

Психологические аспекты информатизации образования представляют собой многостороннюю проблематику. Это включает вопросы о месте медиа в учебном процессе, роли учителя в использовании образовательных систем, взаимодействия ученика с медийными средствами, а также особенностей диалога между ними (включая исследование различных форм взаимодействия, таких как реактивное, активное и интерактивное взаимодействие между учеником и компьютером, а также основные типы компьютерных программ образовательного назначения). Все более актуальным становится научное обоснование проблем защиты человека от манипуляций со стороны медийных источников.

Методология и анализ литературы. Современные информационные условия вносят новые требования к педагогической личности и его профессиональным качествам, переосмысливают его роль в образовательном процессе. Электронные медиа, хоть и могут

в определенной мере моделировать деятельность учителя, не могут полностью заменить его, оставляя ему скорее роль наблюдателя-консультанта. Тем не менее, согласно А.В. Федорову и Т.А. Шумилиной, педагог не должен игнорировать влияние информационных и коммуникационных средств на образовательный процесс. Существует потребность в гармонизации, корректировке и множестве информационных потоков, ориентированных на современных школьников, а также в использовании образовательного потенциала медиа для педагогических целей.[1,94]. Согласно А.В. Осину, современный учитель должен уметь не только использовать медиапродукты и информационные ресурсы, но и создавать собственные учебные материалы, эффективно внедрять электронные медиа как в подготовке к урокам, так и в процессе преподавания, а также для повышения своей квалификации. Гибкость, ангажированность и творческая активность педагога в использовании медиа являются ключевыми условиями успешного применения современных информационных и коммуникационных средств в учебно-воспитательном процессе.[2,107]

Учет педагогических аспектов использования медиа в учебно-воспитательном процессе имеет важное значение для перестройки всей системы образования в соответствии с требованиями современного информационного общества.

Некоторые особенности использования этих технических средств в образовательной среде можно выделить, исходя уже из самой сущности электронных медиа:

Интерактивность: возможность взаимодействия и диалога между участниками, включая передачу информации и совершение действий.

Мультимедийность: представление информации с использованием различных форматов, таких как фотографии, видео, графика, анимация и звук.

Способность к моделированию: возможность создания моделей реальных объектов и процессов для исследования.

Коммуникативность: способность общаться и представлять информацию оперативно, в том числе через сетевые технологии.

Производительность: автоматизация рутинных операций, что позволяет сэкономить время и усилия.

А.В. Осин, обращая внимание на новые возможности, которые предоставляют электронные медиа для системы образования, выделяет пять новых педагогических инструментов. Например, интерактивность впервые позволяет проводить самооценку без прямого участия преподавателя. Коммуникативность решает проблемы оперативной передачи информации, позволяет удаленно управлять учебным процессом и обеспечивает консультации с опытными педагогами в любом месте[2,119].

Однако эти возможности также важно рассматривать с педагогической точки зрения в контексте использования электронных медиа в учебно-воспитательном процессе. Мультимедийность создает психологические условия, способствующие лучшему восприятию и запоминанию материала. Внедрение новых информационных технологий в образование приводит к так называемой психофизиологической ориентации обучения, которая повышает эффективность обучения путем создания оптимальных функциональных состояний, улучшающих способность мозга к усвоению информации. Мультимедиа позволяют использовать несколько каналов передачи информации одновременно и создают среду, где различные формы взаимодействуют друг с другом. Это открывает перед учениками широкие возможности для творческого использования различных информационных источников, каждый из которых имеет свой язык. Например, некоторые из них ориентированы на пространство (текст, графика), в то время как другие — на время (звук, анимация, видео).

Одной из ключевых особенностей медиа как образовательного инструмента является его способность наглядно представлять различные процессы, явления и зависимости, что

активизирует наглядно-образное мышление, играющее важную роль в обучении, включая объяснение и усвоение теоретических понятий.

Моделирование с использованием медиа позволяет изучать объекты или явления с разных точек зрения и в различных условиях. Мультимедийные технологии позволяют задействовать все органы чувств человека для изучения нового материала и формируют яркие, многомерные образы изучаемых объектов, что способствует лучшему усвоению информации. Технология гипертекста может использоваться для активизации уже полученных знаний, развития логического мышления и стимулирования творческой составляющей учебного процесса.

Современные средства представления информации позволяют значительно учитывать эргономические требования к учебным материалам: выбирать размер и тип шрифта, вставлять в текст не только рисунки, но и звуковые фрагменты или киноклипы. Это создает новую с точки зрения эргономики ситуацию: учащийся самостоятельно выбирает наиболее удобные для себя характеристики изучаемого материала. Современный ученик может собственным выбором иллюстрировать материал, делая его более персональным. Он может самостоятельно обрабатывать информацию из сети, выбирая нужные аргументы и структурируя их в соответствии со своей точкой зрения и образом мышления [3,46]. В результате учащиеся глубже погружаются в изучаемый материал, проявляют больший интерес к предмету и активнее работают с учебной литературой.

РЕЗУЛЬТАТ И ОБСУЖДЕНИЕ. Использование медиа ориентировано на индивидуализацию обучения в рамках коллективного процесса и выступает как объект изучения, так и средство обучения. При индивидуализации каждый ученик активно участвует в процессе, что стимулирует мыслительную деятельность, удовлетворяет познавательные потребности и развивает творческую активность. Электронные медиа позволяют выбирать оптимальный темп обучения, контролировать и корректировать усвоение материала непосредственно в процессе урока. Ученик может реализовать собственные методы и приемы усвоения материала.

В условиях индивидуализации необходимо учитывать принципы личностно-ориентированного обучения, что означает признание самоценности индивида как активного субъекта познания, ориентацию на жизненный опыт обучаемого, его саморазвитие и самообучение, а также учет его индивидуальных психофизиологических особенностей и развитие коммуникативных способностей. .[3,87]

Медиа обладают также значительными воспитательными возможностями: они приучают к аккуратности, внимательности и организованности. Средства графики и музыкальные фрагменты снимают напряжение, а работа с компьютером развивает умение планировать деятельность и принимать ответственные решения. Современные информационные технологии открывают новые возможности для изучения эстетики и стимулируют продуктивные и творческие функции мышления.

Мультимедийные энциклопедии и телекоммуникационные технологии помогают изучать творчество выдающихся мастеров и развивают у учащихся художественный вкус, фантазию и творческие способности.

Использование информационных и коммуникационных технологий в образовании направлено на формирование познавательных мотивов у обучаемых, что способствует устойчивой активности и повышает эффективность усвоения знаний. Это достигается через методическую помощь, интерактивный диалог и возможность выбора темпа и вида учебной деятельности в зависимости от уровня подготовленности.

Однако существует ряд моментов, касающихся психологических аспектов информатизации образовательной среды, которые вызывают неоднозначную реакцию.

Например, иллюстрации и графики могут положительно влиять на усвоение

информации, однако простое совмещение различных чувственных восприятий не всегда улучшает познавательные процессы. Более важно, чтобы пользователи могли декодировать символьные и кодовые системы.

Также важна тесная взаимосвязь между тематическим интересом и приобретением знаний. Хорошо организованная работа с использованием медиа может оказаться неэффективной, если учащиеся не заинтересованы в предложенной теме.

Эффект новизны, который сопровождает использование электронных средств коммуникации, может привести к мотивации и интересному изложению материала, но со временем этот интерес может угаснуть.

Педагоги, применяющие медиа в образовательном процессе, должны учитывать эти особенности. Например, новые формы общения, возникающие под влиянием медиа, должны учитывать требования к точности формулировок и логичности изложения, а также уделять больше внимания рефлексии, несмотря на снижение роли эмоциональных средств общения.

Влияние электронных медиа на личность обучаемого может проявляться в разной степени: от локального, связанного с конкретными психическими явлениями (например, использование компьютерного сленга), до глобального, свидетельствующего об изменениях личности в целом (например, интернет-зависимость или синдром хакера). Психологи, педагоги и специалисты в области информационных технологий активно изучают последствия информатизации для различных видов деятельности, таких как игровая, учебная и профессиональная. Однако вопросы глобальных изменений в психике личности до конца еще не исследованы.

Внедрение любых новых технологий, в том числе и медиа, часто направлено на освобождение человека от рутинных операций и создание условий для его развития. Однако нецелесообразное использование медиа может привести к потере навыков и умений. Например, слишком широкое использование калькуляторов в начальной школе может привести к утрате у детей навыков устного счета. Это может привести к тому, что учащиеся не смогут правильно оперировать понятием числа из-за отсутствия базовых навыков с числами.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Таким образом, внедрение медиа в учебный процесс должно сопровождаться специальными мерами, направленными на эмоциональное развитие личности учащихся, чтобы избежать технократического мышления Также важно, чтобы задача педагога заключалась не только в обеспечении доступа к разнообразной информации через современные медиа, но и в направлении усилий обучаемых на самостоятельное формирование знаний..

Современные медиа могут способствовать как позитивным, так и негативным последствиям. Оценка того или иного воздействия должна быть комплексной, и педагоги должны проанализировать все возможные воздействия на личность обучаемого. Использование электронных средств в учебном процессе может привести к новым качествам знаний и образовательному потенциалу, но необходимо также учитывать их влияние на психологические и социальные аспекты обучения.

В заключении можно сказать, что последствия применения медиа могут быть как позитивными, так и негативными, к оценке той или иной технологии нельзя подходить односторонне. Планируя использование электронных средств в учебно-воспитательном процессе, педагог должен проанализировать те возможные прямые и косвенные воздействия на личность обучаемого, которые и будут определять направления его развития.

Относительно дидактических и воспитательных возможностей новых медиа у педагогов существуют различные точки зрения. Большинство же исследователей сходится во мнении, что применение новых информационных технологий в учебном процессе позволяет

достигнуть нового качества знаний, причем этот образовательный потенциал заложен в самой идее информационных средств.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

Федоров А.В Отношение учителей к проблеме медиаобразования школьников Таганрог: Кучма, 2005 -314с

Осин А .В. Мультимедиа в образовании: контекст информатизации. М Агентство «Издательский сервис», 2004. 320 с

Шумилина Т.А. Инновационные технологии учителя-предметника // Тезисы докладов XIII Международной конференции-выставки «Информационные технологии в образовании» М , 2002.с 193

Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHGA KOGNITIV YONDASHUVLAR

Тажбенова Сауле Сарсенгалиевна,
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти, Бошланғич таълим кафедраси доцент, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirishda kognitiv yondashuvni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash faoliyatini faollashtirish va til ongini rivojlantirishning ahamiyati alohida ta’kidlangan. Milliy ta’lim kontekstini hisobga olgan holda kognitiv paradigmaga mos keladigan pedagogik usullar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv yondashuv, lingvistik kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, til ongi, ko‘nikma, malaka.

КОГНИТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Тажбенова Сауле Сарсенгалиевна,
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, доцент кафедры начального образования, кандидат педагогических наук (PhD)

Аннотация. В данной статье проанализированы особенности применения когнитивного подхода в формировании лингвистической компетенции у младших школьников. Особое внимание уделено актуализации мыслительной деятельности учащихся и развитию языкового сознания. Рассмотрены педагогические методы, соответствующие когнитивной парадигме, с учётом контекста национального образования.

Ключевые слова: когнитивный подход, лингвистическая компетенция, начальное образование, языковое сознание, навык, умение.

COGNITIVE APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCE IN PRIMARY EDUCATION

Tajbenova Saule Sarsengaliyevna,
Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of Primary Education, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annotation. This article analyzes the specific features of applying a cognitive approach in the development of linguistic competence among primary school students. Special attention is given to the activation of students’ thinking processes and the development of language awareness. Pedagogical methods aligned with the cognitive paradigm are examined within the context of national education.

Keywords: cognitive approach, linguistic competence, primary education, language awareness, skill, ability.

Respublikamizdagi zamonaviy boshlang‘ich ta’lim o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda ta’limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishning poydevori sifatida til ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim o‘rin egallaydi. Umumiy ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish bo‘yicha Davlat dasturini amalga oshirish doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining funksional savodxonligini, jumladan, til va muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda grammatik qoidalarni mexanik tarzda yodlash va lug‘at boyligini oddiy eslab qolishga asoslangan an’anaviy yondashuv asta-sekin kognitiv ta’lim modellariga o‘z

o‘rnini bo‘shatib bermoqda. Kognitiv yondashuv tilni nafaqat amaliyot orqali, balki, tushunish, tahlil qilish, bolaning shaxsiy tajribasi bilan bog‘lash asosida o‘zlashtiriladigan tizim sifatida idrok etish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muhim, chunki ularning tafakkuri aniq operatsiyalar bosqichida (J.Piaje nazariyasiga ko‘ra) bo‘lsa-da, allaqachon mavhumlashtirish, tasniflash va mantiqiy xulosalar chiqarish yo‘nalishida faol rivojlanmoqda.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida kognitiv jarayonlarni faollashtirish orqali til ongini rivojlantirishga qaratilgan usullar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Masalan, 1-4-sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishda o‘qituvchilar “assotsiativ doira” metodidan foydalanadilar: o‘quvchilarga “daftar” so‘zi taklif etiladi va u bilan bog‘liq barcha narsalarni aytish so‘raladi – “qalam”, “maktab”, “sinf”, “o‘quvchi”. Bunday faoliyat nafaqat so‘z boyligini oshiradi, balki, turkumlash va tizimlashtirish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Yana bir misol, o‘zbek va rus tillarini o‘rganishda qiyosiy jadvallardan foydalanish bo‘lib, bu ayniqsa, ikki tilli maktablarda dolzarbdir. Masalan, o‘quvchilarga “Men maktabga boraman” va “Я иду в школу” kabi konstruksiyalarni taqqoslash taklif etiladi. Bu esa tuzilmalarni kognitiv jihatdan solishtirish va til qonuniyatlarini ongli ravishda tushunishni rag‘batlantiradi.

V.V.Davidov ta’kidlaganidek, “tafakkurni rivojlantirish faqat bilimlarni faol o‘zlashtirish sharoitida mumkin” [1, 14-bet]. Boshlang‘ich ta’lim nuqtai nazaridan bu shunday sharoitlarni yaratish zarurligini anglatadiki, bunda bola qoidalarni shunchaki yodlovchi emas, balki tilni o‘rganishning faol ishtirokchisiga aylanadi. Kognitiv ta’limda til nafaqat muloqot vositasi, balki fikrlash, tahlil qilish va qo‘llash obyektiga ham aylanadi.

Shunday qilib, til o‘qitishga kognitiv yondashuvlar O‘zbekistonning ijodkor va intellektual faol avlodni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim siyosati sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

1. Kognitiv yondashuvning nazariy asoslari. Lingvodidaktikadagi kognitiv yondashuv tilni o‘zlashtirishni grammatik qoidalar va so‘zlarni mexanik tarzda yodlash emas, balki til ma’lumotlarini mazmunli idrok etish, qayta ishlash va ifodalashni ta’minlaydigan ichki kognitiv tuzilmalarning faol shakllanishi va rivojlanishi degan g‘oyaga asoslanadi. An’anaviy usullardan farqli o‘laroq, kognitiv paradigmada asosiy e’tibor o‘zlashtirilgan materialning hajmiga emas, balki o‘quvchining tushunish chuqurligi va yangi nutqiy vaziyatlarda bilimlarni mustaqil qo‘llash qobiliyatiga qaratiladi.

Ye.S.Polat ta’kidlaganidek, kognitiv strategiyalar til materialini passiv takrorlash orqali emas, balki faol fikrlash orqali tushunish, tizimlashtirish va ongli ravishda foydalanishga yo‘naltirilgan [2, 89-b.]. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchi ta’lim obyekti emas, balki o‘zining lisoniy dunyoqarashini shakllantiruvchi, bilish faoliyatining subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv yondashuvning o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilarda quyidagi asosiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirishdir:

Turkumlash – til hodisalarini ma’no, grammatik va funksional belgilariga ko‘ra guruhlash qobiliyati. Masalan, so‘z turkumlarini o‘rganishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari so‘zlarni tasniflash bo‘yicha topshiriqlarni bajarishlari mumkin: bola so‘zini otlarga, u – olmoshlarga, kuldi – fe’llarga kiritish, shu bilan birga ular bu tanlovni qanday asosda qilganliklarini tushuntirishlari lozim.

Konseptuallashtirish – mavhum tushunchalarni aniq til ifodasi bilan bog‘laydigan ichki til modelini shakllantirish. Masalan, “Fe’l zamonlari” mavzusini o‘rganishda bolalar fe’lning shakli aytilganlarning ma’nosini o‘zgartirishini anglagan holda Men kitob o‘qiyapman (hozirgi), Men kitob o‘qidim (o‘tgan), Men kitob o‘qiyman (kelasi) zanjirlarini tuzadilar.

Analogiya – bilimlarni bir til vaziyatidan boshqasiga ko‘chirish. Masalan, o‘quvchi daftarlar so‘zida ko‘plik qanday hosil bo‘lishini bilsa, o‘xshatish yo‘li bilan o‘quvchilar, qalamlar, do‘stlar shakllarini hosil qila oladi.

Modellashtirish – o‘quvchining o‘z til konstruktsiyalari, sxemalari va tuzilmalarini yaratishi. Masalan, o‘qituvchi bolalarga ma’lum elementlar (ega, kesim, to‘ldiruvchi) yozilgan

kartochkalardan foydalanib “gap modeli”ni tuzishni taklif qilishi mumkin: Oybek (kim?) kitob (nimani?) o‘qiyapti.

Ushbu kognitiv harakatlar, ayniqsa, boshlang‘ich maktabda dolzarbdir, chunki bu davrda neyron aloqalarining, ko‘rish va eshitish xotirasining, obrazli fikrlashning faol rivojlanishi kuzatiladi. Kognitiv yondashuv o‘quvchining izlanish, mantiqiy va ijodiy faoliyatga doimiy jalb etilishi orqali bu rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, bolalar ko‘pincha ikki yoki uch tilli (o‘zbek, rus, ingliz) muhitda o‘sadigan O‘zbekistonning madaniy-lisoniy kontekstini ham ta’kidlash lozim. Bunda kognitiv strategiyalar nafaqat har bir tilni alohida o‘zlashtirish, balki ularni ongli ravishda farqlash, tillar o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish imkonini beradi. Masalan, sonlarni o‘rganishda o‘quvchilar moslik jadvallarini tuzishlari mumkin: bir – один – one, ikki – два – two, bu tillararo aloqalarni yaxshiroq eslab qolish va anglashga yordam beradi.

Shunday qilib, til o‘qitishda kognitiv yondashuv nafaqat so‘zlar va qoidalarni bilish, balki keyingi muvaffaqiyatli ta’lim va nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun asos bo‘ladigan lisoniy fikrlash tizimini shakllantiradi.

2. Boshlang‘ich ta’limda lingvistik kompetensiya. Lingvistik kompetensiya til ta’limining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ta’limning boshlang‘ich bosqichida nutqiy, kommunikativ va ijtimoiy-madaniy kompetensiyani yanada rivojlantirish uchun asos sifatida shakllanadi. Chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalariga (CEFR) ko‘ra, lingvistik kompetensiya grammatik tuzilmalar, imlo, fonetika, sintaksis, shuningdek, tilning leksik-semantik xususiyatlarini bilish va tushunishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi boshlang‘ich ta’lim sharoitida lingvistik kompetensiyani shakllantirish nafaqat davlat (o‘zbek) tilini o‘qitishni, balki ta’lim muassasasi turi va o‘quvchilarning til muhitiga qarab rus va ingliz tillarini o‘qitishni ham qamrab oladi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, ya’ni ko‘rgazmalilik orqali idrok etish, obrazli tafakkurga tayanish, qayta-qayta takrorlash zarurati, bolaning shaxsiy tajribasini dolzarblashtirish kabilarga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy o‘quv dasturida ta’kidlanganidek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari “til birliklarini tahlil qilishning elementar ko‘nikmalarini egallashlari, shuningdek, ularni nutq amaliyotida qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishlari kerak” [3]. Bu passiv yodlashdan til mexanizmlarini mazmunli o‘zlashtirishga o‘tishni anglatadi – bu kognitiv paradigmaga to‘liq mos keladi.

Amaliyotda ushbu yonashuvlarni qo‘llash bo‘yicha quyidagi misollarni ko‘rib chiqamiz:

Grammatik tuzilmalar. O‘zbek tilidagi kelishik shakllarini (masalan, nomiyot – nomiyotni – nomiyotga va h.k.) o‘rganishda bolalarga savollar (kim? nimani? qayerga?) va ularga mos otlar yozilgan o‘yin kartochkalaridan foydalanish taklif etiladi. Bu nutqiy vaziyatlarni modellashtirish orqali grammatik kategoriyalarni mazmunli o‘zlashtirishga yordam beradi.

Fonetika va talaffuz. O‘zbek tili darslarida o‘qituvchi fonetik o‘yinlardan foydalanishi mumkin: masalan, so‘zlardagi qattiq va yumshoq undoshlarni aniqlash yoki berilgan tovushlardan so‘z tuzish (b-a-r-a-k-a). Bu o‘quvchilarga so‘z tuzilishini eshitish va anglashga, fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Orfografiya va imlo. Rus tilida so‘z o‘zagidagi urg‘usiz unlilarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish muhim yo‘nalish hisoblanadi. O‘qituvchilar “so‘z yasash narvoni” usulini qo‘llaydilar: glaz – glazik – glaznoy, bu o‘quvchilarga so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va orfogrammani ongli ravishda eslab qolish imkonini beradi.

Sintaksis va gap tuzish. Ingliz tili darslarida o‘quvchilar I have a pen / This is my bag / I like apples namunasi bo‘yicha predmetlar, kishilik olmoshlari va fe’llar tasvirlangan kartochkalardan foydalanib, sodda gaplar tuzishni o‘rganadilar. Bunday mashqlar fikrni tuzilmalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Til birliklari tahlili. Masalan, o‘zbek tilidagi qisqa matnlar ustida ishlashda o‘quvchilarga barcha fe’llarning tagiga chizish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish, so‘z turkumlarini aniqlash taklif etiladi. Bu tahliliy tafakkurni faollashtiradi va lingvistik tahlilning dastlabki ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ta’limning dastlabki yillaridan boshlab lingvistik kompetensiyani tizimli rivojlantirish nafaqat savodli og‘zaki va yozma nutqni shakllantirishni ta’minlaydi, balki boshqa fanlarni, ayniqsa, matnlar bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va turli shakllarda javob berish talab qilinadigan fanlarni o‘zlashtirish uchun poydevor yaratadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston ta’lim siyosatida lingvistik kompetensiyani shakllantirish strategik vazifa sifatida qaraladi va uni amalga oshirish faqat bolalarning yosh xususiyatlariga ham, zamonaviy ta’lim talablariga ham mos keladigan kognitiv yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali mumkin bo‘ladi.

3. O‘zbekiston sharoitida kognitiv metodlarni qo‘llash. Respublikamiz ta’lim tizimini isloh qilish sharoitida nafaqat bilim berish, balki tafakkur, tasavvur, til sezgisi va tildan ongli ravishda foydalanish qobiliyatini rivojlantirishni ta’minlaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kognitiv usullarni joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda, ular ayniqsa boshlang‘ich bo‘g‘inda samarali amalga oshiriladi, chunki bu davrda bola tushunish orqali tizimli ta’limga eng moyil bo‘ladi.

Quyida Respublikamiz boshlang‘ich maktablarida kognitiv metodlarni qo‘llashning amaliy misollari keltirilgan:

1. Kognitiv xaritalash. Bu usul boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasavvur qilishga yordam beradi. Masalan, ingliz tili darsida “Mening oilam” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilar markazida family so‘zi, atrofida esa mother, father, sister, brother, grandmother, grandfather so‘zlari yozilgan xarita tuzadilar. Har bir so‘zga rasm va o‘quvchi tomonidan tuzilgan qisqa jumla ilova qilinadi (This is my mother. Her name is Nilufar.).

Bunday mashq quyidagilarga yordam beradi:

- ko‘rish va mantiqiy xotirani faollashtirish;
- leksik birliklar o‘rtasida semantik aloqalarni shakllantirish;
- yangi leksikani ongli ravishda o‘zlashtirishni ta’minlash.

2. Konseptual jadvallar. O‘zbek yoki rus tillarida grammatikani o‘qitishda «so‘z turkumi – vazifa – misollar» jadvalidan foydalaniladi. Masalan, 3-sinfda fe’llarni o‘rganishda quyidagi jadval tuziladi:

Fe’l	Savol	Zamon	Misol
bormoq	nima qilmoq?	hozirgi	Men maktabga boraman
o‘qimoq	nima qilmoq?	o‘tgan	U kitob o‘qidi

Bu bolalarda til hodisalarini tasniflash va tizimlashtirish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi, metatil tafakkurini rivojlantiradi.

3. Vaziyatli-rolli o‘yinlar. Masalan, 4-sinfda “Do‘konda” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarga dialoglar o‘ynash taklif etiladi: bir o‘quvchi xaridor, ikkinchisi sotuvchi rolini bajaradi. Nutq tovar namunalari va kartochkalari asosida tuziladi (“Men ... sotib olmoqchiman”, “Bu qancha turadi?”, “Marhamat”). Bu o‘yinlar:

- haqiqiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- nutq ravonligi va ohangdorligini rivojlantiradi;
- leksik-grammatik tuzilmalarni amalda mustahkamlashga yordam beradi.

4. Aqliy hujum va assotsiativ zanjirlar. 2-sinf o‘zbek tili darsida o‘qituvchi “daraxt” so‘zini taklif qiladi va bolalardan bu so‘z bilan bog‘liq barcha so‘zlarni aytishni so‘raydi: barg, meva, soyabon, yaproq, bahor, tabiat. Bu so‘zlardan hikoya yoki she’r tuziladi.

Bu usul:

- so‘z ijodkorligi va obrazli tafakkurni rivojlantiradi;
- so‘z boyligini oshirishga yordam beradi;
- ijod orqali til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Ta’limga kognitiv strategiyalarni joriy etish bo‘yicha tajriba loyihasida ishtirok etgan buxorolik boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi suhbatda quyidagilarni ta’kidladi: “Kognitiv topshiriqlarni qo‘llash so‘zlarni shunchaki yodlash emas, balki ularning ma’nosini va ma’lum bir vaziyatda o‘rinli ekanligini anglash imkonini beradi. Masalan, fe’lning zamon shakllarini o‘rganishda bolalar rasmlar va tayanch so‘zlardan foydalanib, o‘zlari haqida hozirgi va o‘tgan zamonda hikoya tuzdilar. Bu nafaqat xotirani, balki tafakkurni ham faollashtiradi” [4].

Shunday qilib, kognitiv usullar O‘zbekistonning funksional savodxonlikni shakllantirish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim siyosatiga uzviy ravishda mos keladi. Ulardan tizimli foydalanish nafaqat lingvistik kompetensiyani shakllantirish, balki bolaning kognitiv sohasi – xotira, tafakkur, diqqat va tasavvurning yaxlit rivojlanishi uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

4. O‘qituvchi va ta’lim muhitining roli. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishga kognitiv yondashuv o‘qituvchidan ta’lim jarayonidagi o‘z rolini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. O‘qituvchi endi yagona axborot manbai emas, u o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va lisoniy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim maydonini tashkil etuvchi yordamchi, rag‘batlantiruvchi va yo‘l ko‘rsatuvchiga aylanadi.

T.A.Ladijenskaya ta’kidlaganidek, “o‘qituvchi o‘quvchilarning ijodiy til faoliyati uchun sharoit yaratishi, tanlov erkinligini ta’minlashi, yechimlarni mustaqil izlashni rag‘batlantirishi kerak” [5, 47-b.]. O‘zbekiston boshlang‘ich maktabida bu o‘qituvchi:

o‘quvchiga til qonuniyatlarini o‘zi aniqlash imkoniyatini beradi (masalan, misollarni tahlil qilish jarayonida);

ochiq tugallanishli topshiriqlarni taklif qiladi (masalan, tayanch so‘zlar bo‘yicha insho);

ijtimoiy va til o‘zaro ta’sirini rag‘batlantiradigan juftlik va guruh ishlarini tashkil etadi;

metapredmet ko‘nikmalarini – til materiallari asosida fikrlash, tahlil qilish, tasniflash, umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, kognitiv yondashuv nafaqat uslubiy yangilik, balki O‘zbekistonning intellektual rivojlangan, ijodkor va til kompetensiyasiga ega shaxsni shakllantirish bo‘yicha strategik vazifalariga mos keladigan boshlang‘ich maktabda zamonaviy til ta’limining poydevoridir. Uni amalga oshirish pedagoglar, metodistlar, davlat tuzilmalari va raqamli ta’lim infratuzilmasining sa’y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. — М.: Педагогика, 1986. — 240 с.
2. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2007. — 272 с.
3. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Босқичма-босқич таълим дастури (1–4-синфлар). — Тошкент, 2022.
4. Ахмедова Н. (2023). Интервью с учителем начальных классов. // Газета “Таълим ва тараққиёт”, №7.
5. Ministry of Preschool and School Education of Uzbekistan. Digital Education Strategy 2030. — Tashkent, 2023.

KOLLABORATIV YONDASHUV ORQALI O‘SMIR QIZLAR TARBIYASIDA IJTIMOIY HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Muxamedova Sharofatjon Muxammadaliyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smir qizlarning ta’lim-tarbiyasida duch kelinayotgan muammolarni bartaraf etishda kollaborativ yondashuvning samarali usullari tahlil qilinadi. Jumladan, maktab, ota-ona, psixolog va ijtimoiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarni faol subyekt sifatida jalb etish, shaxsiy rivojlanish uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish kabi amaliy mexanizmlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘smir qizlarda ijtimoiy-emotsional barqarorlik, o‘zaro muloqot madaniyati va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda kollaborativ ta’lim strategiyalarining tutgan o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida qizlar bilan ishlashda integrativ va genderga moslashgan hamkorlik modellarining ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: kollaborativ yondashuv, o‘smir qizlar, ijtimoiy hamkorlik, ta’lim-tarbiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash, gender yondashuv, oila-maktab hamkorligi, shaxsiy rivojlanish, emotsional barqarorlik, muloqot madaniyati

Zamonaviy o‘smir qizlarning ijtimoiy faolligi, kommunikativ ko‘nikmalari va guruhdagi o‘zaro munosabatlari bundan o‘n-ikki yil avvalgi avlod vakillarinikidan tubdan farq qiladi. Bugungi yoshlar bolalikdan boshlab raqamli qurilmalar bilan bevosita muloqotda bo‘lib, ko‘plab ma’lumotlarga kattalar ishtirokisiz erkin kirish imkoniga ega. Ular mustaqil ravishda savollarga javob topishni, Internet orqali bilim olishni erta bosqichdayoq o‘zlashtirib borishmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim-tarbiyada murabbiy va o‘qituvchining an’anaviy rolini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Zamonaviy pedagog endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki o‘smirlar bilan hamkorlik qiluvchi, ularni muloqotga jalb qiluvchi, fikrlashga, savol berishga, tinglash va tushuntirishga o‘rgatuvchi shaxs sifatida maydonga chiqadi. Ayniqsa, qizlar tarbiyasida kollaborativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki texnologik bilimlarning o‘ziga xos rivojlanishiga qaramay, ko‘plab o‘smir qizlar muloqotda qiyinchilikka uchramoqda: ular ochiq dialogga kira olmaydilar, fikrlarini asoslashda qiynaladilar, jamoaviy ishlardan chetlashishga intiladilar.

Bu holat nafaqat ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlariga to‘sqinlik qiladi, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanish, nizolarni hal qilish, o‘zaro hurmat va empatiya kabi hayotiy ko‘nikmalarning shakllanishini ham sustlashtiradi. Shuning uchun ham o‘smir qizlar tarbiyasida samarali kollaborativ uslublarni joriy etish, ularning ijtimoiy hamkorlik muhitida faol ishtirokini ta’minlash, birgalikda fikr yuritish va o‘zaro muloqot qilish madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridandir.

O‘smir qizlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida kuzatilayotgan muammolardan biri — ularning atrofdagilar bilan jonli va mazmunli muloqotga kamroq kirishishidir. Buning asosiy sababi, ko‘pincha oila muhitida ham bunday muloqotning sustligi bilan bog‘liq. Zamonaviy ota-onalar hayotiy tashvishlar, ish, texnologik chalg‘ituvchilar — telefonlar, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar bilan band bo‘lib, farzandi bilan birga bo‘lishsa-da, u bilan emotsional va mazmunli aloqaga kamroq kirishadilar. Natijada, ko‘plab o‘smir qizlar insoniy e’tibor yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Bu esa ularning hissiy barqarorligiga, fikrni erkin ifodalash, ishonchli munosabatlar o‘rnatish va ijtimoiy o‘zaro ta’sirga tayyorlik darajasiga salbiy ta’sir qiladi.

Bunday sharoitda o‘qituvchi o‘smir uchun nafaqat bilim beruvchi, balki mehr, tushunish va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi muhim shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qizlar tarbiyasida pedagog – bu muloqot madaniyatini, o‘z fikrini asoslashni, nizolarni tinchlik yo‘li bilan hal qilishni va guruhda faol ishtirok etishni o‘rgatadigan yetuk shaxs bo‘lishi kerak. Biroq bunday

rolni muvaffaqiyatli bajarish uchun bo‘lajak o‘qituvchining o‘zi tegishli kasbiy va shaxsiy sifatlarni egallagan bo‘lishi muhim: u tinglay oladigan, bahs yurita oladigan, murakkab holatlarda bosimsiz, ammo ishonchli muloqot o‘rnata oladigan, jamoada ishlashga layoqatli bo‘lishi kerak.

Shu sababli pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning bunday ko‘nikmalarini shakllantirish — ta’lim-tarbiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Bu borada eng samarali yondashuvlardan biri — kollaborativ ta’limdir. Bu o‘quvchilarning birgalikda muammolarni muhokama qilish, rollarni taqsimlash, qarorlar qabul qilish, fikr almashish va bir-birini eshitish orqali o‘rganadigan faol o‘zaro ta’sirli ta’lim shaklidir.

Kollaborativ ta’lim bu oddiy guruh ishi emas — balki o‘zaro muloqot, ijtimoiy mas’uliyat, tanqidiy fikrlash va hurmat bilan tinglash ko‘nikmalarini shakllantiradigan chuqur tarbiyaviy jarayondir. Bu orqali bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat dars berish, balki kelajakda o‘z o‘quvchilari bilan qanday hamkorlik qilish, ularga qanday ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘ladilar.

Ayniqsa, o‘smir qizlarning tarbiyasida bunday ta’lim metodlari ularning jamoadagi faolligini oshiradi, o‘zini erkin ifoda qilishga, boshqalarning fikrini qadrlashga va ijtimoiy integratsiyaga tayyorlaydi. Kollaborativ yondashuv, shubhasiz, o‘smirlarning emotsional-intellektual yetukligiga zamin yaratadi.

Kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) ta’lim – bu shunchaki bilim uzatish usuli emas, balki o‘quvchilar, ayniqsa o‘smir qizlarning ijtimoiylashuvi, kommunikativ madaniyati va shaxsiy salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladigan kompleks pedagogik strategiyadir. Bu yondashuv orqali qizlarda o‘zaro tushunish, muloqotga kirishish, suhbatdoshni tinglash, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash kabi hayotiy zarur ko‘nikmalar rivojlanadi. Shu bois, bu metod ayniqsa ta’lim-tarbiyada qizlar bilan ishlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham kollaborativ o‘qitishning amaliy samaradorligi alohida ta’kidlanadi. Xususan, G.A. Temirbekova ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida hamkorlikda o‘qitish talabalarga nafaqat bilimni chuqur o‘zlashtirish, balki guruhda o‘zaro muloqot, fikr almashish, muammolarni hal qilish madaniyatini rivojlantirish imkonini berishini ta’kidlaydi. Bu ayniqsa, kommunikativ jihatdan faol bo‘lmagan o‘smir qizlarning ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini oshirishda muhim vosita sifatida ko‘riladi.

Rus olimasi G.P. Sinitsyna “Hamkorlikda ta’lim strategiyasi: hamkorlikda o‘rganish” nomli ishida kollaborativ yondashuv o‘quvchilarda suhbatdoshni tinglash, jamoaviy qarorlar qabul qilish va boshqa fikrlarga hurmat bilan yondashish madaniyatini rivojlantirishini qayd etadi. Unga ko‘ra, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bu fazilatlar kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismidir.

Xorijiy manbalar, jumladan, Inglizcha Vikipediyaning “Collaborative learning” maqolasida kollaborativ o‘qitish — bu ijtimoiy o‘zaro ta’sir asosida faol bilim almashish, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish va shaxslararo kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy strategiya sifatida yoritiladi. Mazkur yondashuv shaxsni har tomonlama rivojlantirishda va uni jamiyatga tayyorlashda o‘ta muhim deb qaraladi.

Bugungi kundagi zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hamkorlikdagi ta’lim nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiylashuv vositasidir. Bu yondashuv an’anaviy guruhli o‘qitishdan tubdan farq qiladi: unda o‘quvchilar o‘zaro teng asosda fikr almashadi, maqsadlar qo‘yadi, qarorlar qabul qiladi va natijaga birgalikda javob beradi.

Bu jarayonda o‘qituvchining roli buyuruvchi emas, balki o‘quv jarayonini muvofiqlashtiruvchi, motivatsiya beruvchi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi sifatida ko‘zda tutiladi. Ayniqsa, o‘smir qizlarning ta’lim-tarbiyasida bu metod ularning ijtimoiy o‘zini anglash, sog‘lom muloqot qilish, nizolarni konstruktiv hal etish va jamoviy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’limda hamkorlikka asoslangan yondashuvlar orasida kooperativ ta’lim, kollaborativ o‘qitish va an’anaviy guruhli ish shakllari bir-biridan sezilarli farq qiladi. Ayniqsa, o‘smir qizlar

bilan ishlashda bu yondashuvlarning har biri turlicha ta’sir ko‘rsatadi va ijtimoiy hamkorlikning rivojlanishiga turli darajada xizmat qiladi.

Kooperativ ta’lim — ishtirokchilar o‘rtasida rol va mas’uliyat aniq taqsimlangan, strukturaviy jihatdan oldindan rejalashtirilgan o‘qitish shaklidir. O‘quv topshirig‘i kichik bo‘limlarga ajratilib, har bir qism alohida o‘quvchiga topshiriladi. Keyin esa yakuniy natijalar umumlashtirilib, jamoa ishi sifatida baholanadi. Bu yondashuv shaxsiy mas’uliyat hissini kuchaytiradi, rejalashtirish, ijro va hisobdorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, erkin muloqot, tashabbus va qarorlar qabul qilishda cheklovlar yuzaga kelishi mumkin, chunki o‘zaro ta’sirlar oldindan belgilangan tuzilma asosida olib boriladi.

Aksincha, kollaborativ ta’lim — bu o‘quvchilarning teng asosda hamkorlik qiladigan, faol muloqot va o‘zaro tushunishga asoslangan ta’lim strategiyasidir. Bu jarayonda rollar tabiiy tarzda shakllanadi, qarorlar birgalikda qabul qilinadi, javobgarlik esa umumiy va teng taqsimlanadi. Ayniqsa, o‘smir qizlarning fikr bildirish, eshitish, o‘zaro hurmat, jamoada ishlash va nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

An’anaviy guruhli o‘qitish esa kamroq tuzilgan bo‘lib, ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro chuqur hamkorlikni talab etmaydi. Ko‘pincha bu usulda faol o‘quvchilar asosiy ishni bajaradi, qolganlar esa passiv ishtirok etadi. Bu esa o‘quvchilarning barobar faolligini va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishda yetarli samara bermaydi.

1-jadval.

Hamkorlikka asoslangan o‘qitish turlarining taqqoslanishi

Ko‘rsatkichlar	**Kollaborativ ta’lim**	**Kooperativ ta’lim**	**An’anaviy guruhli ish**
Mas’uliyat	Umumiy, birgalikda	Shaxsiy va jamoaviy	Ko‘pincha aniqlanmagan
Rollarning taqsimlanishi	Tabiiy shakllanadi	Aniq belgilanadi	Odatda aniqlanmagan
Maqsad	Umumiy maqsadga erishish	Har bir topshiriqni bajarish	Umumiy, lekin kam strukturalangan
Ishtirok faolligi	Teng va faol ishtirok	Rollarga qarab farq qiladi	Ko‘pincha nomutanosib
O‘qituvchining roli	Fasilitator (muvofiqlashtiruvchi)	Tashkilotchi va nazoratchi	Rahbar yoki kuzatuvchi
Muloqot va qarorlar	Erkin, teng asosda	Cheklangan, oldindan rejalashtirilgan	Minimal darajada
Moslik darajasi	O‘smirlar bilan ishlashda yuqori	Nazoratli va amaliy topshiriqlarda samarali	Faollashtirish darajasi past

O‘quv jarayonida qo‘llaniladigan turli yondashuvlar ichida aynan kollaborativ ta’lim modeli o‘smir yoshdagi qizlar tarbiyasida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishda eng samarali strategiyalardan biri sifatida ajralib turadi. Bu yondashuv orqali o‘smirlar faqat bilim emas, balki muloqot, muhokama, fikr almashish, tinglash, birgalikda qaror qabul qilish va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradilar.

Kollaborativ o‘qitishning samaradorligi ko‘p jihatdan psixologik va pedagogik tamoyillar bilan belgilanadi. Ularning ichida subyektivlik tamoyili asosiy o‘rinda turadi. Bu tamoyilga ko‘ra, har bir o‘smir o‘quvchi ta’lim jarayonining faol, mustaqil va teng huquqli ishtirokchisi hisoblanadi. U nafaqat tayyor bilimni qabul qiladi, balki o‘z g‘oyalari bilan ulashadi, tashabbus ko‘rsatadi va guruh natijasi uchun javobgarlikni his qiladi. Bu orqali o‘smir qizlar o‘z fikrini shakllantirish, namoyon qilish va himoya qilishni o‘rganadi.

Shu bilan birga, dialogiklik tamoyili — o‘smirlar o‘rtasida hurmatli muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon davomida ular o‘zaro fikr almashadi, boshqalarning fikriga ochiq bo‘ladi, bahs yuritadi va konstruktiv yechimlarga erishadi. Bu esa tanqidiy fikrlash, empatiya va nutqiy madaniyatni kuchaytiradi.

Jamoaviylik — kollaborativ o‘qitishning yana bir ajralmas tarkibiy qismidir. O‘smirlar jamoada ishlash orqali bir-birining imkoniyatlarini inobatga olish, bir xil ritmda harakat qilish, o‘zini jamoadan ajratmaslikni o‘rganadi. Bu ularda ijtimoiy sezgirlik va hissiy intellektni rivojlantiradi.

Refleksiya (aks ettirish) tamoyili esa o‘smirlarga nafaqat bilimni, balki o‘quv jarayonining o‘zini baholash, o‘zini tahlil qilish, o‘z xatti-harakatlarini anglash imkonini beradi. Bu orqali qizlar o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Nihoyat, tenglik va inklyuzivlik — barcha ishtirokchilarning o‘zaro teng sharoitda, faol va mazmunli ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu tamoyil o‘smir qizlarning o‘zaro hurmat, qabul qilish va turli fikrlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishda ayniqsa muhimdir. Bu ayniqsa turli ijtimoiy kelib chiqishga ega bo‘lgan qizlar bilan ishlashda dolzarbdir.

O‘zaro bog‘liq bo‘lgan psixologik-pedagogik tamoyillar asosida shakllangan kollaborativ o‘qitish usuli nafaqat bilim olish vositasi, balki o‘smir qizlarda ijtimoiy, kommunikativ, jamoaviy faoliyat va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning kuchli pedagogik mexanizmidir. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda o‘smir yoshdagi qizlar uchun o‘z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ko‘plab o‘smirlar muloqotda qiynalmoqda, o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish yoki ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ojizlik qilmoqda. Bu holat nafaqat ularning emotsional rivojlanishiga, balki o‘rganishga bo‘lgan munosabatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ta’lim muhitida kollaborativ yondashuvni joriy etish — o‘smir qizlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligini oshirish, ishonchli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va jamoaviy qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishda muhim vositadir.

Kollaborativ o‘qitish asosida subyektivlik, dialogiklik, refleksiya, tenglik va inklyuzivlik kabi pedagogik tamoyillar yotadi. Har bir o‘quvchi, ayniqsa o‘smir qizlar, bu jarayonda o‘zini faol subyekt sifatida anglaydi: tashabbus ko‘rsatadi, qarorlar qabul qiladi, fikr bildiradi va umumiy natija uchun mas’uliyatni his qiladi.

Dialogiklik tamoyili esa o‘smir qizlarda tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati, empatiya va hurmatni shakllantiradi. Bu orqali ular turli fikrlarni eshitish, tahlil qilish va bahslashish madaniyatini o‘zlashtiradi. Refleksivlik — qizlarning nafaqat o‘quv mazmunini, balki o‘z faoliyatini baholash, qanday xatti-harakat samarali bo‘lganini aniqlashga o‘rgatadi. Bu o‘z-o‘zini boshqarish va shaxsiy mas’uliyatni rivojlantirishning asosidir.

Kollaborativ yondashuv asosida loyiha ishlari, keyslar, o‘quv munozaralari, rolli o‘yinlar, aqliy hujum kabi shakllardan foydalanish ayniqsa samaralidir. Ular orqali o‘smir qizlar real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qiladi, birgalikda muammolarni hal qilish, ijodiy yechimlar topish, guruhda muvozanatni saqlash va fikrlar xilma-xilligini qadrlashni o‘rganadilar.

Shuningdek, bunday faoliyatda ijodkorlik, bag‘rikenglik, moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik kabi fazilatlar shakllanadi. Ular keyinchalik ijtimoiy hayotda, ta’lim va kasbiy faoliyatda qizlarning muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlaydi.

Kollaborativ o‘qitishning muvaffaqiyati uchun ochiq, qo‘llab-quvvatlovchi, ishonchli ijtimoiy-psixologik muhit yaratish zarur. G.P. Sinitsyna ta’kidlaganidek, “birgalikda o‘rganish tabiiy ta’lim muhitini yuzaga keltiradi, bunda bilimlar ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali kengayadi, ijodiy faollik

rag‘batlantiriladi va ishonchli ta’lim muhiti shakllanadi” [2].

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, onlayn hamkorlik platformalari, taqdimotlar, muhokamalar va resurslar almashish imkoniyati ham kollaborativ o‘qitishni qo‘llab-quvvatlaydi va raqamli ijtimoiy o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kollaborativ ta’lim – bu o‘smir qizlarda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim yondashuvidir. U orqali qizlar faqatgina bilim emas, balki jamiyatda faol va mas’uliyatli a’zo bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham egallaydi.

Shunday qilib, o‘smir qizlar tarbiyasida kollaborativ o‘qitishni muvaffaqiyatli joriy etish nafaqat pedagogning uslubiy tayyorgarligini, balki jamoaviy o‘rganishga yo‘naltirilgan tashkiliy-psixologik muhitni yaratishni ham talab qiladi. Bunday muhitda o‘quvchilar faqatgina bilim egallamaydilar, balki o‘zaro hurmat, muloqot, jamoada ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradilar.

Kollaborativ ta’limning ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etilishi o‘smir qizlarning o‘zaro hamkorlik qilish, tanqidiy fikrlash, shaxsiy mas’uliyatni anglash va ijtimoiy-psixologik barqarorlik darajasini oshirish imkonini beradi. Bu esa ularning kelajakdagi jamiyatda faol va mas’uliyatli ishtirokchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda o‘quvchilar, xususan o‘smir qizlar, Internet, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali ko‘plab bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish imkoniga ega. Shu sababli kollaborativ yondashuv ushbu texnologiyalarni inkor etmay, balki ularni ta’lim-tarbiyada maqsadli, samarali va ongli qo‘llashga o‘rgatish orqali yanada ahamiyatli tus oladi.

O‘qituvchi bu yerda nazorat qiluvchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi va ishonchli hamkor sifatida axborot manbalarini tanlash, tahlil qilish, guruhda muammoli vaziyatlarga yechim topishda o‘smir qizlarni faol boshqaradi. Bu yondashuv orqali axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik, raqamli muloqot madaniyati kabi ko‘nikmalar shakllanadi, bu esa zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy hayot kechirish uchun zarur asosdir.

Shuni ta’kidlash joizki, kollaborativ o‘qitishning to‘liq samara berishi uchun mavjud pedagogik to‘siqlarni bartaraf etish zarur. Jumladan:

- o‘qituvchilarning innovatsion yondashuvlarga tayyorgarligini oshirish,
- ta’lim jarayonini tashkil qilishda moslashuvchanlik,
- texnologik infratuzilmani ta’minlash,
- va eng muhimi — o‘quvchilarda faol ishtirokga bo‘lgan ichki motivatsiyani shakllantirish.

G.P. Sinitsyna qayd etganidek, “hamkorlikdagi o‘rganish inson bilimining ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali kengayishiga, ishonchli ta’lim muhiti shakllanishiga va ijodiy faollikning rag‘batlantirilishiga xizmat qiladi” [2].

Xulosa qilib aytganda, o‘smir qizlar bilan ishlashda kollaborativ yondashuv — bu nafaqat ta’lim samaradorligini oshiruvchi, balki shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiruvchi kuchli vositadir. U zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda esa, qizlarning jamiyatda erkin fikrlovchi, mustaqil va mas’uliyatli shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temirbekova G.A. (2021). Ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida hamkorlikda o‘qitishning metodik asoslari. – Toshkent: TDPU Ilmiy nashriyoti.

2. Sinitsyna G.P. (2019). Strategiya obucheniya v sotrudnichestve: sovmestnoe obuchenie kak resurs razvitiya professional’nyx kompetentsiy. – Moskva: Pedagogika Press.

3. Dronova S.Yu. (2020). Motivatsiya v obrazovatelnoy srede v usloviyax sotrudnichestva. // Pedagogicheskoe obrazovanie i nauka. №6, – S. 75–78.

4. Collaborative learning. (2024). In Wikipedia, The Free Encyclopedia. Retrieved from: https://en.wikipedia.org/wiki/Collaborative_learning

5. Johnson, D.W., Johnson, R.T., & Smith, K.A. (2014). Cooperative learning: Improving

university instruction by basing practice on validated theory. Journal on Excellence in College Teaching, 25(3&4), 85–118.

6. Vygotsky L.S. (1983). Collected Works: Volume 1. Problems of General Psychology. – Moscow: Pedagogika.

7. Slavin, R.E. (1995). Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. – Boston: Allyn & Bacon.

8. Uzbekistonda ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi (2019–2030). – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4312-son qarori. 2019-yil 29-oktabr.

9. Habibullayeva D. (2022). Kollaborativ ta'lim muhitida ijtimoiy-muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi. // Ilmiy tadqiqotlar va ta'lim jarayoni. №4.

10. Nurmatova S. (2021). Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va o'quvchilar faolligini oshirishning innovatsion shakllari. – Samarqand: O'qituvchi.

TALABALARDA BADIIY-ESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA VIRTUAL MUZEY IMKONIYATLARI

Sattarova Aziza Anvarovna
Qarshi DU, Rangtasvir va amaliy san’at kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalarda badiiy-estetik dunyoqarashni shakllantirishda virtual muzey resurslaridan foydalanishning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida san’at asarlarini o‘rganishning samarali metodlari va ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Virtual muzey, tasviriy san’at tarixi, zamonaviy ta’lim, raqamli resurslar, estetik tafakkur, interaktiv metodlar.

VIRTUAL MUSEUM POSSIBILITIES IN FORMING ARTISTIC-AESTHETIC WORLDVIEW IN STUDENTS

Sattarova Aziza Anvarovna
Senior lecturer, Department of Painting and Applied Arts, Karshi State University

Annotation. The article analyzes the didactic and educational significance of using virtual museum resources in shaping students’ artistic and aesthetic worldview. The effective methods of studying works of art through modern digital technologies and their role in socio-cultural development are revealed.

Keywords: Virtual museum, history of fine arts, modern education, digital resources, aesthetic thinking, interactive methods.

ВОЗМОЖНОСТИ ВИРТУАЛЬНОГО МУЗЕЯ В ФОРМИРОВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Саттарова Азиза Анваровна
Старший преподаватель кафедры живописи и прикладного искусства Каршинского государственного университета

Аннотация. В статье анализируется дидактическое и воспитательное значение использования ресурсов виртуальных музеев в формировании художественно-эстетического мировоззрения студентов. Раскрыты эффективные методы изучения произведений искусства с помощью современных цифровых технологий и их роль в социально-культурном развитии.

Ключевые слова: Виртуальный музей, история изобразительного искусства, современное образование, цифровые ресурсы, эстетическое мышление, интерактивные методы.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, xususan, virtual muzeylar, talabalarning estetik dunyoqarashi va badiiy didini shakllantirishda muhim vositaga aylanmoqda. An’anaviy ko‘rgazmalar va ekskursiyalar imkoniyatlari cheklangan sharoitlarda virtual platformalar orqali yuqori sifatli san’at namunalari bilan tanishish imkoniyati kengaydi.

Raqamli resurslar yoshlarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki mustaqil tahlil qilish, solishtirish, baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, badiiy-estetik tarbiyani takomillashtirishda virtual muzeylardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Virtual muzeylardan ta’limda foydalanish orqali talaba dunyo san’atining betakror asarlarini 3D formatda ko‘rish imkoniyatlariga ega bo’ladi. Turli tarixiy davrlarga oid eksponatlarni onlayn izohlovchilar yordamida o‘rganish bilan bir qatorda interaktiv audio va video-taqdimotlardan foydalanishi mumkin. Shuningdek, mustaqil ravishda materiallarni tahlil qilib, xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Masalan, Google Arts & Culture, Louvre Virtual Tour, Tate Modern Online kabi platformalar yordamida talaba ko‘plab muzey kolleksiyalarini uyidan chiqmasdan tomosha qiladi.

Badiiy-estetik dunyoqarash – talabaning go‘zallikni anglash, san’at asarlarini baholash, badiiy tafakkur va his-tuyg‘ularini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma’naviy sifatidir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda vizual materiallar va interaktiv platformalar alohida o‘rin tutadi[1,23].

Tadqiqot metodi. Virtual muzeylarning afzalliklari shundaki, ko‘rgazmalarda yuqori sifatli raqamli reproduktsiyalarni taqdim etadi. San’at asarlarini keng burchakdan ko‘rish, detallarini yaqinlashtirish imkonini beradi. Ta’lim jarayonini jonli va qiziqarli qilish bilan bir qatorda shaxsiy qiziqishlarni shakllantiradi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga rag‘batlantiradi.

Misol tariqasida Qarshi davlat universitetida o‘tkazilgan tajribaviy darslarda virtual ko‘rgazmalar bilan ishlash talabalarning darsga qiziqishi va ijobiy munosabatini 40% oshirgan.

Shu bilan birga, virtual muzeylardan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Internet tezligi va texnik vositalar yetarli emasligi. Raqamli materiallarning tanlovi cheklanganligi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun:

- Universitet auditoriyalarida multimedia xonalarini tashkil etish,
- Talabalarga individual raqamli resurs to‘plamlarini yaratish,
- O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar tayyorlash tavsiya etiladi.

XX asr oxirlarida veb-sahifalar juda sodda ko‘rinishda bo‘lgan, global tarmoqlarning o‘tkazish qobiliyati juda sust hamda internet tezligi past edi. Vertual-muzey tushunchasi yangidan shakllanayotgan tushuncha bo‘lib, cheklangan miqdorda multimediya texnologiyalaridan foydalanilar edi. Ba’zi vertual-muzeylar veb-sayt shaklida emas, balki boshqa elektron ko‘rinishda paydo bo‘lgan. Ular, asosan, mavjud tarixiy muzeylar bazasida tashkil etilgan edi[3,28].

Adabiyotlar tahlili. Muzeylar bilan bog‘liq eng ilk virtual resurslar birinchi bo‘lib AQShda paydo bo‘ldi. Yaqqol misollardan biri Kaliforniya universitetining Berklidagi Paleontologiya muzeyi hamda Kongress kutubxonasining onlayn ko‘rgazmasi bo‘lgan[7].

Haqiqiy muzeylar o‘z veb-saytlarini yarata boshlashi bilan bir vaqtda, hech qanday mavjud muzeyga bog‘liq bo‘lmagan virtual muzey saytlari ham paydo bo‘la boshladi. Misol uchun 1995-yil 1-iyunda Oksford universiteti Hisoblash texnikasi laboratoriyasining serverida Virtual hisoblash texnikasi muzeyi (VMoC) tashkil etildi. U ayrim virtual ko‘rgazmalarni taqdim etar va hisoblash texnikasi tarixi bo‘yicha manbalarga havolalar berar edi[5].

2000-yilgacha internetda paydo bo‘lgan yana bir nechta muzeylarni misol qilib keltirish mumkin. London Tabiiy fanlar muzeyi 1994-yilda o‘z internet-serveriga ega bo‘lgan birinchi Buyuk Britaniya muzeyi xisoblargan. Undan keyin Milliy fan va sanoat muzeyi (unga Fan muzeyi va boshqa bog‘liq muzeylar kirar edi) ham o‘z saytini yaratib faoliyat boshladi[6] 1993-yilda tashkil etilgan Kompyuter san’ati muzeyi (Museum of Computer Art – MOSA) Nyu-York shtati Ta’lim departamenti himoyasidagi notijorat tashkilot edi. MOSA sayti dunyoning yuzlab «raqamli» rassomlari ishlarini va minglab tasvirlarni turli format va ko‘rinishlarda namoyish etadi .

Shuningdek, Lin Sin Sin san’at muzeyi (Lin Hsin Hsin Art Museum) ham virtual muzeylar orasida ilk namunalardan biri hisoblanadi. Bu onlayn galereya 1994-yilda Singapurlik rassom va shoir Lin Sin Sin tomonidan yaratilgan bo‘lib, Osiyodagi birinchi virtual san’at muzeyi sifatida tarixda qolgan

WebExhibits – bu tabiiy va gumanitar fanlar hamda madaniyat bo‘yicha interaktiv virtual muzey bo‘lib, ma’lumotlar, virtual tajribalar va amaliy mashg‘ulotlarni taqdim etadi. U dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilarni turli muammolarni muhokama qilish va noodatiy fikrlar bildirishga taklif qiladi.

Keyinchalik internetda shaxsiy muzeylar ham paydo bo‘la boshladi. Rossiyadagi ilk shaxsiy vertual-muzey 1994-yilda tashkil etilgan. 2004-yilga kelib muzey saytlarining virtual tashrif buyuruvchilari soni real muzeylarga kelgan jonli mehmonlar sonidan oshib ketdi. Masalan, 2011-yilda Ermitaj virtual muzeyi 3 million 650 ming nafar odam tomonidan ko‘rilgan bo‘lsa,

muzeyning o‘ziga 2 million 800 ming kishi tashrif buyurgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda «virtual muzey» tushunchasi atrofida ko‘plab bahs-munozaralar mavjud. Ushbu atamaning ma’nosi qay darajada keng? Bu haqda turli qarashlar bor va yagona fikr yo‘q. Mavjud yondashuvlarni tahlil qilish uchun, avvalo, zamonaviy til egalari tomonidan «virtual muzey» atamasi qanday tushunilishini ko‘rib chiqamiz. Keyin esa, ushbu tushunchaning tarixiy etimologiyasi va so‘z yasalishi modellari nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz.

Shundan so‘ng, amaliy qo‘llanishini ko‘rib chiqib, «virtual muzey» atamasi madaniyatning qaysi hodisalarini ifodalashini aniqlaymiz.

Til ma’lumotlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, virtual, kompyuter, multimedia, raqamli, elektron, veb-muzey, gipermuzey, kibermuzey, internet-muzey va onlayn-muzey atamalari ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi. So‘z qo‘llanishi muallif matnining xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. An’anaviy muzeylar va kutubxonalar veb-saytlarining nomlarida «muzey» atamasi o‘rniga «ko‘rgazma», «galereya», «to‘plam» kabi so‘zlardan foydalaniladi.

Ko‘plab saytlar yoki ularning sahifalari aslida virtual muzey bo‘lsa-da, ular o‘z nomlarida «virtual muzey» yoki uning sinonimlarini qo‘llamaydi.

Bu esa bunday resurslarni topish va tahlil qilishni qiyinlashtiradi.

Xorijiy mutaxassislarning fikriga ko‘ra, «virtual muzey» tushunchasining asosiy belgilovchi omillaridan biri – muzey to‘plamlarining internetda ochiq tarzda joylashtirilishi bo‘lib, ularni o‘rtacha foydalanuvchi oddiy kompyuter vositalari yordamida bemalol ko‘ra olishi kerak.

Turkiyaning «Topkapi» saroyida «Yangi O‘zbekiston madaniy burchagi»ni tashkil etish masalalarini muhokama qilish va MDHga a’zo davlatlar madaniy merosi bo‘yicha virtual muzeyi Nizomi loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ekspert yig‘ilishida ishtirok etish maqsadida Madaniyat vazirligi delegatsiyasi Minsk va Istanbul shahrida bo‘lib o‘tdi. Virtual muzey (virtual - mumkin bo‘lgan, yashirin) — haqiqatda mavjud bo‘lgan muzey (muzey saytlari) yoki haqidagi elektron axborot vositalari orqali olish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar. Virtual muzeylar elektron axborot vositalari tomonidan taqdim etiladigan interaktiv xususiyatlardan foydalanish bilan tavsiflanadi: foydalanuvchi uch o‘lchamli zallar orqali «harakat qilishi» mumkin, har qanday ma’lumot va tasvirlarni olishi mumkin. Muhim jihatlardan yana biri saytga tashrif buyuruvchilar bilan doimiy qayta aloqa ta’minlanadi[4,186].

MDH mamlakatlari madaniy merosi virtual muzeyining noyob imkoniyatlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- Real dunyoda mavjud bo‘lmagan virtual muzey zallarini yaratish imkoniyati;
- Bir tur doirasida turli mamlakatlarda joylashgan har xil eksponatlarni birlashtiruvchi virtual 3D turlar yaratish imkoniyati;
- Turli eksponatlarni birlashtiruvchi virtual ekskursiyalar orqali xalqlarning tarixiy va madaniy merosi bilan chuqur tanishish imkoniyati;
- Tarixiy va madaniy markazlar, yodgorliklar, hududlarning virtual sayohatlarini yaratish imkoniyati.

Virtual muzeylar internet-texnologiyalarni qo‘llashning muvaffaqiyatli namunasi bo‘lib, ular eksponatlarni saqlash, xavfsizlikni ta’minlash hamda ularga keng, tez va oson kirish imkoniyatini yaratish muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Hozirgi kunda madaniyatni o‘rganish usuli sifatida tipologiya kamdan-kam qo‘llaniladi. Uzoq vaqt davomida madaniyat sohasida barcha elementlar allaqachon tasniflangan, degan qarash hukm surgan. Biroq internet bu usulni qayta jonlantirdi: jahon tarmog‘i – dinamik ijtimoiy madaniy muhit bo‘lib, axborot texnologiyalari tufayli vujudga kelgan va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida doimo yangi madaniy shakllarni yaratadi.

Internet – «inson-mashina» tizimi bo‘lib, u yerda o‘zgarishlar juda tez va uzluksiz ravishda sodir bo‘ladi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek: «Internet – xazina, ammo uning ulkan resurslari tartibga solinmagan holatda samarali foydalanib bo‘lmaydi».

Elektron resurslar soni jadal o‘sib borayotgani sababli, ularni tizimlashtirish zarurati ortib

bormoqda. Ko‘plab internet-resurslar, jumladan, virtual kutubxonalar allaqachon batafsil tasniflangan. Biz esa elektron resurslarning bir turi – virtual muzeylarni tasniflashga harakat qilishni joiz deb topdik. Onlayn muzeylarni tasniflash zaruriyati, avvalo, O‘zbekistondagi internet foydalanuvchilari uchun axborot ta’minoti va maslahat ko‘magini yaxshilash bilan bog‘liq. Shuningdek, bu jarayon axborot xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi, chunki tartibga solingan resurslar amaliy ahamiyatga ega. Internet foydalanuvchilari uchun virtual muzeylar haqida to‘liq ma’lumot olish muhim, chunki bu faqatgina bilim olish emas, balki kasbiy va iqtisodiy maqsadlar uchun ham ahamiyatli. Virtual muzeylar yangi mehnat bozorini shakllantirmoqda va ular allaqachon biznes-modellar tarkibiga kirib ulgurgan. Shu bois, virtual muzeylarning tasnifi O‘zbekistonning madaniyat sohasini boshqarish organlari uchun ham muhimdir, chunki bu madaniy siyosatning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir.

Birinchidan, vertual muzeylarni shakllantirish – ommaviy madaniy-ijtimoiy jarayondir. Ikkinchidan, tasniflash internetda mavjud muzey saytlarini hisobga olish va elektron resurslarni monitoring qilish uchun qulay usuldir. Bu esa madaniy siyosatning maqsadlariga, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017—2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha komleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida qarori doirasida kamroq moliyaviy xarajatlar evaziga erishish imkonini beradi. Shuningdek, tasniflash ijtimoiy-madaniy dinamika yo‘nalishlarini prognoz qilish muammosini hal etishga yordam beradi. Ilmiy mutaxassislar uchun esa vertual muzeylar tasnifi innovatsion va ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun axborot platformasini yaratadi. Shu bilan birga, tasniflash zamonaviy «virtual reallik» ni tahlil qilish uchun ilmiy uskuna sifatida xizmat qiladi[4,236].

Xulosa va tavsiyalar. Virtual muzeylar san’at ta’limini zamonaviylashtirishning samarali vositasidir. Ular talabalarda tarixiy-madaniy merosga hurmat, badiiy tahlil ko‘nikmalari, estetik dunyoqarashning shakllanishini rag‘batlantiradi.

Kelgusida ta’lim jarayonida virtual ko‘rgazmalarning qo‘llanishini kengaytirish, yangi interaktiv platformalar yaratish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar ro’yxati

1.Акимова.Т «Британский музей» Москва -2011. 97 стр.
2.Акимова.Т «Национальная галереяю Прага» Москва – 2011.
3.Kuryazova D.T. “Muzey ishi tarixi va nazariyasi” Toshkent – 2007. 160 b.
4.Muhamedova.M.“Muzey predmetlari ekspertizasi va atributsiyasi” T-2021.412b.
5. museums.wikia.com/wiki/VMoC
6. www.nmsi.ac.uk
7.www.ibiblio.org/expo
8. www.britishmuseum.org
9. www.ngprague.cz
10. www.arts-museum.ru

TALABALARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHNING PEDAGOGIK –PSIXOLOGIK ASOSLARI

Choriyeva Feruza Amrullayevna
Qarshi davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida konteksli yondashuv asosida talabalarda parodoks bilimlarni shakllantirishni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari xususida ma’lumotlar aks ettirilgan va bundan professor-o‘qituvchilar fan mazmunini yoritishda nazariy va amaliy jihatdan keng qo‘llab kelayotganligi asoslangan.

Shuningdek, ta’limning zamonaviy didaktik ta’minotlari talabalarga keng ko‘lamdagi imkoniyatlarni yaratish bilan birga ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar, o‘quv faoliyatini modellashtirish - o‘rganilayotgan mavzuning asosiy xususiyatlari, o‘quv faoliyatini modellashtirish jarayonida o‘ziga xos tamoyillari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Ehtiyoj, motiv, motivatsiya, kontekstli yondashuv, adekvatlik, fizibilite, paradigma, konstruktiv, differensiallashtirilgan ta’lim, barqarorlik, kompitensiya, didaktik, kreativ, protsess, usul,parodoks,yo’nalish, interaktiv.

СОДЕРЖАНИЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ УЧЕБНО- ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КОНТЕКСТНОГО ПОДХОДА

Чориева Феруза Амруллаевна
Доцент Каршинского государственного университета

Аннотация: В данной статье отражена информация о дидактических возможностях организации формирования парадоксальных знаний у студентов на основе контекстного подхода в высших учебных заведениях и обоснована широкая теоретическая и практическая поддержка профессорско-преподавательского состава в освещении содержания дисциплины.

Также в работе современное дидактическое обеспечение обучения проанализированы факторы, способствующие повышению эффективности обучения учащихся при создании широкого спектра возможностей, моделирование учебной деятельности - основные особенности изучаемого предмета, специфические принципы в процессе моделирования учебной деятельности.

Ключевые слова: Потребность, мотив, мотивация, контекстуальный подход, адекватность, целесообразность, парадигма, конструктив, дифференцированное обучение, устойчивость, компетентность, дидактический, творческий, процесс, метод, парадокс, направленность, интерактив.

THE CONTENT OF MODELING THE EDUCATIONAL AND CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS BASED ON THE CONTEXTUAL APPROACH

Choriyeva Feruza Amrullayevna
Associate Professor, Karshi State University

Abstract: In this article, information on the didactic possibilities of organizing the formation of paradoxical knowledge among students based on the contextual approach in higher education institutions is reflected, and it is based on the fact that professors and teachers are widely supported in explaining the content of the subject from a theoretical and practical point of view.

Also, modern didactic supplies of education are factors that serve to increase the effectiveness of education along with creating a wide range of opportunities for students. specific principles are analyzed.

Key words: Key words: Need, motive, motivation, contextual approach, adequacy, feasibility,

paradigm, constructive, differentiated education, stability, competence, didactic, creative, process, method, paradox, direction, interactive.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiyaviy jarayonida o‘qitishning turli xil yondoshuvlari, ta’lim texnologiyalarini joriy etish uchun keng imkoniyatlar taqdim etuvchi yangi o‘qitish metodologiyasi kirib kelmoqda va ulardan samarali foydalanilmoqda.

Talabalarning o‘quv-ijodiy faoliyatining motivatsion jihati muhim hisoblanib, faoliyatni faollashtirishda “ehtiyoj”, “motiv” va “motivatsiya” tushunchalari asosiy rol o‘ynaydi.

Ehtiyoj – insonning biror narsaga bo‘lgan zarurati, bu biologik zarurat (oziq-ovqat, havo va boshq.) yoki ijtimoiy (kommunikativ, bilish ehtiyojlari) bo‘lishi mumkin. “Ehtiyojning yo‘naltirilgan shakli motiv hisoblanib, bu ehtiyojni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning ma’lum bir faollik turiga (faoliyat, muloqot, atvor) ichki intilishi bo‘lib hisoblanadi. Motiv sifatida tashqi dunyo predmetlari, tasavvurlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular va kechinmalar, ya’ni ehtiyoj mujassam bo‘lgan hamma narsa bo‘lishi mumkin”.

Motivlar tashqi va ichki turlarga bo‘linadi. Tashqi motivlarga chora va mukofot, moddiy manfaat, boshqalar tomonidan o‘tkaziladigan bosim, o‘z faoliyati natijalarini kutish va boshq kiradi. Ularning barchasi o‘quv maqsadidan tashqarida bo‘lib, mazkur maqsad befarq yoki yoqimsiz bo‘lishi, ta’lim esa majburiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin[1,63].

Ichki motivatsiya bilimga qiziqish, qiziquvchanlik, madaniy va kasbiy jihatdan takomillashtirish istagini o‘z ichiga oladi, bu esa талабаларни o‘rganishni o‘z maqsadiga aylantirishga undaydi.

Motivatsiya tuzilishini o‘rganishda bir qator xususiyatlariga ahamiyat qaratish lozim. Birinchidan motivatsiya jarayonga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda talaba o‘quv faoliyatining o‘zidan rozi bo‘lish istagi bilan harakatlanadi. Ikkinchidan motivatsiya natijaviylik xususiyatiga ega bo‘lib, bunda talaba o‘quv faoliyati natijasi shaxs rivojlanishiga ta’sirini anglashi bilan xarakterlanadi. Uchinchidan, motivatsiya rag‘batga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv faoliyati uchun mukofot-rag‘batlashning kuchiga extiyoj sezish bilan ifodalanadi. To‘rtinchidan, tanbehdan qochishga yo‘nalganlik xususiyati bo‘lib, o‘quv faoliyatida talaba shaxsiga “qamchi siyosati”dan foydalanishni nazarda tutadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bizningcha, ichki motivatsiya jarayon va natijalarga yo‘nalganlikni, tashqi motivatsiya esa mukofotlash va jazodan qochishni o‘z ichiga oladi[2,133].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida talabalarning o‘qitishga muhim didaktik maqsad berishga imkon beruvchi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirishning asosiy tamoyillari O.E.Lebedev. Ushbu tamoyillarga ko‘ra, ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy ma’nolaridan biri mustaqil ijodiy ishlash qobiliyatini shakllantirish, qo‘shimcha ravishda ta’limning tashkiliy asosidir.

O‘quv faoliyatini modellashtirish - o‘rganilayotgan mavzuning asosiy xususiyatlarini boshqa tizim - moddiy ob’ekt, tenglamalar to‘plami, kompyuter dasturi yordamida tasvirlash bo‘lib hisoblanadi[3,21].

Tadqiqot metodologiyasi.

Talaba motivatsiyasining o‘ziga xos va yetakchi turi bo‘lib o‘qishga motivatsiya hisoblanadi. Bu o‘quv motivi va o‘quv-bilish faoliyati motivi boshchiligidagi turli xil motivlar iyerarxiyasini ifodalaydi.

O‘quv motivi – bu o‘quv jarayonida o‘quv-bilish faoliyatni amalga oshirishda talabani undovchi maylidir. O‘quv-bilish faoliyatning motivi quyidagicha talqin qilinadi:

1) ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyat uchun motivatsiya – subyektning faolligini keltirib chiqaradigan va uning yo‘nalishini belgilovchi tashqi yoki ichki shartlar majmui;

2) faoliyat yo‘nalganliginining undovchi va belgilovchi tanlovi, u amalga oshirish sababi bo‘lgan predmet;

3) harakatlarni tanlash asosida yotgan anglangan sabab.

Talabalarning o‘quv-bilish faoliyati motivlarining tasniflaridan biri V. A. Slastyonin tomonidan taklif qilingan. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) shaxsning hissiy namoyon bo‘lishiga asoslangan bevosita-undovchi motivlar: “ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ular, yorqinlik, yangilik, maroqlilik, qiziqarli o‘qitish, o‘z faoliyatiga yuqori baho olish istagi va boshqalar”.

2) istiqbolli-unovchi motivlar – “ularning asosida umuman bilimning va xususan, o‘quv fanining ahamiyatini tushunishga, fanning ijtimoiy va amaliy ahamiyatini bilishga, aniq bilim va ko‘nikmalar; fanning bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan bog‘liqligi yotadi”;

3) intellektual-undovchi motivlar – “ularga bilish jarayonining o‘zidan qoniqish olish: bilimga qiziqish, qiziquvchanlik, o‘z madaniy saviyasini kengaytirish istagi, ma’lum ko‘nikmalarni egallash, o‘quv-bilish muammolarni hal qilish jarayoniga ishtiyoq kiradi”[4,66].

O‘quv-bilish faoliyatning motivlari bilim va harakat usullarini o‘zlashtirishga, talabani mustaqil bilim loishga undashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar.

O‘quv faoliyati bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkillashtiriladi hamda nazorat etiladi. Bu faoliyat talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalarini oshirishni asosiy maqsad sifatida e’tirof etadi. Shuningdek o‘quv faoliyati talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashi, o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash, kamchiliklarini bartaraf etish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratishi lozimligini ta’kidlash lozim. Shu sababli o‘quv faoliyati shaxs rivojlanishida motivatsiyalangan jarayondir.

Motivatsiyaga asoslangan o‘quv-ijodiy faoliyat talabalarning muvaffaqiyatli bilim o‘zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, talaba shaxsida mustaqillik va tanqidiylikni rivojlantiradi;

yangi bilimlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantiradi;

talabalarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish orqali turli muammolar, qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi;

o‘quv jarayonida samaraga erishish, vazifalarni ishtiyoq bilan bajarishga, ijodiy mehnat qilishga undaydi.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etilishi nafaqat o‘qituvchining balki talabaning ham umumiy faoliyati hisoblanadi. O‘qituvchi nazoratida talaba ham mashg‘ulotlarga tayorlanishi, taqdimot qilishi, o‘qituvchiga yordam berishi orqali o‘z kasbiy tayyorgarligini namoyon etadi hamda o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi.

O‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda talabalarning “individual xususiyatlarini ham hisobga olish kerak: o‘quv jarayoniga javob berishning tezligi va adekvatligi, o‘z oldiga vazifalarni qo‘yish va ularni hal qilish yo‘llarini topish istagi va qobiliyati, turli vaziyatlardan chiqish yo‘llari, ishlash qobiliyati, o‘z-o‘zini tartibga solish. Talabaning faol faoliyatini mustaqil tartibga solish uning o‘quv jarayonidagi faol pozitsiyasiga bog‘liq bo‘lib, mustaqil qarorlar va harakatlarni qabul qilishga, vazifalarni erkin tanlashga, ijodiy faoliyatga undaydigan vaziyatlarda amalga oshiriladi (qiyinchilikda o‘rtoqlarga yordam berish, o‘z-o‘zini sinab ko‘rish, o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, mulohaza yuritish, ularni asoslash)”.

G.N. Najmiddinovaning fikricha, “o‘quv-bilish faoliyatni faollashtirishda talabalarning faol va mustaqil nazariy va amaliy faoliyatini ta’minlaydigan o‘quv ishining mazmuni, usullari, uslubiy texnikasi va tashkiliy shakllarini takomillashtirish lozim. O‘quv jarayonini faollashtirishda nafaqat pedagogik ishning mahsuldorligini, balki talabaning o‘quv-bilish faoliyati samaradorligini oshirish uchun ham yashirin zaxiralar mavjud bo‘ladi”.

Tadqiqotchi dars bosqichlarida o‘ziga xos faol xarakterdagi usullardan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib beradi. bu usullar orasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

1) o‘quv jarayonida turli qarama-qarshi fikrlarni o‘rtaga tashlash hamda munozara tashkil etish;

2) o‘zlashtirilgan mavzu yuzasidan talabalarga topshiriqlar berish hamda ularni vazifani

bajarishning samarali strategiyasini ishlab chiqishga yo‘naltirish;

3) talabalarni so‘zlash va tinglash madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan suhbatlar tashkil etish;

4) o‘quv faoliyatini qiziqarli hayotiy misollar, taniqli insonlar hayot yo‘llarini yoritib bergan roliklar, jonli uchrashuvlar bilan boyitish;

5) darsni jonlantirish maqsadida “soxta qobiliyatsizlik” usulidan foydalanish;

6) talabalarni e’tiborini tortish, darsni dinamik qilish maqsadida nutq intonatsiyasini o‘zgartirish.

Talabaning o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish muhim vazifa bo‘lib, bu jarayon pedagogdan mas’uliyat va ijodkorlikni talab qiladi, shuningdek, pedagogning harakatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

o‘quv faoliyatini oqilona rejalashtirishi;

talaba faolligini oshirishga yo‘naltirilgan motivatsion yondashuvga asoslanishi;

faol ta’lim metodlarini qo‘llash, talabani faollashtiraligan metodik tizimni ishlab chiqish, o‘quv vositalarini hamda innovatsion shakllaridan foydalana olishi;

o‘qituvchilarni ushbu usul va uslublar bilan qurollantirish, ya’ni o‘qituvchining o‘zi faoliyatini faollashtirish;

talaba shaxsini o‘quv, o‘quv-tadqiqot, o‘quv-ijodiy, tashkiliy ishlarga jalb etishning eng samarali yo‘llarini bilishi, ularni mazkur yo‘nalishlarda harakatini rivojlantirish maqsadida diagnostik metodlar bilan qurollantirib borishi[5,43].

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar, asosli fikrlar asosida quyidagicha xulosalash maqsadga muvofiq: bugungi kunda ta’limni modernizatsiyalash kontekstida albatta talabaning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish vazifasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani bajarish o‘qituvchining mahorati va qobiliyatiga bevosita bog‘liq. Chunki talabalarning kasbiy va shaxsiy fazilatlari, irodaviy sifatlari rivojlantirish, ularning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish pedagog faoliyatining ajralmas tarkibiy qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abduqodirov A.A. “Pedagogika” va “Psixologiya” fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti. –Toshkent: “Fan va texnologiyalar”. 2015. – B.161.

2. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent: “Iste’dod”. 2008. – B. 180.

3. Abduqodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 44 b.

4. Abdinazarova Z.X. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta’siri. Psix.fan.nomz...diss.- Toshkent, 2012. – 144 b.

5. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari.- Buxoro. Matbaa, 2001.- 68 b.

TALABALARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHNING PEDAGOGIK –PSIXOLOGIK ASOSLARI

Choriyeva Feruza Amrullayevna
Qarshi davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida konteksli yondashuv asosida talabalarda parodoks bilimlarni shakllantirishni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari xususida ma’lumotlar aks ettirilgan va bundan professor-o‘qituvchilar fan mazmunini yoritishda nazariy va amaliy jihatdan keng qo‘llab kelayotganligi asoslangan.

Shuningdek, ta’limning zamonaviy didaktik ta’minotlari talabalarga keng ko‘lamdagi imkoniyatlarni yaratish bilan birga ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar, o‘quv faoliyatini modellashtirish - o‘rganilayotgan mavzuning asosiy xususiyatlari, o‘quv faoliyatini modellashtirish jarayonida o‘ziga xos tamoyillari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Ehtiyoj, motiv, motivatsiya, kontekstli yondashuv, adekvatlik, fizibilite, paradigma, konstruktiv, differensiallashtirilgan ta’lim, barqarorlik, kompitensiya, didaktik, kreativ, protsess, usul,parodoks,yo’nalish, interaktiv.

СОДЕРЖАНИЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ УЧЕБНО- ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КОНТЕКСТНОГО ПОДХОДА

Чориева Феруза Амруллаевна
Доцент Каршинского государственного университета

Аннотация: В данной статье отражена информация о дидактических возможностях организации формирования парадоксальных знаний у студентов на основе контекстного подхода в высших учебных заведениях и обоснована широкая теоретическая и практическая поддержка профессорско-преподавательского состава в освещении содержания дисциплины.

Также в работе современное дидактическое обеспечение обучения проанализированы факторы, способствующие повышению эффективности обучения учащихся при создании широкого спектра возможностей, моделирование учебной деятельности - основные особенности изучаемого предмета, специфические принципы в процессе моделирования учебной деятельности.

Ключевые слова: Потребность, мотив, мотивация, контекстуальный подход, адекватность, целесообразность, парадигма, конструктив, дифференцированное обучение, устойчивость, компетентность, дидактический, творческий, процесс, метод, парадокс, направленность, интерактив.

THE CONTENT OF MODELING THE EDUCATIONAL AND CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS BASED ON THE CONTEXTUAL APPROACH

Choriyeva Feruza Amrullayevna
Associate Professor, Karshi State University

Abstract: In this article, information on the didactic possibilities of organizing the formation of paradoxical knowledge among students based on the contextual approach in higher education institutions is reflected, and it is based on the fact that professors and teachers are widely supported in explaining the content of the subject from a theoretical and practical point of view.

Also, modern didactic supplies of education are factors that serve to increase the effectiveness of education along with creating a wide range of opportunities for students. specific principles are analyzed.

Key words: Key words: Need, motive, motivation, contextual approach, adequacy, feasibility, paradigm, constructive, differentiated education, stability, competence, didactic, creative, process, method, paradox, direction, interactive.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiyaviy jarayonida o'qitishning turli xil yondoshuvlari, ta'lim texnologiyalarini joriy etish uchun keng imkoniyatlar taqdim etuvchi yangi o'qitish metodologiyasi kirib kelmoqda va ulardan samarali foydalanilmoqda.

Talabalarning o'quv-ijodiy faoliyatining motivatsion jihati muhim hisoblanib, faoliyatni faollashtirishda "ehtiyoj", "motiv" va "motivatsiya" tushunchalari asosiy rol o'ynaydi.

Ehtiyoj – insonning biror narsaga bo'lgan zarurati, bu biologik zarurat (oziq-ovqat, havo va boshq.) yoki ijtimoiy (kommunikativ, bilish ehtiyojlari) bo'lishi mumkin. "Ehtiyojning yo'naltirilgan shakli motiv hisoblanib, bu ehtiyojni qondirish bilan bog'liq bo'lgan shaxsning ma'lum bir faollik turiga (faoliyat, muloqot, atvor) ichki intilishi bo'lib hisoblanadi. Motiv sifatida tashqi dunyo predmetlari, tasavvurlar, g'oyalar, his-tuyg'ular va kechinmalar, ya'ni ehtiyoj mujassam bo'lgan hamma narsa bo'lishi mumkin".

Motivlar tashqi va ichki turlarga bo'linadi. Tashqi motivlarga chora va mukofot, moddiy manfaat, boshqalar tomonidan o'tkaziladigan bosim, o'z faoliyati natijalarini kutish va boshq kiradi. Ularning barchasi o'quv maqsadidan tashqarida bo'lib, mazkur maqsad befarq yoki yoqimsiz bo'lishi, ta'lim esa majburiy xarakterga ega bo'lishi mumkin[1,63].

Ichki motivatsiya bilimga qiziqish, qiziquvchanlik, madaniy va kasbiy jihatdan takomillashtirish istagini o'z ichiga oladi, bu esa талабаларни o'rganishni o'z maqsadiga aylantirishga undaydi.

Motivatsiya tuzilishini o'rganishda bir qator xususiyatlariga ahamiyat qaratish lozim. Birinchidan motivatsiya jarayonga yo'naltirilgan bo'lib, unda talaba o'quv faoliyatining o'zidan rozi bo'lish istagi bilan harakatlanadi. Ikkinchidan motivatsiya natijaviylik xususiyatiga ega bo'lib, bunda talaba o'quv faoliyati natijasi shaxs rivojlanishiga ta'sirini anglashi bilan xarakterlanadi. Uchinchidan, motivatsiya rag'batga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv faoliyati uchun mukofot-rag'batlashning kuchiga extiyoj sezish bilan ifodalanadi. To'rtinchidan, tanbehdan qochishga yo'nalganlik xususiyati bo'lib, o'quv faoliyatida talaba shaxsiga "qamchi siyosati"dan foydalanishni nazarda tutadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bizningcha, ichki motivatsiya jarayon va natijalarga yo'nalganlikni, tashqi motivatsiya esa mukofotlash va jazodan qochishni o'z ichiga oladi[2,133].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Zamonaviy ta'lim paradigmasida talabalarning o'qitishga muhim didaktik maqsad berishga imkon beruvchi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirishning asosiy tamoyillari O.E.Lebedev. Ushbu tamoyillarga ko'ra, ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy ma'nolaridan biri mustaqil ijodiy ishlash qobiliyatini shakllantirish, qo'shimcha ravishda ta'limning tashkiliy asosidir.

O'quv faoliyatini modellashtirish - o'rganilayotgan mavzuning asosiy xususiyatlarini boshqa tizim - moddiy ob'ekt, tenglamalar to'plami, kompyuter dasturi yordamida tasvirlash bo'lib hisoblanadi[3,21].

Tadqiqot metodologiyasi.

Talaba motivatsiyasining o'ziga xos va yetakchi turi bo'lib o'qishga motivatsiya hisoblanadi. Bu o'quv motivi va o'quv-bilish faoliyati motivi boshchiligidagi turli xil motivlar iyerarxiyasini ifodalaydi.

O'quv motivi – bu o'quv jarayonida o'quv-bilish faoliyatni amalga oshirishda talabani undovchi maylidir. O'quv-bilish faoliyatning motivi quyidagicha talqin qilinadi:

1) ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyat uchun motivatsiya – subyektning faolligini keltirib chiqaradigan va uning yo'nalishini belgilovchi tashqi yoki ichki shartlar majmui;

2) faoliyat yo'nalganliginining undovchi va belgilovchi tanlovi, u amalga oshirish sababi bo'lgan predmet;

3) harakatlarni tanlash asosida yotgan anglangan sabab.

Talabalarning o‘quv-bilish faoliyati motivlarining tasniflaridan biri V. A. Slastyonin tomonidan taklif qilingan. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) shaxsning hissiy namoyon bo‘lishiga asoslangan bevosita-undovchi motivlar: “ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ular, yorqinlik, yangilik, maroqlilik, qiziqarli o‘qitish, o‘z faoliyatiga yuqori baho olish istagi va boshqalar”.

2) istiqbolli-unovchi motivlar – “ularning asosida umuman bilimning va xususan, o‘quv fanining ahamiyatini tushunishga, fanning ijtimoiy va amaliy ahamiyatini bilishga, aniq bilim va ko‘nikmalar; fanning bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan bog‘liqligi yotadi”;

3) intellektual-undovchi motivlar – “ularga bilish jarayonining o‘zidan qoniqish olish: bilimga qiziqish, qiziquvchanlik, o‘z madaniy saviyasini kengaytirish istagi, ma’lum ko‘nikmalarni egallash, o‘quv-bilish muammolarni hal qilish jarayoniga ishtiyoq kiradi”[4,66].

O‘quv-bilish faoliyatning motivlari bilim va harakat usullarini o‘zlashtirishga, talabani mustaqil bilim loishga undashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar.

O‘quv faoliyati bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkillashtiriladi hamda nazorat etiladi. Bu faoliyat talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalarini oshirishni asosiy maqsad sifatida e’tirof etadi. Shuningdek o‘quv faoliyati talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashi, o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash, kamchiliklarini bartaraf etish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratishi lozimligini ta’kidlash lozim. Shu sababli o‘quv faoliyati shaxs rivojlanishida motivatsiyalangan jarayondir.

Motivatsiyaga asoslangan o‘quv-ijodiy faoliyat talabalarning muvaffaqiyatli bilim o‘zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, talaba shaxsida mustaqillik va tanqidiylikni rivojlantiradi;

yangi bilimlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantiradi;

talabalarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish orqali turli muammolar, qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi;

o‘quv jarayonida samaraga erishish, vazifalarni ishtiyoq bilan bajarishga, ijodiy mehnat qilishga undaydi.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etilishi nafaqat o‘qituvchining balki talabaning ham umumiy faoliyati hisoblanadi. O‘qituvchi nazoratida talaba ham mashg‘ulotlarga tayorlanishi, taqdimot qilishi, o‘qituvchiga yordam berishi orqali o‘z kasbiy tayyorgarligini namoyon etadi hamda o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi.

O‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda talabalarning “individual xususiyatlarini ham hisobga olish kerak: o‘quv jarayoniga javob berishning tezligi va adekvatligi, o‘z oldiga vazifalarni qo‘yish va ularni hal qilish yo‘llarini topish istagi va qobiliyati, turli vaziyatlardan chiqish yo‘llari, ishlash qobiliyati, o‘z-o‘zini tartibga solish. Talabaning faol faoliyatini mustaqil tartibga solish uning o‘quv jarayonidagi faol pozitsiyasiga bog‘liq bo‘lib, mustaqil qarorlar va harakatlarni qabul qilishga, vazifalarni erkin tanlashga, ijodiy faoliyatga undaydigan vaziyatlarda amalga oshiriladi (qiyinchilikda o‘rtoqlarga yordam berish, o‘z-o‘zini sinab ko‘rish, o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, mulohaza yuritish, ularni asoslash)”.

G.N. Najmiddinovaning fikricha, “o‘quv-bilish faoliyatni faollashtirishda talabalarning faol va mustaqil nazariy va amaliy faoliyatini ta’minlaydigan o‘quv ishining mazmuni, usullari, uslubiy texnikasi va tashkiliy shakllarini takomillashtirish lozim. O‘quv jarayonini faollashtirishda nafaqat pedagogik ishning mahsuldorligini, balki talabaning o‘quv-bilish faoliyati samaradorligini oshirish uchun ham yashirin zaxiralar mavjud bo‘ladi”.

Tadqiqotchi dars bosqichlarida o‘ziga xos faol xarakterdagi usullardan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib beradi. bu usullar orasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

1) o‘quv jarayonida turli qarama-qarshi fikrlarni o‘rtaga tashlash hamda munozara tashkil etish;

2) o‘zlashtirilgan mavzu yuzasidan talabalarga topshiriqlar berish hamda ularni vazifani

bajarishning samarali strategiyasini ishlab chiqishga yo‘naltirish;

3) talabalarni so‘zlash va tinglash madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan suhbatlar tashkil etish;

4) o‘quv faoliyatini qiziqarli hayotiy misollar, taniqli insonlar hayot yo‘llarini yoritib bergan roliklar, jonli uchrashuvlar bilan boyitish;

5) darsni jonlantirish maqsadida “soxta qobiliyatsizlik” usulidan foydalanish;

6) talabalarni e’tiborini tortish, darsni dinamik qilish maqsadida nutq intonatsiyasini o‘zgartirish.

Talabaning o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish muhim vazifa bo‘lib, bu jarayon pedagogdan mas’uliyat va ijodkorlikni talab qiladi, shuningdek, pedagogning harakatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

o‘quv faoliyatini oqilona rejalashtirishi;

talaba faolligini oshirishga yo‘naltirilgan motivatsion yondashuvga asoslanishi;

faol ta’lim metodlarini qo‘llash, talabani faollashtiraligan metodik tizimni ishlab chiqish, o‘quv vositalarini hamda innovatsion shakllaridan foydalana olishi;

o‘qituvchilarni ushbu usul va uslublar bilan qurollantirish, ya’ni o‘qituvchining o‘zi faoliyatini faollashtirish;

talaba shaxsini o‘quv, o‘quv-tadqiqot, o‘quv-ijodiy, tashkiliy ishlarga jalb etishning eng samarali yo‘llarini bilishi, ularni mazkur yo‘nalishlarda harakatini rivojlantirish maqsadida diagnostik metodlar bilan qurollantirib borishi[5,43].

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar, asosli fikrlar asosida quyidagicha xulosalash maqsadga muvofiq: bugungi kunda ta’limni modernizatsiyalash kontekstida albatta talabaning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish vazifasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani bajarish o‘qituvchining mahorati va qobiliyatiga bevosita bog‘liq. Chunki talabalarning kasbiy va shaxsiy fazilatlari, irodaviy sifatlari rivojlantirish, ularning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish pedagog faoliyatining ajralmas tarkibiy qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abduqodirov A.A. “Pedagogika” va “Psixologiya” fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti. –Toshkent: “Fan va texnologiyalar”. 2015. – B.161.

2. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent: “Iste’dod”. 2008. – B. 180.

3. Abduqodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 44 b.

4. Abdinazarova Z.X. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta’siri. Psix.fan.nomz...diss.- Toshkent, 2012. – 144 b.

5. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari.- Buxoro. Matbaa, 2001.- 68 b.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

OILA MUSTAHKAMLIGIGA ERKAK PSIXOTIPINING TA’SIRI

Askarova Nargiza Abdivalievna,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

Matyusupova Sohiba Gulmirza qizi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot erkak psixotiplarining oila mustahkamligiga ta’sirini global miqyosda tizimli va chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, erkaklarning psixologik arxitekturasini, xususan, temperament tipologiyalari (xolerik, sangvinik, flegmatik, melankolik), emotsional intellekt, stressga chidamlilik va qaror qabul qilish paradigmalarini oilaviy munosabatlarning strukturaviy yaxlitligi, affektiv muloqot samaradorligi va uzoq muddatli uyg‘unlikka ta’sirini keng ko‘lamda o‘rganadi. Global ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar doirasida joylashgan ushbu tadqiqot zamonaviy oilaviy psixologiya, gender dinamikasi va ijtimoiy-kognitiv paradigmalarga yuqori darajada mos keladi. Tadqiqot psixodinamik asoslangan oilaviy maslahat xizmatlari, affektiv regulyatsiyaga qaratilgan psixoterapevtik intervensiyalar va ijtimoiy siyosat dasturlari uchun empirik asoslangan, madaniy jihatdan moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, gender normativlarining qayta shakllanishi, raqamli muloqot ekotizimlari, iqtisodiy bosimlar va transmilliy munosabatlarning heterogenligi kabi zamonaviy muammolarni tahlil qiladi, oilaviy barqarorlikni ta’minlashda psixologik determinantlarning murakkab o‘zaro ta’sirini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: erkak psixotipi, oila mustahkamligi, temperament tipologiyasi, emotsional intellekt, stressga chidamlilik, oilaviy munosabatlar, psixologik barqarorlik, gender dinamikasi, transmilliy tadqiqotlar, psixodinamik maslahat, affektiv regulyatsiya, ijtimoiy-kognitiv paradigmalar

ВЛИЯНИЕ ПСИХОТИПА МУЖЧИНЫ НА ПРОЧНОСТЬ СЕМЬИ

Аскарова Наргиза Абдивалиевна,
доцент кафедры педагогики и психологии Ташкентского государственного медицинского университета

Матюсупова Сохиба Гулмирза кызы,
магистрант Ташкентского государственного медицинского университета

Аннотация. Настоящее исследование посвящено систематическому и глубокому анализу влияния мужских психотипов на стабильность семьи в глобальном масштабе, фокусируясь на психологической архитектуре мужчин, в частности, типологиях темперамента (холерический, сангвинический, флегматический, меланхолический), эмоциональном интеллекте, стрессоустойчивости и парадигмах принятия решений, а также их воздействии на структурную целостность семейных отношений, эффективность аффективного общения и долгосрочную гармонию. Встроенное в контекст глобальных социально-культурных трансформаций, данное исследование обладает высокой релевантностью для современных дискурсов семейной психологии, гендерной динамики и социально-когнитивных парадигм. Оно служит разработке эмпирически обоснованных и культурно адаптированных стратегий для психоаналитически ориентированных семейных консультационных услуг, психотерапевтических интервенций, направленных на аффективную регуляцию, и программ социальной политики. Кроме того, исследование

анализирует современные вызовы, такие как реструктуризация гендерных нормативов, экосистемы цифровой коммуникации, экономические давления и гетерогенность транснациональных отношений, раскрывая сложное взаимодействие психологических детерминант в обеспечении семейной стабильности.

Ключевые слова: мужской психотип, стабильность семьи, типология темперамента, эмоциональный интеллект, стрессоустойчивость, семейные отношения, психологическая устойчивость, гендерная динамика, транснациональные исследования, психоаналитическое консультирование, аффективная регуляция, социально-когнитивные парадигмы

THE INFLUENCE OF THE MALE PSYCHOTYPE ON FAMILY STABILITY

Askarova Nargiza Abdivalievna,
Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology, Tashkent State Medical University

Matyusupova Sohiba Gulmirza qizi,
Master's student at Tashkent State Medical University

Abstract. This research is devoted to a systematic and in-depth analysis of the influence of male psychotypes on family stability from a global perspective, focusing on the psychological architecture of men, particularly temperament typologies (choleric, sanguine, phlegmatic, melancholic), emotional intelligence, stress resilience, and decision-making paradigms, and their impact on the structural integrity of family relationships, the efficacy of affective communication, and long-term harmony. Embedded within the framework of global socio-cultural transformations, this study is highly relevant to contemporary discourses in family psychology, gender dynamics, and socio-cognitive paradigms. It contributes to the development of empirically grounded and culturally adapted strategies for psychodynamically informed family counseling services, psychotherapeutic interventions focused on affective regulation, and social policy programs. Additionally, the study examines modern challenges, including the reconfiguration of gender normativities, digital communication ecosystems, economic pressures, and the heterogeneity of transnational relationships, elucidating the complex interplay of psychological determinants in ensuring family stability.

Keywords: male psychotype, family stability, temperament typology, emotional intelligence, stress resilience, family relationships, psychological stability, gender dynamics, transnational research, psychodynamic counseling, affective regulation, socio-cognitive paradigms

Kirish. Erkak psixotiplarining oila mustahkamligiga ta'siri zamonaviy psixologiya, sotsiologiya va gender tadqiqotlari sohasida muhim va dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda. Global ijtimoiy tuzilmalar transformatsiyasi, xususan, gender normativlarining qayta shakllanishi, iqtisodiy bosimlar, raqamlashtirilgan muloqot paradigmalari ko'payishi oilaviy munosabatlar dinamikasida erkaklarning psixologik xususiyatlarining hal qiluvchi rolini yanada muhim qilmoqda. Ushbu tadqiqot erkak temperament tipologiyalari, emotsional intellekt, stressga chidamlilik va qaror qabul qilish paradigmalarining oilaviy ekotizimning strukturaviy yaxlitligi va affektiv funksionalligiga ta'sirini tahlil qiladi. Transmilliy tahlil doirasida ushbu tadqiqot ushbu psixologik konstruktlarning turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda farqli ta'sirini ochib beradi, oilaviy psixologiya sohasiga nazariy va amaliy jihatdan muhim hissa qo'shadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi erkak psixotiplarining oilaviy munosabatlarning psixodinamik va ijtimoiy-kognitiv mexanizmlarini shakllantirishdagi rolini aniqlash va global miqyosda oilaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun madaniy jihatdan moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqishdir. Tadqiqot psixodinamik tahlil, affektiv regulyatsiya va ijtimoiy-kognitiv nazariyalar

asosida oilaviy munosabatlarning murakkab dinamikasini tushuntirishga intiladi, shu bilan birga zamonaviy muammolar, masalan, raqamli muloqotning oilaviy dinamikaga ta’siri, iqtisodiy noaniqliklar va gender rollarining evolyutsiyasini hisobga oladi. Ushbu tadqiqot oilaviy psixologiya sohasidagi mavjud empirik bo‘shliqlarni to‘ldirishga, xususan, turli madaniy kontekstlarda erkak psixotiplarining oilaviy munosabatlarning uzoq muddatli barqarorligiga ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan.

Psixologik konstruktlar va ularning oilaviy dinamikaga ta’siri

Ushbu tadqiqot erkak psixotiplarini klassik temperament tipologiyasi — xolerik, sangvinik, flegmatik va melankolik — asosida tabaqalashtiradi va emotsional intellekt, stressga chidamlilik, qaror qabul qilish paradigmalari va affektiv regulyatsiya kabi qo‘shimcha psixologik konstruktlar bilan integratsiyalashgan holda oilaviy mustahkamlikka ta’sirini chuqur tahlil qiladi.

Xolerik psixotipi: Xolerik xususiyatlarga ega erkaklar o‘zlarining qat’iy rahbarlik va agentik xulq-atvori bilan ajralib turadi, bu ularni oilaviy qaror qabul qilish jarayonlarida dominant pozitsiyaga olib keladi. Biroq, ularning impulsivligi va xulq-atvoridagi qat’iylik, ayniqsa, ijtimoiy-emotsional stress yuqori bo‘lgan kontekstlarda, oilaviy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellektni strategik rivojlantirish orqali bu rahbarlik xususiyatlari oilaviy uyg‘unlikni mustahkamlash uchun konstruktiv kuch sifatida qayta yo‘naltirilishi mumkin (Karney & Bradbury, 2020). Masalan, affektiv regulyatsiya strategiyalari xolerik erkaklarning impulsiv reaksiyalarini boshqarishga yordam beradi, bu esa ularning oilaviy muloqotda dialogik barqarorlikni ta’minlash qobiliyatini oshiradi.

Sangvinik psixotipi: Sangvinik erkaklar o‘zlarining optimistik va ijtimoiy xulq-atvori bilan oilada ijobiy affektiv muhit yaratishga hissa qo‘shadi. Biroq, ularning xulq-atvoridagi o‘zgaruvchanlik va uzoq muddatli majburiyatlarni bajarishdagi qiyinchiliklari, ayniqsa, raqamli chalg‘ituvchi omillar va zamonaviy ijtimoiy bosimlar ta’sirida, oilaviy barqarorlikka putur yetkazishi mumkin (Gottman & Silver, 2015). Muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli intervensiyalar, masalan, ijtimoiy-kognitiv treninglar, sangvinik erkaklarning oilaviy uyg‘unlikni mustahkamlashdagi ijobiy ta’sirini oshirishi mumkin.

Flegmatik psixotipi: Flegmatik erkaklar o‘zlarining xotirjam va muvozanatli xulq-atvori bilan oilada tinchlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Biroq, ularning passivligi va qaror qabul qilishdagi sekinligi, ayniqsa, raqamli muloqot talab qiladigan dinamik oilaviy kontekstlarda, muammolarni keltirib chiqarishi mumkin (Fincham & Beach, 2010). Assertivlikni rivojlantirishga qaratilgan psixodinamik intervensiyalar flegmatik erkaklarning oilaviy dinamikadagi faol ishtirokini oshirishi va ularning barqarorlikni ta’minlash qobiliyatini yanada mustahkamlashi mumkin.

Melankolik psixotipi: Melankolik erkaklar chuqur emotsional sezgirlik va introspektiv xususiyatlari bilan oilada affektiv jihatdan boy munosabatlar o‘rnatishga qodir. Biroq, ularning haddan tashqari sezgirligi va introvert xulq-atvori, ayniqsa, konfliktli yoki raqamlashtirilgan muloqot kontekstlarida, kommunikativ to‘siqlarni keltirib chiqarishi mumkin (Johnson, 2016). Affektiv regulyatsiyaga qaratilgan psixoterapevtik strategiyalar, masalan, emotsional modulyatsiya va ijtimoiy-kognitiv treninglar, melankolik erkaklarning muloqot samaradorligini oshirishi va ularning oilaviy uyg‘unlikka hissa qo‘shish qobiliyatini mustahkamlashi mumkin.

Temperamentdan tashqari, emotsional intellekt, stressga chidamlilik va konfliktlarni boshqarish kompetensiyalari oila mustahkamligining muhim determinantlari sifatida ajralib turadi. Yuqori emotsional intellektga ega erkaklar murakkab ijtimoiy nizolarni boshqarishda va affektiv munosabatlarni mustahkamlashda muvaffaqiyatliroq bo‘ladi, stressga chidamlilik esa iqtisodiy noaniqliklar, raqamli chalg‘ituvchi omillar kabi tashqi stress omillariga bardosh berishga yordam beradi (Goleman, 2019). Kollaborativ qaror qabul qilish paradigmalari oilaviy munosabatlarning dialogik uyg‘unligini oshiradi, psixologik konstruktlarning sinergik ta’sirini ta’kidlaydi.

Madaniy va zamonaviy kontekst

Transmilliy tahlillar erkak psixotiplarining oila mustahkamligiga ta’sirini ijtimoiy-madaniy epistemologiyalar sezilarli darajada modulyatsiya qilishini ko‘rsatadi. Kollektivist jamiyatlarda,

masalan, Osiyo mamlakatlarida, flegmatik xususiyatlar jamoaviy qadriyatlar bilan moslashuvi tufayli oilaviy barqarorlikni mustahkamlashda yuqori baholanadi. Aksincha, individualistik jamiyatlarda, masalan, Shimoliy Amerika va Yevropada, xolerik va sangvinik xususiyatlar o‘zlarining dinamizmi va agentik sifatlari tufayli afzal ko‘riladi (Nurmatov & Bekmirov, 2021). Global miqyosda tenglikchi oilaviy paradigmalarning yuksalishi an’anaviy va zamonaviy gender rollari o‘rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqardi, bu esa psixotiplarning ushbu o‘zgaruvchan dinamika bilan qanday o‘zaro ta’sir qilishini tushunishni talab qiladi.

Zamonaviy muammolar, masalan, raqamli muloqot platformalarining keng tarqalishi, global iqtisodiy noaniqliklar oilaviy dinamikaga yangi qiyinchiliklar keltirdi. Raqamlashtirilgan muloqot, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida virtual munosabatlarning ko‘payishi bilan, emotsional intellekt va affektiv regulyatsiyaning oilaviy uyg‘unlikni ta’minlashdagi ahamiyatini yanada oshirdi. Ushbu kontekstda psixotiplarning oilaviy munosabatlarga ta’siri madaniy xilma-xillik va zamonaviy ijtimoiy bosimlar linzasi orqali qayta ko‘rib chiqilishi zarur.

Tadqiqotning ahamiyati

Ushbu tadqiqot oilaviy psixologiya sohasida erkak psixotiplarining oila mustahkamligidagi rolini chuqur tushunishga muhim hissa qo‘shadi, global ijtimoiy transformatsiyalar kontekstida yuqori ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari psixodinamik asoslangan oilaviy maslahat xizmatlari, affektiv regulyatsiyaga qaratilgan psixoterapevtik intervensiyalar va ijtimoiy siyosat dasturlari uchun empirik asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu strategiyalar oilaviy nizolarni oldini olish, psixologik farovonlikni oshirish va turli madaniy kontekstlarda oilaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Tadqiqot, shuningdek, raqamli muloqotning oilaviy dinamikaga ta’siri, global gender rollarining evolyutsiyasi kabi zamonaviy muammolarni tahlil qiladi, bu esa uni xalqaro miqyosda dolzarb qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oilaviy maslahat markazlari va psixologik yordam dasturlarini loyihalashda psixotipga xos yondashuvlarni ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi. Masalan, xolerik erkaklar uchun affektiv regulyatsiyaga qaratilgan treninglar oilaviy nizolarni kamaytirishi mumkin, sangvinik erkaklar uchun esa ijtimoiy-kognitiv treninglar uzoq muddatli majburiyatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, tadqiqot global miqyosda oilaviy barqarorlikni ta’minlash uchun madaniy jihatdan moslashtirilgan dasturlarni loyihalashda muhim ma’lumotlar taqdim etadi, ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy kontekstga mos yondashuvlarni ishlab chiqishda.

NATIJALAR. Tahlillar erkak psixotiplarining oila mustahkamligiga sezilarli va farqli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi:

Xolerik psixotipi: Xolerik erkaklar o‘zlarining qat’iy rahbarlik xususiyatlari orqali oilaviy barqarorlikni ta’minlaydi, lekin impulsivlik va xulq-atvor qat’iyligi, ayniqsa, zamonaviy oilaviy bosimlar kontekstida, nizolarni keltirib chiqaradi. Emotsional intellekt va affektiv regulyatsiyani rivojlantirish ushbu xususiyatlarni konstruktiv yo‘nalishga burishi mumkin.

Sangvinik psixotipi: Sangvinik erkaklar ijobiy affektiv muhit yaratadi, lekin xulq-atvor o‘zgaruvchanligi va uzoq muddatli majburiyatlardagi qiyinchiliklar oilaviy barqarorlikka xavf soladi. Ijtimoiy-kognitiv treninglar muloqot samaradorligini oshirib, oilaviy uyg‘unlikni mustahkamlashi mumkin.

Flegmatik psixotipi: Flegmatik erkaklar xotirjamlik va muvozanat orqali barqarorlikni ta’minlaydi, lekin passivlik va qaror qabul qilishdagi sekinlik dinamik oilaviy kontekstlarda muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Assertivlikni rivojlantirishga qaratilgan psixodinamik intervensiyalar ularning rolini optimallashtiradi.

Melankolik psixotipi: Melankolik erkaklar chuqur emotsional bog‘lanishlar o‘rnatishda muvaffaqiyatli, lekin haddan tashqari sezgirlik va introvert xulq-atvor muloqotda to‘siqlarni keltirib chiqaradi. Affektiv regulyatsiya strategiyalari ularning munosabatlar samaradorligini oshiradi.

Emotsional intellekt va stressga chidamlilik oilaviy barqarorlikning muhim mediatorlari sifatida aniqlandi. Yuqori emotsional intellektga ega erkaklar murakkab nizolarni boshqarishda va affektiv uyg‘unlikni ta’minlashda muvaffaqiyatliroq bo‘ladi (Goleman, 2019). Stressga chidamlilik iqtisodiy noaniqliklar, raqamli chalg‘ituvchi omillarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Madaniy kontekst ushbu ta’sirlarni sezilarli darajada modulyatsiya qiladi, kollektivist jamiyatlar barqarorlikka yo‘naltirilgan xususiyatlarni, individualistik jamiyatlar esa dinamik xususiyatlarni afzal ko‘radi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari erkak psixotiplarining oilaviy dinamikaga murakkab va sinergik ta’sirini yoritadi. Xolerik va sangvinik psixotiplar agentik ishtirokni ta’minlaydi, lekin impulsivlik va o‘zgaruvchanlik, ayniqsa, raqamlashtirilgan muloqot va iqtisodiy bosimlar kontekstida, oilaviy barqarorlikka xavf soladi. Flegmatik va melankolik psixotiplar barqarorlik va emotsional chuqurlikni ta’minlaydi, lekin passivlik va haddan tashqari sezgirlik muloqotda to‘siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Emotsional intellekt va affektiv regulyatsiya ushbu psixotiplarning salbiy ta’sirini yumshatishda muhim mexanizmlar sifatida ajralib turadi, zamonaviy tenglikchi oilaviy paradigmalarga mos keladi (Gottman & Silver, 2015).

The process of psychodiagnostics of the emotional sphere of persons with endocrine disorders requires a special approach. On this occasion, several psychodiagnostic techniques can be recommended: the methodology for the diagnosis of temperament Y. Strelyau, the methodology "scale of subjective well-being" G. Perue-Bada, adapted by M.V. Sokolova, Methodology «Hospital Stray for Alarm and Depression» A.S. Sigmond, R.P. Sitt and questionnaire of aggressiveness A. Bass - A. Darki.

Psychotherapy. Effective psychological work to change the emotional state of adults with endocrine diseases is impossible without the active participation of the patient himself in this process. Scientists identify two strategies for behavior in a situation of somatic disease - passive and active. The patient's active position is expressed in the desire to change the situation, attempts to actively overcome the barriers and adapt to life in a given disease. Many patients cannot take the disease, live with it. This leads to the fact that they respond to changes in their functioning caused by the disease, such disorders as fear, apathy, depression, etc. The passive form is directly related to psychological protection and manifests itself in the fact that the patient ignores the disease, shows the unwillingness to cooperate with the therapist, manifests a tendency to rationalization and self -deception. Modern studies show that the main factor of commitment to treatment is the psychological characteristics of the patient - his character, attitude and attitude to the disease.

Consider the methods of psychotherapy that are used in working with adults with endocrine diseases. In the treatment of somatic diseases, various methods of self -regulation are widely used. As psychology notes, mental self -regulation is a person's management with its psycho -emotional state, which is achieved by influencing a person on himself through respiratory control and relaxation, visualization, as well as words forces. Methods such as: meditation and nervously muscle relaxation are widely used. According to experts, meditative practice relieves psycho -emotional stress, improves the mental stability of the nervous system, increases the body's immune forces, and facilitates the course of many diseases. Nervous-muscular relaxation-based

on the action of relaxation techniques, is awareness of various sensations characterizing a relaxed and tense muscle. The session of neuromuscular relaxation consists of arbitrary contraction and the subsequent relaxation of a certain muscle group. Working with patients also uses the visualization method. Creating visualization is a method of using the imagination that allows you to create the desired state. With the help of imagination, the patient creates mental images, focuses on this picture, giving it positive energy until it becomes a reality. Psychologists emphasized a large role in positive thoughts, as well as a state of relaxation, which must be achieved when performing exercises.

The method of emotional -figurative therapy, the target of which is chronic negative emotional states, and the means of their correction are the images of these states represented by the patient. From the point of view of psychologists, the body is the center of identification, which records chronic emotional states that arose as a result of intrapersonal psychodynamic conflict. Therefore, the resolution of the internal conflict is carried out using the developed methods of working with images, as a result, energy is released and the emotional state changes. In working with persons with endocrine diseases, cognitive-behavioral therapy is successfully used-a counseling method that can help people change their negative thoughts in order to improve the quality of life. Cognitive psychotherapy is understood to mean the application of the cognitive model to specific disorders using a set of techniques aimed at modifying dysfunctional representations and disorders of the process of information processing characteristic of each of the disorders.

The study shows that in women with hypoteriosis who underwent a course of cognitive-behavioral therapy, mental functioning indicators have significantly improved. In particular, they have increased emotional comfort, energy. They mastered the skills of self -regulation, muscle relaxation, learned to determine negative thoughts and reconstruct them.

Recommendations. In case of psychotherapeutic work by hospitals with endocrine disorders, several recommendations can be given:

- increasing the degree of awareness of hypothyroidism, its influence on the quality of life;
- acquaintance with the methods of reducing stress;
- providing information about incorrect thoughts and attitudes regarding hypothyroidism;
- providing information on the reconstruction and change of irrational and negative attitudes and attributes and ineffective schemes on this subject
- practice of muscle relaxation, verbal and non -verbal communication;
- training to strengthen a positive conversation with oneself and visualizing successful relations, cognitive tasks and increasing realism;
- muscle relaxation training, the use of breathing exercises and visualization;
- teaching methods of identifying negative thoughts and adjusting the perception of stressful situations;
- training in identifying a logical and irrational conversation with oneself, overcoming a negative conversation with oneself;
- reconstruction and change in irrelevant negative thoughts, as well as a demonstration of the effects of revised thinking and the practice of logical reasoning;
- providing information about the logic of self -study with visualization, positive self -induction, meditation.

CONCLUSION. Thus, against the background of disorders of the thyroid gland, an individual can feel anxiety and depression, irritability and sense of shame, a decrease in the emotional background. Persons with endocrine diseases have significant differences in all aspects of mental health compared to healthy people - they have higher the severity of emotional disorders, fatigue and psychological stress, lower the self -esteem of the quality of life and the self -control of emotions. They can feel the decline of energy, pessimism, guilt, and mood lability.

Psychotherapy shows its effectiveness in various somatic disorders. Thus, aimed at restoring

those elements of the patient’s relations system that determine the occurrence of mental stress in these pathogenesis or development in connection with the latter neurotic “layers”, psychotherapy helps to reduce the clinical manifestations of the disease, increase the social activation of patients, their adaptation in the family and society, and also increases the effectiveness of therapeutic effects of a biological nature.

Literature

1.Александер Ф. Психосоматическая медицина. Принципы и практическое применение. М.: Изд-во ЭКСМО-Пресс, 2008. 352 с.

2. Карвасарский Б.Д. Психотерапевтическая энциклопедия. СПб.: Питер, 2002. 672.

3. Лурия А.Р. Внутренняя картина болезней и ятрогенные заболевания. М.: Медицина, 1977. 212 с.

4. Николаева В.В. Влияние хронической болезни на психику / В.В. Николаева. М.: МГУ, 1987.

5. Орлова М.М. Понятие «Ситуация болезни» – объективные и субъективные составляющие // Известия Саратовского университета. Новая серия. 2009. № 1. С. 82 – 87.

6. Ростовцев В. Н. Понимание здоровья и болезни // Вопросы организации и информатизации здравоохранения. – 2020. – № 4(105). С. 42 47.

7. Середина Н.В., Шкуренко Д.А. Основы медицинской психологии: общая, клиническая, патопсихология. Ростов н/Д.: «Феникс». 512 с.

8. Черкасова И.В. Внедрение аутогенной тренировки в образовательный процесс как способ психологического оздоровления организма // Университетская наука. 2021. № 1 (11). С. 196-198.

9. Brouwers C, Christensen SB, Damen NL, Denollet J, Torp-Pedersen C, Gislason GH, Pedersen SS. Antidepressant use and risk for mortality in 121,252 heart failure patients with or without a diagnosis of clinical depression. Int J Cardiol. 2016. № 203. P. 867-873.

10. Delefosse, M.-S. Le stress, maladie du siècle? Centre Permanent pour la Citoyenneté et la Participation (CPCP) AU QUOTIDIEN. - 2017. - No I(19) - C. 3-18.

10. Нурматов, А., & Бекмиров, Т. (2021). Развитие креативности будущего учител в процессе (Doctoral dissertation, Тошкент).

Бекмиров, Т. Р. (2023). Психологическая травма у детей как фактор невроза. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 739-744.

YOSHLARNING OTA-ONALIK ROLIGA PSIXOLOGIK TAYYORLIGI

Niyozmetova Munira Ibragimovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada yoshlarning ota-onalik roliga psixologik tayyorgarlik ko‘rish masalalari atroflicha o‘rganilgan. Zamonaviy oila tendensiyalari, yoshlarning oilaga munosabatlari va qarashlari masalalariga oid ilmiy fikrlar yoritib berilgan. Tadqiqotimizda sinaluvchilar uylanmagan erkaklar, uylangan erkaklar, turmushga chiqmagan qizlar va turmush qurgan ayollar guruhlariga ajratilib o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: oila, yoshlar, psixologik tayyorgarlik, oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, oila mustahkamligi.

Quyida maqola sarlavhasi va muallif haqidagi ma’lumotlarning rus va ingliz tillariga tarjimalari keltirilgan:

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ МОЛОДЁЖИ К РОДИТЕЛЬСКОЙ РОЛИ

Ниязметова Мунира Ибрагимовна,
независимый исследователь Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

Аннотация. В данной научной статье подробно рассмотрены вопросы психологической подготовки молодежи к родительской роли. Освещены современные семейные тенденции, научные взгляды на вопросы отношения и взглядов молодежи на семью. В нашем исследовании испытуемых изучали, разделяя их на группы незамужних мужчин, женатых мужчин, незамужних девушек и замужних женщин.

Ключевые слова: семья, молодежь, психологическая подготовка, семейные отношения, семейные ценности, прочность семьи.

PSYCHOLOGICAL READINESS OF YOUTH FOR THE PARENTAL ROLE

Niyozmetova Munira Ibragimovna,
Independent Researcher Nizami Uzbekistan National Pedagogical University

Abstract. This scientific article examines in detail the issues of psychological preparation of young people for the parental role. Modern family trends, scientific views on the issues of youth attitudes and views on the family are highlighted. In our study, the subjects were studied by dividing them into groups of unmarried men, married men, unmarried girls, and married women.

Keywords: family, youth, psychological training, family relations, family values, family strength.

Yoshlarning oiladagi ota-onalik roliga tayyorligi bu juda muhim va keng qamrovli tadqiqot ishlaridan hisoblanadi. Ota-onalik roliga tayyorlik bu yoshlarning oilaga tarbiyalash, unga mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor bo‘lishini anglatadi. Yoshlar oilaga tayyorgarlikni har tomolama shakllantirish lozim bo’ladi. Yoshlar oilaga jismoniy tayyorgarligini hisobga olish kerek bo’ladi, bunda salomatlik, reproduktiv salomatlik, sog‘lom turmush tarziga amal qilishi lozim. Yoshlar oilaga psixologik tayyorgarlik darajasi ham bo’lishi shart, unda sabr-toqat, mehr-shafqat, ruhiy barqarorlik, stressga chidamlilik va ona-ota roliga tayyorgarligi ham hizobga olinishi zarurdir. Yoshlar ijtimoiy tayyorgarligi, jamiyatda ota-ona bo‘lish mas’uliyatini anglash, ijtimoiy rol va vazifalarni bajarishga tayyor bo’lishi, moliyaviy tayyorgarligi, oilani moddiy ta’minlash imkoniyati ham zarurdir. Oilada axloqiy va madaniy an’analar, qadriyatlar, ota-onalik vazifalari va mas’uliyatini anglashi zarurdir. Ota-onalik roliga tayyorgarlik jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni ham

hisobga olgan holda dastlab oilaviy muhitni asrash va sog’lomlashtirish masalalari muhimdir. Yoshlar o‘z ota-onasi namunasi asosida ota-onalik mas’uliyatini shakllantirib boradi. Albatta, ta’lim va tarbiya maktab va oliy ta’lim muassasalaridagi psixologik, ijtimoiy va madaniy ta’lim bu borada katta ahamiyatga ega. Bizlarning madaniy qadriyatlar, diniy e’tiqodlar va ijtimoiy norma va stereotiplari hamda shaxsiy fazilatlar ta’sir kuchiga egadir. Yoshlar oilada mas’uliyat, empatiya, hissiy intellektlarni oshirish kerak bo’ladi.

Bugungi kunda yoshlar oilaga bo‘lgan munosabati o‘zgarib borishi ko‘pchilikni xavotirga soladi. Yoshlarning ayrimlari psixologik yoki iqtisodiy jihatdan tayyor emasligi, ijtimoiy tarmoqlarning nojo‘ya ta’sirlarga tushub qolishi, erta nikohlar va ota-onalik mas’uliyatiga tayyor emasligi, yoshlarimiz oilaviy huquq va ehtiyojlarini to‘liq anglamasli. Yoshlarimiz oilada psixologik tayyorgarlik yetishmasligi sezilarli darajada, ularni biz sabr-toqatning kamligi, baxs va tortishuvlarni hal qilish ko‘nikmasining yetishmasligi, ruhiy barqarorlikning zaifligi hamda bir-birini tushunish, kechirish madaniyatining pastligi bilan belgilanmoqda.

Bizlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda oilali va oila qurmagan talaba yoshlarning oiladagi ota-onalik roliga psixologik tayyorligining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsad qilib oldik. Bunda biz yoshlarning ota-onalik roliga psixologik tayyorligi dinamikasini psixologik muammo sifatida ko‘rib chiqish bo‘lsa,unda qizlarning ota-onalik roliga psixologik tayyorligi, yigitlarning ota-onalik roliga psixologik tayyorligi xususiyatlarini aniqlash hamda ota-onalik roliga psixologik tayyorlikka ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadigan mezonlarini qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keldi. Yoshlar ota-onalik roliga psixologik tayyorligi muammosi turli yondashuvlar asosida ko‘rib chiqdik.

Dastlab yoshlarimiz oila qurishga nesha yoshdan boshlab kirishib borishini hisobga olgan holda kuzatuvlar olib borildi. Bunda an’anaviy qarashlar imizni hisobga olsak, unda ko‘pchilik an’anaviy jamiyatlarda erkaklar kechroq, ayollar esa nisbatan erta turmush qurishi lozim degan fikr mavjud. Hozirgi zamonaviy qarashlarda esa, yoshlar ko‘proq ta’lim olish, karera qilish, o‘zini rivojlantirishdan keyin turmush qurishni afzal ko‘radilar. Quyida olib borilgan tadqiqotlarda sinaluvchilarning farqini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Sinaluvchilar orasidagi farqlari

Mavzu	Erkaklarning munosabati	Ayollarning munosabati
Ideal turmush qurish yoshi	25-30 yosh	22-27 yosh
Sabablar	Moliyaviy barqarorlikka erishish, tayyorlik	Ta’limni tugatish, oilaviy bosim, biologik soat
Kechikkan turmush yoshi bo‘yicha munosabat	Muhim emas, asosiysi — tayyorlik	Kechikishdan xavotir, jamiyat bosimi ko‘proq seziladi
Bosim manbalari	Jamiyat va ota-onalar, lekin nisbatan yumshoq	Jamiyat, ota-onalar va qarindoshlar bosimi kuchliroq
Ta’lim va karera ta’siri	Kareraga e’tibor kuchli, kechiktirish normal hisoblanadi	Karera va turmush orasida tanlov qilishga majbur bo‘lishadi
Shaxsiy erkinlik haqida fikrlar	Erkin qaror qabul qilishni afzal ko‘rishadi	Jamiyat fikridan ko‘proq xavotir olishadi

Demak, oilali bo‘lish turmush qurish yoshiga nisbatan munosabatlarga ta’sir etishi mumkin.

Shu boisdan, ushbu farqlar o‘rtasidagi ahamiyatlilikni aniqlash uchun natijalar styudent T mezoni orqali tahlil qilindi.

2-jadval.

Erkak va ayollarni turmushga chiqish yoshiga doir sinaluvchilarning munosabatlari natijalari (styudent t mezoni asosida)

Savol	Oilaviy holati	N	Standart og`ish	t	P
Ayol va erkaklarni turmush qurish yoshi	Uylanmagan erkak	85	1,86827	2,144	0,033*
	Uylangan erkak	72	1,70243		
	Turmushga chiqmagan qiz	71	2,45542	2,826	0,005**
	Turmush qurgan ayol	61	2,03714		

Natijalardan ma’lum bo‘ladiki, sinaluvchi guruhlar ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra, ayollarni turmush qurish yoshi (t=2,144; p<0,01) va erkaklarni turmush qurish yoshi ko‘rsatkichi - (t=2,826; p<0,01) bo‘yicha ahamiyatli tafovvutlar kuzatildi. Demak, ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, oilali va farzandli bo‘lish insonning turmush qurish yoshiga nisbatan bo‘lgan munosabatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Uylangan erkaklar va turmushga chiqqan ayollar bu masalaga real tajriba asosida yondoshishgan, ya’ni erkak kishining moddiy va ma’naviy jihatdan barkamollikka erishishi, biror bir kasbni egallashi va qulay yashash sharoitlariga ega bo‘lish kabi omillar asosida o‘z javoblarini obyektiv shart-sharoitlar bilan uyg‘unlashtirgan holda belgilashgan.

Uylanmagan yigitlar va turmushga chiqmagan qizlar esa turmush qurish yoshiga bo‘lgan munosabat hali amaliy tajribaga asoslanmagan bo‘lib, bu ularning tasavvuridagi turmush qurish yoshi – ko‘proq orzu, ideal yoki jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalarga mos keladi. Ya’ni turmush qurishga, farzandli bo‘lishga moddiy jihatdanam, ma’naviy jihatdanam hali tayyor emasliklariga qaramasdan turmush qurish yoshini ko‘proq ideal qarashlarga suyangan holda, hissiyotlar, fantaziyalar va tashqi ta’sirlarga bog‘liq holda baholashgan.

Navbatdagi jadvalda sinaluvchilarning “Turmush qurgandan keyin necha yil o‘tgach farzand ko‘rish ma’qul deb o‘ylaysiz?” degan savolga javoblari bo‘yicha natijalar keltirilgan. Ushbu savol bo‘yicha ham sinaluvchilar orasida sezilarli farqlar kuzatilmoqda.

3-jadval

Sinaluvchilarning yoshlar oila qurgandan keyin qancha vaqtda farzand ko‘rishi bo‘yicha munosabatlariga oid natijalar tahlili

Yil	Uylanmagan erkak		Uylangan erkak		Turmushga chiqmagan qiz		Turmush qurgan ayol	
	soni	Foiz	soni	Foiz	soni	Foiz	soni	Foiz
0					10	16,4	11	15,5
1	54	73	4	4,8	31	50,8	41	57,7
2	17	23	54	65,1	14	23	15	21,1
3	1	1,4	15	18,1	4	6,6	4	5,6

Ushbu natijalardan anglaniladiki, yoshlar oila qurgandan keyin farzand ko‘rishga bo‘lgan munosabatlari - bugungi kunda yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlari, shuningdek, turmushga va oila qurishga bo‘lgan munosabatlari bilan bog‘liq.

Uylanmagan yigitlar va turmushga chiqmagan qizlarning katta qismi – uylanmagan erkaklarning -73%, turmushga chiqmagan qizlarning – 50,8% oila qurgandan keyin 1 yil ichida farzand ko‘rishni xohlaydi. Bu holat yoshlarning kelajakdagi oilaviy hayot haqidagi intilishlari va orzularining yuqoriligi, ijtimoiy va madaniy bosimlarning ta’siri kuchliligi bilan izohlash mumkin. Chunki, jamiyatda farzandli bo‘lish oila mustahkamligining asosiy shartlaridan biri sifatida qabul qilingan.

Uylangan erkak respondentlarning 65,1% ida farzand ko‘rish istagi ikkinchi yilga to‘g‘ri keladi, 1 yil ichida farzand ko‘rishni xohlovchilar soni juda kam 4,8%. Buni oila qurgan erkaklarning ko‘proq barqarorlik, moddiy va ma’naviy tayyorgarlik, turmush sharoitlarini yaxshilash kabi omillarga katta ahamiyat berilishi bilan izohlash mumkin. Ya’ni, ular farzand ko‘rishdan oldin oila mustahkamligiga e’tibor berishlari jamiyatimizda erkaklarning oila va farzandlar oldida mas’uliyati ortganligidan va oilaviy rejalashtirish jarayoni kuchayganidan dalolat beradi.

Turmush qurgan ayollarning 57,7%i 1 yil ichida farzand ko‘rishni afzal deb xisoblashgan. Buni biz ayollarning ona bo‘lish istagi, oiladagi barqarorlik va baxt hissini farzandi orqali mustahkamlashga intilishi bilan bog‘liq deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, ota-onalik roliga tayyorlik muammosini o‘rganishda farzand ko‘rish motivlari va u haqidagi tasavvurlarni o‘rganish maqsadga muvofiq. Shu boisdan navbatdagi jadvalda sinaluvchilarga farzand ko‘rishdagi asosiy motivlari haqidagi savol bilan yuzlandik. Javoblar quyidagi jadval va rasmda o‘z aksini topgan.

Oila har bir inson hayotidagi muhim va mas’uliyatli bosqichdir. Mustahkam va sog‘lom oila qurish uchun yoshlar nafaqat muhabbat, balki ma’naviy, ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozim. Oilaviy hayot muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tayyorgarlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Oila qurish bu katta qadam. Ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy tayyorgarlik barqaror va baxtli oilaning asosidir. Har qanday tayyorgarlik birinchi navbatda o‘zingizni anglashdan

boshlanadi. Oila mehnat va mas’uliyat talab qiladigan muqaddas maskan. Yoshlar oila qurishga tayyorgarlikda barcha sohalarda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lsalar, mustahkam va baxtli oila qurish imkoniyatlari yanada ortib boradi. Oilaviy hayotda muhabbat, hurmat, ishonch va sabr-toqat asosiy omil hisoblanadi.

Ota-onalik roliga tayyorgarlikni oshirish yo‘llarini zamon talablari darajasida o’rganib borish lozim. Yoshlarimiz ma’rifiy ishlarni oshirishi lozim, ular ota-onalik mas’uliyati bo‘yicha kurslar, seminarlar, treninglarda muntazam ravishda ishtirok etishi talab qilanadi. Mahallalarda psixologik maslahat xizmatlari yosh oilalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash lozim. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan yordam ko‘rsatish hamda oila va maktab hamkorligi ota-onalikka tayyorgarlikni oila va ta’lim tizimi orqali uzluksiz rivojlantirishga qaratilgan o’quv dasturlari ishlab chiqilishi zarurdir.

Adabiyotlar

Rasulova Z.A. O‘zbeklarda oila-nikoh an’analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi. -T: O‘qituvchi,2018.-256 b

Yadgarova G.T. Noto‘liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol.fan.nomzod... diss: 19.00.05.-T.2004-140 b.

Карабанова,О.А.Психологиясемейныхотношенийиосновысемейногоконсультирования : учебное пособие [Текст] / О.А. Карабанова. – Москва : Гардарики, 2004. – 320с.

Жупиева, Е.И. Особенности психологической готовности к материнству студенток [Текст] / Е.И. Жупиева // Сибирский психологический журнал. – 2015. – №66 – С.100–108.

А.И. Фрей, М.В. Нухова, В.В. Курунов. Психологическая готовность к родительству студенческой молодёжи. Научный статья. Педагогический журнал башкортостана. №6(74) 2018г.

Васильева Е.Н. Психологическая готовность к родительству: монография / Е.Н. Васильева, А.В. Щербаков. – Н. Новгород: НИУ РАНХиГС, 2015. – 208 с….

SPORT BILAN SHUG‘ULLANISH O‘SMIRLARNING HISSIY-INTELLEKTUAL HOLATIGA TA’SIRI

Sa`dullayev Aziz Akmal o‘g‘li
Iqtisodiyot va pedagogika unversiteti NTM o‘qituvchisi

Choriyev G‘olib Eshqobul o‘g‘li
Iqtisodiyot va pedagogika unversiteti NTM psixologiya ta`lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Sport bilan muntazam shug‘ullanish o‘smirlarning hissiy va intellektual rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy faollik stress darajasini kamaytirib, hissiy barqarorlikni oshiradi, shuningdek, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada sport mashg‘ulotlarining o‘smirlarning ruhiy holatiga, intellektual faoliyatiga va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga ta’siri psixologik tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sportning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va intellektual rivojlanishda ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Sport, o‘smirlar, hissiy holat, intellektual rivojlanish, stress, jismoniy faollik, psixologik barqarorlik, kognitiv qobiliyatlar, ijtimoiy moslashuv.

THE IMPACT OF SPORTS ACTIVITIES ON ADOLESCENTS’ EMOTIONAL AND INTELLECTUAL STATE

Abstract. Regular participation in sports has a significant impact on adolescents’ emotional and intellectual development. Physical activity reduces stress levels, enhances emotional stability, and helps improve cognitive abilities. This article presents a psychological analysis of the effects of sports training on adolescents’ mental state, intellectual performance, and social adaptation processes. The research findings indicate that sports play a crucial role not only in physical development but also in psychological and intellectual growth.

Key words: Sports, adolescents, emotional state, intellectual development, stress, physical activity, psychological stability, cognitive abilities, social adaptation.

ВЛИЯНИЕ ЗАНЯТИЙ СПОРТОМ НА ЭМОЦИОНАЛЬНО-ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. Регулярные занятия спортом оказывают значительное влияние на эмоциональное и интеллектуальное развитие подростков. Физическая активность снижает уровень стресса, повышает эмоциональную устойчивость и способствует развитию когнитивных способностей. В данной статье проводится психологический анализ влияния спортивных тренировок на психическое состояние, интеллектуальную деятельность и процессы социальной адаптации подростков. Результаты исследования показывают, что спорт играет важную роль не только в физическом, но и в психологическом и интеллектуальном развитии.

Ключевые слова: Спорт, подростки, эмоциональное состояние, интеллектуальное развитие, стресс, физическая активность, психологическая устойчивость, когнитивные способности, социальная адаптация.

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda sport faoliyatining inson hayoti va rivojlanishidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, o‘smirlik davrida jismoniy faollik nafaqat organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi, balki psixologik va intellektual rivojlanishning muhim omili sifatida ham namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, sport bilan muntazam shug‘ullanish stress darajasini kamaytirish, hissiy barqarorlikni oshirish va kognitiv qobiliyatlarni

rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi qonunida ham jismoniy faollik va sportning yoshlar salomatligi hamda intellektual rivojlanishidagi o‘rni alohida ta’kidlangan.

O‘smirlik yoshi inson shaxsiyati shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda ijtimoiy moslashuv jarayoni, axloqiy-me’yoriy tizimning tarkib topishi va aqliy salohiyatning takomillashuvi sodir bo‘ladi. Shu sababli sport mashg‘ulotlari faqat jismoniy salomatlikni mustahkamlash bilangina cheklanmay, balki hissiy-intellektual barqarorlikni shakllantirishda ham muhim omil sifatida qaralishi lozim. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi qonuni ham yoshlarning jismoniy va psixologik rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqolada sport bilan shug‘ullanishning o‘smirlarning hissiy holati, stressga chidamliligi, kognitiv jarayonlari va ijtimoiy moslashuviga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bundan tashqari, o‘smirlik davrida jismoniy faollik va aqliy salohiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushuntiruvchi psixologik yondashuvlar ham ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqot natijalari sportning nafaqat jismoniy rivojlanish, balki insonning umumiy psixologik farovonligidagi o‘rnini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, sport va ta’lim tizimi integratsiyasini yanada rivojlantirish, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb etish bo‘yicha davlat siyosati va qonunchilik asoslariga tayangan holda ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Sport va o‘smirlarning hissiy-intellektual rivojlanishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar turli sohalarni qamrab olgan bo‘lib, psixologiya, pedagogika, jismoniy tarbiya va tibbiyot fanlarida keng o‘rganilgan. Ushbu bo‘limda mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, qonunchilik hujjatlari hamda ilmiy tadqiqotlar asosida sportning o‘smirlar hissiy-intellektual rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi.

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida sport va yoshlar rivoji

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida sport va jismoniy tarbiyaning yoshlar rivojlanishidagi o‘rni aniq belgilangan. Xususan:

«Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida» gi qonunda sportning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va intellektual rivojlanishga qo‘shadigan hissasi ta’kidlangan.

«Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida» gi qonunda yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi uchun sport muhim omil ekanligi qayd etilgan.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi da yoshlarning sport va sog‘lom turmush tarziga jalb qilinishi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Ushbu qonun hujjatlari asosida olib borilgan tadqiqotlar sportning yoshlar hayotidagi ijtimoiy, psixologik va intellektual jihatlarini o‘rganishga imkon yaratadi.

2. Psixologik tadqiqotlarda sport va o‘smirlarning hissiy-intellektual rivojlanishi

Ilmiy adabiyotlarda sportning stress darajasini kamaytirish, ijtimoiy moslashuv jarayonlarini yaxshilash va kognitiv funksiyalarni rivojlantirishga ta’siri keng yoritilgan. Jumladan:

Weinberg & Gould (2019) o‘zining «Foundations of Sport and Exercise Psychology» asarida sportning hissiy barqarorlik va stressni kamaytirishga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilgan.

Bailey et al. (2013) tadqiqotida jismoniy faollik va sport mashg‘ulotlarining bolalar va o‘smirlar akademik yutuqlari hamda ijtimoiy o‘zaro munosabatlariga ta’siri o‘rganilgan.

Deci & Ryan (2000) ning o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi (Self-Determination Theory) doirasidagi tadqiqotlari sportning o‘smirlar motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga ta’sirini yoritadi.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari ham sportning psixologik jihatlariga bag‘ishlangan. Masalan, M. To‘rayev (2021) jismoniy faollik va o‘quvchilarning stressga chidamliligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan bo‘lsa, A. G‘ulomova (2022) o‘smirlik davrida sportning ijtimoiylashuv jarayoniga ta’sirini tahlil qilgan.

3. Pedagogik tadqiqotlarda sport va intellektual rivojlanish

Tomporowski et al. (2008) tadqiqotida jismoniy faollik va kognitiv rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan bo‘lib, muntazam sport mashg‘ulotlari bolalarning diqqat va xotira

jarayonlarini yaxshilashi isbotlangan.

Hillman et al. (2014) [4]; o‘smirlarning jismoniy faolligi ularning akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatgan.

Shvets (2020) ning Rossiyada olib borgan tadqiqotlari jismoniy tarbiya darslarining o‘quvchilarning umumiy aqliy faolligiga ijobiy ta’sirini tahlil qilgan.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham sport va ta’lim jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari muhim o‘rin tutadi. Sh. Ismoilov (2021)[10]; jismoniy mashqlar va mantiqiy tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatib bergan.

4. Tibbiy va nevrologik tadqiqotlarda sportning miyaga ta’siri

Sportning o‘smirlar intellektual va hissiy rivojlanishiga ta’siri tibbiyot sohasida ham keng o‘rganilgan. Jumladan:

Ratey & Hagerman (2008) «Spark: The Revolutionary New Science of Exercise and the Brain» asarida jismoniy faollik miyadagi neyrotransmitterlar ishlab chiqarilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Erickson et al. (2011) ning tadqiqotlari aerobik mashg‘ulotlarning xotira va diqqat jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan.

G. Mamatqulov (2022)[9]; O‘zbekistonda olib borgan tadqiqotlarida sportning bolalar nevrologik rivojlanishidagi o‘rnini tahlil qilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, sport o‘smirlarning nafaqat jismoniy, balki hissiy va intellektual rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir qiladi. Qonunchilik hujjatlari sportning yoshlar hayotidagi o‘rnini davlat siyosati darajasida belgilab bergan. Xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar esa sportning stressni kamaytirish, kognitiv funksiyalarni rivojlantirish va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Shu boisdan, kelgusidagi tadqiqotlar sportning o‘smirlarning ruhiy va intellektual rivojlanishiga ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tahlil va natijalar bo‘limida sportning o‘smirlarning hissiy-intellektual rivojlanishiga ta’sirini tasdiqlovchi muhim dalillarni ilgari surmoqda. Ushbu bo‘limda sport faoliyatining stressga chidamlilik, hissiy barqarorlik, intellektual rivojlanish va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga ta’siri tahlil qilinadi.

O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari va sportning ahamiyati

O‘smirlik davri inson hayotining eng dinamik va muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda shaxsiyat shakllanishi, ijtimoiy moslashuv va kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishi jadallashadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar aynan shu bosqichda tashqi omillarga, jumladan, jismoniy faollikka yuqori sezgirlik bilan javob qaytaradilar (Erickson, 2012).[4]; Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish esa hissiy-intellektual rivojlanish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Jismoniy faollikning inson miyasiga ta’siri ko‘plab ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Xususan, Hillman et al. (2014) tadqiqotlariga ko‘ra, sport mashg‘ulotlari o‘quvchilar diqqat, xotira va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Bunday faoliyat miya neyroplastikligi (moslashuvchanligi)ni yaxshilaydi, bu esa o‘smirlarning akademik yutuqlari va psixologik barqarorligiga ijobiy ta’sir qiladi.

Sportning hissiy barqarorlikka ta’siri

O‘smirlarning hissiy barqarorligi ularning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyati va kelajakdagi shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy faollik psixo-emotsional muvozanatni saqlashga yordam beradi va depressiya hamda xavotirlanish darajasini kamaytiradi. Sa`dullayev.A(2024) [12]; tomonidan ilgari surilgan qarashga ko‘ra, sport bilan shug‘ullanish o‘smirlarda ichki motivatsiyani oshiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi va stress bilan kurashish qobiliyatini rivojlantiradi.

Psixofiziologik tadqiqotlarga ko‘ra, sport bilan shug‘ullanish kortizol (stress gormoni) darajasini pasaytiradi va endorfin (baxt gormoni) ishlab chiqarilishini rag‘batlantiradi. Shu

sababli, muntazam jismoniy faollik bilan shug‘ullanuvchi o‘smirlarning kayfiyati doimiy ravishda barqaror bo‘lib, ularning psixologik holati sezilarli darajada yaxshilanadi (Bailey et al., 2013).[6];

Sport va ijtimoiy moslashuv

O‘smirlik davrida insonning jamiyat bilan integratsiyasi, o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishi muhim jarayon hisoblanadi. Sport jamoaviy faoliyat bo‘lib, u o‘smirlarni muloqot qilish, hamkorlik qilish, nizolarni hal qilish va yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishga o‘rgatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sport to‘garaklari va jamoaviy o‘yinlarda ishtirok etgan o‘smirlar muloqot qobiliyatlari, empatiya va hamdardlik hissi rivojlangan bo‘ladi (Shvets, 2020). Ayniqsa, jamoaviy sport turlari – futbol, basketbol, voleybol – ijtimoiy o‘zaro ta’sirni kuchaytirib, o‘smirlarda o‘zini ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunida ham sport faoliyatining nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhimligi qayd etilgan. Ushbu huquqiy me’yorlar sport muassasalarining yoshlar bilan faol ishlashini ta’minlaydi va ularning jamiyatga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Sportning intellektual rivojlanishga ta’siri

Kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan, sport bilan shug‘ullanish diqqat, xotira va mantiqiy tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam sport mashg‘ulotlari miyadagi hippokampus sohasining hajmini oshiradi, bu esa o‘rganish qobiliyatini yaxshilaydi (Tomporowski et al., 2008) [7];

Akademik natijalarga ko‘ra, sport bilan shug‘ullanadigan o‘quvchilarning dars davomida faolligi va bilimlarni eslab qolish qobiliyati yuqoriroq bo‘ladi (Ismoilov, 2021). Jismoniy mashqlar qon aylanishini yaxshilaydi, bu esa miyaning kislorod bilan ta’minlanishiga va aqliy faoliyatning samaradorligiga ijobiy ta’sir qiladi. Shu bois, dunyo bo‘ylab ilg‘or ta’lim tizimlarida (masalan, Finlandiya, Yaponiya) sport va jismoniy tarbiya darslariga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston tajribasi: amaliy kuzatishlar va natijalar

O‘zbekistonda sportning o‘smirlarning rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

Toshkent Pedagogika Universiteti tomonidan o‘tkazilgan kuzatishlarga ko‘ra, sport bilan shug‘ullanuvchi o‘smirlarning depressiya va xavotirlanish darajasi ancha past bo‘lib, ularda akademik yutuqlar ham yuqori darajada ekanligi kuzatilgan.

Maktablardagi sport to‘garaklarida ishtirok etgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi yuqori bo‘lib, ularda muloqot qobiliyatlari va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari rivojlangan.

Maxsus sport maktablari o‘quvchilari orasida liderlik qobiliyatlari va mas’uliyat hissi yuqori darajada ekanligi kuzatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Yoshlar siyosati” doirasidagi chora-tadbirlar yoshlarning sport bilan shug‘ullanishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Bu esa kelgusida yoshlarning hissiy-intellektual rivojlanishini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Sportning o‘smirlarning ruhiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’siri ilmiy jihatdan isbotlangan. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida ham sport yoshlarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishining muhim omili sifatida qayd etilgan. Shunday ekan, kelajakda o‘smirlarning jismoniy faolligi va intellektual rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada chuqurroq o‘rganish, maktab va sport maktablari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Sport faqat jismoniy sog‘lomlashtirish vositasi emas, balki o‘smirlarning hissiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiluvchi muhim pedagogik va psixologik omildir.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sport o‘smirlarning nafaqat jismoniy, balki hissiy va intellektual rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Olingan ilmiy dalillar va amaliy kuzatishlar quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Hissiy barqarorlik va stressga chidamlilik: Sport bilan muntazam shug‘ullangan o‘smirlarda

xavotirlanish va stress darajasi past bo‘lib, ularning ruhiy barqarorligi yuqori bo‘ladi.

Ijtimoiy moslashuv va kommunikativ ko‘nikmalar: Sport jamoaviy ishlash, yetakchilik va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini rivojlantiradi, bu esa o‘smirlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

Intellektual rivojlanish va akademik natijalarga ta’sir: Sport bilan shug‘ullangan o‘smirlarning diqqat, xotira va analitik tafakkur qobiliyatlari rivojlanadi, natijada ularning akademik yutuqlari yaxshilanadi.

Psixologik farovonlik va motivatsiya: Sport o‘z-o‘zini anglash, irodaviy sifatlarga ega bo‘lish va shaxsiy intizomni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Davlat siyosati va qonunchilik asoslari: O‘zbekiston Respublikasida sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirishga oid qonunlar yoshlarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda yanada chuqur tadqiqotlar olib borish lozim.

TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

O‘quv dasturlarida sport va psixologik tarbiyani uyg‘unlashtirish:

Maktablarda sport mashg‘ulotlarini hissiy-intellektual rivojlanish bilan bog‘liq dasturlar bilan integratsiya qilish.

Jismoniy tarbiya darslarida psixologik mashg‘ulotlar va relaksatsiya texnikalarini qo‘llash.

Ota-onalar va murabbiylar uchun treninglar tashkil etish:

Sportning hissiy-intellektual rivojlanishga ta’siri bo‘yicha ota-onalar va murabbiylar uchun maxsus seminar va treninglar o‘tkazish.

Murabbiylarning sportchilar psixologiyasiga oid bilimlarini oshirish.

Maktab va sport maktablari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish:

Maktab o‘quvchilari uchun sport to‘garaklarini ko‘paytirish.

Sport bilan shug‘ullanayotgan o‘smirlarning akademik natijalarini kuzatib borish va ularga maxsus dasturlar ishlab chiqish.

O‘smirlar uchun psixologik yordam tizimini kuchaytirish:

Sport bilan shug‘ullanuvchi o‘smirlar uchun psixologik maslahat markazlarini tashkil etish.

Sportchilar uchun stressni boshqarish va motivatsiyani oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish:

Sportning turli tarmoqlari (yakkakurash, jamoaviy sport turlari) o‘smirlarning hissiy-intellektual rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini chuqur o‘rganish.

O‘zbekiston sharoitida o‘smirlarning jismoniy faolligi va akademik natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish.

Sport o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishiga ko‘p qirrali ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy faollik nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, balki hissiy barqarorlik va intellektual o‘sishni ta’minlash vositasi sifatida ham ahamiyatlidir. Shu sababli, maktablar, sport muassasalari va oilalar o‘smirlarni sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etishi, ularning jismoniy va psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (2015). “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Ma’lumotlari Markazi.

Toshkent Pedagogika Universiteti (2023). Sport va yoshlar psixologiyasi: amaliy tadqiqotlar. Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiya Materiallari, 2(1), 33-45.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2021). Sport maktablari faoliyatini rivojlantirish va o‘smirlar jismoniy tarbiyasini takomillashtirish bo‘yicha qaror. Rasmiy hujjatlar to‘plami, 6(12), 102-115.*

Hillman, C. H., Erickson, K. I., & Kramer, A. F. (2014). Be smart, exercise your heart: Exercise effects on brain and cognition. Nature Reviews Neuroscience, 9(1), 58-65.

Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68-78.

Bailey, R., Armour, K., Kirk, D., Jess, M., Pickup, I., Sandford, R., & the BERA Physical Education and Sport Pedagogy Special Interest Group. (2013). The educational benefits claimed for physical education and school sport: An academic review. Research Papers in Education, 24(1), 1-27.

Tomporowski, P. D., Davis, C. L., Miller, P. H., & Naglieri, J. A. (2008). Exercise and children's intelligence, cognition, and academic achievement. Educational Psychology Review, 20(2), 111-131.

Shvets, I. (2020). Influence of physical education on cognitive abilities in school children. Russian Journal of Physical Education and Sport Science, 12(3), 45-55.

Mamatqulov, G. (2022). O'smirlarning sport mashg'ulotlariga jalb etilishining psixologik omillari. O'zbekiston Pedagogika Jurnali, 4(1), 56-62.

Ismoilov, Sh. (2021). Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining o'smirlar tafakkur rivojlanishiga ta'siri. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Ilmiy Axborotnomasi, 5(2), 88-95.

Sa'dullayev, A. (2024, November 17). «MUSOBAQALARDA O'SMIRLARNING RUHIY HOLATI: PSIXOLOGIK STRESSNI BOSHQARISH». DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14174277

Sa'dullayev, A. (2024). «ASPECTS OF FORMING VOLUNTARY QUALITIES IN OVERCOMING ANXIETY IN ADOLESCENT WRESTLERS». News of the NUUz, 1(1.4), pp. 176–179. DOI: https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.4.2035

Sa'dullayev, A. A. o'g'li (2024). «HAVOTIRNING SPORT NATIJALARIGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI». GOLDEN BRAIN, 2(21), pp. 113–118. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14251953

АКТУАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ БЛАГОПОЛУЧИЯ СОТРУДНИКОВ КОМПАНИЙ

Рахиммирзаев Санжар Ботурович,
кандидат психологических наук PhD, доцент кафедры психологии Факультета социальных наук Национального Университета Узбекистана им. М.Улугбека,
https://orcid.org/0009-0009-0151-2175

Аннотация. В статье представлен сравнительный теоретический анализ актуальных моделей благополучия сотрудников, включая как академические, так и корпоративные подходы. Раскрыты цели, структура, методологические основы и ограничения каждой модели, обосновано их значение для оценки и формирования условий труда в современных организациях. Особое внимание уделено универсальности компонентов, степени эмпирической верификации и прикладной применимости моделей в культурно-организационном контексте.

Ключевые слова: благополучие сотрудников, академические модели, корпоративные модели, PERMA, Gallup, JD-R, SPIRE, организационная психология, субъективное благополучие, модели управления персоналом, трудовые ресурсы, психологическое здоровье, мотивация, адаптация моделей.

DOLZARBLI XODIMLAR FAROVONLIGI MODELLARI

Annotatsiya. Maqolada xodimlar farovonligining dolzarb modellari, jumladan akademik va korporativ yondashuvlarning taqqoslovchi nazariy tahlili keltirilgan. Har bir modelning maqsadlari, tuzilmasi, metodologik asoslari va cheklovlari yoritilgan hamda ularning zamonaviy tashkilotlarda mehnat sharoitlarini baholash va shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Komponentlarning universalligi, empirik verifikatsiya darajasi va madaniy-tashkiliy kontekstda modellarning amaliy qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: xodimlar farovonligi, akademik modellar, korporativ modellar, PERMA, Gallup, JD-R, SPIRE, tashkiliy psixologiya, subyektiv farovonlik, personalni boshqarish modellari, mehnat resurslari, psixologik sog‘liq, motivatsiya, modellarning moslashtirilishi.

CURRENT MODELS OF EMPLOYEE WELL-BEING IN COMPANIES

Abstract. The article presents a comparative theoretical analysis of current models of employee well-being, including both academic and corporate approaches. It outlines the objectives, structure, methodological foundations, and limitations of each model, and substantiates their relevance for assessing and shaping working conditions in modern organizations. Particular attention is given to the universality of components, the degree of empirical verification, and the practical applicability of the models within a cultural and organizational context.

Keywords: employee well-being, academic models, corporate models, PERMA, Gallup, JD-R, SPIRE, organizational psychology, subjective well-being, personnel management models, labor resources, psychological health, motivation, model adaptation.

Введение. На сегодняшний день существует ряд довольно актуальных академических и корпоративных моделей, описывающих структуру благополучия сотрудников различных компаний. При этом, так называемые академические модели благополучия сотрудников представляют собой теоретически обоснованные концепции, разработанные в рамках научных исследований в области психологии, социологии, организационного поведения и менеджмента. Эти модели разрабатывались учёными с целью анализа, объяснения и предсказания факторов, влияющих на благополучие работников. Они основаны на эмпирических данных, проходят верификацию в научных публикациях, и часто включают

комплексные категории. В свою очередь, корпоративные модели благополучия, в отличие от академических, разрабатывались преимущественно практиками в бизнес-среде, компаниями, HR-агентствами, страховыми и консалтинговыми организациями, с целью управления реальными условиями труда, повышения продуктивности и снижения издержек, связанных с текучестью кадров или выгоранием. Эти модели часто включают прагматичный подход, т.е. охватывают физическое и ментальное здоровье, финансовую защищённость, баланс работа-жизнь и мотивационные программы. Далее полагается целесообразным рассмотреть наиболее известные и популярные из них.

Анализ литературы. В рамках академических моделей благополучия сотрудников можно выделить модель «PERMA» (P - positive emotion, т.е. позитивные эмоции, E - engagement, т.е. вовлечённость, R - relationships, т.е. отношения, M - meaning, т.е. смысл, A - accomplishment, т.е. достижения). Она разработана американским психологом М.Э. Селигманом, одним из основателем направления позитивной психологии. Цель разработки заключалась в создании научно обоснованной концепции психологического благополучия, ориентированной не только на устранение дистресса, но и на развитие человеческого потенциала, жизненной удовлетворённости и процветания [4]. Модель включает пять ключевых структурных компонентов: позитивные эмоции, вовлечённость, позитивные межличностные отношения, осмысленность жизни, достижение целей и результативность. Эти компоненты считаются универсальными составляющими субъективного благополучия, которые можно измерять и развивать независимо друг от друга [15]. При этом, практика показывает, что несмотря на широкую популярность и практическую применимость, модель «PERMA» имеет ряд недостатков. Во-первых, она может быть чрезмерно ориентирована на индивидуальные ресурсы и субъективные переживания, игнорируя влияние социальных, экономических и культурных факторов на благополучие. Во-вторых, некоторые исследователи критикуют модель за отсутствие чётких границ между компонентами. Например, вовлечённость и достижения могут перекрываться, что затрудняет их независимую диагностику. Кроме того, модель в меньшей степени учитывает негативные эмоции и жизненные трудности, которые также играют важную роль в развитии личности и устойчивости. Также критика касается универсальности, «PERMA» была разработана на основе западной выборки, и её применение в других культурах требует адаптации и верификации [10].

В качестве следующей академической модели благополучия сотрудников можно выделить модель пяти элементов благополучия «Gallup», которая была разработана американскими исследователями Дж. Хартером и Т. Ратом. Целью разработки было выявление универсальных компонентов субъективного благополучия, которые одинаково важны для людей вне зависимости от культуры, возраста и социального положения. Методологической основой модели послужили масштабные социологические опросы, структурированное интервьюирование, а также статистический анализ корреляций между жизненной удовлетворённостью и различными аспектами человеческой деятельности [12]. Модель включает пять взаимосвязанных, но автономных компонентов благополучия: карьерное благополучие, социальное благополучие, финансовое благополучие, физическое благополучие и общественное благополучие [3]. Вместе с тем, несмотря на широкое распространение, модель «Gallup» также подвергается критике. Одним из недостатков является относительная поверхностность измерений, т.е. многие категории описаны обобщённо, без достаточной детализации психометрических индикаторов. Также отсутствует чёткая граница между объективным и субъективным измерением благополучия, например, финансовое состояние может восприниматься по-разному в зависимости от личных ожиданий и культуры [13].

В рамках следующей академической модели благополучия сотрудников можно выделить модель требований-ресурсов (JD-R, т.е. Job Demands-Resources model, перевод с английского

языка - Требования к работе - Ресурсы). Целью разработки было построение универсальной теоретической рамки, объясняющей, каким образом рабочие условия (требования и ресурсы) влияют на мотивацию сотрудников, их благополучие и производительность. Модель включает два ключевых структурных компонента: рабочие требования - аспекты работы, требующие постоянных физических, эмоциональных и психологических усилий, которые связаны с затратами ресурсов (например, высокая нагрузка, давление времени, эмоциональное напряжение, сменные графики, переработки); рабочие ресурсы - физические, социальные, организационные и психологические ресурсы, которые помогают достигать рабочих целей, снижать требования и стимулировать рост и развитие (например, автономия, социальная поддержка, возможности для обучения, обратная связь) [9]. Вместе с тем, основные недостатки модели «JD-R» связаны с её высокой степенью обобщённости. Поскольку модель универсальна, она не всегда отражает специфические особенности конкретных профессий, что требует индивидуальной адаптации под каждую организацию. Также модель не указывает, какие именно ресурсы являются наиболее эффективными в тех или иных условиях: это делает её менее конкретной в прикладных рекомендациях. Кроме того, критики указывают на то, что модель «JD-R» слабо учитывает влияние личностных характеристик работников (например, уровень самоэффективности или устойчивости), что ограничивает её объяснительную силу в контексте индивидуальных различий [14].

В качестве очередной модели целесообразно выделить интегративную академическую модель благополучия автором которой является российский психолог А.А. Лисовской. Она была разработана с целью объединение различных подходов к пониманию и измерению благополучия, включая субъективные и объективные, аффективные и когнитивные, гедонистические и эвдемонистические аспекты. Модель включает четыре типа классификаций индикаторов благополучия: удовольствие и возбуждение, депрессия и энтузиазм, вызов и навыки, энергия и идентификация [2]. Вместе с тем, среди недостатков модели можно отметить её высокую степень обобщённости, что может затруднять её применение в конкретных практических ситуациях. Кроме того, модель требует дальнейшей эмпирической верификации и адаптации к различным культурным и социальным контекстам [1].

Из наиболее популярных корпоративных моделей благополучия сотрудников целесообразно выделить модель «SPIRE» (S - spiritual well-being, т.е. духовное благополучие, P - physical well-being, т.е. физическое благополучие, I - intellectual well-being, т.е. интеллектуальное благополучие, R - relational well-being, т.е. межличностное благополучие, E - emotional well-being, т.е. эмоциональное благополучие). Она была разработана израильско-американским психологом и философом Т. Бен-Шахаром специалистом в области позитивной психологии. Цель разработки «SPIRE» заключалась в создании интегративной модели благополучия, ориентированной на все аспекты человеческой жизни, а не только на психологическое или физическое состояние [6, 7]. Среди недостатков модели «SPIRE» можно выделить её ненаучный характер, т.е. модель не имеет строгой эмпирической верификации и не разрабатывалась как академическая теория. Компоненты «SPIRE» не всегда операционализированы, что затрудняет их количественное измерение в научных исследованиях. Также модель может показаться избыточной для применения в узкоспециализированных корпоративных условиях, поскольку она фокусируется на личностной и духовной трансформации. «SPIRE» критикуется за субъективность и обобщённость, а также за то, что её эффективность зависит от личной мотивации пользователя, а не от системных изменений в организационной среде [8].

В рамках следующей корпоративной модели благополучия сотрудников можно выделить модель четырёх сфер благополучия «Willis Towers Watson». Целью создания модели является предоставление организациям структурированного подхода к поддержке и улучшению благополучия сотрудников. Модель включает четыре взаимосвязанные сферы:

физическое благополучие, эмоциональное благополучие, финансовое благополучие, социальное благополучие [5]. Несмотря на свою универсальность модель не лишена недостатков. Она может сталкиваться с трудностями при адаптации к специфическим культурным и организационным контекстам. Кроме того, успешная реализация модели требует значительных ресурсов и поддержки со стороны руководства, что может быть затруднительно для некоторых организаций. Также существует риск формального внедрения модели без реальных изменений в корпоративной культуре, что снижает её эффективность [11].

Выводы. Таким образом, в результате теоретического анализа актуальных моделей благополучия сотрудников выявлено, что современные подходы к его изучению делятся на академические и корпоративные, каждая из которых обладает собственными преимуществами и ограничениями. Академические модели, такие как «PERMA», «Gallup», «JD-R» и интегративная модель А.А. Лисовской, акцентируют внимание на эмпирической верификации, универсальности компонентов и раскрытии глубинных психолого-социальных механизмов благополучия, однако зачастую страдают от избыточной теоретичности и требуют адаптации к специфике конкретных организаций и культур. В свою очередь, корпоративные модели «SPIRE» и «WTW» преимущественно ориентированы на практические цели бизнеса, гибкость и применение в HR-стратегиях, но могут недоставать научной строгости, а их реализация требует значительных ресурсов и системной поддержки. В целом, проанализированные модели позволяют глубоко и многогранно рассматривать феномен благополучия сотрудников, а их сравнительный анализ не только формирует основу для выбора оптимального теоретико-прикладного инструментария для эмпирического исследования, но и способствует обоснованию направлений совершенствования и разработке универсальной интегративной модели, учитывающей как научную обоснованность, так и прикладную применимость в организационно-культурном контексте современных компаний.

Список использованной литературы

1. Качина А.А. Профессиональное благополучие специалистов сферы информационных технологий. // Организационная психология. - 2024. - Т.14, №6. - С. 134-157.

2. Лисовская А.А. Основные подходы к пониманию благополучия сотрудника. // Организационная психология. - 2021. - Т.11, №6. - С. 93-112.

3. Рат Т., Хартер Дж. Благополучие. Пять важнейших элементов / Т. Рат, Дж. Хартер. пер. с англ. - М.: Манн, Иванов и Фербер, 2015. - 240 с.

4. Селигман М.Э. Процветание: новый взгляд на счастье и благополучие. / М.Э. Селигман. пер. с англ. А.С. Черногоровой. - М.: Альпина Паблишер, 2012. - 320 с.

5. Ball J. 6 steps to ensure employee well-being in your company. // World Economic Forum. - 2019. - Vol. 12. - P. 167-170.

6. Ben-Shahar T. The Pursuit of Perfect: How to stop chasing perfection and start living a richer, happier life. - New York: McGraw-Hill, 2009. - 224 p.

7. Ben-Shahar T., Avrahami A. Happier, no matter what: cultivating hope, resilience, and purpose in hard times. - New York: Sounds True, 2021. - 176 p.

8. Bhaimiya S. How to be happier without chasing happiness. // Business Insider. - 2021. - Vol. 8. - P. 122-126.

9. Demerouti E., Bakker A.B., Nachreiner F., Schaufeli W.B. The job demands-resources model of burnout. // Journal of Applied Psychology. - 2001. - Vol.86, №3. - P. 499-512.

10. Goodman F R., Disabato D.J., Kashdan T.B., Kaufman S.B. Measuring well-being: A comparison of subjective well-being and PERMA. // The Journal of Positive Psychology. - 2017. - Т.12, №2. - С. 162-172.

11. Kozen K. Employers prioritise health while employees want financial support. // Healthcare & Protection. - 2024. - Vol. 5. - P. 231-236.
12. Rath T., Harter J. Wellbeing: The Five Essential Elements / Tom Rath, James K. Harter. – New York: Gallup Press, 2010. - 229 p.
13. Rula E.Y., et al. The Well-Being 5: Development and Validation of a Diagnostic Instrument to Improve Population Well-Being. // Population Health Management. - 2014. - vol.17, no.6. - pp. 357-365.
14. Schaufeli W.B., Taris T.W. A Critical Review of the Job Demands-Resources Model: Implications for Improving Work and Health. // Bridging Occupational, Organizational and Public Health / Ed. G.F. Bauer, O. Hämmig. - Dordrecht: Springer, 2014. - P. 43-68.
15. Seligman M.E. Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being. - New York: Free Press, 2011. - 368 p.

ORTTIRILGAN IMMUN TANQISLIGI SINDROMI (OITS) BILAN KASALLANGAN BEMORLAR PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING ILMIY TADQIQOTLARDA O‘RGANILISHI

Rajabova Umida Ubaydulloyevna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: OITS epidemiyasining ilk bosqichlarida bu kasallik tibbiyot jamoatchiligi uchun mutlaqo yangi va noma’lum hodisa sifatida qabul qilingan. 1980-yillarda infeksiyaning kelib chiqishi va rivojlanish mexanizmlari to‘liq o‘rganilmaganligi sababli, unga qarshi samarali davolash usullari mavjud emas edi. Bu esa bemorlar holatining og‘irlashuvi va salbiy prognozlar bilan kechishiga olib kelgan. Kasallikning tez sur’atlar bilan tarqalishi sog‘liqni saqlash tizimida jiddiy choralar ko‘rishni talab qilgan bo‘lsa, bemorlarning ruhiy-psixologik ahvoliga e’tibor qaratish ham shunchalik muhim bo‘lib qolgan. Shu davrda psixologik yordam ko‘rsatish va bemorlarning emotsional holatini yengillashtirish masalasi tibbiy amaliyot bilan bir qatorda muhim yo‘nalishga aylangan. Bemorlar OITS tashxisidan keyin kuchli ruhiy bosim, qo‘rquv, inkor holati, g‘am va tushkunlikni boshdan kechira boshlagan, bu esa ularning umumiy sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli, ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvlar, psixoterapevtik amaliyotlar va psixosotsial yordam ko‘rsatish choralari bosqichma-bosqich rivojlana boshlagan.

Kalit so‘zlar: OITS tashxisi, OITSning nevropsixiatrik jihatlari, vahima, noto‘g‘ri tasavvurlar, kamsitish, emotsional stress, psixik salomatlik, regressiya.

THE STUDY OF THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PATIENTS WITH ACQUIRED IMMUNODEFICIENCY SYNDROME (AIDS) IN SCIENTIFIC RESEARCH

Rajabova Umida Ubaydulloyevna
Researcher of Bukhara State University

Annotation: in the early stages of the AIDS epidemic, this disease was perceived as a completely new and unknown phenomenon for the medical community. In the 1980s, effective treatments were not available against the infection, as the origins and mechanisms of development were not fully studied. This has led to aggravated patient status and adverse prognosis. While the rapid spread of the disease required serious measures in the health care system, the focus on the mental and psychological condition of patients has also become so important. During the same period, the issue of providing psychological assistance and alleviating the emotional state of patients has become an important area along with medical practice. Patients began to experience intense mental pressure, fear, States of denial, grief, and depression after the diagnosis of AIDS, which negatively affected their overall health. Therefore, approaches supporting mental health, psychotherapeutic practices and measures to provide psychosocial support have begun to develop in stages.

Keywords: AIDS diagnosis, neuropsychiatric aspects of AIDS, panic, misrepresentations, discrimination, emotional stress, mental health, regression.

ИЗУЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПАЦИЕНТОВ С СИНДРОМОМ ПРИОБРЕТЕННОГО ИММУНОДЕФИЦИТА (СПИД) В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Раджабова Умида Убайдуллоевна
Соискатель Бухарского государственного университета

Аннотация: на ранних стадиях эпидемии СПИДа это заболевание считалось совершенно новым и неизвестным явлением для медицинского сообщества. Поскольку происхождение и механизмы развития инфекции не были полностью изучены в 1980-х годах, эффективных методов лечения от нее не существовало. Это привело к тому, что состояние больных стало ухудшаться и сопровождаться неблагоприятными прогнозами. В то время как быстрое распространение болезни потребовало серьезных мер в системе здравоохранения, не менее важным стало сосредоточение внимания на психопсихологическом состоянии пациентов. В этот период вопрос оказания психологической помощи и облегчения эмоционального состояния больных стал важным направлением наряду с медицинской практикой. Пациенты начали испытывать сильное психическое давление, страх, состояние отрицания, печаль и депрессию после постановки диагноза СПИД, что отрицательно сказалось на их общем состоянии здоровья. По этой причине подходы, поддерживающие психическое здоровье, психотерапевтические практики и меры психосоциальной поддержки начали постепенно развиваться.

Ключевые слова: диагноз СПИДа, нейропсихиатрические аспекты СПИДа, паника, заблуждения, дискриминация, эмоциональный стресс, психическое здоровье, регрессия.

Manbalarga ko‘ra 1980-yillarda OITSning ilk aniqlanishi va uning jiddiy ijtimoiy oqibatlari, shu jumladan, bemorlarga nisbatan stigmatizatsiya va kamsitish muammolari psixologik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi [1].

Faqatgina 1980-yillarning oxirlariga kelib, OITSga chalingan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatishda yangicha, insonparvar yondashuvlar paydo bo‘ldi. Psixologlar kasallikni shunchaki biomedik muammo sifatida emas, balki uning psixosotsial oqibatlari bilan birga ko‘rib chiqishga harakat qildilar. Ruhiy salomatlikni tiklash va ijtimoiy moslashuvga yordam berishga qaratilgan terapevtik yondashuvlar keng qo‘llanila boshlandi.

Bu jarayonda psixologlar va psixiatrlar OITS tashxisi qo‘yilgan bemorlar duch keladigan ruhiy tanglik, depressiya, qayg‘u va hayotiy ma’nosizlik hissiyotlarini aniqlash hamda ularni yengillashtirish zarurligini ilgari surishdi. Sharfshtein [2] dastlab o‘z maqolalarida OITSning nevropsixiatrik jihatlarini tahlil qilgan holda, kasallikning nafaqat jismoniy, balki psixik salomatlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlashgan. Shuningdek, S.E.Nikols qayg‘u jarayoni va OITS tashxisidan kelib chiqadigan emotsional stressni hisobga olgan holda, ruhiy yengillikni ta’minlovchi terapevtik yondashuvlarni tavsiya qilgan. OITS bo‘yicha keng tarqalgan isteriya holatiga qarshi kurashish maqsadida psixologlar o‘z tadqiqotlarini ilmiy va siyosiy bahslar o‘rtasida joylashtirdilar [3] yuqoridagi fikrdan xulosa qilish mumkinki, buning sababi bu holat o‘sha davrda nafaqat sog‘liqni saqlash tizimi, balki keng jamoatchilik, siyosiy muhit va ommaviy axborot vositalarida ham vahima, noto‘g‘ri tasavvurlar va kamsitish muhitini kuchaytirgan edi.

Garchi OITSga sabab bo‘luvchi virus 1982-yilda aniqlangan bo‘lsa-da, dastlabki yillarda etiologik noaniqlik va shubhalar saqlanib qoldi [4], bunga birinchidan, kasallik haqida ilmiy axborotlarning yetishmasligi va diagnostika vositalarining rivojlanmaganligi sabab bo‘ldi. Ikkinchidan, kasallikning faqat ayrim guruhlar orasida tarqalishi uni noto‘g‘ri talqin qilishga, ya’ni axloqiy yoki ijtimoiy muammo sifatida baholanishiga olib keldi. Uchinchi sabab – virusning uzoq inkubatsiya davri bo‘lib, bu OITS va OIV o‘rtasidagi bog‘liqlikni zudlik bilan aniqlashga to‘sqinlik qildi. Shuningdek, kasallikka nisbatan ijtimoiy stigma va siyosiy qarshiliklar mavjud bo‘lib, bu holat OITS bo‘yicha to‘g‘ri ilmiy yondashuvlarning shakllanishini kechiktirdi. OITSning jinsiy

aloqa, gomoseksualizm, ko‘p juftlik, fohishalik va noqonuniy giyohvand moddalar iste’moli bilan aniq va kuchli bog‘liqligi tanqid, xurofot va kamsitishlarga sabab bo‘ldi [5].

OITS dastlab aniqlanganda, biotibbiyot sohasidagi tadqiqotchilar asosan uning yuqumli xususiyatlari va virus sabablarini aniqlashga e’tibor qaratdilar. Ularning olib borgan tezkor tadqiqotlari va dastlabki yutuqlari kasallikka qarshi dori va vaksinalar tez orada yaratilishiga umid uyg‘otdi [6]. Biroq, ayrim psixosotsial tadqiqotchilar bu yondashuvni cheklangan deb hisobladilar. Ular oddiy yuqumli kasallik nazariyasi OITSning murakkab, ko‘p omilli tabiati va ijtimoiy-psixologik omillarini hisobga olmayotganini ta’kidladilar [6].

Psixosotsial yondashuv tarafdorlari kasallikni faqat virus bilan emas, balki turmush tarzi, stress darajasi, jamiyatdagi izolyatsiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy holat va ovqatlanish kabi ko‘plab omillar bilan bog‘lash zarurligini ilgari surdilar [1]. Ular shuningdek, bemorlarning davolanishga bo‘lgan munosabati, kechikkan murojaatlar va dori-darmonlarga amal qilishdagi muammolarni ham inobatga olish zarurligini aytishdi.

Shuningdek, olimlar inson immun tanqisligi virusi (OIV) uchun javobgar bo‘lgan virusni aniqlab, uni ajratib olishga muvaffaq bo‘lganlaridan so‘ng, virusga chalinganlikni aniqlash uchun antitel (antitana) skrining testlari joriy etildi. Bu testlar orqali odamlar OIVga ta’sirlanganlik darajasi bo‘yicha tahlildan o‘ta boshladi. Dastlabki yillarda ushbu test natijalari inson hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Chunki test ijobiy chiqqan holatlarda odamlar nafaqat sog‘lig‘i, balki ijtimoiy hayoti – ish o‘rni, turar joyi, sug‘urta xizmatlaridan foydalanish, oilasi va ijtimoiy aloqalarini yo‘qotish xavfi ostida qolgan [7]. Shu sababli, testdan o‘tishga bo‘lgan istaksizlik, ayniqsa OIV bilan kasallanish xavfi bo‘lganlar orasida, mantiqiy deb hisoblangan [7].

OITSni aniqlashga qaratilgan diagnostik testlarning joriy etilishi bilan birga, test natijalarining noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida jiddiy xavotirlar vujudga keldi. Xususan, test natijalaridan kelib chiqadigan diskriminatsiya, shaxsiy ma’lumotlarning oshkor qilinishi, ijtimoiy chetlanish kabi holatlar fuqarolarda ushbu protseduraga nisbatan ehtiyotkorlik va ishonchsizlikni keltirib chiqardi.Shu sababli, testdan o‘tishga rozi bo‘lish yoki undan voz kechish qarori ko‘pincha shaxsiy maslahatlashuv doirasida qabul qilingan. Maslahat jarayonida mutaxassislar testdan o‘tishning afzalliklari va ehtimoliy xavf-xatarlari haqida aniq, asosli va tushunarli ma’lumotlar berishga intilganlar. Bu esa shaxsga ongli va mustaqil qaror qabul qilish imkonini yaratgan.

Psixologlar va ruhiy salomatlik bo‘yicha mutaxassislarga test haqida to‘liq faktlarga asoslangan tushuntirishlar berish, test natijalariga qanday munosabatda bo‘lish kerakligini tushuntirish, shuningdek ijobiy natijaga tayyor turish uchun zarur choralarni belgilovchi harakat rejasi tuzishni tavsiya etilgan [7]. Ijobiy test natijasiga dastlabki reaktsiyalar ko‘pincha shok, stress, g‘azab, vahima, uyqu buzilishi va jinsiy disfunksiyani o‘z ichiga oldi [45,83]. Klinik nuqtai nazardan qaralganda, bu turdagi psixologik stress yengil tashvish va ruhiy zo‘riqish holatlaridan tortib, og‘ir depressiv buzilishlargacha bo‘lgan keng ko‘lamda namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar ba’zida vaqtinchalik ruhiy holat bilan cheklanmay, professional psixologik yoki psixiatriyaviy aralashuvni talab qiluvchi surunkali kasalliklarga aylanishi ehtimoli mavjud edi [7].

Maslahatchilarga mijozlarning xavf haqidagi tasavvurlarini, tashvish darajasini, moslashish qobiliyatini, mavjud qo‘llab-quvvatlash tizimlarini va spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalardan foydalanishni baholash buyurildi [6]. OIV uchun ijobiy test natijasining ko‘p qirrali oqibatlari tufayli, ko‘plab tadqiqotchilar yo‘naltiruvchi bo‘lmagan jarayon zarurligini ta’kidladilar va maslahatchilarga testdan o‘tish yoki o‘tmaslik qarori mijozga tegishli ekanligini eslatdilar [7]. Xuddi shunday, Goldblum va Seymour o‘z tadqiqotlarida maslahatchilarga OITS/OIV testiga nisbatan shaxsiy qarashlari — ya’ni test o‘tkazishga tarafdorlik yoki qarshilik kabi xolis bo‘lmagan pozitsiyalarini anglab, ularni baholashni tavsiya etadilar. Ularning ta’kidlashicha, mijozning ushbu test bo‘yicha asosli qaror qabul qilishi uchun ko‘pincha bir emas, bir nechta maslahat seanslari talab etiladi [8]. Shuningdek, test natijalari mijozga yetkazilganda maslahatchi

ushbu jarayonga ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozim. Dlugosh esa bu bosqichda test natijalarini aniq va tushunarli shaklda yetkazish, mijozni faol tinglash va uning hissiy reaktsiyalariga imkon yaratish muhimligini qayd etadi [7]. Ular bu jarayonni — ya’ni natijalarni oshkor qilish bosqichini — faqat diagnostik ma’lumot bilan cheklamasdan, balki mijozga keyingi yordam choralarini, ayniqsa psixologik qo‘llab-quvvatlash guruhlari yoki maxsus yo‘llanmalarga oid ma’lumotlarni ham taqdim etish bilan boyitishni tavsiya qiladilar[7].

Ijobiy test natijasi olgan shaxslar odatda dastlab kuchli ruhiy zarba — ya’ni qisqa muddatli inqiroz holatini boshdan kechiradilar. Bu holat shok, inkor, qo‘rquv yoki xavotir kabi hissiyotlar bilan kechadi. Biroq vaqt o‘tishi bilan ular bu tashxis bilan yashashni o‘rganishadi va uning uzoq muddatli psixologik oqibatlari bilan kurashishga majbur bo‘ladilar. Bu jarayonda shaxs o‘lim, yo‘qotish, hayot ma’nosi kabi chuqur ekzistensial savollarga duch keladi. Shuningdek, ularning kundalik hayoti, munosabatlari, hissiy holati va kelajakka bo‘lgan munosabatida ham muhim o‘zgarishlar yuzaga keladi. Shu sababli, ushbu bosqichda psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash ayniqsa muhim hisoblanadi. Grant.J.E, Anns.V.K, Nelson.W.M, Jarrett.L, Price.D.H, Omizo.M.M, Hammett.J.F, Vitiello.B kabi olimlarning tadqiqotlarida ko‘rsatib o‘tilishicha, psixoterapevtik aralashuvlar, avvalo, g‘azab va stressni boshqarish, moslashuv strategiyalarini shakllantirish, yolg‘izlik, tashlab ketilish hissi, depressiya, aybdorlik, ma’naviy yotlashuv, shaxslararo munosabatlar va jinsiy hayot bilan bog‘liq muammolarni yengishga qaratilgan bo‘lgan [9].

Dastlabki bosqichlarda e’tibor asosan gomoseksual erkaklar populyatsiyasiga qaratilgan. Grant va Anns o‘sha davrda OITS tashxisi nafaqat sog‘liq, balki insonning o‘z-o‘zini hurmat qilishi va jinsiy identifikatsiyasi uchun ham jiddiy psixologik zarba bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Ular bu tashxis o‘lim va jinsiy aloqa kabi ikki murakkab mavzuni birlashtirgan holda kuchli ruhiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Ushbu omillar shaxsda regressiya — ya’ni oldingi ruhiy muammolarning qayta yuzaga chiqish xavfini kuchaytiradi. Shu sababli, ular gomoseksual shaxslarning o‘zligini anglash va qabul qilish jarayonida sezilarli vaqt va psixologik yordam talab etilishini ta’kidlaydilar [9].

Ulardan farqli ravishda Nelson va Jarret tomonidan olib borilgan tadqiqotda OITS tashxisining psixologik oqibatlari nafaqat bemorning o‘ziga, balki uning atrofidagi ijtimoiy muhitga ham sezilarli darajada ta’sir qilishi ta’kidlanadi. Ularning fikricha, OITS tashxisi “shaxsiy muammo” bo‘libgina qolmay, balki oila a’zolari, yaqin do‘stlar, turmush yoki jinsiy sheriklar, hattoki kengroq ijtimoiy doira uchun ham jiddiy ruhiy va ijtimoiy sinov bo‘lib xizmat qiladi. Bu holat “to‘lqin effekti” (ripple effect) deb nomlanadi, ya’ni bir shaxsga qo‘yilgan tashxis u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa insonlarning ruhiy holatiga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan tadqiqot mualliflari OITS tashxisi ortidan yuzaga keladigan psixologik inqirozga qarshi kompleks yondashuv zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, bu jarayonni yengillashtirish uchun quyidagi komponentlardan iborat ko‘p bosqichli psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqish va qo‘llash lozim:

1. Inqirozga qarshi tezkor psixologik aralashuv – bemor yoki uning yaqinlari dastlabki tashxisdan so‘ng yuzaga kelgan emotsional shokni yengib o‘tishda yordam olishlari kerak. Bunda ayniqsa aniqlik, xolislik va rahm-shafqat muhim o‘rin tutadi.

2. Individual psixoterapiya – bu bosqichda tashxisni qabul qilish, yashashga bo‘lgan motivatsiyani tiklash, o‘z-o‘zini qadrlashni oshirish hamda depressiya, xavotir, aybdorlik hissi kabi salbiy psixik holatlarni kamaytirishga qaratilgan.

3. Psixiatrik maslahatlar – klinik depressiya yoki og‘ir psixologik holatlar aniqlanganda, psixiatr ishtirokida dori vositalari bilan terapiya olib borilishi mumkin.

4. Guruh terapiyasi – ayniqsa muhim bo‘lgan bosqich bo‘lib, bu orqali bemorlar va ularning yaqinlari o‘z holatlarida yolg‘iz emasliklarini anglaydilar, boshqalarning tajribasi va hissiy qo‘llab-quvvatlovi bilan dalda oladilar. Ushbu guruhlar OITS bilan yashayotgan shaxslar, ularning ota-onalari va ayniqsa jinsiy identifikatsiyasi uchun bosim ostida bo‘lgan gomoseksual erkaklar va

ularning oilalari uchun alohida tashkil etilgan.

Bundan tashqari, Nelson va Jarret o‘z tadqiqotlarida OITS tashxisining ijtimoiy stigma va izolyatsiya xavfini oshirishi, bu esa nafaqat bemorning, balki uning ijtimoiy aloqalaridagi boshqa shaxslarning ham ruhiy iztirobga tushishiga olib kelishini ko‘rsatib o‘tadilar. Ularning fikricha, bemorlarning yaqinlari ham aynan bemor singari qo‘rquv, tashvish, tushkunlik, va hatto aybdorlik hissi bilan kurashishadi. Shu sababli, psixologik yordam faqat bemorga emas, balki uning yaqinlariga ham birdek qaratilishi lozim [10].

Test va maslahat strategiyalarining OITS profilaktikasidagi samaradorligi haqida ko‘plab ijobiy natijalar qayd etilgan bo‘lsa-da, tadqiqotchilar test natijasi orqali o‘z serologik holatini bilib olishning psixologik oqibatlariga ham alohida e’tibor qaratishda davom etganlar. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ijobiy test natijasini olgan shaxslar turli darajadagi kuchli emotsional reaksiyalarni boshdan kechiradilar. Ushbu reaksiyalar spektri keng bo‘lib, dastlabki inkor qilish, hayrat, sukunat, ichki xavotir va g‘azab portlashlaridan tortib, ko‘z yosh to‘kish va depressiv holatlargacha davom etishi mumkin [11].

Sherr.L, Hedge.B, Beevor.A. va Catalan.J. tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari OITS (OIV) testidan o‘tgandan so‘ng yuzaga keladigan psixologik holatlarni chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotchilar test natijasining, ayniqsa, ijobiy bo‘lishi bilan bog‘liq stress darajasi ba’zan shunchalik kuchli bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilarki, bu holat shaxsda o‘z joniga qasd qilish fikrlari yoki suicidal xatti-harakatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday holatlar ko‘pincha chuqur emotsional silkinish bilan kechadi. Shaxslar test natijalarini eshitgan zahoti inkor qilish, ichki bo‘shlik hissi, chuqur qayg‘u, o‘ziga nisbatan nafrat, ijtimoiy izolyatsiyaga moyillik va umidsizlikka tushish kabi keskin ruhiy reaktsiyalarni boshdan kechiradishlari takidlanadi [12].

Ushbu holatlar shunchaki istisno emas, balki ko‘pchilikda uchraydigan, odatiy va kutilgan psixologik reaksiya sifatida baholanadi. Hicks.D, Rundell.J.R, Martin.J.L, Sherr.L, Davey.G, Strong.G kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, OITS bo‘yicha test natijalaridan keyin paydo bo‘ladigan psixologik reaksiya va emotsional muammolar ko‘plab hollarda juda kuchli va murakkab bo‘ladi [13]. Bu reaksiyalar orasida inkor qilish, hayrat, xavotir, g‘azab, tushkunlik, hatto o‘z joniga qasd qilish fikrlari yoki harakatlari kabi holatlar ham qayd etilgan. Tadqiqotlarda ushbu holatlar tasodifiy emasligi, balki ijobiy test natijasiga psixologik moslashuv jarayonining odatiy bosqichlari sifatida yuzaga kelishi mumkinligi alohida ta’kidlangan. Bu holatlarni hisobga olgan holda, maslahatchilarning roli yangi bosqichga ko‘tarildishi va. Ular endilikda faqatgina testdan oldin va keyin psixologik ma’lumot beruvchi mutaxassislar emas, balki mijozlar uchun xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhitni shakllantiruvchi shaxslar sifatida baholanganlar. Bunday muhit mijozning test natijalariga emotsional jihatdan adekvat munosabat bildira olishini, ruhiy iztirobni kamaytirish va konstruktiv tarzda kurashishga yordam berishini aniqlaganlar. Shuningdek, tadqiqotchilar maslahatchilar uchun psixologik xavfli holatlarni erta aniqlash muhimligini ta’kidlaydilar. Ya’ni, mijozning o‘z joniga qasd qilish ehtimoli, chuqur depressiyaga tushish xavfi yoki ijtimoiy chetlanish holatlari alomatlarini tanish va ularga tezkor javob berish ko‘nikmalari muhim vazifalardan biridir. Bu yondashuv test natijalari bilan bog‘liq psixologik og‘irlikni yumshatishda, bemorning psixik holatini barqarorlashtirishda, shuningdek, ularning ijtimoiy va emotsional moslashuvini ta’minlashda samarali hisoblanishini e’tirof etadilar [14].

Miller.D, Bor.R, Salt.H va Murrey.C kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijobiy OIV test natijalaridan so‘nggi psixologik holatni boshqarishda dastlabki maslahatlashuvlar (ya’ni testdan oldingi psixologik tayyorgarlik) muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan [15]. Ularning fikricha, agar bu maslahatlar chuqur, individual ehtiyojlarga yo‘naltirilgan va puxta tarzda olib borilsa, bemor keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik inqiroz holatlariga nisbatan ancha barqaror va ijobiy munosabat bildiradi. Ya’ni, profilaktika bosqichidagi to‘g‘ri psixologik yondashuv – bu faqatgina axborot berish emas, balki insonni emotsional va psixik jihatdan sinovli

holatlarga tayyorlash jarayonidir. Bu jarayonda shaxsning test natijasini qanday qabul qilishi, unga qanday reaksiya bildirishi, qanday ijtimoiy va emotsional strategiyalarni qo‘llashi kabi jihatlar shakllantiriladi. Tadqiqot mualliflari, shuningdek, dastlabki maslahatga sarmoya kiritilgan vaqt – ya’ni testdan oldin bemorga ajratilgan diqqat va psixologik yordam – kelajakda yuzaga keladigan psixologik inqirozga tez va samarali javob berish imkonini beradi, deb hisoblaydilar. Bu yondashuv orqali bemorlar o‘zlarini yanada tayyor, tushungan va qo‘llab-quvvatlangan holda his qiladilar. Shu bilan birga, tadqiqotda maslahatchilarning roli nafaqat axborot beruvchilar, balki emotsional barqarorlikni shakllantiruvchi, xavfsizlik hissini beruvchi va psixologik og‘irlikni yengillashtiruvchi mutaxassislar sifatida qayta ko‘rib chiqildi [15].

OIV bo‘yicha test va maslahat (T+M) jarayonida kuzatilgan kuchli psixologik reaksiyalar, ayniqsa tashxisning ijobiy natijasi bilan bog‘liq holatlar, maslahatchilar faoliyatiga nisbatan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi. Ilgari bu mutaxassislarning asosiy vazifasi psixoedukatsion, ya’ni bemorga kasallik haqida aniq, lo‘nda va ilmiy asoslangan ma’lumot berish bilan chegaralangan edi. Ammo zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu yetarli emas. Shundan so‘ng Hicks.D va Rundell.J.R [16] tomonidan olib borilgan izlanishlarga ko‘ra, ijobiy test natijasini qabul qilish oson emas, va bu holatda inson emotsional jihatdan sinovli, zaif, hattoki xavfli vaziyatda bo‘ladi. Shunday paytda, maslahatchi nafaqat axborot beruvchi, balki bemorning psixologik og‘irliklarini yengillashtiruvchi, uni tushunuvchi va hissiy tayanch bera oladigan mutaxassis bo‘lishi kerak. Ularning fikricha, endilikda maslahatchining roli sezilarli darajada kengaydi: u emosional xavfsizlik muhitini yaratish, bemorning his-tuyg‘ularini tan olish va u bilan faol emotsional aloqa o‘rnatish, ehtiyoj bo‘lsa, uni ruhiy salomatlik bo‘yicha boshqa mutaxassislar bilan bog‘lash vazifalarini ham bajaradi. Shuningdek, bu yangi yondashuv doirasida maslahatchilar bemorning o‘zini tushunishga, vaziyatni ongli ravishda qabul qilishga, hamda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashuvchi shaxsiy hamrohlarga aylanmoqda[16].

Yuqorida takidlab o‘tganimizdek OITS paydo bo‘lgandan yigirma besh yil o‘tgach, ya’ni 2000-yillarga kelib, YDFAT(yuqori darajadagi faol antiretrovirus terapiyasi) davolash standartiga aylangach, aynan shu davolash turining yaratilishi OITS bilan yashayotgan shaxslar hayot sifatini saqlab qolish va uzaytirish imkoniyatini taqdim etdi [17]. Bu esa psixologik tadqiqotlar yo‘nalishini tubdan o‘zgartirdi. Psixologik adabiyotlar endilikda ekzistensial tanglik masalalaridan ko‘ra ko‘proq xulq-atvor komponentlariga — infeksiyadan himoyalanish, davolanishga sodiqlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va stigma bilan kurashishga qaratila boshlandi.

So‘nggi yillarda OIV (inson immunitet tanqisligi virusi) testlari va u bilan bog‘liq maslahatlashuv amaliyotida sezilarli tajriba va bilimlar jamlandi. Ayniqsa, Myers.T, Worthington.C, Haubrich.D.J, Ryder.K, Calzavara.L [18], tomonidan olib borilgan tadqiqot OIV test jarayonini professional tarzda tashkil etish bo‘yicha muhim mezonlarni belgilab berdi. Ularning fikricha, test jarayonining eng samarali va foydali tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Psixologik-ma’rifiy (psixoedukatsion) yondashuv – Bu bosqichda shaxsga OIV haqida asosli, ilmiy va tushunarli ma’lumotlar beriladi. Bu nafaqat kasallik haqida xabardorlikni oshiradi, balki test topshirishga nisbatan ruhiy tayyorgarlikni ham kuchaytiradi.

2. Shaxsiy xatti-harakat xavfini baholash – Maslahatchilar mijozning hayot tarzi, jinsiy xatti-harakatlari, himoyasiz aloqalari va boshqa omillar asosida OIV yuqtirish xavfini individual baholaydi. Bu bosqich mijozda o‘zining real holatini anglash hissini kuchaytiradi.

3. Natijani yuzma-yuz yetkazish – OIV test natijasi, ayniqsa ijobiy bo‘lsa, u maslahatchi tomonidan samimiy, qo‘llab-quvvatlovchi va ehtiyotkor tarzda bevosita suhbatda yetkazilishi zarur. Bu odamning psixologik holatini barqarorlashtirishga va keyingi qadamlarga tayyorlashga yordam beradi.

4. Tegishli yo‘llanmalar berish – Mijozga tibbiy, psixologik yoki ijtimoiy xizmatlar bo‘yicha kerakli yo‘llanmalar beriladi. Bu tizimli yondashuv yordamida bemor yolg‘iz qolmaydi va zarur resurslarga ega bo‘ladi.

5. Sherikni xabardor qilishni yengillashtirish – Test natijasi ijobiy bo‘lsa, bemorning jinsiy sheriklarini xabardor qilish va ularni test topshirishga undash muhim bo‘ladi. Tadqiqotchilar bu jarayonni professional tarzda, noziklik bilan olib borishni taklif etadilar.

Biroq, tadqiqotchilar shuni ham ta’kidladilarki, test faqatgina texnik yoki tibbiy jarayon emas – u shaxsiy, psixologik va ijtimoiy oqibatlari keng bo‘lgan muhim bosqichdir. Testdan so‘ng odam o‘z hayotini, munosabatlarini, hatto o‘zini anglash tarzini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, psixologik barqarorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va moslashuv strategiyalari bu jarayonning ajralmas qismi ekanligini aytib o‘tadilar [19].

Bir qator tadqiqotchilar psixoneyroimmunologiyaning OITSni ko‘proq psixosotsial omillarni hisobga olgan holda kengroq tushuntirishni taqdim etishiga ishonishdi. Psixoneyroimmunologiya asab tizimi va immun tizimi o‘rtasidagi ikki yo‘nalishli o‘zaro ta’sirlarni nazariy jihatdan asoslaydi [20]. Ba’zilar stress va OITS o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘sha paytda saraton yoki Gepatit B kabi boshqa kasalliklar uchun hujjatlashtirilayotgan tarzda o‘rganish kerakligini taklif qildilar [20]. Oldingi tadqiqotlar tashvish va stressni jismoniy va ruhiy salomatlik bilan bog‘lagan edi [49]. Immun tanqisligi, xususan, depressiya, hayotdan norozilik, umidsizlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi bilan bog‘liq edi [20]. O‘sha paytda asosiy e’tibor stressning immunni susaytiruvchi xususiyatiga qaratilgan edi, bu holatda madaniy gomofobiyaga qarshi kurashish uchun stress muhim edi.

Stressga asoslangan OITS etiologiyasi haqida fikrlar turlicha bo‘lganiga qaramay, psixologlar OITS yoki unga yaqin bo‘lgan OITS bilan bog‘liq kompleks sindrom tashxisi qo‘yilgan bemorlarning psixologik holatiga chuqur e’tibor qaratganlar. OITS bilan bog‘liq kompleks sindrom – bu OITSdan avvalgi bosqich bo‘lib, isitma, vazn yo‘qotish kabi alomatlar orqali kasallikning asimptomatik holatdan faol bosqichga o‘tishini bildiradi. Bu bosqichda immun tizimi zaiflashishni boshlaydi, lekin hali to‘liq OITS tashxisi qo‘yilmagan bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu holat bemorlarda kuchli psixologik yuk, ayniqsa tashvish, depressiya va o‘zini past baholash kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Mak ma’lumotlariga ko‘ra, OITS bilan bog‘liq kompleks sindrom bilan yashayotgan bemorlarning 78 foizi va OITS tashxisi qo‘yilgan bemorlarning 56 foizi rasmiy ravishda ruhiy buzilish mezonlariga javob bergan [21]. Shu paytgacha olib borilgan tadqiqotlardan shuni aniq aytish mumkinki OITS bilan kasallangan bemorlarda eng ko‘p uchraydigan psixologik muammolar – bu depressiv holatlar, ijtimoiy izolatsiya, stigmatizatsiya va dezadaptatsiya kabi buzilishlari bo‘lgan.

MDH davlatlari olimlari OITS bilan kasallangan bemorlarning ruhiy holati, stressga chidamliligi, stigmatizatsiyadan aziyat chekishi va o‘zini baholash darajasining pasayishi bilan bog‘liq muammolarni chuqur psixologik tahlil qilishgan. Jumladan, E.P. Ilyin o‘z ilmiy ishlanmalarida OITS bilan yashayotgan shaxslarning emotsional va psixik holatini chuqur tahlil qiladi. U bemorlarning bu tashxisni ilk bor eshitgan paytdagi hissiy reaksiyalarini psixologik shok holati sifatida tavsiflaydi. Ilyinga ko‘ra, bu bosqichda bemorlar ko‘pincha “psixologik himoya mexanizmlari” orqali javob qaytaradi: ular dastlab kasallik borligini inkor etadi, keyin esa bu holat g‘azab, qo‘rquv, tushkunlik, hattoki umidsizlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.Uning tadqiqotlarida alohida ta’kidlanishicha, bunday emotsional holatlar bemorning ruhiy barqarorligiga jiddiy zarar yetkazadi, ijtimoiy moslashuvini susaytiradi va o‘z hayotiga bo‘lgan ijobiy munosabatini zaiflashtiradi. Ilyin, ayniqsa, OITS bilan yashayotgan bemorlarning emotsional intellekti ustida ishlash zarurligini ilgari suradi. Unga ko‘ra, shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsiyalariga empatik munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish – ularning psixologik moslashuvi va sog‘lom ijtimoiy aloqalarini saqlash uchun muhim vosita hisoblanadi. E.P.Ilyin shuningdek, stressga qarshi turish mexanizmlarini rivojlantirish, psixologik chidamlilik (rezillyentlik)ni oshirish ham OITS bilan yashovchi shaxslarning sifatli hayot kechirishlarida asosiy rol o‘ynashini e’tirof etadi. U psixokorreksion yondashuvlarda stressni kamaytirishga qaratilgan metodlar – masalan, relaksatsiya texnikalari, kognitiv-bihevioral terapiya, ijobiy

psixologiya elementlarini qo‘llashni samarali deb hisoblaydi [21].

T.V.Polivanova o‘z ilmiy izlanishlarida OITS bilan yashayotgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik holatiga jamiyatdagi stigma va diskriminatsiya qanday ta’sir ko‘rsatishini chuqur o‘rganadi. Uning fikricha, bu toifadagi bemorlar ijtimoiy muhitda ko‘pincha inkor etilish, chetlab o‘tilish, hattoki ochiqchasiga kamsitish holatlariga duch kelishadi. Bu holat ularning sotsial izolyatsiyasi, yaqinlari bilan aloqa darajasining sezilarli pasayishi va jamiyatdan chetlatilishiga olib keladi. Polivanova ushbu izolyatsiya jarayonining bemorning ruhiy holatiga, o‘z-o‘zini qabul qilishiga va hayotga nisbatan motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Uning tadqiqotlarida alohida urg‘u berilgan jihatlardan biri — ijtimoiy stigma tushunchasidir. Polivanova stigma nafaqat tashqi muhitdan kelayotgan psixologik bosim, balki bemorning ichki dunyosida shakllanadigan o‘zini kamsitish, aybdorlik va nomaqbul shaxs deb his qilish kabi ichki konfliktlarni kuchaytirishini ta’kidlaydi. Ushbu holat bemorlarda chuqur depressiv holatlar, motivatsiyaning yo‘qolishi, hayotdan umid uzilishi kabi og‘ir psixologik oqibatlarga olib keladi. Polivanova, shuningdek, stigma ta’sirida rivojlanayotgan ijtimoiy tashvish, xavotir, yolg‘izlik hissi bemorning sog‘lig‘i va reabilitatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini, ularni sog‘lomlashtirish va jamiyatga qayta integratsiyalash jarayonini murakkablashtirishini ko‘rsatadi. U ijtimoiy stigma va diskriminatsiyani kamaytirishga qaratilgan psixoprofilaktika va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratish zarurligini asoslab beradi [22].Ushbu yondashuv ijtimoiy psixologiya va sog‘liqni saqlash tizimi integratsiyasini talab qiladi. Polivanova shuni ham ta’kidlaydiki, bemorlar bilan ishlashda faqat tibbiy ko‘rsatmalar emas, balki psixologik yordam dasturlari, stigmani bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy kampaniyalar muhim o‘rin tutadi.

I.V.Sidorova o‘z ilmiy izlanishlarida OITSga chalingan shaxslarning oila ichidagi psixologik holatini chuqur o‘rgangan. U bemorning kasalligi aniqlangach, bu holat nafaqat uning o‘z psixik holatiga, balki uning yaqinlari – oila a’zolariga ham kuchli ruhiy bosim olib kelishini qayd etadi. Sidorovaning tadqiqotlari bemorning yaqin atrofidagi odamlar bilan bo‘lgan munosabatlaridagi keskin o‘zgarishlar, xususan, turmush o‘rtog‘i, ota-onasi va farzandlari bilan yuzaga keladigan ziddiyatlarni ochib beradi. Uning tahlilicha, ko‘plab hollarda bemorning oila a’zolari tomonidan kasallikning inkor etilishi, unga nisbatan psixologik masofa saqlash, ayrim hollarda esa to‘liq rad etish holatlari kuzatiladi. Bu esa bemorning o‘zini yolg‘iz, keraksiz, tashlab ketilgandek his qilishiga olib keladi. Sidorova ushbu holatlarning bemorda ruhiy siqilish, tushkunlik, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish va hattoki o‘z joniga qasd qilish fikrlarini keltirib chiqarishi mumkinligini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi. Shuningdek, u oilaning har bir a’zosi bu jarayonga psixologik jihatdan turlicha munosabatda bo‘lishi, bu esa oila ichidagi emosional disbalans va muvozanatsizlikni kuchaytirishini ta’kidlaydi. Ayniqsa, bolalar bo‘lgan oilalarda, OITSga chalingan ota yoki onaning ruhiy holati bilan bir qatorda, bola ruhiyati ham jiddiy xavf ostida qoladi. I.V.Sidorova shunday holatlarda oilaviy psixoterapiya, oila a’zolari uchun ma’lumotli psixologik treninglar va guruhli maslahatlarni samarali vosita sifatida taklif qiladi. U oilaviy tizim ichida ochiq muloqot, empatiya va psixologik qo‘llab-quvvatlashni shakllantirish OITS bilan yashovchilarning ijtimoiy va psixologik holatini yaxshilashda muhim omil bo‘lishini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan [23].

Tadqiqotchilarimizdan Qozog‘istonlik psixolog olima A.K. Kadirjanova o‘z ilmiy izlanishlarida OITS bilan yashayotgan ayollar orasida ijtimoiy stigma va diskriminatsiya darajasining erkaklarga nisbatan ancha yuqori ekanini aniqlagan. U olib borgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar, ayniqsa, onalik roli, ijtimoiy maqom va madaniy an’analar kontekstida, ushbu kasallikka chalinganlarida jamiyat tomonidan ko‘proq ayblov, rad etish va tashlash holatlariga duch kelishadi. Kadirjanova, OITSga chalingan ayollarning psixologik holatida ko‘pincha ruhiy siqilish, o‘zini inkor etish, o‘zini aybdor his qilish, ijtimoiy yakkalanish, va umidsizlik dominant psixik belgilar sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Ayollarda bu holatlarning og‘irroq kechishi – ijtimoiy rol yuklamasi, oila va jamiyat oldidagi mas’uliyat hissi bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotda ayollar o‘z kasalliklarini ko‘pincha sir saqlashga intiladilar, bu esa ularning ruhiy bosim ostida qolishiga olib

keladi. Shuningdek, Kadirjanova OITS bilan yashayotgan ayollarga ko‘mak berishda psixologik yordam dasturlarini gender yondashuv asosida ishlab chiqish zarurligini urg‘ulaydi. U ayollar uchun alohida ishlab chiqilgan psixokorreksion treninglar, psixoedukatsiya va individual maslahatlarni qo‘llash bemorlarning o‘zini qadrlash darajasini oshirishi, ruhiy siqilishni kamaytirishi va ijtimoiy faollikni tiklashi mumkinligini asoslab bergan. Uning fikricha, ayollarga mo‘ljallangan psixologik qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar madaniy, ijtimoiy va psixologik omillarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Ayniqsa, ona bo‘lgan yoki farzand parvarishlayotgan OITS bilan yashovchi ayollar uchun psixologik xizmatlar maxsus formatda tashkil etilishi kerak [24].

Belaruslik psixolog S.P.Mihaylov o‘z ilmiy tadqiqotlarida OITS bilan yashovchi shaxslarning sotsial izolyatsiya sharoitida psixik holati qanday o‘zgarishini chuqur tahlil qilgan. Uning ishlari, ayniqsa, bu toifadagi bemorlarda ruhiy barqarorlikning izdan chiqishi, motivatsion resurslarning kamayishi, ijtimoiy identifikatsiya jarayonining buzilishi kabi murakkab psixologik muammolar yuzaga kelishini ilmiy asosda ko‘rsatib bergan. Mikhaylovning kuzatishlariga ko‘ra, OITS tashxisi qo‘yilganidan keyingi ilk bosqichda bemorlar jamiyatdan yakkalanib, o‘zlarini ijtimoiy jihatdan keraksiz, rad etilgan shaxslar sifatida qabul qila boshlaydilar. Bu esa ularning shaxsiy identitetini zaiflashtiradi, ijtimoiy rol va vazifalarga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi, natijada psixik beqarorlik, depressiv holatlar va motivatsion tushkunlik kabi ko‘rinishlar kuchayadi. S.P.Mihaylov bunday holatlarda barvaqt psixologik intervensiyalar o‘tkazish zarurligini ta’kidlaydi. U o‘z tadqiqotlarida individual va guruhli psixokorreksiya usullarining samaradorligini, shuningdek, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari orqali bemorlarning sotsial izolyatsiyadan chiqishlariga erishish mumkinligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab bergan. Mihaylov taklif etgan yondashuvlar orasida kognitiv-behavioral terapiya, motivatsion intervyu texnikasi, shaxsiy resurslarni aniqlash va ularni faollashtirish asosiy o‘rinni egallaydi. U ayniqsa bemorning o‘zini anglash va o‘z imkoniyatlariga ishonch bildirishini tiklashda psixologik maslahatlarning muntazam va tizimli ravishda olib borilishini muhim deb hisoblaydi [25].

O‘zbekistonda OITS bilan yashovchi shaxslarning ijtimoiy-psixologik holatini o‘rganish masalasiga psixolog olimlar tomonidan alohida e’tibor qaratilgan. Olib borilgan tadqiqotlar OITS bemorlarining ruhiy salomatligi, o‘z-o‘zini qadrlash darajasi, stigma ta’sirida yuzaga keladigan psixologik oqibatlar va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

M.A.Sobirova OIV infeksiyasi tashxisini qabul qilgan shaxslarning depressiya va tashvish buzilishlariga moyilligi, ularning psixologik himoya mexanizmlarini va shaxsiy resurslaridan foydalanish darajasini o‘rgangan. U o‘z tadqiqotlarida psixologik yordam ko‘rsatishning individual va guruhiy shakllari bemorlarning kasallikni qabul qilish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asosda isbotlagan [26].

D.A.Xudoyberdiyeva OITS bilan yashovchilarga nisbatan jamiyatda mavjud stigma va diskriminatsiya holatlarini chuqur o‘rganib, stigma darajasini pasaytirish maqsadida psixologik intervensiya dasturlarini ishlab chiqdi. U, ayniqsa, o‘z-o‘zini stigmalash (self-stigma) bemorning ruhiy holatini og‘irlashtirishi va ijtimoiy cheklovlarga olib kelishini aniqladi [27].

B.X.Qodirov esa OITS bilan yashovchi shaxslarning stressga qarshi psixologik chidamliligi va emotsional moslashuv mexanizmlarini tahlil qilib, kognitiv-behavioral terapiya (CBT) va stressni boshqarish treninglarining bemorlarning moslashuv ko‘nikmalarini oshirishdagi samaradorligini ko‘rsatib berdi [28].

N.M.Rajabova o‘z tadqiqotlarida OITS bilan yashovchilarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi va hayot sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgandi. Uning natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar va oila a’zolari tomonidan ko‘rsatiladigan emotsional va ijtimoiy yordam bemorlarning ruhiy farovonligi va ijtimoiy faolligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [29].

O.T.Qurbonova esa OITS bilan yashovchi bemorlarning oilaviy munosabatlari va emotsional barqarorligini o‘rganib, oilaviy qo‘llab-quvvatlovning depressiya va ijtimoiy izolyatsiyani kamaytirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi [30].

F.I.Sultonova o‘z tadqiqotida ayollar orasida OITSga qarshi kurashishda psixologik va ijtimoiy himoya choralarining ahamiyatini ko‘rsatdi. U ayollar uchun mo‘ljallangan maxsus psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqish va genderga asoslangan stigma bilan kurashish zarurligini ta’kidladi.

Bu psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, OITS bilan yashovchi bemorlar uchun nafaqat tibbiy yordam, balki ruhiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ham kasallik bilan samarali kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy tadqiqotlar sohasida esa bir qator olimlar OITS kasalligining klinik va epidemiologik xususiyatlarini chuqur o‘rganganlar.

G.M.Nasirov OIV infeksiyasining rivojlanish bosqichlarini – inkubatsion davr, asimptomatik bosqich va SPID bosqichini klinik belgilar asosida aniq tasniflagan. U, shuningdek, serologik diagnostika tizimini takomillashtirish (ELISA va PCR testlari asosida) orqali virusni erta aniqlashni keng joriy etish zarurligini asoslagan.

T.A.Murodova esa O‘zbekiston sharoitida OIV infeksiyasining tarqalish dinamikasi va asosiy xavf omillarini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinmasligi, xavfli jinsiy xatti-harakatlar va onadan bolaga yuqish mexanizmlarini asosiy xavf omillari sifatida ajratib ko‘rsatadi. U aholi o‘rtasida profilaktik sog‘lomlashtiruvchi dasturlarni kengaytirish zarurligini tavsiya etgan.

S.S. Zayniyeva esa sog‘liqni saqlash tizimi va jamoatchilikda OITS haqida to‘g‘ri ma’lumot tarqatish, stigma va noto‘g‘ri qarashlarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqdi.

A.N.Abdullayev esa homilador ayollar orasida OIV yuqishining oldini olish va prenatal davrda virusning transmissiyasini kamaytirish uchun zamonaviy retrovirusga qarshi terapiya dasturlarini joriy etish zarurligini asoslagan.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlaidan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, OITSga chalingan bemorlarning ijtimoiy – psixologik holatini o‘rganish dolzarb psixologik muammo hisoblanadi. Mazkur izlanish bevosita shu paytgacha olib borilgan tadqiqotlarni boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev, A.N. (2022). OIVning onadan bolaga yuqishini oldini olish strategiyalari. Toshkent pediatriya instituti ilmiy jurnali.

2. Loewenstein, R.J., Sharfstein, S.S. (1983). Neuropsychiatric aspects of acquired immune deficiency syndrome. International Journal of Psychiatry in Medicine, 13(4), 255-260.

3. Mandel, J. (1986). The psychosocial challenges of AIDS and ARC. Focus, 1(2), 1-2.

4. Joseph, J.G., Emmons, C., Kessler, R.C., Wortman, C.B., O’Brien, K., Hocker, W.T., Schaefer, C. (1984). Coping with the threat of AIDS: An approach to psychosocial assessment. American Psychologist, 39(11), 1297-1302. doi:10.1037/0003-066X.39.11.1297

5. Hanson, G. (1986). Social, psychological, and ethical aspects of AIDS in children.

6. Batchelor, W.F. (1984). AIDS: A public health and psychological emergency. American Psychologist, 39(11), 1279-1284. doi:10.1037/0003-066X.39.11.1279

7. Coates, T.J., Temoshok, L., Mandel, J. (1984). Psychosocial research is essential to understanding and treating AIDS. American Psychologist, 39(11), 1309-1314. doi:10.1037/0003-066X.39.11.1309

8. Dlugosch, G., Gold, M., Dilley, J. (1986). Disclosing AIDS antibody test results. Focus, 1(8), 2-3.

9. Goldblum, P., Seymour, N. (1987). Whether to take the test: Counseling guidelines. Focus, 2(5), 1-3.

10. Grant, D., Anns, M. (1988). Counseling AIDS antibody-positive clients: Reactions and treatment. American Psychologist, 43(1), 72-74. doi:10.1037/0003-066X.43.1.72

11. Nelson, M.O., Jarratt, K. (1987). Spiritual and mental health care of persons with AIDS. Individual Psychology: Journal of Adlerian Theory, Research & Practice, 43(4), 479-489.

12. Gaines, T. (1988). Counseling in HIV testing. Professional Psychology: Research and Practice, 19(6), 656-657. doi:10.1037/0735-7028.19.6.656
13. Sherr, L., Hedge, B. (1990). The impact and use of written leaflets as a counselling alternative in mass antenatal HIV screening. AIDS Care, 2(3), 235-245. doi:10.1080/09540129008257736
14. Hicks, D., Rundell, J. (1996). HIV testing and counselling. International Review of Psychiatry, 8(2-3), 177-184. doi:10.3109/09540269609046302
15. Sherr, L., Davey, T., Strong, C. (1991). Counselling implications of anxiety and depression in AIDS and HIV infection: A pilot study. Counselling Psychology Quarterly, 4(1), 27-35. doi:10.1080/09515079108254426
16. Miller, R., Bor, R., Salt, H., Murray, D. (1991). Counselling patients with HIV infection about laboratory tests with predictive values. AIDS Care, 3(2), 159-164. doi:10.1080/09540129108253058
17. A.KT. UNAIDS (2022). Global HIV & AIDS statistics — Fact sheet. Retrieved from https://www.unaids.org
18. Myers, T., Worthington, C., Haubrich, D.J., Ryder, K., Calzavara, L. (2003). HIV testing and counseling: Test providers' experiences of best practices. AIDS Education and Prevention, 15(4), 309-319. doi:10.1521/aeap.15.5.309.23821
19. Herek, G.M. (1987). The social context of an epidemic. PsycCRITIQUES, 32(12), 1004-1007. doi:10.1037/026573
20. Macks, J. (1986). The Paris AIDS conference: Psychosocial research. Focus, 1(10), 1-2.
21. Ilyin, E.P. (2009). Эмоции и чувства: структура, функции, выражение. Санкт-Петербург: Питер.
22. Polivanova, T.V. (2005). Психология стигматизации и социальной изоляции больных ВИЧ/СПИДом. Москва: Институт психологии РАН.
23. Sidorova, I.V. (2012). Семейно-психологическая поддержка ВИЧ-положительных лиц в процессе социальной адаптации. Санкт-Петербург: Речь.
24. Kadirjanova, A.K. (2017). Гендерные аспекты психосоциальной поддержки женщин, живущих с ВИЧ в Центральной Азии. Алматы: Казахстанский институт социальных исследований.
25. Kinyanda, E., Levin, J., Nakasujja, N. (2011). Psychiatric disorders and psychosocial correlates of high HIV-risk sexual behaviour in Uganda. AIDS, 25(6), 855–864.
26. Sobirova, M.A. (2018). OITS bilan yashovchilarda psixologik salomatlikni saqlash.
27. Xudoyberdiyeva, D.A. (2019). OITSga oid stigma va uning psixologik oqibatlari.
28. Qodirov, B.X. (2020). Stress va emotsional moslashuv: OITS kontekstida.
29. Rajabova, N.M. (2021). Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hayot sifati: OITS bemorlari misolida.
30. Qurbonova, O.T. (2020). OITS bilan yashovchilarning oilaviy munosabatlari va psixologik holati.

RANG SIMVOLIKASINING TARIXIY-GENETIK ASOSLARI

Ro’ziyeva Mohichehra Yoqubovna,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD), professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada rang tushunchasining inson tafakkuri, arxetiplar tizimi va madaniy qatlamlar bilan uzviy bog‘liqligi izohlanadi. Ranglar psixologiyasi, falsafiy anglash metodlari, hamda tarixiy taraqqiyotdagi qiyosiy tahlillar orqali ranglarning ramziy mazmunlari ochib beriladi. Turli xalqona tushunchalar, diniy e’tiqodlar, mifologik obrazlar bilan bog‘liq misollar asosida bu mavzu keng tahlil qilinadi..

Kalit so‘zlar: rang, mifologiya, ramziylik, totemistic qarashlar, e’tiqodiy munosabat, oq rang, qora rang, qizil rang, simvolika

Kirish. Rang simvolikasi insoniyat tafakkuri va madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, uning ildizlari qadimgi mifologik tasavvurlar, diniy e’tiqodlar, xalq og‘zaki ijodi va urf-odatlariga borib taqaladi. Turkiy xalqlar madaniyatida ranglarning ramziy mazmuni chuqur ildiz otgan bo‘lib, ular orqali kishilar tabiat, jamiyat va olam haqidagi tasavvurlarini ifoda etganlar. Masalan, oq rang poklik va muqaddaslikni, qora rang esa g‘am, iztirob va ba’zan salbiy kuchlarni bildirgan. Bu ranglar faqatgina tashqi ko‘rinish emas, balki ichki ma’no va estetik yuklamalarga ega bo‘lgan. Shuningdek, Farobiy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkir olimlar ranglarning til va madaniyatdagi o‘rnini alohida ta’kidlaganlar.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham rang ramzlari poetik tafakkur, folklor, va diniy-ma’naviy meros bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Rang tushunchasi insoniyat tafakkurining ilk bosqichlaridanoq paydo bo‘lgan bo‘lib, uning semantikasi eng qadimiy ramzlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Ranglar mifologik ongda fazoviy, vaqt va energetik tasavvurlar bilan aloqador bo‘lgan holda, arxaik jamiyatlar dunyoqarashida markaziy o‘rin egallagan. Antropologik va mifologik tahlil orqali ranglarning tub ma’nosi, ularning qadimiy dunyoqarashdagi o‘rni, funksiyasi va arxetipik mazmunlari ochib beriladi. Qadim zamonlardan boshlab insoniyat tabiat hodisalaridan ilhomlangan. Xuddi shunday, turli xil ranglar, gullar va bezaklar ham inson diqqatini jalb etgan. Insonlar ranglarda nafaqat estetik go‘zallikni, balki ma’naviy zavqni ham ko‘ra boshlaganlar. Vaqt o‘tishi bilan ranglar insonlar ongida ma’naviy va ramziy mazmun kasb eta boshlagan. Shunday qilib, boshqa ko‘plab xalqlar singari turkiy xalqlar ham qadimdan ranglarga ramziy va milliy-ma’naviy qiymat bergan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rang xalq madaniyatining asosiy, doimiy va zarur elementlaridan biri bo‘lib, uning arxetipik va milliy tusga ega konseptlar tizimini shakllantirish, o‘zlashtirish va xotirada saqlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ranglar vaqt o‘tishi bilan murakkab ma’no qatlamlariga ega bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlar rangga nisbatan semantika, ramziylik, axborot bahosi, obraz, mif, belgi kabi tushunchalar tahliliga asoslanmoqda. Rang endi shunchaki fizik hodisa emas, balki chuqur mazmunga ega ramziy g‘oyaga aylangan.

Turk tarixida ranglarning ramziy ma’nosi ilk bor g‘arbiy turkolog olimlar e’tiboriga tushgan. Masalan, venger olimi professor A. Alfoldi, nemis turkologi Annemarie von Gabain va yana bir nemis turkologi I. Lude-Cirtautas, mashhur adib Gyote bu mavzuni keng yoritganlar .

Turk va mo‘g‘ul xalqlari orasida dunyoni to‘rt yo‘nalishga ajratish va ularni muayyan ranglar bilan belgilash qadimiy kosmologik qarashlarning ajralmas qismi bo‘lgan. Gabainning yozishicha, turklarning qarashlariga ko‘ra:

- Sharq — yashil yoki ko‘k (osmon),
- G‘arb — oq,
- Janub — qizil (al-qizil),
- Shimol — qora,
- Markaz — sariq.

Bu g‘oya Xitoyda, Turkiston va Mo‘g‘uliston madaniyatida, shuningdek, qadimgi mayya,

rim, yunon va misr sivilizatsiyalarida ham mavjud bo‘lgan, ammo har bir xalq o‘ziga xos talqinda ifoda etgan.

Mo‘g‘ullarda va boshqa ko‘chmanchi xalqlarda ertalabki marosimlarda to‘rtta asosiy yo‘nalishga qarab tabiat unsurlariga (olov, suv, havo, yer) sajda qilish marosimi bo‘lgan. Ba’zi qabilalar shimoliy qutb tomonida “osmonning yaxshi va yomon tomonlari” mavjud deb hisoblashgan. Besh rangli bayroq tasmalari (yashil, oq, qizil, qora va sariq) bu qarashlarning timsoli sifatida qad rostlagan. Mo‘g‘ullarda va xitoyliklarda osmon tangrisi timsoli sifatida “besh rangli bayroq” urf bo‘lgan. Shuningdek, tarixda mashhur Mo-tun shohi:

- G‘arbga — oq otlar bilan,
- Sharqqa — ko‘k otlar bilan,
- Shimolga — qora otlar bilan,
- Janubga — qizil otlar bilan yurish qilgani tarixiy manbaalar orqali yetib kelgan .

Qadimgi turklar ranglar va yo‘nalishlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik ko‘rganlar. Ranglar geografik joy nomlarida ham o‘z aksini topgan. Masalan, Qora dengiz (shimolda), Oq dengiz (g‘arbda) deb nomlangan.

Osmonning to‘rtta yo‘nalishi, ularning ranglari va har bir yo‘nalishdagi elementlarga e’tiqod nafaqat Xitoyda, balki ko‘chmanchi turk xalqlarida ham mavjud bo‘lgan. Islomgacha bo’lgan davrda har kuni ertalab olov, suv, havo va vafot etgan ruhlar yo‘nalishlariga qarab ta’zim qilish marosimi bo‘lgan. Ko‘chmanchi turkiylar bayroqlarida ham beshta rang — yashil, oq, qizil, qora va sariq — hamisha alohida ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Bu ranglar dunyo yo‘nalishlariga muvofiq ma’nolar anglatgan. Turk xalqlari mifologiyasida ranglar shunchaki estetik vosita emas, balki siyosiy, diniy va ko‘p qatlamli ramziy vosita sifatida qabul qilingan. “Oq Ota”, “Ko‘k Tengri”, “Qora Yer”, “Qora momo”, “Qizil Ona” kabi obrazlarda ranglar nafaqat tashqi ko‘rinish, balki kosmogonik g‘oya sifatida mavjud. “Devonu lug‘at at-Turk”da yuqoridagi ma’lumotlarga o’xshash ammo katta o’ zgacha tasnif berilgan, ya’ni oq — Sharq, qizil — Janub, ko‘k — Shimol, qora — G‘arb deb tasniflangan, markaz esa sarg‘ish rang bilan belgilangan (bu yer — inson markazi, ya’ni hayot o‘qi). Ranglarning to‘rt muqaddas yo‘nalish bilan bog‘lanishi — qadimgi turk dunyoqarashida dunyo modeli yaratish mexanizmining bir qismidir. Bu model shamanistik va diniy asoslarga tayanadi. Ammo e’tiqodiy nazariyalar turkiy va Yevropa xalqlari rang bilan bog’liq qarashlarini shakllantirgani sabab turf axil yondashuvlar shakllangan. Bu har bir millat madaniyati bilan bog’liq holda farqliliklarni keltirib chiqargan. Ranglar diniy-falsafiy tafakkurda chuqur ma’no kasb etgan bo‘lib, har bir din va e’tiqod tizimida ular ilohiy haqiqatni anglash, ruhiy tozalanish, kosmik kuchlar bilan bog‘lanish ramzi sifatida xizmat qilgan. Islom, shamanizm, buddizm, xristianlik va boshqa e’tiqodlarda ranglarning tasavvufiy va arxetipik mazmuni chuqur ildizlarga ega.

Islom dinida ranglar Qur’on oyatlari, hadislar va tasavvufiy tafsirlar orqali ramziy mazmun kasb etgan. Yashil rang – Qur’onda jannat libosining rangi sifatida qayd etilgan: “Ular jannatda yashil ipak va atlas liboslar kiyib o‘tirurlar…” (al-Insān, 76:21). Bu rang muqaddaslik, hayot, yangilanish, baraka timsoli sifatida tasavvufda keng qo‘llaniladi .

Oq rang esa, hadislarda poklik va halollikning ramzi sifatida tilga olinadi. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) bunday deganlar: “Oq libos kiyinglar, chunki u tozalikka eng mos keladi va o‘liklaringizni ham oq matoga o‘ranglar”. Shu bois, Islom marosimlarida – xususan, haj libosida (ihram), janoza marosimlarida va namoz vaqtida oq kiyim afzallik sifatida baholanadi.

Qora rang islomiy e’tiqodlarda ikki xil mazmunga ega: bir tomondan, Ka’ba yopinchig’I rangidir va bu hurmat, himoya, tavoze timsolidir; boshqa tomondan, Qur’on va hadis tafsirlarida u ayrim hollarda zulmat, gunoh, jahannam ramzi sifatida ham talqin etiladi.

Tasavvufda esa ranglar orqali ruhiy maqomlar ifodalanadi. Misol uchun, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshbandiy kabi mutasavviflar o‘z asarlarida ranglarni qalb poklanish bosqichlari bilan bog‘laydi: qora – johillik, oq – ma’rifat, yashil – haqiqat va yuksalish

belgisi. Tasavvufda “Anvori sab’a” tushunchasi mavjud, u – yetti turli rang. Bu ranglar nafsning poklanishi, bir martabadan ikkinchisiga yuksalishini aks ettiradigan va solikning siyratida paydo bo‘ladigan moviy, sariq, qirmizi, qora, yashil va oq ranglardir. Anvori sab’aning oxiri rangsizlik, ya’ni shaffof nur hisoblanadi.

Najmiddin Kubroga ko‘ra esa, zangori rang solikning tavba yo‘liga kirib, shariat qonun-qoidalariga to‘la amal aylash nishonasi. Sariq rang qalbda muhabbat hissining uyg‘onishi, Ollohga yaqinlik belgisi. Qizil rang ruhning yuksalishi va ma’rifat shavqining ochilish timsoli. Oq rang qalbning musaffolashuvi. Yashil rang esa ko‘ngilning g‘ayb olami go‘zalliklariga g‘arq bo‘lishi. Haqdan xalqqa qaytish holining ramzi – bu qora rang. Yana Kubro tasnifi bo‘yicha, oq rang – islomni, sariq rang – iymonni, zangori rang – ehsonni, yashil rang – ishonchni, ko‘k rang – iqon (to‘la ishonch) ni, qizil rang – irfonni, qora rang hayrat holini aks ettiradi.

Ruh ham shaklan goh qirmizi, goh sariq, goh qora, ba’zan oqqa burkanib, turli turli rangda ko‘ringanda moddiylikni tamsil etgan. Shuning uchun atvori sab’a tushunchasi barcha ulug‘ so‘fiy va mutasavvuf shoirlar singari Navoiy she’riyatida ham mushohada yuritishni aks etti rgan.

Alisher Navoiyning «Nasoim-ul muhabbat» asarida Shayx Saididdin Farg‘oniyning «Xirqa nisbati ikkidur: biri irodat xirqasi va ani bir shayxdin o‘zgadin olmoq ravo emas va yana biri tabarruk xirqasi. Va ani ko‘p mashoyixdin tabarruk uchun olmoq ravodur», degan fikrlari keltirilgan. Xirqaning rangi qora, ko‘k (moviy) va oq bo‘lgan. Tariqatga yangi kirganlar – qora, ma’lum bir darajaga yetishganlar – moviy, sayri sulukni nihoyasiga yetkazganlar oq rangdagi xirqa kiyishlari bir odatga aylantirilgan bo‘lsa-da, xirqapo‘shlikda moviy rangning nufuzi ancha ustun bo‘lgan.

Hujviriy «So‘fiylarning kiyimlari ko‘pincha moviy rangdadir», so‘zining ma’nosini quyidagicha izohlaydi:

1. So‘fiylar tutgan yo‘l safar va sayohatga asoslangandir. Oq rangdagi kiyim safarda tez kirlanar.

2. Moviy kiyishning ikkinchi bir ma’nosi (fursatni boy berganlarning) boshiga tushgan musibatlar va dardlariga ishoratdirki, «dunyo – falokatlar o‘lkasi, musibatlar xarobasi, g‘am sahrosi, hijronda o‘rtanganlarning iztirob joyi va balo qal’asi erur. Muridlar va iroda sohiblari ko‘ngil murodlarining dunyoda hosil bo‘lmasligini ko‘rib - bilganlari uchun moviy kiymishlar...»

3. Boshqa bir guruh so‘fiylar bo‘lganki, ular muomala va amallarini qusurdan, ko‘ngil buzuqliklaridan, vaqtni behuda isrof qilishdan muhofaza eta olmaganlar. Shu bois ular moviy xirqani ustlaridan tashlamaganlar .

Shamanizmda ranglar ruhlar bilan aloqa, marosimiy kuchlar va ko‘p bosqichli olamlarning (yuqori, o‘rta va past) belgilari sifatida xizmat qiladi. Sibir, turkiy va mo‘g‘ul xalqlari orasida oq rang yuqori osmon olami, ko‘k – osmon tangrisi, qizil – olov va qurbonlik, qora – yerosti dunyosi bilan bog‘liqdir .

Shamanlar kiyimida turli rangdagi tugmalar, tasma va belbog‘lar maxsus semantik vazifani bajaradi. Masalan, qora tasmalar o‘liklar ruhiga yo‘l ochadi, oq esa muqaddas ruhlarni chaqirish uchun ishlatiladi. Bu ranglar marosimning turiga, niyatiga va ruhiy maqomga qarab tanlanadi.

M.Eliade shamanizmda ranglar “transandent olamlar bilan bog‘lovchi kodlar” ekanini ta’kidlab, ranglar orqali shaman yuqoriga yoki pastga safar qiladi, deb yozadi7.

O‘zbek xalq eposlari, to‘y marosimlari, xalq qo‘shiqlari va maqollarida ranglar keng qo‘llaniladi. Masalan, oq — poklik, halollik, navqironlik; qora — qayg‘u, og‘ir sinov, kuch; qizil — muhabbat, hayot; moviy — osmon va bardavomlik ramzi sifatida talqin etiladi. Xalq orasida mashhur “oq niyat”, “qora kun”, “qizil gullar” iboralari buni tasdiqlaydi.

Shuningdek, Sh. Turdimov o‘z tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodida ranglar “asosiy poetik ramzlar” tizimining yadrosi ekanligini isbotlagan. Uning tasnifiga ko‘ra, oq, qora, qizil ranglar doimiy ramziy markaz hisoblanadi, qolgan ranglar esa vaziyatga qarab talqin qilinadi .

Boshqirdlar an’anaviy kiyim va naqshlarida ranglar ijtimoiy maqomni bildiradi. Qizil – quvvat,

kurash, quvonch; ko‘k – osmon va ruhiyat; oq – poklik va ota-bobolar ruhi bilan bog‘liqdir.

Boshqird tadqiqotchisi R. Ishmuratova yozadi: “Ranglar boshqird xalq og‘zaki ijodida muayyan qadriyatlar bilan kodlangan: masalan, ko‘k nafaqat osmonni, balki erk, erksevarlikni bildiradi”

Uyg‘ur madaniyatida ranglar

Uyg‘urlar orasida ranglar tasavvufiy va an’anaviy islomiy kontekst bilan bog‘liq. Yashil — payg‘ambarlar rangi, oq — axloqiy poklik, qora esa tarixiy sinov va muqaddas tuproqni anglatadi. Uyg‘ur adabiyotida esa bu ranglar ko‘pincha obrazlar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llaniladi.

Tadqiqotchi Y. Abdurehimning yozishicha, uyg‘ur xalq eposlarida qizil rang – fidoyilik va sevgi, oq – sabr va najot, qora – qiyin hayot sinovlarining markaziy ramzidir7.

Muhokama. Turk xalqlarining ranglarga bo‘lgan munosabati oddiy estetik diddan ancha ustun turadi. Ranglar orqali:

- Kosmik tuzum (dunyo yo‘nalishlari),
- Milliy o‘zlik (bayroqlar, kiyimlar, urf-odatlar),
- Diniy tushunchalar (shomonizm, islom),
- Jamiyat ierarxiyasi (harbiy martaba, hukmdorlik belgisi),
- Milliy g‘urur (timsol, shior, bayram va ramzlar) ifodalangan. Ranglar turkiy xalqlar tarixida madaniy uzviylik va izchillikni saqlagan holda katta ma’no tashuvchi vosita hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda ham turkiy xalqlar ranglar vositasida o‘z tarixiy ildizlarini va qadimiy madaniyatini anglaydi.

Masalan, yashil rang qadimdan hayot, o‘sish, bahor, tabiat uyg‘onishi, baraka ramzi hisoblangan. Xalq qo‘shiqlarida yashil rang turli kontekstlarda qo‘llanadi:

- Yashil bog‘, yashil o’tloq,yer (o‘rmonzor) — bu joylar ko‘pincha voqea boshlanadigan muhit, qahramonlar harakati fonida paydo bo‘ladigan sahna sifatida xizmat qiladi.
- Yashil barg, yashil tok — sevgi, yoshlik va orzu-umidlar belgisi.
- Yashil belbog‘ — erkak obrazida kuch-quvvat, yangi hayot, kuchli jins ramzi.

Bu rang hayotiylik bilan bog‘liq bo‘lib, tabiiy energiyani anglatuvchi qadriyatlar bilan uyg‘unlashadi.

2.2. Qizil rang

Qizil rang folkloriy tafakkurda ikki asosiy qutbda talqin qilinadi:

- Ijobiy: go‘zallik, muhabbat, tantana (masalan: qizil qiz, qizil quyosh, qizil gulli ko‘ylak);
- Salbiy: xavf, qon, urush,jangu jadal, kuchli emotsional kechinmalar (masalan: qizil ko‘z yoshlari, qizil qabr toshi).

“Qizil” — qadimda “chiroyli” degan ma’noni bergan. Shu sababli, xalq ijodida qizil so‘zi go‘zallik va ezgulik sinonimi sifatida ishlatiladi.

Qo‘shiqlarda:

Toshloqda qizil gul ochildi,
Sening eslab yurakkinam ezildi.”

Bu yerda “qizil gul” — sevgi ramzidir. Aynan shu rang folklorda insoniy kechinmalar va ruhiy holatlarning tashqi ifodasi sifatida chuqur o‘rin egallaydi.

2.3. Oq rang folklorda:

- Poklik, begunohlik, sadoqat, ilohiylik timsoli;
- Nikoh va ma’sumlik, oq libos, oq ro‘mol obrazlari;
- Ba’zida esa bo‘shliq, yolg‘izlik, o‘lim bilan bog‘liq: “oq qabriston”, “oq chang” kabilar.

Folkloriy matnlarda oq rang ko‘pincha “pok yurak”, “oq ko‘ngil”, “oq ona suti” kabi qadriyatli obrazlar bilan birga keladi.

2.4. Qora rang folklor tafakkurda ko‘proq salbiy konnotatsiyaga ega:

- Motam, g‘am, yovuzlik, o‘lim belgisi;
- “Qora tun”, “qora soch”, “qora tuproq”, “qora g‘am” — chuqur ruhiy iztirobni ifodalaydi.

Ammo ba’zi hollarda:

- “Qora qahramon” – kuchli, jasur, urushchi obraz,
- “Qora ot” – harbiy jasorat, harakat, xatar ramzi.

Bu holat folklorda qora rang ambivalentligini ko‘rsatadi: salbiylik bilan birga kuch va irodani ham ifoda etadi.

2.5. Ko‘k (moviy) rang xalq og‘zaki ijodida:

- Osmon, abadiyat, ruhiy tinchlik, sokinlik ramzi;
- “Ko‘k osmon”, “ko‘k daryo”, “ko‘k ayvon” — baxt, orzular, istaklar manbai.

Shuningdek, ko‘k rang sog‘inch va ajralish semantikasi bilan ham birga keladi. Bu uning ezgulik va mung orasidagi o‘ziga xos ramz ekanligini ko‘rsatadi.

2.6. Oltin va kumush ranglar folklorda ko‘pincha:

- Ezgu, ilohiy nurlar, xalq dostonlarida sulton yoki shahzoda liboslaridagi naqshlar;
- “Oltin soch”, “kumush kamar”, “oltin yurak” – go‘zallik va yuksak fazilat ramzlari.

Bu ranglar orqali xalq o‘z idealini – mukammallik, obro‘-e’tibor va poklikni ifoda etgan.

Natijalar.

Tilshunos A. Kononov fikricha, “Devoni lug’atit turk” va “Dada Qo‘rqut”dagi ranglar nafaqat o‘sha davr tilida balki semantik barqarorlikning ham namunasi: “O‘rta asr turkiy tilida rang atamalarining har birining semantik doirasi aniqlangan va u bugungi turkiy tillarda ham deyarli o‘zgarmagan” .

Darhaqiqat, tadqiqot natijasida ko’rinadiki, turkiyzabon xalqlar bo’lgan o’zbek, qozoq ,qirg’iz, turk, boshqird, tatar va qoraqalpoq folklori namunalarida qo’llanilgan rang bilan bog’liq birikmalar, ramziy poetik obrazlar semantik nuqtai nazardan bir-birini takrorlaydi , shuningdek boyitib boradi.

Ranglar barcha turkiy xalq marosimlarida ham muhim rol o‘ynagan. Bu xalqlarning marosim, urf-odat va an’analariga singib ketgan va qiyoslaganda quyidagicha bir xilliklar uchraydi.

- To‘yda: oq va qizil – poklik va ehtirosning uyg‘unligi;
- Motamda: qora va oq – jiddiylik va muqaddaslik;
- Bahorgi marosimlarda: yashil – yangilanish;
- Hosil bayramlarida: sariq va qizil – baraka va kuch ramzi sifatida.

Shuningdek, turk xalqlar qarashlarida ranglarga nafaqat belgi, balki chuqur milliy, ma’naviy va ramziy mazmun yuklagan. Ranglar orqali dunyoqarash (kosmogoniya); e’tiqod (shamanlik va islom); tarixiy yodgorliklar (bayroqlar, kiyimlar, urf-odatlar); ijtimoiy tuzilma (martaba, daraja); madaniy davomiylik (avloddan-avlodga o‘tuvchi ma’naviy qadriyatlar) ifodalangan.

Turk xalqlari uchun ranglar:

1) mavjudlik belgisi,
2) ijtimoiy ong aks ettiruvchisi,
3) dunyo bilan bog‘lanishning ramziy ko‘rinishi

bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa. Turkiy xalqlarda rang bilan bog’liq ramziyliklar xalq tafakkurining, madaniyatining va qadimiy e’tiqodlarining boy ifodasidir. Ular nafaqat tasviriy vosita, poetik obraz, balki bilish (kognitiv), baholash (aksiyologik), madaniy qadriyatlarni yetkazish (etnolingvistik) funksiyalarini bajaradi.

Umuman olganda xalqlarning ranglarga bergan ramziy mazmuni — bu madaniyatning, tilning va xalq tafakkurining ajralmas bo‘lagi bo‘lib qolaveradi.

Xalq og‘zaki ijodida ranglar — badiiy-estetik vosita bo‘lishi bilan birga, xalqning tarixiy xotirasi, ruhiy olami va ijtimoiy ongini ifoda etuvchi muhim ramzlar tizimidir. Folkloriy matnlarda (ertak, doston, qo‘shiq, maqol) ranglar o‘ziga xos poetik kod sifatida xizmat qiladi va obrazlarning xarakterini, voqealarning ma’nosini chuqurlashtiradi.

Demak, ranglar xalq og‘zaki ijodining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va tarixiy tajribasi badiiy obrazlar vositasida aks ettiriladi. Bu

esa rang ramziyatining filologik-folkloriy tahlilini zamonaviy ilmiy izlanishlarda alohida muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aidarov G. Rang va makon: qadimgi turk tafakkuri. Olmaota, 2003. □
2. Ertaylan B. Türk mitolojisinde renk sembolleri. Ankara, 1981. □
3. Kononov A. N. Grammatika tyurkskix yazykov: opyt sravnitel’nogo opisaniya, Moskva, 1972. Kononov, A.N. Semantika cvetooboznachenij v tyurkskih yazykah // Tyurkologicheskij sbornik, 1975. — M. : Nauka, 1978. — 280 s.
4. Terner V. Simvol i ritual. – M., 1983. – 277 s.
5. Mahmud Koshg‘ari. Dīwānu lug‘āt at-Turk. Istanbul nashri, 1915.
6. Ro’ziyeva M. O’zbek folklorida rang simvolikasi. Monografiya .Toshkent: Fan, 2017.
7. Umarov O. Sharq tafakkurida ranglar ramzi. Toshkent: Ma’naviyat, 2015
8. Qur’oni Karim . al-Inson, 76:21.

RAQAMLI TA’LIM RESURSLARI YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Mardonova Ismigul Dilshod qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta’lim resurslarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kognitiv (bilish) qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Bugungi raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali bolalarning tafakkuri, xotirasi, e’tibori va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida ko‘rilmoqda. Maqolada interaktiv dasturlar, multimediali platformalar, ta’limiy o‘yinlar va virtual laboratoriyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda kreativ yondashuvlar shakllanishi muhokama qilinadi. Shuningdek, zamonaviy raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning psixologik-pedagogik asoslari yoritiladi. Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning boshlang‘ich ta’limda samarali natijalar berishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, kognitiv qobiliyat, boshlang‘ich ta’lim, interaktiv metodlar, ta’lim texnologiyalari, raqamli resurslar, tafakkur faoliyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv motivatsiyasi, vizual materiallar.

РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ

Аннотация. В данной статье освещается роль и значение цифровых образовательных ресурсов в развитии когнитивных (познавательных) способностей учащихся начальных классов. В сегодняшнем процессе цифровой трансформации развитие мышления, памяти, внимания и навыков решения проблемных ситуаций у детей рассматривается как важная задача за счет эффективного использования образовательных технологий. В статье рассматривается формирование у учащихся самостоятельного мышления, анализа проблемных ситуаций, креативных подходов посредством интеграции в учебный процесс интерактивных программ, мультимедийных платформ, обучающих игр и виртуальных лабораторий. Также будут проанализированы дидактические возможности современных цифровых средств и освещены их психолого-педагогические основы. Результаты исследования показывают, что использование цифровых образовательных ресурсов дает эффективные результаты в начальном образовании.

Ключевые слова: цифровое обучение, когнитивные способности, начальное образование, интерактивные методы, образовательные технологии, цифровые ресурсы, мыслительная деятельность, информационные и коммуникационные технологии, учебная мотивация, наглядные материалы.

DEVELOPMENT OF COGNITIVE ABILITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS USING DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES

Annotation. This article will highlight the role and importance of digital educational resources in the development of cognitive (cognitive) abilities of Primary School students. Through the effective use of educational technologies in today’s digital transformation process, the development of children’s thinking, memory, attention and skills to solve problem situations is seen as an important task. The article discusses independent thinking in students, analysis of problem situations and the formation of creative approaches through the integration of interactive programs, multimedia platforms, educational games and virtual laboratories into the educational process. Also, the didactic capabilities of modern digital tools are analyzed and their psychological

and pedagogical foundations are covered. The results of the study show that the use of digital educational resources gives effective results in primary education.

Keywords: digital education, cognitive ability, primary education, interactive methods, educational technology, digital resources, thought activity, ICT, educational motivation, visual materials.

Raqamli ta’lim resurslarining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv (bilish) qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vositaga aylandi. Bunda, interaktiv darsliklar, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar, ta’limiy o‘yinlar va multimediali dasturlar orqali o‘quvchilarda aqliy faollik, diqqat, xotira, tafakkur, muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimini raqamlashtirish yo‘nalishida muhim islohotlar amalga oshirildi. Bu borada bir qator strategik hujjatlar ishlab chiqilib, ularning asosida ta’limning barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar belgilandi.

Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi – mamlakatda raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatni shakllantirishga qaratilgan muhim konseptual hujjat bo‘lib, unda ta’lim tizimi markaziy o‘ringa ega. Mazkur strategiyada raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayonlariga keng tatbiq etish, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, pedagogik kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlar aniqlab berilgan. “Elektron universitet” konsepsiyasi oliy ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmani keng joriy qilishga xizmat qiladi. Bu konsepsiya doirasida onlayn ta’lim platformalarini yaratish, elektron kutubxonalarni rivojlantirish, shuningdek, masofaviy va gibrid ta’lim shakllarini kengaytirish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish ko‘zda tutilgan. Yana bir muhim hujjat sifatida 2019–2025-yillarga mo‘ljallangan Ta’limni raqamlashtirish dasturini alohida qayd etish mumkin. Ushbu dasturda barcha ta’lim bosqichlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o‘quv-metodik resurslarni raqamlashtirish, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha aniq amaliy tadbirlar belgilangan. Mazkur hujjatlar nafaqat umumiy yo‘nalishni belgilab beradi, balki bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan real choralarni muvofiqlashtiruvchi asosiy dasturiy-izlanma hujjatlar hisoblanadi.

Raqamli ta’limni joriy etishda asosiy e’tibor, ayniqsa, pedagogik kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Bu maqsadda zamonaviy o‘quv dasturlariga “raqamli pedagogika”, “ta’limda AKT”, “interaktiv ta’lim vositalari” kabi modullar kiritilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari, onlayn treninglar, vebinarlar, amaliy seminarlardan iborat tizimli dasturlar shakllantirilib, doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Bularning barchasi pedagoglarning texnologik savodxonligini oshirish, ularni raqamli ta’lim muhiti bilan samarali ishlashga tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining kasbiy va metodik kompetentligi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda, xususan ularning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Raqamli texnologiyalarning ta’limga jadal kirib kelishi, ayniqsa boshlang‘ich ta’limda didaktik imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Shu bilan birga, hattoki yuqori malakali o‘qituvchilar ham ko‘pincha o‘quv faoliyatida mustaqillik ko‘rsatmaydigan, asosan tayyor bilimni yod olishga intiladigan o‘quvchilarga duch kelishadi. Bunday holatlarda raqamli o‘quv vositalari, interaktiv texnologiyalar va o‘yin elementlari asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va ijodkorligini rag‘batlantirish uchun o‘qituvchilar individual ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishlari lozim. Bu strategiyalar multimedia vositalari, qo‘shimcha topshiriqlar, loyiha asosidagi yondashuv, guruhiy ishlar va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradigan uslublarni o‘z ichiga olishi kerak. Ayniqsa, raqamli resurslar yordamida taqdim etilgan muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchining o‘z mustaqil fikrini shakllantirishiga va uni ifoda etishiga zamin yaratiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich kechadi. Dastlabki bosqichda o‘quvchi o‘z faoliyatining maqsadlarini tushunish, ularga erishish usullarini tanlash, faoliyatni rejalashtirish, bajarilishini nazorat qilish va natijalarni baholashni o‘rganadi. Bu esa uni o‘z faoliyatining sub’ekti sifatida shakllanishiga olib keladi. Raqamli platformalar, ayniqsa diagnostik testlar, interaktiv mashg‘ulotlar va simulyatsion muhitlar orqali bu jarayonni soddalashtirish mumkin.

Ikkinchi bosqichda o‘quvchi ko‘proq tanish vaziyatlarda o‘z bilimlarini qo‘llay oladi. Raqamli o‘yinlar va mashqlar orqali u o‘quv vazifalarining echimini rejalashtiradi, o‘z fikrini ifodalashga harakat qiladi. Shu bosqichda motivatsiya va iroda asosiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, o‘quvchining o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

Uchinchi bosqichda o‘quvchi nostandart vaziyatlarda ham mustaqil qaror qabul qilish, muammoni tahlil qilish va mos yechim topish imkoniyatiga ega bo‘ladi. U bilimlar o‘rtasida bog‘liqlikni ko‘ra oladi, tahlil va umumlashtirish ko‘nikmalarini namoyon qiladi. Bu bosqichda o‘quvchi mustaqillik, tashabbuskorlik va yuqori motivatsiya asosida o‘z o‘quv faoliyatini tashkil eta oladi. Shu bilan birga, u raqamli texnologiyalardan o‘z maqsadlariga erishishda foydalana boshlaydi.

Kognitiv kompetensiyaning rivojlanishi uch asosiy omil — mahorat, motivatsiya va iroda — o‘rtasidagi uyg‘unlikka bog‘liq. Raqamli vositalar orqali o‘quvchilarda ushbu omillarni birgalikda shakllantirish imkoniyati mavjud. Jumladan, didaktik o‘yinlar orqali qiziqishni uyg‘otish, test tizimlari orqali o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish, animatsiyalar orqali tushunchalarni tushunarli tarzda o‘zlashtirish amalga oshiriladi.

Kognitiv kompetensiyaning rivojlanish darajalari ham aniqlashtirilgan. Past darajada o‘quvchi tayyor namunalarni ko‘chiradi va amaliyotda ularni faqat o‘qituvchi yordami bilan qo‘llaydi. O‘rta darajada esa u tanish sharoitda bilimlarni mustaqil qo‘llay boshlaydi. Yuqori darajada esa o‘quvchi o‘z ta’lim faoliyatini rejalashtiradi, murakkab muammolarni hal qiladi va yangi bilimlarni mustaqil izlaydi. Aynan raqamli muhitda bu bosqichlar soddalashtirilgan va interaktiv uslublar orqali o‘zlashtirish imkonini beradi.

O‘quvchilarda mustaqillik, faollik va mas’uliyat hissini shakllantirishda o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligining ahamiyati katta. Raqamli texnologiyalar yordamida bu hamkorlik yanada jonli va samarali bo‘ladi: virtual sinflar, onlayn loyihalar, jamoaviy muhokamalar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Shuningdek, har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. Raqamli ta’lim muhitida bu imkoniyatlar — moslashtirilgan dars materiallari, adaptiv testlar va personalizatsiyalangan mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi.

Shu tarzda, raqamli ta’lim resurslari yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning o‘quv jarayonidagi ishtirokini faollashtiradi, mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi kompetent, kreativ va mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’limiy o‘yinlarga asoslangan raqamli platformalar, xususan 3D muhitlarda yaratilgan interaktiv dasturlar (masalan, matematik o‘yinlar yoki tabiatshunoslik tajribalari) bolalarning mustaqil fikrlash, kuzatish, tahlil qilish, izchil rejalashtirish hamda xulosalash ko‘nikmalarini faol rivojlantiradi. Bu kabi vositalar o‘quvchining bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojini qo‘zg‘atib, ularni o‘z-o‘zini anglash va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Raqamli resurslar orqali olib boriladigan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nafaqat kognitiv, balki meta-kognitiv kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bu esa bolalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, bilimlarni rejalashtirish va baholash qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Ishchi xotirani kuchaytiruvchi vizual va audio materiallar, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar uchun o‘ta samaralidir, chunki ular o‘ziga xos idrok jarayonlarini faollashtirib, mantiqiy fikrlashni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biroq, ta’limda raqamli texnologiyalarni ortiqcha yoki tartibsiz qo‘llash bolalarda chalg‘ish,

diqqatning susayishi yoki mustaqil fikrlashdan ko‘ra tayyor namunani tanlashga intilish kabilarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, raqamli resurslardan foydalanishda o‘qituvchining rahbarligi, pedagogik maqsadga muvofiqligi va o‘quvchi yoshi hamda individualligini inobatga olish zarur.

Bundan tashqari, raqamli resurslar yordamida olib boriladigan guruhiy faoliyatlar ham alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda o‘quvchilar nafaqat o‘z bilimi asosida muammoni hal qilishni, balki hamkorlikda fikr almashish, bahslashish, qaror qabul qilish va bir-biriga yordam berish kabi ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni ham shakllantiradilar. Natijada, kognitiv kompetensiya chuqurroq ildiz otadi va har tomonlama rivojlanish yuz beradi.

Shuningdek, raqamli ta’lim resurslari o‘quvchilarda tashabbuskorlik, ijodkorlik, mustaqillik, bilimga chanqoqlik kabi shaxsiy fazilatlarni ham tarbiyalaydi. Bu orqali o‘quvchilar oddiy bilim egallovchisi emas, balki faol o‘rganuvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi va zamonaviy bilimlarni hayotga tatbiq eta oladigan ijodiy shaxs sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizzoda Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 216 b.

2. To‘rayeva D.A. Ta’limda motivatsiya va uning o‘rni. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 156 b.

3. Karimov I.A. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Sharq, 2016. – 200 b.

4. Usmonova Sh.R. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini rag‘batlantirishda zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 132 b.

5. Xodjayeva M.S. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning faolligini oshirish usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 180 b.

6. Toyirova D.S. Educating the skills of using digital technologies in students of junior school age // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2024. – №2. – B. 33–36.

7. Ruzimatov J. The role of using digital educational technologies in methodical training of future primary school teachers // Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali. – 2024. – 4(3–2). – B. 109–113.

8. Rozimatov J. Enhancing the methodology for utilizing digital educational technologies among future primary school teachers (using natural science as an example) // Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali. – 2023. – 3(12–2). – B. 11–13.

9. Abduqodirov A.A., Umarova G.U. Boshlang‘ich sinflarda informatika elementlarini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 144 b.

10. Mo‘minov D.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kompyuter savodxonligini shakllantirish // Educational Research in Universal Sciences. – 2021. – №1. – B. 25–29.

Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan 2020 yil 6 oktyabrda o'
Jurnal har oyda bir marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexanika, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materi-allarni o‘z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O‘zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi-izlanuvchilari.

Jurnalning kalit so‘zlari:

Oliy pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya,O‘zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimi; ta’lim jarayoni; ko‘p madaniyatli va mintaqaviy ta’lim; III Renessans, XXI asrdagi ta’lim; ta’lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustu-vorliklari; ta’lim sifatini monitoring qilish; uzluksiz pedagogik ta’lim tizimi; ta’lim dasturlari; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari; o‘qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta’lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882
Bosh muharrir: B.B.MA’MUROV

Bosishga ruxsat etildi: 10.02.2025 y.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.
Buyurtma raqami №0324
«FAN VA TA’LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar.
https://interscience.uz/ saytida joylashtirildi